



O‘ZBEKISTONNING TANIQLI OLIMLARI

2024

O'ZBEKISTONNING
TANIQLI
OLIMLARI

ENSIKLOPEDIYASI

2024



O‘ZBEKISTONNING TANIQLI OLIMLARI ENSIKLOPEDIYASI 2024-YIL TO‘PLAMI



Toshkent 2024



Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g‘oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo‘q.

Faqat ilm va ma’rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz.

Shavkat Mirziyoyev
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UDK: 030

KBK: 94

O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 2024, - Toshkent: 2024. Science and Innovation. 474b.

Ushbu ensiklopediyada yurtimizning yetakchi olimlarining ilmiy faoliyati va yutuqlari aks etgan biografialari jamlangan. Ensiklopediyada chop etilgan olimlar biografialari **taniqliolimlar.uz** platformasida va **wikipedia.org** onlayn ochiq ensiklopediyasida ham joylashtirilgan.

Ensiklopediya keng kitobxonlar o‘qishi uchun mo‘ljallangan.

Loyiha rahbari

Rustamov Baxtiyor Normamatovich

ISBN 978-9943-9640-0-6

© “Science and Innovation” MChJ, 2024



ASQAROV AHMADALI

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, O‘zRFA akademigi, tarix fanlari doktori, professor

Ahmadali Asqarov 1935-yil 25-sentabrda Namangan viloyati, Norin tumanida dehqon oilasida tug‘ilgan. Uning mehnat faoliyati 66 yilni tashkil etadi va 1957-yildan buyon O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimida ishlab kelmoqda.



Asqarov mamlakatimizning yetakchi arxeolog va tarixchi olimlaridan hisoblanadi. U 1957-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Instituti tarix-filologiya fakultetining tarix bo‘limini tamomlab, Respublika Fanlar akademiyasining Tarix va

Arxeologiya institutiga aspiranturaga qabul qilingan. 1963-yilda “Zarafshon daryosi etaklari bronza davrida” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Keyinchalik O‘zbekiston FA Tarix va Arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutida kichik ilmiy xodim (1961-1963), so‘ngra katta ilmiy xodim (1963-1966), keyinroq arxeologiya yo‘nalishi bo‘yicha direktor o‘rinbosari (1966-1970) lavozimlarida xizmat qilgan. 1970-1987-yillarda O‘zbekiston FA Arxeologiya instituti direktori lavozimida faoliyat yuritgan.

Asqarovning ilmiy-tashkilotchilik qobiliyati va arxeologiya fanida erishgan yutuqlari uni avval (1984 y.) O‘zR FA muxbir a‘zosiga, keyin (1987 y.) esa akademiyani haqiqiy a‘zoriga saylanishiga olib keldi. Akademik Asqarov 1987-1992 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limining akademik-kotibi, Akademiya prezidiumi

hay’ati a’zosi bo‘lib ishladi. 1991 yildan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti direktori, 1994 yil iyulidan 1998 yil mart oyigacha O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidiumi a’zosi, tarix, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘limining raisi vazifalarida ishladi.

Ahmadali Asqarov Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1985). 1992-yilda “Mustaqillik” esdalik nishoni bilan taqdirlangan. 1993-yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining 60 yillik nishonini olgan. 1995-yilda T.N.Qori-Niyoziy nomidagi medal bilan taqdirlangan va “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” faxriy unvonini olgan. 2023-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlangan.



A. Asqarov 600 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, shu jumladan 20 ta monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalari muallifi. Shulardan 60 dan ortiq xorijiy tillarda (ingliz, fransuz, nemis, yapon, fors, xitoy) 200 ga yaqini rus tilida chop etilgan. Ilmiy yo‘nalishining kengligi: qadimgi shaharsozlik madaniyati va ilk davlatchilikning shakllanish jarayonlari; O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi; arxeologik manbalar dolzarb tarixiy muammolar yechimi xizmatida; Oriylar muammosi va uning tarixiy — arxeologik tahlili; arxeologiya fanining ilmiy uslubiy va nazariy masalalari; noyob arxeologik yodgorliklarni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish bobida ilmiy — amaliy g‘oyalar ijodkori.

Ilmiy-pedagogik faoliyati doirasida, akademik Ya.Ğ. Ğulomov o‘zbek arxeologik


ilmiy maktabining izchil davomchisi bo‘lgan. U yoshlarning ilmiy mafkuraviy, ma’rifiy va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda ibratli murabbiysi hisoblanadi va 40 ga yaqin shogirdlari fan nomzodi va doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan.



Ahmadali Asqarov xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ham ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Jumladan, 1991 yil bahor oyida Alma-Ata shahrida bo‘lib o‘tgan YUNESKOning seminar kengashida amerikalik professor Richard Fry bilan birgalikda Markaziy Osiyo tadqiqotlari institutini tuzish g‘oyasini ko‘tarib chiqqan. Bu markaz Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston kabi mustaqil yosh davlatlarni jahon sivilizatsiyasidagi tarixiy o‘rmini o‘rganishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Bu taklifga Ahmadali Asqarov Alma-Ata, Parij, Tehron, Samarqand shaharlarida bo‘lib o‘tgan YUNESKO yig‘inlarida xalqaro ilmiy jamoatchilik e’tiborini qaratib bu g‘oyani himoya qilib chiqqan. Nihoyat 1995 yil 5 iyulda Samarqandda 12 davlat vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada “Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti” ochilishi haqida bitim imzolangan. 1995 yil 26 avgustda esa ushbu xalqaro Institutni YUNESKOning bosh rahbari prof. Federiko Mayor ishtirokida rasman ochilish tantanasi bo‘lgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston arxeologlari Fransiya, AQSH, Yaponiya, Germaniya, Polsha, Rossiya kabi o‘ndan ortiq davlatlar arxeolog mutaxassislari bilan hamkorlikda bevosita ilmiy shartnomalar asosida mustaqil O‘zbekistonimiz hududlarida arxeologik qazishma ishlarini olib boradi, xalqimiz

o‘tmish tarixining yangidan-yangi qirralarini o‘rganish davom etmoqda. Ushbu hamkorliklar tufayli har yili o‘nlab arxeolog yoshlar xorijiy ilmiy safarlarda bo‘lishib, mustaqil O‘zbekistonimiz arxeologiya fani yutuqlarini targ‘ib qilish bilan birga jahon arxeologiyasi yangiliklari bilan tanishib kelmoqdalar.



Ahmadali Asqarov nomi jahonda tanilgan arxeolog-tadqiqotchilar qatoriga kiradi va u prof. Clare Smith tashkil etgan 11 jildlik “Global Archaeology Encyclopedia”ga kiritilgan. 2014 yilda ushbu ensiklopediyada u haqda maqola bosilgan. Bu nufuzli ensiklopediyaga o‘zbek arxeologlari vakilining birinchi bor kiritilishi mustaqil O‘zbekistonda arxeologiya faniga berilgan yuksak bahodir deb hisoblaymiz.



Bu tinib-tinchimas olim 2015 yildan hozirgacha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti, hozirda esa Milliy Arxeologiya Markazining “O‘zbekiston Arxeologiyasi” jurnali tahririyat a‘zosi; 2017 yil 1-yanvardan hozirgacha Respublika Prezidentining maxsus qarori asosida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti ilmiy ishonchli vakili. Unga yuklatilgan vakolatga ko‘ra Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti iqtidorli talabalari magistr va yosh tadqiqotchilarga jamoatchilik asosida maslahatchi ustoz va murabbiy; 2017 yildan hozirgacha O‘z.FA Arxeologiya instituti, hozirda Milliy Arxeologiya Markazi qoshidagi fan nomzodi (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalari beruvchi ilmiy kengash a‘zosi; 2017 yildan hozirgacha O‘z.FA Arxeologiya instituti, hozirda Milliy Arxeologiya Markazi qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan ilmiy seminar a‘zosi; 2017 yildan hozirgacha Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti qoshida faoliyat ko‘rsatuvchi “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ularni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi” bo‘yicha ilmiy seminar raisi; 2017 yildan hozirgacha Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti “Ilmiy axborotlari” ilmiy-nazariy jurnali tahririyat a‘zosi; 2016-2017 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU qoshida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan fan nomzodi (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalari beruvchi ilmiy kengash a‘zosi; 2016-2017 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU qoshida faoliyat ko‘rsatib fan nomzodi (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalari beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi; 2018 yildan hozirgacha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti qoshida faoliyat ko‘rsatib fan nomzodi (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalari beruvchi ilmiy kengash a‘zosi; 2018 yildan hozirgacha Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti qoshidagi xorijiy tillar akademik litseyida jamoatchilik asosida O‘zbekiston tarixining dolzarb tarixiy ma‘lumotlar bilan qurollantiruvchi yoshlarning ustoz va ilmiy murabbiysi; 2018-2019 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining arxeologiya fan yo‘nalishi bo‘yicha “ilmiy-texnik kengash” raisi; 2023 yildan boshlab “Markaziy Osiyo tarixi” xalqaro ilmiy jurnali bosh muharriri.



ABDUHALIMOV BAHROM ABDURAHIMOVICH
Tarix fanlari doktori, professor

Bahrom Abdusalimov 2016 yilda “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni, 2020 esa yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan. Umumiy mehnat staji — 42 yil.



Hozirda O‘zR FA Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi bo‘yicha vitse-prezidenti va Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zR FA Sharqshunoslik instituti direktori vazifalarida ishlab kelmoqda. Mehnat faoliyatini 1981-1983 yillarda Liviya Arab Respublikasida arab tili tarjimonligidan boshlagan. 1983-1987 yillarda

Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi, 1987-1990 yillarda harbiy xizmatni Yaman Arab Respublikasida harbiy tarjimon vazifasida o‘tagan.

Bahrom Abdurahimovich Abdusalimov 1990-2002 yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim, 2002-2003 yillarda direktor o‘rinbosari, 2003-2004 yillarda Toshkent shahridagi Vestminster universitetining prorektori, 2004-2006 yillarda Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti direktori, 2006-2008 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining millatlararo munosabatlar masalalari va din ishlari bo‘yicha Davlat maslahatchisi lavozimlarida ishlagan. 2008 yildan Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida direktor, 2011 yildan Fanlar akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi bo‘yicha vitse-prezidenti, 2020 yildan 2024 yilgacha O‘zbekiston “Adolat”

SDP Siyosiy Kengashi raisi lavozimlarida faoliyat yuritib kelgan.

Bahrom Abdulrahimovich Abduhalimov Markaziy Osiyo tarixi, fan tarixi, islom, sharq qo‘lyozma asarlari, arab davlatlari, arab tili sohalari bo‘yicha yirik mutaxassis.



1994 yil 3 iyunda O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoshidagi doktorlik himoyalari kengashida “Xoji Xalifaning “Kashf az-Zunun” asari Movarounnahr va Xuroson aniq fanlari tarixi bo‘yicha manba sifatida” mavzusida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun dissertatsiya himoya qilgan.



2001 yil 9 noyabrdagi O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda tabiiy fanlar)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olgan. 29.03.2012 yilda “Tarixiy manbashunoslik” ixtisosligi bo‘yicha katta ilmiy xodim lavozimi berilgan.

B.A. Abduhalimov 2004-2005 yillar davomida hamda 2007 yilning ikkinchi

semestrda Toshkent davlat sharqshunoslik institutining “Sharq falsafasi va madaniyati” kafedrasida “Sharq falsafasi” ta’lim yo‘nalishida “Sharq xalqlarining madaniy aloqalari” fanidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tgan. “Sharq falsafasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari malakaviy ishlariga; “Zamonaviy Sharq falsafasi va tarixi” mutaxassisligi magistrantlarining magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilgan. B.A. Abduhalimov kafedraning O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari doirasida talaba va magistrantlarga jamoatchilik asosida ilmiy maslahatchilik faoliyatini ham olib borgan.



B.A. Abduhalimov Toshkent islom universitetida “Markaziy Osiyo fani va madaniyati tarixi”ga oid maxsus kurslar o‘qigan, bakalavr diplom ishlariga rahbarlik qilgan. U Toshkent islom universiteti tarafidan chop etilgan “Yurtimiz allomalari” (9-sinf) to‘plam-darsligining mualliflaridan biridir. Ayni vaqtda Toshkent islom universitetida qator yillar davomida bitiruv imtihoni komissiyasining raisi sifatida ham faoliyat yuritib kelgan.

B.A. Abduhalimov O‘zbekistonda Mirzo Ulug‘bek (1994), Amir Temur (1996), Ahmad Farg‘oniy (1998), Xorazm Mamun akademiyasi (2006), O‘rta asr Sharq allomalari (2014), Markaziy Osiyo renessansi(2017)ga bag‘ishlangan yirik xalqaro konferensiya, ushbu yo‘nalishlarda xorijiy davlatlar Oksford (1997), Rim (2001), Kembrijdj (2002), Anqara (2009), Tokio (2010), ar-Riyad (2012), Seul

(2014, 2015), Leydenda (2016) tashkil etilgan ko‘plab xalqaro anjuman va seminarlarning faol ishtirokchi va tashkilotchilaridan hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlari natijalari 100 dan ortiq ilmiy maqola, risola va monografiyalarda o‘zbek, rus, ingliz va arab tillarida e‘lon qilingan.

B.A. Abduhalimov yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ishiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. U Respublika va xalqaro miqyosda tan olingan o‘z ilmiy maktabiga ega. Hozirga qadar uning rahbarligida 3 ta fan doktori, 1 ta fan nomzodi, 1 ta falsafa fanlari bo‘yicha PhD himoya qilgan, 1 doktorant va 3 tadqiqotchi o‘z dissertatsiyalari ustida ish olib bormoqda.

B.A. Abduhalimov “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” hamda O‘zR FA ShIning “Meros” jurnalining bosh muharriri, “O‘zbekiston tarixi” va Janubiy Koreyada va Misr Arab Respublikasida nashr qilinadigan “Acta Via Serica” va “Madaniy Meros” jurnallarining tahririyat a‘zosisidir.

Abduhalimov Bahrom Abdurahimovich katta ilmiy tajribaga ega. B. Abduhalimov Sharqshunoslik institutidagi ilmiy faoliyatini “Yozma yodgorliklarni o‘rganish va nashrga tayyorlash” bo‘limida kichik ilmiy xodim lavozimida boshlab, 1994 yil nomzodlik va 2001 yilda esa doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi.



Uning tadqiqotlari Markaziy Osiyo tarixi, sharq qo‘lyozma asarlari, islom, arab davlatlari, arab tili kabi mavzularni qamrab olishi barobarida o‘rta asrlarda yashab ijod

etgan Markaziy Osiyo olimlarining hayoti, faoliyati va asarlarini tadqiq etish B.Abduhalimovning asosiy tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Uning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, yaratgan kitob, broshyura, risola va maqolalari o‘rta asrlarda yashab o‘tgan Markaziy Osiyo olimlarining aniq va tabiiy fanlar (matematika, astronomiya, meditsina, geografiya v.b.) rivojiga qo‘shgan hissalarini aniqlashga yo‘naltirilgan muhim tadqiqotlar hisoblanadi. Jumladan, u turkiyalik mashhur bio-bibliograf Kotib Chalabiyning (XVI asr) arab tilida yozgan “Kashf az-zunnun” asaridagi o‘n olti mingga yaqin kitob va o‘n mingga yaqin mualliflari orasidan Markaziy Osiyoga oid barcha ma‘lumotlarni to‘pladi, ularni sinchiklab o‘rgandi, o‘rta asrning boshqa manbalari bilan taqqoslab, tahlil qildi, so‘ngra zarur aniqliklar bilan ilmiy iste‘fodagi kiritdi.



B. Abduhalimov tarafidan bajarilgan “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati” (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Markaziy Osiyo olimlarining IX-XI asrlarda Bag‘dod ilmiy maktabi — “Bayt al-hikma” (“Hikmatlar uyi”)dagi serqirra ilmiy faoliyatini tadqiq etishga, ularning aniq va tabiiy fanlar rivojiga qo‘shgan beqiyos hissalarini ko‘rsatishga bag‘ishlanganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Muallif ko‘plab birlamchi manbalarga tayangan holda musulmon Sharqidagi Bag‘dod ilmiy maktabining o‘zagini Markaziy Osiyo olimlari tashkil etganini ilmiy dalillar asosida isbotlab berdi. Natijada, Muhammad ibn Musa

Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ahmad Saraxsiy, Ahmad Sag‘oniy, Ahmad Marvaziy, Abbos Javhariy kabi olimlar hayoti va ilmiy faoliyatiga kiritilgan bir qator yangiliklardan tashqari, “Bayt al-hikma”ning tashkil topishi, tarkibiy tuzilishi, rivojlanish bosqichlari, eng muhimi esa mazkur maktab faoliyatidagi Markaziy Osiyo olimlarining yuksak o‘rnini ko‘rsatib berish orqali uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan munosib o‘rnini aniqlashga erishildi. 2004 yilda dissertatsiya asosida “Bayt al-hikma” va O‘rta Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati (IX-XI asrlarda aniq va tabiiy fanlar) nomli monografiya Toshkentda nashr etildi. 2020-2022 yillar mobaynida ushbu monografiya Turkiya va O‘mon Sultonligida turk va arab tillarida qaytadan chop etildi.



Mavzuga oid ba‘zi ma‘lumotlar, masalan, mashhur olim Ahmad Farg‘oniyga taalluqli yirik ilmiy maqola o‘z vaqtida “Journal of Islamic Studies” nomli nufuzli jurnalda Oksfordning “Oxford University Press” nashriyoti tarafidan ingliz tilida chop etilgan (Ahmad Farghani and His Compendium of Astronomy. Journal of Islamic studies, Oxford, 1999, № 10:2). Ahmad Farg‘oniyga bag‘ishlangan boshqa bir maqola Londonda arab tilida “al-Hayat” sahifasida ham nashr etilgan. Dissertatsion tadqiqotning asosiy ilmiy xulosalarini xalqaro maydonga tanishtirishda 2016 yilda Koreya Respublikasida nashr etilgan

“The “Bayt al-Hikma” and scientific activity of the Central Asian scholars in Baghdad (IXth-XIth centuries)” nomli maqola muhim ahamiyat kasb etdi. Muallifning bir qator maqolalari Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr Arab Respublikasi va Kuvaytda arab tilida ham chop etilgan.



Oksford Islom tadqiqotlari markazining “Imom Buxoriy” (1996), Britaniya Kengashining “Chivining” (1997), Janubiy Koreyaning “Koica” (2001) stipendiyalariga sazovor bo‘lib, ushbu mamlakatlarda malaka oshirish kurslarini o‘tagan.

Hammualliflikda tayyorlagan asari uchun Kuvaytning “Imom Buxoriy avlodlariga” nomli mukofoti bilan taqdirlangan.

Uning bevosita ishtiroki natijasida O‘mon Sultonligi bilan hamkorlikda qurilgan Sharqshunoslik institutining yangi binosi nafaqat Fanlar akademiyasi, balki respublika va xorijiy davlatlar miqyosidagi muhim ilmiy-tashkiliy voqea bo‘ldi.

O‘zR FA Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishi bo‘yicha vitse-prezidenti sifatida ilmiy ishlarning samaradorligini oshirishga, xodimlarning ish sharoitlarini yaxshilashga, institutlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga hamda xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy hamkorligini kengaytirishga boshchilik qilmoqda.



ABDAZIMOV ANVAR DANIYAROVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Texnika fanlari doktori, professor Abdazimov Anvar Daniyarovich 1953-yilda Toshkent viloyati Toshkent tumani G‘ishtko‘prik mahallasida tug‘ilgan. 1970-yilda Toshkent tumanidagi 37-o‘rta maktabni tugatib, shu yili Abu Rayxon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika instituti (ToshPI), hozirda Toshkent davlat texnika universiteti (ToshDTU) ning mexanika fakulteti kechki bo‘limiga o‘qishga kirdi. Kunduzi O‘zFA Mexanika va ISM ilmiy-tadqiqot institutida laborant, slesar bo‘lib, keyinchalik 1972 y. dan Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya IChBda texnik nazoratchi bo‘lib ishladi. 1972-74 yy.da harbiy xizmatda bo‘ldi. Xizmatdan so‘ng o‘qishni ToshPIning kunduzgi bo‘limida davom ettirdi va 1978-yilda “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” mutaxassisligini imtiyozli diplom bilan tugatdi va Mexanika fakulteti “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” kafedrasida ishga olib

qolindi. Dastlab kafedra assistenti lavozimida faoliyat yuritdi, so‘ngra aspiranturada ta‘lim oldi.

1983-yilda aspiranturani tamomlab katta ilmiy xodim lavozimida ishladi. 1984-yilda O‘zQXFA muxbir a‘zosi, t.f.d., professor Sadriddinov A.S. ilmiy rahbarligida ToshPI huzuridagi K 067.03.10 Ixtisoslashgan kengashda 05.20.04 – «Qishloq xo‘jaligi va gidromelioratsiya mashinalari» ixtisosligi bo‘yicha «Исследование и разработка механизма регулирования рабочей щели хлопкоуборочного аппарата в процессе сбора» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasi tasdiqlandi.

Ilmiy ishlardagi muvaffaqiyatlari uchun 1981 yilda bir guruh yosh olimlar qatorida

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining mukofotiga sazovor bo‘ldi.



1987-yilda “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” kafedrasida dotsenti ilmiy unvonini oldi. 1985-89 yy.da “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” kafedrasida dotsenti, bir vaqtda «Traktor va qishloq xo‘jalik mashinasozligi» fakulteti dekani muovini (1986-87yy.) lavozimida ishladi. 1989-1997yy. va 1999-2015yy. davomida ToshDTU «Qishloq xo‘jalik mashinasozligi», keyinchalik «Yer usti transport tizimlari» kafedrasining mudiri, 2008-2009 yy.da ToshDTU Ilmiy kengashi kotibi, o‘rindoshlik asosida «EUTT va servisi» kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritdi.

2007-yilda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti huzuridagi ilmiy kengashida 05.20.01 – «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash» ixtisosligi bo‘yicha «Terish jarayoni va apparati parametrlarini boshqarish bilan paxta terish mashinalari samaradorligini oshirishning ilmiy-metodologik asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.



Abdazimov A.D. shogirdlari bilan yaratgan vertikal shpindelli paxta terish mashinasi (PTM) ning asosiy ishchi organlar (g‘o‘zani ishchi kameraga kirituvchi mexanizmlil shpindelli baraban, ishchi tirqishni rostlash mexanizmi va b.) bilan jihozlash dastlabki davlat sinovlari natijalariga ko‘ra PTM ish tezligini 50% ga, bunkerga tushayotgan paxta miqdorini 90% gacha oshirish va terim apparati asosiy rostlashlarini avtomatlashtirish hisobiga mehnat sarfi va davriyligini kamaytirish imkonini berdi, ularning konstruktorlik hujjatlari tatbiq qilish uchun qabul qilingan va o‘z vaqtida O‘zR Idoralararo komissiyasining qarori bilan sanoat namunalari ishlab chiqarishga tavsiya qilingan.

2015 — 2018 yy. da ToshDTU «Qishloq xo‘jalik texnikasi» (08.2017 dan «Yer usti transport tizimlari») kafedrasida professori, 2018-2019yy. — ToshDTU «YEUTT» kafedrasida mudiri v.v.b., hozirgi vaqtda ToshDTU «YEUTT» kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Prof. Abdazimov A.D. kafedra mudiri sifatida o‘z faoliyatini dastlabki yillaridanoq kafedraning moddiy-texnik bazasini yangilash, yangi zamonaviy o‘quv laboratoriyalarini tashkil qilish, davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari, fanlarning namunaviy dasturlarini yaratishda faol ishtirok etib keldi. Uning bevosita rahbarligi va ishtirokida 90-yillarda o‘quv rejalarga yangi kiritilgan “Avtomobil va traktorlarning avtomatik boshqarish tizimlari nazariyasi” va “Qishloq xo‘jalik mashinalarini avtomatlashtirish” o‘quv fanlari laboratoriya xonasi tashkil etildi va uni avtomatlashtirishning texnik vositalarini tajribalarda tekshirish imkonini beradigan laboratoriya stendlari va faol ko‘rgazmali vositalar bilan jihozlandi. Bunda O‘zbekistonda o‘z faoliyatini boshlagan AQSHning “CASE” va GFR ning “CLAAS” kompaniyalari bilan o‘rnatilgan hamkorlik aloqalaridan foydalanilgan holda ulardan o‘quv materiallari elektron versiyalari, o‘quv videofilmlar,

slaydlar, shuningdek, ushbu firmalar mashinalari maketlari, multimedia proyektori, elektron doska kabi o‘quv jihozlari homiylik asosida olindi. “CLAAS” kompaniyasi o‘quv markazi bilan hamkorlikda kafedrada 2 marta o‘quv seminarlar tashkil qilindi.




Kafedra mudiri Abdazimov A.D. mutaxassislik fanlarining dasturlari va o‘quv-uslubiy majmualari yangi talablar bo‘yicha qaytadan ishlab chiqishda, talabalari o‘qitish jahon andozalariga mos modul-kredit tizimiga o‘tishi munosabati bilan ushbu tizim asosidagi bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura ixtisosliklari, shuningdek, xorijiy OTM (BelMTU, DonDTU va b.) bilan hamkorlikda 2+2 tizimda bakalavrlar, 1+1 tizimda magistrlar tayyorlash o‘quv rejalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etdi.



Abdazimov A.D. kafedra mudiri sifatida kafedraning moddiy-texnik bazasi yangilash bo‘yicha universitet rahbariyati tomonidan qo‘llab quvvatlangan sa‘y harakatlari bilan sobiq “O‘zagrosanoatmashholding” (boshqaruv raisi-prof.Matchanov R.D.) homiyligida 20 dan ziyod zamonaviy qishloq xo‘jalik mashinalari bilan jihozlash,

shuningdek, “GM Uzbekistan”, “SamAvto” va “MAN Avto” qo‘shma korxonalarini tomonidan o‘quv ishlari uchun ko‘rgazmali vosita sifatida foydalanish uchun homiylik yordami sifatida yengil va yuk avtomobillarining ehtiyot qismlarini olib kelish va ulardan o‘quv ilmiy tadqiqot stendlarini tashkil qilish ishlariga rahbarlik qildi.




Olib kelingan ushbu ehtiyot qismlar asosida mutaxassislik fanlaridan kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan talabalar ishtirokida o‘quv ko‘rgazmali jihozlar va laboratoriya stendlari tayyorlandi. Keyingi yillarda homiylik bilan olib borilgan ishlar natijasida “Toshkent qishloq xo‘jalik texnikalari zavodi (TQXTZ)” AJ homiylik yordami natijasida yangi MX-1,8 paxta terish mashinasi, “TexnologMash” AJ tomonidan SKO-3,6 kurak terish mashinasi kapital ta‘mirlab berildi, to‘rt qatorli yangi MX-2,4 PTM tajriba nusxasini tayyorlashda yordam ko‘rsatildi. “O‘zagrotexsanoatxolding” AJ tomonidan TD 60-10 rusumdagi zamonaviy traktor kafedraga taqdim qilindi.



O‘quv va ilmiy faoliyati davomida A.D.Abdazimovning 250 dan ziyod ilmiy ishlari nashr qilingan, shu jumladan, 5 ta

monografiya, 18 ta ixtiro va foydali modelga patentlar, 5 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomalari, 5 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar, 12 ta uslubiy qo‘llanma, so‘nggi yillarda xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallarda 30 dan ziyod maqolasi, jumladan, “Scopus” bazasiga kiruvchi jurnallarda 8 ta maqolasi chop etilgan.



A.D. Abdazimov rahbarligida 2 fan nomzodi, 1 texnika fanlari falsafa doktori(PhD) va 26 nafar magistrlar tayyorlandi, uning rahbarligidagi 1 mustaqil tadqiqotchi PhD uchun dissertatsiyasini himoyaga Ixtisoslashgan kengashga topshirdi. Hozirda A.D. Abdazimov 3 nafar mustaqil PhD izlanuvchisiga va 4 nafar magistrantga rahbarlik qilmoqda.

Hozirda A.D.Abdazimov kafedradagi mutaxassislik fanlaridan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yangilashda hamda yangi mutaxassislik fanlarini o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bilan ta‘minlashda samarali qatnashmoqda. Jumladan, oxirgi 5 yillikda “YEUTT” kafedras hamkasblari va shogirdlari bilan hammualliflikda bakalavriat talabalari uchun “Texnik tizimlarni boshqarish”, “Mashinalarni sinash asoslari”, “Paxta terish mashinalari nazariyasi va loyihalash” fanlari, shuningdek, “Kurs loyihasi va bitiruv malakaviy ishini tayyorlash” bo‘yicha 1 ta darslik va 3 ta o‘quv qo‘llanma hamda “Eksperiment rejalashtirish va statistik tahlil”

fanidan magistratura talabalari uchun 2 qismdan iborat darslik yaratdi.

A.D.Abdazimov davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan 2 mavzudagi ilmiy amaliy dasturda mas‘ul ijrochi va 3 mavzudagi innovatsion loyihalarda ilmiy rahbar sifatida ish olib bordi. Ushbu loyihalarning natijalari tegishli ishlab chiqarish va loyiha konstruktorlik muassasalarida joriy qilingan va shogirdlari himoya qilgan dissertatsiya ishlarida o‘z aksini topgan.

A.D.Abdazimov 2018-yil may-iyun oylarida O‘zR Prezidentining «Iste‘dod» jamg‘armasi tanlovida g‘olib bo‘lib jamg‘arma stipendianti sifatida RF Sankt-Peterburg davlat agrar universiteti (SPbDAU) da malaka oshirishda bo‘ldi. Malaka oshirish “Автомобили, тракторы и сервис” kafedras va “Академия менеджмента и агробизнеса” malaka oshirish markazida, ushbu markaz rahbariyati tasdiqlagan dastur asosida tashkil etildi. Malaka oshirish uchun sharoitlar, SPbDAU rahbariyati va kafedralar mudirlari va professorlarining munosabatlari yuqori darajada bo‘ldi, malaka oshirish dasturi to‘liq hajmda bajarildi, hisoboti “Iste‘dod” jamg‘armasiga taqdim qilindi. Dasturda ko‘zda tutilgan ko‘plab o‘quv jarayoniga tegishli RF ning normativ hujjatlari, o‘quv reja va dasturlar (elektron versiyalari), zamonaviy o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, dissertatsiyalar avtoreferatlari va b. adabiyotlar, foto- va video materiallar olib kelindi. SPbDAU rahbariyati qabulida bo‘lib ikki OTM o‘quv, ilmiy ishlarda, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va b. sohalarda hamkorlik shartnomasi loyihasi taqdim qilindi. Malaka oshirish hisoboti ilmiy kengashda ko‘rib chiqildi va olib kelingan me‘yoriy, o‘quv-uslubiy va ilmiy materiallar, adabiyotlar qog‘oz va elektron nusxalari tegishli kafedralarga taqdim qilindi.



ABDIKARIMOV RUSTAMXAN ALIMXANOVICH
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Abdikarimov Rustamxan Alimxanovich Toshkent arxitektura-qurilish universitetining “Qurilish mexanikasi va seysmik muhandislik” kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda. U 1960 yil 28 iyunda Qozog‘iston Respublikasi Turkiston tumanidagi (hozirgi Turkiston viloyati) Otaboy (hozirgi Qaranoq) qishlog‘ida ishchi oilasida tavallud topgan. Otasi Abdikarimov Olimxon sovxozda ishchi, brigadir, buxgalteriya bo‘limi xodimi bo‘lib faoliyat yuritgan. Boshlagan ishini nihoyasiga yetkazmaguncha tinib-tinchimas inson bo‘lgan. Onasi Tashmetova Tursun matematikaga qobiliyatli, qo‘shiqqa havasi baland, bilimdon ayol edi. Rahmatli otalarining shunga o‘xshash eng sara xislatlari o‘g‘illariga o‘tgan. R.A.Abdikarimov shu

qishloqdagi umumiy o‘rta maktabni 1977 yilda oltin medalga tamomlagan.



Yoshligidan o‘qishga bo‘lgan iqtidorini sezgan Avaz akasi ukasini oliy ma‘lumot olishga qiziqishini orttirish maqsadida 9-sinfni bitirish arafasida Toshkent shahriga olib kelgan va Toshkent davlat universiteti bilan yaqindan tanishtirgan. Shu sabab u 1977 yil Toshkent

davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti)ning "Amaliy matematika va mexanika" fakultetiga o'qishga kirib, uni 1982 yilda mexanika ixtisosligi bo'yicha tamomlagan.



Bu ilm dargohida u taniqli olimlar: akademiklar T.R.Rashidov, T.B.Bo'riyev, Ya.N.Mubarakovlar hamda professorlar Sh.Mamatqulov, A.Hamidov va boshqalardan tahsil olgan, ularning nazariga tushgan. O'qishdagi muvaffaqiyatlarini inobatga olib, universitet rahbariyati R.Abdikarimovni diplom oldi amaliyotini o'tash va diplom ishini tayyorlash uchun M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (MDU)ga yuborgan. U diplom ishini taniqli olim, akademik B.E.Pobedrya rahbarligida tayyorlagan va universitetga qaytib kelib, muvaffaqiyatli himoya qilgan. R.Abdikarimov imkoniyatdan unumli foydalanib, MDUda faoliyat yuritgan, sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi A.A.Ilyushin va O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi X.A.Raxmatullinlarning ilmiy seminarlariga qatnashgan hamda sohaning buyuk olimlari ma'ruzalarini tinglagan, shu zaylda ilmga bo'lgan intilishi yanada ortgan.

R.Abdikarimov mehnat faoliyatini "Kibernetika" ilmiy ishlab-chiqarish birlashmasining "Kibernetika" institutida injener lavozimida boshlaydi. So'ngra birlashma tarkibidagi "Algoritm" institutida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlaydi. Ilmiy faoliyatga bo'lgan chin dildan ixlos R.Abdikarimovni "Kibernetika" instituti huzuridagi kunduzgi ta'lim aspiranturasiga yetaklaydi. 1985-1988 yillarda "Hisoblash

matematikasi" ixtisosligi bo'yicha aspiranturada tahsil oladi. Moskvada, professor Preobrajenskiy Igor Nikolayevich ilmiy rahbarligi ostida, "Ko'p bog'lamli qiyshiq burchakli plastinkaning turg'unligi va tebranishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini tayyorlagan va 1989 yili Saratov politexnika instituti (hozirgi Saratov davlat texnika universiteti)da muvaffaqiyatli himoya qilgan. Uning ilmiy izlanish natijalari aviasozlik sohasiga tatbiq etilgan.



R.Abdikarimov 1988 yildan boshlab mehnat faoliyatini ta'lim sohasi bilan bog'lagan. U avval Toshkent politexnika institutining (hozirgi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti) "Oliy matematika", 1991 yildan esa yangi tashkil etilgan Toshkent arxitektura-qurilish institutining "Oliy va amaliy matematika" kafedrasida ishlagan.

R.Abdikarimov 1993-1996 yillarda Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi "Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi" ixtisosligi bo'yicha kunduzgi doktoranturani tamomlagan.

U 1997-2004 yillar hamda 2007-2011 yillarda Toshkent moliya instituti "Matematika" kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida ishlagan. Bakalavriatura

bosqichida talabalarga “Oliy matematika”, “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”, “Matematik programmalash”, magistratura bosqichida esa “Moliya matematikasi” fanlaridan ma’ruzalar o‘qib, amaliy mashg‘ulotlar o‘tagan. Uning bugungi kunda yuzlab talaba-shogirdlari iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarida mehnat faoliyatini olib bormoqda.

Toshkent moliya instituti rahbariyati 2010 yili R.Abdikarimovga Ilmiy Kengash qarori bilan uning ilmiy va pedagogik faoliyatda erishgan yutuqlarini inobatga olib, “Matematika” kafedrasini faxriy professori ilmiy unvonini bergan.



R.Abdikarimov o‘ziga xos tashkilotchilik, tashabbuskorlik, g‘ayratlilik, shijoatlilik, boshqaruv qobiliyatlariga ega. U yangi va mas‘uliyatli lavozimlarda vijdonan ishlagan. 2004-2006 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazida bosh ekspert, ilmiy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida faoliyat olib borgan. Davlat test markazi «Axborotnoma» jurnalining ilmiy-metodik jurnal sifatida shakllanishi va nashr etilishini yetuk mutaxassislar B.J.Rajabov va B.F.Nazarovlar bilan birgalikda yo‘lga qo‘ygan. U, ta‘lim muassasalari, pedagoglar attestatsiyasi va boshqa ta‘lim sohasiga tegishli me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqishda faol ishtirok etgan.

R.Abdikarimov 2007-2011 yillar Toshkent moliya institutida pedagogik faoliyat olib borish bilan bir qatorda jamoatchilik asosida, prorektor lavozimiga tenglashtirilgan, Axborot-nashriyot kompleksi direktori lavozimida ishlagan va unga rahbarlik qilgan. Kompleks tarkibidagi Tahririyat-nashriyot bo‘limi, «IQTISOD-MOLIYA» nashriyoti, bosmaxona va Axborot-resurs markazi o‘rtasida o‘quv adabiyotlarini yaratish va nashr etish ishlarini muvofiqlashtirgan, barcha bo‘lim va kafedralar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. O‘quv jarayonini darslik, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va boshqa zaruriy materiallar bilan ta‘minlashni tashkil etish, chop ettirish, ularning elektron versiyalarini yaratishda jonbozlik ko‘rsatgan.

U Kompleks rahbari sifatida uning tarkibidagi “Moliyachi” gazetasi va “Moliya” ilmiy jurnalining zamon talabidagi davriy nashrlarga aylantirish va ommabop bo‘lishida samarali faoliyat olib borgan.



R.Abdikarimov dissertatsiya ishini dastlab professor X.Eshmatov ilmiy maslahatchiligida bajarib boshlagan, ustozlari og‘ir kasallikka chalilib qolganidan keyin esa akademik M.Mirsaidov rahbarligida nihoyasiga yetkazgan va 2017 yil «Katta deformatsiyalarni e‘tiborga olgan holda o‘zgaruvchi qalinlikka ega bo‘lgan qovushqoq-elastik yupqa devorli konstruksiyalarning dinamik hisobi nazariyasi va usullarini rivojlantirish» mavzusida fizika-matematika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

va fan doktori diplomini olgan, 2019 yil esa unga professor ilmiy unvoni berilgan.

R.Abdikarimovning dissertatsiya ishiga sohaning taniqli chet el olimlaridan, xususan, AQSH, Belgiya, Xitoy, Ukraina, Rossiya Federatsiyasidan ijobiy taqrizlar kelib tushgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi sohasidagi akademik T.Rashidov dissertatsiya ishining salmog'i va salohiyatini yuksak baholagan.



R.Abdikarimov o'z sohasida chet el olimlari bilan xalqaro ilmiy hamkorlikni namunali yo'lga qo'ygan va ular bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini jadal suratlarda amalga oshirib, N.I.Vatin (Petr Velikiy nomidagi Sankt-Peterburg politexnika universiteti professori, Rossiya), Marco Amabili (McGill universiteti professori, Kanada), A.S. Bikovsev (AQSH), A.F.Verlan (Ukraina), V.A.Krisko, A.V.Krisko., M.V.Jigalov, V.G.Dmitriyev, D.P.Goloskokov, V.M.Jgutov, M.V.Suxoterin, S.O. Barishnikov, T.P. Knish (Rossiya) va boshqa taniqli soha olimlari bilan hammualliflikda ilmiy maqolalar chop ettirib kelayotgan faol izlanuvchilar sirasidan hisoblanadi.

R.Abdikarimov deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining eng dolzarb muammolaridan biri bilan shug'ullanib kelmoqda, nazariy jihatidan hamda yechish usullari borasida salmoqli ravishda rivojlantirmoqda. Ta'kidlash joizki, mexanika, nazariy fizika, tibbiyot, ekologiya va boshqa sohalardagi aksariyat dinamik jarayonlarning matematik modellari zaif-singulyar yadroli nochiziqli xususiy hosilali integral-differensial

tenglamalar sistemasini tashkil etadi.



R.Abdikarimov mazkur tenglamalar sistemasini sonli yechishning samarali usullarini ishlab chiqqan. Xususan, u o'zgaruvchan qalinlikli qovushqoq-elastik plastinka, panel va qobiqlarning dinamik masalalari uchun umumlashgan matematik modelni yaratgan, olingan zaif-singulyar yadroli nochiziqli integral-differensial tenglamalar sistemasini tegishli turli xil chegaraviy shartlar ostida yechish usullarini rivojlantirgan va tavsiya etgan usullar yordamida yechgan, hisoblash algoritmi va kompyuterda dasturlar majmuasini yaratgan. Yaratgan dasturiy majmui yordamida o'zgaruvchan qalinlikli qovushqoq-elastik yupqa qobiqli konstruktsiya elementlarining tebranishi va dinamik turg'unligi masalalarini tahlil qilgan. Yaratgan model, algoritm va dasturiy majmualari o'zgaruvchan qalinlikli plastinka va qobiqlarning dinamik holatini tahlil qilishda, ularni loyihalashda qo'llaniladi.



R.Abdikarimovning 200 dan ortiq ilmiy va o'quv-uslubiy ishlari e'lon qilingan, xususan "Oliy matematika" o'quv qo'llanmasi,

“Некоторые задачи механики с параметрами разрывного типа” (1997 yil) va “Математическое моделирование нелинейных задач о колебаниях и динамической устойчивости вязкоупругих систем” (2005 yil) nomli monografiyalari, “Oliy matematika” (2004 y., 2008 y.), “Moliyaviy matematika” (o‘zbek va qoraqalpoq tillarida) nomli o‘quv qo‘llanmalari hamda o‘n beshdan ziyod o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari, 50 dan ortiq ilmiy maqolalari xorijda (AQSH, Ispaniya, Vyetnam, Chexiya, Rossiya, Ukraina, Armaniston va boshqa) chop etiladigan ilmiy jurnal va to‘plamlarda nashr etilgan. Qator xalqaro (Palm-Springs, Memfis, Xanoy, Moskva, Sankt-Peterburg, Novosibirsk, Kazan, Vladimir, Krasnoyarsk, Perm, Rostov-na Donu, Kiyev, Xarkov, Lvov va boshqa) va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy anjumanlarda o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan.



Industrial and Production Engineering (MPCPE-2020, 2021, 2022), Vladimir State University named after Alexander and Nikolay Stoletovs, Vladimir, 2nd International Scientific Conference on Socio-Technical Construction and Civil Engineering (STCCE-2021), 21-28 April 2021, Kazan State University of Architecture and Engineering, II ALL-RUSSIAN CONFERENCE WITH INTERNATIONAL PARTICIPATION Deep foundations and geotechnical problems of territories (DFG 2021) IN PNRPU va boshqa

yana bir qancha xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarning tashkiliy, dasturiy qo‘mitalarining a‘zolari bo‘lgan.

R.Abdikarimov asosiy vazifalaridan tashqari jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. U O‘zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti qoshidagi hamda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti qoshidagi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinadigan ixtisoslashgan kengash va uning qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi. Hozirgi kunda u “Magazine of Civil Engineering”, “Stroitelstvo unikalnqx zdaniy i soorujeniy” (Sankt-Peterburg, Rossiya), “Arxitektura, stroitelstvo, transport” (Tyumen, Rossiya), O‘zR FA “Mexanika muammolari”(O‘zbekiston) ilmiy jurnallarining tahririyati a‘zosisdir.



Uning bevosita ilmiy rahbarligida bir nafar fan doktori, (akademik M.Mirsaidov bilan hamkorlikda) va uch nafar fan nomzodi tayyorlagan. Shuningdek, o‘nlab tadqiqotchilarning fan nomzodligi bo‘yicha dissertatsiya ishlariga o‘z maslahatlari bilan yordam bergan.



R.Abdikarimov kompyuter dasturlari majmui uchun 20 tadan ortiq Intellektual mulk agentligining guvohtonmalarini olgan.

R.Abdikarimov 2011-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligida bosh mutaxassis, Oliy ta‘lim muassasalari bosh boshqarmasida Ilmiy-pedagog kadrlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan.

U 2017-2021 yillar mobaynida Toshkent moliya instituti “Oliy va amaliy matematika” kafedrasida ishlagan. Bakalavriatda “Iqtisodchilar uchun matematika”, magistraturada “Moliya matematikasi” fanidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar olib borgan.



R.Abdikarimov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 fevraldagi 32-son qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, tasarrufida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan o‘tkazib kelinadigan “Oliy ta‘lim muassasasining eng yaxshi pedagogi” 2021 yilgi Tanlovining “Matematika. Tabiiy fanlar” ta‘lim sohasi bo‘yicha “Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi” nominatsiyasida Respublika bosqichi g‘olibi bo‘lgan. Uning bunday yutuqqa erishishida umumiy o‘rta maktabda tabiiy fanlardan saboq bergan Yusup Xayrullayev (matematika), Sobirjon Yusupov (fizika) va Rasul Rashidov (ximiya) kabi qator muallimlarining hissasi katta, deb hisoblaydi.

R.Abdikarimov 2012 yili uch hafta muddatli Germaniyaga qilgan xizmat safari

davomida bir qancha, asosan, qishloq jo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalari, ishlab chiqarishlarda bo‘lib, ta‘lim tizimini o‘rganib, tajriba orttirib kelgan. Shuningdek, u 2014 yili Amerika Qo‘shma Shtatlarining bir qancha shtatlarida xizmat safarida bo‘lib, ta‘lim tizimi hamda ingliz tili ikkinchi til sifatida o‘qitilishini o‘rgandi. Xususan, u Vashington (DC)dagi Jorjtaun universiteti, Jorj Vashington universiteti, Viskonsin shtatidagi Viskonsin



universiteti, Arizona shtatidagi Arizona universiteti, Vestern xalqaro universiteti, Shimoliy Karolina universiteti va boshqa shunga o‘xshash ellikdan ortiq maktabgacha, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, pedagog xodimlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarida bo‘lib, ta‘lim jarayonining tashkil etilishi, baholash tizimi, ta‘lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan hamkorligi va boshqa masalalarni o‘rganib qaytgan. U Vashingtonda joylashgan O‘zbekiston Respublikasi elchixonasida bo‘lgan.

R.Abdikarimov talabalik yillaridan buyon teatr san‘atiga qiziqadi va bu muhabbat haliyam o‘zi bilan birga.

Shuningdek, u do‘stlari bilan Toshkent shahridagi yozuvchi, olimlarning uy-muzeylari, allomalar qabrlari ziyoratini amalga oshirib keladi. U muntazam ravishda yaqinlari bilan teatrga borishni kanda qilmaydi. R.A.Abdikarimov hozirgi zamon axborot texnologiyalari imkoniyatlarini yaxshi

o‘zlashtirgan, ulardan ilmiy va pedagogik faoliyatida samarali foydalanadi. U ta’lim jarayoniga alohida mehr bergan tajribali, mohir pedagog bo‘lib, o‘quv jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llab keladi.

R.Abdikarimov oilali, bir qiz va bir o‘g‘ilning otasi, besh nafar nevaraning mehribon buvasi.



Turmush o‘rtog‘i Azizova Venera Sabirovna – sinfdoshi, oliy toifali vrach, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi ko‘krak nishoni sohibasi, Sog‘liqni saqlash boshqaruvi tizimining faxriy yorliqlari bilan bir necha bor taqdirlangan.

Qizi Abdikarimova Dinara – iqtisod fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida kafedra mudiri.

Kuyovi: Safarov Shuxratjon Ismatovich – Toshkent moliya instituti va O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasini tugatgan, tadbirkor.

O‘g‘li Abdikarimov Muzafaar – Toshkent moliya institutini Bank ishi yo‘nalishi bo‘yicha, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini marketing mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan, tadbirkor.

Kelini: Abdikarimova Anoraxon Baxodir qizi – Toshkent davlat texnika universitetining bakalavriat va magistratura bosqichlarini radioelektron qurilmalar va

tizimlar yo‘nalishi hamda mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan, administrativ menejer.



R.A.Abdikarimov nevaralarining namunali tarbiya, sifatli ta’lim olishlariga, chuqur va mustahkam bilim egasi bo‘lishlariga, ularning unib-o‘shishlariga alohida e’tibor bilan qaraydi, avlodining kelajagi rivojini ularda ko‘radi.



Bu borada dastlabki muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunda katta nevarasi Ismatova Hilolaxon Shuhratjon qizi Angliyada joylashgan Oksford universiteti qoshidagi Xalqaro maktabni tamomlab, keyingi bosqichda (A-level) o‘qishini davom ettirmoqda.

R.A.Abdikarimov Vataniga bo‘lgan muhabbati, o‘zining samimiyligi, kamtarinligi, qat’iyatligi, talabchanligi, izlanuvchanligi, ijodkorligi, kasbiga bo‘lgan sadoqati bilan hamkasb hamda talabalar jamoasi o‘rtasida hurmatga sazovor.



ABDULLAYEVA MARG‘UBA DUSMIRATOVNA
Filologiya fanlari doktori, professor

Abdullayeva Marg‘uba Dusmiratovna 1978-yil 20-yanvarda Samarqand viloyatida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori, professor. 120 dan ortiq ilmiy, o‘quv-metodik ishlar muallifi. Turkiy adabiyot va tarixiy-nasriy asarlar tadqiqotchisi.

dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U 2019-2021 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” kafedra mudiri lavozimida ishlagan. Hozirgi kunda “Ona tili va adabiyot ta’limi” fakulteti dekani lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



“Tarixiy asarlar badiiyatining qiyosiy tahlili. (“Boburnoma” va “Shajarayi turk” asarlari misolida) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini (2008); “Adabiy-tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi” (DSc) (2021)



Uning 20 ga yaqin kitoblari (monografiya, o‘quv qo‘llanma, darslik va b.) chop etilgan.

M.Abdullayeva ilmiy va pedagogik faoliyati davomida xalqaro miqyosdagi anjumanlarda, loyihalarda faol ishtirok etib keladi. 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan ERASMUS+ dasturining “INTERNATIONAL GREDIT MOBILITY. “Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilinishi va ularning xorijda o‘qitilishi” loyihasi ishchi guruhida ishtirok etgan.

U Anqara G‘ozi universiteti rahbariyati taklifiga binoan Turkiyada ilmiy-metodik stajirovka o‘tagan. G‘ozi universiteti Ta’lim fakultetining hamkorlikda amalga oshiradigan ilmiy tadqiqotlari, hamkorlikda o‘tkaziladigan Ta’lim xalqaro simpoziumi, talabalar almashinuvi, magistrant va doktorantlarning ilmiy ishlariga hamkorlikda rahbarlik qilish, professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘tiladigan o‘quv kurslari tashkil qilish bo‘yicha samarali faoliyat olib bormoqda.



Marg‘uba Abdullayeva 2023-yilda “Uluslararo Bobur shoh konferensiyasi”da Turksoy uluslararo turk madaniyati tashkilotining sertifikatini olgan. U 2024-yilda Turksoy Akademiyasi loyihalari tanlovida ishtirok etib, “Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning samarali integratsiyasi: til o‘qituvchilarining kasbiy malaka oshirish

(qozoq, qirg‘iz, o‘zbek tillarida)” mavzusida amaliy loyihada faoliyat olib bormoqda.

Qozog‘iston Respublikasi Nazarboyev Universitetida bo‘lib o‘tgan “Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ta’lim va til o‘qitish, ilmiy tadqiqotlar sohasida samarali integratsiyasi” mavzusidagi seminarda xalqaro mutaxassislar qatorida faol ishtirok etdi.



Rossiya, Ufa, Turkiya davlatlarida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda maqola va tezislari bilan ishtirok etgan. 2017-yildan buyon universitetda o‘tkaziladigan “Alisher Navoiy va XXI asr” an’anaviy xalqaro ilmiy-nazariy anjumani hamda “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” an’anaviy-amaliy konferensiya tashkilotchilaridan biri.

Universitetda o‘tkazilgan ko‘plab tanlov va tadbirlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritib, diplom va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikasida faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun tashkil etilgan seminar-treninglarda “Mumtoz asarlarni o‘qitish muammolari” mavzusida ma’ruzalar qilgan.

O‘zbekiston-24, Madaniyat va ma’rifat, Yoshlar, O‘zbekiston tarixi telekanallarida davlat tili, mumtoz adabiyot namoyandalari ijodini o‘rganish bo‘yicha hamda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Xoja hayoti va ijodiga bag‘ishlangan teleko‘rsatuvlarda ilmiy tadqiqotlari, ijodiy ishlari bilan qatnashgan. Mumtoz adiblar haqida ishonchli faktik materiallar, ilmiy tahlillarni amalga oshirgan.

Ta’kidlash joizki, Abdullayeva Marg‘uba Dusmiratovna adabiyotshunoslikda

kam o‘rganilgan tarixiy asarlar poetikasi bo‘yicha muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan. Jumladan, “To‘rt ulus tarixi” adabiy manba sifatida”, “Alanquvo haqidagi syujetlarning qiyosiy tahlili”, “Adabiy-tarixiy asarlarda kichik janrlar poetikasi” nomli tadqiqotlari adabiyotshunoslikda yangi syujetlarni tadqiq etishga xizmat qilgan.

Marg‘uba Abdullayeva samarali ilmiy va pedagogik faoliyati uchun “Alisher Navoiy nomidagi” medal bilan taqdirlangan (2022). Ko‘p yillik samarali va halol mehnati hamda o‘z xizmat vazifasiga bo‘lgan sadoqati uchun Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Faxriy yorliq” bilan taqdirlangan (2020). O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilinganligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Til millat mulki” mavzusida o‘tkazilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirni yuqori saviyada o‘tkazishga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi “Faxriy yorliq”i berilgan.



Toshkent shahar Xotin-qizlar “Olima” uyushmasi tomonidan mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan yosh, iqtidorli, ilmga chanqoq qizlarning ilmiy izlanishlarini gullab-quvvatlash, rag‘batlantirish, respublikada keng namoyish qilish hamda ularning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida o‘tkaziladigan “Ilm yulduzlari” IV-Respublika intellektual ko‘rik-tanlovining Toshkent shahar bosqichida “Eng mohir milliy

qadriyatlar targ‘ibotchisi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan.

UZA tashabbusi bilan Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan Bobur hayoti va faoliyatiga doir “Bir qo‘lda mo‘yqalam-u, bir qo‘lda toj” mavzusida videolavha tayyorlandi. Intervyuda boburiylar davri tarixi, adabiyoti va madaniyati bilan bog‘liq yangi tahliliy materiallar berilgan. Bundan tashqari Marg‘uba Abdullayevaning mumtoz adabiyot namoyandalari hayoti va ijodiga oid 10dan ortiq videodarslari Youtube kanaliga joylashtirilgan. (https://www.youtube.com/watch?v=w9Up_cz92Bk&t=35s)

M.Abdullayeva o‘quv jarayonini uslubiy jihatdan ta‘minlashda ishtirok etib keladi. U zamonaviy talablarni hisobga olgan holda 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishida “O‘zbek adabiyoti”, 70111401- O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistratura ixtisosligida “Mumtoz tarixiy poetika”, “Adabiy ta‘limda innovatsion yondashuv” kabi fanlar uchun fan dasturlari, ishchi o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, sillabuslar tayyorlagan va ular o‘quv jarayoniga joriy etilgan. M.Abdullayeva Respublika oliy o‘quv yurtlari O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistratura ixtisosligi bo‘yicha “Mumtoz tarixiy poetika” va “Adabiy ta‘limda innovatsion yondashuv” nomli o‘quv qo‘llanmalar tayyorlagan va Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘i bilan nashr etilgan, amaliyotga tatbiq etilgan.

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha komissiyasi hamkorligida tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston ma‘naviy taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining ahamiyati” mavzusida tashkil etilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirda “Bobur hayoti – ibrat maktabi” mavzusida ma‘ruza qilgan.



ABDURAXMONOV NODIRJON YULCHIYEVICH

Biologiya fanlari doktori, professor

Nodirjon Abduraxmonovning umumiy ish faoliyati 31 yil, ilmiy va pedagogik ish faoliyati 26 yil, jumladan ilmiy ish faoliyati 24 yil, hozirgi lavozimidagi ish faoliyati 10 yil.



2005-yilda Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi D180.20.01 raqamli Ixtisoslashgan kengashda “Turkiston tog‘ tizmasi tog‘ oldi va osti tekisliklarining lalmi tuproqlari va ularning unumdorligini baholash (Jizzax viloyati chegarasida)” mavzusida 03.00.27– “Tuproqshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik, 2019 yilda Botanika instituti va O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 27.06.2017.V.39.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashda

“Sug‘oriladigan va lalmi tuproqlar unumdorligini baholashning ilmiy asoslari” mavzusida 03.00.13-“Tuproqshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi «Tuproqshunoslik» ixtisosligi bo‘yicha 2010 yilda katta ilmiy xodim, 2022 yilda professor ilmiy unvonida tasdiqlagan.




1998 yilda Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zMU)ning Biologiya-tuproqshunoslik fakultetini Tuproqshunoslik va agrokimyo mutaxassisligi bo‘yicha imtiyozli diplom bilan tamomlagan.



2000-2002 yillarda Tuproqshunoslik va agrokimyoy ilmiy-tadqiqot davlat institutida aspiranturada tahsil olgan.

1998-2004 yillarda o‘rindoshlik asosida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Tuproqshunoslik va dehqonchilik» kafedrasida o‘qituvchisi lavozimida faoliyat yuritgan.

2003-2015 yillarda Tuproqshunoslik va agrokimyoy ilmiy-tadqiqot davlat instituti «Tuproq unumdorligini boshqarish va baholash» bo‘limida kichik, katta va yetakchi ilmiy xodimi lavozimlarida ishlagan.



2015 yildan buyon Tuproqshunoslik va agrokimyoy tadqiqotlar instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimida samarali mehnat qilib kelmoqda.

2020-2023-o‘quv yillarida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetining «Tuproqshunoslik» kafedrasida tashqi o‘rindosh sifatida talabalarga «Tuproqshunoslik», «Tuproq kimyosi», «Tuproq bonitirovkasi» hamda «Voha tuproqlar genезisi va evolyutsiyasi» kabi fanlardan ma‘ruzalar o‘qidi va amaliy mashg‘ulotlar olib bordi.

2023-2024-o‘quv yilida Toshkent davlat agrar universiteti «Agrokimyoy va tuproqshunoslik» kafedrasida tashqi o‘rindosh sifatida talabalarga tuproq bonitirovkasining ilmiy asoslari, tuproq bonitirovkasi va xaritalash, tuproqshunoslik va agrokimyoda barqaror rivojlanish kabi fanlardan ma‘ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar olib bormoqda.

Uning ilmiy izlanishlari sug‘oriladigan va lalmi tuproqlarni hosil bo‘lishi, rivojlanishi, evolyutsiyasi qonuniyatlarini, unumdorlikni shakllanishida omil va sharoitlarning rolini aniqlash; tuproq unumdorligini chegaralovchi salbiy jarayonlarni oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish; tuproq unumdorligini baholash uslublarini takomillashtirish; tuproqlar unumdorligini baholash orqali yer egalarini ishonchli ma‘lumotlar bilan ta‘minlash; personallashtirilgan qishloq xo‘jaligi konsepsiyasini tatbiq etish orqali yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy yechimlar ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.



N.Yu.Abduraxmonov Tuproqshunoslik va agrokimyoy tadqiqotlar institutida bajarilgan jami 4 ta amaliy va 1 ta fundamental loyihalarga rahbarlik qilgan, shuningdek bir nechta fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarda mas‘ul ijrochi sifatida ilmiy faoliyat yuritgan.

«Sug‘oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va tuproq unumdorligini boshqarishning nazariy asoslarini tadqiq etish» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida Respublikamizning turli regionlarida sug‘oriladigan tuproqlarning vujudga kelishi, shakllanishi, unumdorlik darajasiga tuproq

paydo qiluvchi omillarning ta'siri va bu jarayonda har bir omilning roli aniqlangan. Tabiiy tuproq hosil qiluvchi omillarning quruq va o'ta quruq regionlarda sug'orish jarayonida bir muncha nivelirlashishi va yetakchi omil sifatida inson faoliyati namoyon bo'lishi ko'rsatildi. Tuproq paydo bo'lishida kechadigan elementar jarayonlar batafsil yoritilib, sug'oriladigan tuproqlarda elementar jarayonlar natijasida namoyon bo'luvchi tuproqlarning xossa va xususiyatlari ochib berilgan. Sug'oriladigan tuproqlarning vujudga kelishida sho'rlanish va sho'rsizlanish, loylanish, sho'rtoblanish, organik qoldiqlarning parchalanishi, mineralizatsiyasi va gumus to'planishi kabi jarayonlarning roli aniqlangan.



Bu jarayonlar natijasida tabiiy tuproqlardan farqli o'laroq, odatda yuqori unumdorlik, muayyan xossa-xususiyatlarga ega bo'lgan yangi tabiiy tana – voha tuproqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining nazariy jihatlarini tahlil qilingan. Asosiy sug'oriladigan tuproqlarning unumdorlik parametrlari o'rganilib, ularning qishloq xo'jalik ekinlaridan hosil yetishtirishdagi roli aniqlangan.

Tuproq unumdorligini tashkil etuvchi omillar guruhlariga ajratilib, agroiqlim, genetik-geografik, agrokimyoviy, agrofizikaviy, bioekologik bloklarga bo'lingan. Har bir tuproq unumdorligida muhim o'rin tutgan xossa va xususiyatlarining optimal va real ko'rsatkichlari belgilangan. Uning asosida bo'z-voha, sug'oriladigan tipik bo'z, o'tloq tuproqlarning unumdorligi modellari yaratilgan. N.Yu.Abduraxmonov rahbarligida 2006-2019-yillar mobaynida davlat buyurtmasi

asosida moliyalashtiriladigan respublikadagi mavjud fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproqlarini baholash bo'yicha amaliy tadqiqotlar bajarilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardagi mavjud fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug'oriladigan tuproqlarining ball boniteti yangidan aniqlangan hamda massivlarning 1:10000 va paxta g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining 1:5000 masshtabli tuproq sifatini baholash kartalari tuzilib, belgilangan tartibda amaliyotga tatbiq etilgan. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida ko'plab fermer xo'jaliklari bilan xo'jalik shartnomalari asosida ularga tegishli yer maydonlari tuproqlarining xossa-xususiyatlarini aniqlash, meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirish hamda yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan va yerdan foydalanuvchilarga zaruriy kartografik materiallar va tavsiyalar ishlab chiqib taqdim etgan.



Ilmiy faoliyati davomida 300 dan ortiq ilmiy ishlar e'lon qilgan, jumladan olim hammuallifligida "Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining sug'oriladigan tuproqlari" (Toshkent, 2005 y. -266 b.), "Sug'oriladigan tuproqlarning evolyutsiyasi va unumdorligi" (Toshkent, 2015 y. -212 b.), "Tuproq unumdorligi va uni boshqarishning ilmiy asoslari" (Toshkent, 2017 y. -120 b.), "Farg'ona vodiysi sug'oriladigan tuproqlarining xossalari, ekologik-meliorativ

holati va mahsuldorligi” (Toshkent, 2017 y. -328 b.), “Orol bo‘yi hududlarining tuproq resurslari va ulardan foydalanishning ilmiy asoslari” (Toshkent, 2020 y. -204 b.) hamda “Mirzacho‘lning sug‘oriladigan tuproqlari va ularning meliorativ holati” (Toshkent, 2023 y. -98 b.) nomli monografiyalar, shuningdek 10 tadan ortiq uslubiy va o‘quv qo‘llanmalar hamda 20 tadan ortiq tavsiyanomalar tayyorlanib ishlab chiqarishga joriy qilingan.



N.Y.Abduraxmonov «Ustoz-shogird» tizimidagi ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, Institutdagi doktorantlar, tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilari hamda O‘zMUning magistratura va bakalavriat talabalariga zaruriy taklif va tavsiyalar hamda ko‘rsatmalar berib kelmoqda. Jumladan, 4 nafar falsafa doktori va 2 nafar magistr tayyorlagan, hozirda 6 nafar tadqiqotchilarining doktorlik dissertatsiyasi ishi bo‘yicha ilmiy rahbarlik va ilmiy maslahatchilik qilib kelmoqda.



2017-2019 yillarda Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.27.06.2017.Qx/B.43.01 raqamli qishloq

xo‘jaligi va biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori va falsafa doktori ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashning ilmiy kotibi va Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar a‘zosi sifatida samarali mehnat qilgan.

2020 yildan buyon Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli qishloq xo‘jaligi va biologiya fanlari bo‘yicha fan doktori va falsafa doktori ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari va Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi sifatida mehnat qilmoqda, shuningdek, 2019 yildan buyon Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.B.05.03 raqamli biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash a‘zosi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, u O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirining tegishli buyruqlari asosida “O‘rmon xo‘jaligi, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish fanlari” yo‘nalishi bo‘yicha Ilmiy-texnik kengash a‘zosi hisoblanadi.

N.Y.Abduraxmonov o‘tgan davr ichida turli xalqaro grantlar doirasida qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish maqsadida Turkiya (2013 y.), AQSh (2014 y.) va Niderlandiya (2024 y.) davlatlarida xizmat safarida bo‘lgan.

2016-yil u «O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGIGA 25 YIL» esdalik nishoni bilan taqdirlangan

U siyosiy jihatdan barkamol, ma‘naviy yetuk, o‘zining samimiyligi, kamtarinligi, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, qishloq xo‘jaligi, xususan, tuproqshunoslik sohasiga fidoyiligi bilan keng jamoatchilik orasida katta hurmat qozongan, oilali, 2 farzandning mehribon otasi.



ABDURAXMONOVA NILUFAR ZAYNOBIDDIN QIZI

Filologiya fanlari doktori, professor

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi 1987-yil 24-aprelda Andijon viloyatining Qo‘rg‘ontepa tumanida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek.



1994-2003-yillarda Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 5-sonli o‘rta maktabni imtiyozli tamomlagan.

2003-2005-yillari Andijon viloyati Andijon shahri ADU qoshidagi 11-sonli litsey-internatini imtiyozli diplom bilan bitirgan.

2005-2009-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan.

2007-yilda O‘zMU stipendianti va iqtidorli talabalar uchun beriladigan O‘zbekiston Respublikasi kasaba uyushmasi federatsiyasi stipendianti bo‘lgan.

2009-2010-yillarda Olmazor tumani Politehnika kasb-hunar kollejida ilk pedagogik faoliyatini boshlagan.

2009-2011-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida magistratura mutaxassisligida tahsil olgan va imtiyozli diplom bilan tamomlagan.

2010-yilda O‘zbekiston Milliy universiteti yosh olimlar uchun beriladigan loyihalar tanlovida sovrindor bo‘lgan. Mashina tarjimasiga oid tadqiqoti 2011-yil Respublika innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar ko‘rgazmasida namoyish etilgan.

2011-2012-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakultetida “Til nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining stajyor-

tadqiqotchi-izlanuvchisi

bo‘lgan.




2012-2016-yillarda turli respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida **“Eng yaxshi innovatsion g‘oya”, “Eng yaxshi maqola muallifi”, “Eng dolzarb g‘oya muallifi”** nominatsiyalari sohibasi bo‘lgan. 2016-2017-yillarda Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida tayanch doktoranturasini tamomlagan.

2016-2021-yillarda Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida dotsent lavozimida ishlagan.



2018-yilda f.f.d., prof. H.Dadaboyev ilmiy rahbarligida **“Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta‘minoti”** mavzusida 10.00.11- Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini, 2021-yili **“O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari”** mavzusida DSc doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

2023-yilda 10.00.11-Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvonini olgan.



2018-yili **“El-yurt umidi”** (Iste‘dod) fondining stipendiati sifatida Kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kurslari bo‘yicha Litvaning Vitautas Magnus universitetida malaka oshirib, a‘lo darajali sertifikat bilan tamomlagan.

2017-2021-yillar uchun N.Abduraxmonova **“Markaziy Osiyo universitetlarida sohalararo magistratura dasturini rivojlantirish-CLASS”** deb nomlangan xalqaro Erasmus+loyahasining universitet koordinatori bo‘lgan.



2017-2019-yillar uchun Qozog‘istondagi Gumilyov nomidagi Yevroosiyo universitetining **“AP05132249 Разработка электронных тезаурусов тюркских языков для создания систем многоязычного поиска и извлечения знаний”** nomli xalqaro loyiha ishtirokchisi bo‘lgan.

2018-yilda Ispaniyaning Koruna universitetida xalqaro Erasmus+ loyihasi doirasida Kompyuter lingvistikasi bo‘yicha

malakasini oshirib, sertifikatni qo‘lga kiritgan.



2019-yili Polshaning Adam Miskievich universitetida NLP bo‘yicha Erasmus+ loyihasi doirasida malaka oshirgan.

2019-yili “100 ta eng yaxshi innovatsion loyihalar” nomli tanlovining “Eng yaxshi ma’lumotlar bazasi” nominatsiyasi bo‘yicha Respublika bosqichida g‘olibasi bo‘lgan. Shu nominatsiya bo‘yicha Koreya olimi ayollar assotsiatsiyasining maxsus sertifikatini qo‘lga kiritgan (2019).



2019-yili Fransiyaning Parij shahrida YUNESKO tomonidan o‘tkazilgan “*Til texnologiyasi hamma uchun*” (*Language technology for all*) xalqaro konferensiyasining til sohasi bo‘yicha ekspert bo‘lgan.

2017-2021-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Kompyuter lingvistikasi laboratoriyasining rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

N.Abduraxmonova rahbarligida 2020-yilda Oila va mahalla ilmiy tadqiqot instituti tomonidan moliyalashtirilgan loyiha doirasida

<https://uzbekcorpus.uz/> nomli o‘zbek tilining korpusi yaratilgan.

2020-yil N.Abduraxmonova rahbarligida ikki nafar talaba nomdor stipendiya (I.Karimov nomidagi va Alisher Navoiy nomli) sohiblari bo‘lgan.

Shuningdek, N.Abduraxmonova 2021-yili “Qadring baland baland bo‘lsin, ona tilim” nomli tanlovining Respublika bosqichida 2-o‘rin sohibasi bo‘lgan.



2021-2023-yili N.Abduraxmonova Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan “Yangi avlod o‘quv lug‘atlari va ularning mobil ilovasini yaratish” nomli amaliy loyihada ishtirok etgan.

N.Abduraxmonova har yili o‘tkaziladigan “Kompyuter lingvistikasining zamonaviy texnologiyalari- CTCL.2024” nomli xalqaro konferensiyasining doimiy moderatori hisoblanadi. Shuningdek, u Skopus bazasiga indekslanuvchi bir nechta xalqaro konferensiyalarning dastur a’zosi:

- Turklang — International Conference on Computer Processing of Turkic Languages <https://turklang.ieees.org/cfp/>
- SPb Corpora 2023: The 11 th St. Petersburg International Conference on Corpus Linguistics 2023 <https://easychair.org/cfp/corpora2023>
- Human Language Technologies as a Challenge for Computer Science and Linguistics international conference <https://lhc.amu.edu.pl/>
- 15th International Conference on Computational Collective Intelligence
- 27-29 September 2023, Budapest, Hungary <https://iccci.pwr.edu.pl/2023/>

- Modelling and Simulation of Social-Behavioural Phenomena in Creative Societies (MSBC-2024) 3rd International Conference September 18-20, 2024 Almaty, Kazakhstan <https://msbc.tech/>



Endilikda Nilufar Abduraxmonova O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi mudiri vazifasida faoliyat olib bormoqda.



Olima dunyoning 1000 talik ro‘yxatiga kiritilgan xorijiy universitetlarida kompyuter va korpus lingvistikasi bo‘yicha ma‘ruzalar o‘qigan: Qozon Federal universiteti (2020, onlayn), Novosibirsk universiteti (2021, Rossiya), Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti (2022, Qozog‘iston), Al Farobiy nomidagi qozoq milliy universiteti (2023, Qozog‘iston), Puate universiteti (2023, Fransiya).

4 ta monografiya, 5 ta o‘quv qo‘llanma, 4 ta darslik, 1 ta uslubiy qo‘llanma, xorij va

respublika nashrlarida e‘lon qilingan 400 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr etgan, 30 dan ortiq dasturiy ta‘minot va ma‘lumotlar bazasi uchun mualliflik guvohnomalarini qo‘lga kiritgan.



Darsliklar: *Kompyuter lingvistikasi (2021), Korpus lingvistikasi (2023), Sotsiolingvistika (2024, hammualliflikda), Kompyuter lingvistikasina kiriv (2024, hammualliflikda (qoraqolpoq tilida));*

O‘quv qo‘llanmalar: *Mashina tarjimasining lingvistik asoslari (2012), O‘zbek tilidan universal qo‘llanma (2013, hammualliflikda), Ontology and semantic technologies (2020, xorijiy olimlar hammuallifligida), Tabiiy tillar jarayoni uchun dasturlash (Python) (2023, hammualliflikda), Ontologiya va semantik texnologiyalar (2024, hammualliflikda);*


Monografiyalar: *Mashina tarjimasining lingvistik ta‘minoti (2018), O‘zbek tili elektron korpusning kompyuter modellari (2021), Kompyuter leksikografiyasida ontologiya (2023, hammualliflikda);*

Lug‘atlar: *Inglizcha-o‘zbekcha fe‘lli frazemalar lug‘ati (2017), O‘zbek tili omonimlarining o‘quv lug‘ati (2022, hammualliflikda), Kon-sanoat sohasidagi terminologik birliklarning tarjima lug‘ati (2023, hammualliflikda);*

She‘riy kitob: *Biz kutgan bahor (2004).*

Oilali, uch farzandning onasi.

Shu kungacha N.Abduraxmonova rahbarligida 3 nafar PhD, 20 dan ortiq magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan.



ABDUVALIYEV MUHAMMADJON ARABOVICH
Filologiya fanlari doktori, professor

Muhammadjon Abduvaliyev Arabovich 2006-yili “O‘zbekiston Mustaqilligiga 15-yil” esdalik nishoni, 2024-yili 8-yanvarda “Best publication” (MDH) ilmiy tadqiqotlar markazining “ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN” esdalik ko‘krak nishoni, 2024-yil 2-iyun “SHARAF” (Yilning eng yaxshi olimi) tanlovi g‘olibi, Fan va ta’lim rivojiga qo‘shgan hissalar uchun (MDH) umum milliy assotsiatsiyasi tomonidan 2021-yil “Eng yaxshi pedagog” medali bilan hamda 2010-2023 yy Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



Umumiy mehnat staji — 47 yil. Andijon Davlat Chet tillari Instituti (ADCHTI) professor o‘qituvchisi shu bilan birga Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, ADCHTI- qoshidagi chop etilayotgan “JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, SOCIETY” (JSES) jurnali bosh muharriri va ikki turdagi xalqaro jurnallarning tahririyat a’zosi, Namangan Davlat Universiteti (NamDU) huzuridagi ilmiy kengash a’zosi, ADCHTI- Ixtisoslik bo‘yicha



ilmiy kengash raisi, ADCHTI- professori hamda pedogogi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



M.Abduvaliyev o'z mehnat faoliyatini 1981-yili Andijon Davlat Tillar Pedagogika Instituti ingliz tili fonetikasi va grammatikasi kafedrasida o'qituvchisi lavozimida boshladi. U 1983-yili Toshkent davlat universiteti stajyor-tadqiqotchi va 1985-yili Andijon davlat tillar pedagogika instituti ingliz tili leksikasi va stilistikasi kafedrasida o'qituvchisi sifatida faoliyatini davom ettirdi. 1986- yildan 1989-yillar oralig'ida Toshkent shahriga qaytib Toshkent davlat chet tillar pedagogika instituti aspiranti sifatida ilmiy faoliyatini davom ettirdi



va ayni shu yillar oralig'ida "Turli tizimdagi tillarda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gaplar (ingliz, o'zbek va boshqa bir necha tillar materiallari asosida) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1989-yili Andijon davlat tillar pedagogika instituti ingliz tili fonetikasi va grammatikasi kafedrasida o'qituvchisi, katta o'qituvchisi, dotsenti sifatida

ish faoliyatini olib bordi. 1996-1998-yillarda Andijon davlat tillar pedagogika instituti ingliz adabiyoti tarixi, tarjima nazaryasi va amaliyoti kafedrasida mudiri, 1998-1999-yillari Andijon davlat tillar pedagogika instituti o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor va shu institutda 1999-yildan 2002-yilga qadar ingliz tili grammatikasi va tarixi kafedrasida mudiri lavozimida faoliyatini davom ettirdi.



2002-2009-yillar oralig'ida ayni shu institutning o'quv ishlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan aloqalar bo'yicha prorektor, 2009 va 2015- yillar oralig'ida Andijon davlati universiteti ingliz tili amaliy kursi va grammatikasi, ingliz adabiyoti tarixi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, ingliz tili va adabiyoti kafedralarida kafedra mudiri, dotsent sifatida ish faoliyatini davom ettirdi.

2015-yildan boshlab ikki yil davomida Andijon davlat universiteti chet tillar fakulteti dekani lavozimida ishladi. 2017-2021 yillarda universitetning ingliz tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, 2021-2022 yillar oralig'ida kafedra professori sifatida faoliyatini yuritdi. 2022-yil 5-sentyabrdan hozirga qadar Andijon davlati chet tillari instituti Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.



Joriy yilning Dekabr oyida "To'siqsizlik konsepti nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va

lingvopragmatik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va boshqa tillar misolida)” mavzusidagi doktorlik (Dsc.) dissertatsiyasini himoya qildi.



Bundan tashqari M.Abduvaliyev 2 ta davlat grantlari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarga ham a’zo. Bular: 1.O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, hamda Namangan davlat universitetining 2020-yil 13-Avgustdagi FZ 20190815110-son shartnomasi asosida 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan ingliz tili va adabiyoti kafedrasida bajarilgan “Кодекс Куманикус” qo‘l yozmasining ilmiy izohli matni va elektron izohli lug‘atini yaratish innovatsion amaliy loyihasida katta ilmiy xodim (NamDuning 2022-yil 1-martidagi 43B\O sonli buyrug‘i);



2.O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi, hamda Namangan davlat universitetining 2020-yil 1-iyundagi FZ-201912099-son shartnomasi asosida “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillaridagi veb-sayti va multimedia mahsulotlarini yaratish” loyihasida kichik ilmiy xodim (NamDuning 2020-yil 1-martidagi 43B\O sonli buyrug‘i, loyiha qiymati 1millard 350 ming so‘m). 2024-2025- yillar davomida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ajratilgan

mablag‘lar hisobidan “Xalqaro yo‘nalishda ta’lim olayotgan qizlarning vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy loyiha a’zosi (Buyruq N13 01.06.2024). Andijon davlat chet tillari instituti, hamda Qo‘qon davlat Pedagogika institutida faoliyat yuritayotgan Ingliz tili bo‘yicha malaka imtihonlari qabul qilish komissiyasi rais o‘rinbosari (ADU, ADCHTPI da 2020-yildan buyon), a’zo (QDPI da 2021-yildan buyon) sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Andijon davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD. 03\30.12.2019 FIL.6002 raqamli ilmiy kengash ilmiy seminari, shuningdek, Namangan davlat universiteti ilmiy daraja beruvchi PhD 03\31.032021 FIL.76.05 raqamli ilmiy kengash va ilmiy seminari a’zosi. “Fan texnologiyalardagi ilg‘or tadqiqotlar” (2021-yil); “Pedagogik kashfiyotlar va amaliyotlar” (2022-yil) AQSH, Plano, Texas xalqaro jurnallari hay‘atlari a’zosi; Andijon davlat universiteti ilmiy xabarnomasi va nashriyot tahliliy bo‘limida 2018-2022 yillarda tahrirchi sifatida faoliyat yuritdi. 2019-2020-yillarda Bobur nomli Xalqaro Jamoat fondi bilan tuzilgan shartnomaga asosan Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (2-nashr) ni ingliz tiliga tarjima qiluvchi ijodiy guruh a’zosi sifatida qatnashdi.



2020-2021 o‘quv yili Andijon mashinasozlik instituti Xorijiy (Ingliz) tili fanidan (buyruq №105 16.04.2021-yil), 2021-2022 o‘quv yili Namangan davlat universiteti Ingliz tili adabiyoti magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining DAK raisi (buyruq №471910 21.04.2019, №31 B/O 30.05.2022; №51 B/O 29.04.2021).



2021-2022 o‘quv yilida Andijon davlat universiteti mutaxassislik fanlari va magistrlik dissertatsiyalari himoyasi bo‘yicha attestatsiya komissiyasi a‘zosi (buyruq №02-97 20.04.2022). 2013-2015-yillarda “Andijon Yoshlari” gazetasi sahifalarida 20 soatlik til o‘rganuvchilarning grammatik va muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan hamma bop darslari e‘lon qilingan.



M.A.Abduvaliyev o‘z kasbiy faoliyati va jamoatchilik faoliyati bilan birga ilmiy salohiyatini ham namoyon qilib kelmoqda turli ilmiy nashrlarda maqolalari e‘lon qilinib kelmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi kengash ruxsatnomalari bilan 3 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 3 ta monografiya, 3 ta elektron o‘quv qo‘llanma, ADU, ADCHTI

ilmiy kengashlari qaroriga ko‘ra nashr etilgan va ta‘lim jarayonlariga tatbiq etilgan. O‘ndan ziyod ko‘p tillik lug‘at va uslubiy qo‘llanmalar nashr etgan. Hozirgi kunga kelib M.Abduvaliyev tomonidan chop etilgan ham mualliflik va yakka mualliflikga doir 37 turdagi darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya, elektron o‘quv qo‘llanma, ko‘p tillik lug‘at va uslubiy qo‘llanmalari mavjud. Bundan tashqari Respublika miqyosida chop etilgan tezislar (63 ta) va xorijiy tezislar (24 ta) hamda OAK jurnallardagi maqolalari (26 ta) ni tashkil qiladi. Patent, guvoohnoma va litsenziyalarga ega nashrlari (14 ta) ni tashkil qiladi.



Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami va shunga o‘xshash qator ilmiy maqola va nashrlarning muallifi sifatida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Shu kunga qadar M.A.Abduvaliyev 14ta doktorlik (PHD) dissertatsiyalari, 20 dan ziyod magistrlik dissertatsiyalari, 30 dan ziyod bitiruv malakaviy ishlari, 100 dan ziyod kurs ishlariga ilmiy rahbarlik qilgan.





ABILOV O'ROL MURODOVICH **Falsafa fanlari doktori, professor**

1966 yil Samarqand viloyati, Poyariq tumanidagi 14-internat-maktabida badiiy rahbar va kutubxonachi lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan.



1976 yili Toshkent davlat universitetining falsafa fakultetini tugatganidan so'ng, yo'llanma asosida, Toshkent davlat meditsina institutida ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchi lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirgan. 1976-1997 yillar ichida Abilov U.M. mazkur institutda katta o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, professor va tarbiyaviy ishlar bo'yicha prorektor lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1998-1999 yillari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining millatlararo masalalar bo'yicha konsultanti va 1999-2000 yillari Ommaviy axborot vositalari bilan ishlash markazi Milliy mafkura va tafakkur masalalari guruhining yetakchi konsultanti, 2000 yilning may oyigacha jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha Davlat

maslahatchisi xizmati Ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha guruhining yetakchi konsultanti. 2001-2004 yillari Ikkinchi Toshkent Davlat tibbiyot instituti ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha birinchi prorektori.



2004 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tibbiy ta'limni rivojlantirish markazining direktor o'rinbosari, 2020-2022 yillari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha vazir maslahatchisi lavozimlarida va 2022 dan hozirgacha Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘.M.Abilov mamlakatimizda oliy malakali kadrlar tayyorlash va ularni attestatsiya qilish ishlariga ham munosib hissa qo‘shib kelmoqda. U uzoq yillar mobaynida falsafa fanidan ixtisoslashgan kengash a‘zosi bo‘lib, yurtimizga salohiyatli fan nomzodlari va doktorlari yetishtirishga munosib hissa qo‘shdi. Shu choqqacha uning rahbarligida 11 ta fan nomzodi, 1 fan doktori va 5 ta magistr dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Abilov O‘.M. 2012- 2014 yillari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat boshqaruvi akademiyasida tashkil qilingan “Mustaqillik mafkurasi va demokratik jamiyat qurishning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ilmiy asoslari” predmeti bo‘yicha imtihon komissiyasi a‘zosi.



O‘.M.Abilov mehnat faoliyatini ilmiy izlanishlar bilan chambarchas bog‘liqlikda olib boradi. U 1988 yili “Ijtimoiy optimizm – turmush tarzining muhim belgisi sifatida” mavzusida nomzodlik, 1994 yili “Mustaqil O‘zbekiston tarixiy taraqqiyoti hozirgi bosqichining optimistik mohiyati” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U ijtimoiy falsafa, milliy

mafkura, mustaqillik va uning optimistik mohiyati yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borib, mazkur sohalarga oid 350dan ziyod ilmiy va ommabop ijodiy ishlari, shuningdek 7 ta falsafa, mantiq hamda siyosatshunoslik fanlariga oid o‘quv darsliklari nashr qilingan.



Uning “Оптимизм и пенссимизм в динамике развития научно-философской мысли”. Tashkent. “FAN” Uzb. 1992, “Nezavisimost i optimizm” Tashkent. “FAN” Uzb. 1997, «Milliy g‘oya: ma‘naviy omillar. Toshkent "Ma‘naviyat"-1999», «O‘zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi. “Istiqlol” Toshkent 2003», «Tibbiyot xodimlari ma‘naviyati» (mualliflar hamkorligida), Toshkent. “Yangi asr” 2014, “Tibbiy atamalar izohli lug‘ati”, (hammualliflikda) Toshkent. “Yangi asr” 2021, “O‘zbekiston taraqqiyoti: optimizm, ma‘naviyat, mafkura va tafakkur evolyutsiyasi” Toshkent. “Fan ziyosi” 2022, “Optimistik evolyusiya: tafakkur, ma‘naviyat, mafkura”. Toshkent. “Fan ziyosi” 2023 kabi kitoblari keng jamoatchilikning e‘tiboriga sazovor bo‘lgan.



U 2010 yili O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



AHMEDOVA LAYLOHON TOLIBJONOVNA

Pedagogika fanlari doktori, professor

Ahmedova Tolibjonovna 1957-yil 1-oktyabrda Farg‘ona viloyati Rishton tumanida dunyoga kelgan. Oliy ma‘lumotli. Pedagog olim, pedagogika fanlari nomzodi (1993), pedagogika fanlari doktori (2012), professor (2014). O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni (2016), "Oliy ta’lim a’lochisi" esdalik nishoni (2023) bilan taqdirlangan.



Herson davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetini tamomlagan (1980). Farg‘ona viloyati, Quva tumani 13-o‘rta maktab rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi (1980-1986). Farg‘ona viloyati, Quva tumani

xalq maorifi bo‘limi metodisti (1986-1988). Farg‘ona viloyati, Quva tumani 13-o‘rta maktab rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi (1988-1989). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti aspiranti (1989-1992). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tillar o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi, dotsenti (1992-1998). Toshkent viloyati Pedagog xodimlar malaka oshirish instituti Yevropa tillari kafedrasida dotsenti (1998-2001). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tillar o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti (2001-2003). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tillar o‘qitish metodikasi kafedrasida mudiri (2003-2011). O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti zamonaviy pedagogik texnologiyalar kafedrasida mudiri, professori (2011-2014). 2014-yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz Filologiyasi fakulteti, Ingliz tili o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari kafedrasida

professori kabi turli lavozimlarda o‘z mehnat faoliyatini davom ettirdi.

2006 – 2007 o‘quv yilida “Yilning eng yaxshi kafedra mudiri” unvoniga ega bo‘lgan. 2006 – 2008 yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi K.067.44.03 “Chet tillar o‘qitish nazariyasi va uslubiyati” — 13.00.02–Ixtisoslashgan kengash Ilmiy kotibi, 2008–2011 yillarda ushbu kengash a‘zosi, 2012–2022 yillarda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi K.067.18.02 “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi” 13.00.05–Ixtisoslashgan kengash qoshidagi ilmiy seminar va ixtisoslashgan kengash a‘zosi.



2017-2023 yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi 13.00.02–Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (xorijiy tillar bo‘yicha) Ixtisoslashgan kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi va ixtisoslashgan kengash a‘zosi. 2024 yildan bugungi kunga qadar O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi 13.00.02–Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (xorijiy tillar boyicha) Ixtisoslashgan kengash raisi.

Uning ilmiy ishlari lingvodidaktika, metodika, pedagogika, O‘zbekiston Respublikasida til ta‘limi tizimini rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim tizimida chet tillarni o‘qitishning yangi tendensiyalarini tahlil qilish, chet tillarini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya, pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va ta‘limning kredit-modul tizimidan foydalanish, chet tillarni o‘qitishda samarali

yondashuv, metod va usullardan foydalanish, talabalar o‘rtasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘liqdir.



L.T.Ahmedova tomonidan chet tillarni o‘qitish metodikasida fanlararo aloqalarini qo‘llash ehtiyoji nazariy asoslanib berilgan; to‘plangan materiallarning funksional-stilistik va fanlararo yo‘nalishi asosida kasbiy nutqqa bosqichma-bosqich o‘qitish tizimi ishlab chiqilgan; badiiy matnlar bilan ishlashda bilingv-talabalar chet til nutqida paydo bo‘layotgan nutq interferentsiyasi sabablari aniqlangan; og‘zaki va yozma fikrni bildirishda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha o‘quv-til vazifalarning yangi tipologiyasi yaratilgan; badiiy matnlar materiali asosida chet til kasbiy nutqqa o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan va ilmiy-nazariy asoslab berilgan; kasbiy nutqning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, jummalarni tuzish va qo‘llashni tashkil etish tamoyillari bo‘yicha pedagogik ta‘lim, innovatsion texnologiyalar kashf etilgan; ishlab chiqilgan metodikani amalga oshirish maqsadida o‘quv-metodik majmua yaratilgan, natijada “Adabiyotni o‘qitish metodikasi”, “Rus tilini o‘qitish metodikasi”, “Adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha talabalarning mustaqil ishi”, “Rus tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari” darsliklari, “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi praktikumi”, “Rus tilini o‘qitish metodikasi praktikumi”, “Rus adabiyotini o‘qitish metodikasi praktikumi”, “Rus tili va adabiyotidan uslubiy atamalarning

lug'at-ma'lumotnomasi", "Ruscha-o'zbekcha-
inglizcha lug'at-uslubiy atamalar
ma'lumotnomasi" o'quv qo'llanmalari
yaratilgan.



Respublika va Respublika filologik oliygothlar miqyosida professor-o'qituvchilar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar ushbu darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan foydalanmoqda. Muallif darsligi "Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi – 2013" respublika miqyosidagi "Ingliz tilini o'qitish metodikasi praktikumi" ("Teaching English Practicum") tanlovida 1-o'rinni egallagan va I-darajali diplom bilan taqdirlangan;

Respublika matbuotida ijobiy fikr-mulohazalar olingan ("O'zbekiston o'qituvchi" gazetasi, 2009-yil 22-may, 21-son); "Adabiyot o'qitish metodikasi" nomli darsligi 2010-yilning eng yaxshi darslik muallifi" Respublika tanlovida rag'batlantiruvchi o'rinni egallagan hamda Respublika matbuotida ijobiy baho (Ma'rifat gazetasi, 2010-yil 30-sentabr, 76-77-son) olgan; "Rus adabiyotini o'qitish metodikasi praktikumi" nomli o'quv qo'llanma "Eng yaxshi darslik va o'quv adabiyoti muallifi – 2011" Respublika tanlovida rag'batlantiruvchi o'rinni egalladi ("Ma'rifat" gazetasi, 2011-yil 24-sentabr, 77-son); "Rus tilini o'qitish metodikasi" nomli darslik "Eng yaxshi darslik va adabiyot muallifi – 2014" respublika tanlovida uchinchi o'rinni egallagan. 2013- yilda "Преподавание языка и литературы" Respublika ilmiy-metodik jurnalining 3- sonida chop etilgan "O

государственных образовательных стандартах системы непрерывного образования Республики Узбекистан" nomli maqolasi Respublika Respublika ko'rik tanlovida 1- o'rinni egallagan.

L.T. Ahmedova ilmiy rahbarligida shogirdlari, bulardan 19 ta PhD, 4 ta DSc bo'yicha dissertatsiyalarini himoya qildi va ilmiy darajaga ega bo'ldi. Uning bevosita rahbarligida 50 dan ortiq magistrlar tayyorlandi.

2000-yilda Hindiston hukumati Nyu Deli Milliy ta'lim sohasi bo'yicha rejalashtirish va boshqarish instituti xalqaro granti sovrindori. Ushbu dastur doirasida "8-9-sinflarda ikkinchi tilni o'qitishda muammolarini o'rganish" ilmiy ishini yozgan va himoya qilgan. 2000-yil Hindiston Nyu Deli Ta'limni rejalashtirish va boshqarish milliy instituti tomonidan ITEC dasturi doirasida xalq ta'limini rejalashtirish va boshqarish sohasida xalqaro diplom bilan taqdirlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012-yil 10- dekabrda 1875-sonli "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Chet tillarni o'rganishning yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash majlisi 297-Bayoniga muvofiq ushbu qarorni amalga oshirish bo'yicha L.T.Ahmedova Chet tillarini bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi yangi ta'lim standartlarini ishlab chiqish ekspert guruhi raisi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875 qarorini amalga oshirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi O'zDJTU qoshida tuzilgan shtabning DTS, o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ularning uzviyligi va

uzluksizligini ta’minlash, baholash tizimini xalqaro standartlar (CEFR)ga yaqinlashtirish bo‘yicha 1-ishchi guruh tarkibida faol ish olib borgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-sonli qaroriga binoan “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standarti” O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri imzosi bilan tasdiqlangan. Ahmedova L.T. ushbu DTS mualliflaridan biridir, natijada O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘rganishni rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun Britaniya kengashi tomonidan 2013-yilda Buyuk Britaniyaning Norvich shahri Til institutida CPD – Continuing Professional Development – dasturi bo‘yicha Angliyaga malaka oshirishga yuborilgan.



Professor L.T.Ahmedova 2024-yilda Rossiya Federatsiyasi Kislovodsk shahridagi “O‘zbekiston” sanatoriyasida “Dam olish – davolanish – bilim olish – malaka oshirish” loyihasi doirasida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti huzuridagi Rossiya Xalq xo‘jaligi va davlat boshqaruvi akademiyasi Shimoliy Kavkaz institutida “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi: maqsadlar, vazifalar va ustuvorliklar” dasturi bo‘yicha malakasini oshirdi va tegishli sertifikat bilan taqdirlandi. Ushbu loyiha Respublika sanatoriyalari (Yalta – Kislovodsk) faoliyatini qayta tiklash va modernizatsiyalash “O‘zbekiston” fondi ko‘magida amalga oshirildi.

Professor L.T.Ahmedova ilmiy tadqiqotlarining natijalari muntazam

(Germaniya, Gamburg; Hindiston, Nyu-Deli; Rossiya, Moskva, Saratov, Voronej, Nijniy Novgorod, Sankt-Peterburg, Kazan; Ukraina, Melitopol; Avstriya, Vena; Buyuk Britaniya; Ozarbayjon, Baku; Dog‘iston, Sumgait, Maxachkala; AQSh, Torrans; Toshkent va b.) ma’ruza qilingan va tillar o‘qitish metodikasi bo‘yicha xalqaro ilmiy forumlarda taqdim etilib, mutaxassislarining yuksak e’tirofiga sazovor bo‘lgan.

Ahmedova Laylohon Tolibjonovna – 220 ta dan ortiq ilmiy nashrlar, 10 dan ortiq monografiya va darsliklar muallifidir. Uning qator ilmiy tadqiqotlari natijasi dunyo ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lib, Respublika va chet el nashrlarida ko‘plab havolalar keltirilgan. Uning barcha fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajasiga ega shogirdlari O‘zbekiston Respublikasi oliygo‘hlarida samarali faoliyat olib bormoqdalar.

Tillarni bilish darajasi: Rus tili – C2, ingliz tili – C1 darajali xalqaro sertifikatlarga ega.

Professor L.T.Ahmedova Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Ona tili va xorijiy tillar Muvofiqlashtiruvchi kengashi komissiyasining a’zosi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarga ekspert.

«Psixologiya i obrazovanie» xorijiy jurnal, “Uzluksiz ta’lim”, “O‘zbekistonda xorijiy tillar”, “Filologiya masalalari” Respublika jurnallarni tahrir hay’ati a’zosi.

Har yili professor-o‘qituvchilar va doktorantlar uchun xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha dolzarb mavzular bo‘yicha Respublika ilmiy seminarlarni o‘tkazadi.

Respublika OTM professor-o‘qituvchilarning ilmiy rivojlanishiga ko‘maklashadi. Rasmiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni biladi. O‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchan. Kamtar. Universitet jamoasi va mutaxassislar orasida halol mehnati va oliyjanob fazilatlarini bo‘is hurmat-e’tibor qozongan.



AKRAMOVA SHAXNOZA ABROROVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor, podpolkovnik

Akramova Shaxnoza Abrorovna 1980 yil 23 may kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Boshlang‘ich ta‘limni Sobir Rahimov (hozirgi Olmazor) tumanidagi Mannon Uyg‘ur nomidagi 22-o‘rta maktabda olgan. U yerni 1995 yili bitirib, 1-sonli Toshkent pedagogika bilim yurtiga o‘qishga kirib, 1999 yili o‘qishni muvaffaqiyatli bitirdi. O‘quv faoliyatini 2002-2008 yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Boshlang‘ich ta‘lim va tarbiyaviy ish ixtisosligi bo‘yicha davom ettirib, bakalavr, magistr darajalarini muvaffaqiyatli qo‘lga kiritdi. 2009 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining Boshqaruv mahorati ixtisosligi bo‘yicha o‘qigan. 2012 yili “O‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish (umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika

fanlari nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlandi. 2017 yil 13.00.01- Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta‘limda menejment ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan.



2018 yili “Bo‘lajak bojxona xizmati xodimlarida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan. 2020 yil 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoniga ega bo'ldi.



Ish faoliyatini 1998 yilda Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Sobir Rahimov nomli 20-o'rta maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchisi lavozimida boshlagan. Shundan so'ng 2001-2007 yillarda umumta'lim maktablarida o'qituvchi, o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlagan. 2007-2008 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining Elektron asarlar bo'limi yetakchi dasturchisi; 2008-2010 yillarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazida Mafkuraviy texnologiyalar va elektron asarlar bo'limida bosh mutaxassis; 2010 yil M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialida uslubchi; 2010-2011 yillarda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Ma'naviyat va ma'rifat markazi boshlig'i; 2011-2013 yillarda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasida yetakchi mutaxassis; 2013-2018 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Oliy harbiy bojxona instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi lavozimlarida ish yuritgan. 2018 yildan boshlab to hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida boshlig'i, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash

kafedrasida boshlig'i lavozimlarida podpolkovnik sifatida harbiy xizmat qilib kelmoqda.

Ilmiy izlanishlari doirasida 200 dan ziyod ilmiy ishlari chop qilingan bo'lib, 4 ta darslik, 5 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya, 4 ta elektron darslik, 10 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 3 ta elektron uslubiy qo'llanma, 3 ta patent muallifi. Uning 150 dan ziyod ilmiy, publitsistik maqolalari milliy va xorijiy mamlakatlar ilmiy nashrlarda chop etilgan.

Sh.Akramova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 24 dekabrda PQ-4075-sonli "Jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Olmazor tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan individual va jamoaviy ijtimoiy psixologik loyihalarini amalga oshirgan.



2018 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi topshirig'iga ko'ra, Respublika harbiy akademik yo'nalishidagi "Temurbeklar maktabi" o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish bo'yicha tashkil qilingan ishchi guruhida faol ishtirok etib, "Ma'naviyat asoslari" fani bo'yicha o'quv dasturi va metodik, multimediali kompleksini yakka mualliflikda ishlab chiqdi.

2018 yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi topshirig'iga ko'ra, Respublika harbiy akademik yo'nalishidagi "Temurbeklar maktabi" o'quv-tarbiya jarayonini

takomillashtirish bo‘yicha tashkil qilingan ishchi guruhida faol ishtirok etib, “Ma’naviyat asoslari” fani bo‘yicha o‘quv dasturi va metodik, multimediyali kompleksini yakka mualliflikda ishlab chiqdi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonning mafkuraviy xaritasi” (yoshlar muammolari) mavzusida amaliy tadqiqot ishlari bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi ishchi guruhi tarkibida ishlar olib bordi.



Sh.A.Akramova O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi Boshqaruvining 2018 yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida Hisobot-saylov konferensiyasida ishtirok etdi va Bosh vazir huzurida harbiy ayollar nomidan o‘z tavsiyalarini bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 maydagi “Ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4342-son Qarori bilan biriktirilgan Sirdaryo viloyati Baxt shahridagi Respublika o‘g‘il bolalar o‘quv-tarbiya muassasasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning zamonaviy usul va shakllaridan foydalanilgan holda sog‘lom va jismonan baquvvat, ruhan tetik, bilimli, vatanparvar, fidoyi, dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda.

2019 yil 9 sentyabr kuni 5815-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 1-9

sinflar “Tarbiya” darsligini ishlab chiqish yuzasidan ishchi guruh a’zosi sifatida metodik tavsiyalar va darslikni mazmun-mohiyatini ishlab chiqqan.

2017-2019 yillarga bajarilgan ITD-2 “Jamiyatda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi ijtimoiy profilaktika mexanizmlarini takomillashtirish” № P3-20170930374-son amaliy ilmiy tadqiqot loyihasida ilmiy xodim sifatida ishtirok etdi. Ushbu loyihadan olingan natijalar asosida ilmiy maqola va uslubiy qo‘llanmalar chop ettirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Bosh ilmiy metodik markazi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi fanlari doktori ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengashlar tarkibida a’zo hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy nashri – “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnali, “Science and Education” ilmiy jurnali, “Thematics Journal of Social Sciences” xorijiy ilmiy jurnalining tahririyat hay’ati a’zosisidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 28 iyul kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 39-sonli bayoni va Prezidentning 2021 yil 9 avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari faoliyatini tizimli tashkil etish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, ularni metodologik ta’minlash, xalqaro tajribani o‘rganish, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar bilan ishlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqishda o‘z jonbozligini ko‘rsatdi.

Shunga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalarida 2021-2022 yillarda Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari tarbiyachilari malakasini oshirilishi yuzasidan o‘quv kurslarida 600 dan ziyod tarbiyachilar, psixologlar, tutingan ota-onalar, SOS-onalar malakasi oshirildi. 2022 yildan to shu kunga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 avgustdagi “Oilaviy bolalar uylari faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-345-sonli Qaroriga ko‘ra, Tutingan ota-onalarni tayyorlash yuzasidan o‘quv kurslarida ko‘plab fuqarolarni tayyorlab kelmoqda.



Mehribonlik o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ular tomonidan erishilgan natijalarni baholagan holda, o‘quv-tarbiya muassasalarining reyting tizimini joriy etish bo‘yicha Sh.A.Akramova tomonidan 20 dan ziyod takliflar berildi.

Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy va boshqa muqobil shakllarini keng joriy etish, oilaviy bolalar uylarining ish faoliyatini yaxshilash maqsadida “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishning oilaviy shakllarini keng joriy etish hamda oilaviy bolalar uylari faoliyatini yaxshilashni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qaror loyihasini ishlab chiqishda faol qatnashdi.

Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi targ‘ibotchisi sifatida turli davlat tadbirlarida faol qatnashib, respublika bo‘ylab seminar-treninglar o‘tkazish bilan bir qatorda “Ma‘rifat” targ‘ibotchilari jamiyati a‘zosi o‘laroq mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarini targ‘ib etishdagi amalga oshirilayotgan tashabbuskorligi tahsinga sazovordir.



Sh.Akramova ko‘plab doktorant va mustaqil tadqiqotchilarga belgilangan mavzularda pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

Sh.Akramova Vatanimiz tinchligi va el-yurt osoyishtaligini ta‘minlash yo‘lidagi fidokorona xizmatlari hamda jangovar hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarlikdan erishgan yuksak natijalari uchun Milliy gvardiya qo‘mondonining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Milliy gvardiya qo‘mondonining “Namunali xizmatlari uchun” III darajali ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Sh.Akramova oilali. Ikki farzandning onasi. U mas‘uliyatli harbiy xizmatchi sifatida hamkasblari va jamoadoshlari orasida o‘z hurmat-e‘tiboriga ega. Shaxnoza Akramova kelajakda o‘z kasbining mahoratli egasi, yetuk olim, yoshlarga ta‘lim-tarbiya beruvchi fidoyi pedagog va talabchan rahbar sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.



AMONBOYEV MAHAMMADSIDIK AMONBOYEVICH
Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Mahammadsidik Amonboyev 1979 yil 20 mayda Andijon viloyatining Marhamat tumanida tug'ilgan. Millati – o'zbek. 1996-2000 yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bakalavriat bosqichida ta'lim olgan. 2000-2002 yillarda TDIUning magistratura bosqichini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi.



Iqtidorli yosh kadr mamlakatimizning intellektual salohiyatini, fan, pedagogika va iqtisodiyotimiz rivojlanishini jahonning eng

ilg'or darajasiga ko'tarish, barqaror taraqqiyotini ta'minlashda faol ishtirok etishni maqsad qilgan. Uning mehnat faoliyatiga nazar tashlasak, ilk ish faoliyatini 1999-2000 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o'quv bo'limida statistlikdan boshlagan. 2000-2001 yillarda "Ustoz" respublika jamg'armasi buxgalter yordamchisi sifatida ish o'rgangan. 2001-2003 yillarda TDIUning Ma'naviyat va ma'rifat bo'limida muhandis-dasturchi sifatida sidqidildan mehnat qilgan.

Mahammadsidik Amonboyev o'z ilmiy faoliyatini davom ettirib, 2003-2006 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida assistenti bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli kadrlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi grant sovrindori sifatida Arxus texnika kolleji (Daniya)da Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar bo'yicha 1 oylik kursda muvaffaqiyatli ishtirok etgan.



Uning pedagogik faoliyatiga nazar tashlasak, 2006-2008 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi sifatida yosh kadrlarni ilmiy, salohiyatli mutaxassislar etib tarbiyalash, iqtidorlarini yuksaltirishga ko‘maklashgan. 2008-2012 yillarda esa TDIUning Korporativ boshqaruv kafedrasida katta o‘qituvchi (kafedra mudiri vazifasini bajaruvchi) bo‘lib mehnat faoliyatini davom ettirgan. Shu bilan birga o‘z ilmiy salohiyatini uzluksiz oshirib borishga e‘tibor qaratgan. BATT universiteti (Angliya)da Britaniya kengashi bilan xalqaro loyiha ishtirokchisi sifatida malaka oshirish kursida muvaffaqiyatli qatnashgan.

Uning tashabbuskorligi, ilmiy tajribasi va jamoani o‘z ortidan ergashtirish qobiliyati inobatga olinib, 2012-2014 yillarda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Ta‘lim muassasalarida elektron ta‘limni joriy etish markazi direktori etib tayinlangan. Markaz boshqaruvi jarayonlarida oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida o‘quv jarayonini yuqori texnologik darajada tashkil etish uchun elektron o‘quv-metodik va axborot-kutubxona resurslari, axborot tizimlari shakllantirilishini ta‘minlashda e‘tiborga molik ishlar amalga oshirilgan.

Mahammadsidik Amonboyev 2014-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Bank-moliya tizimi rivojlanishini tadqiq qilish markazi katta ilmiy xodimi sifatida faoliyat yuritgan. Buyuk Britaniyaning Bristol shahrida 3 oylik ingliz tili kursida ishtirok etgan. 2015-2016 yillarda esa Bank-moliya akademiyasining Kadrlar

bo‘limiga boshliq etib tayinlangan. Shuningdek, ilmiy faoliyatini uzviy davom ettirib, akademiyaning Investitsiyalar kafedrasida katta ilmiy xodim-izlanuvchi bo‘lgan.



Tajribali ustoz 2017 yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Korporativ boshqaruv kafedrasida dotsenti bo‘lgan. 2016 yilning 29 sentyabridan 2017 yilning 30 iyunigacha Ispaniyaning Las Palmas de Gran Kanariya universitetida doktorantura dasturida o‘qishga muvaffaq bo‘lgan.

U 2017-2022 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Turizm va servis kafedrasida mudiri mas‘ul lavozimida mehnat qilib, turizm iqtisodiyoti, xalqaro turizm, mehmonxona xo‘jaligi sohalariga yosh malakali mutaxassislar tayyorlash ishlarini sifat jihatidan yuksaltirishga katta hissa qo‘shgan.



Yosh olim qator xorijiy mamlakatlarda malaka oshirishda davom etgan. Xususan, 2018 yilda Moskva davlat universitetida tashkil etilgan Ekonometrika kursida muvaffaqiyatli ishtirok etgan. 2019 yilda Sankt Peterburg davlat iqtisodiyot universitetida tashkil etilgan “Oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy loyihalarni

boshqarish” kursida malaka oshirgan. Shu yili Xitoyning Shenyang universitetida tashkil etilgan xorijiy malaka oshirish kursida ham ishtirok etgan.

Mahammadsidik Amonboyev muallifligida 10 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar oliy ta'limni muvofiqlashtiruvchi Kengashi guvohnomasi asosida chop etilgan. Jumladan, “Korporativ boshqaruv” (2010 y), “Bozor infratuzilmasi nazariyasi” (2012 y), “Marketing turizma” (2021 y), “Fundamentals of tourism” (2021 y), “Turizm atrof-muhit iqtisodiyoti” (2021 y) darsliklari, “Turizm iqtisodiyoti” (2019 y), “Ekonomika turizma i gostinix uslug” (2019 y), “Regionalniy turizm” (2019 y), “Ekonomika turizma” (2019 y) kabi qator o'quv qo'llanmalari yosh tadqiqotchilar, talabalar, soha mutaxassislari uchun dasturilamal vazifasini o'tamoqda. Shuningdek, uning 40 dan ortiq ilmiy maqolalari xalqaro va mahalliy jurnallarda chop etilgan. Hozirgi kunda 1 ta xalqaro va 2 ta mahalliy jurnalning tahririyat a'zosisidir.

Mahammadsidik Amonboyev ilmiy rahbarligida 4 nafar ilmiy tadqiqotchi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini egallagan. Xususan, ularning 1 nafari xorijlik tadqiqotchi. Shuningdek, hozirgi kunda 6 nafar ilmiy tadqiqotchi uning ilmiy rahbarligi ostida ilmiy tadqiqot olib bormoqda.



Mahammadsidik Amonboyev 2022 yildan Xalqaro Nordik universitetida Akademik ishlar bo'yicha prorektor mas'ul lavozimida fidoyilik bilan mehnat qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasasida xalqaro va davlat ta'lim standartlari asosida o'quv va o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish hamda malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash, ilg'or xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, ta'lim sifatini tizimli takomillashtirib borish yuzasidan takliflar tayyorlash va tatbiq etish ishlarini mas'uliyat bilan ado etib kelmoqda.



U shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik asnosida yurtimiz ravnaqi yo'lidagi tashabbus va loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Xalqaro Nordik universiteti va Sharqiy Osiyoning ICLEI xalqaro tashkiloti o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumi asosida 2023 yilda Xitoyning Shenjen shahrida o'tkazilgan “Mintaqaviy past uglevodli sanoatni chuqurlashtirish: hamkorlik va innovatsiyalar” mavzusidagi forumda O'zbekiston delegatsiyasiga rahbarlik qildi. Joriy yilning aprel oyida XNU taklifiga ko'ra yurtimizga tashrif buyurgan ICLEI xalqaro tashkiloti delegatsiyasiga hamrohlik qilib, yurtimiz rasmiy doiralari bilan BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlarini O'zbekistonda amalga oshirishga qaratilgan uchrashuv va muzokaralar uyushtirishda ko'maklashdi. Vazirlik va qo'mitalar, shuningdek Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlarining hokimliklarida mahalliy hukumatlarga yordam beruvchi bu xalqaro tashkilot mas'ullaridan shaharlar kelajagiga doir zarur tavsiyalar olishga erishildi.

Mahammadsidik Amonboyev oilali, 3 nafar farzandi bor.



AVLIYAKULOV MIRZOOOLIM AVAZOVICH

Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Mirzoolim Avazovich Avliyakov 1989 yilda Surxondaryo viloyatida tug'ilgan, millati o'zbek, oliy ma'lumotli. Toshkent Davlat Agrar Universitetini 2011 yilda bakalavr, 2013 yilda magistraturani agronomiya mutaxassisligi bo'yicha imtiyozli diplomlar bilan tamomlagan.



2013-2014 yillarda Hindistonda Indian Institute of Remote Sensing institutida (on Remote Sensing and Geographic Information System) yo'nalishi bo'yicha bakalavrdan keyingi post graduate diplomini tamomlagan.

Avliyakov Mirzoolim Avazovich 2019 yil 31 yanvardan buyon qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc). Doktorlik dissertatsiyasini 2018 yil 28 dekabrda "Sug'oriladigan yerlardan yil davomida samarali foydalanishning ilmiy asoslari" mavzusida 06.01.02 – "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" (qishloq xo'jaligi fanlari) ixtisosligi bo'yicha himoya qilgan.

2018 yil 30 oktyabrda "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" ixtisosligi bo'yicha katta ilmiy xodim ilmiy unvoni berilgan.

2024 yilda esa 06.01.02 – "Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik" (qishloq xo'jaligi fanlari) ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoni berilgan.

Umumiy ish faoliyati 13 yil, ilmiy-pedagogik ish faoliyati 13 yil. M.A.Avliyakov qishloq xo'jaligida ko'p yillik o'tkazgan ilmiy-tadqiqotlari, dala tajribalarida nafaqat g'oz, balki kuzgi bug'doy, arpa, kartoshka, karam, piyoz, pomidor, mosh kabi ekinlarning ham suv

iste'molini o'rgangan va sug'orish tartiblarini ishlab chiqqan. Uning doktorlik dissertatsiyasi sug'oriladigan yerlarni yil davomida samarali foydalanishni ilmiy asoslashga qaratilgan.



Ushbu tadqiqotlar asosida janubiy mintaqa o'tloqlashib borayotgan taqirsimon va markaziy mintaqa sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlaridan yil davomida ilmiy asosda samarali foydalanib, bir daladan yiliga 2-3 martagacha yuqori hosil yetishtirishning maqbul agrotexnologiyasini ishlab chiqqan. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'oz, kuzgi bug'doy, kartoshka, mosh va pomidor ekinlarining sug'orish muddatlarini barg hujayra shirasi konsentratsiyasi orqali bashoratlash shkalalarini ishlab chiqqan.

M.A.Avliyakov 2 nafar fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan oliy malakali mutaxassis tayyorlagan.



Qishloq xo'jaligi fanlari doktori **Avliyakov Mirzoolim Avazovich** Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida belgilangan tartibda 2011 yildan buyon

uzluksiz ravishda 8 ta amaliy loyihalarda jumladan 2 ta loyihada rahbar (QX-A-QX-2018-148; IL-21091358) va 6 ta loyihalarda ijrochi (QXA-7-093; QXA-9-012; QXA-9-077-2015; QX-A-QX-2018-153, A-QX-103; PZ-202008215), 4 ta xalqaro loyihalarda (Lift irrigation; CRP 1.1 Dryland systems; EU-AGRIN Fergana; EU-AGRIN Tashkent) ijrochi sifatida ishlagan va ishlab kelmoqda.



M.A.Avliyakov Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti (IWMI)da "Lift irrigation", "CRP 1.1. Dryland systems", Jahon bankining "Yaxshiroq paxta yetishtirish tashabbusi (Better cotton initiative)", QXA-9-012 "Yangi tizimdagi meliorativ mintaqa gidromodul hududlar bo'yicha rayonlashtirilgan, istiqbolli, yangi o'rta, ingichka tolali g'oz navlarini ko'chat qalinligi, suv-o'g'it me'yor-nisbatlari, sug'orish tartiblarini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish" (2012-2014 yy.), QXA-9-077-2015 "Mamlakatimizda qurg'oqchilikka, turli darajada (kam, o'rtacha) sho'rlangan yerlarida yangi istiqbolli I, II, III, IV, V tiplarga mansub o'rta-uzun tolali g'oz navlari birlamchi super elita, elita, R1 urug'chiligi-parvarishi agrotadbirlari tizimini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish" (2015-2017 yy.), QX-A-QX-2018-153 Respublikamizning Janubiy mintaqalarida mahalliy va xorijiy ingichka tolali g'oz navlaridan yuqori paxta hosili yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.), A-QX-103 "Global iqlim o'zgarishi sharoitida g'oz navlarini yangi o'g'itlash

agrotexnologiyalarini ishlab chiqish” (2021-2023 yy.), PZ-202008215 “Tuproq unumdorligini oshirishda siderat ekinlarini o‘stirishning takomillashgan energiya resurstejamkor agrotexnologiyalarini ishlab chiqish” (2021-2023 yy.), “Yevropa Ittifoq tomonidan moliyalashtirilayotgan BMT Taraqqiyot dasturining Qishloq xo‘jaligi bilan hamkorlikdagi Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sektorining “yashil iqtisodiyot”ga inklyuziv o‘tishini qo‘llab-quvvatlash va iqlimga yo‘naltirilgan qishloq xo‘jaligi bilimlari va innovatsion tizimini rivojlantirish” (EU-AGRI) mavzularidagi amaliy va xalqaro innovatsion loyihalarning hamijrochisi sifatida faoliyat ko‘rsatgan.



M.A.Avliyakov QX-A-QX-2018-148 “Respublikamizning janubiy, markaziy va shimoliy mintaqalarida o‘rta-ingichka tolali urug‘lik g‘o‘za navlarini suv-ozuqa NPK me‘yor-nisbatlarini ishlab chiqish, sug‘orish muddatlarini tezkor usulda aniqlash hamda suv iste‘molini yangi elektron qo‘l refraktometri va vetting front detektor asboblari yordamida maqbullashtirish” (2018-2020 yy.), IL-21091358 “Tomchilatib sug‘orish texnologiyasida turli sug‘orish intervallari va ko‘chat qalinligida urug‘lik g‘o‘za agrotexnikasini ishlab chiqish” (2022-2024yy) mavzularidagi amaliy loyihalar rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

Mehnat faoliyatini 2011 yilda O‘zbekiston Paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti, Yangi va rayonlashtirilgan g‘o‘za navlari agrotexnikasi bo‘limi kichik ilmiy xodimi sifatida boshlab, keyinchalik 2014 yildan Paxta

seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti G‘o‘za navlari agrotexnologiyasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi, 2015-2017 yillarda ushbu institutning katta ilmiy xodim izlanuvchisi, 2017-2018 yillarda katta ilmiy xodim, 2018-2019 yillarda DSc doktorant, 2019-2020 yillarda loyiha rahbari va 2021 yildan hozirgi vaqtgacha Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Yangi g‘o‘za navlari agrotexnikasi laboratoriyasi mudiri sifatida faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kungacha 139 ta ilmiy ishi chop etilgan bo‘lib, jumladan 12 ta ilmiy maqolasi Scopus ro‘yxatidagi jurnallarda, 21 ta ilmiy maqolasi xorijning nufuzli jurnallarida chop etilgan. Doktorlik dissertatsiyasi himoyasidan keyin ilmiy jurnallarda 38 ta ilmiy maqola, 11 ta uslubiy qo‘llanma, 10 ta tavsiyanoma hamda 2 ta monografiya chop etilgan. Olimning Scopus bazasidagi xirsh indeksi 6 ga teng.



So‘nggi uch yilda 2 ta monografiya, 2 ta tavsiyanoma, 81 ta ilmiy maqola chop ettirgan hamda 5 ta intellektual mulk obyektiga guvohnomalar olingan.

Ta‘kidlash kerakki, M.A.Avliyakov yosh mutaxassis-kadrlarni tayyorlashga, ularning malakasini oshirishga, ilm-fanning eng oxirgi yutuqlaridan foydalanib, dunyo ilmini egallashiga doimo yordamlashib keladi. Jumladan, Toshkent Davlat agrar universitetining Agrobiologiya fakulteti bakalavr va magistrning bitiruv malakaviy ishlari muhokamasida Davlat imtihoni komissiyasi raisi va a‘zosi sifatida faoliyat

ko‘rsatgan. Bundan tashqari Toshkent davlat agrar universiteti va Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti – Milliy tadqiqot universiteti talabalariga amaliyot rahbari sifatida bilim berib kelmoqda. Shu bilan birga, 2019 yildan boshlab Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida loyihalarni ko‘rib chiqadigan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (avvalgi Innovatsion rivojlanish vazirligi) huzuridagi Ilmiy-texnik kengash (ITK) a‘zosi sifatida faoliyat olib bormoqda.



Oxirgi yillarda qishloq xo‘jalik ekinlarini parvarishlashda smart agrotexnologiyalarni qo‘llash, tejamkor sug‘orish texnologiyalarini ishlab chiqish va energiya tejamkor yangi innovatsion agrotexnologiyalar asosida tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan mavzular bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanuvchilarga rahbarlik qilib kelmoqda. Ixtisoslikka oid ikki nafar fan doktoriga rahbarlik qilib muvaffaqiyatli himoya qilishgan. Hozirda yana 4 nafar tayanch doktorant hamda 1 nafar mustaqil tadqiqotchiga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Shuningdek M.A.Avliyakov **Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy–tadqiqot instituti huzuridagi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli** ilmiy kengashning 2019 yildan buyon haqiqiy a‘zosi, ushbu Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar kengash kotibi, Toshkent

irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti – Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.10.02 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi.

M.A.Avliyakov ko‘plab xorijiy va mahalliy jurnallarda sohaga oid ilmiy maqolalarni e‘lon qilish bilan birga **“Paxtachilik va donchilik”, “Agro Processing”, “Ifoda Agrokimyo himoya”, “Texnosfera xavfsizligi”** jurnallari tahririyati a‘zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

M.A.Avliyakov respublikamiz qishloq xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-amaliy ishlari va yosh kadrlarni tayyorlashdagi samarali mehnatlari uchun hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishda keng miqyosda joriy etishdagi ishtiroklari uchun 2023 yilda “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

M.A.Avliyakov turli yillarda Hindiston, Tunis, Turkiya, Italiya davlatlaridagi yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, ilmiy-tadqiqot institutlarida o‘tkazilgan xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan. Shuningdek, M.A.Avliyakov O‘zbekistonda paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari va klasterlar dalalarida g‘o‘zani parvarishlash bo‘yicha dala seminarlari tashkil etib, ilmiy asoslangan tavsiyalar berib kelmoqda. Bundan tashqari, Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Suvchilar maktabi”, “Fermerlar maktabi” kabi o‘quv kurslarida fermerlar va soha mutaxassislariga eng zamonaviy ilg‘or texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berib kelmoqda.

M.A.Avliyakov o‘z bilimi va namunali xulqi bilan jamoa orasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yosh olim, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni mas‘uliyat bilan his qilishi va soha rivojida tinmay mehnat qilishi bilan hurmat qozongan.



AZIZOVA SAN'AT SABIROVNA

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor

Tibbiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, ajoyib pedagog, Respublikamizda va xorijiy davlatlarda tanilgan farmakolog olim, kamtarin va o‘ta madaniyatli mehribon ustoz San’at Sabirovna Azizova hayot bo‘lganlarida shu yilning iyun oyida muborak 90 yoshga kirar edilar.

Azizova San’at Sabirovna 1934-yili Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan, ota-onalarini kasbi muallim. 1952-yilda o‘rta maktabni oltin medal bilan bitirgach, Toshkent davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga kirib, 1958-yilda imtiyozli diplom bilan tugatganlar. O‘zbek ayollardan hali farmakolog olimlari yetishib chiqmaganini bilib, shu qiyin sohada izlanishlar olib borishga ahd qilib, shu yili UzRFA O‘simlik moddolari kimyosi institutining farmakologiya laboratoriyasiga aspiranturaga qabul qilindilar.

Ushbu institutda avval kichik, keyin esa katta ilmiy xodim lavozimida ishladilar.

S.S.Azizovaning ilmiy ishlari tibbiyotning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘simliklardan ajratib olingan yangi moddalarning farmakologik xususiyatlarini tajriba hayvonlarida tekshirish va amaliyotda tatbiq etishga qaratilgan edi. Olima O‘rta Osiyoda o‘sadigan shifobaxsh o‘simliklardan ajratib olingan 30 dan ortiq glikozidlar K strofantin, B olitorozid, korhorozid, erizimozid, erizimin, apobiozid, kuspidozid, strofantidin, strofantidin astat va boshqa moddalarning farmakologik xususiyatlarini tekshirdilar. Olingan natijalar asosida “Apobiozid” va “Strofantidin atsetat” preparatlari yaratib amaliyotga tadbiq etilgan.

1963-yil “Yurakning bazi bir eksperimental patalogik holatlarida olitorozid va korxorozidning ta’siri” mavzusida nomzodlik, 1968-yili esa 34 yoshda “Strofantin

qatoridagi yurak glikozidlarining eksperimental toj tomirlar buzilishida ta’siri” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.



1972-yili Toshkentda O‘rta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti ochilgach, farmakologiya kafedrasini tashkil qilish tibbiyot fanlar doktori professor S.S.Azizovani zimmasiga tushdi. Olima avval o‘quv uslubiy murabbiylik ishlarini, keyin esa ilmiy tekshirish ishlarini yo‘lga qo‘ydilar. Aynan shu davrda farmakologiya fanidan ma’ruzalar hamda amaliy mashg‘ulotlar rus tilida olib borilar, darsga tayyorlanish uchun akademik D.A.Xarkeevichning farmakologiya darsligidan foydalanilar edi.



1996-yilda professor S.S.Azizova o‘zbek tilida birinchilardan bo‘lib, «Farmakologiya» darsligini yozdilar. 2000-yilda ushbu kitob to‘ldirilib qayta nashr qilindi. Rusiy zabon talabalar uchun esa, bu darslik 2002-yilda rus tilida yozildi va nashr qilindi. 2006-yili esa “Farmakologiya” darsligi lotin alifbosida yetarli nusxada bosmadan chiqarildi.

Hozirgi kunda Respublikamizdagi barcha tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari bu darslikdan keng foydalanayaptilar. Kafedrada olimu muallifligida o‘zbek, rus tillarida 3 marta

o‘quv uslubiy qo‘llanma nashr qilindi, yangi na’munaviy reja, amaliy mashg‘ulot va ma’ruzalar uchun ishchi rejalar tuzildi.

Professor S.S.Azizovaning asosiy vazifalaridan biri, yuqori malakali farmakologlar tayyorlash edi. Shuning uchun institutni bitirgan iqtidorli talabalarni tanlab, kafedrada ishlash uchun jalb qildilar va pediatrik farmakologiyaning rivojlanishida katta ishlar olib borib, ilmiy maktab yaratdilar.



S.S.Azizova butun hayoti davomida C.C.Азизова бутун ҳаёти давомида yurak glikozidlar, kardioprotektorlar, gepatoprotektorlar, ateroskleroz va modda almashinuviga qaratilgan turli dori moddalarining ta’sirini o‘rgandi, bu sohaninig pediatrik xususiyatlarini o‘rganish bilan olib bordi.



S.S.Azizova o‘zining ilmiy maktabini yaratdi va olimu tomonidan 7 fan doktori 22 fan nomzodlari tayyorlandi. 300 dan ortiq ilmiy maqola, 3 ta darslik, 3 ta monografiya chop etildi, 6 ta mualliflik guvohnomasi olindi. Professor S.S.Azizova ko‘pgina xorijiy davlatlar Chexoslovakiya, AQSh, Kanada, Avstriya, Hindiston, Turkiya da bo‘lgan xalqaro anjumanlarda qatnashib, O‘zbekiston

fani, ma’naviyatini yuqori darajada namoyon qilganlar.

1992-yilda olimaga tibbiyot sohasida erishgan yutuqlari uchun “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berildi. Oliy ta’lim vazirligi ustoz jamg‘armasi ko‘rik tanlovida qatnashib, 1998-yilning eng yaxshi ilmiy rahbari 1-darajali diplomiga sazovor bo‘ldilar.



2005-yil Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan e’lon qilingan tanlovda Farmakologiya darsligi bilan qatnashib, “Yilning eng yaxshi o‘quv adabiyoti” mukofotiga sazovor bo‘ldilar va I darajali diplom bilan taqdirlandilar.



Professor S.S. Azizova ilmiy, pedagogik ishlari bilan bir qatorda jamoat ishlarida ham faol tashkilotchi edilar. Olima Yunusobod tumani Toshkent shahar va viloyat xotin-qizlar

qo‘mitasining raisi, Respublika xotin-qizlar qo‘mitasining Plenum, Prezidium a‘zosi bo‘ldilar.



Oilada o‘z farzandlarini ham ilm-fanga, o‘z xalqiga, Vataniga fidokorona xizmat qilishga undadilar. O‘g‘li Iskandar Muqimjonov va qizlari Nodira Zokirova tibbiyot fanlari nomzodi. Dilorom Ahmedova tibbiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda taniqli sog‘liqni saqlash tashkilotchisi, pedagog hamda olimasi pediatri.

Professor S.S. Azizova Respublikamizning ko‘zga ko‘ringan olimasi, O‘zbekiston fanining xalqaro miqyosda yuksalishida katta hissa qo‘shgan fan arbobi, tibbiyotimiz fidoiysi, ma’rifat va ma’naviyatning jonkuyar targ‘ibotchisidir.

Olima S.S. Azizovani yosh mutaxassislarni tayyorlashda qo‘shgan katta xissalarini yuqori baholab, 2017 yildan Toshkent pediatriya tibbiyot institutida iqtidorli talabalar va magistrlar uchun olimasi nomidagi stipendiya ta’sis qilingan. Hozirgi kungacha 5 nafar talaba va magistrlar “Professor C.S. Azizova” nomidagi Atoqli olimasi stipendiyasiga sazovor bo‘lishgan.

S.S. Azizovaning hayot yo‘li va mehnat faoliyatlari shogirdlari uchun namuna bo‘lib qoladi va ularning yorqin xotiralari hamisha qalbimizda va yodimizda yashaydi.



AXMEDOVA DILOROM ILXAMOVNA

Tibbiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasining fan va texnika sohasidagi 1-darajali Davlat mukofoti laureati

D.I.Axmedova bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasida taniqli tashkilotchi, mutaxassis, olim va pedagog.



Olima va O‘zbekiston Respublikasi vazirligining bosh pediatri D.I.Axmedova yosh avlod salomatligini saqlashdagi ibratli ishlari bilan tanilgan.

Uning boshchiligida onalar va bolalar salomatligini yaxshilashga qaratilgan xalqaro standartlarga asoslangan tashkiliy va amaliy yangiliklar kiritib kelmoqda, chaqaloqlar va bolalar kasalliklarini tashxislash va davolash standartlari, shu jumladan orfan kasalliklarning klinik yo‘riqnoma va protokollari doimiy ravishda ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.

Dilorom Ilxamovna Ahmedova 1974 yilda o‘rta maktabni oltin medalga va 1980 yilda O‘rta Osiyo pediatriya

tibbiyot institutini (hozirda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti) imtiyozli bitirdi. D.I.Ahmedova 1982 yilga qadar O‘zRSSV Pediatriya ilmiy tekshirish institutida (hozirgi vaqtda – Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy tibbiyot markazi) klinik ordinatorani o‘tadi.



1982 yildan 1998 yilgacha shu institutning kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim, so‘ngra chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalarni reabilitatsiya qilish ilmiy bo‘limi rahbari bo‘lib ishladi. D.I.Ahmedova 1989 yilda “Клиническое обоснования применения бензонала в комплексном лечении гемолитической болезни новорожденных” mavzusida nomzodlik, 1998 yilda — “Гемолитическая болезнь новорожденных: патогенетические аспекты лечения и реабилитации” mavzusida doktorlik ilmiy ishini yoqladi. 2002 yilda professorlik unvoni berildi. 1999 yildan 2006 yilgacha Toshkent pediatriya tibbiyot institutida “6-7 kurslar uchun bolalar kasalliklari” kafedrasini mudiri bo‘lib ishladi. 2006 yildan 2010 yilgacha Toshkent pediatriya tibbiyot institutida ilmiy ishlar

bo‘yicha prorektor bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi.

D.I.Ahmedova 2010 yildan 2012 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Onalik va bolalikni muhofaza qilish Bosh boshqarmasiga rahbarlik qildi. 2012 yildan 2023 yil 17 oktyabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori bo‘lib ishlagan.



2023 yil 17 oktyabrdan Toshkent pediatriya tibbiyot institutining gospital pediatriya №2, xalq tabobati kafedrasini mudiri. 2001-2006 yillar va 2012 yildan to hozirgi qadar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining bosh pediatri.



Professor D.I.Ahmedova ilmiy rahbarligida 1999 yildan hozirgi

kungacha muntazam ravishda 20 taga yaqin fundamental, ilmiy-amaliy va innovatsion grantlar bajarildi va bajarilmoqda.

Olima tomonidan 560 dan ortiq ilmiy nashrlar, 7 ta monografiya va 3 ta darslik, 8 ta ixtiroga patent va 5 ta EHM dasturlari olingan, 120 dan ortiq uslubiy va o‘quv-uslubiy tavsiyanoma va qo‘llanmalar chop etilgan. Ishlab chiqilgan usullar tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilash, bolalar o‘rtasida kasallanishlarni va o‘limni kamaytirish imkonini beradi. D.I.Axmedova rahbarligida 8 nafar fan doktori va 19 nafar fan nomzodlari tayyorladi. Hozirgi kunda olima bir necha doktorlik hamda magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilmoqda.



D.I.Ahmedova ko‘plab xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarining tashkilotchisi va qatnashchisi, Xalqaro Pediatriklar Assotsiyatsiyasining Atrof-muhit salomatligi va iqlim o‘zgarishi Qo‘mitasi a‘zosi, Yevropa pediatriklar assotsiyatsiyasining a‘zosi, MDH davlatlari pediatriya federatsiyasining vitse prezidenti. Uning ilmiy izlanishlari chet davlatlarda ham yuqori baholandi.



D.I.Axmedova Rossiya Federatsiya tibbiy texnik fanlari Akademiyasining haqiqiy a‘zosi (akademigi) etib saylangan.



D.I.Axmedova O‘zbekistonda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Mamlakatlar Tashkilotining Bolalar Jamg‘armasi YUNISEF ning zamonaviy texnologiyalarini moslashtirish va joriy etishda faol qatnashadi. Olima JSST/YUNISEF tavsiyalari asosida bolalarga sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqotlar bajardi (bolalarning o‘sishi va rivojlanishi monitoringi, bolalarning ovqatlanishi), bular bugungi kunda respublikaning barcha hududlarida qo‘llanilmoqda.



O‘zbekistonda onalar va bolalar orasida hayot uchun muhim mikronutriyentlar yetishmovchiligini oldini olish va bartaraf etish hamda sog‘lom ovqatlanish mezonlarini tatbiq etishga yo‘naltirilgan davlat dasturlarni samarasini aniqlash va keyinchalik chora tadbirlar belgilash uchun YUNISEF yordamida xalqaro ekspertlar bilan birgalikda milliy izlanish olib bordi.



D.I. Ahmedova O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi a’zosi. D.I. Ahmedova O‘zbekiston Respublikasining kafolatlari “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”,

“Aholi o‘rtasida mikronutriyent yetishmasligi profilaktikasi to‘g‘risida”, “Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining qator Farmon va qarorlari loyihalarini ishlab chiqishda faol qatnashadi.



D.I. Axmedova hozirgi kunda bolalar orasida o‘ta muhim muammolardan — kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilashga qaratilgan Davlat dasturini ishlab chiqishda faol ish olib bormoqda va hozirgi kunda uni tatbiq etilishi yo‘lga qo‘yilmoqda.

D.I. Axmedova “Onalik va bolalik” bo‘yicha ilmiy kengash raisining muovini va ilmiy seminarni raisi, respublikada chop etiladigan

“Pediatriya”, “Sog‘liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish”, “Shoshilinch tibbiyot axborotnomasi” jurnallari, O‘zbekiston-Rossiya qo‘shma “Евразийский Вестник педиатрии” jurnali, Rossiya Federatsiyasining “Педиатрическая фармакология” va “Вопросы педиатрической педиатии” (Rossiya), hamda Turkiyaning “Haydarpaşa Numune Medical Journal” jurnallarini tahririyat kengashi a‘zosi. O‘zbekiston, Andijon davlat tibbiyot institutining “Xalqaro Ilmiy Pediatriya jurnali” (“International Journal of Scientific Pediatrics”) bosh muharriri.



Harakatchan va intiluvchan, ilmda fidoiy va jonkuyar, o‘ziga va jamoaga nisbatan talabchan bo‘lgan taniqli olima D.I. Ahmedova ajoyib tashkiliy fazilatlarga ega rahbar. U jamoaning obro‘-e’tiborini qozondi va jamiyatda katta obro‘ga ega. D.I.Axmedova el yurt ishonchini qozondi, tibbiyot sohasidagi xizmatlari evaziga “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi 20 yilligi”, “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi 25 yilligi” ko‘krak nishonlari, xamda “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni bilan taqdirlangan. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash a’lochisi. D.I.Axmedova 2017 yilda «Og‘ir darajadagi eshitish zaifligi va karlik bo‘lgan bolalarni reabilitatsiyasi» ilmiy dasturi uchun O‘zbekiston Respublikasining fan va texnika sohasidagi 1-darajali mukofotlari bilan taqdirlangan.





BABAYEV TUYG'UN MIRZAAXMEDOVICH
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
kimyo fanlari doktori, professor

Babayev Tuyg'un Mirzaaxmedovich 1940 yilning 19 martida Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. U 1957 yilda Toshkentdagi 82-o'rta maktabni medal bilan tugatib, O'rta Osiyo Davlat universiteti (h'ozirgi O'zMU)ning Kimyo fakultetiga o'qishga kirgan va uni 1963 yilda "Fizik kimyogar" mutaxassisligi bo'yicha tugatgan.



T.M.Babayev kimyo fakulteti fizikaviy kimyo kafedrasida tadqiqotchi-stajyor sifatida ishga qoldirilgan va yuqori molekulyar

birikmalar sintezi va ularning xossalarini o'rganish bo'yicha O'zR FA akademigi X.U.Usmonov va dotsent O'.N.Musaev rah'barligida dunyoda birinchilardan bo'lib alkaloidlar va tabiiy birikmalar asosida fiziologik faol yuqori molekulyar birikmalar sintezi bo'yicha ilmiy ishlar bilan shug'ullana boshlagan. 1967 yilda aspiranturaga kirib shu kafedrada ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirgan va 1972 yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. SHu yilning sentyabr oyidan uning pedagoglik faoliyati boshlandi. Shunday qilib u fizikaviy kimyo kafedrasida assistent, katta o'qituvchi va dotsent lavozimlarida ishladi.

1978 yilda 10 oy mobaynida Vengriyaning Budapeshtdagi Texnika universiteti va Sanoat uchun polimerlar yaratish ilmiy tadqiqot institutida ishlab vengriyalik hamkasblar bilan hamkorlikda suyuq kristallar

sintezi va ularning xossalarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Ilmiy natijalar AQSH, Angliya, Germaniya, Vengriya va Rossiya ilmiy jurnallarida ilmiy maqolalar sifatida e'lon qilindi. Ilmiy ma'ruzalar bilan bir qator horijiy mamlakatlarda bo'ldi.



T. Babayev 1993 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. U 1988 yilda dotsent va 1994 yilda professor ilmiy unvonlariga tasdiqlangan.

Professor T. Babayev ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 300 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta monografiya, 6 ta darslik, 18 ta o'quv qo'llanma, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va 30 dan ortiq mualliflik guvoxonmalari hamda patentlar (bulardan bittasi Rossiya Federatsiyasi patenti) muallifidir.

1996 — 2002 yillar davomida universitetning kimyo fakulteti dekani lavozimida juda faol ishladi. 2002 yildan shu kungacha Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti polimerlar kimyosi kafedrasida professor lavozimida ishlab kelmoqda.

T. Babayev — yuqori molekulyar birikmalar kimyosi bo'yicha yetuk mutaxassis. U amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining amaliy ahamiyati tibbiyot va veterinariya sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarilgan kriokonservalash usuli O'zbekiston gematologiya va qon quyish institutida donor qoni elementlarini, tripanosom va pirop plazmlarni qisqa va uzoq muddat saqlash uchun O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutida, anabazin alkaloidi asosida

olingan "Polibazin" preparati nafas analeptigi vositasi sifatida tibbiyotga va "Karbokaz" preparati qishloq xojalik hayvonlari akusher-ginekologik kasalliklarini oldini olish va davolash vositasi sifatida veterinariya amaliyotiga tatbiq qilingan. Olimning ilmiy ishlari nafaqat mamlakatimizda, balki chet yillarda ham e'tirof etilgan.

Uning ilmiy ishlari alkaloidlar asosida yangi monomerlar olish va ularning radikal polimerlanishini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, bu ishlar natijasida yangi reflektor xususiyatli nafas analeptigi "Polibazin" preparati yaratilgan va tibbiyotda qo'llanishga tavsiya qilingan. Undan tashqari, qishloq xo'jalik hayvonlarining ginekologik kasalliklarini davolash va profilaktikasi uchun maxalliy homashyo asosida dorivor moddalarning polimer shakllarini yaratish va mah'alliy homashyo asosida olingan yangi donalashtirilgan ionitlar yordamida rangli va nodir metallarni sanoat oqava suvlaridan sorbtsiya usuli bilan ajratib olish bo'yicha ilmiy ishlar olib boradi. Professor T.M. Babayev tomonidan biologiya, ekologiya, tuproqshunoslik, bioinformatika yo'nalishlari uchun "Fizikaviy va kolloid kimyo" dan, kimyo yo'nalishi uchun "Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi" va "Polimerlar kimyosidan praktikum" darsliklari yozilgan.



Ilmiy ishlanmalar natijalari asosida quyidagilar ishlab chiqarishda sinovdan o'tgan h'anda ishlab chiqarishga joriy yilgan:

1. Anabazin alkaloidi asosida olingan "Polibazin" reflektor ta'sirli nafas analeptigi sifatida amaliyotga tavsiya qilingan.
2. Qishloq xo'jalik hayvonlarining akusher-ginekologik kasalliklarini oldini olish va davolash uchun "Karbokaz" preparati

respublika chorvachiligi sohasiga joriy qilingan.

3. Quyi molekulyar massaga ega poliakrilamid vositasida kriokonservalash usuli O‘zbekiston gematologiya va qon quyish institutida donor qoni elementlarini, O‘zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutida tripanosom va piroplazmlarni qisqa va uzoq muddat saqlash uchun amaliyotga tatbiq etilgan.



4. Mahalliy homashyo akrilonitrilning choklangan sopolimerlari asosida yaratilgan ekologik toza donador KB-Dp-1 kationiti "Navoiyazot" AJda suvni yumshatish jarayonida sinovdan o‘tkazilgan. Bu kationit qo‘llanilganda regeneratsiya uchun ishlatiladigan sulfat kislotasi sarfi kamayib, xorij kationiti KU-2-8 ga nisbatan 2,3-2,4 marta kam sarflanishi ko‘rsatib berilgan.

5. AN-GTT-GA sorbentining temir (III) va molibdat ionlarini sorbtsiyalash qobiliyati ko‘rsatilgan va tabiiy gaz metanni vodorod sulfid va karbonat angidrididan tozalash uchun antikorrozion vosita sifatida tavsiya g‘ilingan.

6. Sorbent PAN-KDM Olmaliq "GMK" AJda texnologik yritmalardan molibden ionlarini sorbtsiyalash uchun tavsiya qilingan.

Professor Babayev T. ilmiy rag‘barligida 30 ga yaqin magistrlar, 4 ta fan doktori, 6 ta fan nomzodi va 8 ta falsafa doktori (PhD) tayyorlangan.

U, ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda mohir ustoz. U qator yillar davomida O‘zbekiston teleradiokompaniyasining "O‘YLA, IZLA, TOP" intellektual teleko‘rsatuvida kimyo fanidan ajoyib kutilmagan savollari bilan yoshlarni bu fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishda jonbozlik qildi.



Tuyg‘un Babayevning el-yurt va yoshlar oldidagi bu fidokorona xizmatlari xukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U Mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish, xalqimizning ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyatini yuksaltirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini muvaffag‘iyatli amalga oshirish, ilmiy tadqiqot va pedagogika sohasidagi ko‘p yillik samarali mehnati uchun 2008 yilda Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov farmoniga ko‘ra "O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni hamda 2011 yilda O‘zbekiston xalq ta‘limi vazirining farmoniga muvofiq "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi a‘lochisi" ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



BABAJANOVA DILORAM BABAJANOVNA

Tarix fanlari doktori, professor

Diloram Babajanovna Babajanova 2006 yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil”, 2016 yilda “O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishonlari va 2012 yilda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2022-yili “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Umumiy mehnat staji – 54 yil. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi eksperti, “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati a’zosi, O‘zbekiston Xotin-qizlar “Olima” Uyushmasi Boshqaruvi a’zosi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti huzuridagi DS c.03/30.12.2021.Tar.26.03 raqamli Ilmiy Kengashi a’zosi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Muvofiqlashtiruvchi Kengash a’zosi, tarix fani yo‘nalishi bo‘yicha Ixtisoslashgan Kengash raisi, Ota-onalar kengashi raisi, “Olima” uyushmasi raisi hamda

faxriy jamoatchi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

D.Babajanova o‘z mehnat faoliyatini 1970 yildan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi arxivariusi sifatida boshlagan. 1971-1982 yillar O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi huzuridagi Partiya tarixi instituti Partiya arxivi xodimi, 1982-1984 yillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi katta inspektori, 1984-1990 yillar – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, 1990-1993 yillarda Rossiya Fanlar Akademiyasi Tarix instituti doktoranti, 1993-1995 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti doktoranti, 1995-1996 yillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy kotibi, yetakchi ilmiy xodimi, 1996-1999 yillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Prezidiumi bosh mutaxassisi lavozimlarida ishlagan.



D.Babajanova 1999-2012 yillarda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri, 2000-2002 yillarda universitet ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha 1-prorektor lavozimlarida ham faoliyat yuritgan. 2002-2005 yillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Prezidiumi ilmiy-tahliliy boshqarma boshlig‘i vazifasida faoliyat yuritgan. 2012 yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining O‘zbekiston tarixi kafedrasini professori lavozimida ishlab kelmoqda.

1989 yilda “O‘zbekistonda yengil sanoatni rivojlantirishda qardosh respublikalar ishchilari hamkorligi” mavzusida, 1997 yilda “O‘zbekistonda millatlararo munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Diloram Babajanova 2004 yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan. U ta’lim-tarbiya ishini ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy holda olib bormoqda. Uning 250 dan ortiq ilmiy ishlari, jumladan, 4 ta monografiya, 10 dan ortiq darslik, risola va o‘quv qo‘llanmalari chop etilgan. Ko‘plab tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilib, 15 nafar fan nomzodlari va falsafa doktorlari (PhD)



tayyorlagan, hozirda ham 5 nafar tadqiqotchiga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

D.Babajanova 1998-2006 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Ijtimoiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha Ekspert kengashi a‘zosi va ilmiy kotibi, 2006-2012 yillar davomida O‘zMU huzuridagi Ixtisoslashgan kengash a‘zosi, 2019-2021-yillar Andijon davlat universiteti huzuridagi falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengash a‘zosi sifatida faoliyat yuritdi. 2019-2023 yillar O‘zDJTU huzuridagi siyosiy

fanlar doktori (Dcs) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengash a‘zosi sifatida faoliyat yuritdi. D.Babajanova 2005 yildan 2020 yilga qadar O‘zLiDeP Toshkent shahar Kengashi Ijroiya Qo‘mitasi raisi Ma’furaviy ishlar o‘rinbosari, shuningdek O‘zLiDeP Toshkent shahar Kengashi “Siyosiy ta’lim markazi” rahbari sifatida faoliyat yuritdi.



Diloram Babajanova o‘ziga yuklatilgan topshiriq va vazifalarga mas’uliyat bilan yondoshadi hamda sifatli bajaradi. U turli tashkilotlarda ishlash bilan bir qatorda 2002-yildan hozirga qadar O‘zbekiston Xotin-qizlar “Olima” uyushmasi Boshqaruvi a‘zosi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi eksperti, “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati a‘zosi sifatida turli davlat tadbirlarida faol qatnashib, respublika bo‘ylab seminar-treninglar o‘tkazish bilan bir qatorda “Ma’rifat” targ‘ibotchilari jamiyati a‘zosi o‘laroq mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarini targ‘ib etishdagi amalga oshirilayotgan tashabbuskorligi uchun “Yilning eng faol ma’naviyat targ‘ibotchisi” respublika tanlovlarida ishtirok etgan. Universitet va respublikaning turli hududlarida aholi, jumladan xotin-qizlar o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda faol ishtirok etib keladi Shuningdek, xalqaro va millatlararo munosabatlarni shakllantirishda bir qancha mamlakat vakolatxonalarida (Eron, Hindiston, Turkiya, Turkmaniston) do‘stona hamda bag‘rikenglik aloqalarini o‘rnatishda faol qatnashib kelmoqda.

Muntazam ravishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi



Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasida tashkil etiladigan tadbirlarda o'zining millatlararo munosabatlar, demografik jarayonlar, yaxshi qo'shnichilik munosabatlari, diniy bag'rikenglik kabi mavzulardagi ma'ruzalari bilan faol ishtirok etib keladi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Toshkent shahar hokimligi, tumanlar hokimligi tomonidan beriladigan topshiriqlarni amalga oshirishda maktablar va oliy o'quv yurtlarida yosh qizlarga hayot tajribalaridan namuna sifatida xotin-qizlarning iqtisodiy erkinligini ta'minlash, axloqiy va estetik tarbiyaga mos turli yo'nalishdagi seminar-treninglarni jamoatchilik o'rtasida faol olib boradi. Mudofaa vazirligi, Milliy Gvardiya, Favqulodda Vaziyatlar va Ichki ishlar vazirliklarida turli mavzulardagi ma'ruzalari bilan doimiy hamkorlikda faol ishtirok etib kelmoqda. Doimiy ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan "Mehribonlik", "Muruvvat" va "Sahovat" uylarlari tarbiyalanuvchilari bilan muntazam uchrashuvlar o'tkazib, ularga doimiy ko'mak berib kelayotgan, kitoblar sovg'a qilish bilan sahovatpeshalik va fidoiylilik

ko'rsatib

kelmoqda.



Hozirda ko'plab teleko'rsatuvlarda ("O'zbekiston", "Madaniyat va ma'rifat", "Mahalla", "Sevimli", "Zo'r", "Yoshlar", "Milliy", "O'zbekiston-24") mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'rni, iqtisodiy erkinligi, gender tengligi, korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatdagi faol siyosiy o'zgarishlar, beshta tashabbus va iqtisodiy strategiya, inson, bolalar hamda ayollar huquqlari va ularni himoya qilish kabi masalalar bilan bog'liq inter faol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy-amaliy, ko'p yillik xalqaro tajribaga asoslangan dolzarb mavzularda faol ishtirok etib kelmoqda. "Munosabat" ko'rsatuvining doimiy eksperti sifatida faoliyat olib bormoqda. Uzoq yillar davomida jamoatchilik orasidagi ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi faol munosabati bilan turli vazirlik va tashkilotlar tomonidan "Faxriy yorliq"lar va "Tashakkurnoma"lar bilan taqdirlanib keladi.



D.Babajanova Italiya, Gresiya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Qirg'iziston, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr va Malayziya kabi dunyoning 10 dan ortiq davlatlarida tarixchi, siyosatshunoslik, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ayollar va inson huquqlari, gender tengligi, millatlararo munosabatlar, turkiy

xalqlar birdamligi, tarixiy siymolar xotirasini tiklash, dunyo ishbilarmon ayollarining faoliyati va tajribasini o‘rganish hamda tatbiq etish kabi yo‘nalishlarda malaka oshirib, xalqaro simpozium va ilmiy anjumanlarda ishtirok etib, sertifikatlariga ega bo‘lgan.



D. Babajanova o‘z professional hayot tajribasi va to‘plagan xalqaro bilimlaridan foydalangan holda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik, demokratik yangilanishlar, saylov qonunchiligi masalalarini keng targ‘ib qilib kelmoqda. Xususan, olib borayotgan seminar-treninglari yordamida xotin-qizlarning liderlik qobiliyatini, intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda uni jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi amaliy ishlarda qo‘llashda katta hissa qo‘shib kelmoqda. Bundan tashqari, yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, jamiyatda oila institutini mustahkamlash hamda yosh oilalar o‘rtasida ajrimlarning oldini olish, ayollar va yoshlar o‘rtasidagi jinoyatchilikni oldini olish hamda profilaktika qilish kabi dolzarb masalalarda zamonaviy inter faol uslublarni qo‘llagan holda turli seminar-treninglar olib bormoqda.



Shuningdek, “Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish va ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish”, Sog‘lom turmush tarzi va oila”, “Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik”, “Yuksak ma‘naviy madaniyatning oila turmush tarzida shakllanishi”, “O‘zbekistonda ma‘naviy-ma‘rifiy tiklanish va ta‘lim tizimidagi islohotlar”, “Yangi O‘zbekistonda aholi salomatligi va ekologik masalalar”, “Ajdodlar merosi”, “Gender tengligi”, “Ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy faolligi”, “Globallashuv davrida xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash”, “Globallashuv davrida ommaviy madaniyatning ijtimoiy oqibatlarini”, “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning samarali mexanizmi”, “Tarix, millat va ma‘naviyat masalalari”, “O‘zbekistonda qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlarini”, “Yangi O‘zbekiston olimlarining ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish orqali barqaror dunyoni barpo etishdagi ishtiroki”, “Xotin-qizlarning mamlakat ilm-fani taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi” kabi mavzulardagi xalqaro va respublika miqyosidagi seminar va konferensiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda.



D. Babajanova 2024 yil may oyida Turkiya Respublikasining 100-yiliga bag‘ishlab Antaliya viloyatining Kemer shahrida Gazi va Kastamonu universitetlari hamda Ta‘lim ma‘murlari va ekspertlari uyushmasi EYFOR 15-Xalqaro ta‘lim boshqarmasi forumida “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida turkiy davlatlar

tashkilotining o'rnini" mavzusida ma'ruzasi bilan qatnashdi. Shuningdek, simpozium doirasida turkiyalik litsey va maktab o'qituvchilari uchun "Buyuk ajdodlarning sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'rnini" mavzusida "Mahorat darslari" ham o'tkazib berdi.

Amir Temurning 660 yilligi, Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi, Imom al Buxoriy va Ahmad al Farg'oniyniing tavallud to'ylari, Jaloliddin Manguberding 800 yilligi, "Avesto" kitobi yaratilganining 2700 yilligi, Imom al Moturidiy va Burhoniddin Marg'inoniy yubileylarida qilgan sermazmun ma'ruzalari, shuningdek, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Mahmud



Zamahshariy, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek singari mutafakkirlarimizga bag'ishlangan ilmiy-nazariy seminarlarni tashkil etishdagi samarali ishlari bilan o'zining noyob iste'dodi, bilim va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etgan.

Ko'p yillar davomida xalqimizning milliy-madaniy tarixiy merosi, zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining xalqaro, milliy, madaniy, tarixiy, sivilizatsion, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy gumanitar, ma'naviy, lisoniy, falsafiy muammolari borasidagi ilmiy faoliyatining ko'pgina qirralari bilan o'z hissasini qo'shib kelayotgan professor Diloram Babajanova ushbu masalalarni yechishga astoydil kirishgan. So'nggi yillarda Prezident Sh.Mirziyoyev

tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yangi



O'zbekistonda el aziz-Inson aziz" shiori ostida o'tkazilgan "Madaniyat va ma'rifat" Karvoni, "Ma'naviyat" festivali doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyatda minglarcha insonlar bilan muloqotda faol targ'ibotchi sifatida qatnashib, xalqimizning samimiy mehr-muhabbatini qozondi. O'tkazilgan targ'ibotlar doirasida mamlakatimizda bo'layotgan islohotlar va yangilanishlarni xalqqa yetkazishda ulkan hissasini qo'shib kelmoqda.

D.Babajanova o'zining mehnatsevarligi, tashkilotchiligi, samimiyligi, kamtarinligi va



yetuk ilmiy salohiyati tufayli respublika ilmiy jamoatchiligi o'rtasida katta obro' qozongan. Ish faoliyatini tartibga soluvchi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar talablarini biladi hamda ular bilan ishlashda yuqori saviyaga ega, rahbariyat tomonidan berilgan vazifa va topshiriqlarga nisbatan mas'uliyat bilan yondashadi, ishni sifatli va belgilangan muddatda ijro etadi. Respublika Prezidenti va hukumati olib borayotgan odilona siyosatni chuqur tushunadi va unga og'ishmay amal qiladi.




BARATOV SHARIF RAMAZONOVICH
Psixologiya fanlari doktori, professor

Baratov Sharif Ramazonovich 1960-yilda Buxoro viloyatining Kogon tumani Talicha qishlog‘ida tug‘ulgan. Sh. Baratov o‘z mehnat faoliyatini 1983-yildan Buxoro davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchi sifatida boshladi.



Dastlab Buxoro davlat pedagogika institutida (1979-1983y.y), keyinchalik Moskva shahridagi “Umumiy va pedagogik psixologiya” Ilmiy tadqiqot institutida ilmiy stajirovka va aspiranturada tahsil oldi (1985-1983y.y). 1990-yilda psixologiya fanlari

bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini hamda 1998-yilda akademik G‘.B. Shoumarov rahbarligida “O‘zbekistonda psixologik xizmat tashkil etilishining ilmiy-amaliy va ijtimoiy-psixologik asoslari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2005-yilda professor unvonini oldi.




Sh.Baratov O‘zbekistonda psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirishga asoslangan ilmiy maktab yaratdi va ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan 4 nafar fan doktori hamda 25 nafar fan nomzodlariga ilmiy rahbarlik qildi. Sh.Baratov yurtimizda psixologiya fanini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlanmalar hamda loyihalarga rahbarlik

qildi. Jumladan, uning rahbarligida 6 ta umumiy moliyaviy hajmi 3 mlrd so‘mdan ziyod bo‘lgan Davlat byudjeti mablag‘lari hisobida moliyalashtiriladigan amaliy tadqiqotlar hamda innovatsion loyihalar amalga oshirildi.

Sh. Baratov Xalqaro psixologiya fanlar akademiyasining 2024-yil 18-martdagi qaroriga asosan Xalqaro psixologiya fanlar akademiyasining vitse-prezidenti qilib saylandi.



Ayni paytda, Sh. Baratov Yaroslavl shahrida joylashgan Xalqaro psixologiya fanlar akademiyasining “Человеческий фактор” hamda “За заслуги в психологии” medallari bilan taqdirlangan.



Sh.Baratov respublikamizda psixologik xizmatni rivojlantirishga, bu sohaning muammolarni ilmiy hal etishga butun diqqat e‘tiborini qaratdi. Buning natijasida,

O‘zbekiston Respublikasida psixologik xizmat sohasini olib kirdi va ilmiy maktabga asos soldi. U 200 dan ortiq ilmiy maqolalar, 8 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar, 30 ta ilmiy uslubiy qo‘llanmalar, 8 ta monografiya muallifidir.



Professor Sh.Baratov O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK rayosatining qarori bilan tavsiya etilgan dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan “Psixologiya”, “Buxoro psixologiya va xorijiy tillar ilmiy axborotnomasi” hamda “Вестник интегративной психологии (Ярославль)” ilmiy jurnallarining Bosh muharriri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



2021-yilning 1-dekabridan shu kunga qadar Sh.R.Baratov o‘zi asos solgan Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti rektori lavozimida faoliyat yuritib, respublikamizda professional psixologlar yetkazib berishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.



BAZAROV DILSHOD RAYIMOVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Bazarov Dilshod Rayimovich 1961-yil 23-sentabrda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan, texnika fanlari doktori, professor. Taniqli injener-gidrotexnik olim, O'zbekiston respublikasi suv xo'jaligi a'lochisi, Gidroenergetika iftixori, Ekologiya, inson va tabiat xavfsizligi ilmi sohasidagi Xalqaro Akademiyaning akademigi.



Dilshod Bazarov 1984 yili Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutini tamomlab, injener-gidrotexnik mutaxassisligiga ega bo'lgan. Mehnat faoliyatini 1978 yilda Toshkent aviatsiya ishlab

chiqarish birlashmasida quruvchilikdan boshlagan.

Shuningdek ilmiy faoliyatini 1984-1987 yy.da O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy ishlab chiqarish birlashmasida injener, kichik ilmiy xodim lavozimlarida boshlagan. 1988-1993 yy.da Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti "Gidravlika" kafedrasida assistent bo'lib ishlagan. 1991 yilda «Исследование наносного и гидравлического режима реки при бесплотинном водозаборе» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Shundan so'ng 1993-1997 yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti "Gidravlika" kafedrasida dotsenti, 1993-1997 yy.da kafedra doktoranti. 1997-1998 yy.da TIQXMII Marketing xizmati va tadbirkorlik bo'limi boshlig'i, 1999-2004 yy.da Iqtisodiyot va tadbirkorlik bo'yicha prorektor bo'lib faoliyat yuritgan.

2000 yilda «Научное обоснование новых численных методов расчета деформаций русел рек, сложенных

легкоразмываемыми грунтами» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini Moskva Ekologiya, inson va tabiat xavfsizligi ilmiy tadqiqot institutida himoya qilgan va texnika fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.

Olimga 2000 yilda “dotsent”, 2015 yilda “professor” ilmiy unvoni berilgan. 2004-2005 yillar va 2008-2018 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti “Gidravlika” kafedrasida professori, 2018 yildan hozirga qadar “Nasos stansiyalari va gidroelektrostansiyalar” kafedrasida mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.



Olimning ilmiy ishlari va tadqiqot yo‘nalishlari qishloq va suv xo‘jaligi va gidroenergetika sohalarida, jumladan suv resurslaridan samarali foydalanish, gidrotexnika va gidroenergetika inshootlari ishonchligi va xavfsizligi bo‘yicha quyidagi ilmiy maktablarni yaratgan:

- Ekinlarni sug‘orish uchun suvni nasos stansiyalari yordamida yetkazib berish tizimlaridan foydalanish samaradorligini oshirish;

- Suv omborlari, to‘g‘onsiz suv olish inshootlari va boshqa gidrotexnik inshootlarning oqim dinamikasiga ta‘sirini bashorat qilish;

- Nasos stansiyalarini qayta qurish va rekonstruksiya qilish, kirish kanallarining optimal parametrlarini aniqlash, o‘zan jarayonlarini oldini olish, loyqa oqiziqlardan tozalash texnologiyalarni takomillashtirish.

- Yirik daryolardan gidroelektrostansiyalar va nasos stansiyalariga to‘g‘onsiz suv olishda bosh inshootlarga hamda kanallarga kafolatlangan suv hajmini kam miqdordagi loyqa cho‘kindilar bilan kirishini ta‘minlash,



- Mamlakatning oziq ovqat bilan ta‘minlash, aholi va iqtisodiy sohani to‘liq suv resurslari bilan kafolatlash, shuningdek suv obyektlarini va meliorativ tarmoqlarni qurish, rekonstruksiya qilish, to‘g‘onsiz suv olishda bosh inshootning ishonchli va xavfsiz ishlashini ta‘minlash usullarini yaratish;

- Gidroelektrostansiyalardagi suv chiqarish inshootlari pastki beyflari mustahkamligini oshirish, yangi konstruksiyalarini ishlab chiqish orqali buzilishlarni oldini olish texnologiyalarini ishlab chiqish.



Sermahsul olim, 44 yillik mehnat va 34 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida qishloq va suv xo‘jaligiga minglab kadrlar tayyorlab berishda o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan. 2018 yilda “Oliy ta‘lim muassasasining eng yaxshi pedagogi” Respublika tanlovining “Mutaxassislik

bo‘yicha eng yaxshi pedagog” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan. Olim tomonidan 10 ta darslik, 150 dan ortiq ilmiy maqolalar, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta elektron darslik, 7 ta monografiya va 10 dan ortiq uslubiy qo‘llanmalar chop etilgan. U hozirga qadar 2 nafar fan doktori, 11 nafar falsafa doktori, 17 nafar magistrlar tayyorladi. Shogirdlaridan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sovrindori bo‘ldi.



Olim Amudaryoning yuqori oqimini boshqarishda suv resurslarining samaradorligini oshirish va Aydarko‘lni oquvchi ko‘lga aylantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan konsepsiya, nasos stansiyalaridan foydalanish va to‘g‘onsiz suv olishdagi tavsiyanomalar muallifi hisoblanadi.



Bugungi kunda olimning shogirdlari O‘zbekistonda, O‘rta Osiyo respublikalarida va xorijiy (AQSh, Rossiya, Qozog‘iston, Ukraina, Afg‘oniston va boshqa) mamlakatlarda samarali mehnat faoliyatini olib bormoqdalar.

Olim OAK ro‘yxatidan o‘tgan Buyuk Pyotr nomidagi Sankt-Peterburg Politehnika universitetidagi “AlfaBuild” jurnalida redkollegiya a‘zosi va taqrizchisi, “O‘zbekgidroenergetika” jurnalida tahrir

hay‘ati a‘zosi, Moskva Davlat Qurilish Universiteti muhandislik yo‘nalishidagi jurnal tahrir kengashi a‘zosi va muharrir o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatadi.



Hozirda olim SCOPUS reyting bazasida ro‘yxatdan o‘tgan “Magazine of Civil Engineering” (Q3) jurnalida redkollegiya a‘zosi va taqrizchisi hamda “E3S Web of Conferences” (Q3), “AIP Conference Proceedings” (Q4), “IOP Publishing” (Q4) kabi nufuzli ilmiy jurnallarda 1350 dan ortiq konferensiya materiallarini chop etishda bosh muharrir sifatida faoliyat olib bormoqda.



Tajribali olim SCOPUS reyting bazasida ro‘yxatdan o‘tgan (Q1) jurnallarda muntazam ilmiy maqolalar chop etib, hozirga qadar o‘tkazilgan 10 dan ortiq xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyalar bosh tashkilotchisi hisoblanadi.

Olimning ilmiy-pedagogik faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, 2020 yilda “O‘zbekiston respublikasi suv xo‘jaligi a‘lochisi” va 2022 yilda “Gidroenergetika iftixori” kabi ko‘krak nishonlari bilan mukofotlangan.



BEKMURODOV MANSUR BOBOMURODOVICH
Sotsiologiya fanlar doktori, professor

Professor Mansur Bobomurodovich Bekmurodov 2017 yildan buyon Davlat boshqaruvi akademiyada kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. M.Bekmurodov mamlakatimizda ijtimoiy fanlar rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan olimlardan biri hisoblanadi. Xususan, u 50 yil davomida O‘zbekistonda sotsiologiya fanini alohida fan sifatida shakllanishi va institutsionallashtirish borasida faol ilmiy va tashkiliy faoliyat bilan shug‘ullanib kelmoqda. U o‘zining butun kasbiy faoliyati davomida sotsiologik nazariyalarni ishlab chiqish, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazishni sifat jihatidan yangi va zamonaviy tadqiqot amaliyotini shakllantirishga, shuningdek, jamoatchilik fikrini o‘rganishda tizimli monitoringini ta‘minlashga muhim hissa qo‘shib kelmoqda.

Moskva davlat madaniyat institutining doktoranti sifatida M.Bekmurodov “Oliy o‘quv yurtlari talabalarining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusida fan

nomzodi dissertatsiyasini 1987 yili himoya qilgan, unda o‘qitish va empirik tadqiqotlar olib borishda ilmiy va tashkiliy faoliyatning dualistik kombinatsiyasining fundamental uslubiy yondashuvlari taqdim etgan.



1987 yilda M.Bekmurodov tashabbusi bilan Davlat boshqaruvi akademiyasiga ishga kelguniga qadar u 40 yil Madaniyat institutida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent professor, dekan va prorektor lavozimlarida ishlagan. Shaxsan M.Bekmurodovning sa‘y harakatlari va tashabbusi bilan Abdulla Qodiriy nomidagi

Toshkent Davlat madaniyat institutida “Madaniyat sotsiologiyasi” yo‘nalishi ochildi va hozirgi kunga qadar bu yo‘nalish “Ijtimoiy-madaniy faoliyat” nomi bilan faoliyat ko‘rsatmoqda.



Aynan shu ta‘lim muassasasi O‘zbekistonda “Ijtimoiy ish” ta‘lim yo‘nalishini yangi yo‘nalish sifatida muvaffaqiyatli joriy etgan birinchi tayanch oliy ta‘lim muassasasi bo‘ldi. 2008 yildan boshlab esa O‘zbekistonning boshqa oliy ta‘lim muassasasi, jumladan, O‘zbekiston Milliy universiteti, Farg‘ona, Buxoro va Samarqand davlat universitetlarida alohida ta‘lim yo‘nalishi sifatida “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi ochilishiga ta‘limiy va me‘yoriy hujjatlar, ya‘ni ta‘lim standarti, o‘quv reja va dasturlar tayyorlab berish orqali ko‘maklashdi.

2004 yildan 2010 yilgacha bo‘lgan davrda professor M.Bekmurodov Oliy ta‘lim vazirligida tahlil etilgan Sotsiologik tadqiqot guruhiga rahbarlik qilib, mutaxassislarni tayyorlash sifati va darajasini oshirish bilan birga ta‘lim tarbiya ishlarini sotsiologik tadqiqotlar orqali monitoring qilishda ishtirok etdi.

Professor M.Bekmurodovning mamlakatimizda ijtimoiy fanlar taraqqiyotini rivojlantirishga bo‘lgan sa‘y-harakatlari natijasida O‘zbekistonda sotsiologiya faniga asos solindi. Shuningdek, M.Bekmurodovning tashabbusi bilan “Sotsiologiya”, “O‘zbekistonda jamoatchilik fikri”, “Farosat ilmi”, “O‘zbek mentaliteti”, “Shukronalik falsafasi”, “Ijtimoiy davlat”, “Zamonaviy

boshqaruv sotsiologiyasi” masalalariga alohida e‘tibor qaratib, ularni chuqur o‘rganish asosida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Professor M.Bekmurodovning taklifi bilan 2005-2010 yillarda O‘zbekiston respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufidagi barcha ta‘lim muassasalarida “Ustoz – shogirdlik” tizimi joriy etilgan. Mazkur tizim bugungi kunda ham respublikamizning aksariyat ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini ta‘minlash uchun xizmat qilmoqda.



Bundan tashqari M.Bekmurodov Respublika “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining ochilishiga, “Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari” jurnali, shuningdek, “Kutubxona” jurnalining tashkil etilishida katta hissa qo‘shgan. Hozirgi kunda u “Jamiyat va boshqaruv”, “Psixologiya”, “Turizm olami”, “Fan va ta‘lim”, “Ijtimoiy tadqiqotlar” va “O‘zbekistondan ijtimoiy fanlar” kabi ilmiy jurnallarining tahririyat a‘zosi hisoblanadi.

Professor M.Bekmurodov ishtirokida mamlakatimizda “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha birinchi milliy sotsiologik markazini tashkil etish ishchi guruh a‘zosi sifatida ishlagan. O‘sha davrdan boshlab, 10 yil davomida professor M.Bekmurodov “Ijtimoiy fikr”, “Inson huquqlari” sotsiologik ilmiy jurnallarida bosh muharrir o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi.

M.Bekmurodovning ekspert sifatidagi tavsiyasiga ko‘ra “Ekspert fikri”, “TASMI”, “ITA — Fakt”, “Tahlil”, “FIKR” Nodavlat

notijorat sotsiologik tadqiqot markazlarini ochilishiga hissa qo‘shgan.

2018 yilda O‘zbekistonda sotsiologiyaning fan sifatida rivojlanishiga qo‘shilgan hissalaridan biri O‘zbekistonda ilk bor sotsiologiya fani bo‘yicha (PhD hamda DSc) ilmiy darajalar beruvchi 22.00.01, 22.00.02 va 22.00.03 shifrlari bo‘yicha DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy Kengash tashkil etilib, shu kunga qadar u yerda professor M.Bekmurodov nazariy va empirik tadqiqotlar uchun ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. O‘tgan yillar davomida 15 nafar fan doktori, 67 nafar fan nomzodi tayyorlandi. Professor M.Bekmurodov 8 nafar fan doktori va 19 nafar fan nomzodining ilmiy rahbari va maslahatchisi hisoblanadi. Shu bilan birga, 2 nafar Prezident stipendiyasi va 5 nafar Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi sohiblari rahbari hisoblanadi.



M. Bekmurodov tomonidan mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda 300 ga yaqin o‘quv va ilmiy ishlari, jumladan, 5 ta darslik, 24 ta monografiya, 11 ta o‘quv qo‘llanmalar chop etilgan. U Markaziy Osiyo va Qozog‘iston davlatlari etnolog va sotsiolog olimlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Markaziy Osiyo va Qozog‘iston Etno-sotsiologik tadqiqotlar markazining mas’ul vakilidir. Fransiya, Isroil, Koreya, Tayland, Rossiya, Qozog‘iston, Malayziya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan nufuzli konferensiyalarda ma’ruzalar bilan ko‘plab chiqishlar qilgan.

Professor M.Bekmurodov 2018 yili Toshkent shahridagi “Ko‘kcha darvoza” mahallasida, 2021 -2022 yillari Xorazm viloyatining Yangibozor tumanida sotsiologik

yondashuvni qo‘llash orqali odamlarning hayotini farovonlashuvi, tumanning ishsizlikdan xoli hududga aylanishi, yoshlarni xorijga ish izlab ketishini keskin kamayishiga o‘zining hissasini qo‘shgan. Natijada Yangibozor tumanida 25 ta yirik va 74 ta o‘rta va kichik korxonalar barpo etilib, tumanning ishsizlik va jinoyatchilikdan xoli hududga aylanishi, ajrimlarning 5 baravarga kamayganligi, 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning xorijga ish izlab ketishining keskin kamayishiga erishilgan.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Besh tashabbus” doirasida M.Bekmurodov aholini savodxonligini oshirish maqsadida respublikamizning 9 ta shahar va tumanlarda jamoatchilik kutubxonalari tashkil etgan. Shuningdek, aholini turmush darajasini o‘rganish bo‘yicha uning tashabbusi va rahbarligida respublikada birinchi bor sotsiologik tadqiqot o‘tkazilib, mahallalarning faoliyatini yaxshilash bo‘yicha yo‘l xaritalari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali sotsiologik ilmiy faoliyat asoslarini targ‘ib qilishda ham professor M.Bekmurodov faol ilmiy va tashkiliy faollik ko‘rsatmoqda.



Davlat boshqaruvi akademiyasi rahbariyati va ilmiy jamoasi professor M.Bekmurodovni Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi islohotlarning haqiqiy ishtirokchisi, shogirdlariga mehribon ustoz, ilm va fan fidoyisi hamda zabardast olim sifatida biladi.



BEKOVA NAZORA JO'RAYEVNA
Filologiya fanlari doktori, professor

N.Bekova Buxoro davlat pedagogika institutining o'zbek, tojik filologiyasi va chet tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti bo'limini 1992 yilda imtiyozli diplom bilan tugatdi. 1992 yilda Peshko' tumanidagi Abdurahmon Jomiy nomli 6-o'rta maktabda o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan. 1993-1998 yillarda Navoiy viloyati Zarafshon shahar radiosida bosh muharrir lavozimida ishlagan. 1999 yildan o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasiga o'qituvchi lavozimida ishga qabul qilindi. N.Bekova 2000-2003 yillarda Buxoro davlat universiteti tasavvuf va o'zbek adabiyoti kafedrasida huzuridagi kunduzgi aspiranturada o'qib, professor R.Vohidov rahbarligida "Alisher Navoiyning hamd g'azallari va "Ruh ul-quds" qasidasining badiiyati va manbalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yakunlab, 2003 yilning 10 dekabrda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot

institutining Ixtisoslashgan kengash yig'ilishida muvaffaqiyatli himoya qildi.

N.Bekova 2005 yilning 8 iyulidan kafedra dotsenti lavozimida ishlagan. U o'zbek filologiyasi fakulteti talabalariga "O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi", "Turkiy xalqlar adabiyoti", "Mumtoz tarixiy poetika", "Navoiyshunoslik", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" kabi fanlardan mashg'ulotlar olib boradi. Darslarida davr talabi asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanadi. U bir nechta dolzarb mavzularda ochiq ma'ruzalar tashkil etib, mutaxassislar e'tiborini muammoli masalalarga qaratadi.

Ayniqsa, uning "Adabiyot o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi ochiq leksiyasida respublikamizning turli oliy o'quv yurtlaridan ekspert a'zosi sifatida ishtirok etgan professor-o'qituvchilar ma'ruzachining pedagogik mahoratiga yuqori baho berib,

namuna sifatida mazkur tajribani targ‘ib etish taklifini bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi. Bu masala universitet ilmiy kengashida ham ko‘rib chiqildi va N.J.Bekova tomonidan ochiq leksiya namunali o‘tkazilganligi qayd etildi.



2008-2015-yillarda Ibn Sino nomidagi Buxoro mintaqaviy ilmiy markazi Yoshlar akademiyasi prezidenti lavozimida ishlab, ibratli faoliyat yuritib keldi. Bir nechta iqtidorli yoshlarning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishda turli soha vakillari bilan hamkorlikda ishladi. Buxoro iqtidorli yoshlaridan beminnat va xolis yordamini ayamadi va hamon ularga qo‘sh qanot bo‘lib kelmoqda.

N.Bekova 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, 10 ta monografiya, 6 ta elektron darslik, 30 dan ortiq darslik, o‘quv-qo‘llanma, o‘quv-metodik qo‘llanmalar muallifidir. Ilg‘or pedagog sifatida darslarini IPT asosida tashkil etib, “Tasavvuf poetikasi”, “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, “O‘zbek adabiyoti”, “Turkiy xalqlar adabiyoti” fanlaridan elektron darslik tuzdi.

BuxDU huzuridagi 4-akademik litsey uslubiy yordam ko‘rsatish guruhining kichik ishchi guruhida 2010-2014-yillarda raislik qildi. Litseyda har yili turli-tuman mavzularda tadbirlar va namunali darslar tashkil etib, namunali uslubiy yordam ko‘rsatdi.

Dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Tojikiston va Rossiya federatsiyasida bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy anjumanlarda dolzarb mavzularda ma‘ruza qildi. Filologiya sohasi bo‘yicha jahonning

yetakchi mutaxassislari bilan hamkorlikda monografiya, risola, maqolalar yozib, mazkur soha rivojiga jahon miqyosida ham o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Jumladan, Turkiyalik Hikmat Korash hamda Funda Toprak, Ozarbayjonlik Almaz ulvi Binnatova, Natella Zakirli, Tojikistonlik Ruxshona Vosiyevalar bilan hamkorlikda Alisher Navoiy adabiy merosi tadqiqiga oid ilmiy ishlari ketma-ket nashr qilinmoqda.



Jahonning nufuzli jurnallarida 50dan ortiq ilmiy maqolalari e‘lon qilindi.

“Navoiy forsiy merosining janriy tarkibi va badiiyati” mavzusidagi doktorlik ishini 2021 yilda Samarqand ilmiy darajalar beruvchi kengashida himoya qildi. U ilmiy tadqiqoti yo‘nalishida 190 dan ortiq maqola va tezislari e‘lon qilib, ilmiy anjumanlarda dolzarb muammolarga oid ma‘ruzalar bilan ishtirok etmoqda.

Nazora Bekova mehnat faoliyati davomida 20 ta magistrlik dissertatsiyasi, 43 ta MBI va 8 ta doktorant hamda mustaqil tadqiqotchiga rahbarlik qildi. Uning ilmiy rahbarligida 5 ta tadqiqotchi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishga erishdi. O‘zR Fanlar Akademiyasi bilan hamkorlikda tuzilgan “Navoiy qomusi”ning asosiy mualliflaridan biridir. U O‘zR FA Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlangan “Navoiy qomusi” lug‘atini tuzishda ishtirok etib, shu nomdagi ilmiy grantga a‘zo sifatida samarali faoliyat ko‘rsatdi. Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat va Buxoro olimlarining navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasini qomus talablari asosida to‘plab, boyitishda o‘z hissasini qo‘shdi.

N.Bekova adabiyotshunos olimi, jonkuyar murabbiy, faol ma‘naviyat-ma‘rifat

targ'ibotchisi sifatida nafaqat universitet, balki shahar, viloyat va respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tadbirlarda ishtirok etadi, ommaviy axborot vositalarida mazmunli chiqishlar qiladi. U 2006-yildan 2014-yilgacha Buxoro viloyat hokimligi huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi toponimik komissiyasining a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatdi.



U O'zbekiston telekanali "Navoiyni anglash" ko'rsatuvining doimiy faol a'zosi sifatida teletomoshabinlar nazariga tushgan navoiyshunos olimadir.

Olima 2007 yildan buyon Xalqaro

Antigue Woriod ilmiy akademiyasi doktori, professori va laureati. 2015 yilning 16 mayidan esa mazkur akademianing akademigi unvonini olishga muvaffaq bo'ldi.

Nazora Bekova dunyoning Top-1000 ro'yxatidan o'rin olgan turli oliygohlarda bo'lib, O'zbekistonning filologiya sohasi bo'yicha erishgan yutuqlarini tinmay keng targ'ib qilmoqda.

N.Bekova xorijlik talabalarga turli qiziqarli mavzularda ma'ruzalar qiladi. Ayniqsa, Qozog'istonda Abay, Muxtor Avezov, Ozarbayjonda Nizomiy Ganjaviy, Fuzuliy, Tojikistonda Rudakiy, Loyiq Sherali, Qirg'izistonda Chingiz Aytmatovga doir olib borgan saboqlari qardosh xalq talabalarida nihoyatda iliq taassurot uyg'otdi.

Tinib- tinchimas olim ta'til kunlarida-joriy yilning 1 iyul oyida "Yozgi maktab" loyihasi doirasida dunyoning Top-1000 ro'yxatidan olgan Shvetsariyaning Syurix universitetidan bir qator professor o'qituvchilar, talabalarga Abu Mansur

Muhammad al-Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar hayoti va ma'naviy merosi haqida darslar tashkil etdi, juda samarali natijalarga erishdi.

Ko'p yillik samarali va halol mehnati hamda o'z xizmat vazifasiga bo'lgan sadoqati uchun N.Bekova universitet rahbariyati, shahar, viloyat hokimligi, Xalq ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda respublikamizning turli nufuzli organlari tomonidan "Faxriy yorliq" va "Tashakkurnoma"lar bilan taqdirlangan.



Shuningdek, N.Bekova universitet va fakultet, shahar, viloyat, respublika jamoat ishlarida faol ishtirok etadi, jamoa orasida hurmatga sazovor. Har bir topshiriqni o'z vaqtida sidqidildan bajaradi. N.Bekova o'zi faoliyat yuritayotgan kafedra, fakultet, universitetda ham alohida yutuqlari bilan ajralib turadi. U juda sermahsul faoliyat ko'rsatadi.

N.Bekova jamoa manfaatlarini himoya qilib, fidoiylilik bilan xizmat qiladi. Adabiyotshunos olim fakultet huzurida tashkil etilgan "Ijodkor yoshlar" markazining rahbari, ilmiy ishlar bo'yicha dekan muovini lavozimida ham samarali ishladi. Yoshlarning jonkuyar murabbiysi rahbarligida yosh qalamkashlarning ijod namunalari sayqallanib, nashrga tayyorlanadi, ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilindi va qilinmoqda. N.Bekova o'z malakasini doimiy ravishda oshirib boradi.



BOBOMURODOV SHUXRAT MEXRIBONOVICH
Biologiya fanlari doktori

1974 yil 10 sentabrda Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida tug‘ilgan.

1997 yilda Buxoro davlat universitetini tuproqshunoslik va agrokimyo mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan.



1997-2005 yillarda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida (oldingi Tuproqshunoslik va agrokimyo davlat ilmiy-tadqiqot instituti) aspirant, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim.

2005-2013 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya,

kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi bo‘limi boshlig‘i.

2013-2015 yillarda O‘zbekiston Respublikasini Oziq-ovqat sanoati korxonalarini uyushmasi ta‘lim muassasasi direktori.

2015-2020 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi bosh mutaxassisi, bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida ishlagan.

2020 yil yanvar oyidan hozirgi kunga qadar Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti direktori lavozimida mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda.

Ilmiy faoliyat. Sh.Bobomurodov 2002 yil “Zarafshon quyi oqimi sug‘oriladigan tuproqlarining ishlab chiqarish qobiliyati va uni oshirish usullari” mavzusida 03.00.27–“Tuproqshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini, 2007 yil “Tuproqshunoslik” ixtisosligi

bo'yicha katta ilmiy xodim ilmiy unvonini olgan.



Tuproqshunoslikda ilk bor sahro mintaqasi tuproqlarida (Qorako'l vohasi) noan'anaviy tabiiy o'g'itlar- bentonit va bentonitli loylar, ko'l va daryolarning mineral yotqiziq-lari va ularning organik o'g'itlar aralashmasidan tayyorlangan kompostlarning tuproqlar unumdorligini oshirishdagi roli o'rganilgan, ijobiy ilmiy natijalar olingan.

2019 yilda "Tuproqshunoslikda zamonaviy geoaxborot texnologiyalarini (GAT) qo'llash samaradorligining ilmiy-amaliy asoslari" mavzusida 03.00.13- "Tuproqshunoslik" ixtisosligida biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



Tuproqshunoslikda zamonaviy geoaxborot texnologiyalarini (GAT) qo'llash samaradorligining ilmiy-amaliy asoslari bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlari asosida quyidagi natijalarga erishgan:

ilk bor tuproq qoplami zamonaviy geoaxborot texnologiyalari yordamida majmuaviy tahlil qilinib, natijalardan tezkor va qulay foydalanish imkonini beruvchi tizim ishlab chiqilgan;

rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida respublikamiz tuproqshunoslik, kartografiya va yer resurslarini boshqarish sohalarida geoaxborot tizimlaridan foydalanishning ilmiy asoslari aniqlangan va tamoyillari ishlab chiqilgan;



tuproq xossalarini va unumdorlik holatini aks ettiruvchi atributiv ma'lumotlar strukturasi va bazasi ishlab chiqilgan, tuproq tadqiqotlarini olib borish va ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish hamda natijalarini taqdim qilish bo'yicha tuproq geoaxborot-tahliliy tizimi (TGATT) yaratilgan;

axborotlarni yangilash, ma'lumotlarni qidirish va tarqatish bo'yicha mutaxassislarning qo'l mehnati xarajatlarini kamaytiruvchi, sohaga oid ma'lumotlarning haqqoniyligi va ulardan foydalanish samaradorligini oshiruvchi "Tuproq axborot-tahliliy tizimi" dasturiy ta'minoti yaratilgan.

Hozirda shogirdlari bilan birgalikda tuproqlar degradatsiyasini oldini olish va yumshatish, tuproqshunoslik va agrokimyo sohalarini raqamlashtirish, GAT-texnologiyalaridan foydalangan holda ekinlarni optimal joylashtirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, respublika tuproqlarini kimyoviy tahlil qilishda 5IISO/TC 190 Soil Quality asosida 26 turdagi xalqaro tuproq kimyoviy tahlillari standarti joriy qilish, tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirishga qaratilgan, tuproq sho'rlanishini kamaytirishda zamonaviy biologik preparatlarni sinash, tuproqlar unumdorligini muhofazalashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib

bormoqda.



Respublikamizda ilk marotaba qishloq xo'jaligi yer maydonlarida tuproqlarning sog'lomlik darajasini baholovchi xalqaro indeksni (SQI) joriy qilish hamda ular asosida tuproq-ekologik xaritalarini ishlab chiqish yo'nalishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida izlanishlar olib borilmoqda.

Sh.Bobomurodov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2019 yil 30 dekabrda 421-sonli qaroriga muvofiq Tuproqshunoslik va agrokimyoviy ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli qishloq xo'jaligi va biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengash va uning qoshidagi ilmiy seminar a'zosi bo'lgan, 2020 yildan buyon mazkur Ilmiy kengash raisi hisoblanadi.



2017-2019 yillar mobaynida biologiya fanlari bo'yicha 2 ta fan doktori (DSc) va 3 ta

falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalariga rasmiy opponentlik qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining "Tuproqshunoslik" ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihonlarni o'tkazish komissiyasi raisi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirining 2022 yil 4 noyabrda buyrug'i asosida "O'rmon xo'jaligi, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish fanlari" yo'nalishi bo'yicha Ilmiy-texnik kengash raisi sifatida faoliyat yuritgan.

Uning rahbarligida 2020-2023 yillar mobaynida Buxoro (265 ming ga), Andijon (230 ming ga), Sirdaryo (263 ming ga), Samarqand (143 ming ga) va Jizzax (277 ming ga) viloyatlarida tuproqlarni baholash, Buxoro (265 ming ga), Jizzax (268 ming ga) va Sirdaryo (197 ming ga), Samarqand (143 ming ga) viloyatlarida tuproqlarning agrokimyoviy kartogrammalarini tuzish, shuningdek, Sirdaryo (254 ming ga), Navoiy (95 ming ga), Farg'ona (169 ming ga), Andijon (55 ming ga), Jizzax (222,3 ming ga), Buxoro (225 ming ga) va Xorazm (219 ming ga) viloyatlarining sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari sho'rlangan tuproqlarini xaritaga tushirish ishlari bajarildi hamda ishlab chiqilgan ilmiy tavsiyalar agroklaster va fermer xo'jaliklariga taqdim etildi.

Sh.Bobomurodovning bevosita tashabbusi bilan tuproqshunoslik sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimini keng joriy etish yuzasidan institutda "Tuproq geografik axborot tizimlari va pedometrika bo'limi" yangidan tashkil etildi. Hozirda mazkur bo'lim tomonidan tuproqshunoslikda sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish yuzasidan Sirdaryo viloyatida ilmiy-amaliy loyiha bajarilmoqda.

BMT ning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlik

doirasida 2022 yilda institutda “Raqamli geoaxborot texnologiyalari markazi” tashkil etildi. Tadqiqotlarda olingan barcha tuproq ma’lumotlari Qishloq xo’jaligi vazirligining “onlayn” tarzidagi “geoportal” geofazoviy axborot tizimiga to’g’ridan-to’g’ri yuborilmoqda.



Uning rahbarligida institutning xalqaro hamkorligi yanada rivojlandi. AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog‘iston, Tojikiston, Ozarbayjon kabi davlatlar tuproqshunos olimlari bilan o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ushbu mamlakatlarda tuproqshunoslik sohalarida erishilgan yutuqlarni respublika tuproqlariga keng joriy qilish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Shuningdek, Sh.Bobomurodovning bevosita rahbarligida tuproqshunoslik yo‘nalishida respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy izlanishlarni keng yoritish maqsadida institut huzurida ilk bor “Tuproqshunoslik va agrokimyo” ilmiy jurnali tashkil etildi.

Sh.Bobomurodovning bevosita rahbarligida 2021 yilda 5 dekabr — Butunjahon

tuproq kuni hamda Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutining 100 yillik yubileyi munosabati bilan “Zamonaviy jamiyatda tuproqshunoslik: yutuqlar, muammolar va istiqbollari” mavzusida 40 dan ortiq dunyoning ko‘zga ko‘ringan xorijiy tuproqshunos olimlari ishtirokida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani yuqori saviyada tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 139-bandi ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining *“Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish to‘g‘risida”*gi Qonuni loyahasini ishlab chiqishda bevosita qatnashgan.

Sh.Bobomurodov tashabbusi bilan respublika sharoitida birinchi marta tuproq tadqiqotlarni tez va sifatli o‘tkazish, joyning o‘zida natijalar olish imkonini beruvchi, tuproqning ball boniteti va kimyoviy tarkibi bo‘yicha birlamchi tezkor va sifatli ma’lumotlarga ega bo‘lish maqsadida jahon andozalariga mos keladigan “Tuproq klinikasi” mobil laboratoriyalari tashkil etildi. Bu esa o‘z navbatida yangidan tashkil etilayotgan klaster va fermer xo‘jaliklari uchun tezkor ravishda yer maydonlarining meliorativ holatini aniqlash va o‘g‘itlarni tabaqalashtirgan holda qo‘llash imkonini beradi.

Asosiy ilmiy-uslubiy ishlari: Yuqoridagi qayd etilgan yo‘nalishlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlari asosida 3 ta monografiya, 3 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 9 ta tavsianoma, 130 dan ortiq maqolalar chop etgan bo‘lib, shulardan 20 tasi nufuzli xorijiy va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan. 6 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

U hozirgi kunda 2 nafar tayanch doktorantga ilmiy rahbarlik va 3 nafar mustaqil tadqiqotchiga ilmiy maslahatchilik qilmoqda.



BOBOYEV SAYFULLA G‘AFUROVICH
Biologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Sayfulla G‘afurovich 1979-yilning 13-martida, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ziyoli oilada tug‘ilgan. Bugungi kunda yurtimizning taniqli olimiga aylangan Sayfulla Boboyevni bu darajaga yetishida oddiy maktab o‘qituvchisi bo‘lib tarbiyalagan otasi G‘afurjon ota va uy bekasi bo‘lgan onasi Oyshahar onaning xizmatlari beqiyosdir. Ularning o‘g‘it va duolari bilan 1996 yilda poytaxtga yo‘l olgan S.Boboyev 2000-yil Toshkent Davlat agrar universiteti (ToshDAU)ning Agranomiya fakultetini tamomlagan va bakalavr darajasini (olim agronom), 2006-yilda shu universitetning magistratura bo‘limini tamomlab, magistr darajasini (g‘o‘za urug‘chiligi va seleksiyasi) olishga muvassar bo‘lgan.

Sayfulla G‘afurovich 2009-yilda 06.01.05-Seleksiya va urug‘chilik ixtisosligi bo‘yicha “Genomlararo g‘o‘za duragaylari asosida seleksiya uchun boshlang‘ich ashyo yaratish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan bo‘lsa, 2011-yilda “Seleksiya va urug‘chilik” ixtisosligi bo‘yicha katta ilmiy xodim ilmiy

unvonini olgan. 2017-yilda 03.00.09-Umumiy genetika ixtisosligi bo‘yicha “Murakkab turlararo duragaylash orqali g‘o‘zaning ko‘p genomli yangi duragaylarini yaratish va xususiyatlarini ochib berish” mavzusida fan doktori dissertatsiyasini himoya qilgan va biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini va 2021-yilda shu ixtisoslik bo‘yicha professor ilmiy unvonini olgan. 2018-yildan Rossiya oziq-ovqat xavfsizligi akademiyasi akademigi hisoblanadi. S.G‘.Boboyev ilmiy sohadagi faoliyatini 2000-yili O‘zbekiston G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi ilmiy-tadqiqot institutining “G‘o‘za genetikasi va sitologiyasi” laboratoriyasida kichik ilmiy xodimlik lavozimidan boshlagan va 2013-yilgacha bo‘lgan davrda shu laboratoriya ilmiy xodimi, katta ilmiy xodimi va laboratoriya mudiri lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Bu davrda 4F.1-11, A-11-071, QXA-9-047, QXA-8-078 loyihalarining asosiy ijrochisi, QXFYO-01-4, QXAYO-8-01 loyihalari rahbari sifatida faoliyat yuritgan.

Boboyev Sayfulla G‘afurovich O‘zbekiston Milliy universitetidagi faoliyatini 2014-yildan doktorant (DSc) sifatida boshlagan

va o'z muddatida 2017-yilda himoya qilib, biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olgan.



Shu yildan Biologiya fakulteti “Genetika” kafedrasida dotsenti lavozimida ish boshlab, 2018-yilning martidan hozirgi vaqtga qadar Genetika kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. Kafedradagi pedagogik faoliyati davomida “Genomika asoslari”, “O‘simliklar sitoembriologiyasi”, “O‘simlik va hayvonlar sitoembriologiyasi”, “Seleksiya asoslari”, “Evolutsiya nazariyasi”, “Tibbiyot genetikasi”, “Molekulyar genetika”, “Odam genetikasi”, “Molekulyar genetika va gen injeneriyasi”, “Biologiyaning dolzarb muammolari” kabi fanlardan ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari olib borgan.

Universitetdagi faoliyati davomida OT-A-QX-2018-348 va A-8-10 sonli amaliy loyihalari rahbari ITD-6-01-sonli loyihaning asosiy ijrochisi bo‘lgan bo‘lsa, IL-632204138-“Orol dengizining qurigan tubi hududida biopreparatlarni joriy qilgan holda tuproq xossalarni yaxshilash va minerallashtirgan kollektor-zovur suvlarini yaylov ekinlarini yetishtirishda foydalanish orqali tuzga chidamli turlarini tanlash” va IL-632204172 - “Sho‘rlangan tuproqlarda o‘sovchi ayrim istiqbolli efir moyli o‘simliklarni Orolbo‘yi Mo‘ynoq tumani hududida yetishtirish va uni amaliyotga joriy etish” mavzularidagi amaliy loyihalar yetakchi ilmiy xodimi sifatida tadqiqotlar olib borgan.

Ko‘p yillik tadqiqotlari natijasida asosiy va hammualliflikda yaratilgan g‘o‘za navlari uchun 9 ta patent egasidir. Ish faoliyati

davomida 250 ga yaqin ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ular orasida hammualliflikda chop etilgan “Genetika va genomika asoslari” va “Sitologiya va gistologiya” darsliklari, “Genomika asoslari” va “O‘simliklar genetikasi” o‘quv qo‘llanmalarini alohida tilga olish mumkin. Shu jumladan 4 ta monografiya, 5 ta uslubiy ko‘rsatma va 80 dan ortiq mahalliy va xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar (30 ga yaqin xorijiy, 8 ta Scopus bazasida), 120 dan ortiq Xalqaro va Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida tezislari chop etilgan.



S.G‘.Boboyev “Ustoz-shogird” tizimida iqtidorli talabalar, magistrlar, doktorantlar va izlanuvchilar bilan samarali ishlar olib borishni yo‘lga qo‘ygan, jumladan, uning rahbarligida 1 nafar fan doktori (DSc), 1 nafar biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, 20 nafardan ortiq magistrlar dissertatsiya ishlarini himoya qilgan va hozirda 3 nafar tayanch doktorantga rahbarlik qilib kelmoqda. So‘nggi 5 yil davomida 20 ga yaqin fan doktorlik dissertatsiya ishlariga rasmiy opponentlik qilgan. So‘nggi 2 yil davomida dunyoning TOP-1000 talik universitetlari qatorida turuvchi M.Auyezov nomidagi Janubiy-Qozog‘iston davlat universiteti talabalariga ham ma’ruzalar o‘qib keladi. Pokiston davlatining Biotexnologiya va gen injeneriyasi institutida 6 oylik stajirovkalarda bo‘lib o‘z bilimini boyitib qaytgan.

2020-yildan “Scientific Progress” ilmiy jurnali va 2022-yildan “Modern Biology and

Genetics” jurnalining tahrir hay’ati a’zosi hisoblanadi. S.G’.Boboyev ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash va uning qoshidagi Ilmiy seminarlarda ham faol ishtirok etib,



O’ZR FA Genetika va o’simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli ilmiy kengash qoshidagi 03.00.09-Umumiy genetika ixtisosligi bo’yicha ilmiy seminar a’zosi, “TIQXMMI” MTU huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/14.07.2 raqamli ilmiy kengashi va ilmiy seminari a’zosi hisoblanadi.



O’zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi qoshidagi “Biologiya” fanlari ilmiy-texnik kengashi a’zosi va “Qishloq xo’jaligi va atrof muhitni muhofaza qilish” fanlari ilmiy texnik kengashida 2 muddat davomida rais o’rinbosari sifatida faoliyat olib borgan.

S.G’.Boboyev tomonidan ilk bor g’o’zaning D1, D5, A2, AD1, AD2 genom guruhlariga mansub *G. thurberi* Tod. x *G. raimondii* Ulbr. x *G. arboreum* L.) x

G.hirsutum L.] x *G.hirsutum* L.} sxemasidagi 4 genomli va {[*(G. thurberi* Tod. x *G. raimondii* Ulbr. x *G. arboreum* L.) x *G.hirsutum* L.] x *G.barbadense* L.} sxemasidagi 5 genomli murakkab genomlararo duragaylari yaratilgan. Madaniy tetraploid turlar genotipini boyitishda yovvoyi turlarning samaradorligi aniqlangan. Yangi murakkab genomlararo duragaylarda morfo-biologik va qimmatli xo’jalik belgilarining irsiylanishi va o’zgaruvchanlik qonuniyatlari hamda xo’jalik belgilar orasidagi korrelyatsion bog’liqliklar aniqlangan. Genomlararo murakkab duragaylarni sintez qilishda kuzatiladigan qiyin chatishuvchanlik, duragaylarining somatik hujayralaridagi xromosomalar sonining tebranishi, xromosomalar morfologiyasi, mikrosporogenez bosqichlarida kechadigan nuqsonlar, xromosomalar konyugatsiyasi, meyoznining metafaza (MII) va anafaza (AII) bosqichlaridagi buzilish va nuqsonlar hamda ularni meyotik indeksga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ko’p yillik tadqiqotlar asosida qimmatli-xo’jalik belgilarning ijobiy majmuasiga ega bo’lgan yangi 100 dan ortiq oilalar va 20 dan ortiq tizmalari ajratib olinib, amaliy genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish uchun taqdim etilgan. Olingan ilmiy natijalar asosida tezpisharligi, hosildorligi, tolasining yuqori sifati hamda vilt kasalligiga bardoshliligi bo’yicha ajralib turuvchi nav namunalari bilan g’o’za kolleksiyasi boyitilgan. G’o’zaning yovvoyi turlari genotipi hisobiga boyitilgan, turli biotik va abiotik omillarga bardoshli, xo’jalik belgilari ishlab chiqarish talablariga mos bo’lgan, SP-1303, SP-Kamolot, S-7277, Kamolot-79 kabi navlari yaratilgan. Hozirda ushbu navlarning ekin maydonlarini kengaytirish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.



BOBOYEV SOBIRJON MURODULLAYEVICH

Texnika fanlari doktori, professor

S.Boboyev 1981 yilda Kiyev muhandislik-qurilish institutini “Issiqlik-gaz ta’minoti va ventilyatsiya” mutaxassislik bo’yicha tamomlab, shu yilning o’zida Mirzo Ulug’bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti “Issiqlik gaz ta’minoti va ventilyatsiya” kafedrasida assistent lavozimiga ishga qabul qilingan. U 1983-1987 yillarda — Moskva muhandislik-qurilish instituti “Itish va ventilyatsiya” kafedrasida aspirant bo’lib tahsil olgan.



S.Boboyev 1987-1991 yillarda — Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti issiqlik, gaz ta’minoti va havo havzalarini muhofaza qilish kafedrasida assistent, kichik ilmiy xodimi, katta ilmiy xodimi, 1991-1992 yillarda — Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti issiqlik, gaz ta’minoti va havo havzalarini muhofaza qilish kafedrasida dotsent, 1992-1997 yillarda — Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti issiqlik, gaz ta’minoti va havo havzalarini muhofaza qilish kafedrasida mudiri, 1997-2011 yillarda — Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o’quv ishlari prorektori, rektori, 2011 -2018 yillarda — Samarqand davlat universiteti “Ekologiya” kafedrasida professor, 2018-2023 yillarda Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti issiqlik gaz ta’minoti, ventilyatsiya va servis kafedrasida mudiri, 2023-h.v. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Mexanika muhandisligi” kafedrasida professor lavozimlarida faoliyat ko’rsatib kelmoqda.

S.Boboyev 2000 yilda texnika fanlari bo’yicha doktorlik dissertatsiyani himoya

qilgan. Texnika fanlari doktori, professor. S.Boboyev 2020 yil 21-22 mayda Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti, Volgograd davlat texnika universiteti va Belorussiya Milliy texnika universiteti hamkorligida “Muhandislik kommunikatsiyalari sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumanini tashkil qildi.



Bugungi kunda kafedrada iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘yicha “Yosh muhandis” ilmiy tugaragi faoliyat yuritmoqda. Unga 25 nafar talaba jalb qilingan. S.Boboyev rahbarligida 2018-2019 o‘quv yilida F.Sattorov, 2019-2020 o‘quv yilida Sh.Oblaqulov “Ventilyatsiya va havoni mo‘tadillash” fanidan respublika fan olimpiadasida qatnashib fahrli III-o‘rinni egallashgan. S.Boboyev bitiruv loyiha ishlariga rahbarlik qilgan talabalardan M.Majidov, T.Primov va U.Botirovlar “International festival of architectural civil engineering and design schools of eurasia” ko‘rik tanlovida ishtirok etib T.Primov 3-darajali diplom bilan taqdirlangan. 2018 yilda Volgograd davlat texnika universiteti “Effektivniye modeli i texnologii resursosberejeniya, energosberejeniya i prirodopolzovaniya v stroitelstve i JKX” ko‘rik tanlovida ishtirok etgan magistr A.Abdulxamidov 1-darajali diplom bilan taqdirlangan. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Yangi asr iste’dodlari” respublika ko‘rik tanlovida S.Boboyev rahbarligida “Eng yaxshi innovasion muhandislik kommunikatsiyalari loyihalari va

ishlanmalari” bo‘yicha 2018 yilda Z.Fayziyev 1-o‘rinni, 2019 yilda K.Volkova 3-o‘rinni 2022 yilda M.Ravshanova faxrli II-o‘rinni egallashgan. S.Boboyev faol jamoatchi sifatida mahallada o‘tkaziladigan barcha tadbirlarda qatnashib, mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar va uning asosida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlarni keng targ‘ib etib kelmoqda. Jumladan Respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilarini “Bir ziyoli-bir mahallaga ma’naviy homiy” tamoyili asosida Samarqand viloyati Urgut tumani “Uzunsoy” MFYda o‘spirin yoshlarni ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirish, ularni oliy ta’lim muassasalarida o‘qishga jalb qilish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirib kelmoqda.



S.Boboyev Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.26/27.02.2020.T.109.01 ilmiy Kengashi raisi. U rais sifatida ilmiy izlanuvchilar va tayanch doktorantlar dissertatsiya ishlari himoyasini tashkil qilish va o‘tkazish, ilmiy seminarlar, malakaviy imtihonlarni qabul qilishni tashkil qilishda faol ishtirok etmoqda.



2019 yildan buyon akademik M.S.Osimiy nomidagi Tojikiston texnika universiteti huzuridagi doktorlik ilmiy darajasini beruvchi GD.KOA-016 ilmiy Kengash a’zosi sifatida hamda doktorlik dissertasiya ishlariga rasmiy opponentlik qilib kelmoqda. OAK xay’atining ro’yxatiga kiritilgan “Me’morchilik va qurilish muammolari” ilmiy-texnik jurnali hamda Scopus-Web of Science ro’yxatiga kiritilgan “PROBLEMS OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION” xalqaro ilmiy-texnik jurnallarida tahririyat hay’ati a’zosi. U istiqbolli reja asosida kafedraning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish uchun iqtidorli yoshlarni tanlash, ularni ilmiy sohaga yo’naltirish, xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiyalarni o’tkazish ishlariga bevosita rahbarlik qilib kelmoqda.



Uning kafedra iqtidorli yoshlarini xorijiy oliy ta’lim muassasalariga tahsil olish uchun jo’natish va xorijiy oliy ta’lim muassasalari yetakchi professorlari, olimlarini kafedraga taklif etib, iqtidorli yoshlarga ta’lim tarbiya berish bo’yicha amalga oshirayotgan ishlari tahsinga sazovordir.



S.Boboyev o’quv-uslubiy, moddiy-texnik bazalarini shakllantirish, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishning innovatsion usullarini o’quv jarayoniga joriy etish va qo’llash tadbirlarida yetakchilik qilib kelmoqda. Kafedrada o’qitilayotgan 10 dan ortiq fanlardan multimediali va elektron shaklda o’quv-uslubiy majmualarning yaratilishi, mavjud laboratoriyalarning yangidan jihozlanganligi, kafedraning shakllanishiga katta xizmat qildi.



S.Boboyev talabchan rahbar sifatida kafedra professor-o’qituvchilarini doimiy o’z mahoratini oshirib borishini ta’minlab kelmoqda. Natijada 2019 yilda kafedraning 3 nafar professor-o’qituvchilari “El-yurt umidi” jamg’armasi tomonidan R.Aymatov Moskva davlat qurilish universitetida, Z.Fayziyev Belorussiya Milliy texnika universitetida, U.Yakubov Qozon davlat arxitektura qurilish universitetida” ilmiy stajirovka o’tab keldilar. Bugungi kunda ushbu yosh olimlar texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishini yakunlash arafasida. 2020 yilda Yosh olimlar, doktorantlar M.Axmedova,



N.Olimova, G.Keldiyorova, M.Toshtemirov va A.Ismoilovlar O‘zbekiston Respublikasi

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan ajratilgan davlat grantlari g'olibiga aylangan. S.Boboyevning ilmiy rahbarligida 2021 yil sentyabr oyida M.Axmedova, 2021 yil dekabr oyida G.Keldiyorova, 2023- yilda Aytmuratov Bahadir, 2024 yilda Olimova Nargiz, Burxonov Xurshid va Pirnazarov Ilhomlar texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qilishdi.



S.Boboyev SamAVTO zavodining “Boshqaruv binosi” va “Lazer sexi”, Urgut erkin iqtisodiy zonasidagi “URGUT TEKSTIL” MChJ, “Samarqand sifat go'sht savdo” MChJ, Farxod shaharchasidagi Keramik mahsulotlar ishlab chiqarish zavodi, Samarqand shahridagi tikuv fabrikasi, Samarqand tumanidagi “AGROMIR” qo'shma korxonasi ishlab chiqarish sexi, Narpay tumanidagi “Narpay textile” tikuv fabrikasi va boshqa binolarni ventilyasiya va havoni mo'tadillash tizimlarini amaliy loyihalash ishlarini bajargan. Xo'jalik shartnomalari asosida universitet hisobiga yiliga 50-100 mln so'm miqdordagi tushimlarni amalga oshirib kelmoqda.



S.Boboyev Shvetsiya davlatida o'tkazilgan, Shvetsiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Rossiya, Tojikiston kabi xorijiy davlatlarda 20 dan ortiq

davlatlarida muhandislik, atrof muhit muhofazasi, ekologiya, muhandislik kommunikatsiyalar qurilishi, yosh olimlarni tajribasini oshirish, soha faoliyati va tajribasini o'rganish hamda tatbiq etish kabi yo'nalishlarda malaka oshirib, xalqaro sertifikatlariga ega.



S.Boboyev o'z professional hayot tajribasi va to'plagan xalqaro bilimlaridan foydalangan holda O'zbekistonda muhandislik qurilish meyorlari va me'yoriy qoidalari qabul qilinishida o'zining fikrlarini bilimlarini targ'ib qilib kelmoqda.



So'nggi uch yilda S.Boboyev tomonidan 3 ta monografiya 5 ta o'quv qo'llanma, 2 ta foydali modelga patent, 4 ta scopus xalqaro ilmiy jurnallarida va 40 dan ortiq ilmiy maqolalar chop qilingan.

S.Boboyev chuqur bilimga ega, yuqori salohiyatli va fidoiy pedagog-olim, o'z vataniga va xalqiga sodiq, kamtarin va samimiy inson. U tashkilotchi rahbar sifatida respublikamizdagi oliy ta'lim maussasalari professor-o'qituvchilari va aholi o'rtasida hurmat-e'tibor qozongan.



BUTIKOV IGOR LEONIDOVICH
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Butikov Igor Leonidovich 1958 yilda Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida tug‘ilgan. U yerda 1973 yilda Gliyer nomidagi Termiz musiqa maktabini va 1975 yilda Lunacharskiy nomidagi 5-son umumta’lim maktabni tamomlagan.



1975 yilda u Toshkent xalq xo‘jaligi institutining (hozirda – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) moliya fakultetiga o‘qishga kirib, uni 1979 yilda tugatgan va “Kapital qo‘yimalarni moliyalashtirish va kreditlash” mutaxassisligi bo‘yicha iqtisodchi

malakasini olgan. Institutni tugatganidan so‘ng, I.L.Butikov Qurolli Kuchlar safiga chaqirildi va u yerda raketa qo‘shinlarida o‘quv poligonining yoqilg‘i quyuvchi haydovchisi bo‘lib xizmat qildi, so‘ngra maxsus kurslarni tugatib, zaxiradagi ofitser harbiy unvonini oldi. I.L.Butikovning mehnat faoliyati Toshkent xalq xo‘jaligi institutining “Pul muomalasi va kredit” kafedrasidan boshlandi, uni shu institutni tugatgandan so‘ng 1979 yilda assistent lavozimida ishlashga taklif qilishdi.

1984 yilda I.L.Butikov Moskva Moliya institutining (hozirgi Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti) mashhur iqtisodchi, iqtisod fanlari doktori, prof. O.I.Lavrushin boshchiligidagi “Pul muomalasi va kredit” kafedrasiga maqsadli aspiranturaga o‘qishga kirdi. 1987 yilda aspiranturani tugatib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan unga “Moliya, pul muomalasi va kredit”

mutaxassisligi bo‘yicha iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi.



I.L.Butikov aspiranturani tugatgach, Toshkentga qaytib kelib, Toshkent xalq xo‘jaligi institutida assistent, katta o‘qituvchi bo‘lib ishladi, o‘quv-uslubiy ishlarni faol olib bordi, xususan, professor I.S.Sayifnazarov rahbarligida chet ellik talabalar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi. 1991 yil 25 aprelda sobiq Ittifoq Xalq ta’limi davlat qo‘mitasining 4/747-d-sonli qarori bilan unga “Pul muomalasi va kredit” kafedrasida dotsenti ilmiy unvoni berildi.

1991 yilda Milliy biznes universitetida brokerlik kurslarini tamomlab, “Toshkent” O‘zbekiston tovar-xomashyo birjasida broker sifatida ish boshladi. O‘sha yilning avgust oyida uning tashabbusi bilan mazkur birjada O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorining birinchi rasmiy instituti – “Toshkent” birjasining Fond bo‘limi tashkil etilib, u ushbu bo‘limga boshliq qilib tayinlandi, “Toshkent” O‘zbekiston universal tovar-xomashyo birjasi” MCHJ esa “Toshkent” O‘zbekiston universal tovar-xomashyo birjasi” AJ ga aylantirildi.

1992 yilda u “Toshkent” tovar-fond birjasi” MCHJ Boshqaruvi raisining o‘rinbosari etib tayinlandi. Uning rahbarligida 1992 yilda “Toshkent” birjasi fond bo‘limining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bo‘yicha aylanmasi 26 mln. rublga yetdi (MDHdagi eng yirik birja hisoblangan Moskva xalqaro fond birjasining aylanmasi – 86 mln. rubl edi).

1993 yilda I.L.Butikovga respublika rahbariyati tomonidan “Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasini tayyorlash topshirildi. Qonun loyihasi ishlab

chiqilib, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishildi va 2 sentyabr kuni mamlakat Prezidenti tomonidan imzolandi. Qonun 2008 yilning o‘rtalariga qadar amal qildi va mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishida katta rol o‘ynadi.

1994 yilda respublikada “Toshkent” respublika fond birjasi” tashkil etildi. I.L.Butikov birja Boshqaruvi raisi etib saylandi. 1994 yil apreldan 1996 yil aprelgacha bo‘lgan davrda uning rahbarligida va bevosita ishtirokida mamlakat qimmatli qog‘ozlar birja bozorining tashkiliy asoslari ishlab chiqildi, xususan, “Toshkent” RFBda qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalari qabul qilinib, birja savdolarini birja a‘zolari treyderlarining elektron o‘zaro hamkorligi orqali real vaqt rejimida o‘tkazish imkonini beruvchi “Fond birjasi” birinchi mahalliy dasturiy mahsuloti yaratildi.



1996 yildan boshlab I.L.Butikov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 26 martdagi PF-1414-son Farmoni va mamlakat hukumatining 1996 yil 25 apreldagi 161-son qarori bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilariga maslahat-auditorlik va axborot xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha nohukumat agentligining (“Konsauditinform” agentligi) Bosh direktori lavozimida ish boshladi.

Uning rahbarligida “Konsauditinform” agentligi o‘zining to‘rt yillik faoliyati davomida o‘sha vaqtda 400 dan ortiq auditorlik tashkiloti faoliyat ko‘rsatgan auditorlik xizmatlari bozorini muvaffaqiyatli o‘zlashtirdi.

Mamlakatning har bir mintaqasida agentlikning shuba korxonalari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida jami 16 ta bo‘linma) tashkil etilgan edi, shu bilan birga, agentlik mamlakatning taxminan 1200 ta korxonasiga auditorlik xizmatlarini ko‘rsatdi. 5000 dan ortiq aksiyadorlik jamiyatidan har yili 700 taga yaqini audit o‘tkazish uchun “Konsauditinform” agentligi xizmatlariga murojaat qilishdi.



Bu davrda I.L.Butikov “Konsauditinform” agentligi tomonidan respublika Markaziy banki bilan birgalikda chop ettiriladigan “O‘zbekiston Moliya bozorining sharhi” ilmiy-amaliy jurnali hamda “Konsauditinform” agentligining axborot byulleteni” jurnalining bosh muharriri edi. Keyinchalik ushbu jurnallar nomi mos ravishda “Iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi” va “Qimmatli qog‘ozlar bozori va birja ishi” jurnallariga o‘zgartirildi. 8 yil davomida (1996 yildan 2004 yilgacha) I.L.Butikov ikkala nashrning ham bosh muharriri bo‘lib xizmat qildi.

2000 yil oxirida I.L.Butikov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.01.1997 yildagi 27-sonli qarori bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi huzuridagi Bozor islohotlarini chuqurlashtirish ilmiy-tadqiqot institutining direktori etib tayinlandi.

2002 yilda u Bank-moliya akademiyasining sirtqi doktoranturasiga o‘qishga kirdi. I.L.Butikovning doktorlik dissertatsiyasiga uning ustози – iqtisod fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar

Akademiyasi akademigi, professor M.Sh.Sharifxo‘jayev rahbarlik qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining 2010 yil 25 fevraldagi 004535-sonli qarori bilan I.L.Butikovga iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasi berildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatning qarorlariga muvofiq I.L.Butikovning rahbarligida bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining eng muhim institutlari tashkil etildi, jumladan “Toshkent” Respublika Fond birjasi (1994-1995 yy.), Qimmatli qog‘ozlar bozori mutaxassislari tayyorlash milliy markazi (1994-2010 yy.), O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilariga maslahat-auditorlik va axborot xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha nohukumat agentligi (1996-2000 yy.), “Qimmatli qog‘ozlar bozori va birja ishi”, “Iqtisodiyot va mulkdorlar sinfi” ilmiy-amaliy nashrlari (1996-2004 yy.). 2000 yildan buyon u O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo‘mitasi qoshidagi Bozor islohotlarini chuqurlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti(hozirda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi) direktori bo‘lib ishlab kelmoqda.

I.L.Butikov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qo‘mita va yalpi majlislarida doimiy ravishda ma‘ruzalari bilan ishtirok etib keladi.

U bir necha bor O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasida “Mahorat darslari” o‘tkazgan, shuningdek, TDIU va Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida “IPO Fond bozorlariga

kirish” fani bo‘yicha professor lavozimida o‘rindoshlik asosida ishlagan (2012-2013 yy).

I.L.Butikov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining akkreditatsiyasidan o‘tgan, shuningdek qimmatli qog‘ozlar, ko‘chmas mulk va tovarlar bozorlari, korporativ boshqaruv uchun kadrlar, professional baholovchilar, sud boshqaruvchilarini tayyorlovchi va ularning malakasini oshiruvchi Yangi bozorlar uchun mutaxassislarini tayyorlovchi milliy markazining asoschisi hisoblanadi (1994 y.).

I.L.Butikov bir qator xalqaro va xorijiy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan kurslarga qatnashib, o‘z malakasini oshirgan. Jumladan, 1992 yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, London Fond birjasi tomonidan Fond birjasi maslahat qo‘mitasi va Moskva xalqaro fond birjasi ko‘magida tashkil etilgan Fond birjalarining rahbarlari va mutaxassislari uchun kurslarda, 1994 yilda AQSHning Nyu-York shahridagi qimmatli qog‘ozlar va fond birjalari komissiyasida, 1995 yilda Kolorado universiteti (Boulder sh., Kolorado shtati) “Moliyaviy bozorlar” dasturi bo‘yicha stajirovkada, 2003 yilda Janubiy Koreya Markaziy depozitariysi stajirovkasida malaka oshirgan. Shuningdek, u 2011 yilda O‘zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi qoshidagi Hakamlik sudyalari akademiyasi hamda 2016 yilda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazining maxsus kurslarida malaka oshirib, tegishli sertifikatlariga ega bo‘lgan. 2018 yildan hozirgacha u O‘zbekiston hakamlik sudlari assotsiatsiyasi Boshqaruvi a’zosi, 2023 yilda unga II darajali oliy arbitraj sudyasi malaka darajasi berilgan.

I.L.Butikov 2000 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda iqtisodiyot sohasidagi davlat buyurtmalari asosida ilmiy-texnik dasturlar doirasida amalga oshirilgan va muvaffaqiyatli yakunlangan 8 ta ilmiy loyihalarning rahbari sifatida faoliyat ko‘rsatib, o‘zining ilmiy asoslangan taklif va tavsiflari bilan

mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojiga muhim hissa qo‘shgan. 2022 yilda amalga oshirilgan “O‘zbekiston ko‘chmas mulk bozori multilisting tizimi (MLT)ning samarali ishlashini ta’minlovchi dasturiy mahsulotni yaratish” innovatsion loyihasi shular jumlasidandir.



I.Butikov tomonidan mamlakatimiz qimmatli qog‘ozlar bozori, ko‘chmas mulk bozori, xususiylashtirish, korporativ boshqaruv, venchur moliyalashtirish sohalarini rivojlantirishga qaratilgan 7 ta darslik va o‘quv qo‘llanmasi, mahalliy va xorijiy jurnallarda 80 dan ortiq ilmiy maqola, ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida 50 dan ortiq tezis, gazeta nashrlarida 30 ta maqola chop etilgan, davlat organlariga 180 dan ziyod amaliy va innovatsion xarakterdagi ilmiy ishlanmalar taqdim etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, respublika va xalqaro ilmiy konferensiya va seminarlarida 50 dan ortiq ma’ruzalar qilingan, uning nomiga Intellektual mulk agentligidan 26 ta mualliflik guvohnomalari olingan, ilmiy hujjatli filmlarga 2 ta ssenariy tayyorlangan.

I.Butikovning 25 ta ilmiy va amaliy ishlanmalari davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida amaliyotga joriy etilgan. Xususan, hozirgi paytda Koreya Fond birjasi tomonidan yetkazib berilgan Yagona dasturiy-texnik majmuaning joriy etilishi munosabati bilan aynan I.L.Butikov tomonidan ishlab chiqilgan ““Toshkent” RFB da qimmatli qog‘ozlar bilan savdo qilish qoidalari” asosida “Toshkent” respublika fond birjasida qimmatli

qog'ozlar bilan operatsiyalar amalga oshirilmoqda ("Toshkent" RFB ning 2016 yil 7 oktyabrdagi 01/04-04-1259-sonli ma'lumotnomasi, Intellektual mulk agentligining 2017 yil 8 avgustdagi 000530-raqamli mualliflik huquqi guvohnomasi, 405 bet, 16,9 bosma taboq).



I.L.Butikov tomonidan ishlab chiqilgan venchur fondlarini, innovatsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'z ichiga olgan "O'zbekistonda venchurli moliyalashtirish tizimini yaratishning kontseptual qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 noyabrdagi 684-son "UzVC" milliy venchur fondi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021 yil 9 iyuldagi 02-55/4093-sonli ma'lumotnomasi).

Oxirgi 5 yil mobaynida I.L.Butikov Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan nashrlar ro'yxatiga kiritilgan "Biznes-Ekspert", "Bozor, pul va kredit" jurnallari tahririyat kengashi a'zosi, shuningdek Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi "Xalqaro iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.11|25/08/2022.S.24.02-son Ilmiy kengashi a'zosi sifatida faol ishlab kelmoqda. Shuningdek, u "Banki i finansovie rinki" jurnali (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti) xalqaro tahririyat kengashining a'zosi sifatida O'zbekistonni

xorijiy ilmiy va maxsus professional tashkilotlarda munosib namoyon etib kelmoqda. 2021 yil may oyida 6 yil muddatga China International Economic and Trade Arbitration Commission (Xitoy xalqaro iqtisodiy va savdo arbitraj komissiyasi) Hakamlar hay'ati a'zosi etib saylangan.

Respublika rahbariyatining farmoyishlari bilan I.L.Butikov bir necha bor mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish komissiyalari tarkibiga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 26 iyundagi 3863-sonli Farmoyishi bilan Davlat boshqaruvini isloh qilish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturini tayyorlash komissiyasi tarkibiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Birinchi o'rinbosarining 2014 yil 7 oktyabrdagi 02-8-81-sonli farmoyishi bilan Iqtisodiyotda xususiy mulkni yanada oshirish, fond bozorini rivojlantirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflarni tayyorlash bo'yicha idoralararo ishchi guruh tarkibiga kiritilgan.

Oliy attestatsiya komissiyasining 2018 yil 28 sentyabrdagi 256/1-sonli qarori bilan I.L.Butikovga professor ilmiy unvoni berilgan.

Butikov Igor Leonidovich Vatan manfaati yo'lida qilgan xizmatlari va halol mehnati uchun bir necha bor faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan, 2006 yilda "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 15 yil" esdalik nishoni va 2021 yilda "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlangan.

I.L.Butikov fidoyi va malakali iqtisodchi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda ko'rsatgan alohida xizmatlari, ayniqsa qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bozorlarining salohiyatini oshirishga qo'shgan hissasi uchun hukumat va jamoatchilik orasida hurmat qozongan. O'zi yashayotgan mahallada jamoat ishlarida ham faol va tashabbuskor. Mahallaning obodligi va ozodaligi, aholi salomatligini saqlashda yordamini ayamaydi.



DAVRANOV QAXRAMON

O'zR FA akademigi, biologiya fanlari doktori, professor

Qaxramon Davranov 1945 yil Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qorabog' qishlog'ida tug'ilgan. Millati o'zbek. Ma'lumoti oliy. 1967 yilda Toshkent farmatsevtika institutini tamomlagan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi – provizor.

Mehnat faoliyatini 1967 yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida laborantlikdan boshlagan. 1968-1969 yillar stajyor tadqiqodchi lavozimida ishlagan. 1969-1972 yillar davomida shu institut aspiranturasida o'qigan. 1972 yili O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutiga ishga taklif qilingan va u yerda kichik ilmiy xodim (1972 yy.), katta ilmiy xodim (1972-1984 yy.), laboratoriya mudiri (1984-1996 yy.), ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (1996 y.) hamda direktor (1996-2003 yy. va 2019 yildan — hozirgi

vaqtgacha) bo'lib ishlab kelmoqda. 2007 yildan 2019 yilgacha Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida faoliyat yuritib kelgan: Loyiha bo'yicha yetakchi ilmiy xodim (2007 y.), 2008-2019 yillar universitetning Biologiya fakulteti "Mikrobiologiya va biotexnologiya" kafedrasida professor lavozimida ishlagan. 2019 yildan hozirgacha O'zR FA Mikrobiologiya institutida direktor lavozimida faoliyat olib bormoqda.

1972 yili 7 iyunda O'z FA O'simlik moddalari kimyosi institutida professor P.X. Yo'ldoshev rahbarligida "G'o'za chigiti malatdegidrogenazasini o'rganish" mavzusida kimyo fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun nomzodlik dissertatsiyasini va 1984 yil O'z FA Biokimyo institutida professor A.M. Bezborodov rahbarligida "Oospora lactis va

Rhizopus microsporus zamburug'larining lipazalari: biokimyoviy jihatlari" mavzusida biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1999 yili professor, 2023 yilda akademik ilmiy unvoniga tasdiqlangan.



Q. Davranov mikrobiologiya va biotexnologiya fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va bu yo'lda uning 300 ga yaqin ilmiy maqolalari chop etilgan. Ulardan 150 dan ortig'i xorijiy mamlakatlarning nufuzli, yuqori impakt faktorga ega bo'lgan ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

Ilmiy kashfiyotlari uchun 30 dan ortiq mualliflik guvohnomalari va patentlar olgan, ulardan bittasi Yevroosiyo patenti (№021467) bo'lib, u tuproq unumdorligini oshirish va o'simliklarni kasalliklardan himoya qilishga qaratilgan. Uning maqolalaridan 300 dan ortiq xorijlik olimlar o'z maqolalarida foydalanganlar.

Q. Davranov shu paytgacha 7 nafar fan doktorlariga (3 nafari mikrobiologiya va virusologiya, 2 nafari biotexnologiya, 1 nafari o'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi hamda 1 nafari biokimyosi) va 20 nafar fan nomzodlariga (ulardan 7 nafari biotexnologiya, 6 nafari mikrobiologiya va 5 nafari biokimyosi hamda 1 nafari o'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi) ilmiy rahbarlik qilgan.

Umumiy mehnat faoliyati 63 yil. Ilmiy-pedagogik ish faoliyati 19 yil.

Q. Davranov – mikroorganizmlar asosida yangi biotexnologiyalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga

tatbiq etish bo'yicha o'z maktabini yaratgan yirik olim.

Q. Davranovning ilmiy faoliyati mikrobiologik sintez natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlarni ajratib olish, baholash va ishlatish bilan, jumladan, mikroorganizmning lipaza, proteaza, amilaza, sellulaza, glyukoizomeraza, nitrilhidrataza kabi fermentlarini sof holda ajratish, o'rganish, ulardan foydalanish hamda tabiiy, past molekularli metabolitlarni tozalab olish, ularni identifikatsiya qilish, biogenez mexanizmlari va biosintezni boshqarish mexanizmlarini tadqiq qilish bilan bog'liq.



Q. Davranov jahonda birinchilardan bo'lib mikroorganizmlar sintez qiladigan lipaza fermentining ko'p molekular shaklliligining maqsadli ravishda hosil bo'lishi va ushbu jarayonning sabablarini e'tirof etuvchi tadqiqot ma'lumotlari olgan hamda mikroorganizmlar o'zlari yashayotgan ekologik sharoitga javoban, lipaza fermentining har xil molekular shakllarini sintez qilishi va ulardan ayrimlarini o'zlarining sog'lom hujayralari tashqarisiga sekretsia qilishi, ayrimlarini esa, hujayra ichida saqlab qolishini ilmiy asoslab bergan.

Olim tomonidan mikroorganizmlar lipazalarini toza holda ajratib olishning yangi usullari yaratilgan, mualliflik guvohnomasi (A.S. N877933) bilan himoya qilingan va 20 dan ortiq lipaza faolligiga ega bo'lgan fermentlarning molekular shakllari sof holda ajratib olingan. Ulardan bir nechtasi kristall holatida tozalab olingan va ularning fizik-kimyoviy, biokimyoviy va enzimologik


xususiyatlari batafsil o‘rganilgan. Lipaza fermenti orasida fan uchun mutlaqo yangi bo‘lgan va o‘sha davrda (1980 yillar) jahon mikroorganizmlar biokimyosi fanida o‘rganilmagan shakllari ham bor ekanligi ilmiy asoslab berilgan va bu ma’lumotlar keyinchalik, oradan 10-15 yillar o‘tib xorijlik olimlar tomonidan ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Fanda ilk bor mikrob lipazalarining bir-biridan fizik-kimyoviy xususiyatlari va ta’sir mexanizmlari bo‘yicha farq qilishiga qaramay, ularning “faol markazlari” bir xil ekanligi va markazni hosil qilishda uch aminokislota – serin, gistidin va asparagin kislotasi ishtirok etishi isbotlagan. Lipazaning har xil ta’sir mexanizmiga ega bo‘lishida fermentning uchlamchi strukturasi (tuzilishi) mas’ul ekanligi, fermentativ kataliz jarayonida lipaza o‘zining uchlamchi strukturasi o‘zgartirib, “yopiq” holatdan “ochiq” holatga o‘tishini ilmiy jihatdan to‘liq asoslab bergan (Gulomova K., Ziomek E., Schrag J.D., Davranov K., Cygler. M. Purification and characterization of a *Penicillium* sp lipase which discriminates against diglycerides.// LIPIDS. Tom: 31 Vipusk: 4 Str.: 379-384. APR 1996).



Q.Davranov tomonidan mikroorganizmlar sintez qiladigan lipazalarning molekular shakllarining o‘zgaruvchanlik mexanizmlari o‘rganilgan va bu jarayon lipaza fermentining yangi molekular shakllarini hosil qilish bilan emas, balki mikrob hujayrasida bu fermentning faolligini boshqarib turadigan tabiiy ingibitorning mavjudligi bilan bog‘liq ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Birinchi marotaba zamburug‘ hujayralarida lipaza faolligini chegaralab qo‘yish usuli o‘rganilgan va bu faoliyatni tabiiy ingibitor bajarishi isbotlangan hamda u o‘ta toza holatda ajratib olinib, uning fizik-kimyoviy va kinetik xususiyatlari, aminokislotalar tarkibi o‘rganib chiqilgan va “in vitro” sharoitida, maxsus tanlangan sharoitlarda lipaza molekulasini bilan bog‘lanib, uning faolligini o‘zgartirishi, tajribalar asosida isbotlab berilgan. Shunday qilib, olim mikroorganizmlar fermentlarining boshqarilgan biosintezi haqidagi ma’lumotlarni boyitishga o‘z hissasini qo‘shgan va oqsil tabiatli yuqori molekular lipaza ingibitorlari mikroorganizmlar hujayralarida ushbu fermentning faolligini boshqarib turuvchi tizimlardan biri ekanligini ilmiy asoslab bergan. Lipazalarning hujayra ichida lokalizatsiyasini o‘rganishda to‘plangan ma’lumotlar, fermentning hujayra ichida har xil kompartmentatsiyalanishini tasdiqlagan va ularning hujayra ichida taxminiy harakatlanishini aniqlashga yordam bergan.



Birinchi marotaba hujayra ichidagi lipaza faolligini oqsil tabiatli ingibitorlar yordamida boshqarish mumkin ekanligi tajribalar asosida isbotlab bergan.

Q.Davranovning ilmiy va ilmiy amaliy faoliyatining ikkinchi yo‘nalishi, “mikrob-tuproq-o‘simlik” tizimida, tashqi muhit ta’sirlariga chidamli bo‘lgan, muayyan sharoitda o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorligi hamda hosilining sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega bo‘lgan

hamda tuproq unumdorligini oshiruvchi mikro preparatlari yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan.

Shuningdek olimning o‘simliklarning turli xil stress sharoitlarga (qurg‘oqchilik, sho‘rlanish) chidamliligini oshirish, ulardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish uchun “tuproq-mikrob-o‘simlik” munosabatlarini chuqur tahlil qilish zarurligi haqidagi fikrlari SCOPUS va Web of Science bazalariga kiruvchi qator jurnallarda chop etilgan va ko‘plab iqtiboslarga asos bo‘lmoqda.

Akademik Q.Davranov shogirdlari bilan ilk marotaba mamlakatimizning turli hududlari kesimida mahalliy *Bacillus thuringiensis* entomopatogen bakteriyasining tarqalganlik darajasini aniqlagan va uni ilmiy asoslab bergan. Ushbu biopreparatni qishloq xo‘jalik amaliyotida qo‘llashga Davlat kimyo komissiyasi tomonidan ruxsat etilgan.



K.Davranovning ilmiy kashfiyotlari 1 ta Yevro-Osiyo patenti, 30 dan ortiq mamlakatimiz patentlari va sobiq ittifoqning mualliflik guvohnomalari bilan muhofaza qilingan. Uning rahbarligida 7 nafar fan doktori va 20 nafar fan nomzodlari dissertatsiyalar himoya qilishgan. Uning shogirdlari hozirgi kunda Koreyada (Li Chkun Sev), Germaniyada (Xalameyzer V.B., Egamberdiyeva D.R.), AQSHda (Diyorov J.X.), Qirg‘iziston (Abilayeva B) hamda respublikamizning oliy o‘quv yurtlarida, Fanlar akademiyasining institutlarida va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalarida yuqori samarali faoliyat olib bormoqdalar. U O‘zbekiston FA va oliy o‘quv

yurtlari bilan hamkorlikda yaratgan ilmiy ishlari uchun 1-darajali diplom (1986 y.) hamda fan va texnika sohasida O‘zbekiston Yoshlar mukofoti (1977 y.) sovrindori.

Q.Davranov dunyodagi bir qator nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, Kanada Milliy akademiyasining Biotexnologiya instituti, Xayfadagi TEXNION instituti (Isroil), AQSHdagi Bioximiya instituti (Filadelfiya shtati), Rossiya Fanlar akademiyasining Mikrobiologiya instituti, Rossiya Fanlar akademiyasining Biotexnologiya federal markazi, Mikroorganizmlar biokimiyosi va fiziologiyasi instituti, Rossiya medbiosanoati, Oziq-ovqat biotexnologiyasi instituti, Belarus Fanlar akademiyasining Mikrobiologiya instituti, Ukraina Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya va virusologiya instituti hamda “Enzim” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi; Gruzija Respublikasi Fanlar akademiyasining O‘simliklar fiziologiyasi va biokimiyosi instituti, Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti, Chexiya Fanlar akademiyasining Biologiya va organik kimyo instituti, Pragadagi Mikrobiologiya instituti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining O‘simlik moddalari kimyosi instituti, Bioorganik kimyo instituti, “Genomika va bioinformatika” markazi bilan ilmiy hamkorlik olib bormoqda.

Akademik K.Davranov tashabbuskor, izlanuvchan olimlardan biri. Uning bu fazilatlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti (1967-1972 yy.), Mikrobiologiya institutlari (1972-2003 yy.) da faoliyat ko‘rsatgan paytlarida namoyon bo‘ldi. U 1986 yildan 2003 yilgacha O‘zR FA Mikrobiologiya instituti “Mikroorganizmlar fermentlari” laboratoriyasiga rahbar, 1997-2003 yillarda O‘zR FA Mikrobiologiya institutida direktor, 2006-2019 yillar O‘zbekiston Milliy Universitetida professor lavozimlarida faoliyat yuritgan va 20 ga yaqin darsliklar, o‘quv

qo‘llanmalari va risolalar yaratgan. 2019 yildan O‘zFA Mikrobiologiya instituti direktori lavozimiga qayta taklif qilingan. Shu davrda institut ilmiy mavzulari dolzarbligini faollashtirishga va jahonning ko‘plab ilmiy markazlari bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga, institutda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari jahonda o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini ko‘rsatib berishga erishgan. Institutda yangi: molekular biologiya, fitovirusologiya, XXR FA huzuridagi Pekin Mikrobiologiya instituti bilan qo‘shma laboratoriya tashkil qilgan.



1992 yili Kanada Milliy akademiyasining Biotexnologiya instituti, 1994 yilda Isroil Texnologiya institutlarida taklif etilgan mutaxassis sifatida faoliyat yuritgan.

Akademik K.Davranov “Muqobil yoqilg‘i va energiya korxonalarini” assotsiatsiyasi qoshidagi “Biotexnologiya” Ilmiy-texnik kengash raisi sifatida samarali faoliyat olib borgan (2010-2020 yy.). Bugungi kunda O‘zR FA Mikrobiologiya instituti huzuridagi DSc 02\30.12.2019.B.38.01 raqamli Ilmiy kengash a‘zosi.

Shular bilan bir qatorda, katta ilmiy-tashkilotchilik va jamoatchilik ishlarini muvaffaqiyat bilan olib bormoqda. U “Prikladnaya bioximiya va mikrobiologiya” jurnalida (Rossiya, 1997 yildan 2003 yilgacha) va “Annals of phytomedicine an international journal” (Hindiston, 2021 yildan hozirgacha) tahrir kengashi a‘zosi; “O‘zbekiston Milliy

universiteti xabarnomasi”, Oziq-ovqat xavfsizligi: Milliy va global muammolar ilmiy jurnali, Farmatsiya, immunitet va vaksina ilmiy-amaliy jurnalida (2021-2022 yy.), O‘zbekiston biologiya jurnalida hay‘at a‘zosi sifatida faoliyat yuritmoqda.



U bir qancha ilmiy grantlarga rahbarlik qilib kelmoqda.

2012-2013 hamda 2013-2014 o‘quv yillarida Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya” bakalavriat yo‘nalishi bitiruvchilarining bitiruv malakaviy ishlari hamda magistrlar dissertatsiyalari, Toshkent Kimyo-texnologiya institutining “Biotexnologiya” mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar dissertatsiyalari hamda 2016-2017 va 2021-2022 o‘quv yillarida Islom Karimov nomidagi Toshkent Politexnika universitetida biotexnologiya mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar dissertatsiyalarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha Davlat Attestatsiyasi hay‘atlariga raislik qilgan. 2022-2023 yillarda Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining “5140101 – biologiya (fan yo‘nalishi bo‘yicha)” magistratura mutaxassislari bitiruvchilariga o‘tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiya sinovlari komissiya a‘zosi bo‘lgan.

Iste‘dodli olim, tashkilotchiligi va o‘z yuksak insoniy fazilatlarini bilan respublika va xorijiy mamlakatlar olimlari hurmatini qozongan.



DODAXO‘JAYEV ABDULLA TURSUNOVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Toshkent Davlat texnika universitetining “Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi” kafedrasining professori, texnika fanlari doktori, O‘zbekiston kimyo sanoati konserni boshqaruvi raisining muovini, O‘rta Osiyoning birinchi kimyo sanoati “Elektrkimyosanoati” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining ilmiy ishlar bo‘yicha muovini.



“O‘zbekiston kimyo sanoati” aksiyadorlik jamiyatida respublikada birinchi tashkil etilgan “Innovatsiyalar markazi” ning tashkilotchisi va direktori, Respublika kimyo sanoati tizimidagi

texnik va texnologik muammolari bo‘yicha ilmiy maktablarni yaratgan va Davlat grantlariga rahbarlik qilgan:

“Suvda to‘liq va tez eruvchan tarkibida o‘simliklar oson o‘zlashtiradigan xelat formadagi mikroelementlar tutgan kompleks mineral o‘g‘itlar texnologiyasi”, “Sanoat korxonalarida ishlatilgan katalizatorlar chiqindilaridan rangli metallar (rux, nikel, mis, vanadiy) ni ajratib olish va qayta ishlatish”.

Quyidagi Davlat grantlarini muvaffaqiyatli bajarilishida faol qatnashgan:

“Ishlatilgan kadmiy – kalsiy – fosfat katalizatoridan (KKF) kadmiyni ajratib olish va yangi katalizator sintezida qo‘llash”

“Tarkibida kislorod va azot saqllovchi ayrim organik birikmalarni maqsadli sintez qilish uchun katalizatorlar tanlashning ilmiy asoslarini yaratish”

Prof. Dodaxo‘jayev A.T. ilmiy – amaliy izlanishlari natijasida Respublika kimyo sanoati uchun bir necha katalizatorlar ishlab chiqarish texnologiyalari yaratildi va sanoatda joriy etildi.

Bu katalizatorlar qatorida tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurt birikmalarini vodorod sulfidigacha gidridlash (AHM markali) katalizatori, tabiiy gazni vodorod sulfidan tozalovchi (ЧПС – 03 markali) rux asosidagi yuttirgich, is gazidan vodorod olish (OXK – 2 markali) katalizatori, ammiak sintezi (CA – CB – markali) katalizatori shular jumlasidan bo‘lib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar qatoridan o‘rin olganlar.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy – amaliy ishlanmalardan hosil bo‘lgan iqtisodiy samaralar O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga hissa bo‘lib qo‘shilib, 2011 – yildagi fan va texnika sohasidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Prof. Dodaxo‘jayev A.T. Respublika qishloq xo‘jaligining ehtiyoji uchun ishlab chiqarilayotgan mineral o‘g‘itlar assortimentini kengaytirish, samaradorligini oshirishga ham o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan olimdir.



Prof. Dodaxo‘jayev A.T. ning ilmiy – amaliy faoliyati natijasida yaratilgan texnologiyalar, reglamentlarni ishlab chiqarishga joriy qilinishi quyidagi mahsulotlarni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga asos bo‘ldi:

ugleammoniy tuzlari, kaliy sulfati, fosfomochevina, sulfomochevina, karbamid ammiakli selitra (KAC), universal oziqlantiruvchi eritma, magniy sulfati, yopishqoqlikka qarshi reagent, magniyli karbamid, suyuq o‘g‘itlar, magniy nitrati eritmasi, azot – oltingugurtli mineral o‘g‘iti, avtomobil yo‘llarini muzlab qolishiga qarshi

reagent, neft va gaz quduqlari unumdorligini oshiruvchi reagent (antinakipin).

Prof. Dodaxo‘jayev A.T. ilmiy – amaliy faoliyati respublika metallurgiya korxonalarini bilan ham bog‘liq.

O‘zbekiston qattiq va o‘tga chidamli materiallar kombinatida shu korxonaning suyuq chiqindilaridan granullangan mikroelementli mineral o‘g‘it va gazni qayta ishlash sanoatida ishlatib bo‘lingan katalizatoridan alyuminiy nitrat eritmasini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratdi va joriy qildi.

“Olmaliq tog‘ – kon – metallurgiya kombinati” AJ da ishlatib bo‘lingan ko‘p tonnali sulfat kislotasi ishlab chiqarishi katalizatoridan vanadiyni ajratib olish va qayta ishlatish kompleks texnologiyalarini yaratdi. Sanoat qurilmasini loyihalash uchun kerak bo‘ladigan dastlabki ma‘lumotlar taqdim etildi.

Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun kukunsimon – maydalangan oltingugurtni ishlab chiqarish uskunalarida yong‘in xavfsizligi bo‘lmaydigan texnologiyasi yaratib, sanoat tegirmonida joriy qilindi.

V.L. Galperin nomli “Toshkent truba zavodi” MChJ va metall konstruksiyalar ishlab chiqarish uchun tayyor mahsulotni zanglashdan saqlovchi fosfatlovchi eritmani fosforli o‘g‘it – ammosfos va rux oksidi asosida ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi va bu mahsulot Rossiyadan keltiriladigan Фоскоп – 35 va Фоскоп – 35 (K) fosfatlovchi elektrolitlarni mahalliyashtirish imkoniyatini berdi.



Prof. Dodaxo‘jayev A.T. ning ilmiy izlanishlarining yana bir yo‘nalishi atrof –

muhitni sanoatning ko‘p komponentli, tarkibida zaharli moddalari bo‘lgan chiqindi gazlarini kataliz usuli bilan tozalash va zararsizlantirishga bag‘ishlangan bo‘lib amaliy natijalari mebel sanoatida, kimyo sanoatida – kaprolaktam ishlab chiqarishda, tarkibida oltinugurt birikmalari ko‘p bo‘lgan neftdan bitum olish zavodlarida joriy qilingan bo‘lib atmosfera havosini tozalashda muhim ahamiyatga egadir.

Texnika fanlari doktori, professor Dodaxo‘jayev Abdulla Tursunovich 1946 – yil 10- iyulda Toshkent shahrining Samarqand Darvoza ko‘chasidagi “Zangi ota” (o‘sha paytda) mahallasida ikkinchi jahon urushi qatnashchisi oilasida tavallud topgan.



1963 – yili o‘rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, 1968 – yili Toshkent Politehnika instituti (hozirgi Islom Karimov nomidagi TDTU) ni “Kimyo texnologiya” fakultetini imtiyozli tamomlab muhandis – texnolog mutaxassisligini olgan.

Hayoti va ilmiy pedagogik faoliyati sanalari:

1968 – 1969 – yillar Toshkent Politehnika institutining “Jarayonlar va uskunalar” kafedrasida stajyor – tadqiqotchi;

1969 – 1975 – yillar shu kafedrada aspirant, assistent;

- 1975 – 1990 – yillar Toshkent Politehnika institutining Chirchiq shahridagi fakultetida kafedra mudiri, fakultet dekani;

- 1990 – 1993 – yillar “O‘zbekiston Davlat kimyo sanoati konserni” boshqaruvi raisining o‘rinbosari;

- 1994 – 1995 – yillar Toshkent Politehnika institutining Chirchiq fakulteti “Noorganik moddalar texnologiyasi” kafedrasida professori, fakultet dekani;

- 1996 – 2000 – yillar O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “Mineral o‘g‘itlar” (hozirgi “Umumiy va noorganik kimyo instituti”) yetakchi ilmiy xodimi;

- 2001 – 2007 – yillar “Elektrkimyosanoat” (hozirgi “Maksam – Chirchiq” AJ) da markaziy laboratoriyada, boshqarmada ilmiy ishlar bo‘yicha rais muovini, bosh muhandis muovini;

- 2007 – 2017 – yillar “O‘zkimyosanoat” AJ ning boshqaruvi raisi buyrug‘i asosida “Innovatsiya markazi” ning direktori;

- 2017 – 2021 – yillar “O‘zkimyosanoat” AJ da innovatsiyalar va mahalliyashtirish bo‘limining mudiri;

- 2021 – yildan hozirgacha Islom Karimov nomidagi TDTU ning “Muhandislik texnologiyalari” fakultetining “Ekologiya va atrof – muhit muhofazasi” kafedrasida professor;

- 1994 – 1995 – yillar Chirchiq Shahar xalq deputatlari kengashining deputati, “Ekologiya” masalalari komissiyasining rahbari, u deputat sifatida ilmiy pedagogik ishlar bilan birgalikda atrof – muhit muhofazasi masalalari bo‘yicha tahlil va takliflarini Shahar deputatlari sessiyalariga kiritilib tegishli qarorlar qabul qilingan.

1972 – yil TDTU da nomzodlik dissertatsiyasini “Исследование гидродинамики и грануляции совмещенного процесса получения аммофоса в кипящем слое”;

1987– yilda «Каталитическая очистка многокомпонентных серосодержащих отходящих газов» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini Toshkent shahrida Regional ilmiy kengashda himoya qilgan.

1977 – yilda Dodaxo‘jayev A.T. ga dotsentlik, 1989 – yilda professor ilmiy

unvonlari



Professor Abdulla Tursunovich Dodaxo‘jaye 6 ta mualliflik guvohnomalari, 22 ta patentlar egasi. Bulardan 11 tasi sanoatda joriy qilinib ko‘p milliard so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan va valyuta tejamkorligiga erishilgan. 224 ta ilmiy maqolalar (bulardan 22 tasi xorijiy davlatlarda chop etilgan), 3 ta monografiya, 12 ta fan nomzodi tayyorlangan.

Professor Dodaxo‘jaye Abdulla Tursunovich tomonidan kiritilgan ratsionalizatorlik takliflari, u yaratgan texnologik reglamentlar asosida kimyo sanoatida 10 dan ortiq yangi mahsulotlar ishlab chiqarilayapti.

Ilmiy ma‘ruzalari va taqdimotlar bilan Minsk (1972 – yil), Novosibirsk (1989 – yil), Moskva (2012 – yil), Batumi (2018 – yil), Samara (2014 – yil) kabi shaharlarda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanlarda qatnashgan va ma‘ruzalari qilgan.

U rahbarlik qilgan Innovatsiya markazi yordamida barcha kimyo korxonalarida o‘nlab zamonaviy texnologiyalar amalga oshirildi va 35 ta yangi kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi.

Professor Dodaxo‘jaye Abdulla Tursunovich “O‘zbekiston kimyo sanoati” ning innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish 2019, 2020, 2021- yillardagi

berilgan.

dasturlarini yaratdi va ularni amalga oshirishda ishtirok etdi.

“Innovatsiya markazi” prof. Dodaxo‘jaye A.T. rahbarligida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlari hamda Oliy ta‘lim tizimidagi institutlar bilan samarali ilmiy aloqalar o‘rnatilib fanni ishlab chiqarishga integratsiyasiga salmoqli hissa qo‘shildi.

1988 – yildan Regional ilmiy kengash, “Umumiy va noorganik kimyo”, “O‘simliklar kimyosi” institutlarining ixtisoslashgan ilmiy kengashlari a‘zosi.

“O‘zbekiston kimyo”, “Kompozitsion materiallar” jurnallari ilmiy to‘plamlari redkollegiyalari, Rossiyaning “Совет по катализу” hay‘atining a‘zosi, kimyo sanoatining “Eng mohir mutaxassisi” guvohnomalari, O‘zbekiston mustaqilligi ko‘krak nishonlari, oliy ta‘lim va kimyo sanoatining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



Abdulla Tursunovich Dodaxo‘jaye 4 ta farzand, 14 ta nabira va 10 ta evaralarning bobosi. Turmush o‘rtog‘i xalq ta‘limi a‘lochisi, Mehnat shuhrati ordeni sohibasi Dodaxo‘jaye Umidaxon Komolovna farzandu arjumanlarini munosib tarbiyalash bilan birgalikda mehnat faoliyatini boshlang‘ich sinf o‘qituvchiligiga bag‘ishlagan mehribon, ziyoli, ayoldir.



EGAMBERDIYEVA NODIRA MELIBAYEVNA

Pedagogika fanlari doktori, professor

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna 1965 yilning 1 martida Toshkent shahrida tavallud topganman. 1988 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining Maktabgacha pedagogika va psixologiya fani o‘qituvchisi yo‘nalishini tamomlagan.



1988–1999 yillarda Toshkent shahar 549-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi uslubchisi, 1999–2000 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida stajyor-tadqiqotchi, 2000–2003

yillar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti aspiranti, 2003–2005 yillarda “Maktabgacha va oilaviy ta’lim” kafedrasida o‘qituvchisi, 2005–2016 yillarda “Pedagogika” kafedrasida mudiri. 2016–2018 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida mudiri, 2018–2020 yillarda ushbu universitetning pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi direktori. 2020 yil iyun–avgust oylari Qori Niyoziy nomidagi pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti direktori. 2020 yilning sentyabr oyidan “Oila va xotin-qizlar” (“Mahalla va oila”) ilmiy-tadqiqot instituti direktori, 2023 yildan boshlab “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori lavozimida ishlab kelmoqda.

Ushbu kasbga bo‘lgan o‘zgacha mehr va intilishlari natijasida 2004 yilda “Atrof-muhit ta’sirida pedagogika kolleji talabalarini axloqiy tarbiyalash” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan, 2009 yilda esa

dotsentlik unvoni bilan taqdirlangan. 2010 yilda “Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish” nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy ta’limi misolida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqlab va shu muammoga bag‘ishlangan monografiya chop ettirib, 2012 yilda professor unvonini qo‘lga kiritgan.



U jamiyatda ta’lim, tarbiya, gender, mahalla va oila institutlarini mustahkamlash sohasidagi 50 ga yaqin ilmiy-amaliy tadqiqotlar va loyihalarga rahbarlik qilib, milliy qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etganman. 200 dan ortiq o‘quv va ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, monografiyalar, multimedia resurslari yaratib, tahliliy materiallar, ilmiy asoslangan tavsiyalar tayyorlagan.

Nodira Melibayevna rahbarlik qilayotgan institutda 10 dan ziyod xorijiy mamlakatning ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarini rivojlantirish maqsadida memorandumlar va kelishuvlarni amalga oshirishga hamda ular asosida ilmiy-texnikaviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga erishildi.

Bundan tashqari, uzoq yillik mehnati va ilmiy faoliyati davomida yutuqlardan tashqari ilm yo‘lida bir nechta shogirdlarga ham ustozlik va rahbarlik qilib kelmoqda. Xususan, ilmiy maslahatchiligi ostida yaponiyalik Asuka Kavano 2009 yilda “Mahalla va uning ta’limiy roli” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.



Shuningdek, rahbarligi ostida 30 ga yaqin shogirdlari nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.

Egamberdiyeva Nodira rahbarlik qilayotgan “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti BMT Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan 2021 yilning apreldan buyon hamkorlik qilib keladi va mazkur aloqalar o‘z samarasini bermoqda.



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna 2005 yili Germaniyaning Frayburg universitetida, 2013 yili Yaponiyaning Nagoya universiteti va Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida malaka oshirgan.





Olima xalqaro miqyosda ham qator ishlarni amalga oshirdi, jumladan, uning ilmiy maslahatchiligi ostida yaponiyalik Asuka Kavano “Mahalla va uning ta’limiy roli” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini (2009 yil) himoya qilgan. UNESCO tomonidan ta’sis etilgan va Xitoy Xalq Respublikasi moliyaviy ko‘magida amalga oshirilayotgan “Gender Assessment in Teacher Education in Asia” loyihasida faol ishtirok etgan. Shu o‘rinda dunyoning bir necha rivojlangan mamlakatlari, jumladan Germaniya (2005 yil), Yaponiya (2013 yil), Malayziya (2013 yil), Tayland (2016 va 2017 yillari) va boshqa davlatlarda o‘tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarda o‘z ma’ruzalari, shuningdek, Yaponiyaning Nagoya universitetida o‘tkazilgan “Social welfare in Uzbekistan” mavzusidagi xalqaro seminarida qatnashganini (2014 yil) alohida e’tirof etishim zarur.



2014 yilda Malayziya davlatida ingliz tili kursi bo‘yicha malaka oshirgan. 2016 yili Xalqaro pedagogik ta’lim Fanlar Akademiyasi a’zoliciga qabul qilingan.

Bundan tashqari, UNFPAning O‘zbekistondagi vakolatxonasi Rossiyaning A.G.Vishnevskiy nomidagi Demografiya instituti bilan hamkorlikda 2023 yilning 14–18 avgust kunlari “O‘zbekistonda demografik tahlil va aholi prognozlarini tuzish asoslari” mavzusida navbatdagi uchinchi sayyor yozgi maktabini tashkil qildi.



N.Egamberdiyeva tomonidan 240 ga yaqin ilmiy ishlar (monografiya, darslik, ensiklopediya, lug‘atlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar, risolalar, dasturlar) respublika va xalqaro jurnallar, ilmiy to‘plamlarda maqolalar nashr etilgan. Shuningdek, 4 ta SCOPUS xalqaro jurnalida maqolalar chop etgan.

Olima ilmiy faoliyat davrida “Madaniy insonparvarlik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish” (2009 yil), “Talabalarni atrof-muhitga nisbatan axloqiy tarbiyalash” (2010 yil), “Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi” (2012 yil), “Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy ijtimoiylashtirish jarayon-larini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari” (2021 yil) nomli monografiyalarni nashr qildirgan.

Risola, broshyura, amaliy qo‘llanmalar:

“Farzandimiz bizdan ko‘ra yaxshiroq yashashini xohlaymiz yoxud tarbiyaning ba’zi jihatlarini”, “Oilada farzand tarbiyasiga oid ba’zi muammolar yechimi”, “Mahalla – yorug‘ yuzimiz va vijdonimiz ko‘zguisi”, “Ayollar, biznes va qonun” indeksi, “Oilada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha

ko‘rsatmalar”, “Global ayollar, tinchlik va xavfsizlik indeksi”, “Baxtlilik o‘lchovi”, “Inson baxti va oilaviy hayot”, “Tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha (Mahalla xotin-qizlar faoli uchun amaliy qo‘llanma)”, “Oilalar barqarorligiga mehnat migratsiyasining ta’siri”, “Mehnat migratsiyasiga jo‘nab ketayotgan ota-onalarga eslatma”, “Oilada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash – sog‘lom turmush asosi” muallifi hisoblanadi.



Nodira Melibayevna muallifligidagi uslubiy qo‘llanmalar:

“Ijtimoiy shartnomani qo‘llashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslari”, “Ijtimoiy shartnoma mexanizmi: nazariy tahlil”, “Oila ko‘zgasida baxt”, “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar ijtimoiy rehabilitatsiyasi hamda suitsidal xulq profilaktikasi”, “Xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish”, “Oila va ta’lim muassasasi hamkorligida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy moslashtirish”, “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga psixologik yordam ko‘rsatish”, “Mahalladagi xotin-qizlar faollari faoliyatini tashkil etish”, “Oilada kundalik maishiy gigiyenaning asoslari”, “Milliy hunarmandchilik vositasida yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish”, “Tazyiq o‘tkazgan va zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning zo‘ravonlik xulq-atvorini o‘zgartirish bo‘yicha (Mahalla xotin-qizlar faoli uchun uslubiy

qo‘llanma)”, “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining ta’sirchan jamoatchilik nazoratini tashkil etish asoslari, shakllari va uslublari”, “Genderga oid audit o‘tkazish metodologiyasi”, “Gender tadqiqotlarini tashkil etishning xususiyatlari va usullari”;



Monografiyalar:

“O‘zbekiston mahallalari: kecha va bugun”, “Bo‘lajak pedagoglarni kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari”, “Milliy hunar-mandchilik vositasida yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish”, “Gender tadqiqotlari, gender tahlili, monitoring va baholash”, “Zamonaviy oilada gender tengligi masalalari”.

Nodira Melibayevna Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jang‘armasi tomonidan moliyalashtirilgan “O‘zbekistonda oilalarning baxtlilik indeksini belgilashning nazariy metodologik asoslari”, “Ayollar jinoyatchiligi holati, sabablari, o‘zgarish tendensiyasi”, “Xotin-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish va ularning ijtimoiylashtirishning ilmiy asoslari”, “O‘zbekiston mahallalari kecha va bugun”, “Xavfsiz mahalla” tamoyilining asosiy mezonlari hamda ularga asoslangan tizimni fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga to‘laqonli va samarali joriy etish mexanizmlari”, “O‘zbekistonda 2017–2021 yillarda mahalla instituti: rivojlanish odimlari”, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim berish jarayonida ota-onalarning ishtiroki va rolini oshirish”, “Gender ekspertiza o‘tkazishning

huquqiy-metodologik asoslari”, “Mahalla, oila va xotin-qizlar hayoti va ijtimoiy muammolarini amaliy o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar natijalari asosida tahliliy ma’lumotlar tayyorlash, ularni umumlashtirish va chop ettirish”, “Oilaviy zo‘ravonlik: sabab, oqibat va ijtimoiy-tarixiy jihatlari”, “Xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish” va “O‘zbekiston qahramoni” mavzularidagi qisqa muddatli amaliy loyihalarining rahbari hisoblanadi.



Olima rahbarlik qilgan loyihalar natijasida “Baxtiyor oila” veb-portali ishga tushirildi, O‘zbekistonda gender muammolarini o‘rganish, targ‘ib etish, monitoringini yuritish bo‘yicha “uzgender.uz” elektron platformasi yaratildi, aholini, mas’ul xodimlarni sanitariya-gigiyena sohasida bilim malakasini oshirishga xizmat qiladigan “Maishiy gigiyena yulduzlari” telegram-boti hamda “Xonadon gigiyenasini baholash” elektron platformasi ishlab chiqildi, Toshkent va Buxoro viloyatlarida “Gastro mahalla” loyihasi amalga oshirildi. Natijada 60 nafardan ziyod xotin-qizlar o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna – “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.

2018–2020 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va

adabiyoti universiteti pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi direktori lavozimida ishlagan davrida “O‘zbek tili va adabiyoti”, “O‘zbek tilshunosligi” va “O‘zbek adabiyotshunosligi” yo‘nalishlarida 500 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilarning Bitiruv ishlari himoyalari raislik qilgan va ushbu 3 ta ixtisoslik bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar hamda ishchi dasturlarini hammualliflikda ishlab chiqdi.



Bundan tashqari, “O‘zbek tili, adabiyoti va folklori” ilmiy-tadqiqot instituti, “O‘zbekiston yozuvchilari” uyushmasi, “Til va adabiyot” nashriyotlari bilan memorandum imzolab, malaka oshirishga keluvchi har sikldagi tinglovchilarni hamkorlikda faoliyat olib borishi va tajriba almashishini yo‘lga qo‘ygan. Shu bilan bir qatorda, TDO‘TAU ning FZ-2016-0914183252, OT-F1-36 raqamli “Talabalar ma’naviyatini diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi loyihaning bajarilishi loyihasi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari talabalari ma’naviyati mezonlarini ishlab chiqish ham uni diagnostika qilish mexanizmlarini takomillashtirildi. Yoshlarning ma’naviyatini rivojlantirishining pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklarini o‘rganilib, 2 ta monografiya va 1 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma nashr qilindi.



ERKINOV AFTONDIL SADIRXANOVICH
Filologiya fanlari doktori, professor

Aftondil Erkinov (1964 yil, Toshkent) – filologiya fanlari doktori (2000 y.), dotsent (1997 y.). Filologiya fanlari doktori, professor Sodir Erkinov (1930–2009) va “Fan” nashriyoti muharriri Latofat Erkinova (1939–2020) oilasida dunyoga kelgan. 1981–1986 yillari Toshkent davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) o‘zbek filologiyasi fakultetida o‘qigan.

1987 yili O‘zbekiston fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar institutida stajyor-tadqiqotchi bo‘lgan. 1988–2008 yillari O‘zbekiston milliy universitetida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi (1992 yildan) va dotsent (1997 yildan) lavozimlarida ishlagan. 2008–2011 yillari Toshkent davlat sharqshunoslik instituti sharq klassik filologiyasi kafedrasida, 2012–2015, 2017–2018 yillari “Tamaddun” nashriyotida ilmiy muharrir sifatida ishlagan.



2016–2017 yillari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida o‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasida faoliyat olib borgan. 2018–2022 yillari O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazida yetakchi ilmiy xodim sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Navoiyshunoslik” kursidan dars bergan. 2022–2023 o‘quv yilida Metropolitan san’at muzeyida (N’yu York, AQSh) Endryu-Mellon stipendiasi sovrindori sifatida faoliyat olib borgan. 2023 yildan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori vazifasida ishlaydi.



1990 yili “Alisher Navoiyning peyzaj yaratish mahorati (“Saddi Iskandariy” dostoni misolida)” mavzusida nomzodlik (ilmiy rahbar akademik Aziz Qayumov (1926–2018) hamda 1998 yili esa “Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV – XX asr manbalari” mavzusida doktorlik (ilmiy maslahatchi prof. Najmiddin Komilov (1937–2012) dissertatsiyasini himoya qilgan.



U o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari, xususan, tarkibiga Alisher Navoiy asarlari ham kiritilgan qo‘lyozma manbalar ustida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazadi. Germaniya, Fransiya, Turkiya, Eron, Avstriya, Rossiya, Yaponiya va AQSh mamlakatlarida malaka oshirishda bo‘lgan va ulardagi qo‘lyozmalar xazinalari bilan tanishgan.

2006 yildan markazi Angliyaning Kembridj shahrida joylashgan islom davri

qo‘lyozmalari xalqaro ilmiy tashkiloti (TIMA); 2015 yildan AQShning forsiy tillilar jamiyatini o‘rganish ilmiy assosiatseyasi (ASPS) hamda 2017 yildan AQShning Markaziy Osiyo tadqiqotlari ilmiy jamiyati (CESS) a‘zosi. 220 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi.



A.Erkinov xorijiy mamlakatlarda o‘zbek mumtoz adabiyoti, madaniyati tarixi va Navoiy ijodiga doir ingliz, fransuz, nemis tillarida o‘ttizga yaqin maqolalari e‘lon qilgan.

U o‘zbek adabiyotining ijtimoiy muhit bilan bog‘liq jihatlariga doir yo‘nalishda tadqiqotlar olib boradi: tadqiqotchining 2004 yili Berlinda “Chor Rossiyasi davrida Turkiston va Xiva xonligida xutba va duolar”, 2009 yili Tokioda “1898 yil Andijon qo‘zg‘oloni va uning yo‘lboshchisi Dukchi eshon – davr shoirlari bahosida” nomli kitoblari ingliz tilida nashr etilgan.

A.Erkinov 2003 yili Parij milliy kutubxonasidan Qo‘qon xoni Muhammadalixon (1822–1842) uchun 1836 yili ko‘chirilgan bayozni aniqlagan va fanga olib kirgan. 2007 yili o‘z vaqtida Miyon Buzruk Solihov tilga olgan, Qo‘qon xoni Umarxon tomonidan usmonli turklar sultoniga yuborilgan va katta qismini Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”si egallagan she‘rlar majmuasi – “Muhabbatnoma” qo‘lyozmasining Istanbul universitetida mavjudligini aniqlab, u haqidagi dastlabki maqolasini e‘lon etgan.

A.Erkinov Alisher Navoiyning hayotligi davrida tuzilgan yoki ko‘chirilgan bir necha qo‘lyozmalarini aniqlab, navoiyshunoslikka olib kirgan. 2010 yili

Alisher Navoiyning “Ilk devon”idan keyin,



uning ijodi ixlosmandlari tomonidan 1471 yili Oqquyunlilar saltanatida tartib berilgan, navoiyshunoslikka ilgari ma’lum bo’lmagan Navoiy devoni qo’lyozmasini aniqlagan. 2012 yili navoiyshunoslikka olib kirgan. Mazkur devon qo’lyozmasi Misrning Dor ul-kutub kutubxonasida saqlanib, u A.Erkinov tomonidan navoiyshunoslikka “Oqquyunli muxlislar devoni” degan shartli nom bilan kiritilgan. 2015 yili mazkur devon qo’lyozmasi faksimilesini ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi so‘zboshi bilan Tokioda nashr qilgan. 2018 yili “Badoe’ ul-bidoya”ning Alisher Navoiy hayotligida ko‘chirilgan ikki nusxasini Tehron va Istanbul kutubxonalaridan aniqlab, navoiyshunoslikka ma’lum qilgan. Ular navoiyshunoslikka “Badoe’ ul-bidoya”ning Tehron nusxasi” (888/1483 y. ko‘chirilgan) va “Badoe’ ul-bidoya”ning Istanbul nusxasi” (889/1484-1485 y. ko‘chirilgan) degan nom bilan kiritilgan. 2019 yili Oqqo‘yunlilar hukmdori Sulton Yaqub (1478–1490) buyurtmasi bo‘yicha tuzilgan, Navoiy she‘rlaridan saylab olib tuzilgan va 885/1480-81 y. ko‘chirilgan kichik majmuani aniqlagan.

Mazkur to‘plam shartli tarzda “Sulton Ya‘qub saylanmasi” degan nom ostida navoiyshunoslikka olib kiritilgan. 2022 yili AQShda Alisher Navoiyning umri so‘ngida (905/1499-1500) Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan devoni qo’lyozmasi bilan tanishib, uning tarkibini ma’lum qilgan. 2024 yili Alisher Navoiyning vafotidan to‘rt oy o‘tganidan so‘ng – 906 yil, shavvol /1501 yil, may oyi oxirida ko‘chirib tugallangan to‘plamini aniqlab, uni shartli tarzda “Navoiy

1501 yil “Terma devon”i deb atagan. Uni kitob holda “Alisher Navoiy. Terma devon (1501 yil, may). Tadqiqot va matn” nomi ostida 2024 yili Toshkentda nashr qilgan.



A.Erkinov quyidagi muassasalarda taklif qilingan professor sifatida tadqiqot olib borgan: (11-12/2012; 10/2016) Insonshunoslik tadqiqotlari fondi (Parij, Fransiya); (11/2013–03/2014) Slavyan dunyosi tadqiqotlari markazi (SRC). Xokkaydo universiteti (Sapporo, Yaponiya); (04-07/2014) Osiyo va Afrika tillari va madaniyatlari instituti. Tokio chet tillari universiteti (Tokio, Yaponiya). A.Erkinov individual tarzda yutib olgan malaka oshirishlar: 02-07/1999: Martin-Lyuter universiteti (Xalle-Vittenberg, Germaniya);



02-07/2003,04-06/2004, 04-06/2005: “Didro” stipendiyasi, Eron dunyosi bo‘limi, Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi (Parij, Fransiya);04-05/2006: Fransiyaning Eronni o‘rganish instituti (Tehron, Eron);11-12/2006, 10-11/2010, 6-7/2017: Germaniya akademik almashinuv xizmati stipendiyasi (DAAD). O‘rta Osiyo seminari, Gumboldt universiteti (Berlin, Germaniya); 09-10/2007: Fransiyaning Anadoluni o‘rganish instituti (Istanbul, Turkiya);09/2009–06/2010: Anadolu

madaniyatlarini o'rganish instituti, Koch universiteti (Istanbul, Turkiya); 11-12/2011: Yaponiya ilmni qo'llab-quvvatlash jamiyati (JSPS). Tokio universiteti (Tokio, Yaponiya); 03-05/2016: Zamonaviy sharq markazi – ZMO (Berlin, Germaniya); 04/2017: Germaniyaning Moskvadagi tarix instituti (Moskva, Rossiya); 05/2017: Anadolu va



Sharqiy O'rta yer dengizi tadqiqotlari markazi, Sent-Endryus universiteti (Sent-Endryus, Buyuk Britaniya); 09/2022–08/2023: Metropolitan san'at muzeyi Endryu-Mellon stipendiasi sovrindori (N'yu York, AQSh).



A.Erkinovning xalqaro proektlardagi ishtiroki;

- 02/2001–01/2003: Zerrspiegel – “Rossiyaning O'rta Osiyo va Kavkazdagi kolonializmi” (1850-1914)” (Loyiha rahbari prof. Yurgen Paul). Sharqshunoslik instituti,

Martin-Lyuter universiteti (Xalle-Vittenberg, Germaniya) orientphil.uni-halle.de>

- 2001–2008: “O'rta Osiyo qo'lyozma merosi”. Eron va hind dunyosi bo'limi, Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi (Parij, Fransiya).

- 01-06/2007: Eronshunoslik instituti, Avstriya fanlar akademiyasi (Vena, Avstriya).

- 10/2007–3/2008: Maks Van Bershem fondi (Jeneva, Shvesariya).

- 07/2008–06/2009, 07/2010-06/2011: Gerda-Xenkel fondi (Dyussel'dorf, Germaniya).

- 2009–2012: “O'rta Osiyo, Hindiston va Erondagi qo'lyozma an'analari” (Loyiha rahbarlari – Dr. Mariya Shuppe va Dr.Nalini Balbir). Eron va hind dunyosi bo'limi, Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi (Parij, Fransiya).

- 2012–2015: “O'rta Osiyo va Eron qo'lyozmalari va adabiy muhiti” (Loyiha rahbarlari – Dr. Mariya Shuppe va Fransis Rishar). Eron va hind dunyosi bo'limi, Fransiya ilmiy tadqiqotlar markazi (Parij, Fransiya).

- 07-11/2013, 09/2021-06/2022: “Arxivlar xavf ostida” loyihasi. Britaniya kutubxonasi (London, Buyuk Britaniya).

Fransiya (1999, 2010), Italiya (1999, 2003, 2009), Avstriya (2000), Qozog'iston (2000, 2015), Germaniya (2002, 2014, 2016), Eron (2005, 2015), Buyuk Britaniya (2006, 2010, 2011), Qirg'iziston (2009, 2013), Rossiya (2011, 2013, 2015, 2018), Polsha (2011), Yaponiya (2013), Turkiya (2015), Niderlandiya (2016), AQSh (2017; 2023), Gruziya (2018) kabi mamlakatlardagi o'ttizdan ortiq xalqaro ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar qilgan.



GAFUROVA LAZIZAXON AKRAMOVNA

**O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi,
biologiya fanlari doktori, professor**

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” Faxriy unvoni (1999), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi” (2011), “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” (2017), “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 30 yil” (2022), “M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti”ning “Universitet iftixori” (2023) esdalik nishonlari, “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni (2023), “K.Timiryazev nomli Oltin medali” (2019), “Rossiya Fanlar Akademiyasining 300 yillik” (2024) medali bilan taqdirlangan.



1978 yilda Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti) Biologiya- tuproqshunoslik fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgach, Toshkent Davlat agrar universiteti tuproqshunoslik kafedrasida o‘z ish faoliyatini boshlab laborant, assistent, dotsent, professor, kafedra mudiri hamda ilmiy ishlar prorektori lavozimlarida ishladi. 2011 yildan O‘zbekiston Milliy universitetining “AgroEko-Biotexnologiya” Ilmiy markazi rahbari va Tuproqshunoslik kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.



1982 yilda nomzodlik va 1995 yilda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan, biologiya fanlari doktori unvoniga sazovor bo‘lgan. L.A.Gafurova tuproqlar genezisi, evolyutsiyasi, biologiyasi, kimyosi, ekologiyasi sohalarida taniqli olim sifatida ushbu sohalarida o‘z ilmiy maktabini yaratgan. Hozirgi vaqtga qadar u 500 dan ortiq ilmiy asarlar, shu jumladan 28 ta monografiya, 21 ta risola va tavsianomalar, 4 ta Atlas, 17 ta Intellektual mulk agentligi guvohnomalari, 18 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifi, shu jumladan xorijiy 7 ta, “GIS texnologii v pochvovedeni” darsligiga “MGUning Klassik darsligi” maqomi berilgan (Seriya-Klassicheskiy universitetskiy uchebnik).

L.A.Gafurova ilmiy rahbarligida 22 ta nomzodlik va 5 ta doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan, u “O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi” jurnali bosh muharrir o‘rinbosari, “O‘zbekiston biologik jurnali”, “Tuproqshunoslik va agrokimyoy”, “Paxtachilik va donchilik” “Ona zamin” hamda “Проблемы агрохимии и экологии”, “Использование и охрана природных ресурсов”, “Владимирский земледелец” va “Вестник Нижегородской сельскохозяйственной академии”, “EcoSystems and bioms” jurnallarning tahririyat a’zosi.



Ilmiy tadqiqotlarni fan, texnika va texnologiyalar ustuvor yo‘nalishlari va zamonaviy yangi bilim sohalarini bo‘yicha davlat grantlari va xalqaro loyihalar asosida: tuproqlar genezisi, evolyutsiyasi va transformatsiyasi, biologiyasi, iqlim o‘zgarish sharoitida

sug‘oriladigan, lalmikor va yaylov yerlari tuproqlaridan samarali foydalanish va muhofaza qilish, qurg‘oqchilik va cho‘llanishga qarshi kurashish, raqamlashgan tuproqshunoslik va agrokimyoy muammolari, degradatsiyaga uchragan tuproqlar unumdorligini oshirishda yangi agrobiotexnologiyalari, GAT va MZ texnologiyalarga oid fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib bormoqda.



Respublikada tuproqshunoslik bo‘yicha birinchi tuproqshunos-ayol fan doktori. U nafaqat taniqli olim, tadqiqotchi, pedagog, balki O‘zbekiston tuproqshunoslik ilmini, agrar fani yutuqlarini faol ommalashtiruvchisi hamdir – u 60 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy seminar va vebinarlar, konferensiyalar, forumlar, “dala kunlari” va “fermer kunlari” tashkil etgan, xalqaro kongresslarda, dunyoning yetuk universitetlarida ilmiy ma’ruzalar bilan qatnashib kelgan.

“Fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasi”ga bag‘ishlangan faoliyati borasida – Respublika InnoWeek va hududiy innovatsion yarmarkalarda, Respublika va xalqaro fermer kunlarida faol qatnashib kelmoqda, turli tuproq-iqlim sharoitlarda joylashgan bazaviy fermer xo‘jaliklarida ilmiy-amaliy va targ‘ibot-tashviqot ishlari olib bormoqda, nazariy va amaliy – jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qator ilmiy muammolarni yechishda qatnashmoqda, fan va amaliyotni yangi ma’lumotlar, uslublar, texnologiyalar bilan boyitib kelmoqda, ishlab chiqarish uchun tavsianomalar, xaritalar, amaliy — uslubiy qo‘llanmalar yaratib joriy qilib kelmoqda.



Yoshlarni ilmiy — texnik ijodiyotini rivojlantirish va “ustoz — shogird” tizimini qo‘llash, talabalarni ta’lim — fan — ishlab chiqarish integratsiyasi asosida tuproqshunoslikning nazariy asoslari va amaliy ko‘nikmalariga o‘rgatish, ta’lim sifatini ta’minlash uchun ko‘p bilim va kuch sarflamoqda, talabalar bilan ilmiy maqolalar e’lon qilmoqda, u rahbarlik qilgan doktorantura, magistratura va bakalavriat talabalarining ilmiy ishlari respublika va xalqaro tanlovlarida sovrinli o‘rinlarga ega bo‘lmoqdalar.

G.Jalilova — O‘zbekiston Prezidenti Davlat stipendiantlari, Ye.Ablayeva — Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, S.Murodova-Respublika iste’dodli yoshlarning “Istiqbolimiz timsollari” anjumanida faol ishtirok etganligi hamda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari o‘rtasida e’lon qilingan “fan” yo‘nalish tanlovi g‘olibi, O.Ergasheva va D.Maxkamovalar “Vatanim taraqqiyotiga — mening hissam” nomli tanlov g‘oliblari, D.Egamberdieva — YuNESKO-Loreal premiyasi sovrindori, Sh.Begmatov Xalqaro “Science Light” tanlovida “Eng yaxshi innovatsion ishlanma” nominatsiyasi tanlovi g‘olibi (Kazan) hamda 30 dan ortiq talaba va yosh olimlar respublika va xalqaro agrar fani va ekologiya sohalaridagi turli nufuzli tanlovlarda sovrinli o‘rinlarga ega bo‘ldilar.

L.A.Gafurova — ilmiy innovatsiyalar bo‘yicha faol ishtirokchi. Uning tashabbusi bilan O‘zbekiston Milliy universitetida “AgroEkoBiotexnologiya” Ilmiy markazi, “Tuproqshunoslik axborot–resurs markazi”, “Tuproqshunoslikda GAT markazi”, “Vermi markaz”, “Yosh olimlar ilmiy–innovatsion dala tajriba maydoni”, “Tuproq–o‘simlik–

mikroorganizm” laboratoriyasi va boshqalar tashkil etilgan. “Tuproqshunoslikda innovatsion texnologiyalar”. Yosh olimlar klubi a’zolari uning rahbarligida innovatsion jarayonlarda amaliy qatnashib kelmoqda.



Ilmiy – pedagogik faoliyatini jamoat ishlari bilan faol qo‘shib olib bormoqda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi ekspert kengashining a‘zosi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning “Biologiya” fanlari bo‘yicha ekspert kengashi raisi, O‘zbekiston Ekologik partiyasini Markaziy kengashi a‘zosi. L.A.Gafurova 1996-2011 yy.da Toshkent viloyati “Olima” uyushmasi raisi va 2012 yildan Respublika xotin-qizlar “Olima” uyushmasi boshqaruvi a‘zosi.



2000-2020 yillarda Oliy Majlisning “Insonning huquq va erkinliklariga rioya etish komissiya”si a‘zosi, Inson huquqlari bo‘yicha Ombudsmanning Toshkent viloyati Mintaqaviy vakili, hamda Global Tuproqshunoslar

hamkorligi (GSP), Sho‘rlangan tuproqlar xalqaro tizimi (INSAS), Xalqaro Ekologiya akademiyasining haqiqiy a‘zosi (akademigi), Xalqaro Oziq-ovqat xavfzislgi akademiyasining akademigi, V.V.Dokuchayev nomidagi Tuproqshunoslar jamiyati Markaziy Kengashi, Xalqaro tuproqshunoslar jamiyati (IUSS) a‘zosi.

L.A.Gafurova 1998 yilda “Ilm – fan sohasidagi faoliyat ko‘rsatgan ayollar ” yo‘nalishi bo‘yicha – “Eng faol ayol” Respublika ko‘rik tanlovi g‘olibi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Eng samarali texnologiyalar transferini amalga oshirayotgan ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor” nominatsiyasida Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan (2010), Qishloq xo‘jaligi vazirligi (2006, 2010, 2024), Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi (2007, 2014, 2015, 2017, 2022), Innovatsion rivojlantirish vazirligi (2019, 2022) xamda O‘zbekiston Xotin – qizlar qo‘mitasi (2006, 2012, 2016, 2023) va Rossiya Federatsiyasining Moskva oblasti Qishloq xo‘jaligi vazirining diplomlari bilan taqdirlangan (2023).



Ko‘p yillik mehnati, fan-ta‘lim sohalarini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” Faxriy unvoni (1999), “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi” (2011), “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” (2017), “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 30 yil” esdalik nishonlari (2022), “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni (2023), “Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti”ning “Universitet iftixori” esdalik nishoni (2023) hamda “K.Timiryazev nomli Oltin medali” (2019), “Rossiya Fanlar Akademiyasi 300 yilligi” yubiley medali (2024) bilan taqdirlangan.


Gafurova Lazizaxon Akramovna 2022 yil Rossiya Fanlar Akademiyasining akademigi etib saylandi.



Ishchan va intizomli, o‘z kasbini sevadigan, tashabbuskor, mehnatsevar, kamtarin, o‘ziga va boshqalarga talabchan rahbar, mohir pedagog va olimadir.

Vatan taraqqiyoti yo‘lida bor imkon va kuch – g‘ayratini safarbar eta oladigan fidoyi insondir.

Gafurova L.A. 4 farzandni onasi va 11 nabiralarni buvijonisidir.



HAMIDJON HOMIDIY
Pedagogika fanlari doktori, professor

Serqirra ijod sohibi, taniqli pedagog Hamidjon Homidiy (Homidov) 1935-yil 4-oktabrda Namangan viloyatining Kosonsoy shahrida etikdo‘z oilasida tavallud topgan.



Bobosi Abduhamid Xoliqzoda va otasi Abdulhamid Oxund Buxoro va Qo‘qon madrasalarini tugatgan, ziyoli, ma‘rifatli kishilar bo‘lishgan. Afsuski o‘sha yillardagi siyosat tufayli ularning mol-mulki tortib olinadi. Moddiy qiyinchilik, ruhiy azoblardan otasi sog‘ligini yo‘qotadi va erta vafot etadi, tez orada onasi ham hayotda ko‘z yumadi. Ota-onasidan erta ajralgan Hamidjon Homidiy tog‘asini qo‘lida qoladi va maktab-internatda

o‘rta maktabni tugatadi. O‘rta maktab tahsilidan so‘ng shahar bosmaxonasida harf teruvchi, tuman gazetasida mas‘ul kotib bo‘lib ishlaydi. Hamidjon 1955-1960-yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining “Tarix-filologiya” fakultetida tahsil oladi.

Bo‘lajak zullisonayn olim Hamidjon Homidiy institutning O‘zbek tili kafedrasida o‘qituvchi, “Pedagog” gazetasida mas‘ul kotib bo‘lib ishlaydi. U 1963-1967-yillar davomida O‘zbek adabiyoti kafedrasida aspiranturasida o‘qiydi; Filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Natan Murodovich Mallayev rahbarligida 1968-yili nomzodlik, 1990-yili doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiladi. Imdagi muttasil izlanishlari, oliy ta‘limdagi pedagoglik faoliyati uchun 1992 yili olimga professorlik unvoni berildi. U 1982-2010-yillarda universitetning “Hozirgi o‘zbek adabiyoti” hamda “O‘zbek klassik adabiyoti” kafedralarini boshqardi.



Hamidjon Homidiy manbashunos olim sifatida “Dorobnoma”, Shoh Hijron “Shohnoma”si, “Barzo‘noma”, “Dinkard”, “Tazkirat-ul-avliyoi turkiy”, “Motirudiy pandnomasi” singari sarchashmalarni ilk bor ilmiy iste‘molga olib kirdi; Sharqning buyuk mashoyixlari haqida o‘ziga xos tazkira yaratdi, daho bobokalonlarimiz xususida ilmiy-badiiy ocherklar yozdi.

Ikki tilda barobar ijod qilgan olim H.Homidiy ijodiy bisotini to‘rt yo‘nalishdagi tadqiqotlar tashkil qiladi. Ular manbashunoslik, tasavvuf tarixi, Sharq mutafakkirlarining ijodiy merosi, avestoshunoslik kabi ko‘p masalalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib olim olib borgan ilmiy kuzatishlarni quyidagi yo‘nalishlarga bo‘lib tasnif etish mumkin:



1. Firdavsiy va o‘zbek adabiyoti. Aspirantlik yillaridanoq mazkur muammoni adabiy o‘zaro ta’sir, an’ana va o‘ziga xoslik tizimida tadqiq etishga kirishgan muallif faqat qo‘lyozma manbalarga suyanib ko‘plab ilmiy maqolalar e’lon qildi; “Barhayot she’riy qasr”, “Boqiy bo‘ston tarovati”, “Borbad Marvaziy”, “Shohnomaning shuhrati”, “Firdavsiy va o‘zbek adabiyoti” singari kitoblarini chop ettirdi; “Shohnomai turkiy”, “Qissai Siyovush”ni nashrga tayyorladi; bir necha

qo‘lyozma manbalarni ilmiy iste‘molga olib kirdi.

2. Sharq mutafakkirlari ijodini tadqiq va targ‘ib etish. Bu jabhada tadqiqotchi o‘zbek, tojik, rus, qozoq tillarida 50dan ziyod maqolalar e’lon qildi; “Olis yaqin yulduzlar”, “Qirq besh alloma hikoyati”, “Ajdodlar sabog‘i – aql qayrog‘i”, “Ko‘hna Sharq darg‘alari”, “Daholar davrasi”, “Misliteli Vostoka” kitoblarini nashr qildirdi.



3. “Avesto” – ma’naviyatimiz sarchashmasi. Ma’lumki, 2001-yili ajdodlarimizning uch ming yillik tarixga ega bo‘lgan qadimiy yodgorligi “Avesto” yaratilganining 2700 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Shu munosabat bilan olim H.Homidiy ham dunyo avestoshunosligining ulkan yutuqlaridan bahramand bo‘lib, yodgorliknig 2 jildlik forsiy nashri, “Bundaxishn”, “Dinkard” singari ko‘hna yodgorliklar, 4 jildlik “Avesto lug‘ati”ga suyanib ko‘plab maqolalar yaratdi; maxsus teleko‘rsatuvlar uyushtirdi, ikki qismdan iborat “Axuramazda elchisi” telefilmni yaratdi; Mazdoparastlik dinining asoschisi shoir, olim, tabib va jamoat arbobi Spitamen Zardushtning fanimizda ilk bor ilmiy biografiyasini yaratdi; “Avesto fayzlari”, “Avesto va tibbiyot” (hammuallif), “Avestoning ilmiy va adabiy qimmat”, “Avestodan Shohnomaga” kitoblarini ommalashtirdi; “Bundaxishn”ni rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi.

4. Mustaqillik yillarida H.Homidiy milliy, madaniy meros, milliy qadriyatlar, jumladan, Sharq mashoyixlari haqida gazeta hamda jurnallarda maqolalar chop ettirdi, eshittirishlar tashkil etdi. So‘ngra esa

“Tasavvuf allomalari”, “Tasavvuf Qaraniydan Rushdiyga” kitoblarini keng ilm-adab ahli e’tiboriga havola qildi. Bu asarlarning barchasi soha donishmandlari tomonidan e’tirof etilib, yuqori baholangan.

Shuningdek yana turli yillarda olimning “Mehridan sarob bo‘lganlarim”, “Gumanizm kuychisi”, “Barhayot she’riy qasr”, “Mashriqzamin – hikmat bo‘stoni” (hammuallif), “Namangan adiblari” (hammuallif), “O‘zbek adabiyoti”, “Kosonsoy tarixi” (hammuallif), “Nizomiy dilbandlari”, “Ustozlar sabog‘i – aql chirog‘i”, “Yillar samari”, “Poktiynat siymolar” singari jami o‘ttizdan ortiq kitoblari nashr etilgan. U bir necha ilmiy daraja beradigan ixtisoslashgan kengashlarning a‘zosi bo‘lgan. Hamidjon Homidiy iqtidorli yoshlarning mehribon rahnamosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatgan. Professor H.Homidiy 30dan ziyod nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalariga opponentlik qilgan; shuningdek K.Abdullayev, A.Xudoydodov, Z.Qurboniyozova, Z.Sodiqov, J.Mahmudov, A.Qurbonov, O.Tojiboyeva, H.Jo‘rayeva, Z.Shukurova, M.Jabborova, S.Abdurahmonova singari o‘ndan ziyod adabiyotshunos, manbashunos yoshlar uning bevosita ilmiy rahbarligida fan doktori va fan nomzodi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalarini olishga muvassar bo‘lgan.



Nuktadon olim Hamidjon Homidiy saliqali mutarjim sifatida ham zahmat chekib kelayotir. U rus, fors, tojik tillaridan “Safarnoma”, “Etim”, “Qoracha qiz”,

“Nishonga tegmagan o‘q”, “Ko‘hna odamlar”, “Hudud-ul-olam”, “Muqanna isyoni”, “Temur Malik” “Qaysar chumchuq”, “Vafodor arg‘umoq”, “Shohnoma” (saylanma dostonlarning nasriy bayoni) singari o‘ndan ziyod asarlarni o‘zbek tiliga o‘girgan. Muallifning hikoya va hikoyatlari kitoblariga kirgan, “Sharq yulduzi”, “Tafakkur”, “Sog‘lom avlod uchun” jurnallari hamda gazetalarda e‘lon qilingan. Hamidjon Homidiy 1991-yildan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a‘zosi.

Bundan tashqari olim bir necha darslik, dastur va o‘quv qo‘llanmalarining muallifi hamdir. Turli ilmiy to‘plam, jurnal hamda vaqtli matbuotda olimning 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy ommabop maqolalari e‘lon qilingan. Hamidjon Homidiyning ilmiy maqolalari Tehron, Boku, Olmaota, Dushanbe, Xo‘jand shaharlaridagi majmua hamda qomuslardan ham o‘rin olgan.



Hamidjon Homidiy “Do‘stlik” ordeni, “Mustaqillikning 15 yilligi”, ikki marta (1972-1984) “Xalq maorifi a‘lochisi” nishonlari hamda bir necha Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Umrining har bir daqiqasini g‘animat bilib, tinimsiz izlanishdan to‘xtamagan, sermahsul olim Hamidjon Homidiy 2024-yil 11-yanvar kuni 89 yoshida bu yorug‘ olamni tark etdilar. Ular qoldirgan ilmiy, ma‘naviy meros olimning nomini abadiyatga muhrladi desak yanglishmagan bo‘lamiz.



HAMROYEVA ORZIGUL JALOLOVNA

Filologiya fanlari doktori, professor

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti (2002-yil, Adabiyot yo'nalishi) sovrindori, "Alisher Navoiy" nomidagi ko'krak nishoni sohibasi Orzigul Hamroyeva Jalolovna hozirgi vaqtda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professor lavozimida ishlab kelmoqda.

Hamroyeva Orzigul Jalolovna 1987-yilda Buxoro viloyatida tavallud topgan. Buxoro viloyatidagi 5-sonli ixtisoslashtirilgan maktabni tugatgan. 2002-yilda adabiyot yo'nalishi bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini qo'lga kiritgan. 2000-yilda "Mehr guli", 2001-yilda "Oq kabutar", 2002-yilda "Hayrat beshigi" nomli she'riy to'plamlari keng kitobxon ommasiga taqdim qilingan. Orzigul Hamroyeva Jalolovna 2007-yilda O'zbekiston Milliy universitetining O'zbek filologiyasi fakultetini imtiyozli tugatgan. 2006-yilda Oliy ta'lim talabalari o'rtasida

mutaxassislik bo'yicha o'tkazilgan olimpiada g'olibi bo'lgan. 2009-yilda O'zbekiston Milliy universitetining O'zbek filologiyasi fakultetining Adabiyotshunoslik ixtisosligi magistratura bosqichini tamomlagan.

2005-yilda O'zMU, 2006-yilda Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi bo'lgan.



2009-2011-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida

stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchi, 2011- 2015-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti “O‘zbek adabiyoti va matnshunoslik” kafedrasida katta ilmiy xodim-izlanuvchi, 2015-2016-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti F1-02 “Adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi” mavzusi bo‘yicha tashkil etilgan granti a‘zosi, 2016 – 2017-2018-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasida katta o‘qituvchisi, 2019-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi” kafedrasida dotsenti lavozimlarida ishlagan.



Olimaning adabiyotshunoslik ilmiga kirib kelishining dastlabki bosqichlari 2003-yildan boshlangan bo‘lib, qo‘lyozma manbalar, toshbosma nusxalar bilan tanishib, yirik olim, shoir, dramaturg Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (2008-yil) majmuasini tabdil qilgan, majmuani ilk bora joriy yozuvda ilmga taqdim qilgan. 2013-yilda Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasini chuqur o‘rganib, asar matni bilan jamoatchilikni tanishtirgan, nashrga tayyorlagan.



Olimaning keyingi izlanishlari bevosita qo‘lyozma manbalar va toshbosma nashrlar bilan bog‘liq holda rivojlanib, Abdurauf Fitratning “Eng eski turk adabiyoti namunalari” va “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmualari asosida 2018-yilda filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyani 10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasi tarkibiga kiritilgan 30 dan ortiq asarlarning bir necha yuzlab qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini qiyosiy o‘rganish natijasida Fitratning matnshunoslik va manbashunoslik faoliyati tadqiq etilgan. Dissertatsiyaning amaliy natijasi 2019-yilda “XX asr boshlari o‘zbek matnshunosligi taraqqiyotida Fitrat majmualarining o‘rni” nomi bilan monografiya holda nashr etilgan.



Hamroyeva Orzigul Jalolovna ilk bora mumtoz qofiya nazariyasiga oid tadqiqot ishini o‘zbek adabiyotshunosligiga taqdim qilgan. Olima 2023-yilda filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Olimaning tadqiqot mavzusi “Temuriylar davridagi qofiyaga oid risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili” (10.00.06 – Qiyosiy

adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik) deb nomlanib, tadqiqot ishida arabiy, forsiy, turkiy risolalar qiyosiy o‘rganilgan. Keyinchalik 2023-yilda tadqiqot asosida “Temuriylar davridagi qofiyaga oid risolalarda qofiya ilmining qiyosiy tahlili” nomi ostida monografiya e‘lon qilingan.



Hamroyeva Orzigul Jalolovna o‘zbek tili va adabiyoti: o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi yo‘nalishlarida bir qancha qo‘llanmalar muallifi.



Olimaning bu yo‘nalishda “Ona tili. Ma‘ruzalar to‘plami” (2016), “Ona tili. Abituriyentlar uchun eng yangi savol-javoblar to‘plami. Test” (2016), “Ona tili. Abituriyentlar uchun eng yangi savol-javoblar to‘plami” (2016), “Adabiyot. Abituriyentlar uchun eng yangi savol-javoblar to‘plami. Test” (2016), “Adabiyot. Abituriyentlar uchun eng yangi savol-javoblar to‘plami” (2016) kabi o‘quv qo‘llanmalari bir necha yillardan beri qayta nashr qilinib, ayni yo‘nalishda o‘quvchilarga yordamchi vazifasini bajarmoqda.

Hamroyeva Orzigul Jalolovnaning mumtoz qofiya va uning nazariy asoslariga bag‘ishlangan “Aruz va poetika asoslari. Mumtoz qofiya nazariyasi” (2023), Alisher Navoiy ijodining poetik xususiyatlari, qofiya tizimini ochib berishga qaratilgan “Alisher Navoiy lirikasining qofiya tizimi”(2024) o‘quv qo‘llanmalari o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyotshunoslik tarixi, mumtoz tarixiy poetika, navoiyshunoslik asosiga qurilgan fanlar uchun asosiy manba vazifasini o‘tamoqda.



Olimaning 2020-yilda “Adabiyot” nomi ostida o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi nashr qilingan bo‘lib, ushbu qo‘llanmada adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid bilan bog‘liq masalalar ilmiy-nazariy xulosa shaklida taqdim qilingan.

Hamroyeva Orzigul Jalolovna “99 xos ismga mos hikoya” (2019) nomi ostida hikoyalar to‘plamini nashr qilgan bo‘lib, bu to‘plamdagi hikoyalar Allohning 99 ismi sifatini ochib berish vazifasini bajargan.



Olima tomonidan 2023-yilda Fitratning adabiyotshunoslik: adabiy tur va janrlar, davrlashtirish, mumtoz poetika nazariyasi,

adabiy oqimlar kabi adabiyot nazariyasiga oid ilmiy tadqiqotlari asosida “Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari” monografiyasi e’lon qilingan.

U jadid adabiyoti, jadid olimlari tadqiqotlari, asarlari yuzasidan yirik tadqiqotlar olib borib, bir qancha manbalarni joriy yozuvga tabdil qilgan. Xususan, Abdurahmon Sa’diyning XX asr boshlarida o‘zbek va tatar talabalari uchun mo‘ljallangan “Amaliy ham nazariy adabiyot darslari”, “Adabiyot muallimi”, “Adabiyot usullari” kabi darsliklarini “Jadid kulliyoti” turkumi ostida nashr qildirgan.

Hamroyeva Orzigul Jalolovna Qozog‘iston, Turkiya, Ozarbayjon, Yaponiya, Rossiya, Qirg‘iziston, Germaniya kabi mamlakatlar universitetlarida turkologiya, jadidchilik, jadid matbuoti, sharq adabiyoti muammolari kabi mavzularda ma’ruzalar bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



Olimaning 2024-yilda XX asr boshlarida ilk bora Oybek tomonidan to‘plangan o‘zbek shoirlarining she’riy to‘plami – “Erk kuylari”ni nashr qildirishi XX asr boshlari o‘zbek shoirlari ijodi bilan tanishtirish barobarida, ayni davr adabiy muhiti, adabiy tur va janrlar, obrazlar

yangilanishi, shoirlarning ijod uslubi kabi masalalarni o‘rganishda yordamchi bo‘ldi.

Hamroyeva Orzigul Jalolovning 200 dan ortiq maqolalari respublika ilmiy jurnallari bilan bir qatorda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkiya, Ozarbayjon, Amerika, Germaniya, Italiya, Indoneziya, Fransiyaning xalqaro ilmiy jurnallarida e’lon qilingan.



Olima Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengash, Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli ilmiy kengash, O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/25.08.2021.Fil.01.16 raqamli ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a’zosi.

Hamroyeva Orzigul Jalolovna shijoatli, mehnatsevar, zukko olim sifatida o‘zbek adabiyotshunoslari orasida o‘z o‘rniga ega. Bugungi kunda poetika ilmi, mumtoz qofiya nazariyasiga oid forsiy risolalar tarjimasida ishlayotgan.



XAMZAYEV ABDUSHUKUR XUDOYQULOVICH
Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor

Abdushukur Xudoyqulovich Xamzayev 1973 yil 10 dekabrda Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek. Oliy ma‘lumotli, 1995 yili Samarqand qishloq xo‘jalik institutini, 2013 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasini tamomlagan. Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor.



2022 yildan O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasining raisi lavozimida ishlab

kelmoqda. Bungacha, ya’ni 2017-2022 yillarda O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari-O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti direktori lavozimida faoliyat ko‘rsatgan (2017 y., 17 iyuldagi PQ-3085).



Jami ilmiy-pedagogik faoliyati 28 yil.

I. Ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasida:

2017-2021 yillarda O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti binosi kapital ta’mirdan chiqarilib, 4 ta ilmiy laboratoriyalar yangi jihozlari bilan ta’minlandi.

Institut tizimida 1 ta filial, 2 ta ilmiy markaz va 5 ta tajriba stansiyalari tashkil etildi va faoliyati yo'lg'a qo'yildi.

O'rmon xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning o'rtacha yoshi keyingi to'rt yilda 71 yoshdan 54 yoshga yoshartirilgan. Ilmiy salohiyat esa 17 % dan 47 % ga oshirilgan.

=



Shu muddatda O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutiga doktorantlar soni 7,3 barobarga oshirildi. 11 nafar fan doktori o'rmonchilik va turdosh soha yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlarini himoya qilishgan va 8 nafar ilmiy xodim professor va katta ilmiy xodim unvoniga ega bo'lishgan.



Olimlar korpusini yanada yoshartirish maqsadida yana 21 nafar yoshlar doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabul qilinib, yangi ilmiy yo'nalishlarda ish boshlashgan. Hozirgi kunda 7 ta yo'nalishda ilmiy maktablar shakllantirilgan.

Uning samarali faoliyati natijasida O'rmon xo'jaligi ITI qisqa muddatda mamlakatimizdagi eng kuchli 10 talikka kirib, yetakchi ilmiy tashkilotga aylandi.

II. Ilmiy tadqiqotlar integratsiyasi bo'yicha:

2017-2019 yillarda amaliyotga jami 19 ta (15 ta amaliy 4 ta innovatsiya) ilmiy loyihalar bo'yicha tadqiqotlar olib borilib, natijalari ishlab chiqarishga joriy etilgan.



Tadqiqotlar natijalarida yong'oqmevali ekinlarning 13 ta navlari yaratilgan va Respublikaning 9 ta hududga joriy etilgan. Shuningdek, 15 ta ixtiroga patent guvohnomasi olingan.

Orol dengizi qurigan tubida "Yashil qoplama"lar barpo etish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy ishlanmalar 2018-2021 yillarda 1,7 mln.ga maydonda joriy etilgan.

III. Xalqaro aloqalar bo'yicha:

A.Xamzayev qishloq, o'rmon va ekologiya sohasida xalqaro tajribalarga ega bo'lib, uning tashabbusi bilan 2017-2024 yillarda "KOISA", "TIKA", "JAYKA", "OYO" "UEFRO", "NiFOs", "APAFRI" kabi xalqaro tashkilotlar hamda Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil, Turkiya, Germaniya, Bolgariya, Rossiya kabi davlatlarda malaka oshirgan. Uning tashabbusi bilan bugungi kunda sohaga oid 10 dan ziyod xorijiy o'quv va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorliklar yo'lg'a qo'yilgan va sohaga oid 4 marta xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazilgan.

Uning tashabbusi va rahbarligida O'rmon va Ekologiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan 60 nafardan ziyod yosh olimlar va mutaxassis xodimlar Amerika, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Belorussiya, Gruziya, Vengriya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, kabi davlatlarning nufuzli ilmiy muassasalarida malakalarini oshirishi

ta'minlangan.



Shuningdek, o'rmon xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlarning 1500 nafarining malakasi oshirilgan.

IV. O'rmon va dorivor o'simliklar urug'chiligi yo'nalishida:

Uning faoliyat ko'rsatgan davrida 2017 yilga nisbatan urug' tayyorlash va tahlildan o'tkazish hajmi 4,7 barobarga o'sgan.



O'rmon fondi yerlarida yangi ixota o'rmonlarini barpo etish uchun 2020 yilda Buxoro va Navoiy viloyatida 239,0 tonna, Nukus o'rmon urug'chilik laboratoriyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatida 1387,3 tonna, Qashqadaryo o'rmon urug'chilik laboratoriyasi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 131,2 tonna, Samarqand va Jizzax viloyatlarida 84,6 tonna, Farg'ona viloyatida 107,7 tonna hamda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida 55,2 tonna o'rmon va dorivor o'simliklarning urug'lari tayyorlanib, laboratoriyalarda sinovdan o'tkazilgan.

V. Dorivor o'simliklar yetishtirish yo'nalishida:

Dorivor ekin maydonlari o'tgan 5 yil davomida 1900 gektardan 2046 gektarga, dorivor xom ashyosi tayyorlash hajmi 3950

tonnadan, o'tgan 2019 yilda 4715 tonna (119%)ga ko'paytirilgan. 2021 yilda 5019 tonna (127 %), ga bajarilgan.

2018-2020 yillarda 33 turdagi dorivor o'simliklar madaniylashtirilib, o'rmon xo'jaliklarida 62 turdagi (2,1 barobar ko'p) dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish yo'lga qo'yilgan.



2021 yilda 64 turdagi dorivor o'simliklarni 6000 gektar maydonda madaniy plantatsiyalarini barpo etish hamda 6939 tonna xom ashyo tayyorlash bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda .

Shuningdek, A.Hamzayevga:

Respublikada tez o'suvchi daraxt turlarini ko'paytirish bo'yicha berilgan topshiriq berilgan. Unga ko'ra,

1). Terakning dunyo seleksiyasiga mansub 80 dan ortiq duragay navlari o'rganilgan va eng yaxshilaridan Dehqonobod, Pop, Kitob, Sirdaryo, Darxon o'rmon xo'jaliklarida onalik plantatsiyalari barpo etilgan.

2) Respublika o'rmon xo'jaliklarida sanoatbop yog'och yetishtirish maqsadida Pavlovniyaning "Tomentoza" "Shangton" kabi turlarining 2,7 mln tupdan ortiq ko'chatlari yetishtirilgan.

3) Yong'oqmevali o'rmon plantatsiyalarini tashkil etish topshirig'iga asosan 2017 yilda 2,8 ming gektarda, 2018 yilda 8,7 ming gektarda, 2019 yilda 10,6 ming gektarda va 2020 yilda esa 9,0 ming gektar maydonda yong'oqmevali plantatsiyalar tashkil etilgan.

U kishining tashabbusi bilan 2020 yilda O‘rmon xo‘jaligi sohasida juda qimmatli ilmiy manbalarga ega (10 mingdan ortiq) yangi kutubxona tashkil etilgan.



A.X.Xamzayev jamoatchilik asosida O‘zR OAKda ekspert kengashi raisi, Innovatsion rivojlanish agentligida huzuridagi ilmiy texnik kengash raisi sifatida ham mamlakatimizda har yili minglab ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashda katta hissa qo‘shib kelmoqda. O‘zining bevosita rahbarligida 50 ga yaqin nomdor stipendiatlar, 30 dan ortiq magistrlar, 1 ta fan doktori, 3 ta falsafa doktorlari tayyorlangan.



A.X.Xamzayev 300 dan ortiq ilmiy ishlar, Shundan, 28 ta o‘quv-uslubiy ishlar, 30 ta ilmiy tavsiyalar va 9 ta monografiyalar nashr ettirgan. Shuningdek, 18 ta qishloq xo‘jalik ekin (2 ta tarvuz, 1 ta kartoshka, 13 ta pista, 2 ta batat) navlari va 16 ta ixtiro muallifi hisoblanadi. A.X.Xamzayev qonun ijodkorligi

jarayonida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Yaylovlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni hamda o‘rmonchilik, ekologiyaga oid 50 ga yaqin qonunosti hujjatlarini tayyorlashda bevosita ishtirok etgan.

Partiya yetakchisi sifatida o‘tgan ikki yil (2022-2024 yillarda) partiya faoliyatida katta ijobiy o‘zgarishlar qilindi, yangicha tizim joriy etildi, partiya a‘zolari soni 680 ming nafardan oshdi. Partiya moddiy-texnik bazasi kuchaydi. Ekologik muammolar yechimiga qaratilgan o‘nlab yangi loyihalar ishga tushirildi, hududiy partiya xodimlari, deputatlik guruhlarini faollashdi.



Uning rahbarligida Referendum oldi Konstitutsiyaviy islohotlar mohiyatini aholiga yetkazish bo‘yicha partiya faollari va elektoratini keng jalb qilgan holda 600 mingga yaqin aholi o‘rtasida 3 500 dan ortiq uchrashuvlar, markaziy OAV da 100 dan ortiq chiqishlar tashkil qilindi. Joriy yildagi Prezident saylovi jarayonlarida ham ko‘p ming sonli partiya a‘zolarining uyushqoqligini ta‘minlab, munosib ishtirok etildi.

A. Hamzayev Mustaqillikning 25 yilligi, 30 yilligi hamda “O‘rmon fidoyisi”, “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishonlari sovrindori.

Oilali, uch nafar farzandi bor.



HASANOV BOTIR ACHILOVICH **Biologiya fanlari doktori, professor**

Botir Achilovich Hasanov 1946-yil 8 noyabrda Qoraqalpog'iston Avtonom Respublikasi, To'rtko'l tumanida tavallud topgan. 1968-yilda Toshkent davlat universiteti (ToshDU, hozir Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zMU) ni "Biologiya, botanika" mutaxassisligi bo'yicha tugatgan.

1968-yilda M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (MDU), Biologiya fakulteti, Tuban o'simliklar kafedrasida aspiranturaga kirib, uni 1971-yilda tugatgan.

1972-yilda O'rta Osiyo fitopatologiya ilmiy-tadqiqot instituti (SANIIF) ga katta laborant lavozimida ishga kirgan. Shu yili noyabrdan 1973-yil noyabrigacha armiyada harbiy xizmatni o'tgan. Keyin mazkur institutda ishini davom ettirib, 1973-1974-yillarda katta laborant, 1974-1984-yillarda kichik, 1984-1989-yillarda katta, 1989-1992-

yillarda yetakchi ilmiy xodim, 1991-1992-yillarda ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini lavozimida ishlagan.

1991-yilda O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinganidan keyin SANIIF O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tasarrufiga o'tkazildi va 1992-yilda uning asosida Genetika instituti, 1996-yilda esa O'zbekiston Geneika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tashkil etildi. 1992-1996-yillarda ushbu institutda ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini, 1992-2008-yillarda laboratoriya mudiri va bir necha loyihalarning rahbari lavozimlarida ishlagan.

1975-yilda Moskva davlat universitetida "Zang zamburug'larining giperparazitlari" mavzusidagi biologiya fanlari nomzodligi, 1993-yilda "Takomillashmagan zamburug'lar O'rta Osiyo va Qozog'istonda boshqoqli o'simliklarning asosiy parazitlari"

mavzusidagi biologiya fanlari doktori dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan va, mos ravishda, biologiya fanlari nomzodi va biologiya fanlari doktori ilmiy darajalarini olgan. 1986-yilda katta ilmiy xodim, 2011-yilda professor unvonini olgan.



1996-2005-yillarda o‘simliklar himoyasi bo‘yicha “Kroprotekt” MChJ ning ta‘sischisi bo‘lib, uning direktori vazifasini bajargan. 2005-2008-yillarda Toshkent davlat agrar universiteti (ToshDAU) da o‘rindoshlik asosida professor vazifasini bajaruvchi, 2008-2013-yillarda “Fitopatologiya va biotexnologiya” kafedrasida mudiri lavozimida ishlab, 2013-yildan hozirgacha “Qishloq xo‘jalik fitopatologiyasi” kafedrasida professor lavozimida faoliyat olib bormoqda.



B.A. Hasanovning pedagogik va ilmiy faoliyati o‘simliklarni himoya qilish, fitopatologiya va mikologiya sohalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, 240 dan oshiq ilmiy ishlarni, jumladan xorijiy nufuzli jurnallarda 55 maqola, 5 ta darslik, 15 ta o‘quv qo‘llanma, 9 ta monografiya hamda 10 dan

ortiq uslubiy qo‘llanmalarni nashr ettirgan. Ixtirosi uchun 2 ta mualliflik guvohnoma va patentga ega. Xalqaro anjumanlarda (Angliya, Estoniya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus) ishtirok etgan hamda ma‘ruzalar qilgan. Xorijiy tajribalarni o‘rganish maqsadida Turkiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Niderlandiya, Vengriya, AQSh, Hindiston va boshqa davlatlarda seminar hamda o‘quv kurslarida ishtirok etgan.



Bakalavriat va magistratura talabalariga o‘zbek, rus va ingliz tillarida ma‘ruzalar o‘qiydi, va ularga rahbarlik qiladi. Uning rahbarligida 6 ta shogirdi biologiya va qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha fan nomzodi / falsafa doktori (PhD) va 2 ta shogirdi fan doktori ilmiy darajasini olgan hamda hozirgi kunda bir qator tayanch doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi ekinlarini xavfli kasalliklardan, jumladan g‘alla ekinlarini zang kasalligidan va g‘o‘za ekinlarini fuzarioz so‘lish kasalligidan himoya qilishda davlatning ushbu soha bo‘yicha mutaxassislariga muntazam yordam qilmoqda va bu soha uchun ko‘plab amaliy tavsiyalar tayyorlagan va chop ettirgan.

Olimning ilmiy-pedagogik faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Unga bir qator faxriy yorliqlar, 2016-yilda "O‘zbekiston mustaqilligiga 25 yil" esdalik nishoni va 2023-yilda “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni berilgan.



HOSHIMXONOV MO‘MIN

3 karra fan doktori (filologiya, pedagogika, falsafa), professor

Hoshimxonov Mo‘min 2002-yili Farg‘ona shahrida o‘tkazilgan “O‘zbekiston notiqalar tanlovi” g‘olibi, 2003 yili Namangan viloyat yoshlar Ittifoqi “Boborahim Mashrab” mukofoti sohibi, 2003-yil “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2007 yili Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi “Ma’naviyat fidoiysi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.



Umumiy mehnat staji — 48 yil. Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (PhD).03/04.06.2020. Fil.113.02. raqamli ilmiy kengash a’zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Hoshimxonov Mo‘min 1972-1975 yillar Jizzax viloyati, Zafarobod tumani Sobir Rahimov davlat xo‘jaligi hisobchisi, 1979-1980 yillar Samarqand viloyati, Bulung‘ur tumani 46-maktab o‘qituvchisi, 1980-1982 yillar 2-maktab o‘qituvchisi, 1982-1984 yillar 2-

maktab o‘quv bo‘limi mudiri, 1984-1985 yillar Jizzax viloyati, Zafarobod tumani S.Rahimov davlat xo‘jaligi hisobchisi, 1986-1988 yillar Jizzax viloyati, Zafarobod tuman 3-maktab o‘qituvchisi, 1988-1991 yillar 13-maktab direktorning ma’naviy – ma’naviy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, 1991-1992 yillar Jizzax davlat pedagogika instituti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi, 1992-1995 yillar O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrasida o‘qituvchisi, 1995-1997 yillar ushbu kafedra katta o‘qituvchisi, 1997-1999 yillar Boshlang‘ich ta’lim, til va adabiyot kafedrasida katta o‘qituvchisi, 1999-2001 yillar O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi, 2001-2005 yillar Sotsiologiya va iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida mudiri, 2005-2007 yillar Milliy istiqloq g‘oyasi, huquq va ma’naviyat asoslari kafedrasida mudiri, 2007-2010 yillar Milliy istiqloq g‘oyasi, huquq va ma’naviyat asoslari kafedrasida dotsenti, 2010-2015 yillar Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasida mudiri, 2015-2018 yillar Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasida dotsenti, 2018-2020

yillar Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi mudiri, 2020-2023 yillar Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti, 2023 yildan hozirgi vaqtga qadar Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi kafedrasi professori lavozimida mehnat faoliyatini yuritib kelmoqda.

Hoshimxonov Mo'min 1995 yil Ibrohim Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq institutida "Mashrabning ijtimoiy-falsafiy qarashlari" (09.00.03-Falsafa tarixi) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.



2019 yil Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (DSc).27.06.2017.F.02.02 raqamli ilmiy kengashda "Boborahim Mashrab va XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy-axloqiy fikr rivoji" mavzusida 09.00.03-Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

2021 yil Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (PhD).03/04.06.2020.Fil.113.02. raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashda "Boborahim Mashrab ijodiy merosining ilmiy-badiiy adabiyotdagi talqini (XVII-XVIII asrlar)" mavzusida 10.00.02. – O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

2023 yil Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (PhD).03/04.06.2020.Ped.113.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengash "Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish (Boborahim Mashrab asarlari misolida)" mavzusida 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.

Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

Bugungi kunda "Boborahim Mashrabning ijtimoiy – siyosiy qarashlari"

(XVII – XVIII asrlar) 23.00.01 –Siyosat nazariyasi va falsafasi. Siyosiy ta'limotlar tarixi va metodologiyasi to'g'risida 4 (to'rtinchi dissertatsion tadqiqotni olib bormoqda).

Hoshimxonov Mo'min tomonidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari o'zining noan'anaviyligi va ta'sirchanligi bilan ekspertlar, professor-o'qituvchilar, bakalavr hamda magistrlar tomonidan yuqori baholanib kelinmoqda. Nomzod kafedra va fakultetning yosh o'qituvchilarning kasbiy faoliyatda, ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik va yo'naltirishda o'zining qimmatli maslahatlarini ayamasi bilan ham jamoada katta hurmat qozongan. Mo'min Hoshimxonov rahbarligida 2 ta falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD dissertatsion ish himoya qilingan va 3 ta ortiq mustaqil tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari bilan birgalikda 5 ta Respublika miqyosida ilmiy anjuman o'tkazishda faol ishtirok etgan.



Hoshimxonov Mo'min uzoq yillar mehnat qilib, 11 ta fundamental monografiyalar va 11 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 1 ta lug'at, 2 ta badiha, OAK va xorijiy mamlakatlar jurnallarida 270 dan ko'proq ilmiy-ma'rifiy maqolalari chop etgan.

Hoshimxonov Mo'min buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Boborahim Mashrab

hayoti, ijodi, faoliyati bo'yicha 9 ta fundamental tadqiqot (monografiya)lar yaratgan. Shunday bo'lsa – da, o'zini mashrabshunos olim deya- davo qilish fikridan

yroq. Sababi, hali tadqiqotlarni davom ettirish rejasi bor.



Daho shoir, she’riyat mulking sultoni, mutafakkir Alisher Navoiy ijodiga murojaat qilib, “Alisher Navoiyning ijtimoiy – gumanistik qarashlari” falsafa tarixi ixtisosligidan (2024 yil 25 bosma taboq) fundamental monografiya yaratdi.

Shuningdek, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ul – vaqoye’” (Nodir voqealar) asarida “Alisher Navoiy tab’ida nafsoniy shahvat va ruhiy lazzatga maylning cheklanganligi” xususida” (2024 yil 10 bosma taboq) ilmiy – badiiy risola yaratdi.

Hoshimxonov Mo‘min 2008 yildan 2024 yilgacha Respublikamizning turli Oliy o‘quv yurtlari va Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalariga 4000 (to‘rt ming) dona kitoblar beminnat va iddaosiz tuhfa qildi.

U turli tashkilotlarda ishlash bilan bir qatorda respublikamizning qariyb ko‘plab oliy ta’lim muassasalari va viloyatimizning davlat va jamoat tashkilotlarida o‘zining dolzarb mavzulardagi ma’ruzalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, Boborahim Mashrab ilmiy merosini targ‘ib qilishda respublika oliy ta’lim muassasalari O‘zMU, SamDU, TerDU, GulDU, NamDU, O‘TAUlarida doimiy tarzda ilmiy ma’ruzalar tashkil etib kelmoqda.

Hoshimxonov Mo‘min JDPU qoshidagi 2-sonli Akademik litsey, IIV Jizzax viloyati

Akademik litseyi va boshqa turli ta’lim muassasalarida yosh avlodga hayot tajribalaridan namuna sifatida yoshlarimizni ijtimoiy faolligini oshirish, axloqiy va estetik tarbiyaga mos turli yo‘nalishdagi seminar-treninglarni jamoatchilik orasida faol ishtirok etmoqda.



2000 yildan buyon Respublikaning turli o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalariga Boborahim Mashrab merosiga oid ijod namunalaridan iborat kitoblar taqdimi, 2010-yildan shu kunga qadar Jizzax shahridagi 1-sonli Muruvvat uyi va hozirdagi Sharof Rashidov tumani Olmachi MFYdagi “Mubinabonu” oilaviy bolalar uyidagi tarbiyalanuvchilarga doimiy ko‘mak berib kelayotgan, sahovatpesha, fidoiy insonlardan biridir.

Ta’kidlash joizki, Hoshimxonov Mo‘min psixolog ekspert-maslahatchi sifatida ishtirok etib, tarbiyasi og‘ir, ijtimoiy nosog‘lom muhitda tarbiyalangan yoshlarni jamiyatga sog‘lom fikr va mustaqil hayotga qaytarib, baxtli yashashga imkon yaratishga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan. Hoshimxonov Mo‘min ko‘p yillik jamoatchilikdagi ma’naviy–ma’rifiy sohalardagi faoliyatlariga vazirliklar, tashkilotlar, universitet ma’muriyati tomonidan “Faxriy yorliq”lar va Tashakkurnomalar bilan bir necha marta taqdirlangan.



IBADULLAYEV AXMADJON SOBIROVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Ibadullayev Axmadjon Sobirovich 10-iyun 1957-yilda ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1976-yilda Abu Rayxon Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutining «Kimyo-texnologiya» fakultetiga o'qishga kirib, uni 1981 yilda Rezina texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha tugatganlar. 1982 yil Toshkent politexnika institutining «Plastmassalar va ularni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasiga aspiranturaga kirib, uni 1988 yilda «Modifikatsiya qilingan texuglerodlar bilan to'ldirilgan elastomer kompozitsiyalarini yaratish va optimallashtirish» mavzusida 02.00.16-Kompozitsion materiallar kimyosi va texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha nomzodlik va 2005 yilda esa «Mahalliy va ikkilamchi xomashyolarni qo'llab elastomer kompozitsiyalar ishlab chiqarish texnologiyasini ilmiy asosini yaratish» mavzusida 05.17.12-Kauchuk va rezina texnologiyasi va 02.00.16-Kompozitsion materiallar kimyosi va texnologiyasi birlashgan ixtisosliklari bo'yicha doktorlik

dissertatsiyalarini himoya qilgan.



1981-1988 yillari Toshkent politexnika instituti «Plastmassalar va ularni qayta ishlash texnologiyasi» kafedrasida aspirant va ilmiy xodim, 1988-1998 yillari institutning Angren filialida o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri, fakultet dekani va doktorant, 1998-2006 yillari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi «Fan va taraqqiyot» ilmiy texnologik kompleksida katta ilmiy xodim, laboratoriya mudiri, bosh ilmiy kotib, 2006-2010 yillari Toshkent kimyo-texnologiya institutida magistratura bo'limi boshlig'i, 2010-2018 yillarda «Menejment va kasb ta'limi» va

«Yoqilg‘i ishlab chiqarish va organik moddalar texnologiyasi» fakultetlari dekani, 2018-2019 yillarda «Neft va gazni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi» kafedrasini mudiri va 2019 yildan Toshkent davlat transport universiteti professori lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

O‘z faoliyati davomida u Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnika yo‘nalishlari bo‘yicha yangi 3 ta mutaxassislik kafedrasini va laboratoriyasini tashkil qilgan va hozirgi vaqtda yetuk qadrlar va olimlarni yetishtirishga xizmat qilib kelmoqda.



2019 yildan O‘zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasi «Kimyo va farmotsevtika» ekspert komissiyasining a‘zosi, 2023 yildan esa rais muvini.

Axmadjon Sobirovich o‘z pedagogik va ilmiy yo‘nalishlarida chet el davlatlarida, MDX va Respublikamizda ko‘zga ko‘ringan pedagog-olim, yoshlarni mehribon murabbiysi va Elastomer kompozitsiyalarining strukturasi shakllantirish va polimer-bitum yo‘l qoplamalari yaratish ilmiy yo‘nalishlariga ulkan hissa qo‘shgan va birgalikda yetuk qadrlar tayyorlashga erishgan olimdir.



Axmadjon Sobirovich tomonidan Mahalliy xomashyolar asosida elastomer kompozitsiyalari va polimer-bitum yo‘l qoplamalari uchun ingredientlar ishlab chiqarishning ilmiy asosini yaratish sohasida muvaffaqiyatli ishlayotgan ilmiy-maktab yaratgan.



Axmadjon Sobirovich olib borilayotgan «Mahalliy xom-ashyolar asosida elastomer kompozitsiyalari tarkibi, texnologiyasini yaratish va tatbiq qilish» va «Mahalliy xomashyolar asosida polimer-bitum yo‘l qoplamalari yaratish» ilmiy-tadqiqot mavzulari rahbari. Hozirgi kunda Respublikamiz hududida joylashgan Rezina-texnika mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari («Birinchirezinatexnika» QQ, Toshkent rezinotexnika va boshqa kichkina korxonalar) ishlatuvchi xomashyolarni mahalliyashtirish va ular asosida yangi texnologiyalar yaratish ustida ilmiy ishlar olib bormoqda.



Axmadjon Sobirovichning rahbarligida 25 dan ortiq fan doktori va fan nomzodlari tayyorlangan. Uning rahbarligida hozirgi kunda 6 ta tayanch doktorant va 5 doktorant himoyaga chiqmoqda. Faoliyati davomida qator Davlat ilmiy-texnik dasturlari loyihalari rahbari bo‘lgan. Uning tadqiqotlari natijalari asosida

O‘zbekiston Respublikasi rezinotexnika sanoati va yo‘l qurilish uchun xomashyolar yaratilgan va tatbiq qilingan.

Bulardan tashqari uning tadqiqotlari natijalari oliy o‘quv yurtlarining Yuqori molekulari birikmalar va plastmassalarni qayta ishlash texnologiyasi yo‘nalishlari o‘quv rejalariga kiritilgan. U 2007-2018 yillarda Toshkent kimyo texnologiya institutida 02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantlardan malakaviy imtixon olish komissiyasi raisi, 2008 yildan D 067.24.04 va D 067.50.01 birlashgan ixtisoslashgan ilmiy kengashlari ilmiy kotibi va a‘zosi. Fan va texnologiyalarni muvofiqlashtirish qo‘mitasi eksperti. Xalqaro Rezinshiklar uyushmasi kengashi a‘zosi. Bir qator xalqaro anjumanlarning dasturiy va tashkiliy qo‘mitalari kotibi va a‘zosi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalar markazi tomonidan Kimyo sanoati rivojiga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 13 yilligi munosabati bilan ta‘sis etilgan mukofot g‘olibi

va boshqa diplomlar va maqto‘v qog‘ozlari bilan taqdirlangan.

Axmadjon Sobirovich 1976 yilda A.R.Beruniy nomidagi Toshkent politexnika institutiga talabalikka qabul qilinganidan to hozirgacha oliy ta‘limning turli javhalarida o‘ta samarali faoliyat ko‘rsatib, yuksak vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik faoliyati tufayli oliy ta‘lim, fan sohalarida, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda va talaba yoshlarni tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.



Oliy ta‘limni dunyo standartlariga to‘g‘ri keladigan ikki bosqichli ta‘lim standartlari va dasturlarini, ularni yangi mukammallashtirilgan yaratishda u jonbozlik qilib kelmoqda. Ular tomonidan 4 ta darslik va 40 dan ortiq o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 10 ta monografiya, 550 dan ortiq ilmiy maqolalar, 15 dan ortiq patent va avtorlik guvohnomalari muallifi hisoblanadi.

Axmadjon Sobirovich o‘zlarining prinsipiialligi, talabchanligi, halolligi va shu bilan birga talabalarga, shogirdlarga, hamkasblariga mehribonligi, odamiyligi, fidoiyligi bilan doimo o‘rnak bo‘lib kelayaptilar.



ISAKULOVA NILUFAR JANIKULOVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

Isakulova Nilufar Janikulovna 1979-yil 8-aprelda Farg‘ona shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan.



U 1995-1999-yillarda Samarqand davlat chet tillari institutining “Maktabgacha ta’lim” bakalavritura yo‘nalishida, 2000-2002-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining magistraturasida “Boshlang‘ich ta’lim” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olgan. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni

qayta tayyorlash institutida 2003-2005-yillarda aspiranturada, 2009-2011-yillarda esa doktoranturada katta ilmiy xodim-izlanuvchi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. 2004-2009-yillarda Toshkent shahri Yunusobod tumani 98-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi lavozimida, 2011-2012-yillarda Toshkent davlat madaniyat institutida katta o‘qituvchi lavozimida, 2012-2014-yillarda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida dotsent lavozimida, 2014-2016-yillarda esa O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida dotsent lavozimida ishlagan. 2016-yildan hozirgi kunga qadar O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida professor lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Isakulova Nilufar Janikulovna 2006-yil 6-sentabr kunida «Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari» mavzusida nomzodlik

dissertatsiyasini, 2012-yil 6-aprel kunida «Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni berish nazariyasi va amaliyoti (umumiy o‘rta ta’lim maktablarida hamda pedagogika kollejarining “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi misolida)» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Isakulova Nilufar Janikulovna 2007-yilda pedagogika fanlari nomzodi, 2012-yilda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini, 2014-yilda dotsent, 2019-yilda professor ilmiy unvonini olgan.

Isakulova Nilufar Janikulovna tomonidan 3 ta darslik, 4 ta o‘quv qo‘llanma, 5 ta monografiya, 5 ta uslubiy qo‘llanma, 8 ta maqola (xorijiy jurnallarda), 46 ta ilmiy maqolalar, respublika konferensiyalarida 9 ta, xalqaro konferensiyalarda 4 ta, vazirliklar miqyosidagi konferensiyalarda 4 ta ilmiy ishlar nashr ettirilgan, 3 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomalari olishga erishgan. Yakkamualliflikda nashr etilgan “Kasb ta’limi metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi, hammualliflikda nashr etilgan “Kasbiy pedagogika” darsligi, “O‘zbek xalq o‘yinlari” o‘quv qo‘llanmasi, “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanma(2019, 2020 yy.)lari, “Bolalar pedagogikasi” darsliklari(1-qism 2020-yil, 2-qism 2021-yil) pedagogik amaliyotda foydalanishga tavsiya etilgan.



Isakulova Nilufar Janikulovna O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 6-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni

o‘tqazish to‘g‘risida»gi PQ-1516-son Qaroriga muvofiq o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining yosh olimlari o‘rtasidagi «Ilm sari ilk qadam» tanlovida qatnashib, II darajali diplomni qo‘lga kiritgan, va universitet rektorining faxriy yorliq va tashakkurnomalari bilan taqdirlangan.

Isakulova Nilufar Janikulovna oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda faol ishtirok etib, ilmiy rahbarligida 4 nafar falsafa doktorlari tayyorlangan.



2018-2023-yillarda 40 nafar pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, 7 nafar pedagogika fanlari doktori talabgorlariga rasmiy opponent va Ilmiy seminarlarda taqrizchi sifatida ishtirok etgan.

2020-2023-yillarda A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28/30.12.2019.Ped.68.01-raqamli Ilmiy kengash va Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar a‘zosi.

2022-yilda Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.33/01.02.2022.Ped.146.01-raqamli Ilmiy kengash a‘zosi, 2017-yil noyabrdan 2019-yil may oyigacha O‘zDJTU huzuridagi DSc.27.06.2017.Ped.27.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi va Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar a‘zosi.



TerDU, JizPU, TDPU, O'zMU, TTA huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash va Ilmiy seminar a'zosi. 2020-2023-yillarda O'zDSMida izlanuvchilarni monitoringdan o'tkazish jarayonida komissiya a'zosi, 2022-2023-yillarda TDPUDA 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi, 13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) ixtisoslik bo'yicha tayanch doktoranturaga qabul komissiyasi a'zosi, 2023-yilda TDPUDA 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi a'zosi.

2016-2023-yillarda TDPU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida malaka oshirish kursi tinglovchilarining bitiruv ishi himoyasi bo'yicha attestatsiya komissiyasi a'zosi, pedagogik qayta tayyorlash (nopedagoglar uchun) kursida tinglovchilarning yakuniy Davlat attestatsiya komissiya raisi bo'lib faoliyat yuritgan. 2014-2015-yillarga mo'ljallangan YOAI-003-raqamli "O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini shakllantirish" yosh olimlar loyihasi rahbari, 2013-2014-yillarga mo'ljallangan "Barqaror taraqqiyot uchun ta'limni kuchaytirish maqsadida pedagoglar orasida nomoddiy madaniy merosni targ'ib qilish" nomli xalqaro loyiha eksperti, 2015-2017-yillarga mo'ljallangan A1-011-raqamli "Nomoddiy madaniy merosining tabiat va koinotga oid bilim va urf-odatlarini ta'lim tizimiga tadbiq

etish" nomli amaliy loyihada katta ilmiy xodim, 2021-2022-yillarga mo'ljallangan AL-412104512-raqamli "O'zbekistonning geografik obyektlari uchun ko'p tildagi elektron lug'at yaratish" amaliy loyiha a'zosi bo'lib ishtirok etgan.



2018-2020-yillarda "Filologiya masalalari", 2020-2021-yillarda "Chronos Journal" jurnalida bosh muharrir, "Управление образованием теория и практика", 2021-yildan buyon hozirgacha "TDPU axborotnomasi", "Madaniyat chorahalari", 2022-yilda "Journal of Pedagogical Inventions and Practices", 2023-yilda "Sportda ilmiy tadqiqotlar", "Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences" jurnallarida tahririyat a'zosi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha), o'qitish metodikasi, ta'lim amaliyotiga nomoddiy madaniy meros elementlarini tatbiq etish masalalari kabi ilmiy yo'nalishlarda o'zining pedagogik mahoratini, ilm-fan va maorif sohasida mamlakatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni tez o'zlashtira oladi hamda ta'lim sohasidagi yangiliklarni, ilmiy tadqiqot ishlarini, islohotlarni hayotga tatbiq eta oladi. N.J.Isakulova mehnat faoliyati davomida universitetning ilmiy, tashkiliy va ijtimoiy hayotida faol ishtirok etib kelayotgan hamda universitetning ilmiy salohiyatini oshirishga o'z hissasini qo'shib kelayotgan olimlardandir. N.J.Isakulova kamtarin, insonparvar, adolatli, fidoiy, mehnatsevar, mas'uliyatli.



ISAYEV RIXSI ISOXO‘JA O‘G‘LI
Texnika fanlari nomzodi, professor

Rixsi Isayev 2021-yili “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan.

Rixsi Isayev 1942-yilning 24-noyabrda Toshkent viloyatining Kalinin tumanida (hozirgi Zangiota tumani) tavallud topgan.



Rixsi Isayev o‘z ilmiy faoliyatini 1958-yilda Toshkent temir yo‘l texnikumining “Сигнализация, централизация, блокировка и связь” yo‘nalishida o‘qish bilan boshladi. So‘ng Toshkent elektrotexnika aloqa instituti „Telefon, telegraf” yo‘nalishida tahsil olgan.

1968 — 1970 yillarda harbiy xizmatda „Aloqa xavfsizlik” Vzvod komandiri lavozimida Turkiston harbiy okrugida xizmat qilgan va Katta leytenant harbiy darajaga erishgan

Harbiy xizmatdan so‘ng 1970-yilda Toshkent elektrotexnika aloqa instituti “Ko‘p kanallik elektr aloqa” kafedrasiga assistent lavozimiga ishga qabul qilindi.



1972-yilda Moskva elektrotexnika aloqa instituti aspiranturasiga o‘qishga qabul qilindi. 1976- yilda nomzodlik dissertatsiyasini

himoya qilib , Toshkent elektrotexnika aloqa instituti (TEAI)da assistent, katta o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida ishladi . 1977-yil sentyabr oyida TEAI da Moskva, Leningrad aloqa institutlaridan keyin Uchinchi “Tolali optik aloqa” ilmiy — tadqiqot laboratoriyasini ochdi . Ushbu laboratoriyada shu yo‘nalishda raqamli 30 kanallik apparatura ishlab chiqildi va Toshkentdagi 234 va 241 avtomatik telefon stansiyalar (ATS) ishga tushirildi. bulardan tashqari Rixsi Isayev sobiq SSSR Hukumati Aloqa vazirligining muhim loyihalarida ishtirok etgan.

1983-1986 yillarda shu davrda birinchi bo‘lib avtonom holda ishlaydigan gibrid 24 V , 250 Vattli Quyosh — Shamol elektrostansiyasi yaratildi va u TEAIning Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanidagi Xondayliq qishlog‘ida joylashgan dam olish maskanida ishga tushirildi.



Bulardan tashqari olim mamlakatimizning ko‘plab viloyatlarida ATS lar ishga tushirilishida faol qatnashgan. Masalan, Tolali optik aloqa ilmiy — tadqiqot laboratoriya Toshkent viloyati , Zangiota tuman markazini Toshkent shahar , Navoi ko‘chasi 28 dagi , shu davrdagi Telegraf — Telefon stansiyasi (hozirgi Bosh kommutatsiya markazi) orasiga 16 kilometr tolali optik aloqa kabeliniyer ostiga ko‘mib va telefon kanalizatsiyalariga joylashtirib , 120 kanallik IKM — 120 apparaturasini qurib ishga tushirdi. Bundan keyin Andijon va Qoraqalpog‘istonning Nukus shaharlarida ATS larni bir — biri bilan bog‘lash maqsadida Tolali optik kabellarini telefon

kanalizatsiyalariga yetkazib , raqamli IKM — 1920 kanallik apparaturani ishga tushirdi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin Aloqa sohasi ikki yo‘nalish bo‘yicha rivojlana boshladi , O‘zbekiston pochta aloqasi davlat konserni va O‘zbektelekom davlat konserni tuzildi .O‘zbektelekom davlat konserni Nizomini tayyorlashda faol qatnashdi va Konsern rahbarining o‘rinbosari lavozimiga ishga o‘tdi

1992 yil sentyabr oyidan boshlab 2012 yillarda Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi bilan hamkorlik ishlarida faol qatnashdi .Telekommunikatsiya tarmoqlarini raqamlashtirish jarayonida faol ishtirok etdi . 1992 yil oxirida sohaning alohida ilmiy tashkilotini ochish va uni rivojlantirishga qaror qabul qilindi . Ilmiy — tadqiqot Markaziga Isayev Rixsi Isoxo‘ja o‘g‘li rahbari etib tayinlandi .



Shu Markaz mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Aloqa sohasidagi birinchi va hozirgi kunda Xalqaro miqyosda taniqli „Fan — texnika va marketing tadqiqotlari Markazi (FTMTM) hozirgi kundagi brendi (UNICON .UZ) ilmiy , amaliy va soha yo‘nalishlarida ishlab chiqarish, standartlashtirish , metrologiya , sertifikatlashtirish , normativ hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishga asos soldi .

O‘zbekiston Respublikasining “Radiochastotalar to‘g‘risidagi,, , „Pochta aloqasi to‘g‘risidagi”, „Telekommunikatsiya to‘g‘risidagi” , „Axborotlashtirish to‘g‘risidagi” , „Elektron imzo to‘g‘risidagi” , „Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risidagi” va

„Elektron tijorat to‘g‘risidagi“ qonunlarini ishlab chiqish va tadbiq etishga o‘z hissasini qo‘shdi. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi” qonunini tayyorlashda faol ishtirok etdi .

Davlatimizning Telekommunikatsiya tarmoqlarini raqamlashtirish masalalarini hal qilish 1994 — 1995 yillarda ishlab chiqilgan loyiha 1995 yil 1-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 307 — sonli qarori bilan tasdiqlandi va 1995 -- 2010 yillar (15 yil davomida) Telekommunikatsiya tarmoqlari to‘liq raqamlashdi .



1997-yil sentyabrda FTMTM da „ Axborot Xavfsizlikni ilmiy va amaliy laboratoriya ochildi. 1999-2006-yillar davomida davlatimizning” Axborot Xavfsizlik” konsepsiyasini va amaliyotga tadbiq etish masalalarini hal qilishda faol qatnashdi va rahbarlik qildi. Shu davrda davlatimizning Kriptografik algoritmi yaratildi va davlat standarti ishlab chiqildi, qabul qilindi

va shu standart asosida xavfsizlik qurilmalari ishlab chiqarilmoqda .

FTMTM 1997-yilda Yevropa komissiyasi granti asosida Fransiyaning Armines kompaniyasi va Portugaliya kompaniyalari hamkorligida dunyoda birinchi ishlab chiqilgan „ Avtonom gibrid 5 kVt , 220 Voltli Quyosh — Shamol elektrostansiya akkumulatorlari bilan bo‘lgan loyihani , muallifning oldingi qilgan loyihasi asosida yaratish uchun Toshkent viloyati , Bo‘stonliq tumani, Chorvoq telerentranslyator stansiyasini barqaror elektr energiya bilan ta‘minlash maqsadida Hokimiyat 2 gektar yer ajratib berdi va ushbu loyiha bo‘yicha elektrostansiya qurildi va ishlash jarayonlarini ilmiy — tadqiqot ishlari boshlandi.



Shu davrda hamkor Fransiyaning Armines kompaniyasi ishlab chiqargan Avtomatlashtirilgan monitoring tizimi orqali har kuni 24 soat davomida Quyosh va Shamol stansiyalar ishlab chiqqan.



ISAYEV SABIRJAN XUSANBAYEVICH
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Isayev Sabirjan Xusanbayevich 1968-yilda Qozog'iston Respublikasi, Chimkent viloyati, Sayram tumani Qoramurt qishlog'ida tug'ilgan, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor, Suv xo'jaligi a'lochisi va Maxpirat nomidagi O'rta Osiyo xalqlari tarixi instituti Turon fanlar akademiyasining akademigi sohibi.

Isayev Sabirjan Xusanbayevich 1997-yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Gidromelioratsiya" fakultetining "Suv xo'jaligi melioratsiya" ixtisosligini tugatib, injener gidrotexnik mutaxassisligiga ega bo'ldi.



Mehnat faoliyatini 1990-2013 yillarda Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining laboranti, kichik ilmiy xodimi, katta ilmiy xodimi, bo'lim boshlig'i va direktorning ishlab chiqarish bo'yicha o'rinbosari, 2013-2014 yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining "Qishloq xo'jaligi gidrotexnika melioratsiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, 2014-2018 yillarda institutning Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i.



2018-2022 yillarda “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutining “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedresi professori, 2022 yildan buyon “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetining “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedresi professori lavozimida ishlab kelmoqda.



Isayev Sabirjan Xusanbayevich o‘zining pedagogik va ilmiy faoliyati davrida assistent, katta o‘qituvchi, dotsent, professor lavozimlarida malakali kadrlar tayyorlashda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Ilmiy faoliyati davomida 350 dan ortiq ilmiy va uslubiy ishlari, shu jumladan, 26 dan ortiq Scopus bazasidagi xalqaro jurnallarda maqolalar, hammuallifliklarda 10 dan ortiq o‘quv qo‘llanma, 15 dan ortiq monografiya, 32 ta foydali model uchun patent va kompyuter EXM dasturlari uchun guvohnomalar, 60 dan ortiq tavsiyanomalar chop qilingan.



Isayev Sabirjan Xusanbayevich ilmiy faoliyati davrida qishloq va suv xo‘jaligi sohasida, jumladan qishloq xo‘jaligi ekinlarini

yetishtirishda suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha bir qancha Davlat grantlari va xo‘jalik shartnomalari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.



AQSHning PL-480 “Agroilmdunyo” va 2007 y. O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qo‘llab quvvatlangan Germaniyaning xalqaro hamkorlik jamiyati ijrosidagi Yevropa ittifoqining “O‘zbekistonning qishloq hududlarida suv resurslarini barqaror boshqarish” dasturi doirasida Xalqaro suv resurslarini boshqarish instituti (IVMI) tashkiloti bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarida loyiha rahbari sifatida ishlagan.



2003 yil 13 14 may kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan IKARDA tashkiloti bilan hamkorlikda tashkil etilgan konferensiya ishtirokchisi.



Isayev Sabirjan Xusanbayevich 2003 yilda “Shaffof polietilen plyonka ostida parvarish qilingan g‘o‘za dalasida tuz, ozuqa elementlari dinamikasi va plyonkani yig‘ishtirib olish muddati” mavzusidagi 06.01.02-«Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik» ixtisosligi bo‘yicha qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi, 2016 yilda “G‘o‘za va g‘allani subirrigatsiya usuli bilan texnologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi 06.01.02-«Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik» ixtisosligi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilgan.

Isayev Sabirjan Xusanbayevich 2019 yilda Maxpirat nomidagi O‘rta Osiyo xalqlari tarixi instituti Turon fanlar akademiyasining akademigi unvoniga va 2021 yilda O‘zbekiston respublikasi suv xo‘jaligi vazirligining “Suv xo‘jaligi a‘lochisi ko‘krak” nishoniga sazovor bo‘lgan.



Isayev Sabirjan Xusanbayevich 2017 yildan buyon Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengash a‘zosi sifatida faoliyat olib bormoqda.

Isayev Sabirjan Xusanbayevichning ilmiy nazariy qarashlarini shogirdlari izchil davom ettirmoqdalar. Uning rahbarligida 1 ta

(DSc) doktorlik dissertatsiya, 10 ta (Phd), shundan 2 tasi texnika, 8 tasi qishloq xo‘jaligi falsafa fanlari doktorlik dissertatsiyasi himoya qilishgan, shuningdek 2017-2024 o‘quv yillarida 70812302–“Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik” va 70812306–“Suv tejamkor sug‘orish texnologiyalari” mutaxassisliklari bo‘yicha 16 ta akademik magistrlik dissertatsiya himoyasi qilishgan hamda 2 ta xorijiy va 5 ta mahalliy doktorant va tayanch doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

O‘zbekiston respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi fani va amaliyotidagi samarali, halol xizmatlari hamda fan bilan amaliyotni o‘zaro uzviy bog‘lashdagi xizmatlari uchun “Suv xo‘jaligi a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Isayev Sabirjan Xusanbayevich oilali, 3 nafar farzandi, 4 nafar nabirasi bor.

Isayev Sabirjan Xusanbayevich ko‘p yillik samarali mehnati, iste‘dodi, kasbiy mahorati, ilmiy-ijodiy mahorati soha mutaxassislari va keng jamoatchilik tomonidan e‘tirof etilgan. Respublika miqyosidagi yutuqlari, faoliyatidagi ibratli tajribalari, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi bilan nom qozongan.

Shuningdek Isayev Sabirjan Xusanbayevich kamtarin, insonparvar, adolatli, fidoiy, mehnatsevar, mas‘uliyatli, talabchan, qat‘iyatli, kommunikativ, mehribon, irodali, bilimdon, eruditsiyali, shijoatkor, tashabbuskor, belgilangan maqsadga yo‘naltirilgan motivatsiyali, tashkilotchilik, yetakchilik, kompetentlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan barkamol avlod tarbiyachisi sifatida ilmuni, mahoratini, salohiyatini tinimsiz oshirib boradigan, fidoiylilik namunalarini ko‘rsatib qilayotgan o‘z mehnati bilan jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va ma‘naviy–ma‘rifiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda.



ISMAILOV MIRXALIL AGZAMOVICH
O'zRFA akademigi, texnika fanlari doktori, professor

Ismailov Mirxalil Agzamovich, 1946 yil 28 avgust kuni Toshkent shahrida ishchi oilasida tavallud topdi. 1954-1965 yillarda Toshkent shahridagi 28-sonli maktabda tahsil oldi.



1965 yilda Toshkent politexnika institutiga o'qishga kirdi va uni 1970 yilda tamomlab, "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish" bo'yicha texnolog- muhandis mutaxassisligini oldi.

Mehnat faoliyatini 1970 yildan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Hisoblash markazli Kibernetika institutida muhandis lavozimida ish faoliyatini boshladi. Institutda olib borilayotgan fundamental va amaliy tadqiqot ishlari bilan tanishish barobarida, yangi tuzilgan xo'jalik

shartnomasini bajarish uchun Yangiyo'l biokimyo zavodida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish ishlarida faol qatnashdi.

1971 yildan katta muhandis lavozimiga o'tkazilgandan so'ng mustaqil biokimyo jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini boshlab yubordi. Dunyo miqyosida va Respublikada ushbu sohada tadqiqot ishlari endi rivojlanib kelayotgan edi. Sanoat miqyosida texnologiyalar joriy qilingan bo'lsa-da, lekin ularni avtomatlashtirish hamda avtomatlashgan boshqarish tizimlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlarni olib borish zaruriyati dolzarb masala edi.



Shu sababli u Moskva, Leningrad va Kiyev shaharlaridagi hisoblash texnikasi va

avtomatika vositalari asosida texnologik jarayonlarni boshqarish bo'yicha tadqiqot olib borayotgan ilmiy markaz olimlari ishlari bilan tanishdi, saboq oldi va o'z malakasini oshirdi.

1973 yilda aspiranturaning kunduzgi bo'limiga o'qishga kirdi va biokimyo sanoat obyektlarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va boshqarish sohalarida izlanishlar olib bordi. D.I.Mendeleyev nomidagi Moskva kimyo-texnologiya akademiyasi olimlari — Akademik V.V.Kafarov, t.f.d. prof. A.I.Boyarenov hamda V.P. Meshalkinlar (hozirda Rossiya FA Akademigi) bilan yaqin ilmiy hamkorlik qildi.



1979 yilda texnika fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ilmiy izlanishlarni davom ettirish va olgan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida G.M.Ostrovskiy, V.S.Balakirov, V.V.Biryukov, A.I.Emel'yanov, A.G.D'yachko va boshqa taniqli olimlar bilan hamkorlikda bo'ldi.

Kiyev avtomatika instituti, Butun ittifoq gidroliz ilmiy tadqiqot instituti, Butun ittifoq biosanoat ilmiy tadqiqot instituti va boshqa ilmiy tadqiqot markazlari bilan davlat buyurtmasi va xo'jalik shartnomalarini bajardi. Bajirilgan loyihalarda biotexnologiyaga asoslangan sanoat obyektlarini avtomatlashgan boshqarish tizimlarining nazariy va amaliy masalalari bo'lgan matematik modellari, algoritmlari, hamda dasturiy va texnik vositalari ishlab chiqildi. Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari asosida Andijon, Farg'ona, Yangiyo'l hamda Chimkent biokimyo zavodlarida Respublikada birinchi marotaba integrallashgan boshqaruv tizimi

joriy qilindi. Ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida loyihaning asosiy ijrochisi bo'lgan Ismailov M.A., nazariy va amaliy bilimlarni egallash orqali boy tajribaga ega bo'ldi.

Uning shu davrgacha bajargan fundamental va amaliy tadqiqotlari natijalari asosida, 1991 yil doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib fan doktori ilmiy darajasini oldi. Shundan so'ng, u bosh ilmiy xodim lavozimida shogirdlar bilan birgalikda matematik modellashtirish, optimallashtirish va boshqarish sohalarida ilmiy izlanishlar olib bordi.

1993 yilda Toshkent kimyo texnologiya institutining "Informatika" kafedrasining mudiri lavozimiga tayinlandi. Kafedrada olib borilgan pedagogik hamda ilmiy faoliyat natijalariga ko'ra kafedra qisqa muddatda institut bo'yicha namunalik kafedra sifatida tanildi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Informatika" institutida olib borilgan ilmiy ishlarini davom ettirish maqsadida rahbariyat uni o'rindoshlik asosida ishda qoldirdi. Uz ilmiy yo'nalishiga bo'lgan qiziqishi va fidoiyligi, hamda rahbariyatining taklifi bilan ish faoliyatini boshlagan dargohga qaytishiga sabab bo'ldi. 1995 yildan laboratoriya mudiri, ilmiy kotib, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarda faoliyat yuritdi.



Ilmiy ishlar bilan bir qatorda, 1979 yildan boshlab Toshkent Davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Toshkent Islom Akademiyasi, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini

mexanizatsiyalash muhandislar instituti Milliy tadqiqot universiteti kabi Oliy ta'lim muassasalarida o'rindoshlik asosida pedagogik faoliyat yuritib kelmoqda. Shuningdek, hozirgi kunga qadar Davlat attestatsiya komissiyalarida qatnashmoqda. Hozirda Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti Milliy tadqiqot universitetida professor lavozimida ilmiy pedagogik faoliyatini davom ettirib kelmoqda.

U 1995 yildan boshlab qariyb 18 yil ixtisoslashgan ilmiy kengash kotibi, a'zosi, rais o'rinbosari, raisi sifatida yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda.



O'z ilmiy-pedagogik faoliyati davomida monografiyalar, o'quv darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, EXM uchun dasturiy vositalariga guvohnomalar, jami 200 dan ortiq ilmiy ishlar muallifidir.

U hozirda O'zR FA hamda TDTU huzuridagi ilmiy jurnallarning tahririyat a'zosisidir.



Uning rahbarligida 2 ta fan doktori, 18 ta fan nomzodlari va texnika bo'yicha falsafa doktorlari tayyorladi. Hozirda 2 ta tayanch doktorant va 4 ta mustaqil tadqiqotchi hamda 2 ta stajyor tadqiqotchilarga xamda magistr'larga ilmiy rahbarlik qilmoqda.

Ismailov Mirhalil Agzamovich munosib do'st, g'amxo'r murabbiy, umrini fanga bag'ishlagan olim va ko'p yaxshiliklar qilgan inson sifatida xar doim do'stlari, kasbdoshlari va shogirdlari ardog'ida. Domla nihoyatda mehnatkash, dilkash, kamtar bo'lish bilan bir qatorda shogirdlarining mehribon ustozidir. U kishidagi g'ayrat va shijoat yoshlar uchun ibratlidir.

Domla erishgan yutuqlariga sababchi bo'lgan ustozlari Akademiklar V.Kobulov, N.R. Yusupbekov, M.M.Kamilov, T.F.Bekmuratov, X.Z.Igamberdiev hamda fan doktorlari A.I.Bayarinov, Sh.M.Gulyamov, K.A.Axmetov va boshqalardan bir umr minnatdor bo'lib, ularga oddiy shogird sifatida hurmat bilan ta'zim qiladilar.



IVATOV IRISBEK

Iqtisod fanlari doktori, professor

Ivatov Irisbek — 1950 yil 7 oktyabrda, Chimkent viloyatida dehqon oilasida tavallud topgan, millati o‘zbek, oilali, 3 nafar farzandi bor. Iqtisod Fanlari doktori, professor.

U 1968 yili o‘rta maktabni bitirib, Samarqand kooperativ institutining “Savdo iqtisodi” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga kirgan va uni 1972 yilda imtiyozli diplom bilan tugatgan va shu yili Moskva kooperativ institutining pedagogika fakultetiga yo‘llanma bilan o‘qishga yuborilgan va uni 1974 yili muvaffaqiyatli tugatib, Farg‘ona kooperativ texnikumida “Savdo iqtisodi” mutaxassisligi bo‘yicha o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. 1972-1973 yy. Sovet Armiyasi safida xizmat qilgan.



1976 yildan Farg‘ona politexnika institutida assistent lavozimida ishlagan, 1976-1979 yillar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining iqtisod institutida aspiranturada o‘qigan va 1982 yili iqtisod fanlari nomzodi, 2004 yili “Marketing” mutaxassisligi bo‘yicha “O‘zbekiston dehqon bozorida marketing faoliyati rivojlanishining istiqbollari” mavzusida iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish bo‘yicha dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

I. Ivatov 1980 yildan 1990 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi iqtisodiyot institutida katta laborant, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, yetakchi ilmiy xodim, bo‘lim mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish kengashi (SOPS)da ham qisqa muddat ishlagan.

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti (1991 yilgacha Toshkent xalq, xo‘jaligi instituti)da 1990 yildan boshlab, “Savdo iqtisodiyoti” kafedrasida dotsent, tijorat fakultetida dekan muovini va “Savdo menejmenti” kafedrasida dotsent va 1997 yilning avgustidan hozirga 2015 yilga qadar

universitetning “Iqtisodiy bilimlarni tarqatish markazi”ga rahbarlik qilib keldi. I.Ivatov 200 dan ortiq ilmiy, ilmiy — uslubiy ishlar muallifidir. Uning ilmiy rahbarligida 10 nafar fan nomzodi va 2 nafar fan doktori tayyorlandi. Yana ko‘plab shogirdlarga ustozlik qilmoqda. 1997 yil Buyuk Britaniyaning London, Nottingem shaharlarida marketing-menejment ixtisosligi bo‘yicha malakasini oshirgan.



U bir nechta xalqaro loyihalarda ishtirok etgan va uning faol ishtirokchisi sifatida xorij mamlakatlarida malaka oshirgan. Chunonchi, 1995 y. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Jahon bankining Iqtisodiy rivojlanish instituti tomonidan amalga oshirilgan “Ijtimoiy siyosat, dastur, loyiha” kurslarida ishtirok etib, Moskva, Vashington, Nyu-York shaharlarida ko‘plab seminarlar ishtirokchisi bo‘lgan. Shuningdek, bu seminarlar Olma-ota, Samarqand va Toshkent shaharlarida ham o‘tkazilgan va ular I.Ivatovning bevosita rahbarligida amalga oshirilgan.

Ivatov Irisbek, TDIU o‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatida har doim faol ishtirok etib, professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqa kitobxonlarga iqtisodiy bilimlarni tarqatish, uslubiy ko‘rsatmalar berish borasida katta ishlarni amalga oshirib, respublikadagi iqtisodchi olimlar salohiyatini yanada

oshirishda o‘zining amaliy yordamini bermoqda. Shu bilan bir vaqtda uning tashabbusi va sa‘y-harakati tufayli 2000 yildan boshlab, TDIU muassisligida “Iqtisodiyot va ta‘lim” ilmiy jurnali chop etilmoqda va Ivatov Irisbek uning jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi bosh muharriri, hamda 2007 yildan buyon “Iqtisodiyot” nashriyoti direktori lavozimida faoliyat olib bordi.

2018-2023 yillarda u TDIU Sirtqi bo‘limning “Iqtisodiyot” kafedrasida professor lavozimida o‘z faoliyatini davom ettirib, 2023 yildan “Turizm” kafedrasida professor lavozimida ishlab kelmoqda. Shu bilan bir vaqtda “Iqtisodiyot dunyosi” nashriyoti direktori va jamoatchilik asosida “Iqtisodiyotda innovatsion rivojlanish” ilmiy jurnalining bosh muharriri vazifasini bajarib kelmoqda. Mehnat faoliyati davomida u universitet professor-o‘qituvchilari va talabalar hamda qo‘l ostidagi xodimlar orasida katta e‘tibor qozongani hurmatga loyiqdir.





IZZATULLAYEV ZUVAYDULLO
Biologiya fanlari doktori, professor

Hazrati Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham ustozlarning olijanob mehnati haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir yosh avlodni o'z farzandidek ardoqlab, tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan ustozlar tom ma'noda fidoiy kasb egalari.

Ustozimiz, biologiya fanlari doktori, professor Zuvaydullo Izzatullayev umrini ilmfan va ta'limning rivoji uchun bag'ishlab kelayotgan olijanob, mehnatkash hamda kamtarin insondir.

Professor Zuvaydullo Izzatullayev 1943-yilda Samarqand viloyatining Oqdaryo tumani Dahbed qo'rg'onida tavallud topdi. 1949-1959 yillarda o'rta maktabni kumush medali bilan tugatib, mehnat faoliyatini "Dahbed" davlat jamoa xo'jaligi ishchisi sifatida boshladi. 1960-yili Tojikiston Davlat universitetining Tabiatshunoslik fakultetining biologiya bo'limiga o'qishga kirib, uni 1965-yilda bitirdi. 1965-1966 yillarda Armiya safida

fuqarolik burchini o'tadi. 1967-yilda Tojikiston FA Zoologiya va parazitologiya institutiga "Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi" fani bo'yicha aspiranturaga kirib, o'qishni Rossiya FA Zoologiya institutida (Sankt-Peterburg shahrida) davom ettirdi.

Z.Izzatullayev 1970-yili mazkur institutning ilmiy kengashida "Zoologiya" ixtisosligidan nomzodlik ("Tojikistonning Hisor tizma tog'lari va yondosh rayonlarning quruqlik mollyuskalari"), 1988-yilda ("O'rta Osiyo va unga yondosh regionlarning suvda yashovchi mollyuskalari") mavzularida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan.

U O'rta Osiyo suv mollyuskalarining hozirgi davri va tarixiy rivojlanishi hamda ularning ekologo-zoogeografik va ekologo-sistematik komplekslarini o'rganish natijasida birinchi bo'lib, ushbu mintaqa suv havzalarining ekologo-zoogeografik rayonlashtirishning mutlaqo yangi shartli tasvirlarini ishlab chiqdi. Bu nafaqat Markaziy Osiyo suvlarida hayot kechirayotgan

umurtqasiz hayvonlar faunasinigina emas, balki butun Palearktikada ularning shakllanish yo'llarini ko'rib chiqishga ijobiy ta'sir etdi.



Sharof Rashidov nomidagi SamDUda bo'lib o'tgan "Oziq-ovqat xavfsizligi: Global va milliy muammolar" mavzusida xalqaro konferensiya (Samarqand, 2022)

Olim birinchi bo'lib, O'rta Osiyo mollyuskalarining sanitar vazifasini o'tashini ilmiy asoslab berdi. U malakologiya fanini mollyuskalarning 100 dan ortiq yangi turlari, avlodlari va kenja oilalari bilan boyitdi. Uning hamkasblari bu sohadagi xizmatlarini hisobga olib, mollyuskalarning 10 ga yaqin yangi turlari Z.Izzatullayev nomi bilan atalgan va 1991-yilda uni MDH malakologlari Uyushmasining Prezidiumi a'zosi etib saylangan.

Professor Z.Izzatullayevning ilmiy faoliyati qishloq xo'jaligi bilan ham bog'liq va bu borada o'simliklarni himoya qilish veterinariya sohalari hodimlariga zararli mollyuskalarga qarshi kurash borasida yaqindan yordam berib kelmoqda. U zararli mollyuskalarga qarshi uslubiy qo'llanmalar, ilmiy va ilmiy-ommabop risolalar, plakatlarni chop etgan hamda ko'p yillik (1967-2012) izlanishlari natijasida "O'rta Osiyo va yondosh regionlarning toza suvlarida yashovchi mollyuskalari" mavzusida 2 jildli 40 bosma taboqdan iborat fundamental monografiyani chop etishga tayyorlagan. Uning ilmiy ishlari natijalari mollyuskalar bo'yicha fundamental kitoblarga: Sobiq Ittifoq faunalari (1978, 1980, 1984), O'zbekiston va Tojikistonning qobusnomalari (1973, 1983, 1984, 1989, 1991, 2002), sobiq Ittifoq (1974), O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari "Qizil kitoblari" (1988, 1997, 2003, 2006, 2009), o'rta maktablar o'quv — qo'llanmalari (1981, 1989, 1990) ga kiritilgan.

Olim tomonidan 700 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy va ilmiy — ommabop maqolalar

chop etilgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat qo'shni mustaqil mamlakatlar markaziy ilmiy to'plamlari va jurnallarida, shuningdek chet ellar (AQSh, Vengriya) jurnallari va Xalqaro malakologlar Kongressi to'plamlarida ham bosmadan chiqqan. Bugungi kunda u nafaqat, sobiq Ittifoqning mustaqil mamlakatlari, balki AQSh, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Hindiston, Xitoy, Polsha, Yangi Zelandiya, Saudiya Arabistoni kabi (40 dan ortiq) xorijiy davlatlar olimlari bilan ilmiy hamkorlik qiladi.



Professor A.Pazilov va uning shogirtlari olimning 80 yoshi bilan muborakbot etmoqda (Samarqand, 2023)

U ilmiy ishlari yuzasidan 1983-yil Vengriya poytaxti Budapesht; 1986-yili Buyuk Britaniyaning Edmunton; 1989-yil Germaniyaning Tubingen; 1992-yil Italiyaning Siena; 1995-yil Ispaniyaning Vigo; 2000-yil AQSh ning Nyu-York shaharlarida o'tkazilgan Xalqaro Malakologlar Kongresslariga taklif etilgan.

Professor Z.Izzatullayev ilmiy ma'ruzalari bilan YuNESKO ning "Buyuk Ipak yo'li" bo'yicha o'tkazilgan simpoziumida (Dushanbe, 1991), Sohibqiron Amur Temur tavalludining 660-yiliga bag'ishlangan, Markaziy Osiyo o'simlik va hayvonot dunyosidan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning ekologik asoslari, Biologiya va ekologiyaning hozirgi zamon muammolari, Biotexnologiyaning yutuqlari — insoniyatning kelgusi avlodi uchun (Samarqand 1996, 1997, 1999, 2001), Yadroviy fizikaning yangi muammolari, O'zbekistonning qishloq xo'jaligidagi ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvini rivojlantirish, Markaziy Osiyoda suv tanqisligini bartaraf etishda jamoatchilikning ishtiroki (2001, 2003), Yadro va radiatsion fizika (Olmata, 1999, 2002) Oziq — ovqat xavfsizligi: milliy va global

muammolar (Samarqand, 2022, 2023), International Conference on Conservation of Eurasian Biodiversity. ICEB. Andijon – 2023 kabi xalqaro anjumanlarda qatnashib, fanimiz yutuqlarini targ‘ibot etgan.

1992-1993 yillarda zoologiya sohasidagi eng yaxshi ilmiy ishlari uchun e‘lon qilingan AQShning Djon Soros nomidagi Xalqaro ilmiy fondi diplomi va mukofotini olishga sazovor bo‘lgan. U 1992-yildan boshlab, SamDU da umurtqasizlar zoologiyasi, malakologiya asoslari, tabiatni muhofaza qilish, tabiat asoslari, biogeografiya, gidrobiologiya, ekologiya kabi fanlardan talabalarga saboq berib, 1997-yildan to 5 yanvar 2012-yilgacha universitetning Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish kafedrasining mudiri vazifasida faoliyat ko‘rsatib keldi.

Zuvaydullo Izzatullayev pedagogik va ilmiy faoliyatida yosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat beradi. Jumladan, 6 ta fan nomzodi (PhD) va 2 ta fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olishda rahbarlik qildi. Shuningdek, 50 ga yaqin dissertantlarga rasmiy opponent sifatida taqrizlar berdi. U ayni vaqtda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Andijon va Guliston davlat universitetlarining doktorant va izlanuvchilariga hamda Qarshi davlat universiteti magistrantlarining dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.



Professor Z. Izzatullayev shogirtlari bilan (Samarqand, 2024)

Professor Z. Izzatullayev universitet va biologiya fakulteti jamoat ishlarida faol qatnashadi. Hozirgi kunda olim Samarqand davlat universiteti huzuridagi biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash tarkibida rais o‘rinbosari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Olim universitet jamoasi va talabalari orasida chuqur e‘tibor qozongan zukko, kamtarin, odamoxun va fidoyi ziyolilardan hisoblanadi. U “Mehnat faxriysi“ medali bilan taqdirlangan.



Kafedra mudiri professor E. Qobilov va Z. Izzatullayevning shogirdlari S. Suyarov va D. Olimovalar (Samarqand, 2023)

Rossiya tabiiy fanlari akademiyasi tomonidan “Iskandar Zulqaynar” ordeni, akad. N. I. Vavilov medali bilan taqdirlangan. U Turon fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi va Rossiya Tabiiy fanlari akademiyasining “Xizmat ko‘rsatgan fan va texnika” arbobi faxriy unvoni va O‘zbekiston Respublikasi-ning 30-yilligi munosabati bilan esdalik “Ko‘krak nishoni” sovrindoridir.



Olimni kafedra jamoasi Rossiya Tabiiy fanlari akademiyasi tomonidan berilgan Iskandar Zulqaynar ordeni munosabati bilan qutlamoqdalar (Samarqand, 2021)

Hozirgi kunda Ustoz boshchiligida O‘zbekistonda deyarli o‘rganilmagan yo‘nalish – girudologiya bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2023-2026 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston zuluklari (Hirudinea): turlar tarkibi, bioekologik xususiyatlari, suv tiplarida tarqalishi, xo‘jalikdagi ahamiyatini o‘rganish va noyob turlarni muhofaza qilish choralari ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida izlanishlar olib borilmoqda.



JO‘RAYEV OLIMJON
Filologiya fanlari doktori, professor

Olimjon Jo‘rayev 1939 yil 17 aprelda Samarqand viloyati G‘allaorol tumani (hozirgi Jizzax viloyati Baxmal tumani) Barlos qishlog‘ida ziyoli oilada tavallud topgan.



1948-1953-yillarda Baxmal tumani Alisher Navoiy nomidagi 32-o‘rta maktabda, 1953-1958-yillarda Toshkent viloyati Boyovut tumani A. Matrosov nomidagi 19-o‘rta maktabda o‘qidi.

1960-1963-yillarda Toshkent madaniy-oqartuv texnikumida o‘qigan.

1963-1968 yili Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti

o‘zbek filologiyasi fakultetini “Imtiyozli diplom” bilan tugatgan.

1968-1974 yillarda Samarqand Davlat pedagogika institutida turli lavozimlarda ishlagan. 1974 yili ishlab chiqarishdan ajralmagan holda Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti laureati, professor Hamid Sulaymon rahbarligida “O‘zbek klassik adabiyotida falsafiy-ta’limiy dostonchilik va uning taraqqiyotida Alisher Navoiyning roli va o‘rni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1974-yil 1 sentyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining buyrug‘i bilan yangi tashkil etilgan Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida dekan o‘rinbosari.

1976-1981-Jizzax davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim uslubiyati” kafedrasini mudiri.

1981-1983 O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani.

1983-Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti.

1983-85-Jizzax davlat pedagogika instituti sirtqi bo‘lim prorektori.

1985-1988-Jizzax davlat pedagogika instituti boshlang‘ich partiya komiteti raisi.

1988-91-Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti.

1992-Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasida professori.

1993-“Ziyokor” ko‘p nusxali institut gazetasi tashkilotchisi.

1993-2005-Institut “Ziyo chashmasi” (Ziyokor) gazetasi bosh muharriri.



2005 — Jizzax davlat pedagogika instituti o‘zbek adabiyoti kafedrasida professori.

Olimjon Jo‘rayev o‘quv-tarbiyaviy ishlar bilan birga o‘zbek adabiyotiga oid turli dolzarb masalalar bo‘yicha risola, monografiya, maqolalar chop ettirgan. Uning 300 ga yaqin publitsistik va ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari “Sharq yulduzi”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Guliston”, “Fan va turmush”, “Sirli olam”, “Adabiyot ko‘zgusi”, “Adabiy meros”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Ma’rifat”, “Qalb ko‘zi”, “Sohibqiron yulduzi”, “Ishonch”, “Zarafshon”, “Xorazm haqiqati”, “Jizzax ovozi” singari gazeta va jurnallarda hamda “O‘zbek adabiyoti masalalari”, “O‘zbek adabiyoti bo‘stoni”, “Asrlar nidosi”, “Muborak maktublar” va boshqa to‘plamlarda dunyo yuzini ko‘rgan.

“Haydar Xorazmiy”, “Qiymati o‘ksurmu necha sinsa siym?”, “Qalb darchasin qoqayotgan o‘ylar”, “Asrlarni dog‘da qoldirgan qissalar”, “Navro‘z dillar va fasllar tarovatini ochuvchi fasl”, “Sirlar gulshani”, “Andalib-

Turonzamin yoxud turkiy xalqlar bulbuli”, “Baxodirlik va adalotni kuylovchi qissalar” singari o‘nlab dolzarb mavzuga bag‘ishlangan maqolalari respublikamiz olimlari tomonidan qizg‘in kutib olingan.



Olimjon Jo‘rayev mumtoz adabiyotimizning jonkuyar-fidoysi. Uning o‘tmish adabiyotimizning o‘ta muhim mavzulariga bag‘ishlangan. “O‘zbek klassik adabiyotida falsafiy-didaktik dostonchilik tarixidan” (1974), “O‘zbek klassik adabiyotida falsafiy-didaktik dostonchilik” (1985), “Majoziy-didaktik talqinlar”(1989), “Alisher Navoiyning epik poeziyadagi turkigo‘y salafi” (1990), “Ma’nisiga yetganlar yerga qo‘yar burkini”, “Amir Temur tuzuklarida “Qur‘on oyatlari va insoniy qadriyatlar”(1997) singari qator risola va monografiyalari mazkur janrga oid masalalarni o‘rganishda nazariy asos bo‘lgan.



Shuningdek, “Qadimgi Afandi latifalari” (1993), “Qissai Zufunun”, “Qissai Zarqum” (1993), “Qisasi Rabg‘uziy” (Rabg‘uziy) “Donishmand Malika va uning ming bir savoli”, Gulshan ul asror” (Haydar Xorazmiy), “Zayn ul -A‘rab”(1993), “Bobo Ravshan” (Andalib) (1993), “Ahtamnoma” (Sayqaliy) kabi 20 dan ortiq qadimiy

qo'lyozmalar ham O.Jo'rayevning tinimsiz izlanishlari va mehnati tufayli xalq ma'naviy mulkiga aylandi.

O.Jo'rayev sinchkov va nozikta'b murabbiy edi. U yosh-iqtidorli qalamkashlar: Abulqosim Muhammad Rasul, Abdulla Qo'shboq, Xo'jabek Tursun, Abduxalil Sattor o'g'li, Zulfiya Bo'riyeva, Sayid Azim Ravshan, Zuxra Mamadaliyeva, Norbo'ta Shodiyorov, Oydin Donisheva, Olimjon Ochilov va boshqa o'nlab yosh ijodkorlarning to'plamlariga "oq yo'l" tilab, so'z boshi yozgan. Muharrir va adabiyotshunos olim sifatida Zebiniso Lapasova, Gulnoza Qodirova, Sanobar Qayumova, Omonulla Boyjigitov, Nigora Alishboyeva, Shoira Qozoqova, Narzulla Qashamov, Xolniso Rahmonqulova, Gulsara Qoraboyeva, Shohida Mamayusufova, Muhayyo Rashidova, Manzura Jo'rayeva, Orif Rajab, Ziyodulla Ostonoqulov, Rustam Borot, Nurali Odil singari yosh ijodkorlarni kashf etdi.



O.Jo'rayev O'zbekiston Respublikasi Journalistlar uyushmasi a'zosi o'laroq ham bir

qator ishlarni amalga oshirgan. Ayniqsa, institutda "Ziyo chashmasi" gazetasini tashkil etish, talabalar orasida keng yoyish hamda ta'lim tarbiyaning muhim masalalarini ko'tarib chiqishda jonbozlik ko'rsatgan.



Olimjon Jo'rayev ozarbayjon, turkman, qozoq, qoraqalpoq, tojik va boshqa xalqlar adabiyoti vakillari ijodidan qissa, hikoya, doston va she'rlar tarjima qilgan.

Ustozning uzoq yillik mehnatlari hukumatimiz tomonidan "Respublika Xalq ta'limi a'lochisi" (1980), "Mehnat faxriysi" medali (1991), "Do'stlik" ordeni (1995), Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti (1996) kabi mukofot, orden va medallar bilan taqdirlangan.





JO'RAYEV TOSHBOLTA TO'XTAYEVICH

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshbolta To'xtayevich Jo'rayev iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Oliy ta'lim a'lochisi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Toshbolta To'xtayevich katta hayot yo'lini bosib o'tib, O'zbekistonda ilmiy maktab yaratgan, taniqli iqtisodchi olim va ko'plab shogirdlarning ustози, mahoratli pedagog, katta nufuzli ilmiy jamoa rahbari darajasiga erishdi.



Jo'rayev Toshbolta To'xtayevich 1956 yil 10 mayda Jizzax viloyati Baxmal tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. 1973-1977 yillarda Toshkent Xalq xo'jaligi institutining "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" fakultetida tahsil olgan.

T.T.Jo'rayev 1977-1983 yillarda Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi turli davlat qurilish va qishloq xo'jalik korxonalarida hisobchi, katta hisobchi, bosh iqtisodchi lavozimlarida ishlagan.

1983-1987 yillar Toshkent Xalq xo'jaligi instituti Jizzax shahridagi filialida ishlash uchun assistent lavozimiga saylangan.

1987-1989 yillarda Toshkent Xalq xo'jaligi institutining "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" kafedrasida aspiranturada o'qigan.

1989-1991 yillarda Toshkent Xalq xo'jaligi institutining "Siyosiy iqtisod" kafedrasida assistenti, 1991-1992 yillarda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti "Siyosiy iqtisod" kafedrasida katta o'qituvchisi, 1992-1994 yillarda mazkur kafedra dotsenti, lavozimlarida faoliyat yuritgan.

1994-1996 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida doktoranturani tugatgan.

1996-2000 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritgan.

2000-2017 yillar mobaynida Toshkent Moliya instituti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat olib

borgan.



Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich 2017 yildan Toshkent Moliya instituti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida professori, hozirgi kunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.



U 1990 yilda “Qishloq xo‘jalik maqsadlaridagi asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini hamda 2007 yilda “Iqtisodiy resurslar doiraviy aylanish jarayonining nazariy asoslari va samaradorligini oshirish omillari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan va 2009 yilda professor ilmiy unvonini olgan.

Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha iqtidorli olim, Respublika va xalqaro miqyosida juda ko‘plab ilmiy maqolalar, monografiyalar, uslubiy qo‘llanma va darsliklar chop ettirgan. T.T.Jo‘rayev 5 ta darslik, 10 ta o‘quv qo‘llanma, 50 dan ortiq o‘quv-uslubiy

qo‘llanma, 5 monografiya, 7 ta ilmiy risola, 300 dan ortiq ilmiy maqola, ma‘ruza tezislari muallifi hisoblanadi. U iqtisodiyot nazariyasining zamonaviy muammolarini, shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish fondlari, iqtisodiy-tabiiy va mehnat resurslaridan unumli, samarali foydalanish masalalarini chuqur tadqiq etgan. Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lgan iqtisodiy resurslardan tejamkorlik asosida oqilona foydalanishning nazariy jihatlari va ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlarini e‘lon qilgan. T.T.Jo‘rayev talabalar uchun “Iqtisodiyot nazariyasi” va boshqa iqtisodiy fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanma va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar muallifidir. Uning D.Tojiboyeva bilan birgalikda nashr ettirgan “Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar)” mavzusidagi o‘quv qo‘llanmasi 2013 yilda ijtimoiy-gumanitar fanlari bo‘yicha eng yaxshi darslik va o‘quv qo‘llanmalari nominatsiyasi bo‘yicha respublika tanlovida faxrli ikkinchi o‘ringa sazovor bo‘ldi. T.T.Jo‘rayev oliy malakali iqtisodchi kadrlar tayyorlash, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan o‘quv adabiyotlar yaratish borasidagi xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining “Oliy ta‘lim a‘lochisi” nishoni bilan taqdirlangan.



So‘nggi yillarda T.Jo‘rayev she‘riyatning muvashshax yo‘nalishida qalam tebratmoqda. Ushbu badiiy ijod natijasi sifatida 4 ta she‘riy va 5 ta nasriy kitob chop etilgan. Ular qatorida “Yaxshilarga qalbim tilaklari”,

“Yaqinlarimga dil izhorlarim”, “Tabriklar, qutlovlar va muvashshax bag‘ishlovlar”, “Otam-davlatim, onam-jannatim”, “Ibratli hayot va sermazmun umr daftari”, “Hayotimdagi ilohiy lahzalar”, “Shajaramiz tafsiloti”, “Futbolga og‘ushtva hayot” ka‘bilar nashr etilgan. Shuningdek, hammualliflikda “Iqtisodchi olimlar” nomli O‘zbekiston iqtisodchi olimlarining avtobiografik to‘plami chop etilgan. T.T.Jo‘rayev 2023 yildan buyon O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi.



Toshbolta To‘xtayevich Toshkent moliya institutining xalqaro aloqalarini o‘rnatishga ham munosib hissa qo‘shib kelgan. Bevosita uning tashabbusi bilan M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti, Moskva ijtimoiy iqtisodiy instituti hamda Sankt-Peterburg iqtisodiyot va moliya universiteti bilan hamkorlik shartnomalari o‘rnatilib, bir necha bor ular bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilingan. U xo‘jalik shartnomalari va davlat granti doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida ham faol ishtirok etib keladi. Uning rahbarligida 5 ta davlat granti loyihasi doirasida tadqiqot ishlari

amalga oshirilgan va ko‘plab xo‘jalik shartnomalari bajarilgan.

Shuningdek, T.T.Jo‘rayev rahbarligida 7 nafar fan nomzodi tayyorlangan bo‘lsa

hozirgi kunda qator ilmiy-tadqiqotchi izlanuvchi va mustaqil tadqiqotchilar doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishini olib bormoqda.

Toshbolta To‘xtayevich 1997-2012 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida (hozirgi Davlat boshqaruvi akademiyasi)da o‘rindoshlik asosida ishlab respublikaga rahbar xodimlarni tayyorlash ishiga ham munosib hissa qo‘shgan.

Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich iqtisodiyot nazariyasi fanini rivojlantirish va yangi pedagogik texnologiya asosida o‘qitish bo‘yicha bir qancha ishlarni amalga oshirib kelmoqda. U 2010-2012 yillarda Toshkent moliya instituti huzuridagi, 2013-2016 yillar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va 2017 yildan buyon O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashgan kengash va uning qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. U “Moliyachi” ilmiy jurnali tahririyat kengashi a‘zosi sifatida ham muayyan ishlarni bajarib keladi.

Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich namunali oila boshlig‘i, u rafiqasi Qurbonoy ona bilan 3 nafar farzand va 9 nafar nabilarni tarbiyalab kelmoqda. Rafiqasi Qurbonoy ona uzoq yillar davomida sog‘liqni saqlash tizimida ishlab, sog‘lom avlodni tarbiyalash ishiga munosib hissa qo‘shib keladi.



KADIROVA MUNIRA RASULOVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

Kadirova Munira Rasulovna 1984-yilda Farg‘ona viloyati Quvasoy shahrida tug‘ilgan. 2009-yildan Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg‘ona filiali o‘qituvchisi, 2014-yildan Toshkent tibbiyot akademiyasi Farg‘ona filiali “Tillar va ta’lim texnologiyalari” kafedrasini mudiri hamda 2021-yildan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlagan. 2022-yildan boshlab, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor lavozimida ishlab kelmoqda.

2018-yilda PhD dissertatsiyasini himoya qildi. 2019-yilda dotsent ilmiy unvonini olgan. 2022-yilning aprel oyida “Tibbiy ta’lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o‘qitish misolida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2023-yilda professor ilmiy unvoniga ega bo‘ldi. Uning tadqiqot ishlari yuzasidan olib borgan tadqiqot natijalari Respublikamiz va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tatbiq qilinmoqda.

Kadirova Munira Rasulovna tomonidan 70 dan ortiq ilmiy materiallar va 4 ta monografiya, 5 ta darslik, 6 ta o‘quv qo‘llanma chop ettirgan. Shundan 50 dan ortiq ilmiy maqolalari xorijiy va 4 ta scopus bazasidagi jurnallarda, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari va respublikamizning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan. Shu bilan birga Intellektual mulk agentligi tomonidan 5 ta dasturiy mahsulotga guvohnoma olingan. Xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy – amaliy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda. M.Kadirova Belorussiya davlati olimlari bilan hamkorlikda Tibbiy ta’lim talabalari uchun “Ta’lim texnologiyalari” fanidan darsligini chop etgan.



Kadirova Munira Rasulovna A-1-100 “Tibbiyot xodimlari uchun chet tili, axborot kommunikatsion va ta’lim texnologiyalari bo‘yicha uzluksiz malaka oshirish tizimini yaratish va uning samaradorligini oshirish” mavzusidagi 2015 – 2017 yillarga mo‘ljallangan amaliy loyihada ilmiy xodim va BYOA 1-012 “Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni chet tili bo‘yicha ekologik madaniyatini faollashtirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi 2017-2018-yillarga mo‘ljallangan yosh olimlar amaliy loyihasida rahbar sifatida ish olib borgan. Bugungi kunda M.Kadirova Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e’lon qilingan olimlar ayollar ilmiy loyihalari tanlovida qatnashib 2021 – 2022-yillar uchun mo‘ljallangan “Tibbiy ta’lim pedagoglari uchun “Tibbiyot pedagogikasi” elektron metodik portalini yaratish” nomli IZ-2020041512 amaliy loyihani qo‘lga kiritdi va amaliy loyiha rahbari sifatida Germaniyaning University of Applied Sciences ilmiy tadqiqot instituti bilan hamkorlikda ish olib borgan. 202-yilda o‘tkazilgan tanlovda shogirdi T.Kaxarova bilan “Talabalarga ingliz tilini o‘rgatishda interaktiv 3D adabiyotini yaratish” nomli Start up loyihasi g‘olibi.



Kadirova Munira Rasulovna “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” II Respublika tanlovida “Eng samarali innovatsion loyiha” nominatsiyasi g‘olibasi bo‘ldi va diplom bilan taqdirlandi.

Kadirova Munira Rasulovna 2019-yilning iyul – avgust oylarida Maksim Tank

nomidagi Belorussiya davlati pedagogika universitetida malaka oshirib keldi hamda 2020-yil mart oyida Istambuldagi Sulton Abdulxamid nomidagi Soglik Bilimlari Universitetida tibbiy ta’limga kredit – modul tizimini tatbiq etish bo‘yicha tajriba almashib keldi. 2021-yilning noyabr oyida Germaniyaning Akkon Hochschule für Humannwissenschaften institutida tibbiy ta’limda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha tajriba almashib o‘zining ilmiy tadqiqot ishini amaliyotga joriy etib keldi.



2022-yilda TOR – 1000 talik universitetlarida ham tajriba almashib ma’ruzalar o‘qigan jumladan Qozog‘istonning Al – Farobiy nomidagi universitetida, Turkiyaning Izmir shahridagi Ege universitetida, Birlashgan Arab amirligidagi Gulf tibbiyot universitetlarida tajriba almashib kelgan.



Kadirova Munira Rasulovna Oliy Majlis Senatining Xotin – qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan “Yetakchi ayollar muloqoti platformasi” ning Ilm – fan yo‘nalishidagi mas’uli sifatida viloyatdagi ilmiy

tadqiqotchilarga amaliy yordam berib kelmoqda. Shuningdek Farg‘ona viloyatidagi Oqila ayollar harakati a‘zosi.

Kadirova Munira Rasulovna Namangan davlat universiteti qoshidagi Ped.03/04.06.2020. Ped.76.02 raqamli ilmiy kengash a‘zosi, Farg‘ona davlat universiteti qoshidagi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli ilmiy kengash a‘zosi, Qo‘qon davlat pedagogika instituti huzuridagi Ped.03/29.12.2022 ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi sifatida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengash qoshida tibbiy pedagogikaga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlarini muhokamalarida o‘tkazishda hamda amaliyotga tatbiq etishda faol ishtirok etmoqda.



Kadirova Munira Rasulovna faoliyati davomida 2016-yilda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan “Eng faol kafedra mudiri” sifatida taqdirlangan shuningdek Sog‘liqni saqlash vazirligi, Viloyat va shahar hokimliklari tomonidan ham taqdirlangan. 2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 30 yilligi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



M.Kadirova prorektor sifatida institut professor – o‘qituvchilarni ilmiy izlanishidagi faoliyatiga alohida e‘tibor qaratib, yosh pedagoglarning ilmiy — tadqiqot ishlariga amaliy yordam bermoqda hamda biriktirilgan maktablarda ham o‘quvchilarni oliy ta‘limga yo‘naltirish bo‘yicha samarali ishlarni amalga oshirmoqda va institutda xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘ygan xorijiy davlatlardan professor – o‘qituvchilarini ma‘ruzalarga jalb etishda bir necha samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek fan olimpiada g‘oliblarini, nomdor stipendiantlarni, davlat mukofotiga nomzodlarni tayyorlashda ham qator samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bugungi kunga qadar Kadirova Munira Rasulovna rahbarligida 2 nafar falsafa doktori, 3 nafar fan doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi.



Kadirova Munira Rasulovna oilali 3 nafar farzandning onasi.



KARIMOVA VASILA MAMANSIROVNA
Psixologiya fanlari doktori, professor

Karimova Vasila Mamanosirovna 1955 yil 18 avgustda Farg'ona viloyatida xizmatchi oilasida tug'ilgan, ma'lumoti oliy, Moskva davlat universitetining psixologiya fakultetini 1977 yilda tamomlagan, 1988 yilda psixologiya fanlari nomzodi, 1994 yilda – psixologiya fanlari doktori ilmiy darajasini, 2000 yilda professor unvonini olgan.



V.Karimova psixologiya fanlari doktori, professor sifatida O'zbekistonda psixologiya sohasida oliy malakali kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda; 40 dan ziyod shogirdlari bor, psixologiya bo'yicha besh nafar fan doktori, 28 nafar fan

nomzodi bo'lgan shogirdlari ilmiy daraja beruvchi diplom sohiblaridir;

400 dan ziyod monografiya, darslik, o'quv qo'llanma, risola, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifi; nopedagogik hamda nopsixologik yo'nalishda ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlarining talabalariga mo'ljallab yozilgan "Psixologiya" nomli o'quv qo'llanmasi bir necha yillar mobaynida "Yilning eng yaxshi kitobi" tanlovi g'olibi (2001 va 2002 y.y.) bo'lgan, u barcha oliy o'quv yurtlarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilib kelinmoqda. 2012 yilda chop etilgan "Ijtimoiy psixologiya" nomli darsligi barcha oliy o'quv yurtlari magistrarlari uchun mo'ljallab yozilgan yagona darslik hisoblanadi. Muallifning qator ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari "Xalq so'zi", "Ma'rifat" kabi yetakchi gazetalarda "Yilning eng yaxshi maqolasi" tanlovlarining bir necha marotaba g'olibi bo'lgan (2005, 2008, 2012).

O'tgan yillar mobaynida V.Karimova tomonidan jami 49 nomli o'quv qo'llanmalar, 5 ta monografiya, 2 ta darslik, 42 ta Xalqaro va

Respublikaning nufuzli ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy maqolalar chop etilgan, Xalqaro va respublika ilmiy-amaliy grantlarining rahbari va ishtirokchisi sifatida o'zi va shogirdlari bilan ilmiy izlanishlar olib borgan, 20 dan ziyod fundamental, amaliy, innovatsion, Xalqaro ilmiy tadqiqot loyiha-grantlarning rahbari va ijrochisi bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 7 iyun qaroriga ko'ra tuzilgan "Milliy istiqloq g'oyasi konsepsiyasi"ni tayyorlovchi ishchi guruh a'zosi sifatida ilmiy jurnallar hamda Respublika matbuotida 100 dan ortiq maqolalar chop ettirgan va "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobining mualliflaridan biri hisoblanadi. "O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalar qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi komissiyasi" ishchi guruhi a'zosi (Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 may qarori) sifatida ko'plab yangi avlod darslik va qo'llanmalarining muallifi va taqrizchisi sifatida tanilgan.



Professor V. Karimova ilmiy-pedagogik faoliyatini jamoatchi-tashkilotchilik bilan uyg'unlashtirilgan: 1994 yilda "FarDU xabarlari", 2004 yilda "Oila" ilmiy-ma'rifiy, ijtimoiy psixologik, rangli-bezakli jurnalning asoschilaridan, "Oila" jurnalining bosh muharriri bo'lib ishlagan. V. Karimova o'tgan yillar mobaynida Respublikaning ko'zga ko'ringan jamoatchi faoli sifatida 30 ga yaqin jamoat tashkilotlari

va jamg'armalarning ta'asischi – a'zosi sifatida yoshlar, xotin-qizlar, mahalla faollari o'rtasida katta faollik ko'rsatgan; milliy mafkura, oila psixologiyasi, sog'lom turmush tarzini targ'ib etuvchi 50 dan ziyod maqola va ko'rsatuvlar muallifi, ishtirokchisidir.

V.M. Karimova 1994 yildan buyon psixologiya bo'yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarning a'zosi, rais o'rinbosari, raisi sifatida mamlakatimizda yuqori malakali psixolog kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shib kelmoqda: turli yillarda O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Qozog'iston Milliy universiteti qoshidagi Ixtisoslashgan Kengashlarda rais (2007 yil O'zMU. 2022 yil TDPU), rais o'rinbosari (1998 — 2007) va a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

1991 yilda Farg'ona davlat universitetida ochilgan birinchi psixologiya va amaliy sotsiologiya fakultetining asoschisi va professori vazifasini bajarib keldi, 1998 yilda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida ilk marotaba ochilgan Ijtimoiy psixologiya kafedrasini va aspiranturaning asoschisi va professori bo'lib faoliyat yuritgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra 2000 – 2011 yillarda Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining direktori sifatida tanildi va markaz qoshidagi Ilmiy-uslubiy kengashning raisi sifatida oilashunos kadrlar tayyorlash, aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini sifat jihatdan yuqoriga ko'tarishga hissa qo'shgan olim-rahbardir. V.M. Karimova oilali, ikki farzandning onasi, to'rt nabiraning buvisi. Hozirda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Amaliy psixologiya" kafedrasini (0,5 stavka) hamda FarDU "Psixologiya" kafedrasini professori (0,5) sifatida ishlab kelmoqda. U Xalqaro Psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi hamda "Oliy ta'lim a'lochisi, bir nechta ko'krak nishonlari sovrindori hisoblanadi.



KAYIMOV ABDIXALIL

Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Qayimov Abdixalil qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor, O'rmonchilik sohasi va fanining yetakchi olimi, uning ilmiy asarlari nafaqat O'zbekiston miqyosida, balki hamdo'stlik va uzoq xorijiy davlatlarda ham ma'lumdir. A.Qayimov – oliyjanob inson, taniqli olim, ilm-fan tashkilotchisi, yuksak martabali pedagog, ustoz va murabbiy.



Qayimov Abdixalil 1947 yilning 10 yanvarida Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani,

Oftobro'ya qishlog'ida tavallud topgan. 1969 yilda Toshkent qishloq xo'jaligi institutini (hozirda Toshkent davlat agrar universitetini) O'rmon xo'jaligi muhandisi ixtisosligi bo'yicha bitirib, Yakkabog' o'rmon xo'jaligida o'rmonchi muhandis bo'lib ishlagan. 1969-1972 yillari O'rta Osiyo O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti aspiranturasida tahsil oldi. 1973-1979 yillarda shu institutda kichik ilmiy xodim vazifasida ishladi. 1978-yili, qishloq xo'jaligi fanlari doktori A.I.Molchanovning ilmiy rahbarligida Rossiyaning Volgograd shahridagi Butunittifoq agroo'rmonmelioratsiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ixtisoslashgan kengashda "Sug'orish tizimlarida ixotazorlar barpo qilish uchun tuproqqa ishlov berish uslublari» (Способы подготовки почвы под ирригационные лесные насаждения)

mavzusi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1979-1985 yillarda O‘rta Osiyo O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot institutida katta ilmiy xodim, 1985-1990 yillarda shu institutning ilmiy ishlar bo‘yicha rahbar o‘rinbosari, 1990-2000 yillarda institut direktori, 2000-2004 yillari institut direktorining birinchi o‘rinbosari vazifalarida ishladi.



1995 yilda “Sug‘oriladigan yerlarda o‘rmon agrar landshaftining ekologik va meliorativ asoslari» («Экологические и мелиоративные основы лесоаграрного ландшафта орошаемых земель») mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ixtisoslashgan kengashda muvaffaqiyatli himoya qildi.



1996 yilda qishloq xo‘jaligi fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldi. 2002 yildan 2012 yilgacha Toshkent davlat agrar universiteti “O‘rmonchilik” kafedrasida lavozimida faoliyat ko‘rsatdi. Xozirgi paytda

“O‘rmonchilik va landshaft dizayn” kafedrasida professor lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

A.Qayimov tomonidan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan, bular o‘rmon ixotazorlarini barpo etish texnologiyasi, ularning meliorativ, ekologik, sanitar-gigiyenik, estetik va iqtisodiy ahamiyati kabi masalalarga bag‘ishlangan. Uning rahbarligida sug‘oriladigan yerlarda sun‘iy agrofitorosenozlarning tabiiy shakllanishi bo‘yicha yirik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi.



Ilmiy ishlar natijasida O‘zbekistonda agro o‘rmon meliorativ landshaftning oqilona tizimi ishlab chiqildi va tavsiya qilindi. Oxirgi O‘n besh yil davomida u mahalliy mevali O‘simliklar navlarini topish, saqlash va ko‘paytirish strategiyasi bo‘yicha xalqaro loyihalarda ishtirok etib, juda ko‘p amaliy yutuqlarga erishdi. O‘rmon va mevali O‘simliklar genetik resurslarini o‘rganib, ularni bioxilma-xilligini tadqiqot qilishda katta yutuqlarga erishdi.

Ilmiy-pedagogik faoliyati davrida olimning 300 ga yaqin ilmiy, O‘quv-uslubiy ishlari nashr etilgan: 7 ta monografiya, 4 ta risola, 7 ta darslik, 8 ta O‘quv qo‘llanma, 8 ta O‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 8 ta tavsiyanoma hamda mamlakatimizda va xorijda chop etilgan bir qancha ilmiy maqolalar shular jumlasidandir. Ishlab chiqilgan tavsiyalar mamlakatimizda ixotazorlar barpo qilishda va “O‘rmon loyiha”, “Giprozem” institutlari orqali loyihalash ishlarida katta maydonlarda tadbiq etilgan.



A.Qayimov rahbarligida 3 ta fan doktori (DSc) va 10 ta qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) tayyorlandi. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar va magistrlar ilmiy ishlariga rahbarlik qilmoqda. Respublika ilmiy-texnika davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalarda rahbar va ma’sul bajaruvchi sifatida samarali mehnat qilmoqda.



O‘zbekistonda va Markaziy Osiyo mintaqasida yuqori malakali mutaxassislarning shakllanishida katta hissa qo‘shmoqda. A.Qayimov tashabbuskorligi va rahbarligida kafedra bilan Qozog‘iston va Qirg‘iziston agrar universitetlari O‘rmonchilik kafedralari bilan, shuningdek, Xalqaro O‘simliklar genetik resurslari instituti (Italiya), Ukraina va Belorussiya O‘rmonchilik ilmiy tadqiqot institutlari, Butun Rossiya

agroo‘rmonmelioratsiya ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtalarida ilmiy hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.



So‘ngi besh yil ichida 14 ta xalqaro va 12 ta respublika miqyosidagi O‘tkazilgan simpozium va konferensiyalarda, shu jumladan: Avstriya, Italiya, Iordaniya, Bolgariya, Xitoy, Hindiston, Nepal, Tailand, Polsha, Qozog‘iston, Rossiya, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina va Belorussiya davlatlarida ilmiy ma‘ruzalar bilan qatnashgan. A.Qayimov Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi dissertatsiya himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashgan kengashi a‘zosi, Markaziy Osiyoda O‘rmon genetik resurslarini saqlash ishchi guruhi rahbari sifatida faol ishtirok etadi.

2010-2014 yillar davomida Toshkent va Samarqand shaharlarida qishloq xo‘jaligi sohasida yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyalarini tashkil etgan hamda yoshlarning ushbu sohadagi ilmiy ishlarini rag‘batlantirish va qo‘llab quvvatlashga hissa qo‘shgan.

U o‘zining mehnatsevarligi, kamtarligi, izlanuvchanligi va yurtiga bo‘lgan mehri bilan jamoasi va shogirdlari oldida katta hurmat qozongan.



KURBANIYAZOVA ZAMIRA KALBAEVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

Kurbaniyazova Zamira Kalbayevna 1972-yil 1-mayda Kegeyli tumanida tug‘ilgan. 1989-yili T.G.Shevchenko nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetiga o‘qishga kirib, 1994-yili Ajiniyoz nomidagi Nukus pedagogika institutini muvaffaqiyatli tamomlagan. O‘zining mehnat faoliyatini Kegeyli tumanidagi 20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabida rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi sifatida ishlashdan boshlagan.



1995-yili J.Orinbayev nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali “Pedagogika” bo‘limida kichik ilmiy xodim sifatida, 1995-1998 yillarda esa Qori-Niyoziy nomidagi

O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining kunduzgi bo‘lim aspiranti sifatida ilmiy ish bilan shug‘ullangan. 1998-1999 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi “O‘rta va oliy pedagogik ta’lim” bo‘limi bosh metodisti, 2000-2009 yillarda esa “Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlar bo‘yicha innovatsion metodik” bo‘limi, so‘ngra “Ma’naviy va tarbiyaviy ishlar” bo‘limlarining boshlig‘i lavozimlarida, shu bilan bir qatorda Markazda tashkil etilgan “Pedagogika” bo‘yicha ilmiy kengashning ilmiy kotibi sifatida pedagogika institutlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun Davlat ta’lim standartlari, darsliklar va qo‘llanmalar tayyorlashda faollik ko‘rsatgan. 2002-yili “Tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qilgan.

Z.K.Kurbaniyazova 2009 yildan bugungi kunga qadar Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, dotsenti va kafedra mudiri sifatida faoliyat

yuritib, ta’limning sifatini oshirishga doir turli tashkilotlar bilan hamkorlik ishlarini yo’lga qo’ygan va jamoatchilik ishlarida ham faollik ko’rsatib kelgan.

Shuningdek, Z.K.Kurbaniyazova 2017 yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarixida ilk bor tashkil etilgan Nukus davlat pedagogika instituti, Qoraqalpog‘ davlat universiteti, Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.58.01 raqamli ilmiy kengash qoshidagi 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo’yicha ilmiy seminarining ilmiy kotibi sifatida, 2019 yildan Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.34.01 raqamli Ilmiy kengashning ilmiy kotibi sifatida hamda Respublikadagi pedagogika fani bo’yicha boshqa da ixtisoslashtirilgan ilmiy kengash va seminar a’zosi sifatida ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashda fidoyilik ko’rsatib kelmoqda.



Shuningdek u “Ilm hám jámiyet”, “Ilm-fan va texnologiyalar” va “Elektron pedagogika” jurnallarining tahririyat a’zosi vazifani ham bajarib kelgan. 2021 yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi ko’krak nishoni bilan taqdirlangan. 2022 yili esa “Aralash ta’lim sharoitda bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish” mavzusidagi doktorlik ishini himoya qilgan. Z.K.Kurbaniyazova “Ta’lim

sifati monitoringini olib borishda assessment texnologiyalari, “Joqari oqiw orinlari pedagog kadrlariniń kásiplik kompetentligi hám pedagogikalıq sheberligin jetilistiriw”, Pedagogikaga kirisiw”, “Oqıtıw teoriyası: Didaktika”, “Boshlang‘ich sinflarda ota-onalar bilan ishlash metodikasi”, “Методика преподавания родного языка: обучение грамоте. 1-часть”, “Tárbiya teoriyası” singari ko’plab o’quv qo’llanmalarning hamda “Pedagogika teoriyası”, “Pedagogik kompetentlik” va “Socialıq pedagogika” singari darsliklarning, shuningdek o’zbek, rus va ingliz tillarida yaratilgan “Pedagogik atamalar lug’ati”ning muallifi hisoblanadi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnik kengash a’zosi sifatida ham faollik ko’rsatib kelmoqda.



Z.K.Kurbaniyazovanning ilmiy rahbarligida ko’plab magistrantlar o’zlarining magistrlik dissertatsiya ishlarini himoya qilgan, bir qancha mustaqil izlanuvchi va tayanch doktorantlar o’zlarining ilmiy ishlarini olib bormoqda va pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo’lishgan. Pedagogika ixtisosligi bo’yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan dissertantlarning ilmiy ishlariga ilmiy opponentlik qilib, yurtimizda pedagogika ilmining rivojlanishiga va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashdi fidoyilik ko’rsatib kelgan.



KURBONOVA GULNOZ NEGMATOVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

1967- yil 29-avgustda Buxoro shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. U 1984-yil Buxoro davlat pedagogika institutining o'zbek filologiyasi va chet tillar fakultetida tahsil olib, 1988 yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugatdi. 1991-yildan buyon Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika, psixologiya" kafedrasida turli lavozimlarda faoliyat olib bordi. 1997-2000 yillarda Buxoro davlat universiteti kunduzgi aspiranturada tahsil olib, 2000-yilda Nizomiy nomidagi pedagogika universitetida "Tibbiyot instituti rus guruhi talabalarining ixtisosiy nutqini o'stirish imkoniyatlari" mavzusida pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

2010-yilda Buxoro tibbiyot instituti "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika kafedrasida dotsenti, 2018-yilda ushbu kafedra mudiri lavozimida faoliyat olib bormoqda. 2022-yilda Samarqand davlat universiteti qoshidagi Ilmiy kengashda "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy

tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan va pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi berilgan.



Gulnoz Negmatovna Institutda 2018 yildan buyon Institut xotin — qizlar kengashi raisi lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda. 2019 yilda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. G.Kurbanova doimiy ravishda o'z malakasini oshirish, siyosiy, ijtimoiy va ilmiy nazariy saviyasini yuksaltirish, yangi ilmiy-pedagogik texnologiyalarni puxta egallab, vijdonan, mas'uliyat bilan ishlashga harakat qilmoqda. Jamoat ishlarida ham muntazam

qatnashib kelmoqda. Shu sababli instituti professor- o'qituvchilari orasida alohida hurmat-e'tiborga ega.



2022 yil yanvar oyida 13.00.01.- Pedagogika nazariyasi va pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilinib, pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo'ldi.



2022-yilda Turon fanlar akademiyasi akademigi ko'krak nishoni, 2023-yilda professor ilmiy unvonini olgan. 2023-yilda Oliy ta'lim a'lochisi ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

TOP 1000 talikka kirgan oliy ta'lim muassasalarida Kurbanova Gulnoz Negmatovna muntazam seminar-treninglar, masterklass, mahorat darslarini o'tib kelmoqda.



Gulnoz Negmatovna "Yosh pedagoglar" maktabini boshqarib, yosh olim va olimlarning tashkilotchisi, o'quv, ilmiy, ma'naviy — ma'rifiy ishlarining faol ishtirokchisi. Gulnoz Kurbanova o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashib, kafedrada shogirdlar faoliyatining sidqidildan bajarilishini, kafedra ilmiy salohiyati va jahondagi nufuzini oshirishga kamarbasta bo'lib, ta'lim sifatini va samaradorligini ko'tarishi bilan ajralib turadi.

Gulnoz Negmatovna 10dan ortiq shogirdlarning talabchan, jonkuyar, mehribon ustози hamdir, ulardan 3 nafari pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori bo'lib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Kurbanova Gulnoz Negmatovna oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashda faol ishtirok etib kelmoqda, mehnatsevar, kamtarin, insonparvar, fidoiy, mas'uliyatli, talabchan, mehribon, bilimdon yetakchilik, kompetentlik qobiliyatiga ega bo'lgan komil inson tarbiyachisi sifatida ilmini, mahoratini salohiyatini tinimsiz oshirib boradigan rahbardir. Ibratli oila bekasi, 3 nafar farzandning onasi, 6 nafar nevaraning buvijonisi.



MADRAXIMOVA FERUZA RUZIMBAYEVNA
Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Madraximova Feruza Ruzimbayevna 1988-yil 7-martda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Oilali, 3 nafar farzandi bor.

2007-yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibasi, 2018-yil Istiqbolli kadrlar “Taraqqiyot” Respublika tanlovi g‘olibi, 2021-yil “O‘zbekiston Mustaqilligiga 30 yil” esdalik nishoni, 2024-yil “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Respublika “Kelajak liderlari” klubi a’zosi.



Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Ozarbayjon-Turkiya hamkorligida tashkil etilgan BZT Turon akademiyasi Faxriy doktori.



Madraximova Feruza Ruzimbayevna mehnat faoliyatini 2011-2013-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti stajyor-tadqiqotchisi, universitet o‘qituvchisi;

2013-2014-yillarda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi Ma’naviy-ma’rifiy bo‘lim boshlig‘i;

2014-2019-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” bosh muharriri o‘rinbosari;

2019-2020-yillarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi;

2020-2023-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor;

2023-yil 2-avgustdan hozirgi kunga qadar Urganch davlat pedagogika instituti rektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.



Feruza Madraximova 2021-yil 24-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarini o‘tkazishda 14-Toshkent shahar saylov okrugida OSK komissiya a‘zosi, 2023-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Referendumini o‘tkazishda 14-Toshkent shahar okrugida OSK mas‘ul kotibi hamda 2023-yil 9-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarini o‘tkazishda 14-Toshkent shahar saylov okrugida OSK mas‘ul kotibi bo‘lib faoliyat yuritgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetidagi faoliyati davomida F.Madraximova tashabbusi bilan “Korreksion rivojlantirish markazi”, “Yoshlar psixologik markazi”, “Turon” sport klubi, “Besh tashabbus” xonasi, “Yoshlar markazi”, “Shaxmat” xonasi, “Boks” xonasi, “Musiqqa” muzeyi, “Namunaviy MTT” kabi to‘garaklar tashkil etilgan. Shuningdek, “Oltin meros” maqomchilar ansambli, “Dilnavo” estrada va

vokal instrumental ansambli, Talabalar teatr studiyasi a‘zolari uchun “Ijodxon” tashkil etilgan.



F.Madraximova tomonidan talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida “Qadam”, “Ilm nuri”, “Men pedagogman” loyihalari, “Munavvar navolar” xalqaro ko‘rik-tanlovlari, “Milliy liboslar” festivali, Yoshlar forumlari tashkil etilgan. Shuningdek, universitetning 50 nafar eng faol lider talabalaridan iborat “Universitet liderlari” saralanib, ular bilan muntazam ravishda seminarlar tashkil etib kelingan.



F.Madraximova jamiyatning faol a‘zosi sifatida mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarini

targ‘ib etishda faol tashabbuskor olimlardan biri hisoblanadi.



Shuning bilan bir qatorda, F. Madraximova rahbarligida xalqaro maydonda O‘zbekiston ta‘limini keng yoyish va jahon ta‘limi tajribasini o‘rganish maqsadida bir qancha mamlakatlar bilan Urganch davlat pedagogika institutining hamkorlik memorandumlari imzolangan.

Urganch davlat pedagogika institutiga rektor etib tayinlanganidan boshlab F. Madraximova boshchiligida 30 ga yaqin o‘zaro xalqaro hamkorlik shartnomalari imzolangan. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining 4 ta, Rossiya Federatsiyasining 7 ta, Turkiyaning 6 ta, Ozarbayjonning 6 ta, AQSh, Janubiy Koreya, Belarussiya, Iordaniya va Qozog‘iston davlatlarining 1 tadan nufuzli oliy ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolangan.



QS va Times Higher Education jahon universitetlari reytingida TOP-1000 talikdan joy olgan Turkiyaning Istanbul, Nejmiddin Erbakan va Bartin universitetlari hamda Rossiya Federatsiyasining Qozon Federal

universiteti va Astraxan davlat universitetlari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatilgan.

Feruza Madraximovaning Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston va boshqa mamlakatlarga xizmat safarlari davomida ushbu davlatlarning OTM va ilmiy tashkilotlari bilan o‘zaro shartnomalar asosida professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, stajirovkalar o‘tash bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Natijada Urganch davlat pedagogika institutiga ushbu mamlakatlardan 10 nafarga yaqin professor-o‘qituvchilar kelib dars berishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, institutning 20 nafardan ortiq professor-o‘qituvchilari xorijda malaka oshirgan va stajirovkalar o‘tab kelishgan.



F. Madraximova tashabbusi bilan institutda talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida “Besh tashabbus markazi”, “Psixologik markaz”, “IT Inkubatsiya markazi”, “Musiqqa markazi” kabi to‘garak xonalari, ma‘rifatparvar jadidlarimizning siymolari va hikmatli so‘zlarini o‘zida jamlagan “Jadidlar bog‘i”, birinchi va ikkinchi Renessans siymolari aks etgan “Ma‘rifat maydonlari” bunyod etildi.

Shuningdek, talaba-yoshlarni ilmgaga yo‘naltirish iqtidorli talabalar safini kengaytirish uchun “Lider” talabalar klubi hamda inklyuziv ta‘lim bo‘yicha logopediya va

surdotarjimonlikdan bepul to‘garaklarni yo‘lga qo‘ygan.



Hozirda ko‘plab teleko‘rsatuvlarda (“O‘zbekiston 24”, “O‘zbekiston”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Mahalla”, “Yoshlar”, “Xorazm MTRK” telekanallari) ta’lim jarayoni, ta’lim sifatini yaxshilash, oila, xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o‘rni, iqtisodiy erkinligi, gender tengligi, korrupsiyaga qarshi kurashish, jamiyatdagi faol siyosiy o‘zgarishlar, besh tashabbus va iqtisodiy strategiya, inson, bolalar hamda ayollar huquqlari va ularni himoya qilish kabi masalalar bilan bog‘liq interfaol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy-amaliy, ko‘p yillik xalqaro tajribaga asoslangan bilim va tafakkur bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



F.Madraximova o‘z kasbiy hamda jamoatchilik faoliyati bilan birgalikda ilmiy salohiyatini ham namoyon qilib kelmoqda. Xususan, olim ayol 3 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya, 3 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma va 80 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.



Feruza Madraximova tashabbusi bilan Urganch davlat pedagogika institutida “Ta’limda turkiy xalqlar milliy mentalitetini mustahkamlashning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro, shuningdek, “Uchinchi renessans poydevorini qo‘yishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyati”, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida pedagogika, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning rivojlanish tendensiyalari: muammo va yechimlar”, “Globallashuv jarayonida talabalar sporti va jismoniy tarbiya ta’limining dolzarb muammolari va yechimlari” mavzularida respublika ilmiy-amaliy anjumanlari o‘tkazilgan. F.Madraximova 10 ga yaqin xalqaro forum va simpoziumlar, 15 dan ortiq respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etgan.



MAGRUPOV TALAT MADIYEVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Talat Madiyevich Magrupov 1946 yil 10 iyulda Toshkent shahrida tavallud topgan. U 1963-1968 yillar davomida Toshkent politexnika institutining Injener-fizika fakultetining “Matematik hisoblash asboblari va qurilmalari” ixtisosligi bo‘yicha o‘qishni tugatib, 1968 yildan O‘zbekiston fanlar akademiyasining Kibernetika institutida o‘zining ilmiy faoliyatini boshlagan.

Talat Magrupov 1969-1979 yillar davomida injener, kichik ilmiy xodim, aspirant, katta ilmiy xodim, 1979-1993 yillar davomida tarmoqlararo (Rossiya Federatsiyasining Elektronika ishlab chiqarish vazirligi) laboratoriya mudiri, 1993-1997 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti “Mikroprotsesszorlar va mikrokompyuterlar tarmoqlari va tizimlari” kafedrasini mudiri, 1997-1998 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti “Xalqaro aloqalar” bo‘limi boshlig‘i, 1998-2000 yillarda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi “Ta‘lim tizimi marketingi” bosh boshqarmasi boshlig‘i, 2000-2005 yillarda Toshkent davlat texnika

universiteti “Elektron hisoblash vositalarini loyihalash va texnologiyasi” kafedrasini mudiri, 2005-2011 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti “Asbobsozlik” kafedrasini mudiri, 2011-2016 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti “Asbobsozlik” kafedrasini professori, 2017 yildan hozirgi vaqtgacha Toshkent davlat texnika universiteti “Biotibbiyot muhandisligi” kafedrasini professori lavozimlarida o‘z faoliyatini davom ettirgan.



Talat Madiyevich 1974 yilda Moskva elektron texnologiya institutida “Hisoblash mashinalari, majmualari, tizimlari va tarmoqlari” va “Loyihalashni avtomatlashtirish tizimlari” mutaxassisliklari bo‘yicha

nomzodlik dissertatsiyasini yoqlab texnika fanlari nomzodi va 1983 yilda Mikropriborlar ilmiy tekshirish institutida (Moskva-Zelenograd) “Hisoblash mashinalari, majmualari, tizimlari va tarmoqlari” va “Hisoblash texnikasi va boshqaruvning elementlari va qurilmalari” mutaxassisliklari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini yoqlab texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘lgan.



Magrupov ilmiy faoliyat bilan bir qatorda yoshlarga zamonaviy kompyuter hamda mikroelektron texnika va texnologiyaning yutuqlarini o‘rgatish maqsadida Toshkent politexnika institutida pedagogik faoliyat olib borishi natijasida 1989 yili professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan va 1991 yildan boshlab Xalqaro Muhandislik Akademiyasi akademigi hisoblanadi.



Magrupov Talat Madiyevich “Elektronika va asbobsozlik”, “Biotibbiyot muhandisligi” va “Texnologik mashinalar va jihozlar (tibbiyot sanoati)” ta’lim yo‘nalishlarini va ular asosida tashkil etilgan 5 ta magistratura mutaxassisliklarining asoschisi hisoblanadi. Uning tomonidan “Asbobsozlik”

(1993 y.) va “Biotibbiyot muhandisligi” (2016 y.) kafedralari tashkil etilgan. Magrupov Talat Madiyevich – “Kompyuter texnologiyasi”, “Elektronika va asbobsozlik”, “Biotibbiyot muhandisligi” sohalarida taniqli olim — pedagog. Hozirgi kunda uning rahbarligida Toshkent davlat texnika universitetida “Tibbiyot texnikasi va texnologiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekistonda yagona ilmiy-o‘quv maktabi tashkil etilgan va unga sog‘liqni saqlash vazirligining yetakchi mutaxassislari va olimlari jalb etilgan.

Talat Madiyevich Magrupov 1996-2011 yillar davomida Qozog‘iston fanlar akademiyasining Matematika va informatika institutida doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bo‘yicha ilmiy kengash a‘zosi sifatida faoliyat olib borgan, 2015 yilda esa Muhandislik ta’limi dasturining sifati va akkreditatsiyasi bo‘yicha Xalqaro ekspert etib tayinlangan. U “Muhandislik ta’limi uyushmasini Markaziy Osiyo federatsiyasi” vitse prezidenti, Rossiya Federatsiyasi Oliy o‘quv yurtlarining “Biotibbiyot muhandisligi” va “Avtomatlashtirish” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy kengash a‘zosi. U Yevropa davlatlari: Germaniya, Shveysariya, Avstriya, Portugaliya va Rossiya universitetlari bilan uzviy aloqalar o‘rnatgan. 1996 yili AO SIEMENS (Germaniya) bilan hamkorlikda SIMUZ o‘quv-texnika markazini tashkil etgan va hozirgi kungacha markaz o‘z faoliyatini davom ettirmoqda.

Talat Madiyevich Magrupov 2012-2016 yillar davomida Tempus dasturining “QUEECA – Markaziy Osiyoda muhandislik ta’limi sifati” loyihasida respublika bo‘yicha koordinator sifatida faoliyat olib bordi.

Respublikada muhandislik bilimi va ilmuni jadal suratlar bilan rivojlanishini hisobga olib, 2015 yil QUEECA granti asosida, Talat Magrupov tomonidan “Toshkent shahar muhandislik ta’limi assotsiatsiyasi” tashkil etildi va hozirgi kungacha o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Talat Madiyevich Magrupov

xalqaro va respublika grantlari g'olibi va quyidagi loyihalar rahbari:

2023 yil — “Ma'lumotlarning yetarli emasligi sharoitida o'pka kasalliklarini erta tashxislash uchun biotibbiy tasvirlar va signallarni birgalikda tahlil qilish uchun neyron tarmoq kompleksini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha (Belorussiya-O'zbekiston dasturi asosida);



2021 yil — O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi Davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilgan № MRB-2021-542 “Zamonoviy sun'iy intellekt usullari asosida elektrokardiografik signallarni tahlil etish, ishlov berish va masofali monitoringini algoritmik va dasturiy komplekslarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha (Belorussiya-O'zbekiston dasturi asosida);

2021 yil — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi “O'quvchilarni kasbiy mahoratini, intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyat va kompetensiyalarni shakllantirish” mavzusidagi loyiha (18 ta seminar treninglar va xalqaro konferensiya, ishtirokchilarning umumiy soni 4580 nafar, shu jumladan o'quvchilar- 2370 nafar, o'qituvchilar- 2210 nafar);

2018 yil — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi: “Yangi texnika va texnologiyani loyihalash mahoratini oshirishda olim-muhandis- texnik uchligi hamkorligi” mavzusidagi loyiha;

2016 yil — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi: “Muhandislik ta'limi va muhandislik faoliyatini sifatini oshirish” mavzusidagi loyiha;

2012-2015 yillar — Tempus dasturida: “QUEECA — Markaziy Osiyoda muhandislik ta'limining sifati” mavzusidagi loyihani respublika bo'yicha koordinatori sifatida Italiya, Germaniya, Portugaliya, Belgiya davlatlari hamkorligida olib borilgan;

2015 yil — Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati GIZ: “Yuqori texnologiyali tibbiyot jihozlarini qo'llanilishi” loyihasi ishtirokchisi;

2003 yil — O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika komiteti: “Tibbiy axborot-o'lchov texnologiyalari va diagnostik usul va tizimlarni tadqiqoti” mavzusidagi loyiha;

1996-2005 yillar — AO SIEMENS – Germaniya: “Yangi elektron texnika va texnologiya va loyihalashni avtomatlashtirish” mavzusidagi loyiha.

U ilmiy-pedagogik tadqiqotlar bo'yicha quyidagi sertifikatlar muallifi:

2021 yil — O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi.

2021 yil — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi.

2016-2018 yillar — O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Jamoat fondi.

2015 yil — Xalqaro ekspert — Muhandislik ta'limi dasturini akkreditatsiyasi (Evropa, ENAEE).

2015 yil — Yuqori texnologiyali tibbiyot qurilmalarini qo'llanilishi (Germaniya, GIZ).

2015 yil — Muhandislik ta'limi dasturini xalqaro akkreditatsiyasi (Belgiya — ENAEE).

2015 yil — Muhandislik ta'limi dasturini xalqaro akkreditatsiyasi (Rossiya, AIOR — Belgiya, ENAEE).

2004 yil — Biotibbiyot muhandisligi (Rossiya-Sankt Peterburg davlat elektrotexnika universiteti).

1998 yil — Mehnat bozori va ta’lim tizimi muammolari (Xalqaro rivojlanish nemis fondi). Talat Magrupov “Texnika amaliyoti bo‘yicha talabalar almashinuvi xalqaro Assosiasiyasi (IAESTE-The international association for exchange of students for technical experience)” ning ta’rischisi sifatida respublika oliy tizimi talabalarini texnika amaliyotini dunyoning, xususan Yevropaning yetuk universitetlarida va tashkilotlarida olib borish va olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda sinab ko‘rish hamda ilmiy – amaliy ishlarni bajarish metodikalarini o‘rganib, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari va o‘quv-amaliyoti yakuni asosida xalqaro sertifikat olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari ta’minlanib kelmoqda.

Talat Magrupov 2017 yildan “Markaziy Osiyo federatsiyasi injener ta’limi jamiyati” ta’rischisi va 2023 yildan Injener ta’limi sohasi akkreditatsiyasining Yevropa tarmog‘i (ENAE) va Rossiya injener ta’limi assosiasiyasi (AIOR) tashabbusi bilan tashkil etilgan “Injener ta’limi va injener faoliyati sifatini ta’minlash Markaziy Osiyo Federatsiyasi” ta’rischisi.

Hozirgi vaqtda uning ilmiy ishlari “Tibbiyot texnikasi va texnologiyasini qurilmali va dasturiy vositalarini loyihalash metodlari, algoritmlari va tizimlari”ni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan va bu sohada Lyubek universiteti (Germaniya), Porto universiteti (Portugaliya), Belgrad universiteti (Serbiya), Sankt-Peterburg elektrotexnika universiteti (Rossiya), Moskva davlat texnika universiteti (Rossiya), Milliy tadqiqot universiteti “Moskva elektron texnika instituti — MIET” (Rossiya) va boshqalar bilan aloqalar o‘rnatilgan.

Talat Madiyevich Magrupov boshchiligida olib borilayotgan pedagogik, ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar natijalari Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Italiya,

Belgiya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlarida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya va seminarlarda ma’ruza qilingan va chop etilgan.



Yoshlarni zamonaviy texnika, texnologiya, ishlab-chiqarish va kasbga yo‘naltirish maqsadida tashkil etilgan 10 dan ortiq xalqaro va respublika seminarlar, konferensiyalar va forumlar tashkilotchisi hamda ishtirokchisi.

Magrupov Talat Madiyevich ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 200 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarni nashr etgan, shu jumladan, 8 ta monografiya, 30 tadan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalar, hamda 10 dan ortiq ixtiroga mualliflik guvohnomalari va patentlar olgan. U 10 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalariga rahbarlik va 2 ta doktorlik dissertatsiyalariga ilmiy maslahatchi bo‘lgan.

Talat Madiyevich Magrupov ko‘p yillik tajribaga tayangan holda, yoshlarga bilim berishda, hamkasblariga yordam berishda o‘z kuch-g‘ayrati va mahoratini ayamaydi. U universitet, fakultet va kafedra pedagoglari orasida salohiyatli o‘rinni egallaydi, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchan, har bir ishni o‘z vaqtida bajarilishini yaxshi ko‘radi. U insonparvarligi, samimiyligi va to‘g‘ri so‘zligi bilan boshqalardan ajralib turadi, hamda har bir ishni chuqur o‘rganadi, vijdonan va sidqidildan bajaradi.

Magrupov Talat Madiyevich ushbu buyuk xususiyatlari bilan barkamol avlodni tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shib, hamda yoshlarga va hamkasblariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda.



MAMANAZAROV ABDUHAKIM BOZOROVICH
Pedagogika fanlari doktori, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Mamanazarov Abduhakim Bozorovich, 1960-yil 16-aprelda Surxondaryo viloyati Denov shahrida tug‘ilgan. Millati – o‘zbek.



1967-1977-yillarda Denov shahridagi G‘afur G‘ulom nomli 6-sonli (hozirgi 79-sonli) maktabda tahsil olgan. 1979-yil Samarqand qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish texnikumini bitirib, tovarshunos, 1984-yil Samarqand moliya texnikumini bitirib, moliyachi, 1995-yil Toshkent moliya institutini bitirib, iqtisodchi, 2003-yilda Farg‘ona davlat

universitetini bitirib, huquqshunos mutaxassisliklariga ega bo‘lgan.

Abduhakim Mamanazarovning Moliya, byudjet va ta‘lim sohalaridagi umumiy ish staji 45 yil. 1999-yildan 2006-yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligida boshqarma boshlig‘i, 2006-yildan hozirgi kungacha M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi Filialida rahbar o‘rinbosari hamda 2011-yildan hozirgacha MDU filialida o‘rindoshlik asosida “Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Abduhakim Mamanazarov 2003-yilda O‘zbekiston Bank-moliya akademiyasida “Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirishda soliqlarning rolini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini ustoz – akademik Murod Sharifxo‘jayevning ilmiy rahbarligida muvaffaqiyatli yoqlab, iqtisod

fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishgan. 2016-yilda dotsent ilmiy unvonini olgan.



2023-yilda “Talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi va pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga erishdi.

Abduhakim Mamonazarov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib talaba-yoshlarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish muammolari bilan bog‘liq tadqiqot olib borgan.



Uning asosiy maqsadi pedagogik, iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik aspektlarni o‘z ichiga oluvchi fanlararo yondashuv doirasida oliy ta‘lim muassasalari talabalarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo‘lgan. Uzoq yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida samarali yutuqlarga erishgan. Jumladan:

- ta‘limni modernizatsiyalashning ijtimoiy buyurtmasi sifatida jamiyat, shaxs va talaba-yoshlarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda iqtisodiy madaniyat tushunchasining to‘rt komponentli loyihasi ishlab chiqqan (ishlab pul topish madaniyati,

biznes va tadbirkorlik madaniyati, iste‘mol madaniyati va jamg‘arish madaniyati);

- iqtisodiy munosabatlar jarayonlari subyekti sifatida talaba-yoshlarning iqtisodiy savodxonligi, iqtisodiy ongi, iqtisodiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va mas‘ulligi pozitsiyasini iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilishi asoslangan;

- talaba-yoshlarning moliyaviy va iqtisodiy sohadagi xulq-atvor motivatsiyalari, iqtisodiy savodxonligi, iqtisodiy munosabatlar jarayonlaridagi tasavvurlari va e‘tiqodining sifat ko‘rsatkichlari takomillashtirilgan;

- oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun “Iqtisodiy madaniyat” va “Экономическая культура” elektiv kurslari yaratilgan hamda ularning o‘quv rejasi va dasturlari tayyorlangan;



- “Iqtisodiy madaniyat” va “Экономическая культура” elektiv kurslari hamda mazkur o‘quv kurslari bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlar M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali amaliyotiga tatbiq etilgan.

Shuningdek, u olib borgan ilmiy tadqiqotlarning nazariy va amaliy natijalari dunyo bo‘yicha eng yaxshi universitetlar TOP-100 taligiga kiruvchi M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Iqtisodiyot fakultetida “Marketing” magistrlik dasturi bo‘yicha magistrant talabalarini tayyorlash o‘quv jarayonida (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining 2017-yil 9-oktabrdagi ma‘lumotnomasi mavjud) hamda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva

davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali pedagoglari tomonidan qo'llanilmoqda. Tadqiqot natijalari yuzasidan ustoz A.O'Imasov bilan hammualliflikda noiqtisodiy oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Iqtisodiyot. Qisqacha kurs", deb nomlangan (O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 19.07.2017 yilda ro'yxatdan o'tgan № DGU 04601-raqamli elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma mavjud) elektron o'quv qo'llanma tayyorlangan bo'lib, unda talabalarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishga oid didaktik materiallar yoritilgan.



Uning noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari iqtisodiy madaniyatining rivojlanganlik monitoringi iqtisodiy munosabatlardagi adekvatlik va mikrosotsiumga moslashuvshanlik hamda elektiv kurslar va mustaqil ishlarni kognitiv axborot, qadriyatli yo'nalganlik va intellektual-ijobiy faoliyatining yaxlitligini intensiv ta'minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalari "Makroiqtisodiyot: nazariya va amaliyot" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-son buyrug'i asosida berilgan 237-453-raqamli nashr ruxsatnomasi mavjud). Natijada talabayoshlarning iqtisodiy madaniyati darajasini rivojlantirish imkoni kengaytirilgan.

U ko'pgina ustozlardan ilm va ta'lim sirlarini o'rganish bilan birga, hozirda 4 nafar iqtisodiyot va pedagogika fanlari bo'yicha

falsafa doktori ilmiy darajasiga talabgor yosh olimlarga rahbarlik qilmoqda. Ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyati davomida tayyorlagan o'nlab shogirdlari respublikamizning turli oliy ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish va nufuzli tashkilotlarida yuqori martabali lavozimlarda faoliyat yuritmoqdalar.

Abduhakim Mamanazarovning "Микроэкономика", "Макроэкономика", "Микро-Макроэкономика", "Глобальна економіка: становлення, трансформації, виклики" (ukrain tilida), "Swiatowa gospodarka: formacja, przemiany, wyzwania" (polyak tilida), "Global Economy: Evolution, Transformations, Challenges" (ingliz tilida) nomli 6 ta darsliklari xalqaro mualliflar bilan hamkorlikda Praga (Chexiya) shahridagi "OKTAN PRINT" nashriyotida chop etilgan. Undan tashqari 4 ta o'quv qo'llanma, 5 ta monografiya, 1 ta ilmiy-ensiklopedik lug'at hamda 150 ga yaqin ilmiy-uslubiy maqolalar va tezislar muallifidir. Shu jumladan, 2 ta maqolasi Scopus va 1 ta maqolasi Web of Science xalqaro bazasida indekslanadigan jurnallarda chop etilgan.

U 5 ta xalqaro ilmiy jurnallarda tahririyat a'zosisidir, jumladan:

1. Rossiya Federatsiyasi, Moskva shahrida nashr etiladigan ЦИТИСЭ «Центр инновационных технологий и социальной экспертизы» nomli retsenziyalanadigan ilmiy elektron jurnalida,



2. Moskva shahrida chop etiladigan "Moskva oblasti davlat universiteti xabarnomasi. Pedagogika seriyasi" nomli retsenziyalanadigan ilmiy jurnalida,

3. Qozog‘istondagi “Abay nomidagi Qozog‘iston milliy pedagogika universiteti” Axborotnomasining “Ekonomika seriyasi”da,

4. Qozog‘istondagi “Наука и жизнь Казахстана” Xalqaro ilmiy jurnalida,

5. O‘zbekistondagi, “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” Xalqaro ilmiy-metodik jurnallarida tahririyat hay’ati a’zosi hisoblanadi.

Abduhakim Mamanazarov Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01-raqamli Ilmiy Kengash qoshidagi Metodologik Seminarning a’zosi.



U 2016-2017-yillarda M.V.Lomonosov nomli MDU ning Toshkent shahridagi filialiga jalb etilgan I-2016-1-10 “Talabalarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish mexanizmini ishlab chiqish va tatbiq etish” mavzusidagi innovatsion loyihaga rahbarlik qilgan.

Hozirda Moskva davlat universitetining Iqtisodiyot fakulteti qoshidagi Tarmoq iqtisodiyoti tadqiqotlari markazida “Rossiya va Markaziy Osiyo yoshlarining iqtisodiy madaniyati” maxsus xalqaro loyihasing rahbaridir.

Abduhakim Mamanazarov M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali ilmiy maydonida an’anaviy o‘tkazib boriladigan Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarning Tashkiliy qo‘mitasida doimiy ravishda raislik qilib, ularning Xalqaro darajalarga mos ravishda o‘tishida o‘zining

munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. A.Mamanazarov tashkiliy qo‘mita raisi sifatida M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialida 2012-yildan buyon har yili dekabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag‘ishlab, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: yoshlar ta’limi va tarbiyasi” mavzusida an’anaviy ilmiy amaliy konferensiya o‘tkazadi. Aprel-may oylarida esa har bir yilning nomiga bag‘ishlangan an’anaviy Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyalar o‘tkazib kelmoqda. Jumladan, 2022-yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”ga bag‘ishlab, shu yilning 27-28-may kunlari “Tizimli o‘zgarishlar va raqamlashtirish sharoitida ta’lim va madaniyatni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar”, 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” yiliga bag‘ishlab, joriy yilning 14-15-iyun kunlari “Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar: ilm-fan, texnologiya va biznesda yoshlarning yangi imkoniyatlari” mavzularida an’anaviy Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyalari o‘tkazildi. Umuman, A.Mamanazarovning tashabbusi va bevosita rahbarligida 5 ta xalqaro va 20 ga yaqin respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari o‘tkazilgan.



Abduhakim Mamanazarov doimiy ravishda o‘z malakasini oshirish, siyosiy, ijtimoiy va ilmiy-metodik saviyasini yuksaltirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab, vijdonan va mas’uliyat bilan faoliyat yuritishga intiladi. Shuningdek, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent

shahridagi filialida ilmiy-tadqiqot, pedagogik, ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishda munosib hissa qo‘shib kelmoqda.



A.Mamanazarov Respublika va Xalqaro (Rossiya, Chexiya, Latviya, Polsha, Turkiya, Portugaliya, Belarus, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya, Ukraina va boshqalar) ilmiy anjumanlarda ham o‘z ma‘ruzalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda. Chet ellik taniqli, buyuk olimlar bilan ilmiy aloqalar o‘rnatib, ilm-fan va ta‘lim sohasida xalqaro va ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. U 2014-yilda Xalqaro pedagogika ta‘limoti Fanlar akademiyasi (MAHIO) haqiqiy a‘zolariga saylangan.



Abduhakim Mamanazarovning tashabbusi va tashkilotchiligi tufayli 2019-yilda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti bilan O‘zbekiston milliy universiteti va Buxoro davlat universitetlari o‘rtasida magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha “Amaliy matematika va informatika” hamda “Psixologiya” sohalarida Qo‘shma ta‘lim dasturlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab M.V.Lomonosov

nomidagi MDUning Toshkent shahridagi filialida “Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar” va “Filologiya” bakalavr yo‘nalishlari, 2023-2024-o‘quv yilidan “Menejment” bakalavr yo‘nalishi hamda “Reklama va jamoatchilik bilan aloqalar” va “Ta‘limda boshqaruv” magistratura mutaxassisliklari ochildi.

A.Mamanazarov deputatlik faoliyati davomida o‘zi saylangan Toshkent shahri, Mirobod tumani, 3-“Movarounnahr” saylov okrugi hududida “Obod mahalla” loyihalariga, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan kam ta‘minlangan oilalarga ko‘mak berish va yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy adolat, o‘zaro mehr-oqibat va ma‘naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq milliy qadriyat va urf-odatlarimizni keng targ‘ib qilishda, ularni asrab-avaylashga o‘z e‘tiborini qaratib, tegishli chora-tadbirlar ko‘rib chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda. Uning bevosita yordami bilan Mirobod tumanidagi “Movarounnahr” hamda “Mingo‘rik” mahalla fuqarolari yig‘ini binolari to‘liq yangidan qurildi. “Movarounnahr” mahallasi hududida joylashgan 1-oilaviy poliklinika filialida 12 o‘rinlik kunduzgi statsionar tashkil etildi va uni jihozlashga xomiylik qildi. Xalq deputatlari Mirobod tuman Kengashining sessiyasida Ikkinchi Jahon urushi veteranlarini otaliqqa olish yuzasidan qabul qilingan qarorining tashabbuskorlaridan biri bo‘lgan A.Mamanazarovning o‘zi hozirgi kunda Mirobod tumanida yashovchi urush qatnashchisi M.I.Filanovichni otaliqqa olgan. Shuningdek, 2020-yilda pandemiya sharoitida tumandagi kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyojmand oilalarga oziq-ovqat, dori-darmon vositalari bilan, Sirdaryo viloyati, Sardoba tumani hududida ro‘y bergan texnogen fojidan aziyat chekkan aholini issiq kiyim, dori-darmon va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda ham tashabbus va o‘rnak ko‘rsatdi. Undan tashqari ruhiy tushkunlikka

tushib qolgan Sardoba aholisi uchun Filialning psixolog professor-o'qituvchilaridan iborat guruh tuzib, joylarda birinchi psixologik yordam ko'rsatilishi tashkil etildi.



A.Mamanazarov 2007-yildan buyon mamlakatimizda o'tkazib kelinayotgan saylovlarda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali binosini Respublikada eng namunali saylov uchastkalaridan biriga aylanishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Abduhakim Mamanazarov 2020-yil 21-dekabrda "NEW SCIENCE International Center for Scientific Partnership" tomonidan e'lon qilingan xalqaro tanlovda o'zining "Влияние финансовой грамотности на повышения уровня экономической культуры молодежи" mavzusidagi ilmiy maqolasi bilan qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Xalqaro tanlov natijasiga ko'ra "Yil iqtisodchisi — 2020" sertifikatini bilan taqdirlandi.

U 2023 yilda "Science and innovation" xalqaro ilmiy jurnali va UzReportTV telekanali hamkorligida e'lon qilingan tanlovda ham o'zining ilmiy ishlari va yangi darsliklari bilan ishtirok etib, "Yil olimi-2023" nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topildi.

Abduhakim Mamanazarov jamoatchilik ishlarida ham faol. Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining Mirobod tuman Kengashi (O'zLiDeP) a'zosi. 2018-yildan hozirgacha Toshkent shahri, Xalq deputatlari

Mirobod tuman Kengashi deputati. 2018-yildan buyon mazkur Kengash huzuridagi "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi"ning raisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2024-yildan boshlab esa O'zLiDeP partiyasining Mirobod tuman Kengashi raisi lavozimiga (jamoatchilik asosida) saylandi va Kengashga rahbarlik qilmoqda.

Abduhakim Bozorovich Mamanazarov jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yoshlar ongiga singdirish borasidagi munosib xizmatlari uchun 2016-yilda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi va 2021-yilda 30 yilligi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 yilligi munosabati bilan ko'krak nishonlari, 2014-yilda "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. U Czestochowa shahridagi (Polsha) Poloniya universiteti hamda Buxoro davlat pedagogika institutlarining Faxriy professori hisoblanadi.

U fidoiy va malakali iqtisodchi va pedagog sifatida ko'p yillardan beri oliy ta'lim tizimida samarali mehnat qilib kelayotgan rahbar, boshqaruvchi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning faol targ'ibotchisidir.

Abduhakim Mamanazarov tashabbuskorligi, mehnatsevarligi, faolligi va fidoiyligi, o'ziga va jamoa a'zolariga nisbatan talabchanligi bilan O'zbekiston oliy ta'lim tizimi, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va uning Toshkent shahridagi filiali talabalari, professor-o'qituvchilari va mehnat jamoasi orasida alohida hurmatga sazovor.

Oilali, 5 nafar farzandning mehribon otasi hamda 10 nafar nevaralarning suyuqli bobosi.



MARDONOV SHUKURULLO QO'LDOSHEVICH

Pedagogika fanlari doktori, professor

Shukurullo Qo'ldoshevich Mardonov 1952 yil 20 mayda Samarqand viloyati G'allaorol tumanining Chuvulloq qishlog'ida o'qituvchi oilasida tavallud topgan.

U 1959-69 yillarda shu tumandagi 31-son umumiy o'rta ta'lim maktabda o'qidi va a'lo baholarga bitirdi.



Shukurullo Mardonov 1969-74 yillarda Saratov davlat pedagogika institutining filologiya fakultetida o'qidi va uni muvaffaqiyatli tamomladi. 1974 yilning 1 sentyabridan boshlab yosh mutaxassis sifatida Jizzax davlat pedagogika institutida o'z faoliyatini boshladi.

Shukurullo Mardonov 1974-76 yillarda rus tili kafedrasida o'qituvchisi hamda institut

yoshlari yetakchisi lavozimida faoliyat olib bordi.

1976-77 yillarda harbiy xizmatdan qaytgach u 1977-79 yillarda rus tili kafedrasida o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritdi.

Ilmga bo'lgan chanqoqlik uni sobiq ittifoq Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik institutiga yetakladi va u 1979-82 yillarda Moskvada aspiranturada o'qidi. Taniqli turkolog olim Nikolay Aleksandrovich Baskakov rahbarligida Shukurullo Mardonov "Semantiko-stilisticheskie osobennosti russkix leksicheskix zaimstvovaniy v uzbekskom literaturnom yazыke" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini shu institut qoshidagi doktorlik kengashida 1983 yilda muvofaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. 1896 yilda u dotsentlik unvonini oldi.

Shukurullo Mardonov 1984-86 yillarda rus tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, kafedra mudiri; 1986-1998 yillarda rus tili va adabiyoti fakulteti dekani; 1998-2001 yillarda institutining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori lavozimida faoliyat yuritdi.

2001-2004 yillarda Shukrullo Mardonov Jizzax viloyat pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti rektori lavozimida ishladi.

Shukrullo Mardonov faol jamoatchi hamdir. U xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi deputati sifatida Jizzax shahar Kengashi qoshidagi Yoshlar bilan ishlash komissiyasiga rahbarlik qildi va yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ishlariga o‘z munosib hissasini qo‘shdi (1999-2004 yy.).



Shukurullo Mardonov 2005-2014 yillarda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Pedagogika-psixologiya bo‘limi boshlig‘i, bosh ilmiy xodimi, Laboratoriya mudiri, direktorning ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarida, shuningdek “Uzluksiz ta‘lim” jurnali mas‘ul kotibi, “Xalq ta‘lim jurnali” bosh muharrir o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritdi.



Shukurullo Mardonov 2015-2017 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining “Pedagogika” kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritdi hamda fakultet, kafedra ilmiy salohiyatining ko‘tarilishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

2017-2022 yillarda Shukurullo Mardonov Chirchiq davlat pedagogika universitetida Pedagogika, Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim, Maktabgacha ta‘lim, Boshlang‘ich ta‘lim fakultetlari dekani lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Shukurullo Mardonov 2006 yilda T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy kengashda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2007 yilda doktorlik diplomini olgach qator yillar T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, Nizomiy nomidagi Toshkent DPU, Toshkent DJTU qishidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha Ixtisoslashgan ilmiy kengashlarda mas‘ul kotib, a‘zo sifatida faoliyat olib bordi.



O‘zPFITI qoshida Shukurullo Mardonovning rahbarligida ikkita ilmiy-amaliy loyiha bajarilgan hamda olingan natijalar respublika umumta‘lim maktablariga tarqatilgan.

Sh.Q.Mardonov 2019 yilning 28 martidan Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti (hozirda ChDPU) huzuridagi **PhD/28.03.2019.Ped.82.01** raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi; 2021 yilning 30 aprelidan 2022 yilning avgust oyigacha qadar Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi **DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01** raqamli ilmiy

darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi sifatida faoliyat yuritdi.

Ustoz Shukurullo Mardonov o‘z hayotining katta qismini shogirdlariga yaxshilik qilish bag‘ishlagan nodir xislatli inson hisoblanadi. Olimning ulkan muvaffaqiyati shundaki, u o‘z faoliyatida O‘zbekistonda bir qator ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va pedagogika fanini rivojlantirishda salmoqli mehnat qilgan olim sifatida el-yurt hurmatiga ega bo‘ldi.

Ustoz Shukurullo Mardonovni O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi 2018 yilda professor ilmiy unvoniga tasdiqladi.



Shukurullo Mardonov 2022 yilning iyul oyidan T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Tillarni intensiv o‘qitish texnologiyalari bo‘lim mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Shukurullo Mardonov yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni pedagogika fani asosida ta’lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda. U nihoyatda talabchanlik bilan o‘z shogirdlariga nisbatan doimo ijobiy munosabatda bo‘lishni, ularda har qanday ishni uddalay olish, muvaffaqiyat qozonish, qat’iy

bo‘lish, kelajakka ishonish, har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘l tutish xususiyatlarini rivojlantirishda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda.


Shukurullo Mardonov pedagogika nazariyasi va tarixini juda chuqur bilgan respublikamizning ko‘zga ko‘ringan olimlaridan biri sifatida shogirdlar bilan o‘tamas’uliyat bilan ish olib bormoqda.



Shukurullo Mardonov o‘zining bilim va tajribasini hech kimdan ayamaydigan qalbi pok, bag‘ri keng, saxovatli, kamtarin inson bo‘lib tanish-bilishlariga, do‘st-birodarlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Undagi insoniylik fazilatlarini juda yuqori hisoblanadi.

Prof. Shukurullo Mardonov 10 dan ziyod monografiya, 4 ta darslik va o‘quv qo‘llanmasi, 24 ta uslubiy qo‘llanma, 300 dan ziyod ilmiy-metodik va 40 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir. U respublika va mahalliy matbuotlarda o‘z mulohazalari bilan muntazam qatnashib kelmoqda. Bugungi kunga qadar ustoz Shukurullo Mardonovning 2 nafar shogirdi fan doktori (DSc) va 17 nafari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldi, 5 nafari himoya qilish arafasida.

Shukurullo Mardonov 4 nafar farzandning otasi va 10 nafar nabiraning suyukli bobosidir.



MIRALIMOV MIRJAMOL MIRAXMEDOVICH

Farmasevtika fanlari doktori, professor

Inson hayotini tibbiyotsiz tasavvur qilib bo'lmagandek, tibbiyot-tabobat dori-darmonsiz faoliyat yuritilmaydi. Shu ma'noda tibbiyot bilan dorishunoslikni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ular bamisoli aka-uka, opa-singil. Biroq ilm-fan taraqqiyotning o'ziga xos qonuniyati ham mavjud: fan va uning amaliyoti taraqqiy eta borgan sayin undan yangi-yangi ilmiy yo'nalishlar vujudga kelishi davom etadi. Vaqt-soati bilan yangi yo'nalishlar yangi fan sohasiga aylandi.



O'tgan asrning 70-yillarida Toshkent farmasevtika instituti jadal qanot yozayotgan

oliy o'quv yurtlaridan biri edi. Institutni imtiyozli bitirgan Mirajamol Miralimov mo'ljalni katta oldi, ya'ni, bugungina emas, ertangi balki indingi kun talabidan kelib chiqdi. 1971 yilda Sechenov nomidagi Moskva Tibbiyot akademiyasi Farmasevtika fakulteti aspiranturasiga o'qishga yo'l oldi. Nufuzli ilmiy dargohning Dori turlari kafedrasida ilmiy izlanishlar boshlab yubordi.

M.M.Miralimov 1942 yil 23-fevral, Toshkent shahrida, Mirahmad ota va Saodat ona oilasida tavallud topgan. 10ta farzanddan 4 chisi. Toshkentdagi 89-maktabni a'lo baholarga tamomlagan.

M.Miralimov o'z mehnat faoliyatini 1959-yili Toshkent shahar "Mirobod Raypishetorg"da sotuvchi lavozimida boshladi. U 1962-1964-yillarda Toshkent Farmasevtika instituti talabasi. 1964-1967 yillarda Sovet armiyasi xizmatida bo'ldi. Mirajamol Miraxmedovich Miralimov Toshkent

farmatsevtika institutida bo'lajak turmush o'rtog'i Miralimova Mashkura Nabiyeвна bilan birga ta'lim olgan va 1970 yilda imtiyozli diplom bilan bitirgan. Aynan shu yili birinchi farzandi Miralimova Barno Mirjamolovna dunyoga kelgan.

Mirjamol Miraxmedovich 1971 yili I.M.Sechenov nomli Moskva tibbiyot akademiyasi farmatsevtika fakultetining Dori turlari texnologiyasi kafedrasiga aspirant bo'lib o'tdi va 1974 yilda Moskva tibbiyot akademiyasi farmatsiya fakulteti huzuridagi ixtisoslashgan kengashda **“Onkologiyada qo'llaniladigan tabiiy va sintetik aktinomitsinlarning inyeksion dori shakllarini yaratish va tahlil qilish”** mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Mirjamol Miraxmedovich Miralimov 1974 yildan Toshkent farmatsevtika instituti Dori turlari texnologiyasi kafedrasida assistent, katta ilmiy xodim, dotsent, kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat yuritib keldi.



M.M.Miralimov o'z mehnat faoliyati davomida pedagogik ishni ilmiy izlanishlar bilan uzviy bog'lab olib bordi. U mahalliy xom ashyolardan dori preparatlarini olish texnologiyasi, ularni sifatini nazorat qilish, standartlash, dorixona sharoitida tayyorlanadigan dorilar texnologiyasini takomillashtirish, turg'unligini oshirish borasida qilgan ilmiy izlanishlar natijalaridan darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yaratdi. Ulardan tinglovchilar va talabalar hozirgi

kungacha keng foydalanib kelmoqdalar.



2008 yilda M.M.Miralimov Toshkent farmasevtika instituti huzuridagi 087.12.01 ixtisoslashgan kengashda “Abu Ali ibn Sino nazariyasi asosida dorilar texnologiyasini yaratish nazariy-amaliy asosini optimizatsiyalash” mavzusida ilmiy izlanishlar olib bordi va dori texnologiyasi va farmatsiya ishini tashkil qilish bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

M.M.Miralimov Ibn Sino tabobatini yangi qirralarini ochib, uni amaliy tibbiyotga zamonaviy talqinda foydalanishni tavsiya qildi. Ibn Sinoni “Mijoz” nazariyasi xususan “Dori mijoz” ni ta'riflab, “Birlamchi mijoz”-dori substansiyasi, “Ikkilamchi mijoz”-dori preparati degan talqinni kiritdi.



M.M.Miralimovning 200 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan, shulardan 11 tasi darslik, 136 tadan ortiq ilmiy, 40 ga yaqin o'quv-uslubiy ishlardir. 3 ta ixtiro patent olingan. Ikkita vaqtinchalik Farmakopeya maqolasi muallifidir.

M.M.Miralimovning ilmiy-uslubiy ishlarida zamonaviy farmasevtika amaliyotida bo'layotgan yangiliklar, dori ta'minoti sifati, uni ko'paytirish masalalari malaka oshirish

bilan bog'liqligini ko'rsatib, unga e'tibor kuchaytirilishini, malaka oshirish maskanida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilinishi zarurligi haqida ta'kidlab, "Masofaviy ta'lim"-tizimlarini va M.M.Miralimov tashabbusi bilan "Farmasevtlar malaka oshirish fakulteti" da internet tizimida "Farmasevt.uz" saytini yaratilib, unda "Masofaviy ta'lim" tizimi bo'yicha Respublikamiz farmasevt kadrlarning malakasi oshirildi.



"Farmasevt.uz"-malaka oshirish ta'lim dasturi asosida tinglovchilarga saboq berish uslubi 22-23 noyabr 2005 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida pedagogik va axborot – kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash muammolari" ilmiy-amaliy konferensiyasida taqdimot o'tkazildi, 8-fevral 2008 yil O'ROUMTB o'tkazilgan amaliy-uslubiy seminarida esa uni amaliyotga kiritish tavsiyalari berildi.

2010-yilda Davlat patent idorasi tomonidan farmasevt mutaxassislari malakasini oshirish uchun "Farmasevt.uz" masofaviy ta'lim tizimi dasturi rasmiy ro'yxatdan o'tkazildi.

M.M.Miralimov rahbarligida 3 ta fan nomzodi tayyorlandi. 1994 yili Yusupova Gulmira Sultonovna **“Научные основы интенсификации технологии и биофармацевтическое изучение производства порошков в условиях**

аптек” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Aholini yuqori ta'sirli dori–darmonlar bilan ta'minlashda mahalliy resurslardan foydalangan holda yangi dori shakllarini yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish Respublikamiz farmatsiya sanoatni asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. M.M.Miralimov rahbarligida Yusupova G.S. "Propolis xom ashyosidan dori preparatlari yaratish muammolari va uni nazariy asoslari" mavzuida doktorlik ishi olib borildi. Ishning asosiy maqsadi asalari mahsuloti hisoblangan propolis xom ashyosini standartlab, undan hozirgi zamon tibbiyoti talabiga javob beruvchi, ishlatish uchun qulay, yuqori ta'sirli, kam sarfli preparat yaratildi. M.M.Miralimov hammualliflar bilan birgalikda propolisni fizik kimyoviy tarkibini o'rganish, ulardan dori shakllarini yaratish, ishlab chiqarish va me'yoriy-texnik hujjatlarni yaratishda ilmiy izlanishlar olib bordi va amalda qo'llash mumkinligini aniqladi.

M.M.Miralimov rahbarligida uning shogirtlaridan X.Q. Abdullaeva 1997 yilda **“Geterogen tizimli dori shakllarini texnologik parametrlarini sirt-faol moddalar yordamida boshqarish”** mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Dissertatsiya ishida Toshkent farmasevtika instituti Fizik kolloid kimyo kafedrasida olimlari tomonidan sintez qilingan sirt faol moddalar: malein, itakon, sitrakon kislotalarining geptil, decil va setil efirlarini emulsiyalash, gidrofillash, solyubilizatsiyalash xossalarini ularning fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog'lab o'rganildi. O'rganilgan SFM larning vazelinni gidrofillash xossasi ular gidrofob radikalning tabiatiga bog'liqligini aniqlandi. Natijada yangi surtma dori asosi yaratildi va uni surtma dori tarkibida qo'llash imkoniyatlari o'rganib chiqildi. Tarkibida Gyurza zahari saqlovchi "Viproton" surtmasi texnologiyasi yaratildi va dastlabki patent olindi.

Azimova N.A. **“Nikotin kislotasi trendemal terapevtik sistemasi yaratishning texnologik va biofarmasevtik aspektlari”** mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini M.M.Miralimov rahbarligida 2001 yilda himoya qildi. Ilmiy tadqiqot natijasida O'zbekistonda birinchi bor nikotin kislotasining teri orqali so'rilib tanaga tizimli ta'sir ko'rsatuvchi dori shakli yaratildi. Bajarilgan ilmiy ishlar bo'yicha xorijda, MDX da, Respublikamizda 10 dan ortiq maqolalar chop etildi va dastlabki patent olindi.



M.M.Miralimov rahbarligida Sodiqova N.A. **“Shifoxona dorixonalarida steril dorilar tayyorlash holatini tahlil qilish va uni takomillashtirish”** mavzusida ilmiy izlanishlar olib borildi. Ishning asosiy maqsadi shifoxona dorixonalarida steril dorilar tayyorlash holatini tahlil qilish asosida ushbu faoliyatning takomillashtirish yo'llarni aniqlashdan iborat bo'lgan. Shifoxonada davolanayotgan bemorlarning dori vositalari bilan ta'minoti shifoxona dorixonalari faoliyatining holatiga uzviy bog'liqdir. Shularni hisobga olgan holda shifoxona dorixona xodimlarini mehnatini me'yorlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatma ishlandi. Steril eritmalarini tayyorlash hisobi dasturi yaratildi va patent olindi.

M.M.Miralimov tomonidan 2001 yilda o'zbek tilida **“Dori turlari texnologiyasi”** fanidan darslik yaratilgan va 2009 yilda qayta nashr etilgan. Bundan tashqari M.M.Miralimov tomonidan **“Gomeopatiya”** o'quv qo'llanmasi, **“Dorilar biofarmatsiyasi”, “Технология лекарств из растений”, “Dorilardan to'g'ri foydalanish”, “Aptechkalar va ulardan**

foydalanish” singari 10 dan ortiq ilmiy-omnabop kitobchalar chop etgan.

M.M.Miralimov O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi va Salomatlik ensiklopediyasi nashrga tayyorlashda faol ishtirok etgan, farmatsiyaga oid o'nlab maqolalar bilan qatnashgan.

M.M.Miralimovning mehnat faoliyati davomida minglab talabalar dori turlari texnologiyasidan bevosita ma'ruzalar tingladilar, yuzlab malaka oshirish kurslari tinglovchilari o'z malakalarini oshirdilar. Tajribali va mahoratli pedagog M.M.Miralimov talabalarga ma'ruza o'qish jarayonida mavzuni har doim amaliy farmatsiya bilan bog'lab, farmatsiyaning dolzarb muammolari va ularni yechish yo'llarini ko'rsatib kelgan.

M.M.Miralimov tashabbusi va faol ishtirokida Toshkent shahridagi 150-dorixona qoshida birinchi marta o'quv-ishlab chiqarish dorixonasi tashkil etilgan. O'quv-ishlab chiqarish dorixonasida talabalar bevosita dori tayyorlash sir asrorlarini o'rgana boshlagan. Bundan tashqari o'quv ishlab chiqarish dorixonasi o'quv va ishlab chiqarish amaliyotini o'tashda asosiy baza bo'lib xizmat qilgan. M.M.Miralimov 1978-1980 yillari Toshkent shahar Markaziy dorixona binosidagi Farmatsiya muzeyini tashkil etishda, uni eksponatlar bilan to'ldirish va jihozlashda jonbozlik ko'rsatdi. O'zbekiston farmatsiyaning tarixi va rivojlanishiga doir qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

M.M.Miralimovning tashabbusi va rahbarligida kafedraning yetakchi olimlari bilan hamkorlikda Dori turlari texnologiyasi yangi tarmoqlari **“Biofarmatsiya”** va **“Gomeopatiya”** yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar natijasida dasturlar yaratilgan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1993 yil 17- fevraldagi 95-sonli buyrug'iga asosan provizor-

farmasevtlar malaka oshirish kurslari tashkil etilgan va bu kurslarni asosiy tashkilotchisi va yetakchi pedagogi M.M.Miralimov edi.



M.M.Miralimov O'zbekiston farmasevtlar ilmiy jamiyatining faol tashkilotchisi. Toshkent shahri, Viloyatlarda O'zbekiston farmasevtlar ilmiy jamiyatining konferensiyalarida faol ishtirok etib O'zbekiston farmasevtlarini yutuqlarini targ'ib etishda o'z hissasini qo'shdi.

M.M.Miralimov farmatsiya sohasidagi ilmiy ishlari, talabalarga bilim berishligi, ilmiy pedagogik mahorati, jamoat ishlaridagi faoliyati instituti rahbariyati, Sog'liqni saqlash vazirligi va hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

Respublikada malakali mutaxassislar va ilmiy kadrlar tayyorlash, farmasevtika sohasini rivojlantirishda ko'p yillik samarali mehnati va jamoat ishlarida faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashi hay'atining faxriy yorliqlari bilan taqdirlandi.

2001 yilda samarali mehnati, xalqimizni ayniqsa yosh avlodni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qo'shgan hissasi, ijtimoiy hayotda faol ishtiroki, ibratli turmush tarzi bilan jamoatchilikning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lganligi uchun O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov farmoniga binoan Mustaqillikning 10 yilligida Ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Toshkent farmasevtika instituti tarixida Miralimovlar sulolasi o'z o'rnini, o'z nufuziga ega. Turmush o'rtoqlari Miralimova Mashkura

Toshkent farmasevtika instituti tugatgan, nafaqaga chiqqunga qadar xususiy dorixona mudiri lavozimda ishlaganlar. Akalari Mirsoat Miralimov, Mirodil Miralimov lar mamlakatimiz dorishunoslik fani va amaliyotida o'z o'rniga ega. Mirjamol Miraxmedovichning og'il qizlari ota kasbini davom ettiruvchi munosib vorislar bo'lib yetishdi. Barno Miralimova taniqli oliy toifali shifokor, Shaxlo Miralimova-mikrobiolog olimi, fan doktori, professor, Qodirova Dono farmasevt, Miralimov Mirnabi xususiy dorixona mudiri, Saidova Iroda biologiya fanlari nomzodi. Barchasi otalaridan olgan ham ilmiy, ham amaliy tajribalarni o'z faoliyatlarida atroflicha qo'llab, mehnat qilmoqdalar.



M.M.Miralimov 15 nabira va 7 evaraning bobosi.

M.M.Miralimov qayerda qaysi lavozimda ishlamasin el-yurt, xalq manfaatlarini ko'zlab yurdi, yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor berdi. O'zbekiston Respublikasida malakali farmasevtlar yetilib chiqishiga katta hissa qo'shdi. Mehribonligi, adolatligi, samimiyligi, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi bilan hamkasblari ichida katta hurmatga sazovor bo'ldi.

2012 yil 1-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Provizor-farmasevtlari uchun katta yo'qotish bo'ldi, M.M.Miralimov bu yorug' olamni tark etdi. U umrining so'nggi damlarigacha Toshkent farmasevtika institutida sadoqat ila faoliyat yuritdi. Toshkent farmasevtika institutida 41 yil mehnat qilib malakali provizor-farmasevtlarni yetkazib chiqardi.



MIRSAATOV RAVSHANBEK MUMINOVICH

Texnika fanlari doktori, professor

Fizika-matematika, texnika va qishloq xo‘jaligining ipakchilik sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan salohiyatli, yetuk olim, mahoratli pedagog, ustoz-murabbiy Mirsaatov Ravshanbek Muminovich 1961 yil 21 iyulda Toshkent viloyatining Piskent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan, millati o‘zbek.



Otasi Mirsaatov Mumin – tumanlararo kadastr bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat olib borgan. Onasi Mirsaatova Muxarram Vaxobovna – qahramon ona, Piskent tumani kommunal xo‘jaligi bo‘limi xodimi bo‘lgan.

R.M. Mirsaatov oilali, uch farzandi, olti nabirasi bor. Turmush o‘rtog‘i – Mirsaatova Nasiba Surabovna oliy ma‘lumotli mutaxassis, yuksak ma‘naviyatli, tajribali pedagog, Toshkent shahar Mirobod tumanidagi 154-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi direktori lavozimida faoliyat olib boradi.

Mirsaatov R.M. 1975 yilda Piskent shahridagi 5-sonli Oybek nomli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 7-sinfini tugatib, Toshkent shahridagi O‘zbekiston Respublikasida yagona bo‘lgan “Yosh fiziklar va matematiklar” maktab-internatining 8-sinfiga fizika yo‘nalishi bo‘yicha kirish imtihonlarini a‘lo baholarga topshirib o‘qishga qabul qilinadi. 1978 yilida ushbu maktab-internatining 10-sinfini bitirib, Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) fizika fakultetiga o‘qishga kiradi. 1985 yilda ushbu universitetning “Yarimo‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi” ixtisosligini muvaffaqiyatli tamomlab, “Fizik.O‘qituvchi”

mutaxassisligiga ega bo'ldi. 1985-1988 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fizika-texnika institutida muhandis lavozimida ishlaydi. 1989-2004 yillarda Toshkent avtomobil-yo'llar institutida fizika kafedrasida assistenti, katta o'qituvchi, dotsent lavozimlarida, 2005-2015 yillarda esa fizika kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat olib boradi.



R.M. Mirsaatov fizika kafedrasini boshqargan paytida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida fizika fanini o'qitishning differensiallashgan usuli tashkil etildi, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar tayyorlandi va institut axborot resurs markaziga talabalar foydalanishlari uchun joylashtirildi. Kafedraning ishlab chiqarish korxonalari, hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan aloqasi yaxshilandi. Avtokorxonada muammolari bo'yicha xo'jalik shartnomasini bajardi.

«Fizika» kafedrasida bakalavriat yo'nalishlari uchun o'quv dasturi, hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun «Klaster», «Bumerang», «3x4», «aqliy hujum» va boshqa yangi pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilgan holda taqdimot materiallari ishlab chiqildi va o'quv jarayoniga tatbiq etildi. Yangi pedagogik va axborot texnologiya asosida fizika fanini o'qitishning differensiallashgan usuli tashkil etildi, elektron formatda o'quv-uslubiy majmualar tayyorlandi va institut axborot resurs markaziga talabalar foydalanishlari uchun joylashtirildi.

Zamonaviy fizikaning avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi uchun fizik asboblari va astrofizika yo'nalishlari bo'yicha dolzarb savollar va mavzular banki yaratildi.

Mirsaatov R.M. turdosh oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tekshirish muassasalari mutaxassislari ishtirokida muntazam ravishda ochiq va muammoli darslar o'tkazib turadi. Uning rahbarligida yosh o'qituvchilarning malakaviy kompetentligini oshirish bo'yicha katta ishlar olib borilib, ilmiy faoliyatga jalb etilganlar. Axborot texnologiyalarini qo'llash darajasini, hamda talabalar bilimi, malakasi va ko'nikmalarini oshirish uchun elektron kafedra yaratilgan.



Mirsaatov R.M. o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatdi. TAYI qoshidagi AL va Toshkent axborot texnologiyalari KXX da fanlarni o'qitish darajasini oshirishda faol ishtirok etdi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatdi, fizika va astronomiya fanlaridan ma'ruza darslarini o'tkazdi. Shu bilan birga AL va KXX da kasbga yo'naltirish ishlarini olib bordi. AL va KXX talabalari uchun kafedrada «Fizika-avtomobil» to'garagi tashkil etdi.

Mirsaatov R.M. kafedrada ishlash davrida o'zini yaxshi tashkilotchi va mas'uliyatli rahbar ekanligini ko'rsatdi. Uning tashkilotchilik qobiliyati natijasida oxirgi 3 yilda kafedraning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish darajasi keskin ortdi. U kafedrada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun ilmiy laboratoriya tashkil etdi. 2012-2013 yillarda ushbu laboratoriyada 90 mln. so'mlik «Quyosh

energiya manbai bilan ta'minlanuvchi yarimo'tkazgichli diodlar asosida yo'l belgilari va yer osti kommunikatsiya tizimlarini yorituvchi qurilmalarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish» mavzusidagi innovatsion loyiha va 140 mln. so'mlik «Kam quvvatli gorizontali va vertikal aylanish o'qli shamol stansiyalarini yaratish» mavzusidagi amaliy-tadqiqot loyihasi bajarildi.



Uning rahbarligida O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi buyurtmasiga ko'ra tirik pillalarni kesmasdan ularning ipak miqdorini aniqlaydigan qurilma yaratish ustida ilmiy – tadqiqot ishlari olib borildi. Ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha 2014 yilda ushbu qurilmani qo'llash asosida 32 mln. so'm iqtisodiy samara olindi.

Mirsaatov R.M. 2015-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestasiya komissiyasi kotibiyatining fizika-matematika fanlari bo'yicha bosh inspektori lavozimida faoliyat olib bordi.

R.M.Mirsaatovning fizika-matematika sohasidagi ilmiy faoliyati kremniy va kremniy-germaniy qotishmalardagi chuqur aralashma markazlariga elektromagnit nurlanishlarning ta'sirini tadqiq etish bilan bog'liq. U kremniy va kremniy-germaniy qotishmalardagi chuqur aralashma markazlarining nobarqaror holatlari uchun yorug'lik ta'siridagi reaksiyalar borish mexanizmini taklif etdi.

1991-1994 yillarda Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya Fanlar akademiyasi A.F.Ioffe nomidagi Fizika-texnika institutida aspiranturada tahsil olib, nomzodlik dissertatsiyasi ustida tadqiqotlar olib borgan.



1995 yilda R.M.Mirsaatov O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fizika-texnika" instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashda "Kremniy va kremniy-germaniy qoshmalaridagi chuqur aralashma markazlarini tadqiq etish" mavzusida tayyorlagan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

Toshkent avtomobil-yo'llar instituti fizika kafedrasidagi ko'p yillik ilmiy-uslubiy faoliyati natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining 2002 yil 27 iyundagi 89/1 –son bayonnomasi bilan fizika kafedrasida bo'yicha dotsent ilmiy unvonida tasdiqlandi.

R.M.Mirsaatovning texnika va qishloq xo'jaligining ipakchilik sohasidagi ilmiy faoliyati tut ipak qurti pillalarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va qurilmalarni yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bilan bog'liq. Uning ilmiy rahbarligida 2015-2017 yillarda KA-4-001-raqamli «Quyosh elektr manbai bilan ta'minlanuvchi avtomatlashtirilgan mobil qurilmaning tajriba namunasini yaratish va pillalar ipakchanligini aniqlash texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha, 2018-2019 yillarda F-I-2018-001-raqamli «Pillalarni

ipakchanligini aniqlaydigan quyosh elektr manbai bilan ta’minlanuvchi avtomatlashtirilgan mobil qurilmani kichik hajmlarda ishlab chiqarishni tashkillashtirish» mavzusidagi innovatsion loyiha, hamda 2020-2023 yillarda esa MU-FZ-2019080922-raqamli «Quyosh energiyasi yordamida pillalar g‘umbagini jonsizlantiruvchi qurilmaning takomillashtirilgan tajriba namunasini yaratish va g‘umbagi jonsizlantirilgan pillalarni quritish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihalar bajarildi. Ilmiy loyihalar natijalarini amaliyotga joriy etish orqali 2 milyard so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

2016 yilda R.M.Mirsaatov Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashda “Pillalar sifatini nazorat qilishga mo‘ljallangan statistik usullarni va avtomatlashtirilgan qurilmalarni ishlab chiqish” mavzusida tayyorlagan doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘ladi. 2017 yilda esa 05.03.01-“Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari” ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvonida tasdiqlandi.

R.M. Mirsaatovning ko‘p yillik samarali ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyati davomida 200 dan ortiq ilmiy ishlari, jumladan, ilmiy maqolalari xalqaro va milliy jurnallarda chop etilgan, 30 dan ortiq uslubiy qo‘llanma va uslubiy ko‘rsatmalari, hamda monografiyasi nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentlidan 12 ta ixtiroga patent olingan, 5ta dasturiy ta’minot vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilgan. 6 ta maqolasi Scopus bazasida, 2 ta WOS bazasidagi jurnallarda chop etilgan.

Faoliyati davomida 1 ta fan doktori, 2 ta texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) tayyorlagan. Sankt Peterburg shahridagi Rossiya Fanlar akademiyasi A.F.Ioffe nomidagi Fizika-texnika institutida,

A.S.Pushkin nomidagi Sankt Peterburg davlat universitetida, Sankt Peterburg politexnika universitetida malaka oshirib qaytgan.



Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi

R.M. Mirsaatov 2020-2023 yillar davomida Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a‘zosi sifatida, 2022-2024 yillar davomida Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash a‘zosi va ilmiy seminar raisi sifatida faoliyat olib bordi. Texas Journal of Medical Science va “of American Journal of Technology and Applied Sciences” xalqaro jurnallarining hamda, “Transport vositalari va yo‘llari” ilmiy jurnalining redkollegiya a‘zosi.

2020 yil 2 sentyabrdan hozirgi vaqtgacha R.M.Mirsaatov Toshkent davlat transport universiteti “Tabiiy fanlar” kafedrasida professori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

U 2005 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste’dod» jamg‘armasida masofali o‘qitish, yangi pedagogik, axborot va innovatsion texnologiyalari yo‘nalishlari bo‘yicha malakasini oshirgan.

R.M.Mirsaatov barcha ilmiy-pedagogik pog‘onalarda ishlash davrida yetuk mutaxassis, o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan, vaziyatni obyektiv baholash hamda qaror qabul qilishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi hamda yuqori muloqot madaniyatiga ega pedagog-xodim sifatida jamoa hurmatiga sazovor bo‘lib kelgan.



MO‘MINOVA LOLA RAXIMOVNA

**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi,
pedagogika fanlari doktori, professor**

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, olima maxsus pedagogika fanining rivojiga va O‘zbekistonda defektolog-kadrlar, logopediya, oligofrenopedagogika, surdopedagogika yo‘nalishi bo‘yicha yuqori malakali kadrlarni, magistrnlarni tayyorlashda katta hissa qo‘shib kelmoqda.



Lola Raximovna Mo‘minova 1970 yilda Moskva davlat pedagogika institutini tugatib, 1974 yilgacha Toshkent psixologiya dispanserida logoped bo‘lib ishlagan. So‘ng “Kibernetika” birlashmasining aspiranturasida o‘qigan va 1979 yildan boshlab Nizomiy nomidagi davlat pedagogika instituti (hozirda

universiteti) qoshidagi “O‘zbekistondagi bolalar bog‘chasi va maktablarida bolalarga rus tilini o‘rgatish” bo‘yicha ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida katta ilmiy xodim, laboratoriya mudiri lavozimida ishlagan. 1985-1999 yillarda mazkur oliy ta‘lim muassasasida defektologiya fakulteti dekani, 1999-2001 yillarda kafedra mudiri va hozirgi kunda professor lavozimida ishlab kelmoqda.

1984 yilda L.Mo‘minova nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi.

1992 yil “Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini bartaraf etish bo‘yicha korreksion-pedagogik ishlarning ilmiy-nazariy asoslari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi, pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi va 1995 yilda professor unvoniga ega bo‘ldi.

Lola Raximovna O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muammolari institutida ilmiy kengash a‘zosi sifatida oliy ta‘lim tizimini takomillashtirish

ishida faol ishtirok etib kelgan. O'quv pedagogik ishlarni rivojlantirishda L.R.Mo'minova xorij mamlakatlari tajribasidan, jumladan, Isroildagi dunyo andozasiga mos tarzda olib boriladigan defektologiya faniga oid dasturlardan va maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o'rgatish uslubiyotidan muvaffaqiyatli foydalanib kelmoqda. Bundan tashqari, xalqaro jamg'armalar bilan yaqindan aloqa o'rnatgan.



Professor L.R.Muminova ko'p yillar davomida jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etgan. OAKning psixologiya va pedagogika eksport kengashining a'zosi bo'lgan, bir necha pedagogika, psixologiya mutaxassisligi – kandidatlik va doktorlik dissertatsiyasini yoqlash bo'yicha ixtisoslashgan ilmiy kengash a'zosi, maxsus pedagogika ixtisoslashgan kengashning rais o'rinbosari, Respublika ta'lim markazi defektologiya bo'limidagi o'quv-metodik kengashning raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatib, rejadagi ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy ishlarni o'z muddatida bajarib, uning natijalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etib kelmoqda. Kup yillar Qozoqstonda davomida Almata shahrida ayollar pedagogika institut qoshidagi maxsus pedagogika ixtisoslashgan kengashning a'zosi ham bo'lgan.



L.Mo'minova 1990 yildan boshlab maxsus pedagogika – logopediya muammolari bo'yicha Respublika fan va texnologiyalar qo'mitasidan qator fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar tayyorlab, mazkur grantlarga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.



Lola Raximovna magistraturaning logopediya mutaxassisligi defektologiya fani metodologiyasi, nutq buzilishlarining nazariyasi va metodologiyasi, maxsus pedagogika va psixologiyadagi tadqiqotlar metodologiyasi fanlaridan ma'ruzalar o'qiydi. L.R.Mo'minova bitiruv malakaviy ishlariga va magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilib kelmoqda. L.Mo'minova ustoz sifatida shogirdlari bilan universitetning ilmiy salohiyatini yanada ko'tarish uchun tinimsiz mehnat qilmoqda. Shogirdlari o'z ustozlarining izidan borib ketma-ket fan nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo'ldilar va o'z maktabiga ega bo'lib ilmiy-pedagogik faoliyatini o'z shogirdlari bilan birgalikda o'quv, metodik, ilmiy-tadqiqotlar tinimsiz olib bormoqda.

Professor L.R.Mo'minova o'z maktabiga ega bo'lib, uning ilmiy rahbarligida maxsus pedagogika yo'nalishida 13 ta fan nomzodi, 2 ta fan doktori tayyorlagan, 30 dan ortiq talaba magistrlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlab, mamlakatning ilmiy salohiyatini boyishiga hissa qo'shib, bugungi kunda 3 nafar doktorant va 3 nafar mustaqil tadqiqotchiga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqdalar.

Lola Raximovna Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazida 2006 yildan beri

ilmiy-tadqiqot loyihalarida, 2014 yildan buyon esa ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimida ishlab kelmoqda.



L.R. Mo‘minova maxsus pedagogika fanining rivojlanishiga va yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan hukumatning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to‘g‘risidagi qarorini ijrosi yo‘lidagi sa‘y-harakatlariga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Shuningdek, L.R. Mo‘minova hozirgi kunda Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti va Kasb-hunar mutaxassislari malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutining Ilmiy darajaga talabgorlar ishlarini ko‘rib chiquvchi Ixtisoslashtirilgan kengashlari va seminar a‘zosi. L.R. Mo‘minova AQSH davlat Merilend shtatidagi Lyusvill universitetida malaka oshirgan, Germaniyaning Bonn shahrida ma‘ruzalari bilan chiqishlar qilgan. Bugungi kunda xizmat safarlari asnosida Isroil, Amerika, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Litva, Xitoy davlatlaridagi defektologiya faniga oid jahon andozalariga mos keladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalar, ta‘lim-tarbiya usullaridan samarali foydalanib kelmoqda.

Lola Mo‘minova respublikamizdagi “Bola va Zamon” ilmiy-ommabop jurnali, Qozog‘istondagi “Maxsus pedagogika” (“Spetsialnaya pedagogika”), Rossiyadagi “Defektologiya”, “Almanax” jurnallarida tahririyat hay‘ati a‘zosi. L.R. Mo‘minovaning tashabbusi bilan nogironligi bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatuvchi nodavlat o‘quv korreksion-reabilitatsion markaz tashkil etgan bo‘lib, ushbu markazda oxirgi uch yil davomida 850 nafar nutqi, eshitishi, ko‘rishida muammolari bo‘lgan, aqli zaif bolalarga korreksion-pedagogik yordam ko‘rsatish bilan birga shu sohada ta‘lim olayotgan talabalar, amaliyotda faoliyat yuritayotgan 1000 dan ortiq mutaxassislarning malakasini oshirishga ham sezilarli ulush qo‘shib kelmoqda. Pedagogik faoliyatini ilmiy faoliyat bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borayotgan nafaqat o‘ziga, balki shogirdlari-yu, xodimlariga nihoyatda talabchan olima 300 dan ortiq ilmiy-ommabop maqola, monografiya, darslik, o‘quv dasturlari muallifidir. L.R. Mo‘minova 150 ga yaqin respublika va xalqaro ilmiy-amaliy, ilmiy-uslubiy anjumanlarda o‘z chiqishlari, ma‘ruzalari, respublika televideniyesi va radiosi orqali mazmunli chiqishlar bilan qatnashib, o‘z pedagogik bilimlarini mutaxassislar o‘rtasida targ‘ib etib kelmoqda.



Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markaz tomonidan uyushtiriladigan barcha ilmiy-amaliy, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda L.Mo‘minovaning tashabbuskorligi sezilib turadi. Alohida ehtiyojli bolalarning ota-onalari orasida bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi mas’uliyati xususida 300 dan davra suhbatlari va seminarlar o‘tkazdi.

Lola Raximovna Mo‘minova imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy himoyalash, respublikaning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shib kelayotgan olima, ko‘p yillik va fidokorona faol mehnati, jonkuyarligi va talabchanligi, tashkilotchilik qobiliyatlari, mehribon va shirinso‘zligi bilan barcha xodimlar, ota-onalar va sherik tashkilotlar orasida hurmat-e’tibor qozongan.



MDX mamlakatlarining inklyuziv ta’lim masalalari bo‘yicha eksperti, amaliyotchi o‘qituvchi logoped (45 yil ish tajriba), «BOLA VA ZAMON» jurnalining tahririyat a’zosi. “Logopediya”, “Maxsus psixologiya”, “Logopedik tekshirish”, “Logopedik albom”, “Nutq o‘stirish”, “Savodga tayyorlash” kompyuter dasturi “Ko‘ramiz, eshitamiz, gapiramiz» kabi qo‘llanmalar muallifi

Asosiy ish faoliyatidagi yo‘nalishlari:

- Bolalar va kattalardagi nutq buzilishlarini tuzatish;
- Bolalar va kattalardagi duduqlanishni tuzatish;
- Logopediyadagi yangi texnologiyalar;

- “Nutqsiz bolalar “ nutqini shakllantirish, NTR (nutqning to‘liq rivojlanmaganligini) mualliflik metodikasi asosida rivojlantirish;

- Mualliflik metodikasi bo‘yicha savodga o‘rgatish;

- Kompleks ravishda maktabga tayyorlash;

- Bolalarni o‘qishga o‘rgatish.



O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sohasidagi ko‘p yillik sarmahsul mehnati tufayli L.R.Muminova 2001 yilda “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan va unga 2018 yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” fahriy unvoni berilgan.

Professor L.R.Muminova rahbarligida shogirdlari o‘z ustozlarining izidan borib ketma-ket fan nomzodi ilmiy darajasiga sazovor bo‘ldilar. Jumladan: M.Yu.Ayupova, P.M.Po‘latova, X.M.Po‘latova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Hamidova, L.Sh.Nurmuxamedova, Z.M.Axmedova, D.Nazarova, U.Yu.Fayziyeva, N.X. Dadaxodjayeva, D.B.Yakubjanova va boshqalardir.

Uning ilmiy rahbarligida maxsus pedagogika yo‘nalishida 13 ta fan nomzodi va 1 fan doktori tayyorlangan. Hozirgi kunda 3 nafar doktorantga va 3 nafar mustaqil tadqiqotchiga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.



MUHIDDINOV MUSLIHIDDIN QUTBIDDINOVICH
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi,
filologiya fanlari doktori, professor

Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich — filologiya fanlari doktori, professor, navoiyshunos, adabiyotshunos olim. 1945 yil 5 mayda Samarqand viloyati Urgut tumanida ziyoli oilasida tavallud topgan. Mehnat staji 56 yil.

2016 yilda «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvoni, 2020 yilda «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlangan.

Muslihiddin Muhiddinov o‘zbek adabiyoti tarixi bo‘yicha yetuk mutaxassis, Samarqand adabiyotshunoslik maktabining faol davomchilaridan biri, bu sohada amalga oshirilgan ishlari bilan ilm ahli nazariga tushgan yetuk navoiyshunos olim. Mamlakatimizda sodir bo‘layotgan buyuk o‘zgarishlar, bunyodkorlik ishlaridan ruhlanib, uning mohiyati va ahamiyatini talabalar ongiga singdirish, ta‘lim va tarbiyani uyg‘unlashtirib

olib borishni bosh vazifa deb biladigan faol jamoatchi va fan fidoiysidir.



M.Q. Muhiddinov «O‘zbek klassik adabiyotida «Bahrom va Dilorom» hamda «Bahrom va Gulandom» siklidagi dostonlar («O‘zbek klassik adabiyotida «Bahrom Go‘r» syujetining evolyutsiyasi») mavzusida O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor G‘ulom Karimov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini 1972

yilda, «Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida inson konsepsiyasi («Xamsa»larning birinchi dostonlari asosida)» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini esa akademik Botirxon Valixojayev ilmiy maslahatchiligida 1995 yilda himoya qilgan.



M.Q.Muhiddinov o‘z mehnat faoliyatini Samarqand davlat pedagogika institutida kabinet laboranti lavozimidan boshlab, mazkur institutda 1992 yilgacha o‘qituvchi, dotsent, professor vazifasini bajaruvchi, o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha prorektor kabi vazifalarni bajardi. 1992-2020 yillarda SamDU o‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professori, «Samarqand universiteti» gazetasi muharriri, SamDU qoshidagi nomzodlik dissertatsiyalari himoya etiladigan ixtisoslashgan kengash ilmiy kotibi, ilmiy kengash raisi, 1998 yildan 2003 yilga qadar ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha SamDU birinchi prorektori, 2003-2004 yillar oralig‘ida rektor vazifasini bajaruvchi, 2004 yildan 2011 yilning may oyigacha mazkur universitetning ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori lavozimida ishlagan. 2011 yildan SamDU filologiya fakultetining o‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritmoqda.

M.Q.Muhiddinov o‘z tadqiqotlarida komil inson g‘oyasining mumtoz adabiyotdagi talqinlariga katta e‘tibor berdi. Chunki oliyjanoblik, saxovat, shijoat, yaratuvchanlik va bunyodkorlikka asoslangan – komil inson g‘oyasi istiqbolga erishgan mamlakatimizning moddiy-ma‘naviy taraqqiyotini belgilovchi omil sifatida o‘rganilishi dolzarb masalaga aylandi. Olimning ilmiy faoliyati davomida 15

ta monografiya, 10 ta darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, 400 ga yaqin ilmiy-nazariy maqolalari e‘lon qilingan. Jumladan, «Talqinlarda olamcha ma‘no», «Barhayot an‘analar», «O‘zbek klassik adabiyotida gumanizm masalasi», «Ikki olam yog‘dusi», «Alisher Navoiy va uning salafllari ijodida komil inson talqini», «Xamsa»larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri», «Adabiy an‘ana va ijodiy o‘ziga xoslik», «Komil inson – adabiyot ideali», «Nurli qalblar gulshani», G‘aribiyning «Shoh Bahrom va Dilorom» dostoni, «Navobaxsh hikmatlar», «Xalq kitoblari va mumtoz adabiyot», «Fors-tojik shoirlari ijodida komil inson talqini», «Ko‘ngil hayratlari», Germaniyaning «Lambert» nashriyatida nashr etilgan «Perfect human concepts in the first novels of the «Hamsa», «Alisher Navoi’s epic «Sab‘ai sayyar» tradition and originality» va Turkiyaning «Akademik kitablar» nashriyatida nashr etilgan «Hikmetlerde dünyaca manâ» kabi monografiyalari navoiyshunoslik, adabiyotshunoslik ilmi rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Uning bevosita rahbarligi ostida nomzodlik va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) 11 ta, 5 ta filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyalari himoya qilingan. 30 ga yaqin magistrlik va o‘nlab bakalavrluk ishlari tayyorlangan.



M.Q.Muhiddinov davlat fan-texnika qo‘mitasining «Sharq mumtoz adabiyotida komil inson konsepsiyasi» (2001-2006), «Qo‘lyozma manbalarning milliy-ma‘naviy va adabiy meros targ‘ibotidagi ahamiyati» (2007-2011), OT-F-138 raqamli «Temuriylar davrida

yaratilgan «Xamsa»larning komparativistik tadqiqi» (2017-2020) mavzularidagi fundamental grantlar sohibi bo‘lgan. Grantlar asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida 10 ga yaqin kitoblar nashrdan chiqarildi. Mazkur grantlar doirasida Respublika va Xorijiy nashrlarda 80 ga yaqin ilmiy maqola, 1 ta maqolalar to‘plami chop etildi. Hamda loyihalar doirasida 20 dan ortiq (PhD), (DSc) dissertatsiyalari himoya qilindi.



M.Q. Muhiddinov ayni paytda SamDU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli ilmiy kengash raisi, «O‘zbekiston ovozi» gazetasi, «SamDU axborotnomasi», «Til, ta‘lim va tarjima» Respublika va «Alisher Navoiy», «Buyuk ipak yo‘li», «Turkologik tadqiqotlar» xalqaro jurnallari tahrir hay‘atining a‘zosi sifatida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Ispaniya, Belgiya, Turkiya kabi mamlakatlar ilm-fanning yuqori infafaktorli, Web of Science, Scopus xalqaro bazasi tarkibidagi nufuzli jurnallarda maqolalari e‘lon qilindi.

Shuningdek, u «O‘zbekiston Mustaqilligining 15, 20, 25 va 30 yilligi», «O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil» esdalik nishonlari bilan taqdirlangan. 2015 yil yakunlari bo‘yicha Samarqand viloyatida o‘tkazilgan ikkinchi an‘anaviy «Samarqand iftixorlari» tanlovining «Viloyatimiz taraqqiyotiga qo‘shgan samarali hissasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki uchun» nominatsiyasi bo‘yicha viloyat hokimining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi. 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O‘zbekiston

Mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvoni va 2018 yilda 9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan O‘zbekiston gerbi aks etgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oltin qo‘l soati bilan taqdirlandi. 2020 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O‘zbekiston Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan «El-yurt hurmati» ordeni, 2022 yilda «Ma‘naviyat fidoiysi» ko‘krak nishoni sohibi bo‘ldi.

M. Muhiddinov respublikamizning markaziy gazeta hamda jurnallarida «Navoiy va G‘aribiy», «So‘z fazilati», «Ulug‘lik ziynati», «Milliy g‘oya – yoshlar ongiga», «Inson hayotining ma‘nosi», «Ani ismi el tilig‘a mashhur bo‘lg‘ay», «Davrimizni harakatlantiruvchi kuch», «Mamlakat kelajagi ilmi va ma‘rifatli yoshlarga bog‘liq», «Ta‘lim ham tarbiya – tarbiya ham ta‘lim» kabi ta‘lim-tarbiyaga doir hamda yoshlarning kiyinish madaniyatiga oid qator maqolalarida yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ma‘naviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish kabi masalalarni ilgari surdi.



Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda so‘zlagan ma‘ruzasi yuzasidan «Millat mas‘uliyati» (O‘zbekiston ovozi gazetasi, 2017 y, 1 yanvar), «Odamiylik ta‘rifida», «Yaxshi xulq – saodat kaliti» (O‘zA. 2017 y, 7 fevral, «O‘zbekiston ovozi», 2017, 7 fevral), «Ilmiy

maktab an’analarini davom etmoqda» («O‘zbekiston ovozi», 2017, 18 iyul), «Prezident murojaatnomasi 2017 yilning eng muhim voqeasi sifatida tarixda qoladi» («O‘zbekiston ovozi», 2018 yil, 1 yanvar), «Buyuk ma’rifat ziyosi» («O‘zbekiston ovozi», 2018, 7 aprel), «Insoniy burchimiz» («O‘zbekiston ovozi», 2018, 15 may), «Baxtli hayot strategiyasi» («O‘zbekiston ovozi», 2018, 26 iyul), «Kim kelsa imoratki, kadr topgay...» («Jamiyat», 2018 yil, 28 sentyabr), «Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar» («O‘zbekiston ovozi», 2018 yil 11 dekabr), «Jahon hamjamiyati e’tirofida» (O‘zbekiston milliy axborot agentligi, 2019 yil 5 mart), «Ma’rifat mutaassiblikka qarshi kurash demakdir» («O‘zbekiston ovozi», 2019 yil 5 noyabr), «2020 yil — orzu umidlar yili» («O‘zbekiston ovozi», 2020 yil 1 yanvar), «Prezident Shavkat Mirziyoyev – kambag‘allikni kamaytirish g‘oyasining asoschisi» («O‘zbekiston ovozi», 2020 yil 11 fevral), «Turk alfozi bila surdum maqol», «Tong yaqin, oppoq tong yaqin» (O‘zA. 2020 y., 13 aprel, «O‘zbekiston ovozi», 2020 y., 12 aprel), «Til – millat ko‘zgusi» («Yangi O‘zbekiston», 2020 y. 18 aprel), «Turkiy xalqlarning ma’naviy yalovbardori, milliy ma’naviyatimiz quyoshi» («Yangi O‘zbekiston», 2020 yil 19 iyun), «Samarqand adabiyotshunoslik maktabi» («Yangi O‘zbekiston», 2020 yil 23 oktyabr), «Mehrmuhabbat mamlakati» («Xalq so‘zi», 2021), «Bugungi mahalla – kechagi mahalla emas» (O‘zA, 2021), «Xalq roziligi yo‘lida» («O‘zbekiston ovozi», 2021), «E’tibor va g‘amxo‘rlikni hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi» («Xalq so‘zi», 2022, 4 yanvar), «Samarqand adabiy muhiti muttasil rivojlanib, takomillashmoqda» («Yangi O‘zbekiston», 2022 yil 8 yanvar), «Ta’limsiz taraqqiyot, ilm-fansiz yuksalish bo‘lmaydi» («Yangi O‘zbekiston», 2022 yil 15 yanvar), «Badiiy tafakkur va talqinda izdoshlik» («Xalq so‘zi», 2023 yil 6 may), «Murojaatnoma taraqqiyotga

munojotdir» («Jamiyat», 2023 yil 1 may), «Mening Prezidentim» («Xalq so‘zi», 2023 yil 11 iyul) kabi maqolalari Respublikaning markaziy nashrlarida chop etildi.

Qolaversa, Alisher Navoiyning to‘rt jildlik «Xazoyin ul-maoniy» (2011) devoni, ikki jildlik «Alisher Navoiy qomusiy lug‘ati» (2016. 100 b.t.), «Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi» (2022. 30 jild) tahrir hay‘ati a‘zosi, «Alisher Navoiy va XXI asr». Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallariga (Toshkent, 2016 yil, 23 may. 17.5 b.t.) taqrizchi, «Alisher Navoiy ijodi va qiyosiy tahlil masalalari» (2017) ilmiy maqolalar to‘plamiga mas’ul muharrir va so‘zboshi muallifi, «Mavlono Sakkokiy devoni»ga (Nashrga tayyorlovchi M.Hasanova, 2017 yil), «Gadoiy she’riyatida ma’naviy va lafziy san’atlar» (H.Aslanova, 2017) kitobiga, «Boburnoma»da g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri» (Isroil Sulaymonov, 2019 yil) monografiyasiga, «Ibni Davlat. «Devon»» (nashrga tayyorlovchi D.Toshniyozova, 2019 yil), «Ma’nolar mahzani» (Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar) (Olimjon Davlatov, 2020 yil), «Oqqo‘yunli muxlislar devoni» (Nashrga tayyorlovchilar A.Erkinov, R.Jabborov, 2020 yil) kitoblariga mas’ul muharrir, «Zoti bobarakot» (2020 yil) kitobining tuzuvchisi sifatida ham faoliyat ko‘rsatdi.



Samarqand shahri navoiyshunoslikning asosiy markazlaridan biri bo‘lib qolishida olimning xizmatlari katta. Olim ushbu yo‘nalishda qator monografiya va ilmiy maqolalar yozish, yosh avlodga Alisher Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha saboq berish

barobarida tadqiqotchilarni ushbu sohaga yo‘naltirib turibdi. M.Muhiddinov raisligida faoliyat ko‘rsatayotgan SamDU huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashda 2017 yildan buyon navoiyshunoslikka oid 10 ta falsafa doktori (RhD) hamda 4 ta fan doktori (DSc) ilmiy darajasi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilindi.



Ma‘lumki, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yuksalish davriga kirgan yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudratini oshirish – bugungi yosh avlodning bilimi, imon-e‘tiqodi, jismonan hamda ma‘nan barkamolligi, davlatparvarlik, vatanparvarlik ruhiyatida nechog‘li tarbiya topganligi bilan bog‘liq. Bu borada M.Muhiddinov o‘z vazifasiga jiddiy yondashadigan, murakkab masalalarni hal etish qobiliyatiga ega, bahs va tortishuvlarda xotirjam, hamkasblar va atrofdagilar orasida kamtarin, ish bilan bog‘liq muammolarni vazminlik bilan hal etadigan, respublikamizda ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlar mazmunini chuqur anglagan holda, uning muvaffaqiyatini ta‘minlashga intiladigan shaxs sifatida o‘zini namoyon etgan. U ishdagi tartib-intizomga rioya qiladi va boshqalardan ham shuni talab qiladi, yaxshi kadrlarni qadrlaydi, ularni professional o‘shishini qo‘llab-quvvatlaydi. Respublika va viloyatning ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarida faol ishtirok etadi.

Shuningdek, M.Muhiddinovning ijodiy faoliyati haqida vaqtli matbuotda ham bir qancha munosabatlar bildirildi. Xususan, Sultonmurod Olim. Komillikka oshno ko‘ngil («Ma‘rifat», 2015 yil, 10 oktyabr), Akbarov H. Komillik bo‘stonida. (Ustozlik) («O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», 2015 yil, 2 oktyabr), Jo‘raqulov M, Salohiy D. Muslihiddin Muhiddinov. (O‘zbek tili va adabiyoti, 2015 yil, 2-son, 107-108 b), Komillik sulolasi («Naqshbandiya» jurnali, 2016 yil, 1 (15), 2-16 b), Yo‘ldoshev B, Sulaymonov I. Mehribon ustoz. («Samarqand», 2015 yil, 2 may), «Alisher Navoiy va uning salafarlari ijodida inson konsepsiyasi («Xamsa»larning birinchi dostonlari asosida)» (Alisher Navoiy qomusiy lug‘at. II jildlik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati. Toshkent, 2016 y, 420-b), Komil inson – adabiyot ideali (Alisher Navoiy qomusiy lug‘at. II jildlik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati. Toshkent, 2016 y, 346-347-b), Nurli qalblar gulshani (Alisher Navoiy qomusiy lug‘at. II jildlik. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tahririyati. Toshkent, 2016 y, 347-348-b), Humoyun. Komillik istab... «Quyosh huzuriga yo‘l olgan karvon» (Toshkent, 2017, 165-170-b.), Ko‘ngil hayratlari. (Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi. Toshkent, 2022 yil. 9-jild) kabilar shular jumlasidandir.

Umuman olganda, M.Q.Muhiddinov o‘z ilmiy-pedagogik faoliyatida ma‘naviyatimizni yuksaltirishga, ajdodlarimizning boy adabiy merosini yoshlarga yetkazishda, ularni vatanimizning sodiq, idrokli, iste‘dodli farzandlari qilib tarbiyalashda butun vujudi bilan intilib fidoyilik ko‘rsatib ishlamoqda. Ishda tashkilotchi, katta hayotiy tajribaga ega, ma‘naviy yetuk murabbiy, oliyjanob kamtarin inson.



MUSAYEVA NODIRA MAXMUDOVNA
Falsafa fanlari doktori, dotsent

Nodira Musayeva 2012 yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Tashakkurnomasi, 2016 yili “O‘zbekiston Mustaqilligiga 25 yil” ko‘krak nishoni, 2022 yili “Ma‘naviyat fidoiysi” ko‘krak nishoni va 2022 yili “O‘zbekiston Mustaqilligiga 30 yil” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Umumiy mehnat staji — 48 yil. Respublika Oila va Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi eksperti, Senat qoshidagi Xotin-qizlar Kengashi a‘zosi sifatida faoliyat olib bormoqda.



N.Musayeva o‘z mehnat faoliyatini 1986-yili Buxoro viloyati Qiziltepa tumani E.Sachoqov nomli 21-son o‘rta maktabi rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchiligidan boshladi. 1994 yili Buxoro tibbiyot instituti Tarix kafedrasida o‘qituvchisi sifatida pedagogik faoliyatini davom ettirdi. U 1996-1999 yillarda

Toshkent davlat universiteti falsafa yo‘nalishiga aspiranturaga qabul qilindi. 1999-2004 yillarda Toshkent davlat universiteti Falsafa fakulteti Fakultetlararo falsafa kafedrasida o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi,



2004-2006-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi falsafa va huquq instituti doktoranti, 2006-2007-yillarda Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (UzLiDeP) Siyosiy Kengashida Mafkura bo‘limi bosh konsultanti, 2007-2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasida “Fraksiya

va partiya ishini muvofiqlashtirish” bo‘limi boshlig‘i, 2010-2016-yillarda Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashida Siyosiy ta‘lim markazi rahbari, 2016-2020-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat” bo‘limi boshlig‘i,



2020-yildan hozirga qadar “Nuroniylar” jamg‘armasi Respublika Boshqaruvining “Nuroniylarning yoshlar ta‘lim-tarbiyasida faolligini oshirish va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish” bo‘limi boshlig‘i kabi turli lavozimlarda o‘z mehnat faoliyatini davom ettirdi. U turli tashkilotlarda ishlash bilan bir qatorda nomzodlik (1999 y.) va doktorlik (2021 y.) dissertatsiyalarini himoya qildi. Shuningdek, u hozirda “Nuroniylar” Jamg‘armasi nazorat Kengashi a‘zosi. N.Musayeva «Nuroniylar» jamg‘armasi Respublika boshqaruvi bo‘lim boshlig‘i sifatida turli davlat tadbirlarida faol qatnashib kelmoqda, respublika bo‘ylab,



barcha viloyatlarda bo‘lib mamlakatimizda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarini targ‘ib etishdagi faolligi uchun

“Ma‘naviyat fidoiysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. Shuning bilan bir qatorda, xalqaro va millatlararo munosabatlarni shakllantirish va kuchaytirishda bir qancha mamlakatlar vakolatxonalarida do‘stona hamda bag‘rikenglik aloqalarini o‘rnatishda faol qatnashib keladi. Xususan, O‘zbekistondagi Ozarbayjon elchixonasi va Geydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi hamda O‘zbekistondagi Tojikiston elchixonasi va Tojik Milliy-madaniy markazi tomonidan ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlariga qo‘shgan hissalar uchun Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.



Hozirda ko‘plab teleko‘rsatuvlarda (O‘zbekiston, Madaniyat va ma‘rifat, Mahalla, Oilaviy, Yoshlar, Milliy) oila, xotin-qizlar, nuroniylar va yoshlarning jamiyat ravnaqidagi o‘rni, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, gender tengligi, korrupsiyaga qarshi kurash, yoshlar tarbiyasi, besh tashabbus kabi masalalar bilan bog‘liq interfaol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy, amaliy, ko‘p yillik xalqaro tajribaga asoslangan bilim va tafakkur bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



N.Musayeva ko‘p yillik ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi faolligi uchun turli vazirliklar va tashkilotlar tomonidan Faxriy yorliqlar va Tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.



N.Musayeva, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Germaniya, Misr, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Armaniston kabi dunyoning 10 dan ortiq davlatlarida turli anjumanlarda bo‘lib, O‘zbekistonda yoshlarning, xotin-qizlarning hamda keksa avlod vakillarining ijtimoiy-siyosiy faolligi, keng dunyoqarashi va jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasiga bag‘ishlangan ma’ruzalari bilan ishtirok etgan va e’tirof etilgan.



N.Musayeva o‘zining kasbiy hamda jamoatchilik faoliyati bilan birgalikda ilmiy salohiyatini ham namoyon qilib kelmoqda. Uning 2 kitobi chop etilgan, 70 dan ortiq maqolalari e’lon qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Toshkent shahri va viloyatlarda “Yangi O‘zbekistonda El aziz-Inson aziz” shiori ostida o‘tkazilgan “Madaniyat va ma’rifat Karvoni”, “Ma’naviyat” festivali doirasida aholi bilan, minglab insonlar bilan muloqotda faol targ‘ibotchi sifatida qatnashib, xalqimizning,

xususan nuroniylarning samimiy mehruhahabbatini qozondi.



N.Musayeva respublikaning turli hududlarida bo‘lib, oilaviy ajrimlar, oilaviy zo‘ravonliklarni oldini olish, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, oilalarda ahillik va o‘zaro mehroqibatni kuchaytirishda nuroniylarning faolligini oshirishga qaratilgan amaliy ishlarda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.



N.Musayeva o‘zining samimiyligi, kamtarligi, fidoiyligi, xalqparvarligi, mehnatsevarligi, tashabbuskorligi, o‘z kasbiga muhabbati va sadoqati tufayli, xalqimizning, xususan keksa avlod vakillari va yoshlarning mehrini qozongan.



MUSTAFAKULOV SHERZOD IGAMBERDIYEVICH

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich 1977 yil 27 sentyabrda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida tug'ilgan. Millati – o'zbek. U 1991 yilda Kattaqo'rg'on shahar 2-IDUMning 9-sinfini a'lo baholar bilan tamomlagan. 1991-1994 yillarda Kattaqo'rg'on tijorat texnikumida o'qigan.

1994-1999 yillarda Samarqand davlat arxitektura qurilish institutining bakalavriat bosqichida ta'lim olgan. 1999-2000 yillarda ushbu institutning izlanuvchi-tadqiqotchisi sifatida ilmiy faoliyat olib borgan. Iqtisodiyot sohasiga katta ishtiyoqi tufayli 2000-2003 yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida aspiranturada ilm olgan. Ma'lumoti bo'yicha mutaxassisligi qurilish iqtisodi va uni boshqarish, hududlar iqtisodiyoti va investitsiyalarni boshqarishdir.

U ilmiy faoliyatini izchil davom ettirib, 2005 yilda Bozor islohotlari ilmiy tadqiqotlar institutida Makroiqtisodiyot ASM ixtisosligi

bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. U pedagog sifatida yuqori kasbiy layoqatga ega bo'lib, 2005-2006 yillarda universitetning TDIU "Agroiqtisodiyot" kafedrasida assistenti, katta o'qituvchisi sifatida mehnat qilgan. 2009-2012 yillarda TDIU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dotsenti bo'lgan.



Sherzod Mustafakulov 2012-2013 yillarda TDIU "Sanoat iqtisodiyoti" kafedrasida mudiri mas'ul vazifasida mehnat faoliyatini amalga oshirib, davlatimiz rivoji yo'lida ilmiy, fidoyi kadrlar tayyorlashga o'z hissasini

qo‘shgan. Yuqori intellekti bilan olg‘a intiluvchi bu yosh rahbar kadrqa 2013-2017 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi “Investitsiyalar” kafedrasini mudiri lavozimi ishonib topshirildi. 2016-2017 yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti dekani sifatida sohaga yangiliklarni tezkor joriy etish yo‘lida fidoyi mehnatlari bilan jamoaga o‘rnak bo‘ldi.



U qator xorijiy mamlakatlarda “Erasmus+” loyihasi doirasida malaka oshirgan, xususan, 2011 yilda Germaniyada, 2013 yilda Luksemburgda, 2014-2015 yillarda esa Aleksandr nomidagi Texnologiyalar va ta‘lim instituti (Gretsiya)da ilmiy stajirovka o‘tagani e‘tirofqa loyiq.

Yosh olim 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi Ilmiy kengashda Makroiqtisodiyot va moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosliklari kesimida doktorlik dissertatsiyasini (DSc) himoya qilishga muvaffaq bo‘ldi. 2017 yil 12 sentyabrdan TDIUda “Universitet 3.0” xalqaro o‘quv va ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi direktori etib tayinlanib, talabchan, izlanuvchan, tashabbuskor yosh rahbar sifatida o‘z vazifalariga sidqidildan yondashgan. Uning rahbarligida universitetda fan-ta‘lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish, texnologik startaplar yaratish, shu asnodan oliygohning xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlar reytingida yuqori o‘rinlarni

egallashiga shart-sharoitlar yaratish, raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlariga tayyorlashga katta e‘tibor qaratilgan. U 2017-2019 yillarda TDIU Ilmiy ishlar prorektori mas‘ul lavozimida mehnat qildi.

Shundan so‘ng Sherzod Mustafakulov 2020-2022 yillarda Qo‘qon universiteti rektori va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengash raisi sifatida faoliyat olib bordi. Unga 2022 yilda OAK tomonidan professor ilmiy unvonini tasdiqlovchi diplom taqdim etilgan. Uning rahbarligida Qo‘qon universitetida ilmiy salohiyat va ta‘lim sifatini oshirish, modernizatsiyalash, innovatsiyalarni keng tatbiq etish, ta‘limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash, o‘quv jarayonini ish beruvchi talablariga moslashtirish hamda talabalarning o‘z ustilarida ishlashi uchun qulay muhit yaratishga alohida e‘tibor qaratildi.



Qisqa vaqt ichida istiqbolli xalqaro hamkorlik aloqalari o‘rnatilib, ilmiy-akademik ko‘rsatkichlar oshdi, oliygoh nufuzli delegatsiyalarning muhim tashriflariga mezbonlik qildi. Yoshlar ta‘limi barobarida tarbiya ishlarida ijobiy natijalarga erishildi.

Shuningdek, oliygohda o‘quv-uslubiy va ilmiy tadqiqotlar sohasida professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarga keng yo‘l ochib berildi. Sherzod Mustafakulov “Qo‘qon universiteti xabarnomasi” ilmiy-amaliy jurnaliga bosh muharrirlik qilib, tadqiqotchilarga ilmiy faoliyatlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida yuzaga chiqayotgan

muammolarni ilm asosida yechish bo'yicha qimmatli tavsiya va maslahatlarini berib bordi.

Ayni damda Sherzod Mustafakulov davlatimiz rahbari boshchiligida oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq islohotlarda tashabbuskorlik namunasini ko'rsatib, mamlakatni yetuk kadrlar bilan ta'minlash yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqda. 2022 yildan Xalqaro Nordik universiteti rektori mas'ul lavozimida oliygo'ha jamoasiga rahbarlik qilib kelmoqda. U XNU huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi Ilmiy kengashga raislik qilmoqda. Uning bosh muharrirligida "Nordik" ilmiy-amaliy elektron jurnali, "Nordik life" broshyurasi nashr etib kelinmoqda.



Uning serqirra faoliyati samarasida Nordik universiteti yurtimiz va xorijiy talabalarga yuqori sifatli ta'lim xizmatlari va imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Milliy, mintaqaviy va xalqaro ko'lam va darajada kengayib boryapti. Xorijiy hamkorliklar bois xalqaro imkoniyatlar ortib, istiqbolli dastur va loyihalar amalga oshirilyapti. Ta'lim jarayoniga qulayliklar va innovatsiyalar tizimli joriy etilyapti. Universitet o'z qadriyatlariga ega bo'lib, talabalarga qaratilgan strategik maqsad va vazifalarini yuqori darajada uddalamoqda. Nordik mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari orasida ta'limni tashkil etish xususiyatlari va faoliyat trayektoriyasi bilan o'ziga xoslik kasb etmoqda.

Sherzod Mustafakulov tashabbuslari asosida Nordikda Foundation maktabi, 12 ta zamonaviy bakalavriat yo'nalishi (kunduzgi va

sirtqi ta'lim shakllari), 6 ta magistratura mutaxassisliklari, 4 ta PhD dasturi amalga oshirilib, doktorantura va mustaqil izlanuvchilar uchun olimlikka qadar barcha sharoitlar yaratilgan.




Sherzod Mustafakulov muallifligida 170 dan ziyod ilmiy, xronolik va ommabop maqolalar, tezislar to'plamlari, darsliklar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar, ilmiy-ommabop risolalar nashr etilgan. Scopus bazasi tarkibiga kirgan xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalari chop etib kelinmoqda. Uning rahbarligi ostida o'nlab fan doktorlari (DSc), iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) dissertatsiyalarini himoya qilishmoqda. Uning, ayniqsa, "Mikroiqtisodiyot: masalalar, namunalar, topshiriqlar, testlar", "Iqtisodiyotning yetakchi soha va tarmoqlarini modernizatsiyalashda olib borilayotgan faol investitsiya siyosati: asosiy jihatlar va istiqbollar", "Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va O'zbekistonning moliya sektori: tahlillar, natijalar, xulosalar", "Ekonometrika I" o'quv qo'llanmalari, "Makroiqtisodiyot", "Moliya bozorlari va institutlari", "Xalqaro moliya" darsliklari, "Xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar" dayjesti, "Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini" monografiyasi, "Iqtisodiyot ilmi osmonida yulduzga aylanganlar" ilmiy-ommabop risolasi kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda va fanning o'ziga xosliklarini o'zlashtirishda dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Sherzod Mustafakulov oilali, 3 nafar farzandi bor.



MUSTAFAYEV SHOMUROD NORMO‘MINOVICH
Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Mustafayev Shomurod Normo‘minovich 1966-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyat, Paxtachi tumanida tug‘ilgan.



Sh.Normo‘minovich o‘z mehnat faoliyatini 1992-yildan Samarqand davlat universiteti musiqa nazariyasi, tarixi va an’anaviy ijrochilik kafedrasida o‘qituvchiligidan boshladi. 2008—2012-yillarda Samarqand davlat universiteti musiqa nazariyasi va an’anaviy ijrochilik kafedrasida katta o‘qituvchisi lavozimida ilmiy va pedagogik faoliyatini davom ettirar edi.



O‘z kasbiga bo‘lgan fidoiyligi hamda talabchanligi tufayli Samarqand davlat universiteti musiqa nazariyasi va an’anaviy ijrochilik kafedrasida rahbarlik lavozimlarida faoliyat olib bordi.



Xususan, 2013-2015-yillarda Samarqand davlat universiteti musiqa nazariyasi va an’anaviy ijrochilik kafedrasida mudiri 2018-2019-yillarda Samarqand davlat universiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti musiqa ta’limi kafedrasida mudiri, 2019-2021-yillarda Samarqand davlat universiteti San’atshunoslik fakulteti musiqa ta’limi kafedrasida mudiri lavozimida mehnat faoliyatini olib borgan.




Sh.Normo‘minovich qat’iy intizomliligi hamda talabchanligi tufayli 2021-yilda Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi. 2023-yilda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’lim a’lochisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.



Mustafayev Shomurod Normo‘minovich bir qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqa o‘quv-uslubiy materiallar muallifi bo‘lib, hozirda ushbu adabiyotlar o‘qituvchilar va talabalar bilan sifatli ta’lim tashkil qilishda qo‘llanilib

kelinmoqda.



Dotsent Mustafayev Sh.N. Loyiha tanlovlariga taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Pedagogika va psixologiya fanlari» bo‘yicha Ilmiy texnik kengashi a‘zosi, “Fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasi” Ilmiy metodik jurnali a‘zosi.





MUXAMMADIYEV KOMIL BURXONOVICH

Pedagogika fanlari doktori, professor

Muxammadiyev Komil Burxonovich, 1973 yil 25-sentyabrda Samarqand viloyati Narpay tumanida tugʻilgan. 1980 — 1988 yillari A.Navoiy nomidagi 56-sonli oʻrta maktabni oʻqigan. 1988 – 1991 yillari Y.Oxunboboyev nomli 24-sonli bilim yurtini imtiyozli diplomga tamomlagan.



1991 — 1993 yillari Litva respublikasida harbiy havo kuchlarida harbiy xizmatda boʻlgan. 1993-1994 yillari Samarqand viloyati Nurobot tumanidagi R.Jaxongirov nomli jamoa xoʻjaligida sport instruktoriga lavozimida ishlagan. 1994 yil

Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika institutining “Chaqiriqgacha harbiy tayyorgarlik va jismoniy tarbiya” fakultetiga kirgan va 1998 yil Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Universitetini tamomlagan. Shu yili yoʻllanma bilan Toshkent shahar Mehnat rezervlari koʻngilli sport jamiyatiga murabbiy-oʻqituvchi lavozimiga ishga kirgan. 1999-2000 yillar Oʻzbekiston Respublikasi bojxona qoʻmitasining bojxona kollejiga qoʻl jangi instruktoriga boʻlib ishlagan. 1999-2002 yillar Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetining “Bojxona ishi” fakultetini (sirtqi boʻlimini) tamomlagan. 2000 — 2004 yillari Toshkent shahar 92-oʻrta maktabda jismoniy tarbiya oʻqituvchisi boʻlib ishlagan. 2004-2005 yillarda 1-Respublika tibbiyot kollejida oʻqituvchi-murabbiy lavozimida oʻz faoliyatini olib borgan. 2005 – 2009 yillari Toshkent Temir yoʻl muhandislari instituti qoshidagi «Mirobod» akademik litseyida “Jismoniy tarbiya” kafedrasiga rahbari

lavozimida ishlagan. 2009-2015 yillari Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida assistenti. 2015-2016 yillari Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida katta o‘qituvchisi. 2016 – 2017 yillari Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida mudiri vazifasini bajaruvchi.



2017-2020 yillari Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti jismoniy tarbiya kafedrasida mudiri. 2020-2021 yillari Toshkent davlat transport universiteti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida mudiri, dotsenti v.b. 2023 y. — Toshkent davlat transport universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasida v.b., professori, 2024y. — h.v. Toshkent davlat transport universiteti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida mudiri v.b., professori, bir vaqtning o‘zida 2023 yil avgust oyidan buyon Xalqaro Kurash instituti o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimida ishlab kelmoqda.



U 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish “Iste’dod” jamg‘armasida malaka oshirgan.

Muxammadiyev Komil Burxonovichning ilmiy faoliyatiga nazar solarsak ekanmiz u, 2012 yildan 2018 yilgacha T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITIda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy ish olib borgan va 2018 yil 30 oktyabr kuni O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashda 13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar tarixi ixtisosliklaridan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



2019 O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy ish olib borgan va 2021 yil 21 dekabrda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashda 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi hamda



13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar tarixi ixtisosliklari bo‘yicha pedagogika fanlari doktori (DSc)

dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. U 13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi hamda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta'limotlar tarixi ixtisosliklari bo'yicha respublikamizda birinchilardan bo'lib pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qilgan olim hisoblanadi.



Komil Burxonovich

Muxammadiyevning 100 dan ortiq ilmiy ishlari e'lon qilgan, shulardan, 4 ta uslubiy qo'llanma, 8 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya va 2 ta darslik va ko'plab ilmiy maqola va tezislarni muallifi. Uning ilmiy maqolalari Amerika, Kanada, Germaniya, Hindiston va dunyoning boshqa davlatlaridagi ko'plab "SCOPUS" va yuqori "Impact-Factor" li yetakchi ilmiy jurnallarida chop etilgan.



Uning sportdagi faoliyati. Dzyudo sport turi bo'yicha 1988 yilda sport ustaligiga

nomzod, 1991 yilda Sobiq SSSR qurolli kuchlar tizimida SSSR harbiy havo kuchlarining chempioni, 1996 yili xalqaro sport ustasi. Hozirgi kunda Kurash sport turi bo'yicha, xalqaro toifadagi hakam, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi eksperti.



Muxammadiyev Komil Burxonovich ko'plab Osiyo va jahon chempionatlarida ekspert sifatida ishtirok etgan.



U o'zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo'lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo'lgan mehri bilan keng jamoatchilik, oilasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan.





MUXITDINOVA XADICHA SOBIROVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori Muxitdinova Xadicha Sobirovna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti bo'limini imtiyozli diplom bilan tugatib, o'z mehnat faoliyatini 1971- yilda Respublika rus tili adabiyoti pedagogika institutining (hozirgi O'zDJTU) o'zbek tili kafedrasida o'qituvchi lavozimidan boshlagan. Umumiy mehnat staji 53 yil.

1977-1980 yillarda Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida avval kichik, so'ngra katta ilmiy xodim, 1991-1996 yillarda Jahon iqtisodi va diplomatiya institutining o'zbek va rus tillari kafedrasida dotsenti, 1996-2001 yillarda O'zbekiston Bank-moliya akademiyasida o'quv bo'limi boshlig'i, 2001-2012 yillarda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'zbek tili kafedrasida mudiri lavozimlarida

faoliyat olib borgan, hozirgi kunda umumiy tilshunoslik kafedrasida professori.

Ko'p yillik samarali mehnatlari va erishgan yutuqlari uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan Faxriy yorliqlar bilan, 2014- yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Xalq ta'limi a'lochisi", 2021- yilda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.

1980-yilda filologiya fanlari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari ilmiy darajasiga, 2011- yilda o'zbek tilini o'qitish metodikasi ixtisosligi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 1984-yilda dotsent unvonini, 2019- yilda professor unvonini oldi.

Ilmiy izlanishlari sohasi – o'zbek tilini mamlakatimizda yashovchi turli millatlar vakillariga ikkinchi til sifatida hamda xorijiy

tillarda so‘zlashuvchilarga xorijiy til sifatida o‘qitishning intensiv metodikasini yaratish maqsadidan kelib chiqib, doktorlik ishining amaliy tatbiqi sifatida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘lim bosqichlarida rus guruhlar uchun “O‘zbek tili” fanidan 10 dan ortiq o‘quv dasturlarini tuzdi va amaliyotga tatbiq etdi. Uning bosh muallifligida ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 6-, 7-sinflari uchun (2013, 2018), 8-sinfi uchun (yakka mualliflikda, 2004, 2006, 2019), 10-, 11- sinflari uchun (2017, 2018, 2020) imkoniyati cheklangan va aqli zaiflar maktablarining 9-sinfi uchun (2016, 2021), “O‘zbek tili” darsliklari, oliy ta‘lim muassasalarining rus guruhlar uchun “O‘zbek tili” (2006, 2012), “Ilmiy ish asoslari” (2021, 2021) darsliklari yaratilgan.



Shuningdek, u kasb-hunar kollejlarning rus guruhlar uchun “O‘zbek tili” (2013), va oliy o‘quv yurtlari milliy guruhlar uchun “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2004, 2006) o‘quv qo‘llanmalari, 6-, 7- 8-sinf darsliklari uchun “O‘qituvchi kitobi” metodik qo‘llanmalari (2013), 8-sinf darslini uchun “O‘qituvchi kitobi” metodik qo‘llanmalari (2004, 2008), o‘zbekcha-ruscha, o‘zbekcha-ruscha-inglizcha, o‘zbekcha-nemischa, o‘zbekcha-xitoycha, o‘zbekcha-koreyscha o‘quv lug‘atlari hamda so‘zlashgichlarning ham bosh muallifi hamdir. Ushbu darsliklarning har biri 2-3 martadan qayta nashr qilingan, boshlang‘ich sinflar uchun tuzilgan 1.700 so‘zli va 4 ming so‘zli “O‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘at”lari esa 2011- yildan

beri talab va taklif asosida har yili ko‘p nusxada qayta-qayta nashr etilib kelinmoqda.



Xadicha Muxitdinova kitobni va kitob yozishni sevadigan, ilm sohasida sermahsul ijodkor. U 200 dan ortiq ilmiy va o‘quv-metodik ishlar, shu jumladan, 3 ta monografiya, 10 dan ortiq darsliklar, 20 dan ortiq o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va lug‘atlar, 150dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. Ushbu maqolalardan 3 tasi Scopus va Web of Science jurnallarida, 30 ga yaqini Angliya, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Tojikiston, Moldaviya va boshqa MDH davlatlari jurnallarida, konferensiyalari materiallari to‘plamlarida chop etilgan.



Uning muallifligida yaratilgan qator darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan e‘lon qilingan tanlovlar g‘olibi bo‘lgan. Jumladan, 2005- yilda yakka mualliflikda yozgan ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun «O‘zbek tili» darsligi va «O‘qituvchi kitobi» metodik qo‘llanmasi, 2013- yilda esa ta‘lim boshqa

tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarining 6- va 7-sinflari uchun uning bosh muallifligida yozilgan «O‘zbek tili» darsligi va «O‘qituvchi kitobi» metodik qo‘llanmalari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan e’lon qilingan tanlov g‘olibi bo‘lgan.



2007- yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Eng yaxshi o‘quv qo‘llanma” tanlovida oliy o‘quv yurtlarining milliy guruhlari uchun chop etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasi uchun 3-darajali diplom bilan, 2008- yilda esa boshlang‘ich sinflar uchun “O‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha rasmi lug‘at” uchun 2-darajali diplom bilan taqdirlangan. Yakka mualliflikda yaratilgan “O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi 2021-yilda O‘zR Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti va OO‘MTV hamkorligida o‘tkazilgan “O‘zbek tilini o‘qitishning eng yaxshi metodikasi” ilmiy-ijodiy ishlari tanlovining 2-darajali diplomi bilan taqdirlangan.

2020-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi buyurtmasi asosida amalga oshirilgan “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilarga o‘zbek tilini intensiv o‘rgatish uchun multimedia mahsulotlari” amaliy loyihasi asosida yaratilgan dasturiy mahsulotlar: 1 ta patent, 5 ta elektron darslik, ko‘p tilli lug‘atlar, so‘zlashgichlar va milliy-madaniy so‘zlar majmuasi uchun mualliflik guvohnomalari olingan va ular 1-darajali diplom bilan taqdirlangan. Muxitdinova

Xadicha Sobirovna malakali pedagog sifatida ko‘p yillar davomida Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi Respublika Ta’lim markazi ilmiy-metodik kengashi a’zosi, respublika fan olimpiadalari, “O‘zbek tili” doimiy anjumanlari, maktab o‘qituvchilarining avgust kengashlari, ilmiy-amaliy seminarlarning muntazam va faol ishtirokchisi bo‘lib kelgan.



Respublikamizda davlat tili ta’limini takomillashtirish, o‘zbek tili fani uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish hamda umumiy o‘rta ta’lim uchun kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan Davlat ta’lim standartlarini yaratish bo‘yicha Respublika ta’lim markazi va Ta’lim sifati inspeksiyalari qoshida tuzilgan ishchi guruhlari rahbari sifatida ham faoliyat yuritib kelgan.



Xadicha Sobirovna Muxitdinovaning sa’y-harakati bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘zbek tili kafedrasini bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, boshqa oliy ta’lim muassasalari hamda ta’lim tizimining quyi bosqichlari: umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘rtasida muntazam innovatsion korporativ hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, 2004- yildan beri

Janubiy Koreyadagi Pusan xorijiy tillar universiteti, 2009- yildan esa Rossiya Federatsiyasidagi M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg pedagogika universiteti, Moskva davlat lingvistik universitetlari o‘rtasida hamkorlik aloqalari o‘rnatildi. U tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish” intensiv o‘quv dasturi O‘zDJTU o‘zbek tili kafedrasida qoshida o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish ishlarining boshlanishiga asos bo‘lgan.



2009-2011 yillarda jahondagi eng nufuzli universitetlardan hisoblanuvchi Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat universiteti va Moskva davlat lingvistik universitetlariga xizmat safari bilan borib, rossiyalik talabalarga o‘zbek tili o‘qituvchisi sifatida faoliyat olib borgani ushbu hamkorlik aloqalarini yanada yuqori darajaga olib chiqdi. Ushbu faoliyat natijasida Moskva davlat lingvistik universitetida o‘zbek tili bo‘limi ochildi va X.S.Muxitdinova tomonidan tuzilgan “Практический курс узбекского языка” va “Профессиональная коммуникация” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari asosida o‘zbek tilining ikkinchi til sifatida bakalavr darajasida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi.

Ushbu mashg‘ulotlar samarali natijalar bergani uchun Xadicha Muxitdinovaning ish tajribasi 2010- yil Bokuda o‘tkazilgan “Диалог языков и культур” VI xalqaro forumda master-klass sifatida taqdim etildi.

2010- yil Bokuda o‘tkazilgan “Диалог языков и культур” VI xalqaro forumi yalpi yig‘ilishi va seminar treninglarida MDH davlatlari vakillari qatorida O‘zbekiston vakili X.S.Muxitdinovaning ishtiroki ham yuqori e‘tirofga sazovor bo‘ldi.

2012- yilda esa Moskva davlat universiteti professori, taniqli turkolog olim D.M. Nasilov bilan hammualliflikda MDH davlatlari uchun “Учебник узбекского языка” darsligi ham nashr qilindi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish, o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi zamonaviy metodikani yaratish masalalaridagi uzoq yillik izlanishlari 2020- yilda O‘zR innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e‘lon qilingan tanlovda “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o‘zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlari majmuasi” amaliy loyihasini qo‘lga kiritilishiga olib keldi. Mazkur loyiha doirasida 5 ta til – ingliz, nemis, rus, xitoy va koreys tillarida so‘zlashuvchilar uchun multimedia ishlanmalaridan iborat elektron darslik, ko‘p tilli lug‘atlar va so‘zlashgichlar, milliy-madaniy so‘zlarning glossariysidan iborat majmua yaratildi va 2022- yilda Rossiya Federatsiyasida, 2024- yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari ta‘lim muassasalarida aprobatsiya qilindi.

Loyiha tarkibidagi “Xorijliklarga o‘zbek tili” (A1-A2) elektron darsligi Rossiyaning Moskva davlat lingvistik universiteti, AQShning Indiana universitetida yuqori e‘tirofga sazovor bo‘ldi va amaliy qo‘llash uchun olib qolindi. Bu jahonning eng rivojlangan mamlakatlari bilan o‘zbek tili ta‘limi sohasida mustahkam ko‘prik o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi.

“Xorijliklarga o‘zbek tili” (A1-A2) elektron darsligi materiallari rossiyalik mutaxassislar tomonidan ham qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘ldi. 2023- yil yanvarda MDLU rektori prof. I.A.Krayeva va xalqaro bo‘lim rahbarlari bilan uchrashuvda o‘zbek tilini o‘qitish bakalavr darajasidan

magistratura darajasiga olib chiqish masalalarida ham kelishib olindi.

2024- yil 1-2-fevral kunlari Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi Indiana universiteti CeLCAR (O‘rta Osiyo tillar markazi)da o‘tkazilgan ilmiy-amaliy seminarda loyiha natijasida yaratilgan elektron darslik yuqori baholanib, amerikalik talabalarga o‘zbek tilini o‘qitish uchun qabul qilindi. Mazkur uchrashuvda X.Muxitdinova o‘z darsliklarini Indiana universiteti fondiga taqdim etdi. 9 qavatli binoda joylashgan Herman B Wells kutubxonasi o‘zbek tili va adabiyotidan ham o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar mavjudligi ma‘lum bo‘ldi. Xadicha Muxitdinova taqdim etgan darsliklar ham mazkur kutubxona fondiga kiritildi. Ayni vaqtda Indiana universiteti tomonidan sovg‘a qilingan “O‘zbek tili” va “Uyg‘ur tili” darsliklari ham O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining axborot-resurs markazi fondiga topshirildi.



Muxitdinova Xadicha Sobirovna bir necha yil universitet iqtidorli talabalariga rahbarlik qilib, 10 dan ortiq stipendiatlar chiqishiga, 200 ortiq talabalarning ilmiy maqolalari chop etilishiga ko‘mak bergan. Uning tashabbusi bilan universitetda iqtidorli talabalarining muntazam faoliyat olib boruvchi ilmiy-amaliy seminar, o‘zbek tili kafedrasini tomonidan “Istiqlol va til”, “Izlanish va ijod” to‘plamlarini muntazam chop etib turilishi yo‘lga qo‘yildi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida talabalarning “Zakovat” klubi tashkil etildi.

Shuningdek, u oliy ta‘lim – maktab – mahalla bilan hamkorlikdagi ishlarning ham faol ishtirokchisi. Jumladan, universitet yaqinidagi mahallada ochilgan SHIFO-FAYZ-ZIYO markaziga o‘zbek tili va ingliz, rus,

koreys tillaridan dars berish uchun iqtidorli talabalarni jalb qilishda hamda mahalla – maktab – universitet hamkorligini yo‘lga qo‘yishga bevosita hissa qo‘shib, talabalarni amaliy pedagogik faoliyatlarini boshlashlariga ham undab kelmoqda.

Muxitdinova Xadicha Sobirovna ko‘p yillar davomida Respublika Ta‘lim markazi Ilmiy-metodik kengashi a‘zosi, Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dss.27.06.2017. Ped.26.01 raqamli ilmiy kengash va uning qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc 03/30.12.2019. Fil.19/01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash va ilmiy seminar a‘zosi, Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD. 03/04.06.2020. Fil.113/02 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash a‘zosi.

U 1 ta fan doktori, 7 ta fan nomzodi yetishtirgan, 20 dan ortiq magistr larga ilmiy rahbarlik qilgan olim. Hozirgi kunda uning bevosita rahbarligida 4 ta doktorlik, 8 ta nomzodlik dissertatsiyasi tayyorlanmoqda.

Muxitdinova Xadicha Sobirovna yaxshi tashkilotchi, malakali mutaxassis, tajribali pedagog, halol va to‘g‘ri so‘z inson. O‘z kasbiga sadoqatligi, mas‘uliyatligi, jonkuyar, fidoyiligi bilan universitet jamoatchiligi, talabalar, hamkasblari hurmat-e‘tiboriga sazovor bo‘lgan inson. Uning hayot yo‘li, pedagogik tajribasi O‘zbekiston Markaziy televideniyesining “Saodatli umr”, “Shukrona” ko‘rsatuvlarida yoritilgan, ko‘plab radio va telekanallarning dolzarb eshittirishlarining faol ishtirokchisi.

Oliy maqsadi va shiori: “Ona tilimizning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori va nufuzini yuksaltirish, jamiyatimizda til madaniyatini oshirish, O‘zbekistonni jahonga tanitish”dir.



NASIROVA MALIKA ANVAROVNA

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

1967-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1990-yili Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) sharq fakulteti arab filologiyasi kafedrasini tamomlab, o‘sha yildan boshlab 2018 — yilgacha Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida turli lavozimlarda ishlagan: 1991-yildan arab filologiyasi kafedrasida o‘qituvchisi, 1995-yildan katta o‘qituvchi, 2005-yildan dotsent, 2006 -2007 yillar kafedra mudiri, 2017-2018-yillar arab filologiyasi kafedrasida professori vazifasini bajargan. 2018-2023 yillar O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi” kafedrasida mudiri.

Nasirova Malika ilmiy faoliyati davomida arab tilshunosligi masalalari, arab tilshunosligiga oid qo‘lyozmalar bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. U arab filologiyasining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy maqola va o‘quv

adabiyotlari muallifidir. M.Nasirova universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi, jumladan Rossiya, Turkiya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Turkmaniston, Ozarbayjon, Dog‘iston kabi davlatlarda o‘tkazilgan ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlarda o‘z ma‘ruzalari bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



Nasirova Malika Anvarovna Arab tilining nazariy grammatikasi, Arab tili tarixi, Arab tili stilistikasi, Arab mamlakatlaridagi til vaziyati va siyosati bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan. U 120 dan ortiq ilmiy, o‘quv-uslubiy ishlar e‘lon qilgan, shulardan 2 ta

monografiya, 6 ta darslik, 6 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 70 dan ortiq ilmiy maqola chop etgan. Ayrim maqolalari Islom ensiklopediyasiga kiritilgan. M.Nasirova tomonidan tayyorlangan barcha darslik va o‘quv qo‘llanmalar Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashining grifini olgan.

Hozirda bu o‘quv adabiyotlari chop etilib, xorijiy va sharq filologiyasi yo‘nalishida o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, uning ilmiy tadqiqotlari yuzasidan 50 dan ortiq ilmiy maqola mamlakatimiz va chet el ilmiy jurnallarida, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar to‘plamlarida chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan EHM dasturlari va elektron ma’lumotlar bazasi uchun 7 ta mualliflik guvohnomasi olingan. 2013-yil “Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti muallifi” respublika tanlovining g‘olibi bo‘lgan.



M.A. Nasirova 2003-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzuridagi Ixtisoslashgan kengashda Mahmud Zamaxshariyning ‘Al-Unmuzaj fi-n-nahv’ risolasi arab tili grammatikasiga oid asar mavzusida 10.02.22- “Osiyo, Afrika xalqlari, Amerika va Avstraliya tub xalqlari tillari” ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2007-yilda dotsent unvonini olgan.

M.A. Nasirova 33 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari) ta’lim yo‘nalishi bakalavr bosqichi talabalariga Arab tili, Arab tilini o‘qitish metodikasi, Arab tili

leksikologiyasi, Arab tilshunosligi, Mutaxassislikka kirish fanlaridan, Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha), Falsafa, Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisliklarida Mutaxassislikka oid maxsus adabiyot tahlili, O‘rganilayotgan til (arab) tarixi, Tilshunoslik bilimlari tarixi, O‘rta asr arab nahvidan namunalar, Arab tili stilistikasi, O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyati va siyosati (arab mamlakatlari) kabi fanlardan o‘zbek va rus guruhlarida dars berib kelmoqda. Shuningdek, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik mutaxassisligida Sharq matnshunosligi, Adabiy manbaning filologik tadqiqi fanlarida talabalarga qo‘lyozma o‘qish sirlarini o‘rgatadi.



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Sifat hay’ati” kengashi raisi (2008-2018- yillar) sifatida faoliyat yuritib universitet va kafedralar o‘quv-uslubiy salohiyatini sifatini yaxshilash, oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalari borasidagi faoliyatini kuchaytirish yuzasidan yuqori natijalarga erishishga muvaffaq bo‘lgan. U pedagog-olim sifatida kafedra tomonidan o‘qitiladigan sharq tillari va mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarini yaratish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Uning yakka mualliflikda tayyorlagan fan dasturlari, o‘quv-tarqatma materiallaridan TDSHU, O‘zXIA va Oriental universitetlari o‘quv jarayonida foydalanib kelinmoqda. Shuningdek, bir qator o‘quv adabiyotlari va monografiyalarga mas’ul muharrirlik, o‘quv adabiyotlari va dasturlari,

dissertatsiya, avtoreferat, bitiruv loyiha ishlari va ilmiy maqolalarga xulosa va taqrizlar bergan.

M.A. Nasirova rahbarligida 30 dan ortiq bakalavr, 40 dan ortiq magistr, shuningdek, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Ayni vaqtda ham tayanch doktorantlar va magistrlik ishlariga ilmiy rahbar.



U 2006, 2019 va 2022-yillarda Misr Arab Respublikasi Qohira universitetida, Saudiya Arabistonida “Arab tili va adabiyoti bo‘yicha pedagog kadrlar malakasini oshirish” kurslarini, 2022-yili Podshox Salmon nomidagi Xalqaro arab tilini o‘qitishni o‘rgatish markazi hamkorligida “Arab bo‘lmaganlar uchun arab tilini o‘qitish” onlayn malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan va shuningdek, o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan.

M.A. Nasirova o‘zining kasbiy faoliyati bilan bir qatorda Ilmiy Kengash va Ilmiy seminarlarda ham faoliyat olib bormoqda. U Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DK 067.70.02 raqamli Ixtisoslashgan kengash a‘zosi (2004-2006) hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zo sifatida ishtirok etib kelmoqda.

M.A. Nasirova – 2010-2021 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Ta‘lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida xorijiy diplomlarni nostrifikatsiya qilish bo‘yicha ekspert bo‘lib

ishlagan. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy–texnik instituti hozirda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti talabalari uchun “Arab tili” darsligi muallifi (2018).



M.A.Nasirova tashabbusi bilan Oriental universitetida O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatdan o‘tgan ilmiy “Al-Buxoriy” va “Iqtisod, menejment va pul” jurnallar joriy etilib, hozirda universitetning professor-o‘qituvchilar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalarini ushbu jurnallarda e‘lon qilib borishmoqda.

Bundan tashqari M.A.Nasirova Oriental universitetining “Al-Buxoriy” ilmiy jurnalining bosh muharrir o‘rinbosari va “PEDAGOGY SCIENTIFIC JOURNAL” xalqaro jurnali tahrir hay‘ati a‘zosi.

Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgani, o‘zining samarali mehnati bilan barkamol avlodni voyaga yetkazish, uylarni vatanparvarlik va istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash va milliy qadriyatlarimizni keng targ‘ib qilish borasida ibratli faoliyat olib borayotganligi uchun “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi” ko‘krak nishoni (2021-yil), O‘z R Bosh vaziri o‘rinbosari Z.B.Maxkamov (2022), Olmazor tumani hokimi A.Umarxonov (2024), Respublika yosh ijodkorlari kengashi raisi (2018), TDSHU va O‘zXIA rektorlari tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan taqdirlangan.

2023-yil sentyabr oyidan hozirgi vaqtga qadar Oriental universitetida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor lavozimida ishlab kelmoqda.



NIZOMIDDINOV NAJMIDDIN G'ULOMOVICH

Filologiya va tarix fanlari doktori, professor

Najmiddin Nizomiddinov 2013-yil «Bobur xalqaro mukofoti» va 2017-yil «Shuhrat medali» bilan mukofotlanib, 2022 yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasining nishoni bilan taqdirlangan. U Toshkent Davlat universitetining talabasi sifatida 1969-1970 yillari Hindistonning La-khnau universitetida magistrlik bo'yicha tahsil olgach o'z pedagogik faoliyatini boshlagan.



N.Nizomiddinov 1971-1991 yillar oralig'ida 12 yil Hindiston va Pokiston davlatlarida hind, urdu va ingliz tillari bo'yicha tarjimonlik vazifasini o'tagan. O'tgan yillar jarayonida u shuningdek, «Brah-ma Kumaris World Spirital University» filialida Raja yoga ta'limoti va amaliyoti yuzasidan tahsil olgan.N.Nizomiddinov 1991 yildan to 2007 yilgacha O'z.FA Alisher Navoiy nomli Davlat

adabiyot muzeyida yetakchi ilmiy xodim bo'lib ishlagan. U muzeydagi ilmiy faoliyati davrida 1994 yili filologiya fanlari nomzodi hamda 2002 yili filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini himoya qil-gan. Holbuki, N.Nizomiddinovning 2000-yili dotsentlik va 2022-yili olgan fan doktori attestatsiyalari, olim izlanishlarining yakuniy natijasi emasdi. Chunki uning 2024 yili tarix fani bo'yicha yoqlagan ikkinchi doktorlik dissertatsiyasi, muallifning ta'kidicha, buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asari muqaddimasida qilgan quyidagi bashoratining amaliy javobi edi:

«Shunday davr keladiki, unda mening olib borayotgan tadqiqotim bilan qiziquvchi avlodlar paydo bo'ladi».

Bu bashoratning bejiz emasligi, jahon iqtisodiyoti tanazzuli vaqtida taraqqiyotga yuz tutgan Xitoy, Hindiston, Koreya va Yaponiya singari davlat-lar faoliyatida ayon bo'ldi. Demak, shu nuqtayi nazardan ikkinchi doktorlik dissertatsiyasi mavzusi zamirida har uch mintaqa xalqlari qadimgi tarixi, diniy va dunyoviy qadriyatlarini ilk bor yaxlit ilmiy muomalaga kiritilishi, agar bir tomondan, o'zbek xalqining Janubiy, Janubi-Sharqiy va Shar-qiy Osiyo xalqlari bilan qadimdan mavjud

do‘stlik munosabatlarini mustahkamlashga hissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan, ushbu mintaqalar davlatlari bilan yangi O‘zbekistonning madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi rivojiga ma‘nan xizmat qilishi bilan muhim. Sababi, dissertant ta‘kidicha, xar bir xalqning qadimgi tarixi va diniy e‘tiqodi asosida shakllangan milliy mentalitetidan xabardor bo‘lish, mantiqan o‘zaro hamkorlik muvaffaqiyatining amaliy garovidir.

Darvoqe, mazkur mavzu ilmiy tahlili va tatqiqi yuzasidan o‘tgan 30 yil davomida dastlab 75dan ziyod maqolalar e‘lon qilinib, ularning ichida shuningdek, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Hindiston, Niderlandiya hamda AQSH-da ham maqolalari chop etilgan.



N.Nizametdinov adabiyot muzeyida ishlagan vaqtdan boshlab Hindiston turkiy tili va adabiyoti tadqiqoti bilan bir qatorda, yuqorida aytilgan Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyati mavzularida izchil ilmiy faoliyat olib borgan.



N.Nizomiddinov har uch mintaqaning yirik davlatlari – Hindiston, Xitoy, Malayziya,

Afg‘oniston, Indoneziya, Koreya va Yaponiyaning qadim tarixi, diniy e‘tiqodi va madaniyatiga bag‘ishlangan monografiyalar yaratgan.

N.Nizametdinov ilmiy faoliyatining keyingi davridagi natijalari, o‘zining o‘tgan yillarda mahalliy va xorijiy tillarda chop etilgan tarixiy, diniy va adabiy manbalar ma‘lumotlari bilan boyitilib, (10 dan ortiq) nashr etilgan monografiyalari bilan xarakterli.

N.Nizametdinov o‘zining pedagogik faoliyatida tarix, diniy e‘tiqod, madaniyat, san‘atga doir mavzularda o‘quv qo‘llanmalar hamda darsliklar ham yaratgan.

N.Nizametdinovning ilmiy-ijodiy faoliyati xususida yana shuni ham ta‘kidlash joizki, u Hindiston va Pokistonda ishlagan davrida hind, urdu va ingliz tillari tarjimoni sifatida bevosita tibbiyot sohasida ham xizmat qilgan. Shu bois u tibbiy muolajalar jarayonida to‘plangan tajriba hamda yoga va tasavvuf ta‘limotlarining nazariy va amaliy mashg‘uloti bilan shug‘ullanishi natijasida bir necha tibbiy mavzudagi risolalarni yaratgan.


Kezi kelganda yana shuni ham aytish kerak, N.Nizomiddinov Toshkent xalqaro kinofestivallarida nafaqat Raj Kapurlar sulolasi, balki shuningdek, Amitabh Bachchan, Pran, Shabana Azmiy kabi mashhur kino yulduzlariga xizmat ko‘rsatgan, balki u shuningdek, bevosita o‘zbek va hind kino san‘atkorlari hamkorlikda yaratgan filmda ham ishtirok etgan. Shu bois bo‘lsa kerak, N.Nizomiddinovning «So‘z sizga – janob Raj Kapur» yoki «Bu men – Raj Kapur bo‘laman» degan risolalari hamon hind kino muxlislari orasida eslab turiladi.

Xulosa qilib aytganda, N.Nizomiddinov turli tashkilotlar va oliy o‘quv yurtlaridagi tadbirlarda o‘z qiziqarli ma‘ruzalari bilan qatnashib, ularning tashakkurnomalari bilan taqdirlangan. U o‘zi xizmat qilayotgan O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi jamoasida o‘zining kamtarona va do‘stona muomala-munosabati bilan ajralib turadi.



NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rustam Nizomov 2022 yili “O‘zbekiston Mustaqilligiga 30 yil” esdalik nishoni, 2023-yili “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Umumiy mehnat staji — 24 yil. R.Nizomov mehnat faoliyati davomida 2007-2008 yillar Ekosan xalqaro tashkiloti Yunusobod tumani direktori, 2008-2009 yillarda esa Toshkent shahar va viloyat filiallari direktor o‘rinbosari lavozimida hamda 2009-2017 yillarda O‘zbekiston Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot

instituti aspiranti va institutning texnologiya laboratoriyasida kichik ilmiy xodim, 2017-2018 yillarda institut direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, 2018 yilda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazining bog‘dorchilik va sabzavotchilik seleksiyasi, urug‘chiligi va agrotexnologiyalari sohasida ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i lavozimlarida hamda 2018 yildan hozirgi kunga qadar Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. U turli tashkilotlarda ishlash bilan bir qatorda 2017 yildan hozirgi kunga qadar o‘rindoshlik maqomi asosida Toshkent davlat agrar universitetining Sabzavotchilik va issiqxona xo‘jaligini tashkil etish kafedrasida pedagogik faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirda ko‘plab teleko‘rsatuvlarda (O‘zbekiston, O‘zbekiston 24, Mahalla, Sevimli, Yoshlar, Milliy, O‘zbekiston,) sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini innovatsion usullarda

yetishtirish, urug'chilikni tashkil qilish kabi masalalar bilan bog'liq interfaol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy-amaliy, ko'p yillik xalqaro tajribaga asoslangan bilim va tafakkur bilan faol ishtirok etib kelmoqda.



R. Nizomov o'zining pedagogik faoliyati davomida bakalavrlarga Sabzavotchilik, magistrarga Plyonka ostida sabzavot yetishtirish texnologiyasi, Kartoshka urug'chiligi, Kartoshka tuganaklarini ekishga tayyorlash usullari fanlaridan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulot darslarini olib bordi.

1. R. Nizomov 3 nafar xodimlarga ilmiy rahbarlik qilgan, hozirgi kunda ushbu xodimlar qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilishgan.



2. Bundan tashqari yana 3 nafar qishloq xo'jaligi fanlari doktori darajasini (ScD) va 7 nafar qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini himoya qilayotgan yosh ilmiy xodimlarga (PhD) ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

R. Nizomov o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida bir qancha loyihalarda

ishtirok etdi. 2008-2010 yillarda QXA-8-011 "Tomatdosh ekinlarning resurs tejamkor parvarishlash texnologiyasini va texnik vositalar kompleksini ishlab chiqish" loyihasida 2011-2012 yillarda QXI-1-15 "Sabzavot, poliz, kartoshka ekinlarining qurg'oqchilikka va tuproq sho'rlanishiga chidamli navlarini tanlash va fermer xo'jaliklariga joriy qilish" amaliy loyiha ijrochisi, 2012-2014 yillarda QXA-7-051 "Sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish uchun yuqori samarali suv tejamkor agrotexnologiyalarni va texnik vositalar kompleksini ishlab chiqish" innovatsion loyiha ijrochisi, 2014-2017 yillar uchun mo'ljallangan QXA-9-036-2015 "Tomatdosh va ildizmevali sabzavotlarning yangi rayonlashgan istiqbolli navlaridan qurg'oqchilikka, issiqlikka chidamlilarini tanlash hamda turli ekish usullari orqali resurstejamkor texnologiyalarni metodologiyasi" mavzusidagi amaliy loyiha ijrochisi, 2018-2020 yillar QHA-QH-117-2008 "Kartoshkaning yuqori hosilli, ertapishar, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish va virusdan holi birlamchi urug'chiligini tashkil qilish" mavzusidagi amaliy loyiha rahbari, 2018-2019 QH-I-QH-2018-24 "Bodringning issiqxona uchun mo'ljallangan yangi Sardor F1 duragayi urug'chiligini tashkil etish va ishlab chiqarishga joriy qilish" mavzusidagi innovatsion loyiha rahbari, 2020-2022 yillarda IZ-201911096 "Ochiq maydonlarda ekiladigan eksportbop qovunlarning yangi navlarini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha rahbari sifatida, 2022-2023 yillar uchun mo'ljallangan IL-632204154 orolbo'yi hududida sabzavot (osh lavlagi, sabzi, oqbosh karam) va kartoshka navlarining birlamchi urug'chiligini tashkil etish, mahsulot yetishtirishning zamonaviy agrotexnologiyalarini joriy etish mavzusidagi innovatsion loyiha ijrochisi sifatida faoliyat yuritib mazkur loyihalarning muvaffaqiyatli bajarilishida o'zining salmoqli hissasini qo'shgan.

Hozirgi kunda R.Nizomov 2024-2026 yillarga mo'ljallangan 2 ta loyihada ya'ni BMT ning EU-Agrin: qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorining "yashil iqtisodiyot"ga inklyuziv o'tishini qo'llab quvvatlash va iqlimga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsion tizimini rivojlantirish loyihasi rahbari hamda Janubiy Koreyaning AFASI tashkiloti ni "Osiyo mintaqasida sabzavot yetishtirish texnologiyasini rivojlantirish" loyihasi rahbari lavozimida ishlab kelmoqda.



R.A.Nizomov 2018–2024 yillar davomida olib borilgan ilmiy ish natijasida jami 12 ta patentning hammuallifi bo'ldi, shundan o'zi yaratgan navlari bo'yicha 6 ta patentga guvohnomalar olingan.



1. R.A.Nizomov 2018–2024 yillar davomida olib borilgan izlanishlari, sabzavot ekinlarini yetishtirish texnologiyalari bo'yicha ko'p yillik ilmiy tajribasi va turli ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari bilan faol hamkorlik, o'z shogirdlarini istiqbolli liniyalar bilan ta'minlash, uslubiy yordam va sabzavot ekinlarini innovatsion usullarda yetishtirish texnologiyalari va ularni urug'chiligini yo'lga qo'yish natijasida 11 turdagi qishloq xo'jalik

ekinlarining 21 ta navlarining hammuallifi hisoblanadi. Ushbu navlar orasida R.A.Nizomov 11 turdagi ekinlarning 7 ta navlari birinchi yoki ikkinchi hammuallifdir (pomidor, achchiq qalampir, bamiya, bodring, sarimsoq, artishok, rokambol, rayhon, qovun, kartoshka). Yangi navlarni yaratish borasida SPEvaKITI olimlari hamkorligida R.A.Nizomov tomonidan boshqariladigan 7 ta navlarida hammualliflik bor, shundan bodring navi "G'alaba" (2020) va "Musaffo" (2020), boring "Dayara" (2019) va "Shirin"(2019), Artishok "Janub go'zali" (2020), sarimsoq "Janub" (2020)va Surxon vohasirayxon "Gulchaman" (2020), qovun "Novotkalla" (2022)va "Oftob"(2020), bamiya "Toshkent tuhfasi"(2022), achchiq qalampir "Sharq gavhari", pomidor "Yulduz" (2018)va "Mustaqillik 28" (2022), kartoshka "Bog'izag'on" (2021). Oxirgi yillarda R.Nizomov boshchiligida institut olimlari bilan birgalikda bir qancha yangi ishlanmalar tayyorlandi. Jumladan "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining 2024-yilda ilmiy-innovatsion faoliyati bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan yangi "drayver" ilmiy yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbir dasturi"ga muvofiq institutida **jami 12 ta** (jumladan, bodring (issiqxona uchun) pomidor, shirin qalampir, achchiq qalampir, baqlajon, oqbosh karam, piyoz, sarimsoq, qovoqcha, qovoq, qovun va kartoshkaning) yangi nav va duragaylari seleksiyasi bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori tomonidan 2024 yil 21 fevralda tasdiqlangan "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutida seleksiyaning yangi usul va uslublarini qo'llagan holda sabzavot, poliz va kartoshkaning yuqori hosildor, qurg'oqchilikka, sho'rga va kasalliklarga chidamli, meva sifati yuqori bo'lgan F₁ duragaylarini yaratish va birlamchi

urug‘chiligini tashkil etish bo‘yicha 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi”ga muvofiq sabzavot va polizning **8 ta turi** duragaylari seleksiyasi va **3 turi** duragay urug‘chiligi bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.



Bundan tashqari, R.Nizomov va institut olimlari tomonidan amalga oshirilgan seleksiya ishlari natijasida qovunning “Qizil mag‘iz”, baqlajonning “Barhayot”, “Qutlug‘ navlari va “Barkamol” F₁ duragayi, sarimsoqning “Termiz-2020”, bamiyaning “Shafaq” va “Zamin”, achchiq qalampirni “Niyat” va “Dilnoz-2019” singari jami **9 ta** yangi nav va duragay ixtiro qilindi va Davlat nav sinash markaziga va Intellektual mulk agentligiga topshirildi.



Ushbu navlari Respublika qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarishiga joriy qilindi. Yangi navlarni yaratish, sabzavot assortimentini ko‘paytirish maqsadida xorijiy germoplazmalarni jalb etish natijasida Butunjaxon Sabzavotchilik markazidan — achchiq qalampirni 48 ta, shirin qalampir 41 ta, pomidor — 11 ta, jami 100 ta; Janubiy Koreyadan sabzavotni – 13 ta ekin turini 21 ta;

Rossiya Federasiyasidan sabzavotni 36 ta ekin turini bo‘yicha 250 ta; Vetnamdan sabzavot va polizni 51 ta ekin turini 82 ta; Turkiyadan sabzavot va polizni — 14 ta ekin turini 35 ta nav namunalari (germoplazmalar) olib kelindi

Hozirgi kunda institutning Sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari genbanki laboratoriyasi genofondini boyitish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida 2024 yil 1- yarim yillikda Vyetnam meva-sabzavotchilik ilmiy-tadqiqot institutidan sabzavot va polizning **18 ta** turidan **85 ta** nav namunalari urug‘lari R.Nizomov boshchiligidida olib kelindi va institut laboratoriyalariga taqdim etildi hamda mazkur laboratoriyada sabzavot va poliz ekinlarining **52 ta** ekin turi bo‘yicha **1171 ta** nav namunalari saqlanmoqda.



R.A.Nizomov Koreya, Amerika, Yaponiya va Vengriya kabi mamlakatlarining 10 dan ortiq Xalqaro konferensiyalarda ma‘ruzalar bilan ishtirok etdi. R.A.Nizomov barcha institut tadbirlarida faol qatnashmoqda va tashkil etmoqda.

Bundan tashqari R.Nizomov yosh olimlarni ilm olib chet el davlatlaridagi olimlar bilan tajribalar almashinishida Vengriya, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Belorussiya, Turkiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy kabi davlatlar bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan.

Ilmiy faoliyati davomida u jamoa ishlarida faol qatnashib, Ilmiy Kengashi raisi, uslubiy komissiya raisi, tahririyat-nashr komissiyasi raisi va boshqa kengashlarda ekspert sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Hozirgi paytda u Sabzavot, poliz ekinlari va

kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.05/30.09.2022.Qx.152.01-raqamli Ilmiy kengashi raisi hisoblanadi.



R.A.Nizomov ilmiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmoqda. 2020-2022 yillarda Innovatsion rivojlanish vazirligining Qishloq xo‘jaligi va atrof muhitni muhofaza qilish fanlari ilmiy texnik kengash a‘zosi bo‘lgan. R.A.Nizomov ilmiy va jamoat xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining (2021, 2022), Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining (2021), Xalqaro Qishloq xo‘jaligi Universitetining (2022) tashakkurnomalari bilan taqdirlandi. Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kengashi (2022 yil 17 noyabrdagi 15-son) yig‘ilishining qarori bilan 06.01.06. — “Sabzavotchilik” ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoniga tavsiya etildi va professor unvoni bilan taqdirlandi.



R.Nizomov o‘z kasbiy hamda jamoatchilik faoliyati bilan birgalikda ilmiy

salohiyatini ham namoyon qilib kelmoqda. Turli ilmiy nashrlarda uning maqolalari e‘lon qilingan.



R.Nizomov tomonidan hozirgi kunga qadar 115 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishdan oldin R.A.Nizomov 31 ta maqola chop etdi. Shu davrda ilmiy xodim lavozimida ham ishlab u dissertatsiya mavzusiga aloqador bo‘lmagan boshqa ekinlar bo‘yicha yana 40 dan ortiq maqola chop etdi.



Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgandan so‘ng, R.A.Nizomov mahalliy va xorijiy jurnallarda jami 84 ta ilmiy ishlarni nashr etdi. Shu jumladan, monografiyalar — 1 ta, maqolalar ilmiy jurnallarda — 32 (shundan xorijiy — 10), tavsiyanomalar — 11 simpoziumlar va konferensiyalar to‘plamlarida ilmiy maqolalar – 23 (shulardan xorijiy — 3). Nizomov R.A. ning 115 ta nashridan 20 % xorijiy nashrlarda nashr etildi, shundan 15% ingliz tilida.



OCHILOVA BAXTI MURODOVNA

Falsafa fanlari doktori, professor

Ochilova Baxti Murodovna – 1961-yil Jizzax viloyati, Jizzax shahrida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma’lumoti oliy.

Ochilova Baxti Murodovna 1979-1984 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “Tarix-jamiyatshunoslik” fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. 1984-1986 yillar davomida Rossiya Fanlar akademiyasining Falsafa institutida 09.00.11-Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha stajyor-tadqiqotchisi sifatida ilmiy faoliyatini olib borgan. 1988-1991 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq institutining aspiranturasida o‘qigan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti huzuridagi falsafa fanlari doktori (nomzodi) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha D015.03.01 raqamli Birlashgan Ixtisoslashgan kengashda “Milliy an’anaviy marosimlar va shaxsning ijtimoiylashuvi” mavzusida 09.00.11–Ijtimoiy

falsafa ixtisosligi bo‘yicha bajarilgan **nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan** (diplom 1990-yil 30-mart. №2-son bayonnoma. FS № 010781).

1990-1996 yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Falsafa kafedrasida o‘qituvchisi (1990-1991), dotsenti (1993-1995) lavozimlarida ishlagan. 1993-yil Falsafa kafedrasida bo‘yicha **dotsent ilmiy unvoni berilgan** (1993-yil, 8-iyul, 10/1-son bayonnoma. 03№ 000718).

2002-yilda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi I.M.Mo‘minov nomidagi Falsafa va huquq instituti “Siyosatshunoslik va sotsiologiya” bo‘limiga doktorant-izlanuvchi qilib birlashtirilgan. 2006-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar himoyasi bo‘yicha D 067.02.01 raqamli Birlashgan Ixtisoslashgan Kengashda “Ajdodlar merosiga ixlosmandlik va shaxs ma’naviy-axloqiy kamoloti” mavzusida 09.00.05 – Etika

ixtisosligi bo'yicha A.M.Jalolov ilmiy rahbarligida bajarilgan **doktorlik dissertatsiyasini** himoya qilgan (diplom 2006-yil 29-iyun 126/1. 04№ 004010).



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining viloyat oliy ta'lim muassasalarini yetakchi kadrlar bilan ta'minlashga oid buyrug'iga ko'ra 1996-yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasiga ishga yuborilgan. Mazkur kafedrada 2000-yilgacha dotsent, 2000-2021 yillar davomida **kafedra mudiri** lavozimida faoliyat yuritgan, 2021-yil sentyabr oyidan hozirgi kungacha Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti "Falsafa, tarbiya va huquq ta'limi" ("Ijtimoiy fanlar" kafedrasini nomi o'zgartirgan) kafedrasini professori lavozimida ishlab kelmoqda.

2019-yil **professorlik** ilmiy unvonini olgan (O'z.R.OAK, 05№003260, 2019-yil 10-dekabr, 272/1-son bayonnoma).

Ochilova Baxti tomonidan **412 ta ilmiy ish chop etilgan**. Shundan: 343 ta ilmiy maqola (60 tasi OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarida), 40 ta xorij jurnallari va xalqaro konferensiyalarda, 6 ta monografiya, 3 ta ilmiy risola, 5 ta o'quv qo'llanma va 12 ta o'quv-uslubiy qo'llanma.

Bir qancha **o'quv adabiyotlari** respublika miqyosida pedagogik amaliyotda qo'llanib kelinmoqda:

- Ijtimoiy falsafa. T.: "Внешинвестпрот".2014. 230 bet.

- Qadriyatlar falsafasi. T.: "Внешинвестпрот".2014. 525 bet

- Axloq falsafasi. T.: Ijod-Print.2019. 166 bet.

- Fuqarolik jamiyati sotsial mexanizmi va asoslari. T.: Tafakkur, 2020. 358 bet.

- Islom ma'naviyati. T.: Islom Universiteti, 2022. 164 bet.

Ilmiy tadqiqot natijalari (**monografiya**) ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilgan:

- Ixlosmandlikda meros va vorisiylik uyg'unligi. T.: "Toshkent islom universiteti", 2006. 161 bet.

- Milliy-ma'naviy yuksalishda, meros, qadriyatlar va vorisiylik. T.: "Istiqlol", 2009. 230 bet.

- Hozirgi davr: geopolitik maqsadlar va mafkuraviy siyosat. T.: "Fan", 2009. 180 bet.

- Ibrat va shaxs tarbiyasi. T.: "Istiqlol", 2013. 174 bet.

- Fuqarolik jamiyati asoslari. T.: "Tafakkur qanoti". 2014. 112 bet.

- Jamiyat va inson: daxldorlik va yuksalish omillari. T.: "Ijod-Print" 2020. 215 bet.

Ta'lim jarayonida "Falsafa", "Etika", "Mantiq", "Ijtimoiy falsafa", "Inson falsafasi", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" fanlaridan bakalavr, magistratura bosqichlarida o'quv mashg'ulotlari olib boradi. Mazkur fanlardan o'quv dasturlari ishlab chiqqan. Elektron shakldagi ma'ruza matnlari mazmuni va yaratish texnologiyasi bo'yicha Siyosatshunoslik fanidan yaratilgan elektron darslik uchun kafedra patent olgan. (Patent raqami DGU 02465. Talabnoma raqami DGU 2012). O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan "Axloq falsafasi" elektron o'quv qo'llanmasi uchun. (№DCU14210 (21.12.2021-y)).

Uning **ilmiy rahbarligida** 3 ta falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 25 magistrlik dissertatsiyasi, 36 ta BMI

muvaffaqiyatli himoya qilingan. Ochilova Baxti 2018-yildan “Of appointment” xalqaro ilmiy jurnali va Jizzax davlat pedagogika universiteti “Tafakkur ziyosi” ilmiy-uslubiy jurnali **tahririyat a’zosi** sifatida ish olib boradi.

Bir qancha dissertatsiyalar himoyasi ilmiy seminar va **kengashlar a’zosi**. Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/06/2017.F. raqamli ilmiy seminar va kengash; O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.14 raqamli ilmiy kengash.

2000-yildan hozirgi kungacha Jizzax davlat pedagogika universiteti kengashi a’zosi. 2020-yilda universitetda tashkil etilgan ilmiy-texnik va o‘quv-uslubiy kengash a’zosi. 13.00.01. – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi fani bo‘yicha malakaviy imtihonini qabul qilish komissiyasi a’zosi.

Ilmiy loyihalarda ilmiy natijalar olgan:

- YuNESKO va Xitoy hamkorligida ta’limga innovatsiyalarni joriy qilish dasturi tarkibiga kiruvchi “*Wenhui*” (<http://www.unescodkk.org/education/apeid/wenhuiaward2013>) xalqaro tanlov granti uchun tanlovida “Biz bir-birimizni tushuna olamiz” nomli loyihasi bilan ishtirok etgan. Mazkur grant loyihasiga ko‘ra Jizzax DPI Ijtimoiy fanlar kafedrasining sayti ochilgan (jspi-social.zn.uz.). Bugungi kunga qadar mazkur saytga 300 ga yaqin murojaat bo‘lgan. Loyiha talabiga ko‘ra, B.Ochilova tomonidan ta’limning uzviylik va uzluksizligini, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish hamda barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etishga oid 10 ta ilmiy maqolasi chop etilgan. Loyihaga ko‘ra, Ijtimoiy fanlar kafedrasida B.Ochilova rahbarligida iqtidorli talabalarning “Ilmiy ijod” markazi tashkil etildi. Mazkur markaz a’zolaridan Q.Fozilov “Promote your hometown, district

and region through social networks” xalqaro tanlovida g‘olib bo‘lgan (2013-yil 25-mart), Sh.Abduraxmonov “Eng yaxshi huquq targ‘ibotchisi” (2013-yil) nominiatsiyasi bo‘yicha diplom bilan taqdirlangan, S.Abduraxmonov 2014-yil 11-aprelda Avstraliyada o‘tkazilgan “On Eurasian scientific development” mavzusidagi xalqaro konferensiyada “Democracy: harmony of global and national values” maqolasi bilan qatnashib sertifikat olgan.



- Falsafiy tadqiqotlar o‘quv-ilmiy kompleksi bilan hamkorlikda “*Avestodagi ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy g‘oyalarning Sharq falsafiy tafakkuri tarixidagi o‘rni va ahamiyati*” mavzusidagi (2012-2014 yil dekabr) grant loyihada ishtirok etgan (№ ITD – 1; A 1 – FA – 0 — 10172). Mazkur grant loyihasiga ko‘ra, B.Ochilova tomonidan 20 ta ilmiy maqola e’lon qilingan (ilmiy ishlari ro‘yxatida keltirilgan): 3 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislari bilan ishtirok etgan, 2 ta “Ekologiya va dunyoqarash”, “Qadriyatlar falsafasi” nomli o‘quv qo‘llanma chop etilgan va 4 ta ilmiy-amaliy seminar 2013-yil 15-mayda “Ma’naviy yuksalish va ijtimoiy taraqqiyot”, 2014-yil 26-fevralda “Sog‘lom oila va sog‘lom bola”, 2014-yil 24-25 aprelda “Milliy demokratik taraqqiyot va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning dolzarb muammolari”, 2014-yil 5-mayda “Ma’naviyat, ta’lim-tarbiya va dunyoqarash” va O‘zbekiston Milliy universiteti Falsafiy tadqiqotlar o‘quv-ilmiy kompleksi bilan hamkorlikda “G‘oya va innovatsion taraqqiyot” mavzusida 2014-yil 12-13 martda ilmiy-amaliy seminar

o‘tkazilgan.



• Falsafiy tadqiqotlar o‘quv-ilmii kompleksi bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” (2019-yil) mavzusidagi loyihada ishtirok etmoqda (№ P3-201709828696). Mazkur loyihaga ko‘ra, B.Ochilova tomonidan 16 ta ilmiy maqola e‘lon qilinishi belgilangan bo‘lib, ayni kungacha 7 ta maqola e‘lon qilindi (ilmiy ishlari ro‘yxatida keltirilgan) va 2019-yil 20-martda “Ijtimoiy sheriklik jamiyat taraqqiyotining omili” mavzusida, 2019-yil 15-mayda “Yoshlarning ma‘naviy-axloqiy ongini rivojlantirishning ustuvor masalalari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o‘tkazilgan.

• 2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da hamda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili” davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda davlat va jamoatchilik nazoratini olib borishning samarali mexanizmlarini va amaliyotini rivojlantirishga ko‘maklashish” nominatsiyasi bo‘yicha “Joylarda ijtimoiy muammolarni hal etishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish” mavzusida berilgan grant (grant raqami 46-11/50) loyihasi ijrosida

ilmiy konsultant sifatida ishtirok etilgan.



• 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” qabul qilinganligining 70 yilligi munosabati bilan “O‘zbekistonda inson huquqlari – oliy qadriyat” mavzusida davlat granti “Davlat va jamiyatning ochiq muloqotining shakl va mexanizmlarini yanada kengaytirishda hamda samaradorligini oshirishda davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish” nominatsiyasi bo‘yicha “Ijtimoiy muammolarni hal etishda ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishning innovatsion yo‘llarini joriy etish” nomli grant (grant raqami 57-11/78) loyihasi ijrosida ilmiy konsultant sifatida ishtirok etgan.

• “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan 2021-yil amalga oshirilgan qisqa muddatli JHBL–B1-sonli “Demograliya milliy portatini yaratish” mavzusidagi ilmiy loyihada ishtirok etgan. Ochilova Baxti tomonidan yuqori nufuzda 6 ta respublika 4 ta Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy **konferensiya tashkil etilgan**. Konferensiya materiallari chop etilgan va reytingi yuqori baholangan.

Ochilova Baxti **davlat va jamoat tashkilotlari ishlarida faol qatnashadi**. 1999-2004 yillar davomida Xalq deputatlari Jizzax shahar kengashi deputati bo‘lgan. O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasi a‘zosi (2008-yildan),

Jizzax viloyati xotin-qizlar qo‘mitasining “Faxriy ayollar” maslahat kengashi raisi (2015, 2016, 2017, 2018), Jizzax DPI xotin-qizlar qo‘mitasi kengashi a‘zosi (doimiy), Viloyat hokimligi qoshidagi o‘quv markazida mahalla raislari, maslahatchilari va kotiblariga maxsus kurs ma‘ruzachisi (2015-2022 yy); Jizzax viloyati “Oqila ayollar” harakati a‘zosi (2022-yildan). Jizzax viloyati Ma‘naviyat targ‘ibot markazi va “Mehr nuri” tashkiloti bilan hamkorlikda shoirlar, san‘atkorlar, tibbiyot xodimlari, olimlar, mehnat qahramonlari va faxriylar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tashkil etadi. Jizzax viloyati hududlarida davlat rahbari asarlari, murojaatlari, farmon va qarorlari mohiyati, shuningdek, “Diniy ekstremizm va fundamentalizm”, “Ma‘naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid” kabi ruknlarda ma‘ruzalar o‘qiydi, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib boradi.



Ochilova Baxti fidokorona mehnatlari uchun nishon va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan; 1999-yilda O‘zbekiston Xalq Ta‘limi a‘lochisi ko‘krak nishoni berilgan. Guvohnoma № 6065; “За большой вклад в развитии философских наук, заслуги по внедрению философских знаний среди широких масс и формированию у них философской культуры”. Философское общество Узбекистана. Т, 2010; “Ilm-fanni rivojlantirishdagi munosib hissasi uchun”. Jizzax viloyat hokimi faxriy yorlig‘i, 2009; “Viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo‘shgan hissasi uchun”. Jizzax viloyati hokimi faxriy yorlig‘i, 2011; “Talabalarga bilim berish va jamoat ishlaridagi faolligi uchun”.

O‘zMTDP faxriy yorlig‘i, 2013; “Mehnatda alohida xizmat ko‘rsatganligi va jamoat ishlaridagi faolligi uchun”. Jizzax DPI rektori O.Do‘smatov faxriy yorlig‘i, 2011; “Yosh avlodni tarbiyalashda qo‘shgan hissasi uchun”. Jizzax DPI rektori O.Do‘smatov faxriy yorlig‘i, 2013; “Jamoat ishlarida faolligi, Vatanimiz ilm-fan ravnaqi yo‘lida qilgan xizmatlari uchun” Jizzax DPI rektori O.Do‘smatov faxriy yorlig‘i, 2014; “Vatanimiz ilm-fan ravnaqi yo‘lida qilgan xizmatlari uchun” O‘zbekiston Falsafa jamiyatining Faxriy yorlig‘i, 2015; “Ijtimoiy va madaniy taraqqiyot yo‘lidagi xizmatlari uchun” Jizzax viloyati hokimi faxriy yorlig‘i, 2016; “Yoshlarga ta‘lim-tarbiya berishda samarali mehnatlari, jamoat ishlaridagi faolligi uchun” Jizzax DPI rektori A.Xolbekov faxriy yorlig‘i, 2017; “Respublikada xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalash, ularning oila va jamiyatdagi mavqeyini, ma‘naviy, intellektual salohiyatini oshirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog‘lom avlodni dunyoga keltiruvchi onalar salomatligini mustahkamlash, oilalar mustahkamligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi faol ishtiroki uchun” O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, xotin-qizlar qo‘mitasi raisi T.Norboyeva tomonidan faxriy yorliq. 2017; “Talabalarga bilim berish va jamoat ishlaridagi faolligi uchun” Jizzax DPI rektori A.J.Xolbekov tomonidan faxriy yorliq. 2018; “Yoshlarga ta‘lim-tarbiya berishdagi samarali mehnatlari, jamoat ishlaridagi faolligi uchun” Jizzax DPI rektori A.J.Xolbekov tomonidan faxriy yorliq. 2019; “Ilm-fan taraqqiyotidagi xizmatlari uchun” Jizzax DPI rektori Sh.S.Sharipov tomonidan faxriy yorliq. 2021; “Mehnatda alohida xizmat ko‘rsatganligi uchun” Jizzax DPI rektori Sh.S.Sharipov tomonidan faxriy yorliq. 2022.

Ochilova Baxti oilali, 2 nafar farzandi bor.



OSTONAQULOV TOSHTEMIR ESHIMOVICH
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich 1954 yil 10 mayda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani Avtonomov nomidagi Surxon xo'jaligi 5—bo'limi Qo'mqishlog'ida, oddiy dehqon oilasida tug'ilgan, 1970 yil 20-son o'rta maktabni bitirgach, shu yili SamarqandQXI g'a o'qishga qabul qilinib, 1975 yil imtiyozli diplom bilan tugatgan.



1976-1979 yillarda Toshkent shahridagi O'zbekiston Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti kunduzgi bo'lim aspiranturasida tahsil olgan. 1976 yildan SamarqandQXI paxtachilik, genetika, seleksiya va urug'chilik kafedrasida assistentligiga saylangan. 1980 yilda "Zarafshon vodiysi o'tloq-bo'z tuproqlari sharoitida turli sug'orish rejimlari va mineral o'g'itlar me'yorlarida kartoshka o'rtapishar navlarining mahsuldorligi va urug'lik sifati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1989 yil Sankt – Peterburg shahridagi Butunrossiya O'simlikshunoslik ITI g'a doktoranturaga akademiklar K.Z.Budin va D.T.Abdukarimovlar rahbarligida qabul qilinib, 1991 yilda "Особенности селекции, семеноводства и агротехники картофеля в Зарафшанской долине" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1992 yil

qishloq xo'jaligi fanlari doktori ilmiy darajasiga, 1993 yil professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan. 1992 yildan 2002 yilgacha genetika, seleksiya, urug'chilik, meva-sabzavotchilik va uzumchilik kafedrasini mudiri, 2002-2004 yillar agronomiya fakulteti dekani, 2005-2011 yillar institut o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektori, 2011-2018 yillar rektor lavozimida faoliyat ko'rsatgan.



U kishi rahbarlik faoliyati davomida institut moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirishga, talabalar uchun o'quv jarayoni sifatini oshirish maqsadida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga tajriba almashinishga, xorijiy yetuk olimlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb etishga, chet elda o'qish, malaka va stajirovka o'tashga, jahon oliy ta'lim muassasalari o'rtasida institut reytingini oshirishga alohida e'tibor qaratdi va muayyan yutuqlarga erishildi.



2018 yildan innovatsion rivojlanish vazirligi ilmiy-amaliy loyihasi rahbari va Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI ilmiy maslahatchisi, seleksiya va urug'chilik laboratoriya mudiri sifatida, 2021 yildan boshlab, Qarshi DU agronomiya fakulteti

meva-sabzavotchilik, agrokimyo va ekologiya kafedrasini professori lavozimida ishlab kelmoqda.

Professor T.E.Ostonaqulov ko'p yillik ilmiy faoliyatida 12 ta ekin turini tadqiq etib, eng muhim natijalari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin;



-bahorgi muddatda o'ta ertagi va ertagi kartoshka yetishtirish texnologiyasi;

-odatdagi va ikki hosilli ekinlar sifatida tovar va urug'lik kartoshka yetishtirish texnologiyasi;

-tuganakasiz o'simtalaridan kartoshkani ko'paytirish usuli;

-sug'oriladigan yerlarda ertagi va ikki hosilli ekinlarga asoslangan jadallashgan seleksiya va urug'chilik uslublari;

- shirin (sabzavot) va tishsimon makkajo'xori nav va duragaylarini yaratish, asosiy va takroriy ekinlar sifatida agrotexnologiyasi va birlamchi urug'chiligi;

-batat (shirin kartoshka) genofondini o'rganish, yangi navlarini yaratish, jadal ko'paytirish va o'stirish agrotexnologiyasi;

-sho'rlangan va sho'rlanmagan yerlarda o'stirishga mos pomidor navlarini tanlash, yaratish, birlamchi va elita urug'chiligini tashkil etish, asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirish agrotexnologiyasi;

-eksportbop qovun qoqi tayyorlashga yaroqli qovun Novotkalla, tarvuzning Dehqon va Fermer navlari yaratildi, Davlat reyestriga kiritilib, birlamchi va elita urug'chiligi tashkil etilib, keng amaliyotga joriy etilmoqda. Qovun qoqi tayyorlashning gelioquritish moslamasi va texnologiyasi takomillashtirildi.

Professor T.E.Ostonaqulov tomonidan 1000 dan ortiq ilmiy ishlar, shu jumladan: 40 dan ziyod patent va mualliflik guvohnomalari, 39 ta darslik va o'quv qo'llanmalari, 36 ta ilmiy monografiyalar, 69 ta tavsiyanomalar, 65 ta uslubiy qo'llanmalar nashr etilgan. U kishi rahbarligi va bevosita ishtirokida qishloq xo'jalik ekinlarining 33 ta navlari yaratilgan muallif, hammuallifidir.

T.E.Ostonaqulov rahbarligida 5 nafar fan doktori (DSc) va 24 nafar fan nomzodlari, falsafa fanlari doktori (PhD) tayyorlangan, 40 nafardan ziyod dissertatsiya ishlariga rasmiy opponent sifatida xolisona baholash amalga oshirilgan.



Professor T.E.Ostonaqulov ishtirokida 39 ta darslik va o'quv qo'llanmalari (Genetika asoslari, 2003, Biologiya va genetika, 2014, 2023, Seleksiya va urug'chilik asoslari, 2002, 2004, 2013, 2016, 2018, Umumiy seleksiya va urug'chilik asoslari, 2022, Qishloq xo'jalik mahsulotlarining veterinariya sanitariya ekspertizasi va gigiyenasi, 2013, O'zbekiston kartoshkachiligi, 2014, Sabzavotchilik, 1997, 2008, 2018, 2019, Mevachilik, 2010, 2011, 2018, 2019, Mevachilik – sabzavotchilikdan amaliy mashg'ulotlar, 2016, mevachilikdan amaliy mashg'ulotlar, 2021, sabzavotchilikdan amaliy mashg'ulotlar, 2022, Polizchilik, 2023, Kartoshkachilik, 2023 kabilar) oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga keng tatbiq etilgan. Ushbu darslik va o'quv-qo'llanmalarining 9 tasi Respublika eng yaxshi darsliklar tanlovida sovrinli 1, 2, 3-o'rinlarga va qimmatbaho sovg'alarga sazovor bo'lgan.

Bundan tashqari 36 ta ilmiy monografiyalar (O'zbekistonda kartoshka seleksiyasi, urug'chiligi va o'stirish texnologiyasi, 1991, 2018; Tog'li mintaqalarda kartoshkachilik, 2004; Janubiy kartoshkachilik, 2010; O'zbekiston kartoshkachiligining ilmiy asoslari, 2008, Shirin makkajo'xori, 2008, O'zbekistonda tuganak mevali ekinlar, 2020 ; Shirin va tishsimon makkajo'xori seleksiyasi, birlamchi urug'chiligi va agrotexnologiyasining dolzarb masalalari, 2022, Qovun navlarini o'stirish va quritish texnologiyasini takomillashtirish, 2019, Qovun yozgi navlarining agrotexnologiyasida urug'ni ekisholdi tayyorlash va ekish muddatlarini belgilash, 2019, Zarafshon vodiysi sharoitida batat (shirin kartoshka) seleksiyasi va o'stirish texnologiyasining masalalari, 2001, Kartoshkachilikda siderat ekinlarni qo'llashning ilmiy asoslari, 2022, Kartoshka yetishtirish, 2021, Kartoshka navlarini ertagi va ikkihosilli ekinlar sifatida o'stirilganda qulay ekish usulini belgilash, 2022, Batat navlarini asosiy va takroriy ekinlar sifatida o'stirilganda qulay ekish muddatlarini asoslash, 2022, Takrjriy ekin sifatida pomidor o'stirish agrotexnologiyasida nav-duragay, o'tmishdosh va ekish muddatlarining o'rnini belgilash, 2023 va h. z) tayyorlangan. Ular ilmiy xodim va doktorantlar uchun keng foydalanilmoqda.

220 dan ziyod ilmiy maqolalar ingliz va rus tillarida dunyoning nufuzli jurnallari (Skopus, WoS, Картофель и овощи, Селекция и семеноводство, O'zbekiston FA Biologiya jurnali, Болгария – Растениеводческих наук kabilar)da nashr etilgan.

Xalqaro Xirsh indeksi 10 ni tashkil etadi. Ishlab chiqarishga ishlanmalar 69 ta tavsiyalar, 65 ta uslubiy qo'llanmalarda o'z aksini topgan.

Kartoshkaning 10 ta (Quvonch-16/56m, Baxro-30, Hamkor-1150, Bardoshli-3, Surxon-1, Yaroqli-2010, Bog'izog'on, Ultraeshim, Yangi O'zbekiston, Ustoz), pomidorning 1 ta

(Mustaqillik-28), tarvuzning 2 ta (Dehqon va Fermer), qovun 1 ta (Novotkalla), shirin (sabzavot) makkajo'xoring 4 ta (Sherzod, Zamon, Zamin, Yangi hayot), tishsimon makkajo'xoring 4 ta (Samarqand tishsimoni, Oqpari, Qo'mqishloq, QarDU-1000), batatning 4 ta (Sochakinur, Toyloqi, Filial, NEW- Yangi Samarqand), topinamburning 1 ta (E'tirof), kungaboqarning 3 ta (SamQXI-20-80, Ilm, Mash'al F1), yumshoq bug'doyning 3 ta (Amira, Farboma, Jasmina,) navlari yaratildi, Davlat reyestriga kiritildi, amaliyotga 12300-12500 gektar maydonga har yili joriy etilmoqda.

2004 yilda Rossiya Federatsiyasi Peterburg Fanlar Akademiyasi akademikligiga, 2015-2019 yillar Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengash deputatligiga hamda viloyat kengashi qoshidagi agrar soha va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisligiga saylangan.



Professor T.E.Ostonaqulov Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari hamda Sabzavot-poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tekshirish institutlari huzuridagi ilmiy darajasi beruvchi Ilmiy Kengash a'zosi, "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali ilmiy ilovasi "Agroilm" jurnali tahririyati a'zosi. U kishi tomonidan yetuk ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish borasida katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2025 yillar davomida ham qiymati 1,2 mlrd. so'm bo'lgan "Kartoshka serhosil, ertapishar,

fuzarioz va fitoftorozga bardoshli navlarini yaratish" mavzusida amaliy loyihaga rahbarlik amalga oshirilmoqda.



Muntazam ravishda qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlari va agrotexnologiyalarini respublika fermer xo'jaliklarida keng joriy etish bo'yicha Davlat ilmiy grantlari bajarilib kelinmoqda.

"Hayotda va ilm fanda to'g'ri borishimda ota-akam, maktabim, mahallam, ustozlarim va oilamning o'rni nihoyatda katta. Kichik akam Eshimov Chori maktabda o'qituvchi, so'ngra direktor bo'lib, faqat o'qishga yo'naltirgan. Kirish imtihonlarini barchasini yaxshi topshirib, byudjetga talabalikka qabul qilinganman. Institutda ilmiy sohaga yo'nalishimda ustozlarim S.B.Bekmurodov, Ye.F. Tarasova, I.X.Hamdami, P.U.Uzoqov, Sh.N.Nazarov, Q.Tagayev, F.Tagayevalar, K.Shutova, I.I.Boboxo'jayev, I.S.Sulaymanov, Ye.P.Gorelov, R.O.Oripov, Ya.X.Gorenberg va albatta D.T.Abdukarimov kabilarning o'rni alohida bo'lgan. Ilmiy ishlarimni baholab, to'g'ri yo'nalish berishda akademiklar S.M.Bukasov, K.Z.Budin, B.A. Pisarev, A.G.Zikin, V.I.Zuyev, A.Ya.Kameraz, professorlar S.Xushvaqtov, A.Xamdami, A.T.Toshxo'jayev, S.N.Karmanov, A.V.Korshunov, N.P.Sklyarova kabi fan fidoyilarining hissalarini oldida bosh egaman. Mahallam, qo'ni-qo'shnilar shu kungacha katta e'tibor va izzat-hurmat bilan qarashadi" -deydi, professor T.E.Ostonaqulov.



PARDAYEVA ZULFIYA JO‘RAYEVNA
Filologiya fanlari doktori, professor

Pardayeva Zulfiya 2005 yilda O‘zbekiston Xalq Ta’limi a’lochisi ko‘krak nishoni, qator yillar davomida Jizzax viloyat hokimi, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori tomonidan faxriy yorliq, 2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi T.K.Narbayeva tomonidan Faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

Zulfiya Pardayeva 2016-2018 yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi qoshidagi Ta’lim markazining o‘zbek maktablari uchun rus tili va adabiyoti darsliklarini yaratish bo‘yicha ekspertlik qilgan.

Zulfiya Pardayeva 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti, 10.00.04 — Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik, 10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosliklari bo‘yicha doktorlik (DSc) va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik, opponentlik, taqrizchilik va ekspertlik qiladi.

Zulfiya Pardayeva 2008 yildan beri Respublika xotin-qizlar “Olima” uyushmasi

Jizzax viloyat bo‘limini boshqaradi. “Zulfiya” davlat mukofoti Jizzax viloyat komissiyasi a’zosi.

Mehnat faoliyatini 1983 yilda Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti rus va xorijiy adabiyot kafedrasida o‘qituvchi lavozimida boshlagan. 1987-1992 yillar mobaynida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining “Adabiyot nazariyasi va qardosh xalqlar adabiyoti” kafedrasida ilmiy tadqiqotchi sifatida faoliyatini olib borgan. 1993-1994 yillar mobaynida O‘zbekiston davlat jahon tillar universitetining “Rus adabiyoti” kafedrasida professor G.Sh. Abdullayeva ilmiy rahbarligida 10.01.02 – Milliy adabiyot (rus adabiyoti) ixtisosligi bo‘yicha ilmiy stajirovka o‘tagan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ixtisoslashgan Ilmiy kengashda “O‘zbekistondagi rusiyabon va rus adabiyotda tarixiy qahramonlarning badiiy-tipologik talqini” mavzusida 10.01.02 – Milliy adabiyot

(rus adabiyoti) ixtisosligi bo'yicha bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1995-1998 yillar mobaynida Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika instituti rus va xorijiy adabiyot kafedrasida o'qituvchisi lavozimida ishlagan.

1998-2001 yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti "Adabiyot nazariyasi" bo'limiga maqsadli doktoranturaga qabul qilingan. 2003 yil 8 oktabrda professor B.I.Sarimsoqov rahbarligida "Hozirgi o'zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari" mavzusida 10.00.08 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha bajarilgan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

2004-2011 yillar mobaynida Rus tili va xorijiy adabiyot kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat olib borgan. 2008 yil 10.00.04 – Rus adabiyoti hamda Amerika va Avstraliya xalqlari adabiyoti ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoni berilgan.

2011-2018 yillar davomida Rus tili va xorijiy adabiyot kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat yuritgan.

2022 yilda professorlik ilmiy unvonini 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha olgan.

Pardayeva Zulfiya tomonidan 300 ga yaqin ilmiy ish chop etilgan. Shundan: 290 ta ilmiy maqola (40 tasi OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarida), 40 ta xorij jurnallari va xalqaro konferensiyalarda, 4 ta monografiya, 3 ta o'quv qo'llanma, 3 ta uslubiy qo'llanma va 2 ta uslubiy ko'rsatma chop etilgan.

Kredit-modul ta'lim tizimiga asoslangan "Основы литературоведения" o'quv qo'llanmasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan ushbu o'quv qo'llanma Germaniyaning LAMBERT nashriyotida nashrga tayyorlangan va chop

etilgan.



Bir qancha o'quv adabiyotlari respublika miqyosida pedagogik amaliyotda qo'llanib kelinmoqda:

1. Организация самостоятельной работы студентов. – Ташкент. Фан. 2007. 107с.

2. Литературный анализ художественного произведения. Ташкент. Фан. 2010. – 256 с.

3. Организация самостоятельной работы студентов при модульной технологии обучения. – Ташкент. Мехригий. 2016. 287 с. (в соавторстве с доц. Ходжиметовой Д.Д.)

4. Основы литературоведения. Учебное пособие. Germany. "LAMBERT". 2022. — р. 272.

5. Основы литературоведения. Учебное пособие. – Тошкент, Тамаддун, 2023. – 282 с.



6. O'zbek romani poetikasi. Toshkent. Tamaddun. – 2023. 202 b.

2007-2019 yillar mobaynida uning g'oyasiga asosan rus adabiyoti kafedrasida muntazam "Iqtidor" ilmiy, publitsistik, badiiy almanax "Fan" nashriyotida chop etilib kelindi.

Ilmiy tadqiqot natijalari (monografiya) ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilgan:

1. Jamiyat badiiy-estetik taraqqiyoti va o‘zbek romanchiligi. T.: “Yangi asr avlodi va o‘zbek romanchiligi”, 2002. 102 bet.

2. O‘zbek romani poetikasi. T.: “Meros”, 2003. 154. bet.

3. “Poetics of the Uzbek novel”. Germany “LAMBERT”. 2023. r. 123.

Pardayeva Zulfiya ta’lim jarayonida “Adabiyotshunoslik asoslari”, “Adabiyot nazariyasi”, “Rus adabiyoti tarixi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “Jahon adabiy jarayoni”, fanlaridan bakalavr, magistratura bosqichlarida o‘quv mashg‘ulotlari olib boradi. Mazkur fanlardan o‘quv dasturlari ishlab chiqqan. Elektron shakldagi ma’ruza matnlari mazmuni va yaratish texnologiyasi bo‘yicha “Adabiyotshunoslik asoslari” fanidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan elektron o‘quv qo‘llanmasi uchun patent olgan. “Литературный анализ художественного произведения” ўқув қўлланмаси учун халқаро патент олинган.

“Основы литературоведения” fanidan elektron qo‘llanma yaratib talabalar android qurilmasidan foydalanishlari uchun Play market ga joylashtirdi.

1. Amazon sayti orqali Germaniyaning “Lambert” nashriyotida chop etilgan “Основы литературоведения” o‘quv qo‘llanmasi sotuvga qo‘yilgan.

Pardayeva Zulfiya shartnoma asosida 2022 yil oktabr-noyabr oylarida Rossiya Federatsiyasining Janubiy federal universiteti talabalar va magistrantlariga “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti” fanidan ma’ruzalar o‘qidi, hamda amaliy darslar o‘tkazdi.

Z.J.Pardayeva 2020 yildan beri rus adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasining “Ilmiy seminari”ni boshqaradi. Kafedra o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik, ilmiy maslahatchilik qiladi.

Dissertatsiya ishini bajarish, ilmiy maqolalar yozish bo‘yicha seminar treninglar o‘tkazadi, yosh o‘qituvchilar dissertatsiyalari muhokamarini tashkillashtiradi. Zulfiya Pardayeva talabalar va professor-o‘qituvchilar ilmiy salohiyatini, kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishga, ma’naviyatini rivojlantirishga alohida e’tibor beradi, shu bilan birga ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha yoshlarga ustozlik ham qiladi. Rus tili va adabiyoti yo‘nalishi o‘qituvchilari F.O. Oripjonova, F.X. Shukurova, Z.A. Karimov, E.A. Azimovalarning filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PsD) tadqiqotlariga rahbarlik qilmoqda. Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi o‘qituvchisi Ma’mura Yusupova ham Zulfiya Pardayeva rahbarligida ilmiy tadqiqot olib boryapti. Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi S. Matyakubov filologiya fanlari doktorlik (DSc) dissertatsiyasini Zulfiya Pardayeva ilmiy maslahatchiligida yoqladi. Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi F.R. Murtazaeva tadqiqotlariga (DSc) ham ilmiy maslahatchilik qilmoqda.

Pardayeva rahbarligida iqtidorli talabalar muayyan yutuqlarga erishmoqdalar. Rus tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalari 2014 yilda Belyakova Yuliya, 2015 yilda Djemilova Sofya, 2016 yilda Yakubova Indira rus tili va adabiyoti mutaxassislik fani bo‘yicha respublika fan olimpiadasi g‘olibi, 2008 yilda ingliz tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi Gavhar Rasulova, 2021 yilda rus tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi Maxliyo Abdumuminova Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibasi bo‘ldilar.



Zulfiya Pardayeva 2017 yilda Guliston davlat universitetida o'tkazilgan umumkasbiy rus tili fani bo'yicha respublika fan olimpiadasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligidan vakil sifatida qatnashdi. 2018 yilda bo'lsa Jizzax politexnika institutida gidravlika fani bo'yicha o'tkazilgan respublika fan olimpiadasi II bosqichiga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidan vakil etib tayinlandi.

Uning ilmiy rahbarligida 1 ta filologiya fanlari doktori (DSc), 2 ta filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), 10 magistrlik dissertatsiyasi, 70 ta BMI muvaffaqiyatli himoya qilingan.

Zulfiya Pardayeva "EDITERIAL TEAM", "International Journal Of Literature And Languages (ISSN 2771-2834) xalqaro ilmiy jurnallar tahririyat a'zosi.

Bir qancha dissertatsiyalar himoyasi ilmiy seminar va kengashlar a'zosi. Filologiya fanlari doktori Z.J.Pardayeva 2013-2016 yillar mobaynida Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2016-2017 yillarda O'zbekiston Davlat Jahon tillar universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.14.07.2016 Fil. 09.01 raqamli fan doktori ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash, 27.06.2017 yildan Farg'ona Davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.27.06.2017.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengash, 30.05.2018 yildan O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.26.04.2018.Fil.01.10 raqamli Ilmiy Kengash a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatdi. 2019 yildan beri O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli ilmiy kengash 2020 yildan Jizzax davlat pedagogika instituti huzurida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengash va uning qoshidagi ilmiy seminar a'zosi sifatida dissertatsiya ishlari

muhokamarida ishtirok etib kelmoqda. Jizzax davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengash a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.



Zulfiya Pardayeva 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihonni qabul qilish komissiya a'zosi, 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti, 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosliklari bo'yicha malakaviy imtihonni qabul qilish komissiya raisi.

Ilmiy loyihalarda ilmiy natijalar olgan:

Zulfiya Pardayeva respublika miqyosida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol ishtirok etadi va tashabbuskorlik ko'rsatadi.

Respublikasi Oliy Majlisining 2020 yil 31 mart №3 Qarori bilan Sharof Rashidov ilmiy-ma'rifiy memorial uy-muzeyiga "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov yoshlar nigohida" deb nomlangan ajratilgan grantda ishtirok etdi (09.07.2020 №04), "Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi" tomonidan grant asosida rejalashtirilgan "Sharof Rashidov – davr kishisi" deb nomlangan xalqaro fanlararo ilmiy-amaliy konferensiyaning "Adabiy ijod va Sharof Rashidov merosi" deb nomlangan 3-seksiyasi ishlarini tashkillashtirishga mas'ul qilib tayinlandi. "Sharof Rashidov – davr kishisi" deb nomlangan xalqaro fanlararo ilmiy-amaliy

konferensiya yalpi majlisi 26 iyun kuni Jizzax shahrida ochildi. ZOOM platformasida 3 seksiya ishladi. Yalpi majlis, 3-seksiya faoliyati Jizzax davlat pedagogika instituti tomonidan tashkillashtirildi. 3-seksiyaga Zulfiya Pardayeva moderatorlik qildi. “Sharof Rashidov – davr kishisi” deb nomlangan xalqaro fanlararo ilmiy-amaliy konferensiyaning “Adabiy ijod va Sharof Rashidov merosi” deb nomlangan 3-seksiyasi ishlarini tashkillashtirishda ko‘rsatgan ilmiy salohiyati, tashabbuskorligi va tashkilotchiligi uchun Zulfiya Pardayeva “Sharof Rashidov nomidagi xalqaro jamoat fondi”ning rahmatnomasiga sazovor bo‘ldi.



Pardayeva Z.J. AQSh elchixonasi va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan №SUZ80021GR3170 ‘shartnoma asosida huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Istiqlol avlodi” Markazi AQSh elchixonasi va O‘zbekiston Respublikasi Senati qoshidagi gender komissiyasi birgalikda ishlab chiqilgan “Uy zo‘ravonligi oldini olishda ijtimoiy hamkorlik” deb nomlangan Xalqaro loyihada №17-Buyruqqa asosan maslahatchi vazifasini bajaradi.

Zulfiya Pardayeva 2017 yil fevralida O‘zbekiston Xotin-Qizlar qo‘mitasi tomonidan tashkil etilgan “O‘zbekiston ayollarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihasi” I-Respublika tanlovida “Ta’limdagi innovatsiyalar. Talabalar mustaqil ishi: nazariya, metodika va amaliyot” mavzusidagi loyihasi bilan qatnashdi va “Ta’lim” yo‘nalishida g‘olib bo‘ldi.

O‘zbekiston Xotin-Qizlar qo‘mitasi diplomi bilan taqdirlandi.



Zulfiya Pardayeva tomonidan yuqori nufuzli 2 ta respublika va 2 ta Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etilgan. Konferensiya materiallari chop etilgan va reytingi yuqori baholangan.

Pardayeva Zulfiya davlat va jamoat tashkilotlari ishlarida faol qatnashadi. Zulfiya Pardayeva 2008 yildan beri Respublika xotin-qizlar “Olima” uyushmasi Jizzax viloyat bo‘limi tomonidan tashkil etiladigan ko‘plab ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda bosh bo‘ladi. Viloyatda faoliyat olib boradigan olim ayollar, iqtidorli qizlar intellektual qiziqishlarini hamisha hurmat qilib keladi va ularga ilmiy-amaliy yordam ko‘rsatadi. Uning g‘oyasiga asosan Jizzaxlik olim ayollarning ilmiy maqolalari to‘plami “Tafakkur gulshani” chop etildi. 2021 yil 26 fevralda Jizzax viloyat “Olima” uyushmasi va Jizzax davlat pedagogika instituti hamkorligida “Yangilanayotgan O‘zbekiston olimasi” mavzusida O‘zbekiston olimalarining respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023 yilda “Barqaror taraqqiyot makonida ta’lim va tarbiya mutanosibligini ta’minlashning istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani oflayn va onlayn shaklda o‘tkazildi. 2024 yilda “Ilmli ayol – jamiyat

ko‘zgusi” shiori ostida o‘tkazilayotgan “XXI asr olimasi: ta’lim va fandagi izlanishlar, yutuqlar, istiqbol rejalar” mavzusidagi davra suhbatini o‘tkazildi.



Zulfiya Pardayeva tashabbusi bilan Jizzax davlat pedagogika universiteti Rus tili va adabiyoti fakulteti Rus adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasi tomonidan 2024-yil 26-27-mart kunlari “Zamonaviy filologik ta’lim paradigmasi: konsepsiyalar, izlanishlar, yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi. Anjumanda xalqaro ishtirokchilar: Makshantseva Natalya Veniaminovna — Rossiya Federatsiyasi, Kuznetsova Anna Vladimirovna — Rossiya Federatsiyasi, Donina Lyudmila Nikolaevna — Rossiya Federatsiyasi Sankt-Peterburg universiteti, Savenkova L.B. — Rossiya Federatsiyasi Janubiy Federal universiteti, Melixov German Vladimirovich – Rossiya Federatsiyasi Qozon Federal universiteti, Tabachenko Lyudla Vladimirovna – Rossiya Federatsiyasi Janubiy Federal universiteti, Butusova Anjelika Sergeevna – Rossiya Federatsiyasi Janubiy Federal universitetidan o‘z ma’ruzalari bilan qatnashdilar.

Zulfiya Pardayeva har yili o‘tkaziladigan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga viloyat saralash komissiyasi tarkibida faoliyat olib boradi.



Zulfiya Pardayeva Jizzax shahridagi 16-sonli, 28-sonli, 30-sonli maktablarda muntazam o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun master klasslar o‘tkazadi. Zulfiya Pardayeva (Bo‘riyeva)ning “Umid chechagi” (1992) va “Yettinchi osmon” (2000) she’riy to‘plamlari chop etilgan.



Zulfiya Pardayeva o‘zining ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoqi, boshqaruvchilik qobiliyati, samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo‘lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, mo‘tabarligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo‘lgan mehri, yoshlar bilan ishlashda bag‘rikengligi bilan keng jamoatchilik, oilasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan.



PARPIYEV G‘OFURJON TOXIROVICH
Biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Parpiyev G‘ofurjon Toxirovich, 1977 yil 26 martda Farg‘ona viloyatining Furqat tumanida ziyoli oilasida tug‘ilgan, millati o‘zbek.

1995-1996 yillarda Qo‘qon shahar 30-hunar bilim yurtining qishloq xo‘jalik va sanoat korxonalarida hisobchi-g‘aznachi 1 yillik kursini tamomlagan.

2000 yil Guliston davlat universitetining “10” iyuldagi qarori binoan “Tuproqshunoslik” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr diplomi berilgan (diplom V №002454).

2002 yil O‘zbekiston Milliy universitetining “19” iyundagi qaroriga binoan “Tuproq fizikasi va melioratsiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha magistr diplomi berilgan (diplom M №005950).

2010 yilda qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi. Dissertatsiya ishini 2009 yilning 29 dekabrda Toshkent shahridagi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot davlat instituti huzuridagi DK 180.20.01 raqamli Ixtisoslashgan Kengashda

“Mirzacho‘lning eskidan sug‘oriladigan hududi tuproq-meliorativ holatini yer monitoringini yuritish ma’lumotlari asosida baholash” mavzusidagi 06.01.03-“Agrotuproqshunoslik va agrofizika” ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. 2010 yil 29 apreldagi №164/1-son bayonnoma bo‘yicha qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasi berilgan (diplom 01 №011824).



2018 yil 29 dekabrda 06.01.03-“Agrotuproqshunoslik va agrofizika” ixtisosligi bo‘yicha katta ilmiy xodim unvonini olgan (260/1-son bayonnoma, diplom 02 №002539).

2021 yilda biologiya fanlari doktori. Dissertatsiya ishini 2021 yilning 26 mayida Toshkent shahridagi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc 25.30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy Kengashda “Bo‘z-voha tuproqlarining regional xususiyatlari va ularning tuproq unumdorligi shakllanishidagi roli” mavzusidagi 03.00.03-“Tuproqshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. 2010 yil 30 iyundagi №302/1-son bayonnoma bo‘yicha qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasi berilgan (diplom 04 №006847).

Umumiy ish staji – 22 yil. Ilmiy-pedagogik ish staji – 16 yil.

Parpiyev G‘ofurjon Toxirovich 1977 yilning 26 martida Farg‘ona viloyati Furqat tumanida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma’lumoti oliy. Biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

Parpiyev G‘ofurjon Toxirovich Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi №5-o‘rta maktabni 1994 yilda bitirgan. 1995-1996 yillarda Qo‘qon shahar 30-hunar bilim yurtining qishloq xo‘jalik va sanoat korxonalarida hisobchi-g‘aznachi 1 yillik kursini tamomlagan.



1996-2000 yillarda Guliston Davlat Universiteti Tabiatshunoslik fakulteti “Tuproqshunoslik” mutaxassisligida o‘qib, imtiyozli bakalavr diplomini olgan. 2000-2002 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston

Milliy Universiteti Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti “Tuproq fizikasi va melioratsiyasi” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura bo‘limini tamomlagan.

G‘.T.Parpiyev 2002-2018 yillar mobaynida Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutining “Sho‘rlangan tuproqlar genezisi melioratsiyasi” bo‘limida katta laborant vazifasida ish faoliyatini boshlab, kichik ilmiy xodim va keyinchalik katta ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. U 2018 yilning 3 iyulidan 2024 yilning 1 apreligacha qadar “O‘zdavyerloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutida Ilmiy-innovatsion ishlar bo‘yicha bosh direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlagan.

2024 yilning 9 apreldan Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi “Meva, sabzavot va dorivor o‘simliklar sohasida ilmiy-tadqiqotlar muvofiqlashtirish” bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritadi.

Parpiyev G‘ofurjon Toxirovichning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyati quyidagicha:

G‘.T.Parpiyev o‘zining dastlabki Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutidagi (TAITI) 16 yillik ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullangan.



2012-2013 yillarda G‘.T.Parpiyev DITD-7-“Tabiatdan oqilona foydalanish va ekologiya” Davlat ilmiy texnik dasturiga kirgan – EA7-002-“Sho‘rlangan yerlarda tuproq-meliorativ monitoringini yuritish orqali ularni sog‘lomlashtirish va unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish” mavzusidagi yosh olimlar ilmiy-amaliy loyahasiga rahbarlik qilgan.

Shuningdek, G.T.Parpiyev katta ilmiy xodim sifatida TAITI tomonidan 2012-2014 yillarda KA-003 (A7-013+A7-019+A7-020) davlat grantlari bo‘yicha “Farg‘ona vodiysi sug‘oriladigan tuproqlarining sho‘rlanish genezisi va hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash, ekologik-meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini tiklash va oshirishga qaratilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish” mavzusidagi (A7-013) loyihaning dala, laboratoriya va kameral-analitik ishlarida faol qatnashgan.

TAITI tomonidan 2015-2017 yillar mobaynida bajarilgan KXA-7-006-2015 shifrlı – “Amudaryoning quyi oqimi sug‘oriladigan tuproqlarini kompleks o‘rganish, unumdorligini baholash, degradatsiyaga uchragan yerlarni aniqlash, ularning ekologik-meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini tiklashga oid tavsiyalar ishlab chiqish” loyihasida ham G.T.Parpiyev hamijrochi sifatida faol ishtirok etgan. Mazkur tadqiqotlar yakunida o‘rganilgan hududlar (obyektlar) – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati sug‘oriladigan tuproqlari gidrogeologik-meliorativ va ekologik-meliorativ jihatlardan Amudaryo deltasining eng og‘ir, grunt suvlari oqimi harakatsiz, deyarli turg‘un va botiqlik-pastqam yerlarda joylashgan bo‘lsada, bu regionda yerlardan foydalanishning yuqori koeffitsentlarini shakllantirish asosida xo‘jalik yuritish uchun barcha sharoitlar (imkoniyatlar) mavjudligi aniqlangan.



2006-2014 yillar mobaynida TAITI tomonidan Sirdaryo, Jizzax, Farg‘ona

viloyatlarida o‘tkazilgan “Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari tuproq sifatini baholash” dala tuproq tadqiqotlarida qatnashib, o‘rganilgan massivlarga 1:10 000, fermer xo‘jaliklariga 1:5 000 masshtabli sug‘oriladigan yerlar ball botiteti aks etgan “Tuproq sifatini baholash kartalari”ni tuzishda bevosita ishtirok etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi PQ-1958-sonli “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 24 fevraldagi №39-sonli “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha Davlat dasturining so‘zsiz bajarilishini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha mamlakatimiz sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlarida “Sho‘rlangan tuproqlarni xaritalashtirish” (solevaya syomka) ishlarini amalga oshirish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalari G.T.Parpiyev hammuallifligida ishlab chiqilgan.



2016-2017-o‘quv yilining 1-semestrda “Tuproqshunoslik” 4-kurs talabalari uchun “Tuproqlar melioratsiyasi” fanidan 100 soatlik amaliyot mashg‘ulotlar o‘tgan. Shuningdek, u pedagogik faoliyat bilan ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashqi o‘rindoshlik asosida 2022-2023-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti Billogiya fakulteti Agrokimyo va agrotuproqshunoslik yo‘nalishi kunduzgi va

sirtqi 3 va 4-bosqich rus va o‘zbek guruhi talablariga “Tuproqlar gidrologiyasi va melioarsiyasi” fanidan, 2023-2024-yillarda Toshkent davlat agrar universitetining Agrokimyo yo‘nalishi 2-bosqich magistrantlariga “Yer resurslaridan foydalanish” fanidan dars bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo‘limi tomonidan joriy yilning 7-8 fevral kunlari Navoiy viloyati Karmana va Xatirchi tumanlarida o‘tkaziladigan viloyat fermerlarini, issiqxona mas‘ul xodimlarini, qishloq xo‘jalik sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislarini Respublikamizdagi ilmiy-tadqiqot institutlarining yetuk olimlari tomonidan “Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini oshirishga, zararkunandalarga, sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishiga qarshi kurashishga, madaniy o‘simliklarning yangi kasallikka chidamli navlarini yaratishga yo‘naltirilgan amaliy va innovatsion ishlanmalarining taqdimotlari yuzasidan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy seminarda G.T.Parpiyev “Fermer xo‘jaliklari sug‘oriladigan yerlarining “Tuproq sho‘rlanishi kartogrammasi”dan samarali foydalanish yo‘llari” mavzusidagi taqdimot bilan faol ishtirok etib, 1:10 000 masshtabli kartogrammalardan foydalanish yo‘llari bo‘yicha tushuntirish ishari olib borgan.



2017-2018-yillarda Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tekshirish instituti bilan hamkorlikda VA-QX-F-5-028 raqamli “Sug‘oriladigan yerlarda yangi adaptiv landshaft va tuproqqa meliorativ yondoshish” mavzusidagi fundamental loyihada ham faoliyat yuritgan (0,25 stavkada).

2018-yil 29-dekabrda “Agrotuproqshunoslik va agrofizika”

ixtisosligi bo‘yicha katta ilmiy xodim unvonini olgan.

Biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim G‘ofurjon Toxirovich Parpiyev 2010 yildan shu bugungi kunga qadar turli ixtisoslashgan ilmiy kengashlarda faol qatnashib keladi. Shu bugungi kunda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.27.06.2017. QX/B.43.01. raqamli Ixtisoslashgan kengash ilmiy seminari a‘zosi, Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.05.03 raqamli biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash faoliyat yuritib keladi. Bundan tashqari, bir martalik ilmiy kengashlarda ham (*Masalan: Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik, shuningdek Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.25/30.12.2019.Qx/V.43.01 raqamli ilmiy kengash asosida 06.01.10-“Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo‘yicha bir martalik ilmiy kengash kabilarda*) ishtirok etgan.



Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi 06.01.03-“Agrofizika va agrotuproqshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi a‘zosi hisoblanadi. Bundan tashqari, har yili respublikamizning turli OTMlarida tashkil etiladigan yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasi hamdir. Masalan,

2023-2024 o‘quv yilida “Yer kadastr va yerdan foydalanish” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun yakuniy Davlat attestatsiya komissiyasi raisi sifatida faol qatnashgan.

2013-2016 yillar mobaynida Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutida G.T.Parpiyev kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi sifatida ham o‘zini faol tashkilotchi ekanligini ko‘rsata olgan. TAITning ilmiy-amaliy tadqiqotlarida, shuningdek, shartnomalar asosida “Hukumat obyektlarini obodonlashtirish bo‘yicha maxsus boshqarma”da tuzilgan ishchi guruhi a‘zosi sifatida maxsus topshiriqlarni bajarishda qatnashib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, sobiq Davergeodezkadastr qo‘mitasi, shuningdek, Qishloq xo‘jaligi vazirligining bayonnomalari asosida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tumanlarida qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali va oqilona foydalanishga qaratilgan mavsumiy belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etgan. Bu borada qo‘mitaning va institutning faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-son qarori 4-bandi bo‘yicha Davergeodezkadastr qo‘mitasining (hozirgi Kadastr agentligi) 2018 yil 31 maydagi 339-son buyrug‘iga asosan “O‘zbek davlat yer tuzish” ilmiy-loyihalash institutining

tuzilmasiga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, unda ta‘sis etilgan Bosh direktor o‘rinbosari (Ilmiy-innovatsion ishlar bo‘yicha) lavozimi tashkil etilgan bo‘lib, 2018 yilning 3 sanasidan G.T.Parpiyev “O‘zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash institutiga bosh direktor o‘rinbosari sifatida 2024-yil 1 apreliga qadar ish faoliyatini yuritgan.



Bugungi kunda uning 10 dan ziyod shogirdlari bor. Dastlabki shogirdi Xaitova Kamola Mirkubon qizi “Tog‘ oldi yaylov yerlari hududini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish” mavzusida qishloq xo‘jaligi fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Boshqa shogirdlari himoya qilish arafasida.



Xalqaro tajribalar:

G‘ofurjon Toxirovich Parpiyev 2011 yilning noyabr-dekabr oylarida Hindiston hukumatining ITEC dasturiga kirgan “Markaziy o‘g‘itlar sifatini boshqarish” (Central Fertilizer Quality Control) kursida qatnashib, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini

yanada boyitib qaytgan. Kurs yakunida maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.

Rossiya Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasidagi Savdo vakolatxonasining taklifi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining 14.09.2021 yildagi 06/033-536-sonli rozilik xatlariga asosan “O‘zdaverloyiha” DILI vakillari bilan 2021 yilning 15-19 sentyabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Минеральные воды shahrida bo‘lib o‘tgan “PRO YABLOKO 2021” zamonaviy bog‘dorchilik va innovatsiyalar bo‘yicha 3-Xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etgan. Jahon banki ko‘magida Koreya Respublikasining Qishloq yerlarni rivojlantirish Administratsiyasi (Rural Development Administration) taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi delegatsiyasi 2022 yilning 16-29 iyul kunlari Koreya Respublikasida o‘quv-amaliy trening dasturlarida ishtirok etgan. Trening yakunida maxsus sertifikat bilan taqdirlangan.



Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan 2023 yilning 5-7-sentyabr kunlari Turkiyaning Istanbul shahrida o‘tkazilgan “14th International LANDNET workshop” seminarida O‘zbekiston ilmiy delegatsiyasi a’zosi sifatida ishtirok etgan.

Taqdirlangan mukofotlari:

M.Ulug‘bek nomli davlat stipendiati (1999-2000 yy.);

“O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi” esdalik nishoni (2021 y.)

2024-yilning 9-aprelidan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi “Meva, sabzavot va dorivor o‘simliklar sohasida ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish” bo‘limi boshlig‘i sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi direktori i.f.d., professor Sh.I.Otajonov tashabbusi bilan Milliy markaz tizimida yo‘lga qo‘yilgan “Doktorantlar kuni” va “Qishloq xo‘jaligida drayver ilmiy yo‘nalishlar kuni” munosabati bilan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy seminar-treninglarda ham b.f.d., katta ilmiy xodim G‘.T.Parpiyev Ilmiy-texnik kengashning faol eksperti sifatida qatnashib kelmoqda.

Asosiy ilmiy va uslubiy ishlari.

Bugungi kunga qadar G‘.T.Parpiyev tomonidan jami 185 ta ilmiy ishlar e’lon qilingan, shundan 1 ta monografiya (shuningdek 1 ta o‘quv qo‘llanma va 11 ta ilmiy-uslubiy tavsiyanoma hammualliflikda), xorijiy va respublika jurnallarida hamda Respublikada o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalar va xorijiy konferensiya to‘plamlarida ilmiy maqolalar chop etilgan. Bundan tashqari, 6 ta dasturiy ta’minot uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohnomasi ham olingan.

Biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim Parpiyev G‘ofurjon Toxirovich o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishida sinchkov, mas’uliyatni chuqur his qilgan holda yondoshadi, talabchanligi va qat’iy tartib-intizomi bilan ajralib turadi. U tashabbuskor, ustoz-shogird an’anasini qadrlaydigan, amaliyot va ilm-fan integratsiyasi yo‘lida tinmay izlanadigan zamonamizning yetuk olimlaridan biri hisoblanadi.

Mustahkam oilali, 4 nafar farzandi bor.



PO‘LATOV ABDIMAJID QAYUMOVICH
Fizika-matematika fanlari doktori, professor
(1949-2017)

Yirik matematik olim, ingliz tili va kompyuter lingvistikasi bo‘yicha mutaxassis, mohir pedagog va ma’rifatchi, o‘zbek xalqining chin ziyolisi va taraqqiyparvari, fizika-matematika fanlari doktori, professor, 1994-1998 yillari Xalqaro informatika jamiyati(Germaniya), 1993-yildan O‘zbekiston matematiklar jamiyati a‘zosi, 2002-yilda Londonda nashr etilgan “2000 Outstanding Scientists of the 21st Century” – 21-Asrning 2000 ta Atoqli Olimlari” ro‘yxatiga kiritilgan Po‘latov Abdimajid Kayumovich 1949-yil Toshkent viloyatida ziyoli oilada tavallud topgan. 1966-1971-yillari Novosibirsk Davlat Universitetining Matematika fakultetida tahsil olgan. 1971-1979-yillari Novosibirskdagi SSSR Fanlar akademiyasining Sibir matematika institutida ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Sof va amaliy matematikaning turli sohalarini ifodalovchi ziyolilar muhitida yashab ijod qildi. Matematikani chuqur tushunish davri, shuningdek, mantiqiy funksiyalarni kodlash va murakkablik nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi. 1971-yilda Moskva davlat universitetida Akademik C. V. Yablonskiyning matematik kibernetika seminaridagi birinchi ilmiy

ma’ruzasi bo‘lib o‘tdi. 1978-yilda Chiziqli kodlarning xarakterli mantiqiy funksiyalarini formulalar bilan tavsiflashning murakkabligi bo‘yicha fan nomzodi dissertatsiyasini himoya qildi.

Olim: “Asosiy matematikadan tashqari, menda uning tarixi (kelib chiqishi), metodologiyasi va falsafasi (asoslari) bilan qiziqish paydo bo‘ldi. Menga bilim bergan olimlardan: Jahonga mashhur “Aksiomatik geometriya” kitobi muallifi A. D. Aleksandrov, Nobel mukofoti laureati, akademik, matematik iqtisodiyotning yangi yo‘nalishi yaratuvchisi Leonid Vladimirovich Kantorovich, shuningdek, Diskret Matematika bo‘yicha taniqli mutaxassis, Yu.L.Vasilyevlar hayotimning o‘zgarishiga kuchli ta’sir qilganlar” deya eslab o‘tadi.



1979-1994-yillarda ToshDU Amaliy matematika va mexanika fakulteti dotsenti sifatida faoliyat olib bordi. A.Po‘latov Diskret Matematikadan O‘zbekistondagi yagona mutaxassis edi, u atrofiga iqtidorli yoshlarni to‘plab Toshkentda Diskret Matematika ilmiy maktabiga asos soldi.



Shuningdek, u 1984/9/15-1984/12/15 davomida Stefan Banach xalqaro matematika markazining kuzgi semestrda Diskret Matematika bo‘yicha o‘qituvchilik qildi (Varshava, Polsha). 1981–1992-yillarda “Olmos ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish” bo‘yicha matematik loyiha rahbari sifatida ish olib bordi. Mijoz: GinAlmazZoloto, SSSR.

1993-yil A.Po‘latov Novosibirskda 3D qavariq politoplarning kombinatorial-metrik xarakteristikalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Fizika-matematika fanlari doktori unvonini oldi. Mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan keyin olim yana tezlik bilan kelajakni ko‘rdi: ingliz tilini o‘rganish kerak. U paytda A.Po‘latov yosh emas edi. Lekin ingliz tilini o‘rgandi. Shunday o‘rgandiki, ingliz tili o‘rganuvchilari uchun o‘xshashi yo‘q “Английский язык. Учебное пособие & справочник” Академик нашр, Шарк нашриети, 1998” o‘quv qo‘llanmasini yaratdi. Mazkur kitobning o‘zbekcha variantini 2011-yilda “Инглиз тили. Мустакил органувчилар учун. Академик нашр. Шарк нашриети” yaratdi.

1994-2000-yillarda ToshDU Mexanika-matematika fakulteti professori hamda bir muddat dekan o‘rinbosari lavozimlarida ishladi. 2000-yillardan boshlab Kompyuter Lingvistikasi sohasi bo‘yicha ilmiy izlanish

boshladi, 1999-yil “Kompyuter Lingvistikasi” o‘quv qo‘llanmasini yaratdi. 2000-2002-yillarda O‘zMU Kompyuter texnologiyalari fakultetida professor, 2002-2006-yillarda esa O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter Lingvistikasi kafedrasini mudiri sifatida faoliyatini olib bordi. Ingliz va o‘zbek tilini chuqur o‘rganish jarayonida 2003-yilda uning hamkorlikdagi “Pulatov, Abdimajid, Tabassum Muminova and Iroda Pulatova. Dunyoviy o‘zbek tili va ularning rus, ingliz tillaridagi ko‘rinishlari. Universitet Press” qo‘llanmasi vujudga keldi.



2007–2009-yillarda Ko‘zi ojizlar uchun kompyuterlardan foydalanish imkoniyati va samarali foydalanish bo‘yicha loyiha rahbari sifatida ish olib bordi. (Buyurtmachi: O‘zbekiston Respublikasi Ko‘zi ojizlar jamiyati). Shuning asosida Kompyuter Lingvistikasi fani va kafedrasiga asos solindi. 100 ga yaqin malakali mutaxassislarga (doktorlik, fan nomzodi va magistratura nomzodlari) maslahat berdi. 1988 -yildan umrining oxirigacha uning rahbarligi ostida 14 nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. 2011-yilda “Po‘latov, Abdimajid. Kompyuter Lingvistikasi” Akademnashr nashr” o‘quv qo‘llanmasini yaratdi.

Shu bilan birga u Falsafa fani bilan ham chuqur shug‘ullana boshladi, natijada uning 2009-yilda keng jamoatchilik va kitobxonlar munozarasiga sabab bo‘lgan uch tilda yozilgan “Po‘latov, Abdimajid. Hayot formulalari. Inson hayoti falsafasining 3 ta tezislari, 5 ta

tamoyillari va 99 ta formulalarida jamlangan (rus, o‘zbek, ingliz tillarida) Nasaf Press” kitobi keng ommaga taqdim etildi .

A.K. Po‘latov o‘z pedagogik va ilmiy faoliyati davomida yuzlab yoshlarga ingliz tilini o‘rgatdi, TOEFL va IELTSdan saboq bedi. 1995-yildan 2017-yilgacha Matematika, ingliz tilini o‘qitishning innovatsion usullarini taqdim etuvchi va o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga yordam berish uchun tashkil etilgan Po‘latov nomidagi o‘quv markazi rahbari sifatida faoliyat olib bordi. “Po‘latov maktabi” universitet va yurtimiz uchun O‘zbek tili va kompyuter texnologiyalari sohalarining kesishmasi asosidagi yangi yo‘nalish bo‘ldi. Shuning asosida Kompyuter Lingvistikasi fani va kafedrasiga asos solindi. 100 ga yaqin malakali mutaxassislariga (doktorlik, fan nomzodi va magistratura nomzodlari) maslahat berdi.




Abdimajid Po‘latov bundan 25-30 yil oldin sohaning kelajakdagi ahamiyatini tushungan va shu sohada ilmiy ishlar boshlagan. U kishi ana shunday uzoqni ko‘ra biluvchi olim edi.



Professor Abdimajid Po‘latov tabiatan o‘qituvchi, malakasi bo‘yicha matematik-tadqiqotchi. U matematika bo‘yicha

tadqiqotlar, oliy ta‘lim, o‘qituvchilik va yoshlar uchun murabbiylik sohasida 45 yildan ortiq tajribaga ega.



U o‘zi rahbarligida doktorlik, magistrlik va bakalavriat dissertatsiyalarini tamomlagan, o‘z ta‘lim markazini

tamomlagandan so‘ng kollej va oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan 300 dan ortiq talabalarga maslahat bergan va ularga dars bergan. Uning shogirdlari hozirda kollej va universitetlarda tahsil olishadi va 30 dan ortiq mamlakatlarda texnologiya va tadqiqot tashkilotlarida ishlaydi (O‘zbekistonda 100 dan ortiq, AQShda 60 dan ortiq, boshqa mamlakatlarda 100dan ortiq).

A.Po‘latov umrining so‘nggi yillarida butun dunyodagi maktab matematikasini islohot qilish niyatida “Matematika butun go‘zalligi bilan” (“Mathematics in All its Beauty”-“Математика во всей красе”) kitobini yoza boshlagan edi. Chunki, hozirda butun dunyo maktablarida, universitetlarda o‘rgatiladigan matematikaning katta qismini differensial-integral hisob tashkil qiladi. XX asr o‘rtalariga kelib davr o‘zgardi — kompyuterlar yaratildi. Kompyuterlar uzluksizlik bilan chiqishmaydi. Kompyuterlar ishlash prinsipi diskretlikka asoslangani uchun ham keyingi o‘n yilliklarda diskret matematika keskin rivojlanib boryapti. A. Po‘latov ta‘limda hali hamon differensial-integral hisobni o‘qitish salmoqli bo‘lib qolayotgani uchun maktab matematikasini isloh qilish kerak deb hisobladi. Afsuski, A.K. Po‘latov 2017-yil 23-mayda og‘ir kasallikdan AQSHning San Fransisko shahrida 68 yoshida vafot etdi. O‘z oila a‘zolari va shogirdlari tomonidan Kaliforniyaning San Mateo shahriga dafn etildi. Uning kitobini qizi Shahina Pulatova davom ettirmoqda.



QODIROV BOTIR RAHMONQULOVICH
Psixologiya fanlari doktori, professor

Botir Rahmonqulovich Qodirov 1943 yil Termiz shahrida tug'ilgan. Otasi Qodirov Rahmonqul oddiy ishchi edi va urush jarohatlari ta'siri ostida og'ir betoblighi tufayli 1948 yili vafot etdi. Onasi Qodirova Qanoat bir o'zi uch farzandi – opasi Sharofat, Botir va singlisi Tojigulni voyaga yetkazib o'qitdi, mehnatga va odamlarga hurmat ruhida tarbiyaladi.

Qanoatning o'zi savodsiz bo'lsa ham, juda ko'p she'rlarni, hikmatli so'zlarni, maqollarni yoddan bilardi. Ba'zi paytlarda yoddan o'qiydigan bu sher va maqollar Botirda juda chuqur iz qoldirgan. Ularning ba'zilarini Botir yozib olib yodlab yurardi, chunki bu she'r va hikmatli so'zlar ko'p narsalarga o'rgatar, to'g'ri tushunishga yordam berar edi. Qanoat 1986 yil vafot etdi.

1950-60 yillarda "Pravda" nomli o'rta maktabda o'qigan Botir 1961 yili Samarqand tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga kiradi. Shu paytdan boshlab u ilmga katta ixlos qiladi va psixiatriya to'garagida katta havas bilan ilmiy ishlarga berilib ketadi. Uchinchi kursdaligida uni Samarqand viloyat nevropatologlar va psixiatrlar jamiyatiga a'zo qilib olishdi. Bu jamiyat a'zolariga u bir necha marta ilmiy-klinik kuzatishlari va tajribalaridan

ma'ruza qiladi, jami ilmiy to'garakda va boshqa joylarda u 46 marta referativ ma'ruzalar tayyorlagan va bular uchun taxminan 500 dan ortiq ilmiy adabiyotlarni mutolaa qilgan.

1967 yil institutni tugatish bilan birgalikda, nevropatologlarning 6 oylik maxsus kursini tugatgani haqida ham hujjat oladi va Termizdagi oblpsexonevrologik dispanserga vrach-psixiatr bo'lib ishga keladi. O'sha yilning sentyabr oyida, 4 oylik psixiatrlar tayyorlaydigan maxsus kursni o'tash uchun Toshkentdagi vrachlar malakasini oshirish institutiga ketadi.



1967-69 yillar institutlarda olgan bilimlarini amaldagi tatbig'i sifatida turli xil ruhiy va asabiy kasalliklarni davolash bilan juda qattiq shug'ullanadi. Shu payt ichida

Moskvadagi 1-tibbiyot institutining psixiatriya kafedrasining mudiri, mashhur psixiatr olim, professor V.M.Banshikov bilan yaqindan tanishadi. U kishining maslahati bilan ba’zi ruhiy kasalliklar jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish maqsadida ancha adabiyotlar bilan tanishadi. Jumladan, gerantopsixiatriya sohasida o‘z saviyasini oshiradi. So‘ng Moskvada, aspirantlik davrida poliklinikalarda ishlagan paytlarida unga juda qo‘l keladi.

Shu orada uni Termiz davlat pedagogika institutiga psixologiyadan ma’ruza o‘qishga taklif qilib qolishadi. Psixologiya kafedrasining mudiri dotsent Z.S.Axmerov uning birinchi ma’ruzasiga kirib o‘tiradi va ma’ruza tugagach uni yetaklab rektorning xonasiga olib kiradi. Botir Qodirovni ko‘rsatib, shu kishini ishga olishimiz kerak, deb turib oladi. Rektor, dotsent X.X.Xolyorov, telefonda, o‘sha paytning o‘zida viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limining mudiri K.T.To‘laganov bilan gaplashib, uni ishga olishlari va bu voqeani rasman hujjatlashtirish yo‘llari haqida kelishib oladilar.



1973-76 yillari Moskvada, SSSR pedagogika fanlar akademiyasining umumiy va pedagogik psixologiya ilmiy-tekshirish instituti qoshidagi aspiranturani o‘taydi. Botir Qodirovning ilmiy rahbarlari psixologiya fanlari doktorlari E.A.Golubeva va N.S.Leyteslar edilar. Ularni Botir Qodirovning o‘zi tanlagan bo‘lib, bular buyuk I.P.Pavlov yo‘nalishidagi Teplov maktabining yirik namoyandalari edilar. N.S.Leytes bilan Botir Qodirov 1971 yil psixologiyadan malaka

oshirish kursiga kelganida tanishgan edi. O‘shanda Botir Qodirov, “agar shularga shogird tushsam baxtli bo‘lardim”, deb niyat qilgan edi. Chunki, bularning ilmiy tadqiqotlari eng sof, qalloblikdan uzoq bo‘lgan fundamental ishlar ekanligidan xabari bor edi. 1973 yili aspiranturaga kirganida ijtimoiy psixologiyadan P.M.Yakobson laboratoriyasiga tasdiqlangan edi. Lekin bir oylarcha davom etgan rahbariyat bilan munozaralardan so‘ng u E.A.Golubevaning laboratoriyasiga o‘tadi va N.S.Leytes bilan ikkalalari katta bir ilmiy sohani ochishda unga rahbarlik qila boshlaydilar. Bu – insoniyat faolligining tabiiy asoslarini ochish edi. Olingan dalillar, avvalo, bu sohaning behisob keng va murakkabligini ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bolalar faolligining tabiiy asoslarini ma’lum bir fiziologik ko‘rsatkichlaridan to‘g‘ri diagnoz qo‘yish va ma’lum darajada prognoz qilish mumkin bo‘ldi. Bu esa pedagogik amaliyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqasi bor bo‘lgan dalillar edilar.

Botir Qodirov 1977 yilning boshida bu ishni SSSR pedagogika fanlar akademiyasining umumiy va pedagogik psixologiyasi ilmiy tekshirish institutining olimlar kengashida muvaffaqiyatli himoya qiladi. O‘sha yilning o‘zida E.A.Golubeva laboratoriyasi bilan Termiz pedagogika instituti orasida ilmiy aloqani rasmiylashtirish uchun shartnoma tuziladi va uning har tomonlama amalga oshirishini nazarga tutadigan uzoq yillarga mo‘ljallangan tadbirlar rejalashtiriladi. Shu tufayli bir-ikki marta Moskvadagi laboratoriyaga o‘z qilgan ishlari yuzasidan Botir Qodirov hisobot bergani borib turadigan bo‘ladi. Shu yillardan boshlab u Termizdagi psixofiziologik ilmiy-tekshirish laboratoriyasiga har xil asbob-uskunalar yig‘a boshlaydi. Va shu davrda markaziy nashriyotlarda qilingan ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan yozilgan maqolalari chop bo‘la boshlaydi.

1980 yil Botir Qodirovga dotsentlik unvoni beriladi. 1981 yilning mart oyida Afg'onistonning og'ir tushkunlik kunlari Qobul universitetiga psixologiyadan mutaxassis maslahatchi va o'qituvchi sifatida SSSR oliy ta'lim vazirligi tomonidan besh yilga yuboriladi. Lekin, onasi Qanoat juda og'ir kasal edi, shuning uchun u besh yillik vazifasini tez bajarib, barvaqt qaytish payiga tushadi. Shu sababli to'liqsiz ikki yillik o'ta noqulay sharoitda dari tilida ikki o'quv qo'llanma yozadi, to'rt maqola yozib universitet oynomasining 2-3 sonida chop qildiradi, to'rt mutaxassis Botir Qodirov o'qiyotgan kurslarni o'zlashtirib, o'zlari mustaqil dars bera oladigan holga keladilar. Ana shularni hisobga olib Sovet hukumati elchixonasining mutasaddi xodimlari istisno sifatida 22/XP-1982 yili Afg'onistondan chiqishga ruxsat beradilar. O'shanda u Qobuldan Moskvaga kelib ZO/XP-82 gacha bilet yuqligi sababli qolib ketgan, uyga yangi yil kechasi kirib kelgan. "1 yanvar 1983 yil ishga chiqqanman va o'sha yil 789 soat dars bajarganman" – deydi u. Botir Qodirov 1983-1984 o'quv yilining sentyabr oyida paxta terimiga chiqqanligini va 30 dekabr kuni kechqurun yakunlab qaytib kelganligini — planni bajarish o'sha yil juda qiyin bo'lganligini eslaydi.

Paxta yig'im terimi paytida yangi tayinlangan institut rektori — Nazar Yuldoshevich To'rayev tashabbusi bilan Botir Rahmonqulovich Qodirovni ikki yillik katta ilmiy xodimlikka chiqarishni muvofiq ko'rishdi. Shu sababli, u 1 yanvar 1984 yildan boshlab Moskvaga ketishga taraddud ko'ra boshladi. Aslini olganda Botir Qodirov bunday burilishga tayyor emas edi, ayniqsa, ikki yil Afg'onistonda va 1983 yilning ish borasida unga juda og'ir kelishi ilmiy yo'nalishdan ancha chetlatib qo'ygan edi. Moskvada u birinchi navbatda o'zining avvalgi rahbarlari N.S.Leytes va E.A.Golubevalar bilan o'z rejalari haqida uzoq davom etgan suhbatlarda bo'ldi va taxminan qilinadigan ishning asosiy

konturini belgilab chiqdi. Ya'ni ular yana fundamental tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan bo'ldilar. Lekin, hali fanda odamning pinhoniylar imkoniyatlari nimalarga qodir ekanligi ochilmagan, bu sohada hech kim fikr yuritmagani edi. Shu sababli rahbarlari, avvaliga, bu ishning amalga oshishiga va shu haqdagi rejalarga yaxshi munosabat bildirmadilar. Ikki, uch marta Botir Rahmonqulovich Qodirov yozgan asoslarini xomxayol deb qaytarib berishdi. Shu orada u sinov tadqiqotlarini Moskvaning 175-sonli o'rta maktabida boshlab yuboradi. Maktabda darslar tugashi bilan to'plangan minglab raqamlarni katta hisoblash mashinalarida tartibga keltirib, bolalar iste'dodining tabiiy asoslari borligini isbot qiladigan dalillar olinganidan Botir Rahmonqulovich rahbarlarini ham voqif qildi. Bu va boshqa dalillar ostida rahbarlari ham yangi sohaning ochilganligining guvohi bo'ldilar.



Shunday qilib 1984-85 o'quv yili jarayonida ikkita 8-sinf o'quvchilarining har biridan 28 ta metodika ishlatib, mingdan ortiq sonlar bilan ta'riflanadigan dalillar olindi. Poydevor keng tashlangan ekan, bu olingan dalillarning hammasi ham kerak bo'lavermadi, atigi to'rt dan bir qismigina ish berdi, xolos. Bolalar layoqatini ta'riflaydigan 34 ta son, miya ish faoliyatini ta'riflaydigan yuzdan ortiqroq ko'rsatkichlar va yana bir nechta boshqa ko'rsatkichlarning o'zi to'la kifoya qildi. Lekin bu fikrga kelguncha olingan juda ko'p miqdoriy ko'rsatkichlarni birma-bir ko'rib chiqishga to'g'ri keldi, katta hisoblash mashinalaridan o'tkazib ma'lum bir qonuniy bog'lanishlarning

borligini o‘rganishga to‘g‘ri keldi. Shu keng ko‘lamda o‘ylangan ishdan maqsadga loyiq kamgina qismini olib nazariy jihatdan asoslab berish uchun yana taxminan uch yil kerak bo‘ldi. Va faqat 1988 yilning oxirida butkul tugatib, yozib bo‘lindi. Afsuski, qolgan materialni ishlashga boshqa vaqt yetmadi. 1989 yil matnini ishlash, uni pardoziqlashga ketdi.

Nihoyat yilning oxirida laboratoriyada ish muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. 1989 yilning o‘zida avtoreferat ham tasdiqlandi va chop etilishiga ruxsat berildi. Himoya 1990 yilning apreliga belgilandi.

Ish mazmuniga qarab va tegishli o‘zgartirishlar evaziga uch xil Kengashda yoqlanishi mumkin edi. Birinchisi, tibbiyotdan, aynan, neyrofiziologiya fanidan, chunki, ishda birinchi marta inson tendensiyalarining neyrofiziologik mexanizmlari aniq elektrofiziologik tadqiqotlarga asoslanib ochib berilgan edi. Tibbiyotda bu ishning ahamiyati shundan iborat ediki, bu ishda har bir bola, yoki katta yoshdagi kishining miya xususiyatlariga qarab uning qaysi kasallikka moyilligini aniqlash mumkin. Jumladan, alkogolizm, tutqanoq va boshqalar haqida gap ketgan bo‘lardi. Bundan tashqari bu ishning asosida nozik metodik uslub ishlatilganki, uni bemalol, umuman neyrofiziologik diagnostikada ishlatish mumkin edi. Har qanday holda ham – tibbiyot nuqtai nazaridan ham, nazariy tomondan ham ishning ilmiy-amaliy talablarga javob bera olishini muhokama paytida ta’kidlab o‘tishdi.

Ikkinchidan, bu ishni psixologiyaning psixofiziologiya sohasidagi olimlar kengashida ham (MGUda) himoyaga qo‘yish mumkin edi. Va bu eng optimal yo‘l bo‘lgan bo‘lardi. Chunki, ishda birinchi marta bola layoqatlarining (ya’ni professional intilishlarining) tabiiy asoslari ochib ko‘rsatilgan edi va shu yo‘nalishda kompleks metodikalar taklif qilingan edi.

Lekin, uchinchi variant har ikkala yo‘nalishdan ham qiziqroq tuyuldi. Bu umumiy

psixologiyadan olimlar Kengashiga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan edi. Bunda, asosan, ishdagi falsafiy ma’noni chertib ko‘rsatishga qaratilgan edi. Keyinchalik, himoya paytida, opponentlardan biri – akademik L.I.Ansiferova aynan shu tomonini bo‘rttirib, “inson faoliyatining tabiiy ramzi bilan tug‘ilishini bu ish isbot qiladi”, deb aytdi. Mazkur fan hozirgi paytda shunday darajaga erishdiki, nozik texnik vositalari faoliyati natijasida olingan noyob dalillar bilan qanoatlanmaydi. Ehtimol, nihoyat darajada chuqur metodologik, umumbashariyat rivojlanishiga nima hissa qo‘shgan-qo‘shmaganligi bilan qadrlanadi.



Muhokama paytida olimlar umumiy psixologiya Kengashiga tavsiya etishni maslahat berishdi va shu bilan yana ko‘p tomonlarni nazarga olishdi. Bu davrga kelib Termiz davlat pedagogika instituti qoshida 140000 so‘mlik ilmiy tadqiqot qilish uchun asbob uskunalar bilan jihozlanirilgan yirik bir laboratoriya norasmiy ravishda ishlab turgan edi. Jumladan, institut 60000 so‘mlik Ay-Bi-Em kompyuterini sotib olib bergan edi. Laboratoriyaning so‘ngroq 1990 yildan boshlab O‘zbekiston maorif vazirligi tan oldi va boshlang‘ich faoliyat uchun bir yilga 20000 so‘m pul ajratdi.

Shunday qilib, himoya 1990 yilning aprel oyiga belgilandi. Bunga katta tayyorgarlik ko‘rish kerak edi. Jumladan dissertatsiya matnini to‘liq holatga keltirib, uni yaxshilab o‘qib chiqildi. Qo‘l mashinasida chop etildi, muqovalandi va taqrizchilarga uch donasi

berildi. Kutubxonalariga taqdim etildi. Xullas, 17 aprelga obdon tayyorgarlik ko'rdi.

Himoya kutilganidan ham muvaffaqiyatli o'tdi. 13 ta savol tushdi. Taqrizchilar juda jiddiy va yuqori baholadilar.

Shundan so'ng, Botir Rahmonqulovichning hayotida yangi soha boshlandi. Moskvadan Toshkentga kelaturib Botir Rahmonqulovich O'zbekiston SSR Maorif vazirligining o'rinbosari Yu.N.Abdullayev bilan muloqotda bo'ldi. O'shanda ular kelajak rejalari haqida suhbatlashib oldilar. Asosiy mavzu – Toshkentda iste'dodli bolalar tashxis markazini tashkil qilish haqida edi. Endilikda markazning to'liq loyihasini tuzib berish vazifasi Botir Rahmonqulovichga yuklatildi. Dastur va tuzilmasi tasdiqlandi. Yangi yildan boshlab bu markaz moliyaviy mustaqil bo'lib kuchga kirdi.



Lekin Botir Rahmonqulovichni Termizda yangi ishlar kutardi. Jumladan, laboratoriya rasmiy tus olganligi sababli, yangi xodimlar olinishi kerak edi. Ishlarni boshlash kerak edi... Laboratoriyada oltita xodim ishlardi, "O'zbekistonning iste'dodli bolalari" dasturi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli

amalga oshirishardilar. Laboratoriya xodimlari ishni maktabdan boshladilar. Psixologlari ikki guruhga bo'linib, 8-9-sinf o'quvchilarining aqliy faoliyat saviyasi va shaxsiy xususiyatlarini tadqiq qiladigan metodikalar ishlatib Termiz shahar maktablarini o'rganib chiqdilar. Jami to'rt yarim ming o'quvchidan 2-3 metodika ishlatib axborot olingan edi. Bosh vazifa tadqiqotlarni davom etdirish bilan birga minglab olingan sonlarda ifodalangan axborotlarni ishlash edi. O'ta qobiliyatli bolalarni ajratish, aqliy qobiliyatlarning shu yoshdagi normasini aniqlash, uning o'ziga xos ichki qonuniyatlarini tushunish ham shular jumlasidan edi. Shu bilan birga laboratoriyada respublika ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borildi. Xususan, chet ellarda mashhur bo'lgan intellektni tekshiradigan G.Ayzenk metodikasi o'zbek tiliga tarjima qilindi.



Botir Rahmonqulovichning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, shu besh sohadagi inson faoliyatining har birining miyada tabiiy ramzi bo'larkan va ko'pchilik yoshlarda bir yoki ikki sohaning ma'lum darajada rivojlangan tabiiy ramzi u yoki bu asabiy xislatlarda o'z aksini topgan bo'larkan. Aynan shu miya xususiyatlari yaxlit va to'liq tadqiq qilindi. Izchillik bilan har bir layoqatning tegishli sohalariga aloqasi borligi isbot qilindi. Fanda miya xususiyatlariga qarab kishi layoqatlarini va kelajakda o'ziga xos kasb-hunar yo'nalishlarini aniqlash sharoiti ochilgani birinchi marta qayd qilindi. Lekin, aytish kerakki, bu ixtiro hali tadqiqot darajadagi fanga

qo'yilgan bir qadamdir. Bu ilmiy qadamning hayotga, har kungi tajribaga aylantirish uchun amaliyotda ko'plab psixologlar ishlata oladigan holatga keltirish uchun yana tadqiqotlar olib borilishi kerak. Yangi, oson metodikalar ishlab chiqish kerak. Chunki, ma'lumki, elektroneyrofiziologik asboblarni har qanday "men psixologman" degan kishi na ishlata oladi va na ensefalogrammani o'qiy oladi. Demak, hali bu ish yakun bo'lgani yo'q, ehtimol, endi boshqatdan, yangi sohada iste'dodli bolalarda layoqat va qobiliyatlarning tabiiy asoslarini o'rganish jarayonida Botir Rahmonqulovichning shogirdlari olimning niyatlarini amalga oshirar.

1995 yilga kelib VM qarori va XTV maxsus buyrug'i bilan Termiz psixologiya laboratoriyasi Toshkentga ko'chirildi va uning kadrlari va moddiy-texnikasi asosida Respublika iste'dod Markazi ochildi. Prof. B.R.Qodirov Markazning direktori etib tayinlandi.

2000 yilning fevral oyida O'zMU rektori, akademik T.N.Dolimov B.R.Qodirovning "Tafakkur" jurnalidagi maqolasidan ta'sirlanib, uni Milliy universitetga maxsus laboratoriya ochib, qobiliyatlar psixologiyasi va psixofiziologiyasini yo'lga qo'yish ishlarini hamda kafedrani boshqarishni taklif etdi. 2014 yilgacha B.R.Qodirov O'zbekiston Milliy universitetida professor, kafedra mudiri vazifalarida ishlab keldi. 2014 yilning sentyabr oyidan e'tiboran MDUning Toshkentdagi filialining rahbariyati taklifi bilan psixologiya kafedrasida professor vazifasida ishlab kelmoqda. Professor B.R.Qodirov keng qamrovli ilmiy qiziqishlarga ega bo'lib, psixologiya fanining 20 dan ortiq sohalaridan

ma'ruzalar o'qib talabalar va hamkasblari orasida katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan olimdir. B.R.Qodirov rahbarligida ko'plab talabalar, magistrant va aspirantlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. U 140 dan ortiq ilmiy asarlar chop ettirdi, shu sohalardagi ishlarga ilmiy rahbarlik qildi.

Har xil yillarda Sifat komissiyasi raisi va a'zosi, himoyalar bo'yicha Ilmiy Kengash a'zosi va raisi, OAK ekspert kengashi a'zosi, Fan va texnologiyalar qo'mitasida ekspert komissiyasi raisi kabi jamoat ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Moskva ilmiy muhiti ta'limini olgan prof. B.R.Qodirov, O'zbekistonda ham jiddiy psixologik tadqiqotlarni davom ettirish bilan bir vaqtda, xalqaro ilmiy aloqalar o'rnatdi. Oxirgi yillarda chet el tadqiqotchi olimlar va ilmiy tashkilotlar bilan aloqalarini kengaytirdi: Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Gretsiya, Turkiya kabi mamlakatlar shular jumlasidan.

Ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirishda, bajargan fundamental va amaliy tadqiqotlari ko'lami va o'quv-metodik ishlari sohasidagi yutuqlarini inobatga olib, hamda prof. B.R.Qodirovning o'ta kamtarinligi, o'ziga va shogirdlariga nisbatan talabchanligi, mehnatkashligi, ilmiy-pedagogik salohiyati yuqori va kengligi bilan uni O'zbekistonda zamonaviy psixologiya fanining yorqin va jiddiy namoyandasi sifatida tan olish mumkin.

B.R.Qodirov nomzodining Davlat mukofotiga tavsiya etilishi, MDU filiali mehnat jamoasi yig'ilishida muhokama qilindi va qo'llab-quvvatlandi.

Botir Raxmonkulovich Qodirovning ilmiy faoliyati ommani qiziqtirib, hujjatli filmlar tayyorlanib ma'naviy-ma'rifiy kanallarda bir necha bor uzatildi.



QODIROV DILSHOD BOTIROVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Qodirov Dilshod Botirovich “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetida kafedra mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

U 1987-yilda Namangan viloyatining Chortoq tumani Koroskon qishlog‘ida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Shu qishloqdagi 1-o‘rta maktabning 6-sinfini tugatib, 2000-yildan Chortoqdagi Ixtisoslashgan internat litseyida o‘qishni davom ettirgan. Litseyni 2005-yilda a‘lo baholar bilan tamomlagan. Yoshligidan texnikaga bo‘lgan qiziqish va intilishlari sabab 2005-yilda Toshkent davlat texnika universitetiga Elektr energetikasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga kirgan.



Universitetni 2009-yilda tamomlagach, shu yili magistratura bosqichida o‘qishini davom ettirib, 2011-yilda magistr darajasiga ega bo‘lgan.



Mehnat faoliyatini 2011-yilning sentyabr-dekabr oylarida Namangan muhandislik pedagogika instituti Elektrotexnika va energetika kafedrasida assistenti lavozimida boshlagan. D.Qodirov o‘zining ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziquvchanligi va intilishlari sababli 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining Energetika va avtomatika institutida stajyor-tadqiqotchi izlanuvchisi va kichik ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. 2016-2018 yillarda “O‘zbekenergo” AJ Ilmiy-texnika markazining Qayta tiklanuvchi energiya manbalari laboratoriyasida katta ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan.



D. Qodirov 2018-yildan to hozirgi kungacha “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining “Elektr ta’minoti va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” kafedrasiga rahbarlik qilish bilan birga o‘zining pedagogik faoliyatini muntazam ravishda davom ettirib kelmoqda. U faoliyati mobaynida 2 ta PhD va 16 magistrlik dissertatsiyalariga hamda 21 ta bakalavrlarning diplom loyihalari va malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilgan.



2018-yilda 05.05.01-Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo‘yicha “Past bosimli suv oqimlari uchun energiya samarador mikrogidroelektrstansiya” mavzusidagi dissertatsiyasi ishini muvaffaqiyatli himoya qilib texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan. 2022 yilda “Elektr ta’minotida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishga tizimli yondashuv”

mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasini himoya qilgan.

D. Qodirov tomonidan 120 dan ortiq ilmiy ishlar, shulardan 60 dan ortig‘i Scopus va Web of Science bazasidagi ilmiy jurnallarda chop etilgan. Bundan tashqari 4 ta monografiya, 7 ta o‘quv qo‘llanmalar, 20 tadan ortiq avtorlik guvohnomalarning muallifidir.



D. Qodirov “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish” sohasida xalqaro ekspert hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda jumladan, Germaniya, Fransiya, Singapur, Italiya, Avstriya, Rossiya, Turkiya, Polsha, Chexiya, Malayziya va boshqa ko‘plab davlatlarda ilmiy stajrovkada bo‘lgan. U tomonidan Polshaning Krakov texnologiya universiteti, Malayziyaning Perlis Malayziya universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti hamda Germaniyaning Ingolshadt texnika universitetlarida talabalar va magistr larga ma’ruzalar o‘qilgan.



O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2021.T.143.01 raqamli hamda “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi

DSc.03/30.12.2019.T.10.01 raqamli Ilmiy Kengashlar a'zosidir.



D.Qodirov Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), Germaniya Akademik Almashinuv Xizmati (DAAD) va boshqa xorijiy grantlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bundan tashqari, bugungi kungacha 20 ga yaqin fundamental, amaliy, innovatsion loyihalar hamda tarmoq korxonalarining ilmiy-texnik muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirishda rahbarlik qilgan va ularni amaliyotga joriy etishda o'z hissasini qo'shgan.

D.Qodirov tashabbusi bilan 2019-yildan boshlab xar yili o'tkazilib kelinayotgan Scopus va Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanuvchi "International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda 2023-yilda

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetida "Kvant texnologiyalar markazi" tashkil etilgan.



U o'zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo'lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, zimmasiga yuklatilgan vazifalarga sidqidildan yondashishi, hamkasblariga munosabati va namunali xulqi bilan jamoatchilik o'rtasida hurmat va e'tiborga ega.



QODIROV KAMOLIDDIN BOTIROVICH
Psixologiya fanlari doktori, professor

Qodirov Kamoliddin Botirovich 1974 yil 31 martda Termiz shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek.

1991-1996 yillar davomida M.T.Oybek nomidagi Termiz davlat universiteti Biologiya fakultetida tahsil olgan. Universitetni tugatgach O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika iste'dod markazida kichik ilmiy xodim sifatida ham kasbiy, ham ilmiy faoliyat bilan shug'ullana boshladi.

1997 yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining aspiranturasiga o'qishga kirib, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, psixologiya fanlari doktori, professor Muhammad Gabdulgalimovich Davletshin rahbarligida bitiruvchi sinf o'quvchilarida bo'lajak kasbni tanlashga psixologik tayyorlik muammosini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan. 1998-2001 yillarda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika tashxis markazida bosh

mutaxassis lavozimida ishlagan va bitiruvchi sinf o'quvchilarida kasbiy qobiliyatlar, layoqatlar, qiziqishlar, qadriyatlarni aniqlashga qaratilgan tashxis metodikalarini ishlab chiqish bilan shug'ullangan.



Maktab psixologlari faoliyatini metodik ta'minlash maqsadida psixologik tashxis metodikalarini standartlashtirish va ularni milliy muhit sharoitlariga moslashtirish ustida faol ish olib borgan. Ushbu uslubiy ishlanmalar maktab amaliyotiga joriy qilingan va hozirgi

paytda maktab psixologik xizmatida keng qo‘llanilmoqda.



K.Qodirov 2001 yilda Respublika tashxis Markazi va aspiranturadagi ilmiy-metodik faoliyati doirasidagi ijodiy izlanishlari natijasida “Kasbiy tashxis va kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



2002 yildan boshlab Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Falsafa fakulteti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshlagan. 2006 yil fevral oyida dotsent ilmiy unvonini olishga muvaffaq bo‘lgan. Hozirgi kunga qadar O‘zbekiston Milliy universiteti Psixologiya kafedrasida dotsenti sifatida “Umumiy psixologiya” (“Diqqat va xotira”, “Ichki regulyasiya” bo‘limlari), “Eksperimental psixologiya va praktikum” (“Shaxs”, “Diqqat va xotira” bo‘limlari), shuningdek, “Etnopsixologiya va din psixologiyasi”, “Psixologik tadqiqot natijalarini qayta ishlash metodlari va texnologiyalari” va boshqa fanlar bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borgan.

K.B.Qodirov 2003-2005 yillarda Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida “5-7 yoshli bolalarning maktab ta’limiga yetuklikning psixofiziologik mexanizmlari” mavzusida amalga oshirilgan yirik ilmiy-tadqiqot loyihasiga rahbarlik qilgan.

2008-2010 yillarda O‘zbekiston futbol federatsiyasi huzurida tashkil etilgan kompleks ilmiy guruhi psixofiziologi sifatida elektroensefalografiya usulidan foydalanib, O‘zbekiston professional futbol ligasi hamda Milliy terma jamoasi futbolchilarining asab tizimi xususiyatlari diagnostikasi bilan shug‘ullangan. Futbolchilarda asab tizimi xususiyatlarini psixofiziologik o‘rganishning yangi usullarini ishlab chiqish maqsadida markaziy, vegetativ va asab-mushak tizimlari elektroфизиologiyasi sohasida kompleks ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan.



2015 yildan boshlab Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi sifatida “Individual asimmetriya qiyofasi shaxs tipologik xususiyatlarini belgilovchi omil sifatida” mavzusidagi dissertatsiyasi ustida keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan va 2019 yil dekabr oyida dissertatsion tadqiqotlarini yakunlab, uni muvaffaqiyatli himoya qildi va psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan. 2022 yil oktyabr oyida esa professor ilmiy unvonini olishga muvaffaq bo‘lgan.

2017 yil sentyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshidagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutida “Boshqaruv psixologiyasi va liderlik” kafedrasida mudiri sifatida ishlay boshlagan.



Kafedra mudiri sifatida 4 oylik istiqbolli kadrlarni qayta tayyorlash kurslari tinglovchilari uchun “Liderlik psixologiyasi”, “Boshqaruv psixologiyasi” va “Muloqot psixologiyasi” kurslari bo‘yicha ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borgan.



Bundan tashqari, boshqaruv kadrlarining psixologik portretini yaratish maqsadida K.B.Qodirov shaxsning liderlik va rahbarlik sifatlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator psixodiagnostik testlarni ishlab chiqqan.



Hozirgi kunda ushbu metodikalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi faoliyatida joriy etilgan bo‘lib, davlat xizmatchilarini psixodiagnostik tekshiruvlardan o‘tkazish natijalari asosida ularning psixologik portretini tuzishda foydalanilmoqda.



2020 yil noyabr oyidan boshlab K.B.Qodirov O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti “Boshqaruv ko‘nikmalari va yetakchilik mahoratini rivojlantirish” kafedrasida professori sifatida ishlab kelmoqda. 2022 yil oktyabr oyidan e‘tiboran esa Innovatsion va ijtimoiy iqtisodiyot universitetining “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida lavozimida faoliyat yuritmoqda.



Hozirda Q.B.Qodirov 100 dan ortiq ilmiy ishlarning muallifidir. Ilmiy faoliyati natijalari monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar ko‘rinishida, shuningdek, respublika va xalqaro ilmiy jurnallar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda yoritilgan.



QORABOYEV IKROMJON TO‘RAYEVICH
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Professor Qoraboyev Ikromjon To‘rayevich 1973-yilning 8-avgust sanasida Toshkent viloyatining Qibray tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. 1980-yildan 1990-yilgacha Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 17-o‘rta maktabda tahsil olgan. Birinchi ustози otasi Qoraboyev To‘ra bo‘lib, o‘rta maktabda tahsil olish davrimda dehqonchilik ilmiga bo‘lgan muhabbatini oshirib borganlar.



O‘rta maktabni bitirganidan so‘ng, 1990-yilda sobiq O‘zbekiston Paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutini “Tuproqqa ishlov berish va jadallashtirilgan texnologiyalar” bo‘limiga laborant lavozimiga ishga kirgan. Laborant lavozimida ishlab yurgan chog‘ida 1993-yilda Toshkent Davlat Agrar

Universitetining “Agrokimyo va tuproqshunoslik” fakultetiga o‘qishga kirib, 1998-yilda muvaffaqiyatli tamomlagan.

Qoraboyev Ikromjon To‘rayevich 1997-2014 yillarda O‘zbekiston paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tuproqqa ishlov berish bo‘limi katta ilmiy xodimi, 2014-2016 yillarda Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti “Ishlab chiqarish” bo‘lim boshlig‘i, 2017-2023 yillarda shu institutining “Tuproqqa ishlov bering va uning texnologiyasini takomillashtirish” laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, yetakchi ilmiy xodimi lavozimlarida ishlagan.

Qoraboyev Ikromjon To‘rayevich Ilmiy faoliyatini 1998-yilda ustози professor F.M.Xasanova boshchiligida Toshkent viloyatining tipik bo‘z tuproqlar sharoitida “Tuproq unumdorligi, asosiy va takroriy ekinlar hosildorligini oshirishda resurstejamkor agrotexnologiyalarni ishlab chiqish” bo‘yicha ilmiy ishlar olib borib, 2017-yilda qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, 2021 yilda qishloq xo‘jaligi fanlari (DSc) doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya

qilib, 2023 yilda 06.01.01 – “Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik” ixtisosligi bo'yicha professorlik unvonini olgan.



Professor I.T. Qoraboyevning ilmiy izlanishlari asosiy hamda takroriy ekinlarni parvarishlashda ekish oldidan tuproqqa ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish, o'simlik qoldiqlaridan samarali foydalanish orqali tuproq unumdorligini saqlash hamda ekinlardan mo'l hosil yetishtirishda manba tejoychi agrotexnologiyasini ilmiy asoslash bo'yicha izlanishlarni o'z ichiga oladi.

Ilmiy izlanishlarida g'oz, kuzgi bug'doy hamda takroriy ekin sifatida soya, mosh, makkajo'xori ekinlarini parvarishlashda yerga ishlov berishning resurstejamkor agrotexnologiya elementlari takomillashtirilib, o'simlik qoldiqlaridan oqilona foydalanishda tuproq unumdorligidagi afzalliklari aniqlangan.

Yerga ishlov berishni yil oralatib haydov o'tkazish texnologiyasini qo'llash orqali ekinlarni parvarishlash uchun traktor bilan ishlov berishni 3-4 martagacha kamaytirib, tuproqning strukturasi, zichlanishini kamayishiga, suv-fizik xossalari hamda agrokimyoviy xususiyatlariga, o'simlik qoldiqlarini qoldirib, yil oralatib haydov o'tkazish texnologiyasini qo'llab parvarishlangan g'oz, kuzgi bug'doy, takroriy ekinlarning unib chiqishi, o'sish, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri tatbiq etilgan.

Professor I.T. Qoraboyev ish davri jarayonida Respublikaning paxtachilik va g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari rahbarlariga hamda paxtachilik-to'qimachilik

klasterlarining mas'ul xodimlariga g'oz va g'alladan yuqori hosil olish bo'yicha olib boriladigan resurstejamkor agrotadbirlar majmuasi qo'llash bo'yicha seminar-treninglar tashkil etib, o'zining bor bilimlarini sarflab ilmiy-amaliy yordam berib kelmoqda.

Ikromjon To'rayevich Qoraboyev tomonidan so'nggi o'n yilda 4 ta davlat granti asosidagi ilmiy loyihalarda ilmiy izlanishlar olib borgan. O'zining qishloq xo'jaligi fani borasida o'tkazilgan ko'p yillik tadqiqotlari natijalari asosida 150 dan ortiq ilmiy ishi chop etilgan. Jumladan, 80 ta ilmiy maqola jurnallarda, shundan 20 tasi nufuzli xorijiy (AQSh, Hindiston, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston) jurnallarda, 4 ta monografiya, 20 dan ortiq tavsiyanomalar hamda oliy ta'lim tizimida bakalavr hamda magistratura talabalari uchun 1 ta darslik va o'quv qo'llanmalar nashr etilgan.



Shu bilan birga ko'plab xorijiy va mahalliy jurnallarda sohaga oid ilmiy maqolalarni e'lon qilish bilan birga “Paxtachilik va donchilik”, “O'zbekiston agrar fan xabarnomasi” hamda “Xorazm ma'mun akademiyasi xabarnomasi” jurnallari tahririyati a'zosi sifatida ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Professor I.T. Qoraboyev uzluksiz ravishda amaliy hamda innovatsion loyihalarda hamijrochisi sifatida ishlab kelmoqda. 2006-yildan A-8-021 “G'oz va izdosh ekinlarni yetishtirishda minimallashtirilgan ishlov berib tuproqni muhofaza qiluvchi texnologiya va texnik vositalarni qo'llashni ishlab chiqish” (2006-2008 yy.), KXA-8-024 “G'oz majmuidagi ekinlarni parvarishlashda tuproqqa

minimal ishlov beruvchi resurstejamkor texnologiyalarni va texnik vositalarni takomillashtirilgan ishlanmalarini ishlab chiqish” (2009-2011 yy.), CRDF №UZB2-31032-TA-10 “Almashlab ekish tizimida parvarishlangan ekinlarning hosildorligiga hamda namlikni bug‘lanishi va suv iste‘moliga asosiy va tuproqni muhofaza qiluvchi ishlov berish texnologiyalarni ta’siri (2009-2012 yy.), KXA-7-011 “G‘o‘za-g‘alla majmuidagi ekinlarni parvarishlashda tezpishar va yuqori hosil olishni ta’minlaydigan, resurstejamkor tuproqqa differensial ishlov berish tizimini ishlab chiqish” (2012-2014 yy.), QXA 7-040-2015 “Respublikaning turli sharoitlarida tuproqqa minimal ishlov berish texnologiyasining g‘o‘za va bug‘doy hosildorligiga ta’sirini o‘rganish” (2015-2017 yy.), MV-QX-A-QX -2018-192 “Yangi yuqori unumli kombinatsion texnikalar yordamida yerga ishlov berishning tuproq zichlanishiga ta’siri va g‘o‘za, kuzgi bug‘doy, takroriy ekinlarning hosildorligini oshirish usullarini ishlab chiqish” (2018-2020 yy.), IL442105895 “Qishloq xo‘jaligi ekinlari orasida uchraydigan begona o‘tlarga qarshi kurashishning samarali yangi agrotexnologiyasini ishlab chiqish” (2021-2023 yy), AL 442105717 “Texnik ekinlarni parvarishlashda Mini-till ishlov berish va No-till usulida ekish va axborot texnologiyasini ishlab chiqish” (2022-2024 yy), ALM-202202129 “Toshkent viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlari maydonlarida g‘o‘zadan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirishning yangi agrotexnologiyasini yaratish” (2022-2023 yy) amaliy hamda innovatsion loyihalar ijrochisi sifatida faoliyat olib borgan.

Shuningdek professor I.T.Qoraboyev Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSs.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli, Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSs.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashlar a‘zosi hamda

Innovatsion rivojlanish vazirligining 2023-yil 9-oktyabrdagi 450-son buyrug‘iga asosan “Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari bo‘yicha”, Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 9-fevraldagi 39-sonli buyrug‘iga asosan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar markazining ilmiy-texnik kengashlari a‘zosi sifatida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Professor I.T.Qoraboyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son qaroriga asosan Prezident huzuridagi Paxtachilik kengashining Andijon viloyatining Ulug‘nor tumanidagi ishchi guruh a‘zosi sifatida g‘o‘zani innovatsion texnologiyalar asosida parvarishlash bo‘yicha ilmiy amaliy yordamlar ko‘rsatib kelmoqda.

Professor I.T.Qoraboyev respublikamiz agrar sohasida ayniqsa paxtachiligidagi ilmiy-amaliy ishlari va yosh kadrlarni tayyorlashdagi samarali mehnatlari uchun Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Faxriy Yorliqlari hamda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishda keng miqyosda joriy etishdagi ishtiroklari uchun Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 1-dekabrda 312-sonli buyrug‘iga asosan “Qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Oilali, 3 nafar farzandning otasi. Hozirgi kunda, professor I.T.Qoraboyev Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi Texnik ekinlar va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish bo‘lim boshlig‘i lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kungacha I.T.Qoraboyev rahbarligida 1 ta fan doktori (DSc) hamda 2 ta qishloq xo‘jaligi bo‘yicha falsafa (PhD) doktorlik dissertatsiyalarini shogirdlari muvaffaqiyatli himoya qilishgan. Hozirda uning rahbarligida 3 nafar tayanch doktorant (PhD), 1 nafar doktorant (DSc), 2 nafar mustaqil izlanuvchilar dissertatsiya tadqiqotlari bo‘yicha izlanishlar olib borishmoqda.



QOSIMOV ABDUG'AFUR ABDUKARIMOVICH

Filologiya fanlari doktori, professor

Abdug'afur Qosimov adabiyotlarni qiyosiy o'rganishga, shuningdek, milliy ma'naviy merosimizni targ'ib qilishga munosib hissasini qo'shib kelayotgan adabiyotshunos olim, Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.



A.Qosimov 1967-yil 16-dekabrda Farg'ona viloyati Oxunboboyev (hozirgi Yozyovon) tumanida tug'ilgan. 1986-yilda Andijon pedagogika bilim yurtini, 1992-yilda Moskva davlat pedagogika universitetini tamomlagan. Umumiy mehnat staji – 38 yil. 1995-yildan buyon Farg'ona davlat

universitetida o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi (1995–2001), aspirantura va ilmiy bo'lim boshlig'i (2001–2002), o'zbek tilshunosligi kafedrasida doktoranti (2002–2005), Filologiya fakultetining o'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari (2005–2007), Filologiya fakulteti dekani (2007–2010), ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor (2010–2015), adabiyotshunoslik kafedrasida professori (2015–2017), Chet tillari fakulteti dekani (2017–2021) lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 2021-yildan adabiyotshunoslik kafedrasida professori.

A.Qosimov 1999-yilda “Adabiyotda bolalik ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida (A.de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” va Ch.Aytmatovning “Oq kema” asarlari misolida)” mavzusida nomzodlik, 2007-yilda “Tipologik o'xshashliklar va o'zaro ta'sirning nazariy muammolari (A.de Sent-Ekzyuperi va A.Kamyu ijodi misolida)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya

qildi. 2020-yilda professor ilmiy unvonini olgan.

2006-2009-yillarda davlat ilmiy – texnika dasturlari doirasidagi "Ijtimoiy fikrning shakllanishida badiiy nasrning o'rnini va roli" mavzusidagi loyihaga rahbarlik qilgan.

Iste'dodli olim 30 yillik ilmiy faoliyati davomida filologiyaning qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiyot nazariyasi kabi sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ayniqsa, jahon adabiyotining yetuk vakillari Antuan de Sent-Ekzyuperi, Alber Kamyu, Chingiz Aytmatov ijodi yuzasidan olib borgan tadqiqotlari O'zbekistonda chet el adabiyotining o'rganilishi bo'yicha muhim ilmiy ahamiyatga ega. Olim 100 dan ortiq ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta monografiya muallifi. Olimning 20 ga yaqin ilmiy maqolalari nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan.



A.Qosimov respublikamiz ilm-fanini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan harakatlarda faol ishtirok etib, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, yosh olimlarni yetishtirishda munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xususan, olim 2008–2012-yillarda O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengash a'zosi, 2011–2012-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti qoshidagi Birlashgan ixtisoslashgan kengash raisi o'rinbosari, 2013–2016-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi ixtisoslashgan kengash a'zosi. 2017–2024-yillar davomida Farg'ona davlat universiteti

huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Fil.05.02 raqamli kengashda rais, rais o'rinbosari, seminar raisi sifatida faoliyat olib borgan.

A.Qosimovning ilmiy rahbarligida shu kungacha 1 ta filologiya fanlari doktori (DSc), 6 ta filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyalar muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Shogirdlaridan R.Umrzoqov (2009), Q.Qaxxarov (2011), G.Ergasheva (2013) A.Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi bo'lgan. Olim "FDU ilmiy xabarlar", "Filologik tadqiqotlar", "QDPI ilmiy xabarlar" va "Komparativistika" ilmiy jurnallarida tahrir hay'ati a'zosi sifatida faoliyat olib bormoqda.

A.Qosimov o'quv-uslubiy sohada ham samarali faoliyat olib bormoqda. Jumladan, jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik fanlari bo'yicha 1 ta darslik ("Jahon adabiyoti". – Farg'ona, 2023), 3 ta o'quv qo'llanma ("XX asr chet el adabiyoti". – Farg'ona, 2003; "Jahon adabiyoti". – Toshkent, 2017; "Qiyosiy adabiyotshunoslik". – Toshkent, 2019;), 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanma ("Antuan de Sent-Ekzyuperi ijodi bo'yicha amaliy mashg'ulotlar". – Farg'ona, 2008; "XX asr G'arb adabiyotidan amaliy mashg'ulotlar". – Toshkent, 2011; "Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha". – Farg'ona, 2016) chop ettirgan. Mazkur ishlar filologiya ixtisosligidagi talabalar, magistrantlar, erkin tadqiqotchilarning nazariy bilimlarini oshirishga ko'maklashmoqda.

A.Qosimov Farg'ona viloyati aholisi, ayniqsa yoshlar orasida "Til – millat ruhi", "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga e'tibor" mavzularida davra suhbatlarining faol tashkilotchilaridan hisoblanadi. Kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan "O'quv yilida o'n kitob" loyihasi muallifi. Mazkur loyiha bo'yicha 2013–2017-yillarda Farg'ona davlat universitetining akademik guruhlarida 800 dan ortiq "mutolaa" soatlari tashkil etilgan.



RAHMONOV BAHODIR SOBIROVICH

Texnika fanlari doktori, professor

Rahmonov Bahodir Sobirovich (1958. 13.06. Xorazm viloyati, Hazorasp tuman) mexanika sohasidagi olim, Urganch Davlat universiteti professori, texnika fanlari doktori.



1980yilda Toshkent Politehnika institutining “Fuqaro va sanoat qurilishi” fakultetini imtiyozli tugatgan, O‘zbekiston FA M.T.O‘rozboyev nomli mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutda injener(1980-1983), aspirant(1984-1987), kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim (1984-1991). 1991-1995yillarda Urganch davlat universiteti Hisoblash markazi injeneri, “Matematika va mexanika” kafedrasida dotsenti lavozimlarida, 1995-1999yillar VM huzuridagi Davlat Test markazining Xorazm viloyati bo‘yicha vakili, Xorazm viloyati xokimi kotibiyat mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. 1999-2007yillarda “Qurilish va arxitektura” kafedrasida mudiri, 2008-2013 yillarda shu

kafedra dotsenti, 2013-2019 yillarda shu kafedra mudiri lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2019 yildan boshlab “Qurilish” kafedrasida professori lavozimida faoliyat olib bormoqda. U 1990-yilda texnika fanlari nomzodi, 2022-yilda texnika fanlari doktori ilmiy darajalarini oldi.



U akademik M.T. O‘rozboyev asos solgan bino va inshootlar seysmik mustahkamligi ilmiy yo‘nalishiga munosib hissa qo‘shdi. U akademik Yo.N.Muborakov rahbarligida yupqa devorli qobiqsimon fazoviy konstruksiyali yer osti inshootlarining seysmik-zo‘riqqan holatini yer osti seysmik-portlash to‘lqinlari yordamida asl naturaviy dala sharoitida tajribaviy tadqiq qilish borasida

Respublikamizda birinchilardan bo'lib, ilmiy izlanishlar olib bordi.

Yupqa devorli qobiqsimon fazoviy konstruksiyali yer osti inshootlarining seysmik-zo'riqqan holatini yer osti seysmik-portlash to'liqlari seysmik ta'siridan foydalangan holda o'rganish, grunt muhiti bilan o'zaro ta'sirda bo'lgan yupqa devorli qobiqsimon fazoviy konstruksiyali yer osti inshootlarining seysmik-portlash to'liqlari ta'siridan vujudga keladigan holatini to'liqlar energiyasi orqali baholash g'oyasini ilgari surgan.



Ustozi vafotidan keyin u Sag'diyev H.Q ilmiy maslahati hamda prof. Safarov I.I. rahbarligida ilmiy izlanishlarini davom ettirib, ilmiy nuqtayi nazardan aytarli bo'lgan quyidagi natijalarni olishga erishdi: yer osti yupqa devorli silindrik inshootlarning seysmik-zo'riqqanlik holati portlashlarning seysmik ta'siri yordamida inshoot fazoviy ish sharoitini hisobga olgan holda asl naturaviy eksperimental tadqiq qilish metodikasini ishlab chiqildi va bir necha tajribalarni amalga oshirishda aprobatsiyadan o'tkazildi; gruntning, unda seysmik-portlash to'liqlari tarqalgandagi tebranma harakati kinematik va dinamik parametrlarni aniqlash uchun empirik formulalar taklif qilindi; ilk bora, asl tabiiy dala sharoitida ochiq va yopiq profilli yer osti silindrik inshootlarining seysmik-zo'riqqanlik holati yer osti portlashlari seysmik ta'siri yordamida tajribaviy tadqiq etildi, ularning grunt bilan o'zaro ta'siri tahlil qilindi va "grunt-inshoot" dinamik tizimi holatini belgilovchi dinamik parametrlar aniqlandi. Ularning

tebranma harakat parametrlarini aniqlash uchun empirik formulalar ishlab chiqilgan; seysmik-portlash to'liqlari ta'siridan yer osti silindrik inshootlarining atrof-muhit grundi bilan bo'ladigan o'zaro ta'sir jarayoni energetik nuqtayi nazaridan aniqlandi, o'zaro ta'sir parametr (koeffitsiyent)lari ilk bora ikki usulda: muvozanat tenglamalari (Dalamber prinsipi) va energiya saqlanish qonuni asosida aniqlandi. Ularning muhit tebranma harakati dinamik parametrlari bilan bog'liqligi formulasi ishlab chiqilgan; seysmik-portlash to'liqlarining grunda tarqalishidan muhitda vujudga kelgan seysmik maydonda joylashgan ochiq va yopiq profilli silindrik inshootlarga maydon energetik zo'riqqanligining ta'sirini belgilovchi "reduksiyalanish" koeffitsiyenti hamda inshoot tebranma harakat dinamik parametrlari ilk bora naturaviy sharoitda aniqlandi va tahlil qilindi, hamda empirik formulalar taklif etildi; silindrik shakldagi yupqa devorli yer osti inshootlar (AES, GES va tunnel elementlari) seysmik portlash to'liqlari ta'siridagi turg'unligini ta'minlovchi asosiy parametrlar aniqlandi; murakkab relefli va bino yoki inshoot asosi bortlardan iborat xududlarda sanoat portlatishlari amalga oshirilganda seysmik ta'sir intensivligini baholash, muhit tebranma harakat kinematik parametrlarini aniqlash va binolarga bo'ladigan seysmik ta'sirni prognoz qilish uslubiyati ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi;



B.S.Rahmonovning ilmiy ishlari natijalari O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining tizimiga kiruvchi korxonalarida, jumladan Qorakalpog'iston Respublikasi Qoratov "Djamansay-2" va Jumurtov "Keklik-tov" tosh

karerlarida olib borilgan yer osti sanoat portlatishlarini seysmik xavfsiz amalga oshirishda; Qo'ytosh volfram yer osti shaxtalarida yer osti konstruksiyalarini hisoblash va loyihalashda, harbiy ahamiyatga ega bo'lgan maxsus inshootlar va boshqa ko'pgina obyektlarni loyihalashda, qurilishida va mustahkamligini ta'minlashda tavsiyanoma, qo'llanma va tajribaviy natijalar sifatida keng miqyosda tatbiq qilingan.



B.S.Rahmonovning ilmiy ishlari 280dan ortiq ilmiy maqola, 2 ta monografiya, 5ta o'quv qo'llanma, 10dan ortiq uslubiy qo'llanma hamda matbuotda chop etilmagan 15 tomlik yopiq ilmiy hisobotlarda mujassamlashgan. Bulardan tashqari Respublika miqyosidagi (Toshkent, Samarqand, Nukus, Farg'ona, Qarshi, Navoiy) Ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarida o'z ilmiy tadqiqot ishlari natijalari bilan qatnashib kelmoqda.

U Germaniya, Slaveniye, Italiya, Shvetsiya, Rossiya, Mongoliya kabi ko'pgina davlatlarda ilmiy safarda bo'lib, O'zbekiston ilmini dunyo miqyosidagi xalqaro ilmiy anjuman va boshqa tadbirlarda ko'pchilikka tanitdi.

B.S.Rahmonov quyidagi nufuzli xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy tadbirlar qatnashchisi hamda shogirdlari bilan birgalikda quyidagi ilmiy yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda:

-Sobiq Ittifoq miqyosidagi Dastur doirasida yer osti portlashlarining seysmik ta'sirini asl naturaviy sharoitda o'rganish borasida olib borilgan dala ekspeditsiyalari qatnashchisi (1983,1984,1988,1990yy.);

-yirik masshtabli sekinlashtirilgan portlashlar (2070T.)seysmik ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan xalqaro ekspeditsiya qatnashchisi(1990y. Qirg'iziston, Uch-terak);

-O'zbekiston FA mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti olimlari bilan hamkorlikda Jumurtov va Qorotov tosh karerlaridagi sanoat portlashlarining seysmik ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan dala ekspeditsiyasi tashkilotchisi(1996);



-“Xiva «Ichon-qal'a» zapovednigi tizimidagi me'moriy obidalar texnik xolatini o'rganish, ular qurilishida qo'llanilgan antiseysmik tadbirlar” mavzusidagi tadqiqotlar(AQSH Koliforniya Berkliy universiteti olimlari bilan hamkorlikda);

-Xiva me'moriy obidalar konstruktiv tizimi holatini lazer skanerlash yordamida o'rganish (AQSH Koliforniya Berkliy universiteti olimlari bilan hamkorlikda);

-sanoat yer osti portlashlari seysmik ta'sirini baholash;

-yer osti qobiqsimon inshootlarida seysmik-portlash to'lqinlari ta'siridan vujudga keladigan zo'riqish-deformatsiyalanish holatini asl naturaviy o'rganish.

Universitetda ilmiy va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida uning tashabbusi bilan AQSH(Kaliforniya Berkliy universiteti), Germaniya(Berlin texnika universitet), Rossiya(Moskva, Qurilish fizikasi instituti, Mordova davlat universiteti, Astraxan davlat arxitektura-qurilish universiteti, Kazan davlat arxitektura-qurilish universiteti) kabi nufuzli ilmiy pedagogik markazlar bilan

xalqaro hamkorlik o‘rnatilgan hamda dunyo fani darajasidagi ilmiy yutuqlarga erishayotgan faol va tajribali olimlardan biri hisoblanadi.



B.S.Rahmonovning 4 nafar talabasi Respublika olimpiadasida ikkinchi (2nafar) va uchinchi (2 nafar) sovrindori, 2 nafar talabasi Respublika Davlat stipendiyasi sovrindorlari bo‘lishgan.

Bulardan tashqari B.S.Rahmonov bir necha xorijiy va Respublika (4ta)miqyosidagi ilmiy dastur va Loyiha(Grant)larida faol qatnashib kelmoqda, jumladan:

- 574049-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-JP GREB: Yuqori texnologiyali uy-joy va jamoat qurilishi sohasida o‘quv dasturini modernizatsiya qilish. Ekologik sof qurilish (2017-2019. 998000 yevro).

- Markaziy Osiyo shaharlarida barqaror (harakat) trafikni o‘rganish. («Sustainable Mobility Research in Asia (SUMRICA)(2018-2022.411000 yevro).

- Markaziy Osiyo universitetlari bilan hamkorlik dastur: UniCEN (Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashlari, AQSH) (2020-2022. 29000 dollar)

- Integratsiyalashgan transport tizimlari (Aqlli shahar tamoyillaridan biri sifatida) RISMUZ (Research on Integrated Sustainable Mobility in Uzbekistan). (2023yildan, 70000 yevro)

Ushbu xorijiy Grant va ilmiy dasturlar doirasida qator xorijiy davlatlar nufuzli ilmiy

markazlarida, jumladan Berlin Texnika universiteti (Germaniya), Moskva davlat qurilish universiteti, Kazan davlat arxitektura-qurilish universiteti (Rossiya), Shvetsiya qirolligi texnologik instituti (Shvetsiya), Mongoliya davlat fan va texnologiyalar universiteti (Mongoliya), Lakuilla universiteti (Italiya), Lyublyana universitet (Slaveniya)larida bo‘lib, anjuman va seminar-treninglarda ma’ruzalar bilan faol qatnashdi.



B.S.Rahmonov O‘zbekiston ilmini tashkil qilishda va rivojlantirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ko‘p yillar deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi va nazariy mexanika bo‘yicha PhD doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilish maxsus kengash a‘zosi, Astraxan davlat arxitektura-qurilish universiteti “Prikaspiy muxandis-qurilish xabarlarini” (Injenerno-stroitelniy vestnik Prikaspiya) ilmiy-texnik jurnali redkollegiya a‘zosi sifatida ilmiy – tashkiliy ishlarni bajarishda samarali mehnat qilib kelmoqda.

Universitet va boshqa jamoat tashkilotlardagi faoliyati, jamoatdagi mehnatlari uchun bir necha bor oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri, shahar, tuman hokimiyati, Respublika yoshlar ittifoqi tomonidan Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan, universitet Ilmiy kengashi tomonidan unga “Universitet faxriy professori” unvoniga loyiq topilgan.



RAJABOV DILSHOD ZARIPOVICH
Filologiya fanlari doktori, professor

1972 yilda Buxoro viloyati Shofirkon tumani Denav mahalla fuqarolar yig‘iniga qarashli Nekishi qishlog‘ida ziyoli oilada tug‘ilgan. 1979-1989 yillarda Shofirkon tumanidagi Alisher Navoiy nomli 4-o‘rta maktabda o‘qigan. 1989-1994 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti Filologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan bitirgan. D.Rajabov 1995-1998-yillarda Buxoro davlat universiteti XX asr o‘zbek adabiyoti va folklorshunoslik kafedrasida huzuridagi aspiranturada o‘qish barobarida “Hozirgi adabiy jarayon”, “Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti” fanlari bo‘yicha dastlabki ma‘ruzalarini o‘qishga kirishdi.



Shundan buyon uning faoliyati Buxoro davlat universiteti bilan chambarchas bog‘liq. U 1999 yilda “Badiiy obraz va ritmning o‘zaro munosabati (70-80-yillar o‘zbek she‘riyati misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 2019 yilda «O‘zbek xalq she‘ri tuzilishi: kompozitsiya va obrazlilik» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Ixtisoslashgan kengashi yig‘ilishida muvaffaqiyatli himoya qildi.



D.Rajabov taniqli adabiyotshunos va folklorshunos olim, oliy ta‘lim sohasida ko‘p

yillik tajribaga ega fidoyi ustozlardan biri sifatida mamlakatimizda ilm-ma’rifatni rivojlantirishga, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, ma’naviy-madaniy saviyasini oshirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. U hayotini o‘zbek folklorini to‘plash, nashr qilish, ilmiy o‘rganish, yoshlarga o‘rgatish, jahon miqosida keng targ‘ib qilishga bag‘ishlab, o‘zbek folklori, xalq qo‘shiqchiligi nazariyasi, o‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari, qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik metodologiyasi sohalari bo‘yicha chuqur fundamental tadqiqotlar yaratishga erishdi. Bugungi kunda tadqiqotlarining xalqaro miqosdagi iqtiboslik darajasi 72, h-indeksi 5, i-10 -indeksi 5 ko‘rsatkichiga ega.



D.Rajabov vatanparvar va fidoyi ustoz murabbiy sifatida o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini zamon ruhi bilan uyg‘un bog‘lagan holda talaba va magistr larga saboq berish barobarida iqtidorli yoshlarni ilmga yo‘naltirib, hozirgacha filologiya fanining dolzarb ilmiy muammolari tadqiqi bo‘yicha bir qator shogirdlar tayyorlab yetishtiryapti. Olim yaratgan ilmiy maktab yildan-yilga kengayib bormoqda.

D.Rajabov Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash a‘zosi va seminar raisi. O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi 10.00.08 – Folklorshunoslik

ixtisosliklari yuzasidan filologiya fanlari doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini berish bo‘yicha DSc.30.08.2018.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengash seminar a‘zosi, Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning a‘zosi. .



Olim 2019 yildan buyon Ilmiy kengashlarda dissertatsiyalarga rasmiy opponentlik qilib keladi. 2019-2024 yillarda 7 nafar shogirdi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini himoya qildi.10 dan ortiq dissertantlarning ishlari-ga rasmiy opponentlik qildi.



Ilmiy qiziqishlari serqirra olimning oliy ta’lim tizimida yuksak iste’dodi, kasbiy mahorati, jonkuyarligi, izlanuvchanligi, mehnatsevarligi, tashabbuskorligi bilan salmoqli natijalarga erishib kelmoqda. Buni uning yangi avlod adabiyotlarini yaratish orqali ta’lim sifatini oshirish yo‘lida hozirgacha 5 monografiyasi “Badiiy obraz va ritm”(2002) “DLTda qofiya masalasi” (2007), “Qaynoq qum kengliklarida” (2012) “Xalq qo‘shiqlari

notaga tushganda” (2019), “O‘zbek xalq qo‘shiqlari tuzilishi: kompozitsiya va obrazlilik” (2019), Shuningdek, “O‘zbek musiqa folklori” darsligi “Modernizm adabiyoti” (2007), “Adabiyotshunoslik nazariyasi” (hammuliflikda, 2022) o‘quv qo‘llanmalari, “Buxor elda gul sayli” (2010), “Devonu lug‘otit turk she‘rlar” (2010) to‘plamlarining to‘plovchi -tadqiqotchi mualliflaridan biri, 200dan ortiq ilmiy maqola va tezislari (shundan: 21 tasi xalqaro impakt faktorli, 4 tasi Scopus bazasidagi jurnallarda) e‘lon qilingan bo‘lib, soha mutaxassislari uchun muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Olim respublika folklorshunoslari tomonidan tayyorlanayotgan yuz jildlik “O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari” bo‘yicha fundamental tadqiqotlar majmuining mualliflari qatorida e‘tirof etilgan.



D.Rajabov talabalarga “Adabiyot nazariyasi”, “O‘zbek folklori” kurslari bo‘yicha ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni sifatli, qiziqarli, mazmunli, eng muhimi, istiqloq mafkurasi ruhida olib boradi. Ta‘limda reyting tizimi va yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish hamda uni takomillashtirishda fidoyilik ko‘rsatmoqda. U yetuk mutaxassis va yaxshi pedagog sifatida talabalar hamda o‘qituvchilar orasida alohida hurmatga ega. D.Z.Rajabov 2009 yil dotsent, 2022 yil professor ilmiy unvonlariga sazovor bo‘lgan. 2015 yilda Xalqaro Antik dunyo

akademiyasining doktori, 2015 yilda Xalqaro Turon fanlar akademiyasining faxriy a‘zosi.

D.Z.Rajabov xalqaro “Tatarika” jurnali va O‘zbekiston respublikasi OAKSi tomonidan e‘tirof etilgan “Ta‘lim innovatsion tadqiqotlar” (2021), “Ilm–fan va texnologiyalar”(2022),” BuxPXI ilmiy axborotnomasi” (2023) ilmiy jurnallarining tahririyat a‘zosi a‘zosi .

Iqtidorli olim xalq an‘analari bo‘yicha tez-tez televideniye va matbuotda chiqishlar, davlat tashkilotlaridagi ma‘rifiy o‘qishlarda ma‘ruzalar qilib turadi. U xalqaro TOP-1000 da 372-o‘rinda qayd etilgan Qozon federal universitetida stajirovka o‘tagan. 2021-2023 yillarda QFUda tashkil etilgan XALQARO LINGVISTIK SAMMITning spikerlaridan biri sifatida mamlakatimizdan nomidan samarali ishtirok etib kelayotir. Turkiya, Rossiya, Qozog‘iston, Hindiston, Ozarbayjonda tashkil etilgan nufuzli xalqaro anjumanlarda o‘zbek tili, adabiyotshunosligi hamda folklorshunosligining ilmiy-nazariy masalalariga doir maqola va ma‘ruzalari bilan onlayn/ oflayn tartibda ishtirok etayotir. 2024 yilning may oyida QFU tilshunos, olimlari bilan hamkorlikda “Tatarcha-Inglizcha-Ruscha-O‘zbekcha so‘zlashgich” nashr etildi. Bevosita D.Z.Rajabov tashabbusi o‘zbek tilining xalqaro miqyosida nufuzini yanada oshirish borasida mazkur universitetda “O‘zbek tili markazi” faoliyat boshladi.

O‘tkan yillar mobaynida o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari (1999-2002, 2015-2019), Ma‘naviy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari (2007-2011), Magistratura bo‘lim boshlig‘i (2011-2014), filologiya fakulteti dekani (2019-2023) , 2023 yil may oyidan boshlab,”O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika” kafedrasining mudiri lavozimlari samarali faoliyat yuritmoqda. Buxoro viloyat hokimining Faxriy yorlig‘i (2016), O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining Faxriy yorlig‘lari bilan taqdirlangan.



RASULOVA XURSHIDAXON ABDUBORIYEVNA
Tibbiyot fanlari doktori, professor

X.A. Rasulova 1980 yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan, 2005 yilda Ikkinchi Toshkent davlat tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan bitirgan, 2008 yilda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Asab kasalliklari” kafedrasida magistraturani, 2011 yilda aspiranturani tamomlagan. 2013-2023 yillarda Toshkent pediatriya tibbiyot institutida Ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (ilmiy laboratoriya) mudiri, grant loyihalari rahbari, katta va yetakchi ilmiy xodimi,



Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrasida assistenti va mustaqil izlanuvchisi, Ichki kasalliklar, nefrologiya va

gemodializ kafedrasida dotsenti lavozimlarida ishlab kelgan. 2023 yildan buyon Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari hamda Tibbiy psixologiya, nevrologiya va psixiatriya kafedrasida professor lavozimlarida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.



U 2010 yilda “Клинико-биохимические особенности острых ишемических инсультов в зависимости от их патогенетической гетерогенности” mavzusida nomzodlik (PhD) dissertatsiyasini 14.00.13 – “Asab kasalliklari” ixtisosligi bo‘yicha, 2018 yilda “Ангио-церебральная дисфункция при ишемическом инсульте: прогнозирование, диагностика,

лечение” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasini 14.00.13 – “Nevrologiya” va 14.00.05 – “Ichki kasalliklar” ixtisosliklari bo'yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan. 2020 yilda dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan. O'zining ilmiy yangiligi va natijadorligi yuzasidan PhD va DSc dissertatsiya ishlari uchun davlat va xalqaro grant (Vengriya va Germaniya tomonidan) olishga muvaffaq bo'lgan.



U O'zbekistonda insult, epilepsiya, neyrokimyo, neyroteksiya maktablarining asoschilaridan biri hamda neyronefrologiya asoschisi (tibbiyotda birinchi marta angionevrologiya va nefrologiya sohasida yurak qon tomir – bosh miya – buyraklar munosabatlarini (ангио–церебро–ренал континуум ва дисфункция)ni klinik, eksperimental, immunobiokimyoviy, morfologik tadqiqotlar asosida kitoblarida yoritib bergan. Ilmiy loyihalar koordinatori, Ilmiy-texnik kengash ilmiy kotibi, 13 tadan ortiq davlat ilmiy loyihalar ishtirokchisi, ulardan 2 ta davlat amaliy loyihalar rahbari bo'lgan.



Bir necha bor respublika va xalqaro mukofotlar bilan taqdirlangan. Ulardan, O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasining yosh olimlarni qo'llab-

quvvatlash fondi medali va premiyasi laureati, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, O'zRFA o'simliklar moddalari kimyosi institutining, O'zbekiston nevrologlar assotsiatsiyasining mukofotlari, Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutidagi yosh olimlar ixtirolari tanlovi g'olibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi “Yangi intellekt-2014” eng yaxshi intellektual mulk obyekti tanlovining “Eng yaxshi ixtiro” nominatsiyasi g'olibi bo'lgan. 2018 yilda insult registrini yaratish bo'yicha O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan “1-Respublika ixtirochi ayollarning eng yaxshi innovatsion loyihasi” tanlovida “Shifokor ayolning eng yaxshi innovatsion loyihasi” va Koreya ixtirochi ayollar uyushmasining «Women Inventors – 2019» xalqaro ko'rgazmasida eng yaxshi ishlanmasi nominatsiyasida g'olib bo'lgan.



«InnoWomenWeek» haftaligida «MedicalWomenUz» forumida bir necha bor ishtirok etgan. Xorijiy grantlardan, Yevropa nevrologlar jamiyati federatsiyasi (EFNS), Yevropa nevrologlar akademiyasi (EAN), Xalqaro epilepsiyaga qarshi ligasi (ILAE), Amerika-Avstriya fondi (AAF/OMI), Germaniyaning Piter va Judit Volf jamg'armasi, Yevropa insultga qarshi tashkilotining (ESO) stipendiyalari va grantlari sovrindori bo'lgan.

2009 yildan boshlab hozirgi vaqtgacha O'zbekiston nevrologlar assotsiatsiyasi, Yevropa nevrologlar akademiyasi (EAN) a'zosi (treasurer), xalqaro epilepsiyaga qarshi ligasi (ILAE) O'zbekistondagi bo'linmasining bosh kotibi (Secretary General), 2010 yildan boshlab Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi maslahatchisi, 2011-2012 yillar davomida



“Nevrologiya” ilmiy-amaliy jurnalining mas’ul kotibi, “Patologiya” jurnalining ingliz tili matnlari muharriri bo‘lgan. 2011 yildan boshlab hozirgi vaqtgacha xalqaro jurnal “European medical, health and pharmaceutical journal” (Praga, Chexiya) jurnalining tahririyat xay’ati a’zosi, 2011-2019 yillarda “Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi” tahririyatining ingliz tili muharriri, 2019 yildan beri “Vestnik RAMN” xalqaro jurnali taqrizchisi bo‘lgan. 2017 yildan beri BMT bilan birlashgan hayot xavfsizligi va ekologiya xalqaro fanlar akademiyasining (IAELPS) muxbir-a’zosi hamda Yevropa insultga qarshi kurashish tashkilotining (ESO), Parkinson kasalligi va boshqa motor buzilishlar tashkiloti (MDS) a’zosi. 2022 yildan – Yevrosiyo terapevtlar assotsiatsiyasi ekspertlari kengashi, Bosh og‘riqlari bo‘yicha xalqaro jamoasi (IHS) a’zosi. 2020-2021 yillarda O‘zR Innovatsion rivojlanish vazirligi tibbiyot bo‘yicha ilmiy-texnik kengashi ilmiy kotibi va COVID-19 bo‘yicha koordinatsion kengash a’zosi bo‘lib ishlagan.

X.A. Rasulova o‘z vazifasiga, burchiga to‘liq mas’uliyat bilan yondashadigan shifokordir. U ToshPTI va TTA hamda uning Termiz filiali klinik bazalarida bemorlarni tibbiy ko‘riklarida ishtirok etib, shifokorlarga muhim mavzularda seminarlar, ma’ruzalar o‘tkazgan, bo‘limlardagi og‘ir bemorlar uchun konsultativ-davolash ishlarini olib bormoqda, nafaqat respublikamiz, balki xorijiy davlatlar shifoxonalarida nevrologik va terapevtik bemorlarni ko‘rikdan o‘tkazib, samarali tavsiyalar berib kelmoqda. Buning uchun u

ilg‘or kommunikatsion, telemeditsina kabi usullaridan foydalanmoqda.



Yuqori malakali shifokor va pedagog sifatida o‘z malakasini oshirish va tajriba almashish hamda ma’ruzalar bilan ishtirok etish uchun ko‘plab respublika va xorijiy anjuman, seminar, kurslar, forum, ko‘rgazma, tashriflarda faol ishtirok etib kelmoqda, shu jumladan, Avstriya, Vengriya, Chexiya, Italiya, Germaniya, Estoniya, Gretsiya, AQSh, Turkiya, Xitoy, Rossiya, Belorussiya,



Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa davlatlarga bo‘lgan. Tibbiyot va unga yaqin sohalariga oid 200 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, malaka oshirish kurslari, seminarlarda, teleko‘rsatuvlarda ma’ruzalar bilan qatnashgan hamda bir qator Respublika va Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va ko‘rgazmalarni Toshkentda va Termizda tashkillashtirgan. O‘zR Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni

muvofiglashtirish qo‘mitasi, Toshkent shahar xokimligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan Toshkent shahri va viloyatlar innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalari taqdimotlari hududiy ko‘rgazmasida bannerlar, rus, o‘zbek va ingliz tilidagi rangli bukletlar, videoroliklar, videofilmlar, olingan patentlar, chop etilgan qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, asbob-uskunalar, metallokonstruksiya, guvohnomalar va boshqa ko‘rgazmali materiallar namoyishini tashkillashtirishda faol ishtirok etgan.



Bularning barchasi orqali u tashkilotlar o‘rtasida xalqaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga yordam bergan, bir nechta talaba va yoshlarga o‘quv va ilmiy grant yutib olishiga sababchilardan biri bo‘lgan, ularning ilmiy ishlariga bevosita rahbarlik qilgan.



X.A. Rasulova respublikamizda ilmiy, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda o‘zining hissasini qo‘shib kelmoqda, jumladan, uning ilmiy rahbarligida 2 nafar tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktorlari (PhD) ilmiy darajasini oldi, 2 tasi himoyaga chiqdi. 10 nafardan ziyod nevrologiya, terapiya, anesteziologiya va reanimatologiya, nefrologiya, kardiologiya mutaxassisliklari bo‘yicha magistrlar va klinik ordinatorlarga ilmiy rahbar bo‘lgan. Hozirda 7 tadan ziyod

PhD va DSc dissertatsiya ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda. Uning bevosita rahbarligi ostida talabalar bir necha bor respublika va xalqaro olimpiadalar, tanlovlarda yuqori o‘rinlar va grantlar olgan.



U mohir pedagog sifatida “Nevrologiya”, “Angionevrologiya”, “Insultlar”, “Epilepsiya”, “Ichki kasalliklar”, “Ichki kasalliklar propedevtikasi”, “Nefrologiya” fanlaridan ma’ruzalar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tgan. Ushbu fanlardan sillabuslar, o‘quv ishchi dasturlar, qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar hammuallifidir. X.A.Rasulova modulli tizim bo‘yicha kasalliklarni o‘rganishga va dars berishda sindromal yondoshuvdan foydalangan. U Nevrologiya va Ichki kasalliklar (Terapiya) fanlari bo‘yicha «Ишемический инсульт (инфаркт мозга): клиника, диагностика, лечение»,



«Состояние почек при сосудистых

заболеваниях головного мозга», «Основы пульмонологии по пропедевтике внутренних болезней», «Физикальные методы исследования в клинике внутренних болезней», «Методы исследования сердечно-сосудистой системы», «Основы гастроэнтерологии по пропедевтике внутренних болезней», «Физикальные методы исследования при гепатобилиарной патологии», «Вопросы диагностики и лечения приобретенных пороков сердца. Приобретенные пороки сердца у беременных», «Диагностика и прогнозирование ангио-церебро-ренальной дисфункции при ишемическом инсульте», «Алгоритм диагностики и прогнозирования COVID-19 ассоциированных ишемических инсультов», «Оптимизация метода дифференциальной диагностики патогенетических подтипов ишемического инсульта», «Алгоритм лечения гипертонической болезни с учетом активности ренин-альдостероновой системы у больных в постковидном периоде», «Способ фармакологической коррекции патологического ангиогенеза у больных с пневмонией, перенесших ишемический инсульт», «Ички касалликлар пропедевтикаси», «Nevrologiya» nomli o'quv qo'llanmalar, darsliklar, «Нейропротекция в ангионеврологии», «Роль почек при цереброваскулярных заболеваниях», «Клинико-биохимические особенности ишемических инсультов в зависимости от патогенетической гетерогенности», «Рено-васкулярные механизмы патогенеза ишемического мозгового инсульта и вопросы лечебной тактики», «Ўзбекистонда инсультнинг миллий регистрини яратиш ва

унинг аҳамияти» kabi bir qator monografiyalar va kitoblar muallifi va hammuallifidir.



Jami bo'lib 330 tadan ziyod ilmiy ishlar muallifi, jumladan, 8 ta monografiya, 10 ta patent va guvohnomalar, 1 ta informatsion xat, 8 ta o'quv qo'llanma, 14 ta metodik tavsiyanomalar, xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda tezislar. Asosiy ilmiy yo'nalishlari tibbiyotning ko'pgina sohasiga tegishli – nevrologiya, terapiya, nefrologiya, intensiv terapiya, anesteziologiya va reanimatologiya, bioximiya, immunologiya, neyrogenetika, sog'liqni saqlashni tashkillashtirish.



RAXIMOV BAXTIYORJON NE'MATOVICH
Texnika fanlari doktori, professor, podpolkovnik

Raximov Baxtiyorjon Ne'matovich 1986-yil 31-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Quva tumanida tug'ilgan.

Baxtiyorjon Ne'matovich 2008-yilda Farg'ona politexnika institutini bakalavriyatini, 2010-yil Rossiya federatsiyasi Sibir davlat geodeziya akademiyasi magistraturasini tamomlagan. Mehnat faoliyatini 2010-yildan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali "Amaliy informatika" kafedrasida laboratoriya mudirligidan boshlagan. 2011-2013-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, stajyor tadqiqotchi so'ngra katta ilmiy xodim lavozimlarida 2013-2014-yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Radioaloqa qurilmalari va tizimlari" kafedrasida assistenti lavozimida ilmiy va pedagogik faoliyatini davom ettirgan. O'z kasbiga bo'lgan fidoiyligi

hamda talabchanligi tufayli Toshkent axborot texnologiyalari universitetidagi turli yo'nalishlarda rahbarlik lavozimlarida ham faoliyat olib borgan. Xususan, 2017-2018-yillarda Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti teleradioeshittirish tizimlari kafedrasida mudiri lavozimida mehnat faoliyatini olib borgan. Vatanga bo'lgan muhabbat hamda qat'iy intizomligi tufayli harbiy xizmat yo'nalishida ilmiy ishlarni davom ettirish maqsadida, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig'ining o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlagan.

Texnika fanlari doktori, professor podpolkovnik Raximov Baxtiyorjon Ne'matovich Mudofaa vazirligi tizimida xizmat faoliyatini olib borishda dastavval

sohada professional aloqachi harbiy kadrlar tayyorlash va ta’limga innovatsion yondoshuvni kiritish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalangan holda tizimdagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy tomonlama hal etishga qarattirdi.



Professor B. Raximov nafaqat ilmiy tadqiqot sohasida balki ma’naviy-ma’rifiy, harbiy vatanparvarlik hamda sport tadbirlarini tashkillashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, yurtboshimiz tomonidan yoshlarni harbiy vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z kasbiga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan xukumat vazifalarini bajarishda o‘rnak bo‘lib kelmoqda.



Sohada harbiy xizmatchilar jismonan chiniqtirish ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish maqsadida, ommaviy sport tadbirlari nafaqat tashkilotchisi balki faol ishtirokchisi hamdir.

Uyushmagan yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida birlashtirish, bo‘sh vaqtlarini unumli tashkillashtirish hamda iqtidorli yoshlarni munosib tashkillashtirishda o‘z kuch va g‘ayratini safarbar etmoqda.

Raximov Baxtiyorjon Ne’matovich tomonidan chop etilgan bir qator darsliklar, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar bugungi kunda Mudofaa vazirligi oliy ta’lim muassasalari kursant va tinglovchilar bilan o‘tkaziladigan o‘quv darsliklarida keng foydalanib kelinmoqda.

Sohada ilmiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida, Respublika va Xalqaro oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro tajriba almashinish uchun ikki va ko‘p tomonlama memorandumlar imzolanib turli xalqaro va respublika konferensiyalari o‘tkazib kelinmoqda.



Professor B. Raximov ilmiy va pedogogik faoliyati davomida 61 ta mualliflik guvohnomalari, 5 ta O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan ixtiro uchun patentlar va bitta foydali model patenti mavjud.



Uning bugungi kunda xalqaro va respublika jurnallarida chop etgan maqolalar yillar kesimida:

2020-yilda xorijiy davlatlar ilmiy jurnallarda — 11 ta maqola; O‘zbekiston

Respublikasining OAK tomonidan tasdiqlangan ilmiy jurnallarda 89 maqolalar;

2021-yilda xorijiy davlatlar ilmiy jurnallarda — 12 ta maqola; O‘zbekiston Respublikasining OAK tomonidan tasdiqlangan ilmiy jurnallarda 147 maqolalar;

2022-yilda xorijiy davlatlar ilmiy jurnallarda — 14 ta maqola; O‘zbekiston Respublikasining OAK tomonidan tasdiqlangan ilmiy jurnallarda 114 maqolalar;

2023-yilda xorijiy davlatlar ilmiy jurnallarda — 11 ta maqola; O‘zbekiston Respublikasining OAK tomonidan tasdiqlangan ilmiy jurnallarda 141 ta maqolalar.

2020 — 2023 yillar davomida jami: xalqaro konferensiyalarda — 205, respublika miqyosida 348 tezis.



Professor B. Raximov “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom”, “Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash to‘g‘risidagi Nizom” ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2017-yil 27-iyundagi 240/2-sonli hamda 2017- yil 28-dekabrda 247/2-sonli qarorlari asosida: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a‘zosi, Mudofaa Vazirligi va Axborot — kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti qoshidagi ilmiy kengash a‘zosi hamda mazkur kengashning seminar raisi vazifasini bajarib kelmoqda.

Professor B. Raximov tomonidan 500 dan ortiq ilmiy, uslubiy va tadqiqot ishlar natijalari jurnallarda chop etilgan.

2019-2023-yillar davomida professor B. Raximov rahbarligida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutidagi ilmiy-tadqiqot ishlari loyihalar rahbari va asosiy a‘zosi sifatida faoliyat yuritgan.



B. Raximov 2019 yildan 2 nafar fan doktori (DSc) va 10 nafar texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishlariga ilmiy maslahatchi va rahbarlik qilib kelgan.

Professor B. Raximov tashabbusi bilan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida ro‘yxatdan o‘tgan ilmiy “Harbiy aloqa va AKT xabarlar” va “INNOVATION TECHNOLOGICAL SYSTEMS” jurnallar joriy etilib, hozirda professor-o‘qituvchilar tarkibi o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ushbu jurnallarda e‘lon qilib borishmoqda.

Bundan tashqari, B. Raximov Toshkent axborot texnologiyalar universitetining “Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” ilmiy jurnalining bosh muharrir o‘rinbosari va Axborot — kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti “Harbiy aloqa va AKT xabarlar” va “Innovation Technosystems” ilmiy jurnallarining bosh muharriri hisoblanadi. 2023-yil sentabr oyidan hozirgi vaqtga qadar Mudofaa vazirligi Axborot — kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti boshlig‘i lavozimida o‘z faoliyatini olib bormoqda.



RAXMATOVA XAYRIXON ASHIRALIYEVNA
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Raxmatova Xayrixon Ashiraliyevna 1960 yil 7 sentyabrda Namangan viloyati Pop tumanidagi, G‘urumsaroy qishlog‘ini dehqon oilasida dunyoga keldi. Shu qishlog‘dagi 16-sonli o‘rta maktabni 8-sinfini bitirib 1975 yil Chust pedagogika bilim yurtining boshlang‘ich sinf yo‘nalishiga o‘qishga kirgan. U yerni 1979 yili namunali tamomlab, o‘zi o‘qigan maktabda pedagoglik faoliyatini boshlagan. Ishdan ajralmagan holda 1981 yil Farg‘ona davlat universitetining biologiya yo‘nalishiga o‘qishga kirdi. 1986 yili Farg‘ona davlat universitetini tamomlab 1979 yildan 2005 yilgacha 16 — maktabda pedagoglik faoliyatini olib bordi.

1991 yili “Xalq maorifi a‘lochisi” , 1997 yilda “Shuhrat” medali, 2020 yil “Mo‘tabar ayol” va 2024 yil “Ibratli oila” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

G‘urumsaroy qishlog‘ini 16-maktabidagi pedagoglik faoliyati davrida o‘qituvchilik bilangina bog‘lanib qolmay, boshlagan ilmiy ishini 2005 yilda Qori Niyoziy nomli ilmiy tekshirish institutida ilmiy rahbari pedagogika fanlari doktori professor Dilorom Sharipova boshchiligida “O‘quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigiyenik tarbiyalashning pedagogik shart-

sharoitlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilish bilan yakunladi.



2006 yil sentyabr oyidan shu kunga qadar Namangan davlat universitetida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, professor lavozimida faoliyat ko‘rsatib, bakalavr va magistr larga ta‘lim-tarbiya berib kelmoqda. 20tadan ortiq magistr larga ilmiy rahbarlik qilib himoya qildirgan. Kambarov Nodirjon Sattarovichni 13.00.01-Pedagogika nazariyasi.Pedagogik ta‘limotlar tarixi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)dissertatsiyasini himoya qilishida ilmiy rahbarlik qilgan.Yana 6 nafar shogirdi himoya qilish arafasidadir.

X.A.Rahmatovanning hozirgi kunga qadar 100 dan ortiq ilmiy maqolalari xalqaro, respublika miqyosidagi ilmiy jurnallar va ilmiy

konferensiya to‘plamlarida chop qilingan. Ko‘plab ilmiy-uslubiy qo‘llanmalari, metodik tavsiyalari, darsliklari, e‘lon qilinib, nashr ettirilgan.



X.A.Raxmatova tajribali pedagog, o‘z kasbini sevadi va kasbining ustasidir. U faqat pedagogika, biologiya ilmi bilan cheklanib qolmay, sog‘lom turmush tarzi va urf-odatlarimiz, ekologik muhitning musaffo bo‘lishiga oid ham bir qator ishlarni chop etgan. Talabalar o‘rtasida shu kunlarda ham odam savdosi, giyohvandlik, OITSga qarshi kurash, qadriyatlarimizni tarbiyaviy tomonlari, siz bo‘lg‘usi ota-onasiz, siz kelajak bunyodkorlarisiz, hayot go‘zal yashash shirin haqida tushuntirish ishlarini bahs-munozaralar asosida hayotga bog‘lab, turmush tarzidan kelib chiqqan holda, ma‘naviy va ma‘rifiy ishlarni namunali olib bormoqda.



X.A.Rahmatova bugunda esa professor lavozimida faoliyat ko‘rsatib, bakalavr va magistr larga umumiy pedagogika, pedagogik mahorat, pedagogikaning kanseptual asoslari,

ta‘lim-tarbiya nazariyasi, pedagogik diagnostika va korreksiya, ijtimoiy pedagogika, xalq pedagogikasi va boshqa fanlardan ta‘lim-tarbiya berib kelmoqda.

U bir necha bor viloyat televideniya-sida “Yoshlar tarbiyasiga mas‘ulmiz”, “Kattalar o‘rtasidagi mehr-oqibat”, “Qizlarni yosh turmushga bermaslik”, “Giyoxvandlik oqibatlari”, “Ota-onaning andozali vazifalari” “Guldasta” musiqali ko‘rsatuvda, “Ayolning bekalik vazifalari”, “Ta‘limga e‘tibor” va boshqa mavzular asosida bir necha bor davra suhbatlarida ishtirok etgan.



X.A.Rahmatova Mustaqil O‘zbekistonimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol bo‘lib kamol topishida, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi ishlarda ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan vazifalarni chuqur anglagan holda uni takomillashtirishga munosib hissasini qo‘shish bilan birgalikda ta‘lim jarayonlari samaradorligini oshirib, Davlat Ta‘lim Standartlari talablari asosida o‘z pedagogik va ilmiy faoliyatini namunali va mehnat jamoasiga o‘rnak bo‘ladigan tarzda amalga oshirib kelmoqda.

X.A.Raxmatova hozirda universitet ijtimoiy hayotida o‘zining tashkilotchiligi, ishbilarmonligi bilan alohida mavqega ega. U universitet va Namangan shahar ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishida, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarida ham munosib ulush qo‘shib kelmoqda.



RAXMANKULOV MUROD SAID-AKBAROVICH
Biologiya fanlari doktori, professor

Raxmankulov Murod Said-Akbarovich 1968 yil 12 mayda Toshkent viloyati, Qibray tumanida ziyolilar oilasida tug'ildi.

1986-1991 yillari Toshkent qishloq xo'jalik institutining Agronomiya fakulteti talabasi bo'lib, 1991-1993 yillari O'zbekiston G'ozza seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy-tadqiqot institutining G'ozza biotexnologiyasi laboratoriyasida avval oliy ma'lumotli katta laborant, 1993-1994 yillari esa kichik ilmiy xodim lavozimida ishlab keldi.



1994 yildan boshlab Toshkent davlat agrar universitetining «Seleksiya va urug'chilik» kafedrasida assistenti, 2002 yildan dotsent, 2003-2004 yillari universitet O'quv va uslubiy bo'lim boshlig'i, 2004-2014 yillari «Qishloq xo'jaligi ekinlari genetikasi,

seleksiyasi va urug'chiligi» kafedrasida mudiri lavozimida ishladi. 2014 yildan boshlab Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining katta ilmiy xodim-izlanuvchisi, 2017-2018 yillari O'zR FA Genetika va o'simliklarni eksperimental biologiyasi instituti ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, 2018 yildan «Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi» kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.

2001 yilda «Биология культивируемых клеток *Gossypium hirsutum* L. на селективных средах с NaCl» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini 03.00.05 – Botanika, 03.00.23 – Biotexnologiya ixtisosliklari bo'yicha biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim Azizxodjayev Anvar Raxmatovich rahbarligida himoya qilib, 2002 yilda biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. 2016 yilda «Katta ilmiy xodim» ilmiy unvonini oldi. 2017 yilda «Создание скороспелых, высокопродуктивных сортов и линий хлопчатника вида *G.hirsutum* L. на основе новых методов селекции» mavzusidagi

doktorlik dissertatsiyasini 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha Kim Robert Grigorevich maslahatchiligida muvaffaqiyatli himoya qilib, 2021 yilda shu ixtisoslik bo'yicha professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi.



M.S. Raxmankulovning ilmiy ishlari g'oz navlarning morfobiologik xususiyatlari, ularning kallusogenezi, agarli muhitdagi subkulturalari, G'ozaning somatik embrioidogenezining yetishtirish sharoitiga bog'liqligi, somatik embrioidlarning shakllanishi, ularning morfo-anatomik xususiyatlari, avtonom o'sishga o'tish bosqichlari, sho'rlanish sharoitida g'oz to'qimalaridan kallusogenez olish, NaCl konsentratsiyasini oshirilgan sari suspenziya sharoitida erkin yashovchi g'oz kallus hujayralarining o'sishi va rivojlanishini o'rganish, sho'rlangan suspenziya sharoitida hujayralarning morfobiologik tavsifi, tuzga chidamli hujayralarni aniqlash va xloridli sho'rlanishining sezilarli darajada yuqori konsentratsiyasiga chidamli bo'lgan hujayra tizmalarini olishga bag'ishlangan. Shu bilan birga g'oz amfidiploidlari va ularning bekkross-avlodlarini olish hamda ularning avlodlarida qimmatli-xo'jalik belgilar hamda tolaning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash; bir xillik, tezpisharlik va viltga chidamlilik bo'yicha molekular markerlarni aniqlash; *Verticillium dahliae* Kleb. va *Fusarium oxysporum* f. sp. *vasinfectum* (Atk.) Snyder et. Hansen zamburug'larining virulent patogenlari bilan inokulyatsiya qilish orqali o'simliklarning bardoshlilikini aniqlash; seleksiyaning yangi usullarini qo'llab qimmatli-xo'jalik belgilar majmuasiga ega bo'lgan, tezpishar, viltga

chidamli nav va tizmalarni yaratish ustida ilmiy izlanishlarini olib borgan.

M.S.Raxmankulov tomonidan ilk bor NaCl lik selektiv ozuqalarda hujayra seleksiyasi olib borilib, laboratoriyada in vitro sharoitida seleksion materialni xloridli sho'rlanishga chidamliligini baholashning uslubi ishlab chiqilgan; embriokultura usuli orqali amfidiploidlarni olish sxemasi ishlab chiqilgan; har xil xromosomal G. *hirsutum* L., G. *raimondii* Ulbr., G. *thurberi* Tod., G. *anomalum* Waw., G. *sturtii* F.Muell., G. *davidsonii* Kell., G. *harknessii* Brand. turlar orasida amfidiploidlar va ularning bekkross avlodlari G. *sturtii* F.Muell., G. *raimondii* Ulbr., G. *harknessii* Brand., G. *aridum* Skov., G. *triphylum* Horch. turlar ishtirokida yaratilgan; molekular markerlar asosida, tezpishar, viltga bardoshli va genotipik bir xil bo'lgan g'ozaning oila va tizmalari yaratilgan; V.*dahliae* va F.*oxysporum* vilt patogenlarining izolyatlari bilan o'simliklarni inokulyatsiya qilish asosida tezpishar, yuqori hosildor, vilt bilan zararlanishga majmuaviy bardoshli yangi g'oz tizmalari yaratilgan.



Ilmiy faoliyatini olib borishda bir qator fundamental, amaliy loyihalarda ilmiy rahbar va a'zo sifatida ishtirok etgan, jumladan Toshkent davlat agrar universiteti va Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining P-17.59-raqamli «G'ozaning qimmatli xo'jalik belgilari majmuasiga ega bo'lgan istiqbolli tizmalarini takomillashtirish hamda Davlat nav

sinoviga va ishlab chiqarishda ko'paytirishga berish» (2003-2005 yy.), AQSHni Qishloq xo'jalik Departamentining Section-416 2S-raqamli «G'o'zaning 4 ta yangi tizmalarini takomillashtirish va ko'paytirish hamda xloridli sho'rlanishga bardoshlilikiga baho berish (L-1, L-2, L-3, L-4)» (2005-2006 yy.), A-11-109-raqamli «G'o'zaning ilgari yaratilgan yuqori moyli tizmalari asosida yuqori tola chiqimi, sifati jahon bozori andozalari talablariga javob beradigan yangi navini yaratish va DNS ga topshirish» (2006-2008 yy.), QXA-9-045-raqamli «G'o'zaning sho'rga chidamli, serhosil «Umid» navini va yangi tizmalarining (L-5, L-6, L-7, L-13) navdorigini yaxshilash hamda Davlat nav sinoviga toshirish» (2009-2011 yy.), QXA-9-049-raqamli «G'o'zaning hosildor, tola sifati va chigit tarkibida yog' miqdori (20-22 %) yuqori, viltga bardoshli tizmalarini me'yoriga yetkazib, Davlat nav sinoviga topshirish» (2009-2011 yy.), KXF-5-029-raqamli «Serhosil, tezpishar, vertitsellez va fuzarioz viltga kompleks bardoshli transgressiv g'o'za navlari va tizmalarini yaratish uslubini biokimyoviy va molekular testlar asosida ishlab chiqish» (2012-2016 yy.).



Ko'p yillik tadqiqotlari natijasida asosiy va hammualliflikda yaratilgan g'o'za navlari uchun 6 ta patent egasidir. Jumladan, "Istiqlol-13", "SU-1001", "Istiqlol-14", "S-2118", "Mang'it-1", "Mang'it-2", "S-2120".

Ish faoliyati davomida 100 dan ortiq ilmiy ish chop etilgan bo'lib, ular orasida muallif va hammualliflikda chop etilgan

“Qishloq xo'jaligi ekinlari sitologiyasi va embriologiyasi” va “Seleksiya va urug'chilikda noan'anaviy usullar” darsliklari, “Qishloq xo'jaligi ekinlari sitologiyasi va embriologiyasi” o'quv qo'llanmalarini qayd etish mumkin. Shu bilan birga “Нетрадиционные методы в селекции хлопчатника” nomli monografiyasi chop etilgan.

Uning rahbar va maslahatchiligida bitta fan doktori (DSc) va bitta falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyalar himoya qilindi. Hozirgi kunda 3 nafar (1 ta DSc, 2 ta PhD) doktorantga rahbarlik qilmoqda.

M.S.Raxmankulov ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash va uning qoshidagi Ilmiy seminarlarda ham faol ishtirok etib, Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengash raisi o'rinbosari hamda shu kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi bo'lib faoliyat yuritib kelmoqda.

Raxmankulov Murod Said-Akbarovich Toshkent davlat agrar universitetidagi pedagogik faoliyati davomida Biologiya va genetika, Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi, Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'shunosligi, Qishloq xo'jaligi ekinlari sitologiyasi va embriologiyasi, Seleksiya va urug'chilikda noan'anaviy usullar kabi fanlardan ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib borgan.

Shu bilan birga TOP-1000 talik universitetlari qatorida turuvchi M.Auyezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti talabalari hamda shu universitetda har yili tashkil etiladigan yozgi maktabda ma'ruzalar o'qib kelmoqda.



RIZAYEV ANVAR ABDULLAYEVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Rizayev Anvar Abdullayevich mexanizm va mashinalar nazariyasi, qishloq xo‘jalik mashinalari, xususan paxta hosilini terish, uni qayta ishlash mashinalari nazariyasi va amaliyoti sohalarining tadqiqotchisi texnika fanlari doktori, professor.



U 1952 yili Toshkent shahrida tavallud topdi. Ilmga qiziqishi otasi mexanik muhandis. Abdulla ota va onasi Nafisa onadan boshlangan va shahardagi 131- va 162-sonli o‘rta maktablardagi ustozlaridan olgan bilimlarga asoslanadi.



1969 yil maktabni tugatib, Toshkent politexnika institutining mexanika fakultetiga

o‘qishga kirdi va uni 1974 yili “Avtomobil va traktorlar” yo‘nalishida imtiyozli diplom bilan tamomlab, mexanik muhandis mutaxassisligini egalladi. Institut fakulteti ilmiy kengashi va professor A.X.Xamidov tavsiyalari bilan O‘zbekiston fanlar akademiyasining M.T.O‘razboyev nomidagi mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti kunduzgi aspiranturasida tahsil oldi.

So‘ng 1978-1990 yillarda shu institutning “Paxta terish apparatlari nazariyasi” laboratoriyasini kichik, katta ilmiy xodimi, 1990-1991 yillarda laboratoriya mudiri, 1991-1997 yillarda institut direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari va 1997-2015 yillarda institut direktori lavozimlarida ishladi.

Uning institutga rahbarlik davri ilm-fan uchun moliyaviy chegaralash, 2003 yildan esa butunlay tanlov asosida grantlar yutib olgan jamoalargina muhim kifoya ko‘rinishida moliyalashtirilishiga to‘g‘ri keldi.



O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2008 yildan boshlab ilmiy ishlar natijalari yarmarkalarining tashkil etilishi bilan o‘z davrining muhim yechimlariga aylandi. Institutning tadqiqot natijalari Olmaliq, Navoiy tog‘-metallurgiya kombinatlari, Paxtasanoat, ayrim loyiha va qurilish tashkilotlari buyurtmalari asosida ishlab chiqarishga joriy etila boshladi.

Respublika iqtisodiyotidagi reforma va strukturaviy o‘zgarishlar FAsini ham chetlab o‘tmadi. Prezident I.A. Karimov qarori bilan 2014 yil 8 iyuldan boshlab institut ikkiga, ya’ni Toshkent davlat texnika universiteti qoshida “Tadqiqot markazi” va FAsida “Zilzilabardoshlik” institutiga ajratildi. Lekin bundan kutilgan natijaga erishilmadi.



Bu sharoitda institutdagi ilmiy maktablarni saqlab qolish va salohiyatini yanada rivojlantirish, “fundamental tadqiqotlar – amaliy ishlanmalar – innovatsiya ishlari” bo‘yicha olingan natijalarni iqtisodiyotning real sektoriga joriy etish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va yuqori malakali ilmiy xodimlar tayyorlash bo‘yicha faol ishlar olib borildi.

Yangilanayotgan O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016 dekabrda akademik ustozlar bilan tarixiy uchrashuvi va 2017 yil 7-fevralidagi qarori bilan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va undagi ilmiy tadqiqot institutlari faoliyatlarini qayta tiklanishi muhim tarixiy jarayonga aylandi, hamda FAsini 2020 yildan to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat budjetidan moliyalashtirilishi ilmiy jamoalar salohiyatini yuksaltirish va ayniqsa iqtidorli yoshlarni ilmga jalb etishni jadallashtirdi, kelajakka ishonch kuchaydi.

Stajyor-tadqiqotchi va tayanch doktorant, doktorantlar institutlari tashkil etilishi esa yosh olimlar sonining keskin oshishiga olib keldi.

A.R.Beruniy nomidagi davlat mukofoti sovrindorlari akademik H.H.Usmonxo‘jayev, texnika fanlari nomzodlari Q.M.Inog‘omov, I.X.Fayziyevlar tomonidan yaratilgan tarkibiy shpindellar apparatlarining asosiy ishchi organi bo‘lib, u mustahkam, bikr o‘zak (sterjen) va uni harakatlantiradigan g‘altak hamda unga yuqorigi uch xalqasidan tashqari qolgan xalqalari erkin o‘rnatilgan silindrsimon tishli prujinadan iboratdir.

Paxtani ilib va o‘ziga o‘raydigan lentali prujina tishlari paxta sanoatidagi XCHO-43 arrachadan olingan (sanoatda unifikatsiya talabi bo‘yicha) bo‘lib, prujinani o‘zakda erkin o‘rnatilishi hisobiga (dunyoda o‘xshashi yo‘q innovatsion yechim) shpindel sirtining paxta tolasi va chirklardan ifloslanishini keskin kamayishiga va mashinaning terim sarfiga vaqtini orttirib ish unumini 18-34% oshirgan. Shu bilan birga uzun tolali paxtani terish jarayonida tolalardagi iflos aralashma va nuqsonlarning vazniy ulushi seriyadagi shpindelga nisbatan ko‘payishi davlat sinovlarida qayd etilgan.

Bu muammoni yechish bo‘yicha ustozlari aspirant A.A.Rizayev oldiga tadqiqot ishlarini olib borish vazifalarini qo‘ydilar va natijada “Paxta terish mashinasi agrotexnik ko‘rsatkichlariga tarkibiy shpindel va siquvchi silindr o‘rni parametrlari ta’siri” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini 1983 yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi kengashda himoya qilishiga olib keldi.

Tarkibiy shpindelning texnologik va dinamik parametrlarini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini A.A.Rizayev ustozlari H.H.Usmonxo‘jayev, Q.M.Inog‘omovlar bilan “Texnolog” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi olim va mutaxassislari bilan birgalikda olib borib, uning massa va tannarxini 1,3-1,5

barobargacha kamaytirishga erishildi. Bunday shpindelli mashinani SAMIS tomonidan o'tkazilgan sinovlar natijalarida, ishlab chiqarishga tavsiya berish va "Toshqishloq mash" zavodi tomonidan ularni 50 ta XNP-1,8 turdagi mashinalarga joriy etish bilan yakunlandi. Tarkibiy shpindelli barabanga moslashtirilgan shakli giperbola ko'rinishidagi cho'tkali ajratkich konstruksiyasi, hamda shogirdlari bilan terim apparatining ish jarayonida shpindelli barabanlar juftligini paxta hosili bilan yuklanishi bo'yicha tadqiqotlar olib bordi va parametrlari ilmiy asosladi.



Bu yechimlarga davlat sinovlari natijalari asosida paxta terish mashinalarida qo'llash uchun tavsiyalar berildi.



O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligi buyurtmasi bilan A.A.Rizayev tomonidan ilmiy asoslangan universal tarkibiy shpindel 1992-1993 yillarda "Texnolog" IIB tomonidan ishlab chiqarildi va paxta terish mashinasiga o'rnatilib 1993 yilda davlat sinovlaridan o'tkazilishi natijalari asosida uzun tolali paxtaga eng kam mexanik shikast yetkazadigan shpindel ekani isbotlandi va "Paxta sanoat ilmiy markazi" tomonidan shpindelning yangi oilasi yaratilgani e'tirof etildi. O'z MIS, "Paxtasanoat ilmiy

markazi" tavsiyalari asosida akademik Sh.U.Yuldashev rahbarligidagi davlat komissiyasi bu shpindellarni ishlab chiqarishga joriy etishini va mashinalarga o'rnatilishini qo'llab quvvatladi.

Bajarilgan fundamental, amaliy va innovatsiya ishlari "g'o'zapoya-terim mashinasi – paxta, tola, chigit" tizimidagi biologik (tabiiy) sifatni ta'minlashga qaratilgan yo'nalishning ilmiy asosiga aylandi va 1996 yilda A.A.Rizayev tomonidan "Paxta terish apparati texnologik jarayonlarining samaradorligini oshirish ilmiy asoslari va paxta, tolaning biologik sifatlarini ta'minlash" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoyasi bilan yakunlandi. Dissertatsiya ishiga akademiklar H.H.Usmanxo'jayev, A.D.Glushenko va prof. X.Turanovlar maslahatchi bo'ldilar.



A.A.Rizayev rahbarligida yuqorida qayd etilgan ilmiy yo'nalish bo'yicha O'zbekiston "Fan va texnologiyalar agentligi" keyinchalik O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining qo'llab-quvvatlashlari asosida 2 ta fundamental, 3 ta amaliy va 2 ta innovatsiya loyihalar bajardi.

Akademik A.D. Glushenko rahbarligida tizimli yo'nalish doirasida olim qator hamkasblari bilan birga zamonaviy gorizontall shpindelli paxta terish apparatlaridagi dinamik jarayonlarni modellashtirish, bunda terilgan paxta tolasidagi mexanik shikastlanishni hisoblash usullarini ishlab chiqish ustida tadqiqotlar olib bordilar. Natijada Case-2022 mashinasi uchun O'zbekiston sharoitida samarali ishlashini

ta'minlovchi ish rejimlariga tavsiyalar Qishloq xo'jalik vazirligiga topshirildi.



Vatanimizda ishlab chiqarilayotgan yarim osma paxta terish mashinalari texnik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha A.A. Rizayev rahbarligida 2017-2024 yillarda tarmoqlararo amaliy va innovatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Bunda Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti xodimlaridan tashqari Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ITI, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat axborot texnologiyasi universiteti qoshidagi Innovatsion ishlanmalar markazi, MCHJ "Agrixim" qo'shma korxonasi, Bosh maxsus konstruktorlik byurosi (BMKB) AJ, MCHJ "Konstruktorlik-texnologik markazi" (KTM) va Qishloq xo'jalik texnika va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazlari (QXTTSSM) ishtirok etdilar. Bajarilgan fundamental loyihalar natijalari yangi amaliy va innovatsiya loyihalarni shakllantirish va bajarishga asos bo'lmoqda. Tadqiqotlar va tajriba ishlari asosida MX-1,8 ikki qatorli (90 sm qator orasi uchun), MX-2,4 to'rt qatorli yarim tirkama mashinalar uchun 14 shpindelli baraban va universal shpindelli terim apparati parametrlari asoslandi, hamda havo transport tizimining maqbul konstruksiyasi yaratildi va o'tkazilgan qiyosiy dala sinovlari natijasida mashinalarning tajriba-sanoat namunasini ishlab chiqarishga tavsiya etildi.

2020-2022 yillarda KTM MCHJ tomonidan 12 ta MX-2,4 mashinalarining


sanoat-tajriba namunalari ishlab chiqarildi va xo'jalik sinovlarida keng ishlatildi.



A.A. Rizayev 4 ta monografiya, 2 ta o'quv qo'llanma, 300 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi. U 40 ortiq ixtiro va hisoblash dasturi guvohnomalariga ega, ko'plab ilmiy to'plamlarga mas'ul muharrirlik qilgan. Uning rahbarligida 2 ta fan doktori, 7 ta fan nomzodlari, 10 dan ortiq magistrlik dissertatsiyalarini himoya qildilar va tadqiqotlar olib bormoqdalar.



Olim O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining "Texnika fanlari" yo'nalishidagi ilmiy-texnik kengashning bir necha bor a'zosi, ilmiy daraja beruvchi 2 ta Kengash va seminarlar a'zosi sifatida yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlarida faol qatnashmoqda. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish instituti" milliy tadqiqot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiyasi instituti kafedralarining o'rindoshlik asosida professorlari bo'lib, oliy toifadagi mutaxassislar tayyorlashda faol ishtirok etmoqda.



SADIKOVA ZUMRAT SHAVKATOVNA
Tibbiyot fanlari doktori, professor

Sadikova Zumrat Shavkatovna 1955-yil 20-yanvarda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Millati o‘zbek, ma’lumoti oliy, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi.

1963-yildan 1974-yillargacha Toshkent shahar Shofayz mahallasidagi 136-sonli o‘rta maktabda tahsil olib, a’lo baholarga bitirgan.

1975-1981 yillarda Toshkent tibbiyot instituti stomatologiya fakultetida tahsil oldi.

1981-yil oliygohni muvaffaqiyatli bitirgandan so‘ng bir yillik internaturani 9-stomatologiya poliklinikasida o‘tadi.

1984-yildan boshlab Toshkent tibbiyot institutida “Anatomiya” kafedrasida avval assistant, keyin katta o‘qituvchi, 1997-yildan so‘ng dotsent bo‘lib faoliyatini davom ettirdi.

1995-yilda “Oyoq son qismining jarohatlanishida qon to‘xtatish uchun jgut qo‘yiladi, shundan keyin son arteriyasi va son

quymich nervining morfologik holatini o‘rganish” mavzusida 7-aprel kuni nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. So‘ng kafedrada katta o‘qituvchi lavozimida ishini davom ettirdi. Shu yildan boshlab, kafedra o‘quv ishlariga mas’ul etib tayinlandi. Ushbu vazifani uddalashda akademiya miqyosida kafedra nufuzini ko‘tarishda barcha xodimlarning, xususan, kafedra mudirlari professor N. K. Ahmedov (1997 yilgacha), professor O‘. M. Mirsharapov (2012 yilgacha), professor T. A. Sagatov (2012 yildan keyin) larning hissalarini katta.

2000-yilda yangi innovatsion texnologiyalar konkursida g‘olib bo‘lib, 1-o‘rin diplomi bilan taqdirlandi.

2008-yilda “O‘pka qon tomirlari va bronxial daraxtining postnotal ontogenezida morfologik va morfometrik o‘zgarishlarini

o‘rganish” mavzusida doktorlik ishini himoya qildi. Sadikova Z.SH ning doktorlik dissertatsiyasiga anatomiya kafedrasida mudiri, professor O‘. M. Mirsharapov rahbarlik qildi.

2008-2012 yillarda tibbiy-profilaktika fakulteti xotin- qizlar qo‘mitasi raisi bo‘lib ishladi. Xotin qizlar qo‘mitasi raisi sifatida olimi ayol professor Stalina Salixovnaga atalgan Anjuman qatnashchisi bo‘ldi.



2004-yilda ustoz professor N. K. Ahmedov tahriri ostida birinchi marta lotin alifbosida tibbiyot kollejlari o‘quvchilari uchun “Odam anatomiyasi” darsligi yaratildi, bu darslikni 3 yil ichida ustoz shogird birgalikda chop etishdi. Hozirgi kunda bu darslik yana 2 marta qayta ishlab chiqildi.

Olima ayol 1997-yildan 2017-yilgacha bo‘lgan ish faoliyatini Toshkent tibbiyot akademiyasi Anatomiya kafedrasida o‘quv ishlariga mas‘ul xodim sifatida olib bordi. Hozirgi kunda kafedrada professor, tibbiyot fanlari doktori bo‘lib faoliyat yuritmoqda.

2008-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, “Anatomiya” fani bo‘yicha mustaqil O‘zbekistonda birinchi fan doktori o‘zbek ayoli bo‘ldi.

Sadikova Z.SH o‘z ilmiy faoliyati davomida xorijiy va mahalliy anjumanlarda qatnashib, 45 dan ortiq ma‘ruza qilgan. 10 dan ortiq o‘quv qo‘llanma, 20 dan ortiq o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 180 dan ortiq maqola va tezislar nashr qilgan.

4 ta fan nomzodi va 2 ta fan doktori shogirdlari o‘z ilmiy ishlarini ustoz bilan birgalikda davom ettiryaptilar. Ustozning shogirdlari S. D. Xo‘janazarovanning ilmiy seminaridan chiqib xursandchiliklarini

birgalikda nishonlash, shogirdning ustozga bo‘lgan hurmati va mehrini yanada oshirdi.

2023-yilda yana bir shogirdi Sultonov R.K nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.



Zumrat Shavkatovnani talabalarga munosabatlari, ta‘lim berish jarayonlarida dars amaliyotga aylanib ketishi, har bir talabaning ustozdan mamnunligi va har bir talabaning o‘qish jarayonida yuqori natijalar ko‘rsatishi professorning uzoq yillik malakasi va pedagoglik mahorati oliy darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Sadikovaning o‘z ustozlariga bo‘lgan hurmati beqiyosdir. Shu sababli har bir ma‘ruza va darslarda o‘z shogirdlari va talabalarga ustozlarga bo‘lgan hurmatini ko‘rsatadi.

2021-yil eng sara yosh olimlar xalqaro anjumanida yoshlarga ko‘rsatilgan rahbarligi uchun diplom va medal bilan taqdirlandi.



2024-yilda Sadikova Zumrat Shavkatovna tomonidan yangi “Odam anatomiyasi” darsligi va “Ichki a‘zolarining tuzilishi va funksional anatomiyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi nashrdan chiqdi.



SAFAROV SHAXRIYOR SAFAROVICH
Filologiya fanlari doktori, professor

1946-yil sentabr oyida Samarqand viloyati Urgut tumanida tugʻilgan. 1968-yili Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetini aʼlo baholi (qizil) diplom bilan tugatganidan soʻng, “Ingliz filologiyasi” kafedrasiga oʻqituvchi sifatida ishga qoldirilgan. 1970-1972-yillar davomida sobiq Sovet Ittifoqi fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutining Leningrad shahridagi boʻlimida ikki yillik stajirovka oʻtaganidan soʻng, shu institut qoshidagi kunduzgi aspiranturaga qabul qilingan. Aspirantura davomida Sh.Safarov qadimgi german tillarining sistem-struktur va derivatsion xususiyatlari rivojini mukammal oʻrgandi va tadqiqot ishini oʻz muddatida yakunladi. 1976-yil may oyida Leningrad tilshunoslik institutida uning “Управления приставочных глаголов в древнеанглийском языке” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining himoyasi boʻlib oʻtdi.

German tillari ixtisosligi boʻyicha filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan Sh.Safarov 1976-yilda Oʻzbekistonga

qaytganidan soʻng, Samarqand shahrida yangidan tashkil topgan Sadridin Ayni nomidagi Pedagogika institutiga ishga taklif qilindi va institut tugatilganiga, aniqrogʻi 1992-yilga qadar “Ingliz tili” kafedrasini boshqardi.

Shu yillar mobaynida Sh.Safarov kafedra oʻquv jarayonini tashkil qilish, chet tillarni oʻqitish amaliyotini keng yoʻlga qoʻyish va ushbu jarayonni oʻquv adabiyotlari bilan taʼminlash faoliyati bilan bir qatorda ilmiy izlanishlarini izchil davom ettirdi va 1991-yil oktabr oyida Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) universiteti huzuridagi Ilmiy kengashda tilshunoslik nazariyasi (10.00.19.) ixtisosligi boʻyicha “Этносоциопрагматика речевого общения (сопоставительнo-типологическое описания)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Mazkur dissertatsiya doirasida ingliz, rus, oʻzbek, tojik lingvomadaniyatlarida yuritiladigan nutqiy muloqot tizimining lisoniy, madaniy, etnopsixologik xususiyatlari oʻrganilib, ular oʻrtasidagi universal hamda

idioetnik ko'rsatkich-belgilarni qiyosiy-tipologik tahlili tamoyillari ishlab chiqilgan.



1991-yilning oxirida Rossiya Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga tasdiqlangan Sh. Safarov 1993-yilda professor unvonini olgan.

Professor Sh.Safarov 1992-2005-yillarda mehnat faoliyatini Samarqand davlat universitetida davom ettirdi. U SamDUda mintaqaviy til o'rgatish markazi direktori, ingliz tili kafedrasini mudiri, xalqaro aloqalar markazi boshlig'i, xalqaro aloqalar bo'yicha prorektor kabi turli lavozimlarda ishladi.

Shu davrda Sh. Safarov universitetning xorijiy o'quv muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan aloqasi rivojiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, Milan politexnika universiteti, London (Buyuk Britaniya), Alborg (Daniya), Barseloniya (Ispaniya), Dublin (Irlandiya), Boloniya (Italiya) universitetlari bilan hamkorlikda va Yevropa Ittifoqi ta'lim komissiyasi homiyligida bajarilgan loyihalar katta miqdorda xorijiy investitsiyalar kiritishga sabab bo'ldi. Natijada, universitetning alohida bo'limlari zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanib, qaytadan jihozlandi.

Sh.Safarovning tashkilotchilik qobiliyatini kuzatgan rahbariyat 2005-yilda uni Samarqand davlat chet tillar instituti rektori lavozimiga tayinladi. 2005-2012-yillar davomida shu lavozimda ishlagan Sh.Safarovning tashabbuskorlik va ijodkor rahbarlik xislatlari to'liq namoyon bo'ldi. Uning bevosita tashabbusi bilan 21 ta yirik chet el ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlik

shartnomalari tuzildi; bir qator xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi, ilk bor roman-german tillari bo'yicha dissertatsiyalar himoyasiga mo'ljallangan ixtisoslik kengashi ish boshladi va ushbu dargoh mamlakatimiz yuksalishiga samarali hissa qo'shish imkoniyatiga ega yetuk kadrlar tayyorlash markaziga aylandi.




Professor Sh.Safarov chet tillar ta'limida uzluksizlikni ta'minlash, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarni, innovatsion metodlarni tatbiq qilishning tashabbuskori, targ'ibotchisidir. Uning bevosita tashabbusi bilan institutda 6 ta yangi yo'nalish (italyan, ispan, yapon, xitoy, arab tillari va tarjimashunoslik) joriy qilindi. Shuningdek, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan o'nlab lingvomadaniyat markazlari, kompyuter laboratoriyalari ta'lim va axborot manbasi xizmatini o'tab kelmoqda.

Institutda OAK ro'yxatiga kiritilgan "Xorijiy filologiya" jurnalining nashri yo'lga qo'yilgan. Xorijlik va mahalliy olimlar, izlanuvchilarning ilmiy ishlari muntazam chop qilinib kelinayotgan mazkur jurnal nufuzi va salohiyatining barqarorligini ta'minlashda uning ma'lum muharriri Sh.Safarovning xizmati alohida ahamiyatga egadir.

Sh.Safarovning mamlakatimizda tilshunoslik, shu jumladan, roman-german filologiyasi fani rivojiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash lozim. Uning rahbarligida 60 dan ortiq magistrlik, 38 ta fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va 10 ta filologiya fanlari doktori

dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan. Ayni paytda ham doktorlik ishlariga rahbarlik qilib, yosh mutaxassislariga ilmiy maslahat berish amaliyotini davom ettirib kelmoqda.



Hozirgi paytda “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası professori, Konfutsiy instituti direktori lavozimida ishlayotgan Sh.Safarov o‘zining kasbiy faoliyati bilan birgalikda bir nechta Ilmiy Kengash va ilmiy seminarlarda ham faoliyat olib bormoqda. U O‘zbekiston milliy universiteti qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli hamda Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.Fil/Tar 21.01 raqamli ilmiy kengashlar a‘zosi. Olim, shuningdek, Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengash a‘zosi hamda kengash qoshidagi 10.00.04-Yevropa, Amerika, Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti va 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha ilmiy seminar raisi.

Professor Sh.Safarov semantika, pragmalingvistika, kognitologiya, tarjimashunoslik kabi zamonaviy fan sohalari bo‘yicha ilmiy maktab yaratgan olimdir. U olib borgan ilmiy tadqiqotlar milliy tilshunosligimizning samarali taraqqiyotiga o‘ziga xos turtki berish bilan bir qatorda xorijlik mutaxassislar tomonidan e‘tirof etilgan. Olimning Tsukuba, Shanxay, Bamberg, Rim, Barselona, Kuban va boshqa xorijiy

universitetlarda o‘qigan ma‘ruzalari, tashkil qilgan seminarlari asosan ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid bo‘lib, ularda ajdodlarimizning boy ilmiy merosini targ‘ib qilish maqsadi asosiy o‘rinni egallaydi.

Sh.Safarovni chet ellik hamkasblari; turli soha mutaxassislari yaqindan biladi, uning ilmiy salohiyatini hurmat qiladi. U butunjahon kommunikativ tilshunoslik assotsiatsiyasi, Yevropa frazeologlar jamiyati, Koreya tilshunoslar uyushmasi, Xitoy tarjimashunoslik birlashmasi kabi qator xalqaro tashkilotlar a‘zosi, bir nechta xorijiy universitetlar faxriy professoridir. Olim Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda o‘tkazilayotgan konferensiyalarda muntazam ishtirok etib kelmoqda.



Sh.Safarov Yaponiyaning Tsukuba universitetida tashkil qilingan “Global Negotiation Program”, Barselona texnologiya universitetida o‘tkazilgan “Key issues in library management” hamda Sinszyan pedagogika universitetida olib borilgan “Shanxay hamkorlik tashkiloti a‘zo mamlakatlari ta‘lim tizimi rivoji” va boshqa ko‘plab xalqaro seminarlarda trener-ma‘ruzachi sifatida taklif qilinmoqda.

Sh.Safarov umumiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, nazariy grammatika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, german tillari, chog‘ishtirma tilshunoslik sohalari bo‘yicha yurtimizda yetakchi mutaxassislardan biridir. Olimning 300 dan ortiq ilmiy, o‘quv-uslubiy ishlari e‘lon

qilingan. Shulardan 10 ta monografiya, 2 ta darslik, 6 ta o'quv qo'llanma, 3 ta lug'at va 250 dan ortiq ilmiy maqola chop etilgan. Olimning 60 dan ortiq ilmiy ishlari xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Jumladan, uning bevosita ishtirokida tuzilgan "Xitoycha-o'zbekcha rasmi lug'at" 2017-yilda Pekin shahridagi The commercial Press nashriyoti tomonidan chop qilindi. Uning 1918-yilda Chelyabinsk madaniyat instituti nashriyotida chop qilingan "Лингвистика дискурса" nomli monografiyasi rossiyalik va boshqa xorijiy mutaxassislar tomonidan diskurs, nutqiy muloqot tizimi tahlili bo'yicha muhim ilmiy manba sifatida e'tirof etilgan.



Umuman, olimning turli nashriyotlarda nashrdan chiqarilgan "Принципы системно-семантического анализа синтаксических единиц" (1983), "Система речевого общения: универсальное и этноспецифическое" (1991), "Когнитив tilshunoslik" (2006), "Semantika" (2013), "Til nazariyasi va lingvometodologiya" (2015), "Pragmalingvistika" (2008), "Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari" (2019) kabi monografiyalari respublikamizda tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari shakllanishi va yangi tahlil metodlari ommaviylashishiga zamin yaratdi hamda olib borilayotgan tadqiqotlar samarasini ta'minlash, yosh izlanuvchilarga tilshunoslik fanining ilg'or yutuqlari bilan tanishishga imkon tug'dirdi. Bu borada ayniqsa Sh.Safarov tomonidan tuzilgan "Tilshunoslik terminlari lug'ati, A dictionary of linguistics (Toshkent:

Lesson press, 2023.- 354) lug'atining o'rni ta'kidlash kerak.

U xalqaro miqyosida o'tkazilgan "Международные стандарты в области прав человека", "Законодательство Республики Узбекистан и международно-правовые нормы в области защиты прав осужденных лиц, находящихся под стражей" kabi seminarlarda ma'ruzachi va trener sifatida ishtirok etgan.

Sh.Safarovning jamoatchilik faoliyati ko'p holatlarda uning xalqaro hamkorlik sohasidagi harakatlarida yorqin namoyon bo'ladi. U "O'zbekiston-Polsha do'stlik jamiyati" va "O'zbekiston-Xitoy do'stlik jamiyati" kabi tashkilotlar a'zosi sifatida yurtimizning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik munosabatlari mustahkamlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. Olim, shuningdek, 2014-yilda Samarqand davlat chet tillar instituti va Shanxay xalqaro tadqiqotlar universiteti hamkorligida tashkil qilingan Konfutsiy instituti direktori lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ushbu institut Sh.Safarov rahbarligida Xitoy Xalq Respublikasi hamda O'zbekiston respublikasi o'rtasidagi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi aloqalarni keng ko'lamda yo'lga qo'yish borasida faoliyat ko'rsatayotgan muassasalardan biriga aylandi. Samarqand Konfutsiy institutining nufuzi va madaniy-ma'rifiy markaz maqomidagi salohiyati xorijlik siyosatchilar, mutaxassislar tomonidan uzluksiz ta'kidlanmoqda.

Sh.Safarovning e'tibori ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar samaradorligini ko'tarish, uni yangi bosqichlarga olib chiqish bilan bir qatorda ilmiy faoliyatda fidokorlik ko'rsatishga qaratilgan. Olim o'zining samimiyati, kamtarona fe'l-atvori, mehnatsevarligi, yurtiga bo'lgan mehr-muhabbati bilan jamoatchilik, hamkasblari orasida hurmat-ehtiroq qozongan.



SAIFNAZAROV ISMOIL
Falsafa fanlari doktori, professor

Falsafa fanlari doktori, professor Ismoil Saifnazarov 1948 yil Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanida tavallud topgan, 1966 yilda Yangiyo‘l shahridagi 4-son A.Navoiy nomli o‘rta maktabni bitirgan, 1971 yilda Toshkent davlat universiteti falsafa va siyosiy iqtisod bo‘limini falsafa ixtisosligi bo‘yicha tugatib, Toshkent xalq xo‘jaligi instituti (hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti) “Falsafa” kafedrasida assistenti lavozimida o‘z mehnat faoliyatini boshlagan, keyinchalik turli boshqa rahbar lavozimlarda ish yuritganligiga qaramay, ushbu oliygoh bilan doimiy hamkorlik qilgan va hozirgi kunda ushbu dargoh, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasida professori sifatida faoliyat olib bormoqda.

I. Saifnazarov Toshkent xalq xo‘jaligi instituti “falsafa” kafedrasida assistenti, katta o‘qituvchi, dotsent, professor va kafedra mudiri (1990-1993; 1998-2010) institut yoshlar

qo‘mitasi kotibi (1976-1979), Xorijiy talabalar dekani (1979-1985), institut partiya qo‘mitasi kotibi (1985-1990), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi Respublika iqtisodiyot litseyi birinchi direktori (1993-1997), TDIU ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar bo‘yicha birinchi prorektori (1997-2001), TDIU Birlashgan kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi (2002-2005), Oliy Majlis Qonunchilik palatasi AKT masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari (2005-2008), Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari (2008-2012), AKT qo‘mitasi a‘zosi (2013-2014) lavozimlarida ishlagan.

2015 yil 12 yanvardan boshlab TDIU “Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasida professori lavozimida mehnat qilmoqda.

U ikki chaqiriq (2005-2009, 2010-2014) Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va O‘zbekiston “Adolat” SDP Siyosiy Kengashi raisi hamda partiya fraksiyasi rahbari (2008-2013) sifatida respublika miqyosida faol ijtimoiy –siyosiy faoliyat olib bordi.

I. Saifnazarov 1983 yili “Hartomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishda ishlab chiqarish kollektivlarining roli” mavzusida nomzodlik, 1992 yilda “Zamonaviy mehnat kollektivlarining ijtimoiy-axloqiy mohiyati” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan. 1985 yilda dotsentlik, 1994 yilda professorlik ilmiy unvonini olgan.



1997 yili AQSH Nyu Pals universiteti, 1998 yili Malayziyaning Sedaya kolleji va 2001 yil Janubiy Koreyaning Xose unversiteti hamda 2022 yili Shvetsiyaning Lund universitetida xalqaro loyihalarda ishtirok etgan va malaka oshirgan.

Professor I. Saifnazarov ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, ma’naviyat, oila va yoshlar, siyosiy madaniyat, jamiyat axborotlashuvi, siyosatshunoslik, sotsiologiya, menejment va fan metodologiyasi sohalarida ilmiy faoliyat olib boradi. U 300 dan ortiq monografiya, risola, ilmiy maqola, tezis, darslik, o‘quv qo‘llanma va o‘quv-uslubiy ishlanmalar muallifidir. Professor I. Saifnazarov muallifligi va rahbarligida: “Falsafa” (o‘zbek va rus tillarida iqtisodiy mutaxassisliklar uchun darslik, “Filosofiya” (rus tilida), “Ilmiy ijod metodologiyasi” (o‘zbek va rus tillarida), “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” va “Fanning falsafiy masalalari ” (o‘zbek va rus tillarida), “Menejment asoslari” (Litsey va kollejlarda uchun darslik, o‘zbek va rus tillarida), “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Dinshunoslik” kabi o‘quv qo‘llanmalari va oxirgi paytlarda “Yangi O‘zbekiston: inson qadri ulug‘langan yurt”(2023), “Pragmatizm – Yangi O‘zbekiston

taraqqiyotining falsafasi sifatida”(2024) nomli monografiyalari nashr etilgan.

Professor I. Saifnazarov keyingi yillarda ijtimoiy fanlarning amaliy jihatini oshirish ustida izchil ish olib borib, qator innovatsion o‘quv loyihalari ishlab chiqdilar va 7 ta mualliflik guvohnomasi oldilar, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. “Mening oilam – mening baxtim”. “Ma’naviyat asoslari va dinshunoslik” fanidan talabalarga mustaqil ta’lim bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. T.: -2017 yil. Mualliflik guvohnomasi № 000566, 2017 yil 18 sentyabr.

2. “Ustozim – hayotim chirog‘i”. “Falsafa” fanidan talabalarga

mustaqil ta’lim bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. T.: — 2017. Mualliflik guvohnomasi № 000567, 2017 yil 18 sentyabr.



3. “Mening mahallam – mening faxrim”. “Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” va “Falsafa” fanlaridan talabalarga mustaqil ta’lim bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. T.: — 2017. Mualliflik guvohnomasi № 000568, 2017 yil 18 sentyabr. Ushbu loyiha Oliy ta’lim vazirligi tomonidan barcha OTM lariga tadqiq etilgan.

4. “Mening hayot falsafam” mavzusida Falsafa fanidan mustaqil ish va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi hamda ular bo‘yicha ham talabalar qiziqarli taqdimotlar tayyorlab, ularni o‘quv auditoriyalarida namoyish etmoqdalar. Mualliflik guvohnomasi № 000945, 2018 yil 8 oktyabr. Ushbu mavzu bo‘yicha BIMM va TDIU qoshidagi mintaqaviy malaka oshirish

markazlarida ham pedagog-tinglovchilarning mustaqil ishlari tashkil etilib, qiziqarli, munozaralarga boy taqdimotlar o‘tkazilgan.



5. “Mahallamning faol tadbirkori va innovatsion tafakkur” mavzusida professor A.Muxtarov va dotsent D.Ernazarov bilan hamkorlikda Falsafa fanidan 2-kurs talabalarining oraliq nazoratini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi va uning asosida Toshkent shahrining 30 dan ortiq mahallalarida talabalarining taqdimotlari o‘tkazildi. T.: — 2018. Mualliflik guvohnomasi № 001129, 2018 yil 27 dekabr.



6. “Mahallamning olim va ziyoli kishilari” mavzusida TDIU magistratura talabalarining “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” fanidan oraliq nazoratini tashkil etish bo‘yicha o‘quv uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi va uning asosida talabalar izlanish olib bordilar va qiziqarli taqdimotlar tayyorladilar hamda ularni mahallalarda namoyish etdilar. Ushbu loyiha magistratura talabalarining mustaqil ilmiy izlanish olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, olimlar va ziyolilar hayoti, kasbiy hamda ilmiy faoliyati bilan yaqindan

tanishish orqali ularning ilm-fan, olimlar, ustozlar, ziyoli kishilar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, ularga bo‘lgan hurmat e‘tiborini oshirishga amaliy yordam ko‘rsatmoqda. T.: -2019. O‘zbek va rus tilidagi loyihalar uchun Mualliflik guvohnomalar № 002031, № 002030, 2020 yil 21 fevral.



Professor I.Saifnazarov 2018-2020 yillar P3- 20170929280 – “O‘zbekistonning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning tolerantlik dunyoqarashini shakllantirish” mavzusidagi 330 mln so‘mlik ilmiy-amaliy loyihaga rahbarlik qilgan. SCOPUS xalqaro ilmiy nashrlar tizimiga kiruvchi jurnallarda 7 ta dolzarb mavzularda ilmiy maqola nashr etgan, ularga 55 dan ortiq iqtiboslar berilgan, iqtiboslar soni muntazam oshib bormoqda. Scopus bazasida 4-xirsh indeksiga ega.



Professor I.Saifnazarov rahbarligida 3 fan doktori, 10 ta falsafa doktori(PhD)

tayyorlangan, hozirgi kunda uning ilmiy rahbarligida 3 ta doktorant va 5 ta mustaqil tadqiqotchilar ilmiy izlanish olib bormoqdalar.

Professor I.Saifnazarov jamoatchilik asosida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengash raisi, 2 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy jurnallari tahririyati a‘zosi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi “Ta‘lim, fan jamoatchilik kengashi” hamda “Filologiya va ijtimoiy fanlar ilmiy-texnik kengashi” raisi, Adolat Sotsial demokratik partiyasi Siyosiy kengashi a‘zosi, TDIU Faxriylar kengashi raisi, Xoja Axmad Yassaviy nomli xalqaro xayriya fondi boshqaruvi a‘zosi sifatida ham faol ishlar olib bormoqdalar.



Professor I.Saifnazarov 1-darajali “Mehnat faxriysi”, “O‘zbekiston Mustaqilligi 10, 20, 30 yilligi”, “O‘zbekiston Konstitutsiyasining 15, 20, 25 yilligi”, “O‘zbekiston Oliy ta‘limi a‘lochisi” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.



U muntazam gazeta, televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlarda ijtimoiy-siyosiy,

iqtisodiy-falsafiy masalalar bo‘yicha o‘zining mazmunli maqolalari, chiqishlari, suhbatlari va takliflari bilan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etmoqda, ayniqsa Prezident saylovlari, Yangilangan Konstitutsiyani qabul qilish jarayonlarida mustaqil ekspertlar hamjamiyati a‘zosi sifatida “Ijtimoiy davlat”, “Dunyoviy davlat”, “Ta‘lim sohasi, unda o‘qituvchi-ustozlar maqomini ko‘tarish”, “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish”, “Mahalla va oila institutlarini rivojlantirish” va boshqa masalalar yuzasidan o‘zining aniq taklif va mulohazalarini OAV larda bildirib bordi.



Hozirgi kunda professor I.Saifnazarov ijtimoiy fanlarni amaliyot, hayot bilan yaqinlashtirish yo‘llari, yoshlarning ma‘naviy immunitetini, tolerantlik dunyoqarashini shakllantirishning innovatsion usullarini yaratish, zamonaviy mustahkam oilani shakllantirish, mahalla institutining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish va ijtimoiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha izchil ilmiy tadqiqot ishlari olib borish, yangi yetuk ilmiy darajali kadrlar tayyorlash va shu ishlar orqali Yangi Uchinchi renessans ilmiy asoslarini rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

I.Saifnazarov taniqli olim, siyosat va jamoat arbobi, mahoratli pedagog, mehribon ustoz, mohir tashkilotchi, tashabbuskor va yuqori madaniyatli fidoiy inson sifatida na faqat universitetimizda, balki respublikamiz ziyolilari o‘rtasida ulkan hurmatga ega.



SALOHIDDINOV ABDULHAKIM TEMIRXO'JAYEVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Salohiddinov Abdulhakim Temirxo'jayevich — Suv resurslarini havzalar darajasida rejalashtirish va boshqarish strategiyasilarini ishlab chiqish, yer usti suvlari va yer osti suvlari resurslarining o'zaro aloqadorligi qonuniyatlari, atrof-muhitni muhofazasi va mintaqaviy barqaror taraqqiyot, ichimlik suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish, suv tejamkor sug'orish texnologiyalarini takomillashtirish, shuningdek oliy ta'lim va ilmiy faoliyatni boshqarish sohalarida nafaqat Respublikamizda balki yaqin va uzoq xorij mamlakatlarida ham taniqli olim.

250 dan ortiq ilmiy nashrlar muallifi, 20 ortiq xalqaro va milliy ilmiy loyihalarni rahbari, Respublikamizning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Suv xo'jaligi, Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyoti Dasturi, Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, YUNESCO, Xalqaro Suv

Resurslarini Boshqarish Instituti, Germaniyaning DAAD, Erasmus+ Horezone, Yaponiyaning SATREPS, AQShning USAID kabi tashkilotlarning loyihalar bo'yicha eksperti sifatida faoliyat ko'rsatadi. "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy Tadqiqot Universitetining Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori lavozimida ishlaydi.



Professor Salohiddinov A.T.
 Respublikamizning suv-ekologik resurslarini

o'rganish va barqaror boshqarish sohasida yetuk olimlaridan biri sifatida turli ilmiy va taraqqiyot yo'nalishidagi masalalar bo'yicha xalqaro tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi rasmiy davlat delegatsiyasi tarkibiga kiritilgan va O'zbekiston vakili sifatida muhokamalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Professor Saloxiddinov A.T. — Suv resurslarini barqaror boshqarish va ulardan samarali foydalanish, atrof muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash va ichimlik suv ta'minotining ilmiy-uslubiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha o'zining ilmiy maktabini yaratdi.

Mazkur yo'nalishlarda u quyidagi milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy grantlarning rahbari va mas'ul bajaruvchisi sifatida yuqori natijalarga erishgan:



- O'zgaruvchan antropogen bosim ostida yer osti suvlarining Orol dengizi balansiga qo'shayotgan hissasini baholash va bashorat qilish. Mintaqaning yer osti suvlari balansi va cho'llanishidagi o'zgarishlar monitoringi. Yer osti suvlari resurslarini barqaror boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish muammolari (2001-2003. Yevropa Ittifoqi, Inco-Copurnikus dasturi doirasida olingan ilmiy grant);

- Yer osti suvlari va Yer usi suvlari o'zaro ta'siri qonuniyatlari va ularning turli sharoitlardagi o'ziga xosliklarini e'tiborga olgan holda boshqarish muammolari. (2001-2003 Yevropa Ittifoqi, Intas dasturi doirasida olingan ilmiy grant);

- Noaniqliklar sharoitida suv resurslarini adaptive boshqarish bo'yicha yangi yondashuvlar (New approaches to adaptive water management under uncertainty — Amudarya case study)(2005-2009 Yevropa Ittifoqi V-doiraviy ilmiy dasturi doirasida olingan ilmiy grant);

- Suv resurslarini boshqarish barqarorligini ta'minlash muammolari(2010-2012 Evropa Ittifoqi V-doiraviy ilmiy dasturi doirasida olingan ilmiy grant);

- G'arbiy O'zbekiston sharoitida qishloq ichimlik suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish va loyihalash mezonlarini ishlab chiqish muammolari (2013-2017 O'zbekiston Davlat Fundamental Granti);

- Transchegaraviy Podshaota daryosi havzasining O'zbekiston suv tanqis hududida suvni tejash texnologiyalarini takomillashtirish (2018 Yaponiya, JICA tashkiloti dasturi doirasida olingan ilmiy grant);



- Markaziy Osiyoda umumiy bo'lgan suv resurslarini boshqarishda institutsional transformatsiyani rivojlantirish masalalari (2013-2016 Germaniyaning Volkswagen jamg'armasi tanlovida olingan grant);

- O'zbekiston sharoitida iqlim o'zgarishining suv resurslari salohiyatiga ta'siri va moslashish choralari ishlab chiqish muammolari (2018-2020 O'zbekiston Davlat amaliy granti);

- Qishloq aholi puntlarida suv ta'minoti sxemalarini va sanitariya xizmatlarini rivojlantirish usullarini takomillashtirish (2020 UNICEF and CAREC Instituti granti);

- "SDGnexus tarmoq" qo'shma loyihasi (Germaniya DAAD tashkiloti EXCEED dasturi doirasida olingan xalqaro grant);

- FZ-20200930448 "Alohida hududlarda qulay iqlimli zonalar yaratishning nazariy asoslari va hisoblash mexanizmlarini ishlab chiqish" (2022-2024 Davlat fundamental granti) va boshqalar.



Professor Salohiddinov A.T.

rahbarligida yaratilgan va takomillashtirilgan qishloq aholi punktlarida ichimlik suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish va suv tejamkor sug'orishning takomillashtirilgan texnologiyalari hamda soha faoliyati va tabiiy omillarning, jumladan iqlim o'zgarishi ta'sirlarini baholash va ularga moslashish usullari ishlab chiqarish va o'quv jarayonlarida keng joriy qilingan.

Professor A.T. Salohiddinovning ilmiy salohiyati xalqaro miqyosda ham yuqori baholangan. U nufuzli xalqaro tashkilotlar va "Yer osti suvlari va Yer usti suvlarining o'zaro ta'siri muammolari" bo'yicha xalqaro qo'shma ilmiy komissiyasining (Joint Commission on Groundwater — Seawater Interactions; International Association for the Physical Sciences of the Oceans — International Association of Hydrologic Sciences (IAPSO-IAHS)) a'zo davlatlari olimlari tomonidan mazkur qo'shma ilmiy komissiyaning Markaziy Osiyo bo'limiga rahbar sifatida saylangan, uni 5 yil (2003-2008 yillar) davomida boshqargan. AQShning Washington shtati universiteti hamda Kolorado shtati universiteti faxriy professori etib saylangan.

Hayoti va ilmiy faoliyati sanalari:

- 1984-1985 yillar – TIQXMIIda kichik ilmiy xodim;

- 1986-1988 yillar — TIQXMIda aspirant. Tadqiqotlar natijasida qishloq aholi punktlari va yaylovlar suv ta'minoti sxemasi Markaziy Qizilqum sharoitlari asosida yaratgan. 1988 yilda muddatidan oldin texnika fanlari nomzodligi dissertatsiyasini himoya qilgan;



- 1989-1995 yillar – TIQXMII "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va qishloq suv ta'minoti kafedrasida assistent. Suv resurslarini boshqarish, Ichimlik suv ta'minoti, Ekologiya fanlari bo'yicha talabalarga saboq berish bilan birga mazkur yo'nalishdagi muammolarning ilmiy yechimi ustida tadqiqotlar olib borgan;



- 1995-1999 yillar – TIQXMII "Ekologiya va suv resurslari" kafedrasida dotsent. Suv resurslarini boshqarish, Ichimlik suv ta'minoti, Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash fanlari bo'yicha talabalarga saboq berish bilan birga mazkur yo'nalishdagi muammolarning ilmiy yechimi ustida tadqiqotlar olib borgan.

Texnika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi a‘lochisi, professor Salohiddinov Abdulhakim Temirxo‘jayevich 1961 yil 20-martda Namangan viloyatining Kosonsoy shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan.

1983-yilda Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Injenerlari Instituti — TIQXMII (“Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti” Milliy Tadqiqot Universiteti) ning Hidromelioratsiya fakultetini tamomlab muhandis-gidrotexnik mutaxassisligini olgan.

1999-2003 yillar – TIQXMII “Ekologiya va suv resurslarini boshqarish” kafedrasini boshqarish” kafedrasini mudiri. Atrof-muhit muhandisligi va suv resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va boshqarish fanlari yo‘nalishlarida o‘quv va ilmiy faoliyatlarni tashkil etgan va boshqargan.

2003-2004-yillar TIQXMII “Tabiiy resurslarni boshqarish” fakulteti dekani. Atrof-muhit muhandisligi va suv resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va boshqarish fanlari yo‘nalishlarida o‘quv va ilmiy faoliyatlarni tashkil etgan va boshqargan.



2004-2011 yillar –Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektoti. Institut miqyosida barcha yo‘nalishlarda olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va talabalarning ilmiy faoliyatlarini tashkil etgan, tasdiqlagan va muvofiqlashtirgan.

2011-2018 yillar –Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti “Ekologiya va suv

resurslarini boshqarish” kafedrasini mudiri. Kafedra miqyosida atrof-muhit muhandisligi va suv resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va boshqarish fanlari yo‘nalishlarida o‘quv va ilmiy faoliyatlarni milliy va xalqaro talablar darajasida tashkil etgan va boshqargan. 2012 yilda professor ilmiy unvonini olgan.

2019 yildan Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti va 2021 yildan boshlab (“Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo‘jaligini Mexanizatsiyalash Muhandislari Instituti” Milliy Tadqiqot Universitetining Xalqaro hamkorlik prorektori. Universitet miqyosida xalqaro hamkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Universitet ilmiy kengashiga hisobot bergan. 2005 yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, texnika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo‘lgan.



2018 yildan boshlab universitet va YUNESCO Bosh qarorgohing qo‘shma qarori asosida universitet qoshida tashkil etilgan YUNESKOning “Suv diplomatiyasi, suv resurslarini boshqarish va atrof muhit muhofazasi” kafedrasini uning qo‘shma qaror bilan saylangan mudiri sifatida boshqarib kelmoqda. Respublikaning “Suv va suvdan foydalanish” to‘g‘risidagi qonuni, 2030 yilgacha bo‘lgan davrda suv xo‘jaligini rivojlantirish Konsepsiyasi hamda Suv Kodeksi loyihasini ishlab chiqqan olimlardan biri hisoblanadi.

Professor Salohiddinov A.T. Oliy Attestatsiya Komissiyasi ro‘yxatiga kiritilgan “Irrigatsiya va Melioratsiya” jurnalining ilmiy muharriri, yana 1 ta Respublika va 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarning tahririyati a‘zosi hisoblanadi. Professor Salohiddinov A.T. vaziyatni obyektiv baholash va qaror qabul qilishda mas’uliyatni o‘ziga olish qobiliyatiga ega.



Printsiplial, bosiq va mehribon inson sifatida jamoa va talabalar o‘rtasida obro‘ga egadir. Ko‘p yillik samarali mehnati, iste’dodi, kasbiy mahorati, ilmiy-ijodiy mahorati soha mutaxassislari va keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etilgan. Xalqaro va respublika miqyosidagi yutuqlari, faoliyatidagi ibratli tajribalari, tashabbuskorligi va izlanuvchanligi bilan nom qozongan.

Professor A.Salohiddinov "mustaqillikning 20 yilligi" va "mustaqillikning 25 yilligi" ko‘krak nishonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirliklarining, shuningdek xalqaro tashkilotlarning faxriy diplomlari bilan taqdirlangan.

Professor Salohiddinov A.T. rahbarligida 3 nafar fan doktori va 5 nafar falsafa doktorlari hamda talabalar orasidan 4 nafar Prezident davlat stipendiyasi sovrindorlari tayyorlangan.

Professor A.T. Salohiddinovning ilmiy faoliyati geografiyasi AQSh, Germaniya,

Belgiya, Vengriya, Shveysariya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va boshqa mamlakatlarni qamrab oladi. Xususan, AQSh va Germaniyada ham shogirdlar chiqargan. Umumiy mehnat faoliyati davomiyligi 45 yil. Faoliyati davomida ixtisoslashgan kengashlarning raisi va a‘zosi sifatida salmoqli faoliyat yuritib kelmoqda. Oliy ta‘lim va ilmiy faoliyat sohasidagi islohotlarda faol ishtirok etadi. Uning tashabbusi va bevosita ishtirokida universitetda 3 ta bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va 3 ta magistratura mutaxassisliklari ochilgan. O‘zbek tili bilan birga rus va ingliz tillarini mukammal biladi.



Professor Salohiddinov A.T. nafaqat O‘zbekiston Respublikasi, balki ko‘plab xorijiy mamlakatlarda ham taniqli, o‘z sohasining dunyo miqyosidagi yetakchi olimlaridan va ilm-fan rivoji tashkilotchilaridan biri hisoblanadi. Olim mamlakatimiz va jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shishda davom ettirib, suv ilm-fani, oliy ta‘lim va ilmiy faoliyat rivojiga yangicha yondashuvlar asosida, suv resurslarini rejalashtirish/boshqarish strategiyasi/siyosati, atrof-muhitni muhofaza qilish va mintaqaviy barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotlar va innovatsiyalarga e’tibor qaratmoqda.

Professor Salohiddinov A.T. oilali, uning 3 farzandi va 5 nabirasi bor. Farzardlarning biri bugungi kunda kardiojarroh olim, biri muhandis ekolog va yan bir muhandis dasturchi sifatida jamiyat taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilmoqdalar.



SALOMOV O'KTAM RAXIMOVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Salomov O'ktam Raximovich 1977-yilning 20-iyun kuni Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ziyolilar oilasida tug'ilgan. 1994-yilda maktabni muvaffaqiyatli bitirgan.



Yoshligidan ilmga bo'lgan chanqoqlik uni Toshkent sari yetaklagan. Toshkent Davlat universitetiga o'qishga kirib, fizika mutaxassisligini egallash bilan birga, universitet yoshlar tashkilotini boshqargan. Talabalik yillarida, 1994-1999- yillarda u ustozlari rahbarligida fizika fanining sir-asrorlarini chuqur o'rgangan va 1999-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Issiqlik fizikasi bo'limi aspiranturasiga qabul qilingan. 2003-2004 yillarda esa ilmiy izlanishlarini Fransiya davlatining Pyer va Mariya Kyuri

nomidagi 6-Pariz universiteti aspiranturasida davom ettirgan. 2004-yilda shu yerda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



2004-2008 yillarda yosh olim O'.R.Salomov O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Issiqlik fizikasi bo'limida kichik ilmiy xodim lavozimida faoliyat ko'rsatgan hamda 2008-2010 yillarda shu yerda u doktoranturani o'tagan. Doktoranturadan so'ng u 2010-2011 yillarda Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida yangi loyihalar bo'yicha muhandis lavozimida ishlagan.

Ilmiy izlanishlarga bo'lgan ishtiyoq uni 2011-yilda Italiyaning Turin politexnika universiteti doktoranturasiga yetaklagan va

2014- yilda ilmiy izlanishlarini muvaffaqiyatli yakunlab doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va unga doktorlik ilmiy darajasi berilgan.

2014-yilda u Toshkentga qaytib, o'zi uchun qadrdon bo'lib qolgan Turin politexnika universitetida dastlab yangi loyihalar bo'yicha muhandis, so'ngra kafedra dotsenti, o'quv ishlari bo'limi boshlig'i lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan.



O'.R.Salomovdagi ilmiy salohiyat, rahbarlarga xos qat'iyat va ustozlarga xos fazilatlarini sezgan hukumatimiz rahbarlari uni 2016-yilda Andijon mashinasozlik instituti rektori lavozimiga tayinlashgan. Institut rektori sifatida o'quv-tarbiya ishlarining zamon talablari darajasida takomillashuviga erishdi. Bu dargohda u 2019 yilgacha yoshlarga bilim berish, ilmiy salohiyatni ko'tarish va xalqaro aloqalarni rivojlantirish yo'lida samarali mehnat qilgan.



2019-2020-yillarda u Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rektori lavozimida faoliyat yuritgan. U rektor bo'lgan yillari universitetda ta'lim sifati yanada ko'tarildi. Ko'plab xorijiy hamkorliklar amalga oshirildi. Mazkur hamkorliklar natijasida

universitet talabalari va bitiruvchilari ko'plab xorijiy kompaniyalarining turli dasturlari va bo'sh ish o'rinlariga ishga joylashishlari uchun imkoniyat yaratildi.



2020-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari lavozimlarida ishlagan.

2021-yilning 14-yanvar kundan boshlab u Farg'ona politexnika instituti rektori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



O'.Salomov institutda rektorlik faoliyatiga kirishish chog'idan boshlab, muhandis kadrlarga sifatli ta'lim berish, talabalarni amaliyotga bog'lash, ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini yo'lga qo'yish va shu kabi ko'plab ishlarni amalga oshirishga kirishdi. Uning mehnatlari samarasi natijasida institutda ilmiy va innovatsion ishlab chiqarish hamda turli sohalarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan jami 19 ta markaz ya'ni kafedralar birlashtirib o'zining yo'nalishida ilmiy markazlar tashkil qilindi. Til o'rgatish, tayyorlov va malaka oshirish markazi, o'quv-ishlab chiqarish kompleksi, bino va inshootlarni loyihalashtirish markazi, media-markaz, qurilish materiallari akkreditatsiya markazi, AKT inkubatsiya markazi shular

jumlasidan. Yana bir e'tiborli jihati, ushbu markazlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida xorijiy tajribani qo'llagan holda 14 ta "Spin-off" korxonasi ochildi.

Hozirgi kunda ushbu markaz va spin-off korxonalari tashkil qilinganligiga 3 yil bo'lyapti. Mazkur tizimda bevosita ishtirok etgan talabalar hozirda o'zlari korxonalar ochib, ishchi o'rin yaratishyapti. Mana shu mexanizm orqali talabalarimiz nafaqat yaxshi mutaxassis balki ishchi o'rin yarata oladigan innovatsion tadbirkor bo'lib yetishmoqda, bu esa institut rektori O'ktam Salomovning mehnatlari samarasidir.



Shuningdek, institut 2022- yili natijalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari o'rtasida hisoblangan milliy reyting yakuniy ko'rsatkichlariga ko'ra 98 ta OTMLari ichida Top-5 talikdan o'rin egalladi. 2021- yil yakunlariga ko'ra ushbu reytingda institut 34- o'rinni egallagan edi, bu gal esa 29 o'rin yuqori pog'onaga ko'tarildi. Bu esa tarixiy natijadir. Institutimiz nafaqat milliy reytingda balki, xalqaro maydonda ham o'z o'rniga ega bo'lib, yuksak e'tiroflarga sazovor bo'lmoqda.



Dunyoda eng nufuzli hisoblangan QS tashkiloti Jahon universitetlari reytingi World University Rankings 2024 ni e'lon qilindi. Unda Osiyo mintaqasi bo'yicha ham universitetlar reytingi natijalari qayd etilgan bo'lib, oliygohimiz ushbu reytingning barcha maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha Top-1000 talikdan joy oldi hamda 801+ o'rinda e'tirof etildi. Bu ko'rsatkich bilan institutimiz O'rta Osiya oliygohlari ichida 51 o'rinni egalladi. Ta'kidlash joizki, yurtimizdagi 14 ta oliy ta'lim muassasasi ushbu reytingda ilk bor joy oldi va ular orasida institutimiz ham borligi barchamizga faxr va iftixor tuyg'usini bag'ishladi. Shuningdek, 2023-yilgi Times Higher Education reyting agentligi Impact reytingi bo'yicha barcha maqsadli ko'rsatkichlari bo'yicha ham institutimiz e'tirof etildi.



Bundan tashqari institut oxirgi 3 yilda 110 dan ko'p xorijiy oliy ta'lim muassasasi va 20 ta xalqaro tashkilot bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yildi, 3 ta universitet bilan qo'shma ta'lim dasturlari joriy etilgan. Ayni chog'da, AQSH, Italiya, Fransiya, Germaniya, Koreya, Yaponiya, Rossiya, Latviya, Portugaliya, Misr Arab Respublikasi, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning yetakchi professor-o'qituvchilari, soha mutaxassislarini institutimizdagi ta'lim jarayoniga jalb etildi. Hozir ular talabalarga ilg'or yondashuvlar asosida saboq bermoqda. O'z navbatida, yigit-qizlarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida turli ilmiy va sport to'garaklari, ma'naviy-ma'rifiy klublar faoliyatini yo'lga qo'yganmiz. Xalqaro tanlovlar va bellashuvlarda ishtirok etuvchi jamoalar ham

shakllantirilgan. Bir so‘z bilan aytganda, O‘ktam Salomovning say‘i harakatlari tufayli institutda muhandislik sir-asrorlarini o‘rgatuvchi zamonaviy eko tizim yaratildi.



Haqiqiy olim izlanishdan hech qachon to‘xtamaydi, bedor tafakkuridan bunyod bo‘lgan hayotbaxsh g‘oyalarni taqdim etish, o‘zi tanlagan fan yo‘nalishida yangiliklar yaratish uchun harakat qilaveradi.



Ustoz O‘ktam Rahimovichning ilmiy ishlari natijalarining ko‘lami va salmog‘i haqida fikr yuritish uchun ularning ro‘yxatini bir nazardan o‘tkazishning o‘ziyoq kifoya qiladi. Zero, monografiyalar, kitoblar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ishlanmalar, Respublika va xalqaro ilmiy anjuman materiallarida nashr qilingan ishlar, Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy ommabop jurnallar va ilmiy to‘plamlarda nashr qilingan ishlar, dasturiy mahsulotlar muallifligi guvohnomalari, ustoz tahriri va taqrizi ostida nashr etilgan ishlar, ilmiy rahbarlik va opponentlik faoliyati mahsullari ustozning pedagog olim sifatida asrga tatigulik mehnat

qilganligi va shunga yarasha ulkan natijalarga erishganligidan guvohlik beradi.

O‘.Salomov tomonidan jami 33 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shundan 3 ta darslik, 2 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 8 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 50 dan ortiq ilmiy maqola (25 dan ortig‘i nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda) chop ettirilgan hamda 8 ta guvohnoma va patentlar olingan.



Oxirgi ikki yildagi ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 6 ta davlat ilmiy-amaliy-innovatsion loyihalarining ishtirokchisi bo‘lgan, 10 dan ortiq xorijiy davlatlarda stajirovka o‘tagan. Jumladan, Rossiya, AQSH, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Belarusiya va boshqa davlatlar. O‘.Salomov rahbarligida 2 nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun muvaffaqiyatli dissertatsiya himoya qilgan.



O‘ktam Salomov dunyo miqyosdagi yirik olim, iqtidorli fan tashkilotchisi, kamtarin va pok inson, o‘z ishining fidoyisi, institut jamoasining yuksak hurmatiga sazovor bo‘lgan talabchan va mehribon rahbardir.



SAMAROV RUSTAMJON SADRIDDINOVICH

Psixologiya fanlari nomzodi, falsafa fanlari doktori, professor, polkovnik

Rustamjon Sadriddinovich Samarov 1970 yil 9-may kuni Samarqand viloyati, Samarqand tumani “Kulbayipoyon” mahallasida shifokorlar oilasida dunyoga keldi. U 1977 yil Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi 39-sonli umumta’lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan va shu maktabni 1987 yilda a’lo baholarga bitirgan. 1993 yili Samarqand Davlat universitetini imtiyozli diplom bilan tugatgan.



Professor R.Samarovning 3 nafar farzandi (2 o‘g‘il va 1 qiz) hamda 6 nafar

nabirasi (Sardor, Baxtiyor, Sitora, Manijabonu, Diyora va Mehranbonu) bor.

Rustamjon Sadriddinovich Samarov 1997 yilning 1-iyunida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti huzuridagi ixtisoslashtirilgan kengashda 19.00.05 — «Ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya» ixtisosligi bo‘yicha psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan.

U 2005 yilda O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oliy maktabini «Siyosatshunoslik: tizimli tahlil va istiqbolni belgilash» mutaxassisligi bo‘yicha bitirib, siyosiy fanlar magistri darajasiga ega bo‘lgan.

2005 yilning 9-dekabrida O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Ixtisoslashgan kengashda 09.00.11 — «Ijtimoiy falsafa» ixtisosligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining qarori bilan unga 2009 yili dotsent, 2019 yili professor ilmiy unvoni berilgan.

Rustamjon Sadriiddinovich 2022 yili “Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi” esdalik nishoni, 2021 O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining I darajali “Namunali xizmatlari uchun”, 2021-yil “O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligining 30 yilligi” esdalik nishoni, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2021-yil 27-sentyabrdagi 777-sonli buyrug‘iga asosan “Malakali ustoz” ko‘krak nishoni, 2021-yili “Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoni, 2022-yili “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi” esdalik nishoni bilan taqdirlangan.



Ustoz Rustamjon Sadriiddinovichning 2024-yilgacha hisoblaganda 28 yillik umumiy ilmiy-mehnat faoliyatiga ega.

O‘z mehnat faoliyatini Samarqand tumanidagi 33-sonli o‘rta maktabda o‘qituvchi sifatida boshlab, keyinchalik Samarqand davlat universitetining Umumiy psixologiya kafedrasida katta laborant, stajyor tadqiqotchi bo‘lib ishlagan. Oliy taʼlim muasasalaridagi pedagogik faoliyatini Samarqand davlat tibbiyot institutida boshlab, 1998-1999 yillarda Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutining «Falsafa va sotsiologiya» kafedrasida katta o‘qituvchi, dotsent vazifasini bajaruvchi, 2000 yildan Samarqand oliy harbiy qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtining Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida haqiqiy harbiy xizmatni “katta leytenant” harbiy unvonida davom ettirgan. 2001-2003 yillarda

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining Kasbiy psixologik tanlash markazining psixologik kuzatuv bo‘limi boshlig‘i, 2003-2005 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash Oliy maktabining tinglovchisi, 2005-2011 yillarda ushbu maktabning o‘qituvchisi, 2012-2013 yillarda Toshkent islom universiteti “Falsafiy fanlar va psixologiya” kafedrasining professori, o‘rindoshlik asosida “Ishonch” psixologik markazining psixologi, 2013-2014 yillarda Toshkent avtomobil yo‘llar instituti “Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasining mudiri, 2014 yilda Toshkent davlat texnika universiteti “Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasining professori, 2018 yilning noyabridan 2019 yilning fevraligacha Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha prorektor, 2019 yildan 2022 yilgacha O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig‘ining Ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimlarda faoliyat yurutgan o‘zbek olimi edilar. 2022 yilning noyabr oyida Qurolli Kuchlar safidan istefoga chiqarilgan, zaxiradagi polkovnik.

Professor Rustamjon Samarov istefoga chiqandan so‘ng 2022 yilning dekabridan IIV Jamoat xavfsizli masalalarini o‘rganish ilmiy-amaliy markaz yetakchi ilmiy xodimi sifatida ishlab keldi.

E‘lon qilgan ilmiy maqolalarning umumiy soni 140 ta (shu jumladan 20 tasi respublika va xalqaro konferensiyalar materiallarining to‘plamida e‘lon qilgan). 5 ta monografiya, 1 ta darslik, 1 ta harbiy atamalar lug‘ati va 9 xorijiy jurnallardagi maqolalar muallifi edi.

Professor R.Samarov nafaqat falsafa va psixologiya fanlaridan balkim politologiya, sotsiologiya va tarix fanlaridan yetuk mutaxassis edi. Olim vatanparvar va fidoyi ustoz, murabbiy sifatida o‘qishning ilg‘or texnologiyalarini zamon ruhi bilan uyg‘un

bog‘lagan holda, talabalar, kursantlar va magistratura tinglovchilariga saboq berib kelgan. Uning shu vaqtgacha 20 dan ortiq shogirdlar tayyorlagan bo‘lib, ular orasidan harbiy psixologiya, harbiy sotsiologiya, falsafa va siyosatshunoslik fanlaridan fan nomzodlari, falsafa doktorlar (PhD) yetishib chiqdi.



Fan nomzodi va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun sotsiologiya (S.Ahrorov), psixologiya (D.Abdumajidova, F.Boqiyev, V.Ahrorov, A.Urinov), falsafa (D.Raxmanov, Amirxòjayev Shukurjon Qurbanoviz, Xaydarov Raxmatullo Ergashyevich), siyosatshunoslik (K.Haydarov) fanlaridan tayyorlangan dissertasiya ishlariga ilmiy rahbarlik qildi.



U turli tashkilotlarda ishlash bilan bir qatorda psixologik maslahat va psixologik yordam ko‘rsatish bilan ya‘ni bolalarni

qobiliyatini erta aniqlash va ularni hayotga moslashtirish, oila masalalarida o‘z maslahatlarini berib kelgan. Uzoq yillar davomida Ilmiy kengashlarda a‘zo, ilmiy loyihalar muallifi, xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilgan konferensiyalar tashkilotchisi sifatida ham faoliyat olib bordi.

Iqtidorli olim respublikamizda ta‘lim sohasidagi islohotlar mazmuni bo‘yicha ommaviy axborot vositalarida chiqishlar, davlat tashkilotlaridagi ma‘rifiy o‘qishlarda ma‘ruzalar qilib turgan. R.Samarov Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi targ‘ibotchisi sifatida turli davlat tadbirlarida faol qatnashib, Respublika bo‘ylab seminar-treninglar o‘tkazish bilan bir qatorda “Harbiylik kasbiga muhabbat”, “Vatanga sadoqat” kabi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, keng ko‘lamli bunyodkorlik islohotlarini targ‘ib etishda amalga oshirilgan ishlarda tashabbuskorlik ko‘rsatgan.



R.Samarov o‘z kasbiy hamda jamoatchilik faoliyati bilan birgalikda ilmiy salohiyatini ham namoyon qilib kelgan. Jumladan, “Jamiyat va qurolli kuchlar feminizatsiyalashuvi” (monografiya, 2005 yil), “Siyosiy matn tahlili” (monografiya, 2010 yil), “Xavfsizlikning metodologik asoslari” (monografiya, 2010 yil, “Tizimli tahlil: nazariyasi va amaliyot masalalari” (monografiya, 2017 yil), “Jangovar o‘rtoqlik psixologiyasi” (metodik qo‘llanma, 2020 yil),

“Harbiy atamalarning izohli lug‘ati” (2020 yil), “Zamonaviy urush va qurolli to‘qnashuvlar tendentsiyasi: harbiy san‘atning rivojlanish kontekstida (metodologik yondashuv)” (monografiya, 2021 yil), “Axborot xavfsizligi psixologiyasi” (darslik, 2022 yil), “Sohibquron Amir Temur harbiy san‘ati” (2022 yil), “O‘zbekiston tarixi (O‘zbekiston harbiy san‘ati tarixi)” (VII jild, 2023 yil) ilmiy izlanishlari mahsuli sifatida kursant va tinglovchilar foydalanib kelmoqda.



R.Samarov ilm-fanga qo‘shgan hissasi harbiy psixologiya, siyosatshunoslik, falsafa sohalarida qilgan ilmiy izlanishlari, yozgan ilmiy maqolalari, qo‘llanma va monografiyalarida o‘z aksini topgan. Jonkuyar ota, ziyoli inson sifatida 3 nafar farzandlarini oliy ma‘lumotli psixolog bo‘lib yetishib chiqartirdi. Xususan, o‘g‘li Sadriddinov Suxrob Rustamjonovich psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, o‘g‘li Sadriddinov Sayrob Rustamjonovich va qizi

Sadriddinova Dilnura Rustamjonzodalar psixologiya magistri bo‘lib etishdilar.

Professor, zaxiradagi polkovnik Rustamjon Sadriddinovich Samarov 54 yillik qissqa umri davomida o‘zidan judda yaxshi nom qoldirgan olim, oilaparvar, mehribon ota, bobojon va fidoyi ustoz-murabbiy sifatida har bir kishining qalbida qolgan o‘zbek o‘g‘loni edi. Farzandi Suxrob Rustamjonovich, dadajoni haqida eslar ekan, “ularning hayot yo‘llari men uchun katta saboq maktabidir, men undan ko‘p narsani o‘rgandim, dadajonim menga har doim aytardilar: “Oila muqaddas, “Men bormanmi yo‘qmanmi har doim extiyot bo‘l”” deb ta‘kidlar edilar, mana bugun dadajonimsiz hayotimning 35-kuni o‘tish arafasida, men esa “.... extiyot” bo‘lyapman.....” deydi.



Ustozning oxiratlari obod, joylari Firdavs bog‘laridan bo‘lsin!



SODIQOV QOSIMJON POZILOVICH

**O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
filologiya fanlari doktori, professor**

Qosimjon Sodikov «O'zbekiston mustaqilligiga 20 yil», «O'zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil» ko'krak nishonlari bilan taqdirlangan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 sentyabr Farmoniga binoan Sodikov Qosimjon Pozilovichga «O'zbekiston Respublikasida xizmat

ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvoni berildi.

2023 yilning 1 dekabrda Turkiya Respublikasi Turk til qurumining faxrlı a'zolari qatoriga kiritildi.

Hozirda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida professor lavozimida ishlamoqda.

Sodikov Qosimjon Pozilovich 1954 yili Toshkentda tug'ilgan.

Toshkentdagi 155-o'rta maktabda o'q'igan.

Toshkent davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetining bitiruvchisi (1980).

1979–1982 yy. Toshkent shahridagi 204- o'rta maktabda ona tili va adabiyoti o'qituvchisi bo'lib ishladi.

1983–1998 yy. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar institutida kichik

ilmiy xodim, ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, doktorant, bo‘lim boshlig‘i. Shu bilan birga, 1987–1993 yillarda Toshkent davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetida, 1993–1998 yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida o‘rindosh sifatida dars berdi.



1999 yildan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (hozirgi universiteti)ga to‘liq ishga o‘tdi. Bu yerda Turkiyot kafedrasini professori, 200 yildan kafedra mudiri, 2008 yildan Mumtoz filologiya kafedrasini mudiri, 2020 yildan beri Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasining professori lavozimida ishlamoqda.

Q. Sodiqov 1987 yili filologiya fanlari doktori G‘ubaydulla Aydarov ilmiy rahbarligida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili va adabiyoti instituti qoshidagi ixtisoslashgan kengashda «Qutadg‘u bilig»ning til xususiyatlari (uyg‘ur yozuvli nusxa asosida)» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.



1992 yili Toshkent davlat universiteti qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda «XI–

XV asrlar uyg‘ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

1999 yili 10.02.06 – Turkiy tillar ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvonini oldi.

Ilmiy yo‘nalishi – qadimgi va eski turkiy tillar; o‘zbek yozma adabiy tili tarixi; qadimgi turkiy yozuvlar; matnshunoslik va adabiy manbashunoslik.

Olim 400 dan ortiq ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, katta-kichik jami 47 ta kitob: bular monografiyalar, darsliklar va oquv qo‘llanmalar hamda ilmiy-ommabop risolalar; 350 dan ortiq maqolalar chop ettirdi.

Q. Sodiqov matnshunos-manbashunos sifatida Mahmud Koshg‘ariyning «Devonulug‘ati-t-turk», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Alisher Navoiyning «Muhokamatu-l-lug‘atayn» asarlarini, ko‘k turk (turkiy run) yozuvidagi toshbitig‘larning bir guruhini, uyg‘ur yozuvida bitilgan yorliqlar, maktublar va vasiqalarning ilmiy nashrlarini yaratdi. Turkiy tillar, o‘zbek yozma adabiy tili tarixi, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik, eski turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari, qadimgi turkiy adabiyotga bag‘ishlangan monografiyalar, darslik va oquv qo‘llanmalar chop ettirdi.

Q. Sodiqovning kitoblari «O‘zbekiston» nashriyoti, «Fan» nashriyoti, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti / G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, «Akademnashr», «Ma‘naviyat» nashriyoti, «Yozuvchi» nashriyoti, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining nashriyoti, «Innovatsiya-Ziyo» nashriyotlarida chop etilgan.

Q. Sodiqovning kitoblari Turkiyada ham chop etilgan. Uning «Uyg‘ur yozuvida bitilgan eski turkiy vasiqalar» deb atalgan monografiyasi 2021 yili Anqaradagi «Akçag‘

nashriyotida chop etildi. Yana o'sha yili Q. Sodiqov nashrga tayyorlagan Mahmud Koshg'ariyning «Turkiy so'zlar devoni [Dīvānu Luġāti-t-türk]» kitobi Istanbuldagi «Akademik Kitaplar» nashriyotida Xalqaro Turkiy Kengash otalig'ida chop etildi.



Olimning ilmiy maqolalari, o'zbek tilidan tashqari, chet ellardagi universitetlarning jurnal va ilmiy to'plamlarida rus, turk, ingliz, yapon, uyg'ur tillarida ham chop etilgan.

Q. Sodiqovning «Uyg'ur yozuvi tarixi (manbashunoslik va kitobat tarixi masalalari)» (Toshkent, 1997); «Ko'k turk bitig'lari: matn va uning tarixiy talqini» (Toshkent, 2004); «Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi» (Toshkent, 2006); «Qutadg'u bilig »ning uyg'ur yozuvli Hirot nusxasi» (Toshkent, 2010); «Oltin Orda va temuriylar davrida yaratilgan turkiy yorliqlar: tarixiy-filologik talqin» (Toshkent, 2013); «Eski turkiy hujjatlar: matn interpretatsiyasi va stilistikasi» (Toshkent, 2015); «Ilk va o'rta asrlarda yaratilgan turkiy hujjatlar» (Toshkent, 2016); «Ilk va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan etno-lingvistik jarayonlar» (Toshkent, 2018); «Eski o'zbek yozma adabiy tili» (Toshkent, 2020); «Uyg'ur yozuvida bitilgan eski turkiy vasiqalar» (Anqara, 2021) singari monografiyalari;

«Turkiy til tarixi» (Toshkent, 2009); «Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari» (Toshkent, 2017); «Qadimgi turkiy xalqlarning diniy-falsafiy qarashlari» (Toshkent, 2004); «Tarixiy leksikografiya» (Toshkent, 2013) singari o'quv qo'llanmalari; «O'zbek mumtoz

adabiyoti (Qadimgi turkiy adabiyot)» (Toshkent, 2022) darsligi;

Q. Sodiqov tuzgan «Qutadg'u bilig» so'zligi» (Toshkent, 2020) mutaxassislar tarafidan keng e'tirof etilgan. Turkologiyada bu kitoblar tez-tez tilga olinadi.



Q. Sodiqov turkolog-mutaxassis sifatida Moskva (2001, 2018), Sietl (2007), Istanbul (1999, 2000, 2018, 2021), Anqara (1996, 2005, 2007, 2018, 2019, 2021), Izmir (2000), Ulan-Bato'r (2010), Almati (1985, 2000, 2022), Urumchi (2012), Toshkent (2000, 2006, 2007, 2010, 2011, 2014, 2015, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022, 2023), Nukus (2021), Samarqand (2014, 2017, 2023), Chimgent (2020), Karabuk (2022), Barnaul (2023), Navoiy (2018), Qo'qon (2022) shaharlarida o'tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar qilgan.



Shuningdek, u respublika miqyosida o'tkazilgan bilim yo'nalishiga tegishli ilmiy konferensiyalar va davra suhbatlarida ham o'z ma'ruzalari bilan izchil qatnashib kelayotir.

Uzoq yillar O'zbekiston Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha ekspert guruhi a'zosi,

shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qo'lyozmalar instituti huzuridagi ixtisoslashgan ilmiy kengash a'zosi bo'ldi. Hozirda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi himoya ilmiy kengashlari a'zosi.

Shu choqqacha Q. Sodiqovning ilmiy maslahatchiligi ostida 5 nafar izlanuvchi filologiya fanlari doktori dissertatsiyasini yoqladi; ilmiy rahbarligi ostida 18 nafar izlanuvchi o'zlarining fan nomzodi va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini yoqladi. Ayni kezlarda ham uning ilmiy maslahatchiligi va rahbarligi ostida bir qancha izlanuvchi fan doktori (DSe) hamda falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarini yozmoqda.

2024 yilning 11 – 18 fevral kunlari Alisher Navoiy xalqaro jamoat fondi tarafidan Alisher Navoiy merosi va ko'hna Xuroson tuproqlaridagi qutlug' qadamjolarini o'rganish maqsadida Eron Islom Respublikasiga uyushtirilgan o'n kishilik ilmiy ekspeditsiya tarkibida ham qatnashgan.

Q. Sodiqov O'zbekiston televideniyesi va radiosida ilmiy-ommabop, ma'rifiy suhbatlarda, matbuotda esa o'z maqolalari bilan qatnashib turadi.



Q. Sodiqov hozirgi paytda professor sifatida Toshkent davlat sharqshunoslik

universiteti mumtoz filologiya; matnshunoslik va adabiy manbashunoslik; sharq falsafasi bo'limlari talabalariga dars o'tadi. U bakalavrlik ta'lim yo'nalishida «Eski o'zbek tili», «Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari», «Epigrafika va paleografiya», «Mumtoz matn stilistikasi»; magistraturada «Yozma yodgorliklar tili», «Falsafiy matn stilistikasi», «Badiiy matnning filologik talqini», «Qo'lyozma oqish amaliyoti» fanlaridan dars o'tadi.



Q. Sodiqov kafedra ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalarini tuzishda faol qatnashib kelmoqda. U o'zi o'qitadigan fanlarning namunaviy o'quv dasturlarini tuzgan.

U, chorlovlarga ko'ra, mutaxassis sifatida qadimgi turkiy yodgorliklar tili va yozuv tarixidan Xitoy Xalq Respublikasining Lanjou shahridagi Milliy tillar universiteti uyg'ur tili fakulteti doktorant-izlanuvchilariga; Janubiy Qozog'iston universiteti filologiya fakulteti talabalariga darslar o'tgan. Shuningdek, u respublikamizning bir qancha oliy o'quv yurtlarida mahorat darslarini ham o'tib turadi.

Q. Sodiqovning darslari va televideniya uning bilan o'tkazilgan ilmiy-ommabop, ma'rifiy suhbatlar internet saytlariga joylashtirilgan.



TASHATOV ALLANAZAR QARSHIYEVICH
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Allanazar Tashatov mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishda va fizika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashda o‘zining kamtarona hissasini qo‘shib kelayotgan jonkuyar fidoiy olimlardan biri. A. Tashatov muallifligida 7 ta monografiya, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 5 ta patent va 350 dan ortiq ilmiy maqolalari xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida, hamda xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiya materiallari chop etilgan.

Hozirgi kunda Qarshi davlat universiteti Fizika fakulteti Nazariy va eksperimental fizika kafedrasida professorlik lavozimida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. U shogirdlariga mehribon, g‘amxo‘r, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsata oladigan ilmiy olim.

Tashatov Allanazar Qarshiyevich 1959 yil 20 fevralda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida tavallud topgan.

1966-1976 yillarda Dehqonobod tumanidagi Qorashina posyolkasida 70-maktabni oltin medal bilan tugatib, shu yili Toshkent davlat universitetining (hozirgi O‘zMU) fizika fakultetiga o‘qishga kirib, 1981 yili mazkur universitetning “Fizikaviy elektronika” ixtisosligini imtiyozli diplom bilan bitirgan.



1990 yilda Moskva Fizika-texnika institutida “Исследование количественного

состава и свойства ионно-имплантированных слоев Si, GaAs и сплава Pd-Ва методами вторичной электронной спектроскопии” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. 1995 yilda dotsentlik unvoniga sazovor bo‘ldi. 2008 yilda O‘zFA Elektronika institutida “ Исследования структурм и свойств тонких гетероструктурных пленок, созданных методами эпитаксии и ионной имплантации” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ko‘p yillardan buyon doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari bo‘yicha ixtisoslashgan O‘zFA ning Ion-plazma va lazer texnologiyalar instituti, Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy kengashlar a‘zosi, Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021. FM.70.06 raqamli ilmiy kengash seminar raisi. Ilmiy kengash ishida faol ishtirok etib 2 ta DsC doktorlik va 11 ta PhD falsafa doktorlik dissertatsiya ishlariga rasmiy opponentlik qilgan.



1982-1988 yillarda Toshkent politexnika instituti (hozirgi ToshDTU) “Eksperimental va nazariy fizika” kafedrasida kichik ilmiy xodim va aspiranti, 1988-1997 yillarda assistenti, dotsenti sifatida faoliyat ko‘rsatgan.

1997-2000 yillarda Qarshi muhandistlik-iqtisodiyot instituti “Fundamental va gumanitar fanlar” fakulteti dekani, 2000-2009 yillarda “Muhandis-texnika” fakulteti dekani, 2009-2010 yillarda “Neft va gaz” fakulteti dekani, 2010-2012

yillarda “Elektr energetika” kafedrasida professori v.b. lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. 2012-2018 yillarda Qarshi davlat universiteti “Fizika-matematika” fakulteti dekani, 2018-2021 yillarda “Fizika” kafedrasida professori, 2021 oktabr oyidan buyon “Nazariy va eksperimental fizika” kafedrasida professorlik lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.



Ixtisosligi bo‘yicha fizik, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent, bir necha yillar davomida universitet Ilmiy kengashi, “QarDU xabarlari” ilmiy-uslubiy jurnalining tahririyati a‘zosi sifatida fan va ta’limning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda, o‘tgan vaqt mobaynida 8 ta o‘quv qo‘llanma, 7 ta monografiya, 5 ta patent, 5 ta DGU, 70 dan ortiq Scopus, Google Scholar, Wep of Science va OAK tasarrufidagi jurnallarda ilmiy maqolalar chop etib kelmoqdaman. 350 dan ortiq ilmiy ishlari xalqaro va respublika miqyosidagi konferensiya materiallarida chop etilgan. 2012-2018 yillarda Fizika-matematika fakulteti dekani sifatida ish faoliyati mobaynida fakultet a‘zolarining ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar bilan shug‘ullanishlariga, yoshlarga ilmiy jihatdan ko‘mak berishga xamda iqtidorli talabalar bilan ishlashga alohida e‘tibor qaratdi.

O‘z faoliyatim davomida ko‘plab shogirdlar yetishtirdi va tayyorladi. Shogirdlarining fizika-matematika fanlar bo‘yicha falsafa doktorlik dissertatsiya PhD ishini muvaffaqiyatli himoya qilishida rahbarlik qildi. Bundan tashqari 14 ta magistlik dissertatsiyasi va 20 dan ziyod Fizika ta’lim

yo'nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlandi va tayyorlanmoqda.




A.K. Tashatov “Qarshi davlat universiteti va Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida talabalar o'qitish sifatini yaxshilashga qaratilgan munosabatlarni mustahkamlash” grant loyihasi a'zosi. Grant loyihasi asosida Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish korxonalari bilan shartnomalar imzolangan va bajarib kelinmoqda.

A.K. Tashatov o'quv-uslubiy majmualarni takomillashtirishda, uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar ishlab chiqishda hamda o'quv jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etishda keng foydalanib kelmoqda. Jumladan, A.K. Tashatov zamonaviy o'qitish usullaridan, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda multimedia ta'lim resurslaridan foydalangan holda Fizika ta'lim yo'nalishi talabalariga “Fizikaviy elektronika” “Kvant mexanikasi asoslari” fanlaridan va Fizika mutaxassisligi magistrilariga esa “Yarim o'tkazgichlar fizikasi” fanlardan ma'ruzalar o'qiydi va amaliy mashg'ulotlarni olib boradi.

A.K. Tashatov olib borayotgan barcha fanlarga jiddiy yondoshib, mazkur fanlarni yuqori pedagogik saviyada o'tib kelmoqda.

Talabalarda aqliy jarayonlarni faollashtirish va ularda ichki harakatlar rejasini amalga oshirish uchun u o'z ma'ruzalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan, ya'ni “Bumerang” texnologiyasi, “Aqliy hujum”, “Muammoli savollar”, “Bahsmunozara” metodlaridan keng foydalanmoqda. Talaba yoshlarning mustaqil ravishda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni haqqoniy (obyektiv) bo'lishga o'rgatish hamda ularda nazariya va amaliyotni uzviy bog'lay olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun seminar va amaliy mashg'ulotlarda “3x4” texnologiyasi, “Tarmoqlar” texnologiyasi, “Keys stadi texnologiyasi” dan foydalanib kelmoqda. Har o'quv yilida malakaviy bitiruv ishlariga va magistrlik dissertatsiyalariga ham rahbarlik qiladi.



U o'z ish faoliyati davomida ko'plab shogirdlar yetishtirdi va tayyorlamoqda. Uning rahbarligida 1ta PhD, 10 ta magistrlik dissertatsiyasi va 70 dan ziyod “Fizika” bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining bitiruv malakaviy ishlari tayyorlandi.

Hozirgi kunda A.K. Tashatov ilmiy rahbarligida oltita magistr va uchta erkin izlanuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. U Oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimidagi attestatsiya jarayonida faol ishtirok etib kelmoqda.



TASHMATOVA AZATGUL RAXIMOVNA
San’atshunoslik fanlari doktori, professor

San’atshunoslik fanlari doktori, mohir sozanda, mahoratli dirijor, malakali pedagog, milliy musiqiy sozlarimizning faol targ‘ibotchisi, ilmiy innovatsion g‘oyalar asoschisi Tashmatova Azatgul Rahimovna o‘zining serqirra ijodiy faoliyati bilan cholg‘u ijrochiligi san’ati rivojiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. U musiqashunos olim sifatida o‘tgan asrning 90-yillarida musiqa olamiga kirib keldi va soha yo‘nalishi bo‘yicha bir qator ilmiy-ijodiy muammolarni hal etishga muvaffaq bo‘ldi.

Azatgul Tashmatova 2015-yilda “Shuhrat” medali, 2022-yilda “Madaniyat va san’at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. 2008 yildan buyon O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zosi.

Azatgul Tashmatova 1978-yilda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent (hozirda O‘zbekiston) davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasiga “Afg‘on rubobi” va “Dirijorlik” sinflari bo‘yicha o‘qishga kirdi. Mutaxassislik bo‘yicha

ijrochilik mahoratini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, professor G‘ulomqodir Ergashevdan, dirijorlik sir-asrorlarini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Anvar Liviyevdan o‘rgandi va shu tariqa kelajagini musiqa san’ati bilan bog‘lashga ahd qildi.



Konservatoriyada o‘qib yurgan kezlarda u o‘ta qobiliyatli, o‘tkir zehni, chaqqon va xotirasi kuchli bo‘lganligi sababli ham nazariy ham amaliy fanlarni puxta egalladi. Turli tadbirlarda boshlovchilik qildi va har xil mavzularda maqolalar yoza boshladi. Bu kelgusida musiqashunoslik kasbini egallashiga zamin yaratdi.



Shunisi qiziq-ki, ustozlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Baxtiyor Atayev, Xalq ta'limi a'lochisi Sotvoldi Karimov va O'zbekiston san'at arbobi, professor Rustam Abdullayevlar haqiqatdan ham kelajakni ko'ra olgandek, Azatgul Tashmatovaga musiqashunoslik yo'nalishida o'qishni tavsiya etgan ekanlar, chunki qahramonimiz oxir-oqibat amaliyotchi, ya'ni mohir afg'on rubobchi va mahoratli dirijor bo'lishiga qaramay, bugungi kunda cholg'u ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha birinchi va yagona san'atshunoslik fanlari doktoridir.

Azatgul Tashmatova o'z mehnat faoliyatini 1981-yilda Muhitdin Qori-Yoqubov nomidagi O'zbekiston davlat filarmoniyasi, To'xtasin Jalilov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri sozandasi (afgon rubobchi) sifatida boshladi.

O'qishni bitirgach kafedrada o'qituvchi lavozimida qoldirildi. Orkestrdagi ish faoliyati uni 1986-yilda Toshkent (hozirda O'zbekiston) davlat konservatoriyasi musiqa tarixi va tanqid kafedrasiga aspiranturaga o'qishga kirishiga turtki bo'ldi. O'qish bilan bir vaqtning o'zida orkestrda konsert ijrochiligi faoliyatini ham davom ettirdi.

U 1989-1995-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi madaniyat xodimlarining malakasini oshirish instituti "Ijtimoiy fanlar va madaniyat" kafedrasida avval o'qituvchi, so'ngra katta o'qituvchi, 1995-1998-yillarda "Ijodkor yoshlar uyi" direktori o'rinbosari lavozimida ishladi. Shu davr mobaynida u yosh iqtidor egalarini aniqlash va ularni komil inson sifatida

tarbiyalashga hamda cholg'u ijrochiligi san'ati rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

Azatgul Tashmatova 1998-yilda "O'zbekistonda xalq cholg'ulari orkestri ijrochiligining shakllanish va rivojlanish muammolari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1998-2003-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi san'atshunoslik instituti "Zamonaviy musiqa va folklor" bo'limida ilmiy xodim lavozimida ishladi. Shu vaqtning o'zida O'zbekiston davlat konservatoriyasi Sohaviy ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasiga rahbar etib tayinlanganligi bois u institutdagi faoliyatini o'rindoshlik asosida davom ettirdi.

Azatgul Tashmatova 1999-2007-yillarda "Orkestr dirijorligi" kafedrasida dotsent, 2007-yildan bugungi kunga qadar "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida avval dotsent, 2018-yildan buyon professor lavozimida ishlab kelmoqda.



O'zbekistonda cholg'u ijrochiligi san'ati va orkestr ijrochiligi yo'nalishida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan Azatgul Tashmatova muallifligida mustaqillik davrida ilk bor uch (o'zbek, rus, ingliz) tilda rangli tasvirda "Musiqiy cholg'ular muzeyi katalogi"(T., 2006y.) nashr etildi.

Mazkur Katalog O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan "Eng yaxshi o'quv adabiyotlari va multimedia asarlari" tanlovida I-o'ringa sazovor bo'lgan.

Musiqashunos olim A.Tashmatovaning mazmunli ma’ruzalar bilan chiqishlari nafaqat Respublikamizda, balki Qozog‘iston, Ozarbayjon, Turkiya, Rossiya, Janubiy Koreya kabi xorijiy mamlakatlarda o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanlarda ham mutaxassislar tomonidan ko‘p marotaba e’tirof etilgan. Uning 300 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy va ilmiy-ommabop maqolalari ilmiy to‘plam va maxsus jurnallarda nashr etilgan.



Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida 2011, 2013, 2015 va 2024 -yillarda bo‘lib o‘tgan VIII-XI va XIII “Sharq taronalari” — Xalqaro musiqa festivallari doirasida Azatgul Tashmatova rahbarligida Mirzo Ulug‘bek madrasasida o‘tkazilgan milliy cholg‘ular ko‘rgazmalari hamda qayd etilgan katalog taqdimoti mutaxassis-olim va san’atkorlar tahsiniga sazovor bo‘ldi va ular uchun metodologik ahamiyat kasb etdi.



Azatgul Tashmatova 1998-yildan 2018-yilga qadar Sohaviy ilmiy-tadqiqot eksperimental laboratoriyasiga rahbarlik qildi. Shu davr mobaynida uning tashabbusi bilan laboratoriya ustalari tomonidan bir qator milliy musiqa cholg‘ulari zamonaviy ijrochilik

talablariga moslashtirildi va o‘quv amaliyotiga joriy etildi. Uning sa’yi-harakatlari bilan mazkur laboratoriya 2000-yildan e’tiboran “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasi nomi bilan yuritila boshladi.

Laboratoriyada cholg‘ularni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish bilan shug‘ullanadigan ilmiy bo‘lim, tajribaviy musiqa cholg‘ularini yasaydigan ustaxona va musiqa cholg‘ulari saqlanadigan kolleksiya mavjud edi. Mazkur laboratoriyada cholg‘ular 1943-yildan e’tiboran kolleksiya sifatida yig‘ila boshlangan va u faqatgina ilmiy izlanuvchilar hamda ilmiy xodimlar uchun ochiq edi, xolos.



2002-yilda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan bunyod etilgan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi yangi binosining ochilishi munosabati bilan ushbu cholg‘ular kolleksiyasi “Musiqa cholg‘ulari muzeyi”ga aylantirildi. Shaxsan yurtboshimiz mazkur muzeyga tashrif buyurib, “Milliy cholg‘u” ilmiy-ishlab chiqarish eksperimental laboratoriyasining tarkibiy qismi bo‘lmish “Musiqa cholg‘ulari muzeyi”ning faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun yaratilgan milliy cholg‘ular majmuasi ularning e’tiborini o‘ziga jalb etdi va mazkur cholg‘ular bilan qiziqib, hattoki ularni qo‘llariga olib chalib ham ko‘rdilar.

2003-yilda Azatgul Tashmatova Vazirlar mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan tanlovda ishtirok etib,

mazkur muzeyni “Davlat noyob ilmiy obyektlari” ro‘yxatiga kiritishga muvassar bo‘ldi.



Azatgul Tashmatova tashabbusi bilan mazkur “Musiqqa cholg‘ulari muzeyi” tashkil etildi va uning rasmiy ochilishi 2004-yil 27 mayda bo‘lib o‘tdi. Hozirgi kunda ushbu muzeyda o‘zbek xalqining 1000dan ortiq noyob milliy cholg‘ulari hamda Boltiq bo‘yi, Rossiya, AQSh, Fransiya, Yaponiya, Vetnam, Koreya, Hindiston, Italiya, Mongoliya va Malayziya kabi xorijiy davlatlarning musiqqa cholg‘ulari saqlanmoqda. Shuningdek, muzey eksponatlari zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan, ya’ni modifikatsiyalashtirilgan cholg‘ular bilan ham boyib bormoqda.



Azatgul Tashmatova O‘zbekiston davlat konservatoriyasi va respublika miqyosida o‘tkaziladigan turli tadbirlar, jumladan har yili fevral oyida bo‘lib o‘tadigan “Ta’lim va mutaxassislik” Xalqaro ko‘rgazmalarida, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bahor oylarida muntazam ravishda Xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan “Navro‘z sadolari” ko‘p ovoqli ansambl va orkestrlar festivali, VIII-X va XIII “Sharq taronalari” Xalqaro musiqqa festivallari doirasidagi ko‘rgazmalarda mazkur eksponatlardan unumli foydalanilmoqda.



Milliy cholg‘ularning faol targ‘ibotchisi Azatgul Tashmatova mazkur muzeyga tashrif buyurgan xorijiy mehmonlar, Indoneziya milliy orkestri hamda Balidagi xalqaro musiqqa festivalining asoschisi va direktori Franki Raden va Isroillik xonanda, aktrisa Galit Giatlarni, Chung-Ang Universiteti professori Xyung Van Li, YUNESKOning Koreyadagi bo‘limi asoschisi Mun Xyung Suk va “Sorixuyun Kayagim Byungchangdan” guruhi (kayagimchi qizlar ansambli)ga muzeyning noyob eksponatlarini yaqindan tanishtirdi hamda ular rang-barang cholg‘ular ovoz tarovatidan bahramand bo‘lishdi va o‘zlarining dil so‘zlarini izhor etishdi. Xususan, Xyung Van Li Katalog muallifi A.Tashmatovaga “O‘zbekiston va Koreya milliy cholg‘ulari” nomli xuddi shunday katalog yaratish lozimligini ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, Azatgul Tashmatova ko‘rgazmada namoyish etilgan va xorijiy mutaxassislar e’tirofiga sazovor bo‘lgan o‘zbek xalq cholg‘ulari dovrug‘ini xorijiy televideniylar, Samarqand, “O‘zbekiston 24” va boshqa bir qator telekanallar orqali nafaqat keng xalq ommasiga, balki dunyoga targ‘ib etdi.

Azatgul Tashmatovaning ilmiy-targ‘ibot ishlari bo‘yicha qo‘lga kiritgan eng muhim yutuqlaridan biri, Ozarbayjon milliy konservatoriyasining ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, san’atshunoslik bo‘yicha falsafa doktori, professor Lala Guseynova – “Sharq

xalqlari musiqa madaniyati” fanini “Musiqiy cholg‘ular muzeyi Katalogi” asosida, o‘tayotganligini va bu talabalarda ushbu fanga nisbatan katta qiziqish uyg‘otayotganligini ko‘tarinki ruhda faxr bilan tilga olganligi bo‘ldi.



Bugungi kunda cholg‘u ijrochiligi san‘ati bo‘yicha respublikada yagona olima hisoblanmish Azatgul Tashmatova malakali pedagog sifatida ham faoliyat yuritib, bir qator yetuk pedagog, sozanda va xalq cholg‘ulari orkestri dirijorlarini tayyorlashga muvaffaq bo‘ldi.

Shuningdek, Azatgul Tashmatova konservatoriya talabalariga “Ijrochilik san‘ati tarixi”, “Ansambli bilan ishlash uslubiyoti”, “Xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti”, “Xalq cholg‘ulari bilan tanishuv” fanlaridan o‘zbek va rus tillarida yuqori saviyada ma‘ruzalar o‘qib, mazkur fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratib kelmoqda. Talabalarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik hamda doktorlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilmoqda.

Azatgul Tashmatovanning 2007-yilda iqtidorli kompozitor Mustafu Bafoyevning “Buxoroi-sharif” teleoperasi asosida yaratgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi ikki doston va yigirma ikki naqshdan iborat bo‘lib, unda Buxoroning tarixiy shaxslari va tarixiy obidalari madh etiladi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmadan joy olgan asarlar ham ijro ham dirijorlik jihatdan juda qiziqarli va hammani o‘ziga jalb eta olishi bilan nafaqat mutaxassislar, balki keng qamrovli tinglovchilar qalbidan ham chuqur joy olgan. Eng asosiysi kompozitor o‘z mahorati orqali xalq cholg‘ulari orkestridan unumli

foydalangan holda uning turli qirralarini ochib berishga muvassar bo‘lgan.



Azatgul Tashmatova orkestr ijrosi va asarlarning mazmun-mohiyatini shu darajada ta‘riflab berganki, ijroni ko‘rmay eshitgan tinglovchi ba‘zi-bir asarlarni orkestr emas, balki maqom ansambli ijro etgan deb taxmin qilsa, jonli tarzda tinglaganlar esa kompozitorning milliy cholg‘ular tabiatini shu darajada chuqur bilganligiga lol qoladi. Nafaqat ilmiy, balki ma‘naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarida “Dirijorlik” fanida keng qo‘llanilmoqda.

Xalq cholg‘ulari antologiyasi zamonaviy talablarga to‘liq javob beradigan innovatsion texnologiyalar asosida yaratilgan ilk nashr hisoblanadi. O‘quv qo‘llanmada barcha milliy musiqiy cholg‘ular ovoz tarovati bo‘yicha klassifikatsiyalashtirilgan bo‘lib, ularning shakllanishi, rivojlanish jarayonlari, turlari, amaliyotda qo‘llanilishi, tovush hosil qilish usullari, ijrochilik uslublari, mohir sozandalar, ilk ustozlar va sozgar ustalar haqida ma‘lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan maxsus asarlar, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda darsliklar haqida sharhlar berilgan.

Azatgul Tashmatova tomonidan yaratilgan darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va monografiyalar oliy ta‘lim muassasalari uchun yangi avlod adabiyotlari sifatida o‘quv jarayoniga tadbiiq etilgan.

Serqirra ijodkor A.Tashmatovaning olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir qirralari – bu innovatsion g‘oyalar asosida o‘zbek xalq cholg‘ularining modifikatsiyalashtirilgan turlarini yaratganligidir.



Modifikatsiyalashtirishga qadar bolalar musiqa va san‘at maktablari o‘quvchilari uchun maxsus musiqa cholg‘ulari yaratilmaganligi bois, uzluksiz ta‘lim tizimining boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘inlarida bo‘shliq mavjud edi. Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish va uzluksiz ta‘lim uzviyligini ta‘minlash maqsadida Azatgul Tashmatova tomonidan o‘zbek xalq cholg‘ulari modifikatsiyalashtirildi.

Modifikatsiyalashtirish natijasida bolalar musiqa va san‘at maktablarining 1-3 sinflarida tahsil olayotgan turli yoshdagi o‘quvchilar uchun har jihatdan qulay, ularning o‘sib borayotgan gavda tuzilishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan, ijro paytida pardalarni aniq bosib, talab etilgan tovushni sof va sifatli ijro etish imkoniyatiga ega bo‘lgan, bugungi kun talablariga to‘liq javob beradigan “Bolalar an’anaviy dutori” (patent № IAP 05966-2019) va “Qashqar rubobi” (patent № IAP 06051-2019) hamda yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Qashqar konsert rubobi” (patent № IAP 06120-2019) yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Shuningdek, talabalar va professional sozandalar uchun “Prima rubobi”ning zamonaviy ijrochilik talablariga javob bera oladigan ko‘rinishi – menzura va pardalar joylashuvi qayta ishlanib, barcha registrlarda ovoz tarovati ruboblar oilasiga xos yoqimli va ijrochilik imkoniyatlari yanada kengaytirilgan

modifikatsiyasi yaratildi (patent № IAP 05963-2019).



Talabalar va professional sozandalar uchun XX asr o‘zbek musiqa amaliyotida qo‘llanilmagan, lekin hozirgi zamonaviy ijrochilik talablariga to‘liq javob beradigan, tovush ko‘lami va ijrochilik imkoniyatlari kengaytirilgan, yuqori registrda ham sifatli ovoz tarovatiga ega bo‘lgan, modifikatsiyalashtirilgan, innovatsion yetti torli “Afg‘on rubobi” yaratildi va amaliyotga joriy etildi (patent № IAP 05965-2019).



2019-yilda Azatgul Tashmatovaning ilmiy g‘oyasi asosida modifikatsiyalashtirilgan sakkiz turdagi o‘zbek xalq cholg‘ulariga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk Agentligi tomonidan Ixtiro Patentlari olindi.

Yuqorida qayd etilgan modifikatsiyalashtirilgan cholg‘ularning nafaqat bolalar musiqa va san‘at maktablari, balki umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilarni jismonan sog‘lom, ma‘nan boy, dunyoqarashi va fikrlash doirasi keng, komil inson sifatida tarbiyalashda o‘rni beqiyosdir.



Serqirra ijodkor Azatgul Tashmatova O‘zbekiston kompozitorlari va bastakori uyushmasining a‘zosi sifatida turli sanalarga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlar va ijodiy kechalarda faol ishtirok etadi. Uyushma konsert zalida xalq cholg‘ulari uchun yaratilgan maxsus asarlar hamda mahoratli kompozitorlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan kitoblar taqdimotlarini mazmunli tarzda olib borib, talabalarning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.



Shu bois, aniq maqsad sari muttasil intiluvchi Azatgul Tashmatova uyushma raisi O‘zbekiston san‘at arbobi, professor Rustam Abdullayev tomonidan bir necha bor “Yilning eng faol musiqashunosi” sertifikatini bilan taqdirlangan.

Tashmatova Azatgul Raximovna 2023-yilda san‘atshunoslik yo‘nalishi bo‘yicha dunyo miqyosida ilk bor Ixtiro patentlari asosida “Modifikatsiyalashtirilgan o‘zbek xalq cholg‘ularini yaratish” mavzusida doktorlik (DSc) dissertatsiyasini katta muvaffaqiyat bilan himoya qildi.



Mazkur diplomni Azatgul Tashmatovaga O‘zbekiston davlat konservatoriyasi rektori, O‘zbekiston xalq artisti Kamoliddin Turdimuratovich Urinbayev tantanali ravishda topshirib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: “Sizning doktorlik dissertatsiyangiz – bu bizning faxrimiz, xalq cholg‘ularida ijrochilik yo‘nalishining faxri hisoblanadi. Siz xalq cholg‘ulari ijrochiligi tarixida yangi sahifani ochib berdingiz. Biz yoshlar, shogirdlaringiz siz erishgan darajalarni ko‘rib, sizdan stimullanib olamiz. Mana shu yo‘nalishda ijod qilayotgan va ilmiy ishlar yozayotgan yoshlar sizga havas qilib, sizdan o‘rnak olib, falsafa doktori, fan doktori ilmiy darajasiga erishib, mazkur sahifalarni to‘ldirib borishini tilab qolaman. Inson o‘z oldiga maqsad qo‘yib, unga erishish yo‘lida ildam qadamlar bilan mehnat qilishi kerakligini Sizning timsolingizda ko‘rdim va juda xursand bo‘ldim. Siz konservatoriya ilmiy salohiyatini oshirishda ham samarali mehnat qilyapsiz, mana shu mehnatlaringiz bardavom bo‘lsin. Biz siz bilan faxrlanamiz”.

Shu tariqa Azatgul Tashmatova O‘zbekiston ilm-fani, ta‘limi va musiqa san‘ati tarixida yangi sahifani ochib berdi.

2023-yilda A.Tashmatova doktorlik (DSc) dissertatsiyasi asosida “O‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligida innovatsion jarayonlar” nomli monografiyani (rus tilida) chop ettirdi. Mazkur monografiyada o‘zbek xalq cholg‘ularini ilk g‘oya asoschilari tomonidan takomillashtirish, Ashot Petrosyans rahbarligida modernizatsiyalashtirish hamda Azatgul Tashmatovaning ilmiy g‘oyasi asosida

modifikatsiyalashtirish jarayonlari yoritib berilgan.



2024-yilda Azatgul Tashmatova tomonidan O‘zbekiston san’at arbobi, professor, mahoratli kompozitor Habibulla Rahimov asarlari misolida oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun “Ijrochilik san’ati tarixi” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etildi. Ushbu o‘quv qo‘llanmada H.Rahimovning dutor, dutor va xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratgan asarlarining ijrochilik tahlili berilgan bo‘lib, ular o‘quvchi va talabalar uchun mazkur asarlarni ijro etishda nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.



Azatgul Tashmatova barcha ilmiy-ijodiy ishlarini o‘z oilasi bilan chambarchas bog‘lagan holda olib bormoqda. Uning shu kungacha erishgan yutuqlarida oila a‘zolarining ham hissasi beqiyosdir.

Bugungi kunda Azatgul Tashmatova vafoli yor, uch hafar farzand: ikki qiz va bir o‘g‘ilning mehribon onasi, to‘rt nabiraning sevimli buvijonisidir. Farzandlarining hammasi oliy ma‘lumotli mutaxassislar bo‘lib, ular yurt ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Hayotiy va ijodiy faoliyati eng gullagan ayni paytda Azatgul Tashmatova yoshlarga o‘zining boy tajriba va chuqur bilimlarini jon-dili bilan o‘rgatib kelmoqda. O‘z shogirdlari, hamkasblari va maslakdoshlari ongiga chegarasi va yakuni bo‘lmagan o‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati sirlarini mukammal egallash orqali XXI asr dunyo musiqa madaniyatining ajralmas qismi bo‘lmish, xalq cholg‘ularida ijrochilik san’ati rivojining yangi istiqbolli qirralarini ochishga undamoqda.

O‘z kasbining fidoiysi, kamtarin, samimiy, mehnatsevar va jonkuyar inson Azatgul Tashmatova ilmga chanqoqligi, o‘tkir zehni, o‘ziga va o‘zgalarga talabchanligi, ilmiy salohiyatini oshirish borasida tinmay izlanishi, Vatanga bo‘lgan muhabbati, murabbiylik mahorati va ilmiy-ijodiy ishlari bilan keng jamoatchilik e‘tiborini qozongan. Shu bois, san’atshunoslik fanlari doktori, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasida professori Azatgul Tashmatova o‘zbek musiqashunosligida alohida o‘rin egallaydi va yoshlarga har tomonlama o‘rnak bo‘la oladi.



TASHMUXAMEDOVA DILNOZA ARTIKBAYEVNA

Fizika - matematika fanlari doktori, professor

Dunyo miqyosida taniqli olima, fizika-matematika fanlari doktori, professor TashmuxeMedova Dilnoza Artıkbayevna 1975 yil 8 fevralda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma‘lumoti oliy. D.A.TashmuxeMedova 1992-1997 yillarda Toshkent davlat texnika universitetida tahsil olgan va «Fizika va ET materiallari hamda komponentlarining texnologiyasi» mutaxassisligi bo‘yicha “Elektron texnika muhandisi” kvalifikatsiyasini olgan.



1997-2000 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti aspiranturasida o‘qigan va 2000 yil dekabr oyida 01.04.04 – «Fizik elektronika» ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qilgan va fizika-matematika fanlari nomzodi darajasini olgan. 2000-2003 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Elektron texnika materiallari fizikasi va texnologiyasi» kafedrası assistenti, 2003-2005 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Elektron texnika materiallari fizikasi va texnologiyasi» kafedrası dotsenti, 2005-2008 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Elektronika va mikroelektronika» kafedrası dotsenti, 2008-2012 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Nanotexnologiya» kafedrası dotsenti, 01.02.12-03.09.12 da Toshkent davlat texnika universiteti «Nanotexnologiya» kafedrası mudiri, 2012-2016 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Nazariy elektrotexnika va elektron texnologiyalar» kafedrası professori, 2016-2017 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Asbobsozlik» kafedrası mudiri, 2017 — 2021 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti «Elektron apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyalari» kafedrası mudiri, 2021 yildan hozirgi vaqtga qadar Toshkent davlat texnika universiteti «Elektron

apparatlarni ishlab chiqarish texnologiyalari» kafedrasida professori lavozimlarida ishlab kelmoqda.



D.A.Tashmuxeimedova 2001 yil 31 mayda fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan. 2005 yilda “Fizik elektronika” ixtisosligi bo‘yicha “Elektron texnika materiallari fizikasi va texnologiyasi” kafedrasida bo‘yicha dotsent ilmiy unvoni berilgan. Doktorlik dissertatsiyasini 2010 yil 29 iyunda “Электронная спектроскопия нанопленок и нанокристаллов созданных низкоэнергетической ионной бомбардировкой полупроводниковых и диэлектрических пленок” mavzusida 01.04.04 Fizik elektronika ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan.



D.A.Tashmuxeimedova 2007 yildan boshlab hozirgi kunga qadar 15 dan ortiq fundamental va amaliy ilmiy loyihalarida bajaruvchi va rahbar sifatida muntazam ravishda qatnashib kelmoqda. Hozirda MRB – OT – 2019 – 28 –raqamli O‘zbekiston-Belorusiya xalqaro loyahasiga rahbarlik qilib

kelmoqda, hamda ushbu loyiha doirasida ToshDTU bazasida ilmiy tadqiqotlar laboratoriyasini tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va chet el davlatlari xalqaro akademiyasi (TWAS) tomonidan uyushtirilgan tanlovda 2005 yilda va 2018 yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan “Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi” nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblikni qo‘lga kiritgan.



U 600 dan ortiq ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlar chop ettirgan, shulardan 15 ta patent, 150 dan ortiq ilmiy maqolalari chet elning nufuzli jurnallarida chop etilgan. 100 ga yaqin xalqaro konferensiyalarda ma‘ruzalari qilingan, 10 dan ortiq ishlanmalari O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining ixtiro patentini ega, hamda 20 dan ortiq o‘quv qo‘llanma va darsliklar chop etgan.



D.A.Tashmuxeimedova bir qator ilmiy va uslubiy konferensiyalarda ma‘ruzalari bilan qatnashib kelmoqda. Jumladan: European Materials Research Society Fall Meeting (Warsaw, 2013); European Workshop on Secondary Ion Mass Spectrometry (Münster, 2014); Kristallar bilan zaryadlangan

zarralarning o‘zaro ta’siri bo‘yicha 43, 44 va 45-xalqaro anjuman (Moskva, 2013, 2014, 2015, 2016); Sirt ionlarning o‘zaro ta’siri bo‘yicha XXI, XXII, XXIII, XXIV-xalqaro anjuman (Moskva, 2013, 2015, 2017, 2019); European Materials Research Society Spring Meeting (Lille, 2014, 2015, 2016, 2017); Yadro va radiatsion fizika (Olmaota, 2013); Fizikaviy elektronikaning dolzarb muammolari (Toshkent, 2012); Yarim o‘tkazgichli mikro va nanostrukturalarning optik va fotoelektrik hodisalari (Farg‘ona, 2014-2020); New Tendencies of Developing Fundamental and Applied Physics: Problems, Achievements, Prospectives (Tashkent, 2016). 2016 yil 2-6 may kunlari “E-MRS, Spring Meeting”, 2017 yil 10-15 sentyabrda Polshada bo‘lib o‘tgan “21st International conference on secondary ion mass spectrometry” konferentsiyasida, 2019 yil 19-23 avgustda Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan “20th International conference on radiation effects in insulators” nomli xalqaro konferensiyalarda ma’ruzalari bilan ishtirok etgan.



D.A. Tashmuxeimova 2024 yilda Belorusiya olimlari bilan hamkorlikda «Термоэлектрический материал» nomli xalqaro patent oldi.

Uning ilmiy rahbarligida 5 nafar falsafa fanlari doktori (PhD), 2 ta fan doktorligini (Dsc) himoya qilgan hamda bugungi kunda 2 nafar doktorant va 1 nafar mustaqil izlanuvchi ilmiy ishlarini olib borishmoqda, ulardan birining dissertatsiya ishi ixtisoslashgan

kengash seminaridan muvaffaqiyatli o‘tdi. Shuningdek, 01.04.04 — “Fizik elektronika” ixtisosligi bo‘yicha muvofiqlashtirilgan kengash a’zosi bo‘lib kelgan.



Tashmuxeimova Dilnoza Artikbaevna universitet va fakultet jamoasi o‘rtasida hurmatga sazovor insondir. U o‘zining printsipliqligi, halolligi va talabchanligi bilan ajralib turadi. Tashmuxeimova Dilnoza Artikbaevna olim va tajribali o‘qituvchi sifatida yosh avlodni vatanimiz kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qilish ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. U qaysi mas’uliyatli vazifada ishlamasin, o‘zining halol, to‘g‘ri so‘z, adolatli, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi bilan ajralib turadi.



Oilali 1 o‘g‘il farzandi bor.

Tashmuxeimova Dilnoza Artikbayevna o‘zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo‘lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, mo‘tabarligi va yurtiga bo‘lgan mehri bilan keng jamoatchilik, oilasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan.



TO'RAYEV HALIM
Tarix fanlari doktori, professor

Halim To'rayev – yirik tarixchi manbashunos olim. “DO‘STLIK” ordeni sohibi.

Halim To'rayev 1953-yil 9-avgustda Buxoro viloyati Vobkent tumanida tavallud topgan. 1979-yil Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi BuxDU) ning tarix fakultetini tugatgan. Olim o'z mehnat faoliyatini 1979 yil Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi (hozirgi Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi)da boshlagan. 1990-yilning sentyabridan hozirgi kunga qadar Buxoro davlat universitetining Tarix kafedrasida (Buxoro tarixi) faoliyat yuritib kelmoqda. 1982-1989, 2003-2007 yillar O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining mustaqil tadqiqotchisi sifatida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan.

Uzoq yillik mehnat mahsuli sifatida 2007-yil Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi Ixtisoslashgan D-015.14.01 raqamli Kengash yig'ilishida **“Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida Jo'ybor xojalarining tutgan o'rni”**

mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ilmiy tadqiqot yo'nalishi tarixiy manbashunoslik, O'zbekistonning o'rta asrlar davri tarixi masalalari. Shu yo'nalish doirasida qo'lyozma hujjatlar va qo'lyozma asarlarni tadqiq qilib, Buxoro xonligi o'rta asrlar tarixining dolzarb masalalari yuzasidan qator maqola va kitoblarni e'lon qilgan. Tadqiqot obyektining xronologik davri XVI-XIX asrlarni o'z ichiga oladi.



1981-1990-yillar mobaynida besh marotaba Moskvadagi an'anaviy Xalqaro nufuzli ilmiy anjuman – “Бартольдские чтения” (Bartoldxonlik)da o'z ma'ruzalari

bilan ishtirok etgan. Ushbu konferensiyalardagi ishtiroki davomida jahonning o‘sha davrdagi taniqli sharqshunoslari bilan uchrashib, tegishli ilmiy maslahat va yo‘l-yo‘riqlar olishga muvaffaq bo‘lgan.



2008-2012 yillarda O‘zFA Tarix, O‘zFA Sharqshunoslik institutlari huzuridagi Ixtisoslashgan Kengashlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi Umumiy tarix, Tarixiy manbashunoslik, Fan va texnika tarixi ixtisosliklari bo‘yicha dissertatsiya mavzularini Muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashining a‘zosi. 2012 yildan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha jamoatchilik Kengashining a‘zosi.



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil H. To‘rayev OAKning tarix, falsafa, siyosiy fanlar bo‘yicha ekspert kengashi a‘zosi etib tayinlandi. U Ixtisoslashgan kengashlar va OAK ekspert kengashi a‘zosi sifatida qator yillardan beri respublikamizda yetuk mutaxassis ilmiy

kadrlarni tayyorlashda munosib hissa qo‘shib kelmoqda. 2017-2024 yillar mobaynida H.To‘rayev 70 ga yaqin falsafa doktori (PhD) va fan doktori dissertatsiyalariga, shuningdek, 50 dan ortiq professor va dotsent ilmiy unvonlariga talabgorlar ishiga ekspert xulosalari berib, respublikamiz ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasini oliy malakali kadrlar bilan boyitishda faollik ko‘rsatmoqda.



H.To‘rayev o‘z ilmiy faoliyati davomida Toshkent, Dushanbe, Turkiston (Qozog‘iston), Ashxobod, Moskva, Tokio-Toshkent, Anqara kabi shaharlarda bo‘lib o‘tgan Xalqaro ilmiy konferensiya va simpoziumlarda ma‘ruzalar bilan ishtirok etgan.




2001-2009 yillarda Markaziy Osiyoni tadqiq qilish Fransuz instituti (IFEAC)

tomonidan e‘lon qilingan loyihalar doirasida Buxoro shahrining tarixiy topografiyasiga doir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan. Tadqiqot natijalari esa alohida kitob holda, shuningdek, mazkur institutning internet saytida e‘lon qilingan.

H.To‘rayev 20 ta monografiya, 9 ta darslik va o‘quv qo‘llanmalar muallifidir. 330 dan ortiq ilmiy, ilmiy-ommabop maqolalari mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlarning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan. O‘nlab magistrlik, yuzlab bitiruv-malakaviy ishlari, ayni paytda esa 5 ta doktorlik (DSc) va 10 ta falsafa doktori (PhD) ilmiy ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda. Uning rahbarligi ostida 7 yosh tadqiqotchi tarix



Uning 2007-2023 yillarda nashr etilgan “Jo‘ybor xo‘jalari”, “Чорбакры и их преемники”, “Учение Яссави в Бухаре”, “Шейбанидские правители и суфийская практика”, “Ethnical process and socio-political, economic history in the heritage of Pulat Soliyev”, “The life and the scientific heritage of Mirza Sami”, “Mahalliy o‘lkashunoslarning ilmiy merosida tarixiy topografiya va me‘moriy obidalar tarixi”, “Исторические хроники в научном наследии Миён Бузрука”, “Buxoro tarixi”, “Mirzo Abdulazim Somiyning tarixiy asarlari”, “Накшбандия в жизни её современных предсавителей”, “Туркестан в политической жизни государства шейбанидов”, “The life and the scientific heritage of Mirza Sami, “Buxoro tarixi” asari jahon va mahalliy tarixshunoslikda”, “Две точки зрения по историко-топографическому плану Бухары Ахмада Дониша”, “К проблеме сохранения памятников материальной культуры”, “Buxoro toponimikasi”, “Buxoro tarixi yozma manbalari” “O‘zbekiston tarixi (X jild) (Buxoro tarixi)” kabi monografiya, qo‘llanma va maqolalari soha mutaxassislari uchun muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.



fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. Tarix fani rivojiga qo‘shayotgan hissasi, o‘quv adabiyotlari yaratish borasidagi xizmatlari inobatga olinib, **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan 2020-yil unga professor ilmiy unvoni berildi.**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tavsiyasi bilan H.To‘rayevning 2020 yil nashr etilgan “Buxoro tarixi” nomli o‘quv qo‘llanmasi, “Buxoro toponimikasi”(2021), “Buxoro tarixi yozma manbalari” (2023) darsliklari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administrsiyasi topshirig‘i bilan ko‘p tomlik

“O‘zbekiston tarixi” kitobining X tomi doirasida nashr etilgan “Buxoro tarixi” monografiyasi (630 bet, 2023) tarixchi talabalar, tadqiqotchilar va Buxoro tarixi bilan qiziquvchilar uchun g‘oyat zarur o‘quv va ilmiy adabiyot hisoblanadi.

H. To‘rayevning xayrli ishlaridan yana



biri shuki, u Bahouddin Naqshband me‘moriy majmuasi hududida o‘tmishda joylashgan va bizgacha saqlanmagan XVIII asr yodgorligi – masjid, madrasa maqbara to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qo‘lyozma hujjatlardan qidirib topishga hamda bu boradagi qimmatli tarixiy ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan Doniyolbiy vaqfnomasini nashrga tayyorlab chop etishga muvaffaq bo‘ldi (2023). Ushbu yodgorliklar shu vaqf hujjatida qayd etilgan ma‘lumotlar asosida qayta tiklanmoqda.



H.To‘rayevning ijtimoiy-ma‘rifiy faoliyati Respublika, viloyat rahbariyati, *Oliy*

va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan munosib bahosini oldi.



Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi munosabati bilan H.To‘rayev “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi” (2011-yil) va “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi” (2021-yil) ko‘krak nishonlari, 2016, 2020 yillarda O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining faxriy yorliqlari, 2020 yil Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi Buxoro viloyat komissiyasi rahbariyatining faxriy yorlig‘i, 2024-yil Madaniy meros agentligi faxriy yorlig‘i hamda 2024-yil I-darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



H. To‘rayev 2018-yil “DO‘STLIK” ordeni bilan mukofotlangan.

H.To‘rayev ko‘p qirrali olim, mohir pedagog, jonkuyar ustoz, tashkilotchi va yuksak madaniyatli inson sifatida el-yurt hurmatiga sazovor bo‘lgan.



TO‘XTAYEVA ZEBO SHARIFOVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

To‘xtayeva Zebo Sharifovna, 1971 yilda tug‘ilgan, millati o‘zbek.

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi institutini 1993 yil “Tikuv buyumlari texnologiyasi va konstruksiyasi” mutaxassisligi bo‘yicha imtiyozli tugatgan.

2012 yil 28 iyunda pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasini Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Ilmiy kengashda “Kasb-hunar ta’limida fanlararo uzviylikni ta’minlash metodikasi” mavzusida 13.00.08 – “Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan.

30.05.2018 yilda “Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoni berilgan.

2021 yil 03 noyabrda pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasini Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi Ilmiy kengashda “Oliy ta’limda

umumkasbiy va ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta’minlash metodikasi (yengil sanoat yo‘nalishlari misolida)” mavzusida 13.00.05 – “Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha himoya qilgan. 2023 yilda shu ixtisoslik bo‘yicha professor ilmiy unvonini olgan.



Umumiy ish staji 24 yil, oliy ta’lim muassasasidagi ilmiy-pedagogik ish staji 18 yil. Z.Sh.To‘xtayeva institutdagi pedagogik faoliyati davomida darslarini zamonaviy o‘qitish usullari, innovatsion pedagogik va

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda multimediya ta'lim resurslaridan foydalangan holda olib bormoqda. Ayniqsa, darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarda texnologik, loyihalash, konstruksiyalash kabi zaruriy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan "Logically confusing chain", "Case study", "Keys-stadi", "Classic couple strategy" o'qitish texnologiyalarini, interfaol ta'lim metodlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, ta'limda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini integrativ hamda innovatsion ta'lim muhitida tashkil etib, bakalavriat va magistratura talabalariga zamonaviy ta'lim talablari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda multimediya ta'lim resurslaridan foydalangan holda saboq berib kelmoqda.

Z.Sh.To'xtayeva fakultet, institut va respublika miqyosida o'tkazilgan ommaviy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol tashkilotchisi va ishtirokchisi bo'lib, uning rahbarligida talabalar va pedagog xodimlar orasida dolzarb mavzulardagi bir qator tadbirlar tashkil etilgan.



Viloyat aholisi, ayniqsa, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, diniy ekstremizmning oldini olish, turli ma'naviy-ma'rifiy tahdidlarga qarshi kurashda tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlar olib boradi. Yoshlar orasida "O'z uyingni o'zing asra", "Ogohlik davr talabi" mavzularda davra suhbatlari o'tkazib kelmoqda.

Z.Sh.To'xtayevaning ilmiy rahbarligida 2023 yil aprelda To'raqulova Marjona Qiyom qizi 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo'yicha "Texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishini himoya qilgan 2023 yil avgustda To'raqulova Baxriniso Baxtiyorovna 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligidan "Integrativ ta'lim muhitida ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotlarni tashkil etish jarayonini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilib, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.



Uning ilmiy rahbarligida shogirdi Ubaydova Vazira Erkinovnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishda Naqshbandiya ta'limotini qo'llash metodikasi" mavzusidagi falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Shuningdek, u bugungi kunda 13.00.02 – "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi bo'yicha Gulmatova Hurriyat va Mamatova Sayyoraning, 13.00.05 – "Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi" ixtisosligi bo'yicha Aripjanova Maxfuzaning, 05.06.04 – "Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni" ixtisosligi

bo'yicha Abulova Parvinaning falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun olib borayotgan tadqiqot ishlariga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

Z.Sh.To'xtayeva "Mutaxassislik fanlari" bo'yicha malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi a'zosi, dissertatsiyalarni dastlabki muhokamadan o'tkazish maqsadida institutda tashkil etilgan ilmiy seminarlar a'zosi hamda magistratura bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



Z.Sh.To'xtayeva falsafa doktori ilmiy darajasini olishga talabgor 10 ga yaqin tadqiqotchilarga va fan doktori ilmiy darajasini olishga talabgor bir necha tadqiqotchilarga rasmiy opponet sifatida belgilangan va u dissertatsiyalarni tahlil qilib, taqriz bergan.

Oliy attestatsiya komissiyasining 30.10.2021 y. №01-06/2190-raqamli xatiga ko'ra tasdiqlangan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/29.10.2021.T.101.03 raqamli ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar a'zosi etib tasdiqlangan. Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengash ilmiy seminari a'zosi. Buxoro muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-texnikaviy Kengashi huzuridagi 13.00.00 — Pedagogika fanlari ilmiy seminari raisi

Z.Sh.To'xtayeva kafedra hamda fakultetning o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlarida faol ishtirok etish

bilan bir qatorda institut bakalavr talabalarining bitiruv malakaviy ishlariga rahbar hamda magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalariga ilmiy rahbar sifatida faoliyat olib bormoqda. U bugungi kunga qadar 35 nafar talabaning bitiruv malakaviy ishiga va 12 nafar talabaning magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlik qilgan.



Z.Sh.To'xtayeva fakultet dekani sifatida qator yillar fakultet kengashi raisi hamda institut kengashi a'zosi sifatida kengash yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan masalalar muhokamasida faol ishtirok etib kelmoqda.

Z.Sh.To'xtayeva 334 ta ish e'lon qilgan, shulardan 10 ta monografiya, 7 ta darslik, 11 ta o'quv qo'llanma, jami 248 ta ilmiy va 44 ta o'quv-uslubiy ishlaridir. Jumladan, 2 ta sanoat namunasiga patent, 2 ta yakka mualliflikda va 10 ta hammualliflikda tayyorlangan elektron ta'lim resurslari intellektual mulk agentligining guvohnomasi berilgan.



U talabchan, chuqur mulohazali, jamoa a’zolariga nisbatan g’amxo‘r, adolatli, kafedra mudirlari hamda o‘qituvchilar tomonidan taklif qilinadigan ijobiy yangiliklarni qo‘llab-quvvatlaydigan rahbarlardan biri hisoblanadi.

Z.Sh.To‘xtayeva institut jamoasi orasida xalqimizning urf-odat va an‘analari, milliy qadriyatlarini, jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlashga, institut va fakultetda talabalar va professor-o‘qituvchilar orasida ijtimoiy muhitni yanada sog‘lomlashtirish yo‘lida o‘zining hissasini qo‘shib kelayotgan olima sifatida hurmat qozongan. U hamkasblariga nisbatan xushmuomala, mehribon, g’amxo‘r ustoz sifatida o‘rnak bo‘lib, kattayu-kichikdan o‘z yordamini ayamaydi. O‘zining ko‘p yillik tajriba va ilmiy salohiyati bilan yosh pedagog kadrlarga shaxsiy namuna bo‘lib kelmoqda. Uning Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlardagi ishtiroki, siyosiy faolligi va jamoa ishlarida tashkilotchiligi alohida tahsinga sazovordir.



Z.Sh.To‘xtayeva Magistratura bo‘limi boshlig‘i bo‘lishi bilan birga “Yengil sanoat muhandisligi va dizayn” kafedrasida professori sifatida kafedrada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, o‘quv-uslubiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etib,

tajribali pedagog sifatida dars mashg‘ulotlarini yuqori saviyada olib boradi. U tomonidan reja asosida tashkil etilgan ochiq ma’ruzalar ekspertlar tomonidan ijobiy baholangan.

Oxirgi yillarda u quyidagi stajirovka va malaka oshirish kurslarini o‘tab, sertifikatlar olgan:

2022 yilda M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universitetida Fizika kafedrasida “Fizika fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha 18 soatlik onlayn hamda “To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va ularni loyihalash” kafedrasida “Yengil sanoat mahsulotlarini loyihalash asoslari” moduli bo‘yicha 18 soatlik ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tib, universitet sertifikati bilan taqdirlangan.



2020 yil sentyabr-oktyabr oylarida Respublika Bosh ilmiy-metodik markazida, shu yil dekabr oyida “Stankin” nomidagi Moskva davlat texnologiya universitetida malaka oshirish kursidan o‘tgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.03.2021 yildagi 78-F-son farmoyishiga ko‘ra rejalashtirilgan “Yengil sanoatda fan-ta’lim va ishlab chiqarishning innovatsion yechimlari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya 2021 yil 21 aprelda Z.Sh.To‘xtayeva boshchiligidagi kafedra tomonidan tashkil qilindi va yuqori saviyada o‘tkazildi.

Z.Sh.To‘xtayeva o‘zining pedagogik va texnik sohadagi ilmiy va mazmunli ma’ruzalari bilan respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy, amaliy va uslubiy konferensiyalarda faol ishtirok etib kelmoqda.



TO‘XLIYEV BOQIJON
Filologiya fanlari doktori, professor

Boqijon To‘xliyev Sirdaryoning yonginasidagi O‘zbek Oqjar qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi To‘xliboy Karimov maktabda o‘qituvchi, maktab direktori bo‘lib ish boshlaganlar. Keyinchalik jamoa xo‘jaligining, qishloq jamoa kengashining raisi, oxirgi paytlarda esa jamoa xo‘jaliklararo qurilish tashkilotining xodimlar bo‘limi boshlig‘i bo‘lib ishlaganlar.

Onasi Savriniso Karimova uy bekasi bo‘lganlar. Yoshlik paytlarida onasi ertaklarni, bolalar qo‘shiqclarini ko‘p aytib berar edilar. Bu xislat ularga onalari – enasi (“buvi” qishloq shevasida shunday deyiladi) Gulshanbibidan o‘tgan. Enasi ham bizlarga ham juda ko‘p ertaklarni aytib berganlar. Ular, ayniqsa, ertaklarning matni tarkibidagi she‘rlarni qo‘shiq qilib aytishga usta ekanlar.

B.To‘xliyev tasavvurlari odamlarga, umuman, olamga qarashining shakllanishi va

kengayishida amakisi Tursunboy Karimovning o‘rni juda katta bo‘lgan. U kishi hali talabalik paytidayoq uni “domla” deb chaqirar ekanlar. (Bu qishloqda shunaqa, o‘qituvchini ham yo “muallim”, yo “domla” deb atash hozirgacha ham rasmdan qolmagan).



Undan kattalar: akalarim Omonboy, Qo‘chqorboy, Kimsanboylar kitobning ashaddiy shaydolari bo‘lishgan. Ular o‘qigan kitoblarni ba‘zan so‘rab, ba‘zan so‘ramasdan yosh Boqijon ham o‘qir edi. Kichik akasi o‘sha

paytlarda qishloqda pochta xil vazifasini bajargani uchun uylarida har doim yangi gazeta va jurnallar bo‘lgan. Oilada “Lenin uchquni”, “G‘uncha”, “Gulxan” singari gazeta va jurnallar “bir chetdan” o‘qib chiqilgan.

Maktab sakkiz yillik edi. Shuning uchun 9-10 sinflarni u qo‘shni qishloqda o‘qigan. Bu yerda E‘zozxon Rasulxonov (matematika), Maqsudjon Mirzosaidov (kimyo), Nodir Bo‘riboyev (ona tili va adabiyot) singari o‘qituvchilar saboq berishgan. E‘zozxon aka unga gap kelgan vaqtda “sen matematik bo‘lishing kerak”, – deguvchi ekanlar.

B.To‘xliyevning o‘qituvchilik kasbini tanlashimda mana shu ustozlarning barchasi havas uyg‘otgani tasodif bo‘lmasa kerak.



U 1970-yilda Xo‘jand universitetiga o‘qishga kiradi. Uning o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi bo‘lishida E.Shodiyev, H.Mamadov, V.Rahmonov, E.Sheraliyev, A.Berdaliyev, P.Hamdami, H.Mirxaydarov singari ustozlarga bo‘lgan havasi muhim omil bo‘lganiga shubha yo‘q.



U Toshkentga aspiranturaga hujjat topshirganida, avval, ustoz Yoqubjon Is‘hoqovni so‘rab borgan. Hali talabalik yillaridayoq ustozning maqola va kitoblarini o‘qib, u kishiga havas qilib yurgan. Domla unga “qiyin, lekin istiqbolli” mavzu – “Qutadg‘u bilig‘ning poetikasi”ni tavsiya etadilar. Bu yo‘lda ustozning marhamati, keng fe‘li, shogirdga nisbatan cheku chegara bilmaydigan

mehru muhabbati, shaxsiy kutubxonasidagi manbalardan cheklovlarsiz foydalanish imtiyozini uning eng boy va mustahkam tayanchlari bo‘ladi. Ayni mana shu omillar asosiy adabiyotlar bilan tanishuv jarayonining ichiga nisbatan tezroq kirib borishiga keng va nurli yo‘l ochib berdi. Buning natijasi sifatida yakunda uning kamtarona ishiga ancha jiddiy, muhimi, yuqori baho beriladi. Jumladan, o‘sha paytlarda turkiyshunoslar olamida ancha mashhur bo‘lgan ozarbayjonlik olim, aruz ilmining e‘tirof etilgan mutaxassisi, filologiya fanlari doktori, professor Akram Jafar (Jafarov Akram Saftar o‘g‘li, 1905-1991) “Диссертация написана на уровне между кандидатскими и докторскими диссертациями” (“Dissertatsiya nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari oralig‘idagi saviyada yozilgan”) deb baho bergan edi.



Aziz Po‘latovich Qayumov ham olim taqdiridagi yana bir nurli nuqta sifatida alohida o‘rin tutadi. Yosh olim bu kishi bilan bir tashkilotda ishlagan, o‘ziga shogird qilib olgan ustozni minnatdorchilik bilan esga oladi. Domlaniing tavsiyalar bilan mashhur sharqshunoslar va yirik adabiyotshunoslar A.Krimskiy, akad. Krachkovskiy, E.E.Bertels asarlarini sinchiklab o‘qish imkoniga ega bo‘lganimning natijalarini hozirgacha ham chuqur his etib turadi. Domlaniing sharofati bilan mutaxassislar yaxshi biladigan “Nad arabskimi rukopisyami” (“Arab qo‘lyozmalari ustida”) kitobini zamzama qilibgina qolmay, u haqda Ilmiy kengashda ma‘ruza ham qilgani uning xotirasidagi o‘chmas sahifalarini tashkil etadi.

Boqijon To‘xliyev taqdirning inoyati bilan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida sal kam o‘ttiz yil ishladi.



B. To‘xliyev 2016-yildan buyon Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining “Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik” kafedrasida professor lavozimida ishlab kelmoqda. Bu yerda A. Mannonov, G. Rixsiyeva, Q. Omonov, Q. Sodiqov, M. Qodirov, T. A. Muxtorov, Sh. Shomusarov, U. Muhibova, D. Muhiddinova, singari olimligi bilan odamligi uyqash bo‘lgan yirik siymolar bilan yonma-yonligidan huzur tuyadi.



Olim Sinfidosh, kursdosh, qishloqdoshlari, Toshkentdagi barcha yaqinlari, xususan, odamiylikning eng oliy darajalaridan saboq berib kelayotgan Sotimjon aka, Abduxalil, Nasimxon, Baxtiyor, O‘ktam aka, To‘xtasin, Xudoynazar (olloh joyini jannatda

qilsin), Mirsalimlar tufayli har kuni ularga olqish va duolarini aytadi.



“Devonu lug‘ot it-turk” qadimiy maqollarga boy manba. Ulardan birida “Ashich aytur tubum altun, cho‘mich aytur men qaydaman?” (“Qozon aytur tubim oltin, cho‘mich aytur men qaydaman?”) Xuddi shunga o‘xshash sanalgan manbalarning yonida, ularni kamsitmagan holda, olimning ulardan ham ilgariroq oila a‘zolari, turmush o‘rtog‘i Manzuraxon, qizlari Nargiza, Feruza, Dilfuzalar, o‘g‘li Bahodir, ular qatorida kelini Sitora, kuyovlari Behbud, Bahodirjon, Ilyosjonlar, bir etak nabiralari bilan faxrlanishini, ular bilan birgalikning o‘zini Xudoning inoyati deb bilishini aytgan olimning shukronalari ham e’tirofga sazovor.



Darvoqe, yaqindagina olimning ko‘kragiga “Xalq ma‘orifi a‘lochisi” ko‘krak nishoni yoniga “Mehnat shuhrati” ordening qadalishi olimning ko‘pyillik samarali mehnatlarining munosib natijasi bo‘ldi.



TURABOV NURMUXAMMAT TURABOVICH
Kimyo fanlari nomzodi, professor

Turabov Nurmuxammad Turabovich 1948 yil 10 dekabrda Samarqand viloyati Ishtixon tumanida tug'ilgan. 1973 yili Toshkent davlat universitetining (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) kimyo fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan.



Mehnat faoliyatini 1973 yildan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti Analitik kimyo kafedrasida boshlagan. 1985 yilda 02.00.02 – Analitik kimyo ixtisosligi bo'yicha “Кинетические методы определения фосфорорганических пестицидов

карбофоса, хлорофоса, антио, ДДВФ и фосфамида с использованием реакции о-дианизидин-пероксид водорода” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 1995 yilda 02.00.02 – Analitik kimyo ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvonini va 2022 yilda professor ilmiy unvonini olgan.

1973-1985 yillar O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida katta o'qituvchisi, 1985-1995 yillar O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida dotsenti v.b., 1995-2000 O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida dotsenti, 2000-2005 yillar O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida mudiri, 2005-2018 yillar O'zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida dotsenti, 2018-2022 yillar O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida professor v.b. va 2022 yildan buyon O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti analitik kimyo

kafedra professori lavozimida ishlab kelmoqda.



N.T.Turabov 1998 yildan boshlab o‘rta maktab o‘quvchilari, akademik litsey o‘quvchilarini respublika va Xalqaro Olimpiadalarda kimyo fanidan tayyorlab keladi. U tayyorlagan o‘quvchilar qator yillar Respublika va Xalqaro Mendeleev Olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan, shulardan 3 tasi kumush, 4 tasi bronza va bir nechta diplom bilan taqdirlangan hamda nufuzli oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz qabul qilingan.



2008 va 2013 yillarda O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan Xalqaro Mendeleev olimpiadalarida da jyuri a‘zosi sifatida ishtirok etgan. Respublika va shahar olimpiadalarida kimyo sohasi bo‘yicha jyuri a‘zosi sifatida qatnashib keladi. Ko‘p yillardan beri talabalarining bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari himoyalari bo‘yicha DAK a‘zosi (O‘zMU, GulDU) hamda raisi (TerDU, 2018-2024) sifatida qatnashib kelmoqda.

N.T.Turabov 2000 yildan buyon O‘zMU kimyo fakulteti talabalarini “Analitik

kimyo” fanidan Respublika va Xalqaro Olimpiadalarga tayyorlab keladi. Shogirdlari qator yillar Respublika Olimpiadalarida nufuzli o‘rinlarni egallagan va Angliyaning Bristol universitetiga ta‘lim olgan.

Shuningdek, Oliy attestatsiya komissiyasining ro‘yxatida bo‘lgan “O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari” jurnali, “Research focus” va “International scientific journal of Chemistry and technology” xalqaro ilmiy jurnallarining tahrir hay‘ati a‘zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Turabov Nurmuxammad Turabovich “Ayrim og‘ir va zaharli metall ionlarining mikromiqdolarini ekologik omil sifatida monitoring qilish va ularni aniqlashning yangi spektrofotometrik hamda kompleksometrik usullarini ishlab chiqqan taniqli Respublikamiz olimidir.

N.T.Turabovning og‘ir va zaharli metall ionlarini analiziga bag‘ishlangan 600 dan ortiq ilmiy ishlari chop etilgan bo‘lib, shundan: 6 ta darslik, 12 ta o‘quv qo‘llanma, 24 ta uslubiy qo‘llanmalar, 11 ta monografiya, 5 ta mualliflik guvohnomasi, 2 ta O‘zR patentlaridir. Shuningdek, bir nechta xalqaro, MDH va respublika ilmiy anjumanlarida o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan. Jumladan, Moskva davlat universitetida an‘anaviy o‘tkaziladigan xalqaro konferensiyalarida o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan.



2008 yili “Analitik kimyo laboratoriya mashg‘ulotlari” nomli o‘quv qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Xalq ta‘limi vazirligining “Iste‘dod” jamg‘armasi tomonidan “Yilning eng yaxshi darsligi va o‘quv adabiyoti”

Respublika tanlovi g‘olibi II-darajali diplom bilan taqdirlangan.



O‘zbekiston Milliy universiteti Kimyo fakulteti “Analitik kimyo” kafedrasida o‘tkaziladigan akademik Sh.T.Tolipov nomidagi (1993, 1998, 2003, 2008, 2013, 2018, 2022 y.y.) “Analitik kimyoning dolzarb muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumanining doimiy tashkilotchisi hisoblanadi, shuningdek, Termiz davlat universitetida an’anaviy ravishda o‘tkaziladigan akademik A.G‘.G‘aniyev, akademik N.A.Parpiyev va professor X.T.Turabovlar nomlariga bag‘ishlangan “Analitik kimyoning dolzarb muammolari” Respublika ilmiy-amaliy anjumanining (2002, 2005, 2008, 2011, 2014, 2017, 2020, 2022 y.y.) doimiy ishtirokchisidir.



Nurmuxammad Turabovich Turabov Respublikamizda ilmiy, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda ham o‘zining hissasini qo‘shmoqda, jumladan, uning ilmiy rahbarligida 6 nafar fan nomzodlari va falsafa doktorlari (PhD) tayyorlangan. Hozirgi kunda

esa 4 nafar tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

Shuningdek, Nurmuxammad Turabovich Turabovning rahbarligida 4 nafar Ulug‘bek nomidagi Davlat stipendiatlari tayyorlangan.

Uning “Ayrim og‘ir va zaharli metall ionlarining mikromiqdorlarini ekologik omil sifatida monitoring qilish va ularni aniqlashning yangi spektrofotometrik hamda kompleksometrik usullarini ishlab chiqish” ilmiy-tadqiqotlari natijalari Respublikamiz sanoat korxonalarida joriy qilinib, katta iqtisodiy foyda bermoqda. U 2021-2022 yillarda bajarilgan “AM-FZ-2019081452 “Etilen asosida siklogeksan sintezi texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi Davlat innovatsion granti, 2015-2017 yillarda bajarilgan “A-12-53 Polimer tashuvchilarga immobillangan reagentlar bilan atrof muhit obyektlarida ekotoksikantlarning fotometrik va sorbsion-fotometrik aniqlash usullarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha, 2017-2020 yillarda OT-F7-54 sonli “Nanostrukturali, g‘ovakli va polimer – kremnezem gibrid nanokompozitsion materiallar hosil bo‘lishining fizik – kimyoviy qonuniyatlari va mexanizmlarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyiha, 2012-2016 yillarda F-7-22 “Fenollarni regiosektiv nitrozolash” mavzusidagi fundamental loyihada, 2003-2007 yillarda 3F-3.24. “Инверсионные электроаналитические методы в анализе объектов окружающей среды, природных и промышленных материалов” mavzusidagi fundamental grantlar a’zosisidir.

2023 yili Nurmuxammad Turabovich Turabovning “Analitik kimyo” 2 nashr darsligi “Yilning eng yaxshi o‘quv-adabiyoti muallifi” nominatsiyasi g‘olibi bo‘lgan va universitet rektorining Faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.



TURAYEV BAXTIYOR OMANOVICH
Falsafa fanlari doktori, professor

B.O.Turayev – falsafa fanlari doktori (DSc), professor, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori bosh maslahatchisi, yetakchi ilmiy xodimi, Turon Fanlar Akademiyasi akademigi, 1-darajali mehnat faxriysi, iste’fodagi polkovnik.



U 1979 yili nomzodlik dissertatsiyasini, 1994 yil fan doktori dissertatsiyasini himoya

qilgan, 1989 yil dotsent ilmiy unvonini, 2014 yil professor ilmiy unvonini olgan. U falsafa fanlarining ontologiya, gnoseologiya, logika sohasiga hamda respublikamizda fan va jamiyat taraqqiyotining turli yo‘nalishlariga oid dolzarb falsafiy muammolariga oid 1mingdan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop kitob va maqolalar hamda 200ga yaqin maxsus tahliliy materiallar muallifi, 100dan ortiq ilmiy anjumanlar tashkilotchisi, Milliy istiqlol g‘oyasi konsepsiyasini yaratish bo‘yicha ishchi guruh a‘zosi bo‘lgan. Falsafa yo‘nalishlarida 8ta fan doktori dissertatsiyalariga (DSc) ilmiy maslahatchi, 14 ta fan nomzodi va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalariga ilmiy rahbar bo‘lgan.

B.O.Turayev faylasuf-olim sifatida xorijda, xususan, Moskva, Sankt-Peterburg, Qozon, Rostov na Donu, Yekaterinburg, Novosibirsk, Ufa, Riga, Tallin, Olmaota, Pavlodar, Ashxabad, Bishkek, Kiyev, Irkutsk, Minsk, Xarkov, Xabarovsk, Dushanbe, Boku, Tbilisi, Istanbul, Nyu York, Parij, Tunis, Kuala Lumpur kabi shaharlarida tadqiqot olib borayotgan taniqli faylasuf-olimlar bilan faol ilmiy hamkorlik qiladi, xorijiy nashrlarda ko‘plab ilmiy maqolalar chop etgan.




B.O.Turayev ontologiya va bilish nazariyasi hamda tabiatshunoslik konsepsiyalari sohasida respublikamizda ko'zga ko'ringan taniqli olim, uning borliq, fazo va vaqt haqida, kosmologiyaning falsafiy muammolari haqida yozgan kitoblari zamonaviy o'quv darsliklariga kiritilgan, barcha o'quv yurtlarida uning borliq haqidagi monografiyasidan, logikaga oid masala va mashqlaridan keng miqyosda foydalanishadi. Uning fazo, vaqt va harakatni na faqat materiyaning balki borliqning atributlari deb asoslovchi g'oyasi jahon falsafasida e'tirof etildi. B.O.Turayev bu konsepsiyasida borliqni ham moddiy ham ma'naviy reallik sifatida talqin etadi.



Uning tabiatshunoslik falsafasi qoidalariga oid, olamning kosmologik manzarasi tahliliga oid ilmiy va ommabop asarlari, o'quv qo'llanmalari va lug'atlari na faqat respublikamizda, balki jahondagi keng jamoatchilikka ham tanishdir. Uning 2015 yili Germaniyada rus tilida nashr qilingan "Olamning rivojlanuvchan fazo-vaqt manzarasi" ("Razvivayushayasya prostranstvenno — vremennaya kartina mira") monografiyasi shu soha olimlarining e'tirofini qozondi. Borliqning fazo va vaqt xususiyatlari

talqiniga oid ingliz tilida yozilgan asari ham ko'pchilik tomonidan qiziqish bilan o'rganilmoqda.



B.O.Turayev sinergetika metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishida ilmiy-falsafiy maktab tashkil etdi. Uning hozirgi paytda olib borayotgan tadqiqotlarida sinergetika fanini umumfalsafiy metodologiya sifatida talqin etganligi bu fanning metodologik imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi paytda uning 11 shogirdi sinergetika masalalariga oid tadqiqotlar ustida izlanish olib bormoqda, xususan, 2 ta shogirdi bu yo'nalishda fan doktori (DSc) dissertatsiyasini himoya qildi, 9 shogirdi falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSs) ilmiy darajasini olish uchun izlanish olib bormoqda. Bu borada u shogirdlari bilan "Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi" (1917), "Sinergetika-2: nazariya va amaliyot" (2022), "Sinergetika-3: ma'naviy meros" (2023) jamoaviy monografiyalarini tayyorlashdi. Bu kitoblar faylasuflar e'tiboriga sazovor bo'ldi. Kelajakda ular "Sinergetika-4: sun'iy aql" loyihasi ustida izlanish olib borishni rejalashtirmoqda.

B.O.Turayev ko'p yillardan buyon respublikamizda oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va ularni attestatsiya qilish ishlariga ham faol qatnashib keladi. Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa sohasida ekspert komissiyasi a'zosi hamda ilmiy kotibi bo'lgan, Falsafa va huquq institutidagi, O'zbekiston Milliy universitetidagi va Samarqand davlat universitetidagi falsafa yo'nalishidagi ilmiy kengashlarning a'zosi hamda raisi bo'lib

faoliyat olib borgan. SamDU qoshida ilmiy kengash tashkil etilishining tashkilotchilaridan. Uzoq yillar mobaynida Samarqand davlat universiteti qoshida tashkil etilgan maxsus imtihon komissiyasiga raislik qilib keldi.



B.O.Turayev falsafa tarixi sohasida, ma’naviy merosimiz taraqqiyoti yo‘nalishida ham izlanishlar olib bordi. Dunyoga tanilgan mutafakkirlarimiz merosini targ‘ib etishga oid ko‘plab asarlar, ilmiy to‘plamlar, jamoaviy monografiyalar tayyorlash tadqiqotlariga rahbarlik qildi.



U “Imom Buxoriy saboqlari” jurnali (O‘zbekiston), “Falsafa va hayot” internet-jurnali (O‘zbekiston), “European Multidisciplinary Journal of Modern Science” internet-jurnali (Germaniya) tahrir hay’ati

a’zosi hamda “International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences” internet-jurnali (O‘zbekiston) Bosh muharriri.



Ilm-fanga qo‘shgan ulkan hissasi, ko‘p yillik ilmiy-ijodiy faoliyati uchun B.O.Turayev 2000 yili “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2002 yilda “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 10 yil” esdalik nishoni, 2017 yilda “O‘zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil” esdalik nishoni, 2021 yilda “Mehnat faxriysi” I darajali ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan. U 2021 yil 19 aprelda O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi Vasiylik kengashining №1–Qaroriga asosan BIRINChI DARAJALI “MEHNAT FAXRIYSI” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



TURSUNMURATOV TURDIMUROD MAXAMATQULOVICH
Siyosiy fanlar doktori, dotsent

Siyosiy fanlar doktori, dotsent Turdimurod Maxamatqulovich Tursunmuratov, 1967 yilda Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida tugʻilgan. Millati oʻzbek.



2015 yildan buyon 2015 yilning noyabr oyidan boshlab Toshkent shahridagi Inxa universitetining yoshlar masalalari, maʼnaviy va maʼrifiy ishlar boʻyicha birinchi prorektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi koʻkrak nishoni bilan taqdirlangan.

T.Tursunmuratov 1983 yilda Toshkent shahridagi Respublika yosh fiziklar va matematiklar maktabini tamomlagan. Shu yili Respublika miqyosida oʻquvchilar oʻrtasida fizika fanidan oʻtkazilgan olimpiadasida nufuzli uchinchi oʻrinni egallab sohaga oid yoʻnalishlarga ega universitetlarga imtihonsiz qabul qilinishi huquqini beradigan imtiyozli diplom bilan taqdirlangan. U 1993 yilda N.E.Bauman nomidagi Moskva Davlat texnika universitetini “Koinotda uchuvchi apparatlar va tezlatgich bloklar” mutaxassisligi boʻyicha muvaffaqiyatli tugatdi. Talabalik yillarida dunyoning yetakchi oliy taʼlim muassasalari qatoridan joy olgan N.E.Bauman Universiteti professori Y.I.Klyuev rahbarligida yupqa devorli metall konstruksiyalarning sunʼiy

yo‘ldosh va raketalarda ishlatilishi muammolarini o‘rganib, matematik modellar yordamida ularning katta yuklamaga bardosh berishini o‘rgandi.

Shu bilan birga u M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universitetining Yadro Fizikasi Institut professori L.D. Bloxintshev qo‘lida Yadro fizikasi, Kvant mexanikasi, Uchta jism masalasi kabi fanlardan qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalar oldi.



T.Tursunmuratov o‘zining ilmiy faoliyatini 1994 yili O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Yadro Fizikasi Instituti Nazariy fizika bo‘limida boshladi. Institutda yosh mutaxassis, dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va olimlarining uzoq yillar davomida o‘ylantirib kelayotgan, Quyoshda yuz beradigan jarayonlar bilan bog‘liq “Neytrino muammosi” deb nom olgan mashhur fenomenni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirdi.



Tadqiqotlar natijalari g‘arb mamlakatlarining nufuzli ilmiy jurnallari sahifalarida chop etildi.

T.Tursunmuratov 1997 yili O‘zbekiston Respublikasi Koinotni tadqiq etish “Uzbekkosmos” agentligiga ishga o‘tib u erda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni

boshqarish bo‘limida rahbar lavozimida faoliyat olib bordi.

“Uzbekkosmos” agentligida faoliyat olib borish bilan birga u turli xalqaro grantlar sohibi bo‘lib dunyoning yetakchi ilmiy va oquv markazlari dasturlarida ishtirok etdi.

1999 yilda BMT ning Osiyo va Tinch Okeani hududlari mamlakatlarining “Koinot fanlari va texnologiyalari” markazi tomonidan Hindistonning Gujarat shtatida joylashgan Fizika laboratoriyasida tashkil etilgan maxsus kurslarda o‘z malakasini oshirdi.



2001 yili Fransiyaning Strasburg shahrida joylashgan Xalqaro koinot universitetining Germaniyaning Bremen Universiteti bilan hamkorlikda tashkil etgan akademik dastur doirasida tahsil oldi va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etdi.

2002 yili yosh tadqiqotchi Amerika Qo‘shma shtatlari Davlat Departamenti granti sohibiga aylanib, AQShning Massachusets shtatida joylashgan Boston Universitetida koinot texnologiyalari sohasida ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Dunyoning turli nufuzli ilmiy maskanlarida olgan bilim va ko‘nikmalari uning 2003 va 2006-yillarda Fransiyaning Strasburg shahridagi Xalqaro koinot universitetida, 2002-yili Avstriyaning Gratz Texnologiyalari universitetlarida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va dunyoning turli davlatlaridan kelgan ekspertlari uchun ma‘ruzalar o‘qish imkonini berdi.

T.Tursunmuratovning zamonaviy texnologiyalarga, xususan koinot texnologiyalari va yadro fizikasiga oid bilim va

ko‘nikmalarga egaligi, ingliz va rus tillarini mukammal bilishi uni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida bosh ilmiy xodim va loyiha rahbari lavozimlarida faoliyat olib borishiga zamin yaratdi. 2005-2008 yillar davomida bu oliy dargohda u xalqaro munosabatlar, milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalariga oid qator yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib bordi.



2008 yili hukumat vakillari va Institut rahbariyatining tavsiyasi bilan T.Tursunmuratov O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Tashqi siyosiy faoliyat tahlili va strategiyasi Bosh boshqarmasida birinchi kotib lavozimida o‘z faoliyatini davom ettirdi. Vazirlikning rejasi doirasida tahliliy materiallar tayyorlash bilan birga Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining (JIDU) mustaqil tadqiqotchisi sifatida ham ilmiy izlanishlarni amalga oshirdi.



2008 yilning 28 aprelida JIDUda “Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligini ta’minlashda ilmiy texnologik salohiyat omili” mavzuida 23.00.04 — Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo‘yicha siyosiy fanlar

nomzodi (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Hay’at kengashining qarori bilan 2008-2010 yillarda T.Tursunmuratov mamlakatimizning Belgiya davlati poytaxti Brussel shahrida joylashgan NATO tashkiloti huzuridagi Missiyasida birinchi kotib sifatida o‘z faoliyatini olib bordi. Bu erda u O‘zbekistonning NATO bilan hamkorligining siyosiy jihatlari yo‘nalishiga mas’ul diplomat bo‘lishi bilan birga ikki tomonlama shartnomalar doirasida rejalashtirilgan ilmiy loyihalarni amalga oshirishda koordinator sifatida faoliyat olib bordi. Bunday loyihalardan bittasi sobiq Ittifoq davridan mamlakatimiz huzurida saqlanib qolgan, atrof-muhitga ekologik nuqtai nazardan katta tahdid solishi mumkin bo‘lgan, koinotga uchuvchi apparatlar yoqilg‘isi “Melanj” komponentini utilizatsiyasi edi. 2008-2010 yillar davomida hukumatimiz tomonidan olib borilgan say’i harakatlar natijasida NATO tashkiloti tomonidan mobil zavod olib kelinib katta hajmdagi zaharli okislitel suyuq azotga aylantirilib ko‘kalamzorlashtirish maydonlarida o‘g‘it sifatida ishatildi.

2010-2011 yillarda T.Tursunmuratov Tashqi siyosiy tadqiqotlarni muvofiqlashtirish tahlili markazida bosh ilmiy xodim sifatida milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik masalalari ustida ilmiy ishlarni amalga oshirdi.

2012-2015 yillarda O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida “Milliy va iqtisodiy xavfsizlik muammolari” kafedrasini mudiri vazifasini bajardi. Bu davrda u Xalqaro munosabatlar, Milliy xavfsizlik, O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, MDH davlatlari hamkorligi kabi fanlardan ma’ruzalar oqish bilan birga boshqaruv kadrlar vakillaridan tanlab olingan tinglovchilarning o‘nlab magistrlik diplom ishlariga rahbarlik qildi.

Shu bilan birga u O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni muvofiqlashtirish qo‘mitasining grantpri g‘olibi bo‘lib, A-1-093 “Amaliy xavfsizlikda o‘yinlar nazariyasi”, A-068+A1-078 “Jamiyat siyosiy tizimi modernizatsiyalash va demokratlashuvining zamonaviy tendentsiyalari” nomli ilmiy tadqiqot dasturlarini amalga oshirishda loyiha rahbari va ilmiy tadqiqotchi sifatida ishtirok etdi.



2019 yilning 27 dekabr kuni T.Tursunmuratov Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi ilmiy kengashda “Global texnologik rivojlanish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga yevroatlantik omilning ta’siri” mavzusida 23.00.04 — xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari ixtisosligi bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasini himoya qildi.



Dissertasiyada yevroatlantik tuzilmalarning Markaziy Osiyodagi siyosiy faoliyati xalqaro munosabatlarning ushbu hududdagi segmenti shakllanishiga ijobiy va salbiy ta’siri asoslab berildi.

Ilmiy ish doirasida 2014 yilda Afg‘onistondan Xavfsizlikka ko‘maklashuvchi xalqaro kuchlar (ISAF) chiqib ketishiga qaramay, Amerika Qo‘shma Shtatlari tashqi siyosati doirasida Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining geosiyosiy va geostrategik muhim ahamiyatini saqlab qolgani asoslab berildi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan geosiyosiy va geostrategik raqobat sharoitida va mamlakatning ichki siyosiy barqarorligini ta’minlash maqsadida, EI, NATO tomonidan mintaqa davlatlari uchun ajratilgan maqsadli mablag‘lari va texnik qo‘llab-quvvatlashi asosida, narkotiklar noqonuniy tarqalishining oldini olishning axborot-kommunikatsion va koinot texnologiyalariga asoslangan mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratishning zarurati asoslab berilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasi seysmik faol hududda joylashganligi hamda mintaqa davlatlarida, xususan, O‘zbekiston Respublikasida yirik sanoat korxonalarining soni ortib borayotganligidan kelib chiqib, EI va NATO ilmiy fondlari va agentliklari bilan hamkorlikda texnogen xarakterdagi tahdidlarning oldini olish bo‘yicha milliy tizimni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish zarurati ochib berilgan.

Siyosiy fanlar doktori Tursunmuratov Turdimurat Maxamatqulovich 2019-2021 yillarida O‘zbekiston Islom akademiyasining “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida, 2022-2024 yillarda Ijtimoiy siyosiy fanlar Institutining “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida dotsent hamda 2023-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy metodik markaz professori v.b. sifatida o‘rindoshlik asosida ish olib bormoqda.

U mazkur oquv yurtlarida zamonaviy o‘qitish usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda multimedia ta’lim resurslaridan foydalangan

holda “MDH doirasidagi integratsion jarayonlar” hamda “Konfliktologiya” fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari doirasida ma’ruza va seminarlarni o‘tdi.



T.Tursunmuratov ilmiy rahbarligida Sobirov Javohirxon Alloberganovich, O‘zbekiston Islom akademiyasi, Xalqaro munosabatlar kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi sifatida “O‘zbekiston tashqi siyosatida turkiy davlatlar tashkiloti vektori va uning istiqbollari” mavzusida 23.00.02 — siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo‘yicha siyosiy fanlar falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini amalga oshirib 2024 yilning 26 iyun kuni O‘zbekiston Sharqshunoslik Institutida Ilmiy seminarda oz ishini taqdim etdi va himoyaga tavsiya etildi.



Shu bilan birga T.Tursunmuratov mustaqil tadqiqotchi G.Djumaeva “Makaziy Osiyoda buyuk derjavalarning geosiyosiy manfaatlari” (“Geopolitichekie interesi velikix

derjav v Tsentralnoy Azii”) mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini (DSc) ilmiy maslhatchi sifatida hamda B.Abdulhalikiov ‘Raqamli texnologiyalarning yoshlar mafkuraviy immunitetiga ta’siri” mavzuidagi falsafa fanlari doktori (PhD) disertsiyasiga ilmiy rahbarlik qilmoqda.



Siyosiy fanlar doktori T.Tursunmuratov 2020 yildan buyon O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi DSc.20/13.05.2020 DSc,23/03 raqamli Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar a’zosi.

U O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda boshqa tegishli organlar ishchi guruhlarida ham faol ishtirok etadi.

S.f.d. T.Tursunmuratov 2015 yilning noyabr oyidan boshlab Toshkent shahridagi Inxa universitetining yoshlar masalalari, ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori lavozimida faoliyat olib bormoqda. Bu lavozimda u nafaqat talaba yoshlar tarbiyasi va ma’naviy barkamolligi ustida, balki ulaning raqamli texnologiyalar sohasida yetuk mutaxassislar bo‘lib shakllanishlari, turli ilmiy hamda startap loyihalarni amalga oshirib mamlakatimizning texnologik salohiyatini mustahkamlashga munosib hissa qo‘shadigan muhandislar bo‘lib etishishlari ustida tinimsiz ish olib boradi.



TURSUNOV SOBIR TURDIYEVICH

Tibbiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobir Turdiyevich Tursunov 1964-yil 13-oktyabrda Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida ishchi oilasida tug‘ilgan. Ma’lumoti – oliy. Ixtisosligi vrach-pediatr, boshqaruv magistri, pedagog. Tibbiyot fanlari nomzodi, pedagogika fanlari doktori, professor.

Mehnat staji 37 yil. 23 yil ilmiy pedagogik ish stajiga ega, hozirgi vaqtda Toshkent shahar Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi direktori lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.



1981-yilda Qarshi shahridagi 8-o‘rta maktabni oltin medal bilan tugatgan. 1981-yilda O‘rta Osiyo Pediatriya meditsina institutiga o‘qishga kirib, uni 1988-yilda tamomlagan. 1989-1990-yillarda vrach-

internat, 1990-1991-yillarda Toshkent Pediatriya meditsina institutiga katta laborant, 1991-1994-yillarda aspirant, 1994-1995-yillarda klinik farmakologiya kafedrasida assistent, 1995-1996-yillarda Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmasida yetakchi mutaxassis, 1996-1999-yillarda Qashqadaryo viloyat hokimligida bosh mutaxassis, 2001-2002-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi tinglovchisi, 1999-2005-yillarda Qarshi tibbiyot kolleji direktori, 2005-2009 hamda 2009-2014-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining o‘rinbosari, O‘zbekiston “Adolat” SDP fraksiyasi rahbari, Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi a‘zosi lavozimlarida ishlagan.

Rossiya davlat tibbiyot universitetidagi Ixtisoslashgan kengashda tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun “*Новые возможности применения антиоксидантов для лечения и профилактики при аллергических реакциях немедленного типа*” mavzusida 14.00.36 – allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo‘yicha bajarilgan

dissertatsiyasini 1994-yil 19-sentyabrda himoya qilgan.

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ixtisoslashgan kengashda Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish maqsadida “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida “Sog‘lomlashtirish maktabi pedagogik tizimini rivojlantirish” mavzusida 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha bajarilgan dissertatsiyasini 2011-yil 21-iyunda himoya qilgan.



Shuningdek pedagogik faoliyatini davom ettirib o‘rindoshlik asosida 2010-2012-yillarda Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida dotsent, 2012-yildan 2015-yilgacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Zoologiya, anatomiya va fiziologiya kafedrasida professor vazifasini bajaruvchisi bo‘lib ishlagan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etilishiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Bevosita uning muallifligi va tahriri ostida o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylar uchun “Bolalar kasalligi va uning anatomik – fiziologik xususiyatlari”, “Sog‘lom turmush tarzi”, “Teritanosil kasalligi”, “Asab-ruhiy kasalligi” hamda “Tibbiy biofizika” fanlaridan o‘quv qo‘llanma va darsliklar yozgan. Shuningdek, Mustaqillik – xalqimizning tarixiy g‘alabasi, Формирование “школы здоровья” в профессиональном колледже, Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda reproduktiv salomatligini mustahkamlash va sog‘lom

turmush tarzini shakllantirish kabi mavzulardagi kitoblar muallifi.

2001-yilda Qashqadaryo viloyatida “Shifo va ziyo” tibbiy-ma’rifiy viloyat gazetasini tashkil etgan.

O‘tgan yillar davomida 2 ta monografiya, 7 ta darslik, 30 dan ortiq o‘quv-uslubiy qo‘llanma hamda 70 ga yaqin ilmiy, 300 dan ziyod ijtimoiy-siyosiy, madaniy–ma’rifiy mavzularda maqolalar tayyorlagan.

Sobir Turdiyevich Tursunov Nizomiy nomidagi Pedagogika universiteti ilmiy kengashi hamda Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy-metodologik kengashi a’zosi sifatida faoliyat yuritgan. Institut ilmiy-pedagogik faoliyatida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarga bevosita aloqador.

Sobir Turdiyevich Tursunov pedagogik faoliyat bilan birga jamoat ishlarida ham faol ishtirok etadi. U vazirlik, institut va yuqori tashkilotlar tomonidan berilgan vazifalarga mas’uliyat va javobgarlikni his qilgan holda ularni tashabbuskorlik va ijodiy yondashuv asosida bajaradi, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. O‘zining ilmiy-pedagogik va kasbiy mahoratini takomillashtirishga alohida e‘tibor beradi. Barchaga xushmuomala bo‘lish bilan birga o‘tilgan mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishga talabchanlik bilan yondashadi.

Sobir Turdiyevich Tursunov ilmiy rahbarligida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) bo‘yicha 10 ga yaqin ilmiy izlanuvchiga ilmiy rahbar bo‘lib kelgan.

Shuningdek, S.T.Tursunov 20 dan ortiq mustaqil izlanuvchiga rasmiy opponent bo‘lgan, 100 dan ortiq mustaqil izlanuvchilar hamda tayanch doktorantlarning dissertatsiya va avtoreferatlariga taqrizlar hamda o‘quv qo‘llanmalarga ham taqrizlar bergan.

2016-yil 13-fevralda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti “UNISEF” ning vaksinalar

yordamida boshqariluvchi yuqumli kasalliklar va immunizatsiya dasturini tibbiy ta’limga tatbiq etish” bo’yicha 40 soatlik seminarda ishtirok etganligi haqida KN^o 4/1 raqamli sertifikat bilan taqdirlangan.



O‘zbekiston iqtisodiyoti va taraqqiyoti yuksalishini keng qamrovli aholiga, maktab o‘quvchilariga, oliy o‘quv yurti talabalari ilmiy xodimlariga yanada ko‘proq ma’lumot tarzda yetkazishda o‘z asarlari, maqolalari bilan ommaviy axborot vositalarida yoritib turadi



Sobir Turdiyevich Tursunov Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ta’lim islohotlari va ta’lim tizimi rivojiga katta hissa qo‘shmoqda. Xalqaro hamkorlik aloqalarini amalga oshirish, ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Belorussiya davlatining D.A.Saxarova nomidagi tibbiyot muassasasi, Yujno-Uralsk davlat tibbiyot universiteti, Litva davlati tibbiyot universiteti hamda Antonova nomidagi Vitebsk davlat tibbiyot kolleji bilan ikki tomonlama faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, ta’lim to‘liq xorijiy tillarda olib boriladigan ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari salmog‘ini oshirib borish, jahon ilmiy

tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, sohalarga ixtisoslashtirish maqsadi qo‘yilgan.

Bir necha jamoat ishlarida qatnashgan. Xususan, 2002-2004-yillarda Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat saylov komissiyasi raisi vazifasida va hozirgi kunda esa O‘zbekiston “Adolat” sosial–demokratik partiyasi faoli hamda “Adolat” ijtimoiy-siyosiy gazetasi tahrir hay’ati a’zosi. Shuningdek, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi 28-saylov okrugi deputati etib saylangan.

Sobir Turdiyevich Tursunov ilmiy va pedagogik malakasini oshirish va tajriba almashinish maqsadida Belorussiya Respublikasida o‘tkazilgan konferensiya ishtirokchisi, shuningdek, ushbu anjumanda o‘z nutqi bilan ishtirok etgan.

S.T.Tursunovning xizmatlari hukumat tomonidan bir necha bor taqdirlangan bo‘lib, ular jumlasiga: O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10,15, 20 va 30 yilligi munosabati bilan esdalik ko‘krak nishoni, 2007-yilda “Sog‘liqni saqlash a’lochisi” ko‘krak nishoni, 2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti “Shuhrat medali” bilan taqdirlangan.



S.T.Tursunov liderlik qobiliyatiga ega tashkilotchi va keng ko‘lamda fikrlovchi rahbardir. U katta hayot tajribasiga ega bo‘lish bilan birga, yuksak ma’naviyat sohibi, atrofda qilarga namuna, o‘ziga va jamoa a’zolariga nisbatan sofdil va talabchan rahbar.

Oilali 4 nafar farzandning otasi hamda 10 nafar nabiralarning bobosi.



ULUG‘OV ABDULLA O‘ZBEKOVICH
Filologiya fanlari nomzodi, professor

Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, professor Ulug‘ov Abdulla O‘zbekovich 1960 yil 5 dekabrda Surxondaryo viloyati Angor tumanidagi Qorasuv qishlog‘ida tug‘ilgan. Qishloqdagi o‘rta maktabda o‘qigan (1968 – 1978). ToshDU o‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan (1978 – 1983). “Hozirgi o‘zbek qissachiligi taraqqiyoti tamoyillarining adabiy tanqidchilikdagi talqini (70–80-yillar qissalari misolida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan (1988).

O‘zbek filologiyasi fakultetida laborant, katta laborant, o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent lavozimlarida ishlagan. 2016 yildan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasida professor lavozimida faoliyat ko‘rsatadi.

“Hozirgi o‘zbek qissachiligi” (“O‘zbekiston”, 1987), “Qissachiligimiz qirralari” (“O‘qituvchi”, 1991),

“Adabiyotshunoslikka kirish” (“Universitet”, 2000, 2005), “Inson ibratga intiladi” (“O‘zbekiston”, 2007), “Asl asarlar sehri” (G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007), “Vatan – jon va tan” (G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008), “Qalb qandili” (“Akademnashr”, 2013) kitoblari, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darsligi (G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018), Olimning “Jahon adabiyoti (Turkiy xalqlar adabiyoti)” darsligi zarur o‘quv adabiyoti sifatida O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug‘iga asosan universitetlar va pedagogika institutlari filolog, jurnalist talabalariga darslik sifatida tavsiya etilib, 2021 yilda “Muharrir” nashriyotida bosilib chiqqan (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2021 – 424 bet). Adabiyotshunosning ulug‘ o‘zbek mutafakkiri Alisher Navoiyning shaxsiy hayotiga bag‘ishlangan “Vaqfiya” – buyuklik

dalolatnomasi” monografiyasi (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2020. – 168 bet), mashhur o‘zbek adibi Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi tahlil qilingan “Durdona yoxud tag ma’noga to‘la “Dahshat” monografiyasi (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2019 – 120 bet), “Arastu anglatgan adabiyot” monografiyasi (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2022. – 236 bet), “Chingiz Aytmatov muhtasham adabiy olami” monografiyasi (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2023. – 168 bet), “Rauf Parfi – hassos shoir” monografiyasi (Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2024. – 392 bet) nashr etilgan.



Izlanuvchan adabiyotshunosning “Sinovli dunyo sirlari yoxud “Tarixi anbiyo va hukamo”dan muddao” monografiyasi (Toshkent: “Factor press”, 2023. – 464 b.)da ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning payg‘ambarlar va hakimlar tarixiga bag‘ishlangan “Tarixi anbiyo va hukamo” asari tahlil etilgan.

Respublika gazeta-jurnallarida 350 dan ortiq adabiy-tanqidiy, publitsistik maqolasi, “Eng baxtli kun” (“Tong yulduzi” gazetasi), “Shayx Najmiddin Kubro” (“Guliston” jurnali) dramalari, ayrim hikoyalari (“Sho‘rtepadagi sho‘rlik”), tarjimalari bosilib chiqqan. “Sharq yulduzi”, “Yoshlik”, “Tafakkur”, “Guliston”, “Saodat”, “Jahon adabiyoti”, “Yosh kuch”, “San‘at” jurnallarida, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, “Xalq so‘zi”, “O‘zbekiston ovozi”, “Ma‘rifat”, “Tong yulduzi”, “Hurriyat”,

“Mohiyat” “Milliy tiklanish”, “Fidokor”, “Hordiq”, gazetalarida turli muammolar to‘g‘risidagi adabiy-tanqidiy, ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalari, esselari chop etilgan.



Uning adabiy-tanqidiy maqolalarida hozirgi adabiy jarayon tahlil qilinib, she‘riyatda, roman, qissa, hikoyalarda bugungi kun kishilarining dunyoqarashi, ruhiy-ma‘naviy olami qanday gavdalanirilgani to‘g‘risida so‘z yuritiladi. A.Ulug‘ovning adabiy-tanqidiy maqolalari markazida doimo adabiy qahramon muammosi turadi. U badiiy asarlarda inson obrazining ko‘rsatilishi, adabiy qahramonlar timsolida kishilarning tashqi qiyofasi va ichki olami aks ettirilishiga e‘tibor qaratib, adabiy janrlarning xususiyatlari, ijodkorning badiiy mahorati to‘g‘risida o‘ziga xos mushohada yuritadi. A.Qodiriy, A.Qahhor, A.Oripov kabi ijodkorlar asarlarida hayot hodisalari va inson dunyosi san‘atkorona mahorat bilan ko‘rsatilgani xususida mulohaza bildiradi.

Adabiyotshunosning qator maqolalari Turkiyada nashr etilgan “Turk dunyosi adabiyoti” ko‘p jildli qomusida, AQSH, Hindiston, Makedoniya, Chexiya, Turkiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan xalqaro ilmiy konferensiya, simpozium, ilmiy to‘plamlarida e‘lon qilingan.

“Turkiy adabiyot xazinasini” turkumida nashr etilgan 100 jildlik asarlar to‘plami 60-jildida ulug‘ ozarbayjon adibi Muhammad Said O‘rdubodiyning “Qilich va qalam” romanini

nashrga tayyorlab, unga “Tarixning tiniq tasviri, turmushning teran tahlili” maqolasini taqdim, chop ettirgan (Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 824 b. – 3 – 27-betlar). 95-jildida turkman adibi Xidir Deryayevning “Qismat” romanini nashrga tayyorlab, unga “Tarixiy davr ko‘zgusi” maqolasini taqdim etib, chop ettirgan (Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022.– 480 b. – 3 – 15-betlar).



Mazkur turkumning 17-jildi (Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Said Ahmad hikoyalari) dan uning “Hikoyada hayot manzaralari” maqolasi o‘rin olgan (Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 592 b. – 3 – 14-betlar).

Adabiyotshunos adabiy-tanqidiy maqolalarida zamonaviy adabiy jarayonni asosiy obyekt qilib olgan va o‘zbek adiblari asarlarini jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslashga intilgan. U asarlarida inson obrazi qanday gavdalantirilganiga e‘tibor qaratgan holda, hikoya, qissa, romanlarda hayot hodisalari va adabiy qahramon obrazi qanday aks ettirilgani xususida mulohaza bildirgan.



Hamda shu asosda zamonaviy o‘zbek adabiyotida hayot haqiqati va inson obrazini gavdalantirishda qanday o‘shish-o‘zgarish, yangilanish ro‘y berganini ko‘rsatishga harakat qilgan. A. Ulug‘ov XX asr o‘zbek adabiyoti namunalari bu jihatdan tahlil qilish, baholash uchun jahon adabiyoti mumtoz asarlarini andoza, mezon qilib olish orqali bu davrda o‘zbek adabiyotida muayyan ijobiy o‘zgarish yuz berganini A. Qodiriy, A. Qahhor, A. Oripov kabi ijodkorlar asarlari misolida asoslashga intilgan. Adabiyotshunosning “Hozirgi o‘zbek qissachiligi”, “Qissachiligimiz qirralari” kitoblarida zamonaviy o‘zbek qissalarida turmush voqeligi va inson obrazi qanday gavdalantirilgani xususida mulohaza bildirilsa, “Inson ibratga intiladi”dagi maqolalarda adabiy qahramonning ijtimoiy hayotdagi qadri va adabiyotdagi ahamiyatiga e‘tibor qaratilib: “Adabiy qahramon azal-azaldan adabiyotning eng muhim muammolaridan biri sanaladi. Chunki adabiyotning “qiyofa”si, ya’ni unda odam va olam manzarasining aks etishi avvalo adabiy qahramonlarda namoyon bo‘ladi. Adabiy qahramon obrazi har bir davrda milliy adabiyotda inson dunyosini anglash, tushunishda qanday darajaga erishilganini ko‘rsatadi. Negaki qahramon dunyoqarashida, uning fe‘l-atvori, kechinmalarida muayyan tarixiy davrning o‘ziga ijtimoiy siyosiy xususiyatlari, kishilarning turmush tarzi namoyon bo‘ladi” deb ta’kidlangan. Ushbu kitobdagi maqolalarda doston, roman, hikoya, qissa, tragediya, drama, she‘r insonning ruhiga ta’sir ko‘rsatishi, o‘ylantirishi, umuman,

adabiyot ibrat olish mumkin bo‘lgan adabiy qahramonlar taqdim etib, ularning turli holatlarini ko‘rsatib berishi bilan ijtimoiy salmoqqa ega ekani qayd etiladi. “Asl asarlar sehri” esa Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Abdulla Oripov asarlari tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda diqqat markaziga “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Sarob” romanlari, “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Dahshat” kabi hikoyalar qo‘yilib, ularda adabiy qahramonlar obrazi qanday gavdalantirilganiga urg‘u beriladi. “Qalb qandili” adabiy-tanqidiy maqolalar, adabiy portret, adabiy tanqidiy ocherkdan iborat bo‘lib, unda dastlab G‘afur G‘ulom, Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Halima Ahmedova, Aziz Said she‘rlari tahlil qilingan. “She‘rsevar el shoiri” adabiy portreti va “Tildan dilga” maqolasida esa iste‘dodli shoir Eshqobil Shukur ijodi yoritilgan.

“Baxtinning baxti va...” adabiy-tanqidiy ocherkida ulug‘ faylasuf, mashhur adabiyotshunos Mixail Baxtin ijodiy faoliyati bilan tanishtirilgan. A.Ulug‘ovning “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi”, “Yoshlik” jurnallarida, turli to‘plamlarda bosilgan “Tushg‘aroyib jumboq”, “Arastu anglatgan adabiyot”, “G‘addor yoxud tuhmatnomalarni kim bitgan?”, “Zamon va makon musavviri” kabi maqolalarida teran ilmiy kuzatishlar ehtiros bilan ifodalangan. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darsligi oliy o‘quv yurti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda adabiyotshunoslikdagi an‘anaviy qarashlar bilan zamonaviy yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirishga harakat qilingan. Adabiyotshunosning “Vatan – jon va tan” kitobida XX asr o‘zbek she‘riyatida Vatan mavzusi qanday talqin qilingani haqidagi adabiy-tanqidiy maqolalari hamda “Tabarruk Termiz” badiasi jamlangan. Maqolalarda Fitrat, Cho‘lpon, Hamzaning Vatan ozodligi orzusida yonib bitgan she‘rlari, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda O‘zbekistonni to‘lib-toshib madh

etgani, Abdulla Oripovning ayni mavzudagi she‘rlari Vatan to‘g‘risidagi tasavvurimizni teranlashtirish bilan adabiyotimizda chinakam yangilik bo‘lgani bayon qilingan. “Tabarruk Termiz” badiasida ushbu qadimiy shahar jonajon yurtimizning muborak maskanlaridan biri ekanligi ta‘riflangan.

A.Ulug‘ov “San‘at”, “Bozor, pul va kredit”, “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnallari, “Hurriyat” gazetasi va boshqa nashrlarda o‘rindoshlik asosida faoliyat olib borgani uchun sohaga tegishli ko‘plab maqolalarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimasida Turdali Masutovning necha o‘n yillardan beri dunyo ahlini bezovta qilib kelayotgan afg‘on voqealariga bag‘ishlangan “Qil ustidagi qismat” hujjatli qissasi (Toshkent: “MERIYUS” XMNK, 2016. – 416 bet) bosilib chiqqan.

Maqolalari Istanbulda chop qilingan “Turk dunyosi yozuvchilari ensiklopediyasi”da, Ozarbayjon, Qozog‘istonda nashr etilgan ilmiy to‘plamlarda bosilib chiqqan.

2011 yilda “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan.

2013 yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 22 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan “Vatan uchun yashaylik” III Respublika tanlovida uning “Qalb qandili” kitobi ikkinchi darajali diplom bilan taqdirlangan.

Turkiyada nashr etilgan “Turk dunyosi adabiyoti” ko‘p jildli qomusida qator maqolalari e‘lon qilingan.

Ayni paytda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon kafedrasida professori sifatida faoliyat olib bormoqda.

U 14.05.1992 yildan O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi (guvohnoma raqami YU №0131).



USAROV MAXAMATALI KORABOYEVICH
Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Usarov Maxamatali Koraboyevich 1960 yil 15-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati, Beshariq tumanida tug'ilgan.

Usarov Maxamatali Koraboyevich 1983 yilda Toshkent Davlat universitetini (hozirgi O'zMUni) "Mexanika" mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, shu yili O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutiga injener lavozimiga ishga qabul qilingan. Maxamatali Koraboyevich 1984-1987 yillarda O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti aspiranti, 1987-2014 yillarda O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida injener, kichik ilmiy xodim, ilmiy xodim va katta ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan hamda doktorantura bo'limida o'qigan. U 2014 yildan hozirgi kunga qadar shu institutning "Fazoviy inshootlar dinamikasi" laboratoriyasi mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

M.K. Usarov 1990 yilda «Qo'shimchasi bo'lgan uch qatlamli plastinalar ustuvorligi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan va fizika-matematika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan. 2010 yilda esa katta ilmiy xodim ilmiy unvonini olgan. M.K. Usarov 2018 yilda «Qalin anizotrop plastinalarning bimomentli nazariyasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya

qilib, fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. 2022 yili esa professor unvonini oldi.



So'nggi 20 yil ichida M.K. Usarov rahbarligida bajarilgan davlat grantlari asosida olib borilgan fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar laboratoriya ilmiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Bu davrda elastiklik nazariyasining uch o'lchovli dinamik masalalarini gipotezalarsiz ikki o'lchovli dinamik masalalarga keltirish va ularning sonli yechimlarini qurish usullari ishlab chiqildi hamda inshootlar dinamikasining dolzarb masalalarini yechishga tatbiq etildi.

M.K. Usarovning ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida fundamental va amaliy yo'nalishlarda, jumladan: qalin anizotrop plastinalar, qobiqlar egilishi va tebranishlarining gipotezalardan holi bo'lgan bimomentli nazariyasi hamda qalin ortotrop to'ldiruvchili uch qatlamli plastinalarning

egilish va tebranishlar bimomentli nazariyasi ishlab chiqildi. Ushbu nazariyani hozirgi kunda M.K. Usarov o'z shogirdlari bilan rivojlantirib kelmoqda.



Qurilgan plastinalar nazariyalari asosida ko'p qavatli binolarning seysmik tebranishlarini ifodalovchi fazoviy qalin plastinasimon dinamik kontinual modelini hamda uch qatlamli plastina ko'rinishidagi dinamik kontinual modellarini qurgan.

M.K. Usarov MDH davlatlari va respublikamizning bir qancha nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ilmiy faoliyat olib boradi.



Jumladan, Rossiyaning Sankt-Peterburg Politexnika universiteti, Kaliningrad Davlat universiteti, Tomsk Davlat universiteti va Ukrainaning Xarkov universiteti hamda respublikamizning bir qancha oliy o'quv yurtlari shular jumlasidandir.

Undan tashqari, xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan nufuzli ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etadi.

M.K. Usarov Xarkov universiteti ilmiy jurnalining redkollegiya a'zolari safiga qabul qilingan. Professor M.K. Usarov ko'p yillardan beri O'zR Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan tashkil etilgan ilmiy darajalar beruvchi bir nechta ilmiy Kengashning a'zosisidir.



M.K. Usarov tomonidan 2 ta ilmiy monografiya chop etilgan. Respublika va xorijiy nufuzli jurnallarda va ilmiy anjumanlar materiallarida 150 ga yaqin ilmiy maqolalar chop etilgan. Shu jumladan Web of Science bazasiga kiruvchi jurnallarda 6 ta maqola chop etilgan bo'lib h -indeksi 3 ga, SCOPUS bazasi tarkibiga kiruvchi jurnallarda 19 ta maqola chop etilgan bo'lib, h -indeksi 13 ga teng. Undan tashqari 10 dan ortiq nufuzli xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan.

M.K. Usarov rahbarligida 2020 yilda Ayubov G'ayratjon To'xtasinovich va 2021 yilda Mamatisayev G'iyosiddin

Ilxomiddinovich deformatsiyalanuvchan qattiq jismlar mexanikasi yo‘nalishi bo‘yicha dissertatsiya himoya qilgan va texnika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.

M.K. Usarov ko‘p yillik ilmiy faoliyati natijalariga ko‘ra 2016 va 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 va 30 yillik yubiley ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.

Respublikamizda so‘nggi yillarda baland va ko‘p qavatli binolarning bunyod etilishi munosabati bilan Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining farmon va qarorlari e‘lon qilindi. Shu munosabat bilan M.K. Usarovning ilmiy ishlari seysmik faol hududlarda quriladigan baland qavatli binolarni seysmik mustahkamlikka hisoblash usullarini ishlab chiqishga yo‘naltirildi. 2023 yilda Usarov M.K. “Seysmik xavfsizlik sohasi a‘lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.



M.K. Usarov O‘zR FA turli anjumanlarida faol ishtirok etadi. U shaxmat bo‘yicha O‘zR Fanlar Akademiyasining ikki karra chempioni bo‘lgan (2008, 2009 yillar) va uch marta faxrli ikkinchi o‘rinni (2005, 2006 va 2011 yillar) hamda ikki marta faxrli uchinchi o‘rinni olgan

(2012, 2014 yillar). M.K. Usarov 2015 yili shaxmat bo‘yicha sport ustaligiga nomzodlik darajasini bajargan.

Navro‘z bayrami munosabati bilan 2023 yil yangi ochilgan shaxmat klubida yosh shaxmatchilar musobaqasi Usarov M.K. va Shaxmatning rapid (tezkor) yo‘nalishi bo‘yicha jahon chempioni Nodirbek Abdusattorov o‘rtasida o‘tkazilgan tezkor shaxmat o‘yini bilan ochib berilgan.



Professor M.K. Usarov rahbarligida institutning ilmiy ishlari borasida bugungi kunda 10 ta mualliflik guvohnomalari va 3 ta O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan berilgan ixtiro uchun patent, bir dona foydali model patenti mavjud.

Hozirgi kunda Maxamatali Koraboyevich O‘zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti, “Fazoviy inshootlar dinamikasi” laboratoriyasi mudiri lavozimida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda.

M.K. Usarov oliy o‘quv yurtlarida magistrnlarga mexanika fanlari bo‘yicha dars o‘tib, yoshlarga o‘z bilimlarini berib kelmoqda. Bir nechta magistrlik dissertatsiya ishlariga rahbarlik qilgan. M.K. Usarov Oliy o‘quv yurtlarida davlat imtihon komissiyalari a‘zosi sifatida ishtirok etib kelishi va olib borayotgan ilmiy izlanishlari bilan yurtimizda mexanika fanining rivojlanishiga o‘zining munosib hissani qo‘shib kelmoqda.



UZAKOV GULOM NORBOYEVICH
Texnika fanlari doktori, professor

Uzakov Gulom Norboyevich 1966 yil 25 iyunda Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida ziyoli oilasida tug'ilgan. 1983 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan. 1990 yilda Toshkent temir yo'l transporti muhandislari institutini imtiyozli diplom bilan tamomlagan.



Tayanch mutaxassisligi: temir yo'l transporti muhandisi. 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Energetika va avtomatika institutida "Sanoat issiqlik energetikasi" ixtisosligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2016-yilda O'ZFA akademigi R.A.Zoxidov ilmiy maslahatchiligida "Noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanib sabzavot omborlari

issiqlik-sovuqlik ta'minoti tizimining energetik samaradorligini oshirish" mavzusida Toshkent davlat texnika universitetida "Sanoat issiqlik energetikasi" ixtisosligi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.



2018 yildan "Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari" ixtisosligi bo'yicha professor. G.N.Uzakov Respublikada akademik R.A.Zoxidov va professor R.R.Avezovlar tomonidan asos solingan past potentsialli quyosh qurilmalarining energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy maktab a'zosi sanaladi. G.N.Uzakovning bevosita ilmiy rahbarligida so'nggi yillarda ushbu ilmiy maktab ishi munosib davom ettirilib, past potentsialli quyosh qurilmalari samaradorligini

oshirish, xususan ular asosida kombinatsiyalashtirilgan quyosh qurilmalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari samarali olib borilmoqda.



Xususan G.N.Uzakov tomonidan biomassadan muqobil yoqilg'i olish jarayonlarida ilk bora quyosh qurilmalaridan foydalanish usuli yaratildi. G.Uzakovning ilmiy izlanishlari natijalari bo'yicha 10 ta monografiya, 8 ta darslik va 15 ta o'quv qo'llanma, respublika va nufuzli xorijiy jurnallarda 300 dan ortiq ilmiy maqolalari chop etilgan. Ilmiy ishlarining natijalari bo'yicha 14 ta ilmiy ixtiro va 25 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar muallifidir. G.Uzakovning 7 ta ilmiy loyihasi Respublika davlat grantlari tanlovida g'olib bo'lgan va 2 ta ishlanmasi amaliyotga joriy qilingan. G.Uzakovning Scopus bo'yicha "Xirsh" indeksi 13ga teng.



G.Uzakov yurtimizning iqtidorli, taniqli va obro'li olimlaridan biridir. Iqtidorli olim mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish va muqobil energiya asosida ishlaydigan energiya tejankor texnologiyalarni ishlab chiqish yo'nalishida

samarali ilmiy faoliyat olib borib, ko'p yillik samarali mehnati bilan mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, vatanimiz taraqqiyoti, yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga, mamlakatimizda ilm-fan rivojini ta'minlashga katta hissa qo'shib kelmoqda.



Uzakov Gulom Norboyevich 2004-2011 yillarda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti issiqlik energetikasi kafedrasini mudiri, 2011-2018 yillarda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, 2018-2020 yil Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Energetika fakulteti dekani, 2020 yildan hozirgi kungacha Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori vazifasida faoliyat yuritib kelmoqda. G.Uzakovning bevosita ilmiy rahbarligida institutda zamonaviy "Muqobil yoqilg'i turlari va ularni tayyorlash texnologiyalari" o'quv-ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. G.Uzakov yetuk olim sifatida institutda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, o'qituvchilar va talabalar ilmiy tadqiqot ishlari bilan o'quv jarayonini integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish, o'quv-ilmiy laboratoriyalar tashkil etish, fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha ham ijobiy ishlarni amalga oshirmoqda. Uning tashabbusi va rahbarligida muqobil energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarni rivojlantirish, institutning moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadida institutda 2013 yilda Germaniya davlatining DAAD xalqaro dasturi granti asosida "Muqobil energiya

manbalari”, 2016 yilda “Energiya tejamkorlik va qayta tiklanuvchi energiya manbalari” zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari va 2018 yilda “Muqobil energiya manbalari” o‘quv-ilmiy poligoni hamda 2020 yilda “Muqobil energiya manbalari” kafedrasini tashkil etilgan.

Institutda G.Uzakov ilmiy rahbarligida “Energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ilmiy tadqiqot markazi tashkil etilgan. Markaz tarkibidagi “Muqobil energiya manbalari” o‘quv-ilmiy poligonida 100 m² foydali maydonga ega bo‘lgan quyosh issiqxonasi, 50 m² foydali maydonga ega bo‘lgan “Aqlli issiqxona”, quyosh quyosh havo qizdirish qurilmalari, eksperimental quyosh uyi, biomassadan muqobil yoqilg‘i olish uchun piroliz va biogaz qurilmalari, mini shamol va quyosh elektr stansiyasi, quyosh suv qizdirish qurilmalari hamda quvvati 30 KVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi mavjud bo‘lib, qurilmalarda 5312400-Muqobil energiya manbalari ta‘lim yo‘nalishi, 70771001-Muqobil energiya manbalari (turlari bo‘yicha) mutaxassisliklarining o‘quv rejasida belgilangan laboratoriya mashg‘ulotlarini hamda 05.05.06-Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazish imkoniyatlari yaratilgan.



G.Uzakov institutda o‘quv jarayoniga yangi pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ham bir qancha ishlarni amalga oshirgan, jumladan muallifligida yaratilgan “Termodinamika va issiqlik texnikasi”, “Muqobil energiya manbalari”, “Muqobil energiya manbalaridan

foydalanishning asoslari” “Shamol energetikasi” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalari “Issiqlik energetikasi” va “Muqobil energiya manbalari” ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv jarayoniga joriy etilgan.

G.Uzakovning shaxsiy tashabbusi va rahbarligida institutda xorijiy yetuk soha olimlari ishtirokida “O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o‘tkazib kelinmoqda.

G.Uzakovning bevosita rahbarligida Belarus milliy texnika universiteti bilan “Hudud iqlimining meteorologik xususiyatlarini hisobga olgan holda gibrid issiqlik ta‘minoti tizimlarining ilmiy-texnik asoslarini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyiha bajarilgan.



Institutda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularga imkoniyat yaratish maqsadida G.Uzakov rahbarligida 2017 yildan boshlab 05.05.06-“Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari”, 2018 yildan boshlab 05.05.04-“Sanoat issiqlik energetikasi” ixtisosliklari bo‘yicha tayanch doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Uning ilmiy rahbarligida ushbu ixtisosliklar bo‘yicha 2019-2024 yillarda 6 nafar shogirdi (PhD) 1 nafar shogirdi (DSc) doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, 3 nafar shogirdi tomonidan dissertatsiya ishi himoyaga tayyorlangan. G.Uzakov raisligida institutda 2020 yildan boshlab 05.05.06-“Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari”

ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/ 30.09.2020. T. 111.03 raqamli ilmiy kengash faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. G.Uzakovning bevosita rahbarligida institutda energetika sohasida o‘quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlar va mutaxassislarni keng jalb qilish, xorijiy oliy o‘quv yurtlari bilan o‘quv-ilmiy hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida Moskva energetika instituti, Federal ilmiy-agroinjenerlik markazi, Belarus milliy texnika universiteti olimlari bilan hamkorlik o‘rnatilgan.



Ushbu sohada G.Uzakovning ilmiy ishlari e‘tirof etilib, 2021 yilda Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi (RAYEN) haqiqiy a‘zosi, 2023 yilda Malayziyaning PETRONAS

texnologiya universiteti Faxriy professori, 2023 yilda Turon fanlar akademiyasi akademigi unvonlariga sazovor bo‘lgan.

G.Uzakov Respublikamizda chop qilinadigan “Energiya va resurs tejash muammolari” ilmiy jurnali tahririyat a‘zosi, “Innovatsion texnologiyalar” ilmiy jurnali bosh muharrir o‘rinbosari, “Muqobil energetika” ilmiy-texnik jurnali bosh muxarrir o‘rinbosari, “Энергетика. Известия высших учебных заведений и энергетических объединений СНГ” xalqaro ilmiy-texnik jurnali tahririyat a‘zosisidir.



G.Uzakov tajribali pedagog, bilimli mutaxassis va namunali ustoz sifatida institutning barcha ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, tarbiyaviy, o‘quv-uslubiy tadbirlarda hamda ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etib kelmoqda. G.Uzakov 2016 yilda “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil”, 2017 yilda “O‘zbekiston Konstitusiyasiga 25 yil” esdalik nishonlari, 2021 yilda “Innovatsion g‘oyalar yetakchisi” ko‘krak nishoni, 2023 yilda “Oliy ta‘lim a‘lochisi” medali (2023) bilan taqdirlangan.



VAXABOV ABDURAXIM VASIKOVICH
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahim Vahobov 1954 yil 5 iyulda Toshkent shahrida tavallud topdi. 1961-1970 yillarda Toshkent shahar Chilonzor tumani 200-o‘rta maktabda o‘qidi. A.V.Vahobov 1970-1975 yillarda Toshkent Davlat universiteti Tarix fakultetining Siyosiy iqtisod bo‘limida ta‘lim oldi va 1975 yilda imtiyozli diplom bilan tamomladi. Yosh mutaxassis Davlat komissiyasi qaroriga ko‘ra, ToshDU iqtisodiy nazariya kafedrasida o‘qituvchi lavozimida ishga qoldirildi.

1977-1980 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot instituti aspiranturasida o‘qidi. 1983 yilda “Rivojlangan sotsializm sharoitida jamg‘arish va iste‘mol o‘rtasidagi nisbat” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1975-1993 yillarda Toshkent Davlat universiteti “Iqtisodiy nazariya” kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. 1993-2003 yillarda Iqtisodiyot fakulteti dekani,

o‘rindoshlik asosida “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasida mudiri lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi.



2001 yilda “Bozor munosabatlari tizimida ijtimoiy fondlar” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 2003-2005 yillarda “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” kafedrasini boshqardi. 2005-2006 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktorining o‘rinbosari lavozimida faoliyat

ko‘rsatdi. 2006-2012 yillarda esa O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasining rektori lavozimida ishlagan. 2012 yildan boshlab O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti “Makroiqtisodiyot” kafedrasini mudiri lavozimida ishlab kelmoqda.

Professor A.V.Vahobov tashabbuskorligi va rahbarligida O‘zMU Iqtisodiyot fakultetida “Biznesni boshqarish”, “Jahon iqtisodiyoti”, Iqtisodiyot fakulteti uchun “Chet tili”, “Iqtisodiyotda matematik metodlar” kafedralari, fakultet kutubxonasi, uch lingafon va kompyuter sinflari ochildi. Prof. A.V.Vahobov tashabbusi va rahbarligida “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “Biznes” yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavriaturaga, 1999-2003 yillarda “Menejment”, “Iqtisodiy nazariya”, “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Biznesni boshqarish”, “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”, “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti” va “Makroiqtisodiyot” mutaxassisliklari bo‘yicha magistraturaga qabul ochildi.

Olimning rahbarligi o‘laroq 1993-2003 yillarda fakultetda faoliyat yuritayotgan kafedralar soni 9 taga, talabalar soni esa 450 nafardan 1300 nafarga yetdi va O‘zMU Iqtisodiyot fakul’teti mamlakatda iqtisodchi kadrlar tayyorlaydigan, faol ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladigan yetakchi ilmiy markazlardan biriga aylandi.

Prof. A.V. Vaxabov 2005 yil sentyabrdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlar markazi (hozirgi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti) direktorining birinchi o‘rinbosari etib tayinlandi va ushbu ilmiy markazni Iqtisodiyot huzuridagi “Samarali sanoat siyosati”, Moliya vazirligi huzuridagi “Moliyaviy tadqiqotlar instituti” va Markaziy bankning ilmiy tadqiqot instituti va markazini birlashtirish asosida tashkil etish ishlariga rahbarlik qildi. Ushbu markaz mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining makroiqtisodiy siyosatni

amalga oshirishning amaliy muammolarini tadqiq etish bilan shug‘ullana boshladi.



2006 yilda prof. A.V. Vaxabov O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi rektori etib tayinlandi. Uning rahbarligi va tashkilotchiligi asosida olti mutaxassislik bo‘yicha yiliga 120 ta magistrant tayyorlaydigan akademiya 12 mutaxassislik bo‘yicha yiliga 200 magistrant qabul qiladigan respublikada moliya, bank, sug‘urta, soliq mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtiga aylandi. Akademiyani xalqaro aloqalari rivojlandi va magistrantlarning aksariyati Xalqaro Valyuta jamg‘armasi, Yaponiya hukumatini Moliya vazirligi, Yevropa Ittifoqi, Shveysariya Markaziy banki, Koreya Respublikasi hukumati grantlari, Lyuksemburgning “Moliya texnologiyalarini uzatish agentligi”, Germaniyaning Bremenxavfen amaliy fanlar universiteti. Chexiyaning Biznes va Menejment universitetlari bazasida malakaviy amaliyotni o‘tkazish, jahonning yetakchi ilmiy markaz va universitetlarni professor-o‘qituvchilari tomonidan akademiya magistrantlariga ma’ruza o‘qish va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish amaliyoti joriy qilindi. Bank-Moliya akademiyasi huzuridagi muntazam faoliyat yuritadigan 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit, 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti ixtisosliklari bo‘yicha respublikada yagona doktorlik dissertatsiyalari himoya qiluvchi birlashgan ixtisoslashgan ilmiy kengash ochildi va 2006-2012 yillarda

muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatdi. Akademiyada “Iqtisodiy nazariya”, “Moliya, pul muomalasi va kredit”, “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosliklari bo‘yicha doktorantura ochildi.

Akademiya professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati ortib (ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar ulushi 92% ga yetdi) mamlakatda yuqori malakali iqtisodchi kadrlarni o‘qitishning interfaol, zamonaviy pedagogik usullarini qo‘llash orqali tayyorlaydigan yetakchi ilmiy markazlardan biriga aylandi.

Prof. A.V. Vaxabov taniqli, yetakchi iqtisodchi olim sifatida O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Bojxona qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rahbar xodimlari uchun muntazam ma‘ruzalar o‘qib bordi va davra suhbatlari o‘tkazdi.

Professor A.V. Vaxabov 2012 yildan e‘tiboran O‘zMU Iqtisodiyot fakulteti Makroiqtisodiyot kafedrasini boshqarib kelmoqda. Prof. A.V. Vaxabov taniqli olim sifatida O‘zMU huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazi, TDIU huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazida malaka oshirayotgan professor-o‘qituvchilarga muntazam ixtisoslik fanlaridan ma‘ruzalar o‘qiydi va amaliy mashg‘ulotlar olib boradi. Uning bevosita rahbarligida tashkil etilgan O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi doktorlik dissertatsiyalari himoyasi bo‘yicha 08.00.01 – “Iqtisodiyot nazariyasi”, 08.00.12. – “Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosliklari bo‘yicha D.067.02.15. (2002-2007 yy.) va O‘zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi huzuridagi 08.00.07. – “Moliya, pul muomalasi va kredit”, 08.00.08. – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”, 08.00.04. – “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosliklari bo‘yicha D.005.25.01. – sonli (2007-2012 yy.) Ixtisoslashgan Kengashlarga raislik qilgan. 2014-2016 yillarda Toshkent

Davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi 14.07.2016.1.03.01. – sonli Ilmiy Kengash a‘zosi va 2017 yildan boshlab esa Toshkent Moliya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.1.17.01. – raqamli Ilmiy Kengash raising o‘rinbosari sifatida faoliyat yuritgan.



2018 yildan e‘tiboran O‘zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.1.01.11 raqamli ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi va Kimyo xalqaro universiteti huzuridagi DSc.03/06.06.2024.I.133.01 raqamli ilmiy kengash raisi hisoblanadi.

1995-2023 yillarda prof. A.V.Vaxabov tashkilotchiligi va rahbarligida 80 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari o‘tkazildi. U yirik olim sifatida 1995-2024 yillarda Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, Yevropa Ittifoqi, BMT Taraqqiyot Dasturi, AQSh Taraqqiyot agentligi, AQSh elchixonasi, Yaponiya Xalqaro Taraqqiyot agentligi (JAICA), Yevropa Ittifoqining TASUS-TEPUS dasturlari, Daniya ta‘lim va tashqi ishlar vazirligi, Folksvagen fondi, Jahon kredit ittifoqi kengashining o‘ndan ortiq xalqaro o‘quv, ilmiy loyihalari grantlariga sazovor bo‘ldi.

Prof. A.V. Vaxabov ilmiy rahbarligida 2005-2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ko‘plab fundamental va amaliy ilmiy grantlari amalga oshirildi.

1. OT-F-124 – O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va

qishloq hududlarida institusional islohotlarni chuqurlashuvi (2007-2011 yy.);

2. F-1-115 – Iqtisodiyotni modernizasiyalashning konseptual asoslarini takomillashtirish (2012-2016 yy.);

3. F-1-176 – Barqaror iqtisodiy rivojlanishni “yashil iqtisodiyot” asosida ta'minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish (2017-2021 yy.).

4. A-2-61 – Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari (2014-2016 yy.).

5. PZ-20170930109-Aholini ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularni ijtimoiy-himoya qilish tizimi manzilligini kuchaytirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari (2018-2020 yy.)

6. A-OT-2021-461-“Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish bo'yicha multimediyaga texnologiyalariga asoslangan o'quv kursi platformasini yaratish” (2021-2022 yy.)

7. AL-5522012157-“O'zbekistonda aholi kambag'alligini aniqlashning interaktiv shaklidagi elektron platformasini yaratish” (2022-2023 yy.)

Prof. A.V. Vaxabov jahonning quyidagi yetakchi universitetlarida malaka oshirgan, ilmiy stajirovkada bo'lgan, ma'ruzalar o'qigan, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashgan: Varshava Universiteti (Polsha, 1989 y.); Jahon banki instituti (AQSh, 1995 y.); Kopengagen Universiteti (Daniya, 1995 y.); Kopengagen Biznes maktabi (Daniya, 1998 y.); Surrey Universiteti (Buyuk Britaniya, 1995 y.); Moskva Davlat universiteti (Rossiya, 1990, 1995, 1996, 2006 yy.); Kiev Davlat universiteti (Ukraina, 1995, 1996 yy.); Birlashgan Vena universiteti (Avstriya, 1996, 1997, 1998 yy.); Rossiya Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatchilari Akademiyasi (Rossiya, 1996, 1997 yy.); Rossiya Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya, 2007,

2009 yy.); Qozog'iston Milliy universiteti (Qozog'iston, 1995, 1996, 2006 yy.); Chonju universiteti (Koreya Respublikasi, 1996 y.); Boku Davlat universiteti (Ozarbayjon, 1995, 1996 yy.); Moldova Boshqaruv Akademiyasi (Moldova, 1996 y.); Tojikiston Milliy universiteti (1995, 1996 yy.); Tbilisi Davlat universiteti (Gruziya 1997y.); Amsterdam universiteti (Niderlandiya 1997 y.); Erevan Davlat iqtisodiyot universiteti (Armaniston 1998 y.); Garvard Universiteti (AQSh, 1999 y.); Budapesht Universiteti (Vengriya 2001 y.); Ekzeter Universiteti (Buyuk Britaniya, 2001 y.); Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi (Qirg'iziston Respublikasi, 1996, 2006, 2016 yy.); Xitoy Ijtimoiy fanlar Akademiyasining Sharqiy Yevropa, Rossiya, Markaziy Osiyo instituti (Xitoy, 2005 y.); Tel'-Aviv Universiteti (Isroil, 2007 y.); Bryussel universiteti (Belgiya, 2007 y.); Moliyaviy texnologiyalarni uzatish agentligi, Lyuksemburg universiteti (Lyuksemburg, 2007, 2010 yy.); Bremerxafen Texnologiya universiteti (Germaniya, 2008, 2017 yy.); Frankfurt moliya va menejment Akademiyasi (Germaniya, 2007, 2009 yy.); Potsdam universiteti (Germaniya 2007 y.); Shanxay universiteti (Xitoy, 2008 y.); Singapur menejmentni rivojlantirish instituti (Singapur, 2007 y.); Yodjou texnologiya instituti (Koreya Respublikasi, 2008 y.); Yaponiya Moliya Vazirligi huzuridagi Siyosiy Tadqiqotlar instituti (Yaponiya, 2009, 2010 yy.); Sankt-Peterburg Xalqaro Bank instituti (Rossiya, 2011 y.); Praga oliy iqtisodiyot maktabi (Chexiya, 2011 y.); Praga iqtisodiyot va menejment universiteti (Chexiya, 2012 y.); Koreya rivojlanish instituti (Koreya Respublikasi, 2016 y.); Koreya xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti (Koreya Respublikasi, 2016 y.); Seul Milliy universiteti (Koreya Respublikasi, 2016 y.); Kolumbiya universiteti, Chikago universiteti, Ruzvelt universiteti, Missuri universiteti (AQSh, 2023 y.).

Professor A.V.Vaxabov tomonidan 400 dan ortiq ilmiy ishlar, shu jumladan, 42 darslik, o‘quv qo‘llanma, 12 ta ilmiy monografiya, 37 ta ilmiy-metodik qo‘llanma, 162 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 34 tasi xorij ilmiy jurnallari, jumladan Scopus platformasiga kiruvi ilmiy jurnallarda 5 ilmiy maqolalar va xalqaro konferensiya materiallari to‘plamlarida chop etilgan. Prof. A.V.Vahobov “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror iqtisodiy o‘rnatishni ta’minlash” mavzusida ilmiy maktab yaratib, uning rahbarligida 40 fan nomzodlari (PhD) va 10 fan doktori (DSc) jumladan, to‘rtta xorijlik olim dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilgan.



Prof. A.V. Vaxabov ilmiy tadqiqotlari xalqaro ilm ahillari tomonidan e’tirof etilib Google Scholar Citation ma’lumotlar bazasida 734 iqtibosga ega bo‘lib, Xirsh indeksi – 15 ga teng.



2012 yilda Chexiya Respublikasining Iqtisodiyot va menejment universitetining taklif etilgan faxriy professori (visiting professor) unvoniga sazovor bo‘ldi. 2014 yilda Rossiya Mehnat va bandlik akademiyasi a’ziligiga saylandi. 2015 yil Termiz Davlat universiteti

faxriy professori ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi. 2023 yilda AQSh Iqtisodiyot fanlari akademiyasining akademigi haqiqiy a’ziligiga saylandi.

Prof. A.V. Vaxabov 2011 yilda O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligini 20 yilligi ko‘krak nishoni, 2022 yilda O‘zbekiston Faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi vasiylik kengashi qaroriga ko‘ra birinchi darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni, 2023 yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetini “Universitet iftixori” esdalik nishoni, 2023 yil 25 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Prof. A.V. Vaxabov taniqli olim sifatida 2005-2012 yillarda “O‘zbekiston iqtisodiyoti axborotnomasi”, “Ekspert. Biznes” ilmiy-amaliy jurnallari, 2012 yildan “Iqtisodiyot va moliya”, 2023 yildan “Innovatsion iqtisodiyot”, “Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti”, xalqaro “Alfraganus” ilmiy jurnallari tahririyat kengashi a’zosi hisoblanadi.

A.V. Vaxabov iste’dodli olim, yuqori malakali mutaxassis, mehnatsevar, prinsipial, tajribali rahbar, fan tashkilotchisi va mohir pedagog sifatida xorij va Respublika iqtisodchi olimlari hurmatini qozongan.

Oilali, uch farzandning otasi.



VOXIDOVA NORPOSSHAXON XABIBULLAYEVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.



Umumiy ish staji 36yil, shundan ilmiy-pedagogik ish staji 30 yil, Nizomiy nomidagi TDPUdagi ish staji – 36 yil.

N.X.Voxidova 1985-1988 yy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti

institutining “Boshlang‘ich ta‘lim” fakultetining Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha tahsil olgan. 1988-1994 yy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “Maktabgacha tarbiya metodikasi” kafedrasi stajyor-tadqiqotchisi, 1994-2004 yy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, 2004-2011 yy. “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, 2011-2012 yy. kafedra dotsenti, 2019-2020 yy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Masofaviy ta‘lim” kafedrasi dotsenti va 2020-2021 yy. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Masofaviy ta’lim” kafedrasida professori v.b. lavozimida, 2022-va.h.k. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Pedagogika” kafedrasida professori lavozimida mehnat qilib kelmoqda.



Professor N.X.Voxidova bakalavriatda “Oila pedagogikasi”, “Pedagogik mahorat”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik konfliktologiya”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, magistraturada “Pedagogik diagnostika”, kurslaridan ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlarini olib boradi.

U ushbu fanlarning fan va ishchi dasturlarini tuzgan, o’quv uslubiy majmualar yaratgan. Yaratilgan mazkur fan va ishchi dasturlardan, o’quv uslubiy majmualardan nafaqat N.X.Voxidova faoliyat olib borayotgan fakultet pedagoglari va talabalari, balki butun respublikadagi Boshlang’ich ta’lim hamda Pedagogika-psixologiya fakultetining pedagog va talabalari foydalanmoqdalar.

N.X.Voxidova ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlarni axborot kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar, zamonaviy talablar asosida olib boradi.



N.X.Voxidovanning bir qator ilmiy-metodik ishlari muallifidir. Xususan, olim tomonidan bugungi kunda 160 nomdan ortiq ilmiy ish e’lon qilingan bo’lib: 10 ta darslik, 2 ta elektron darslik, 5 ta o’quv qo’llanma, 3 ta monografiya, 7 ta o’quv-uslubiy qo’llanma, 130 dan ortiq ilmiy va o’quv-metodik maqolalar muallifi bo’lib, shulardan 4 tasi Scopus ma’lumotlar bazasidagi jurnallarida nashr ettirilgan.



Olimaning Pedagogika nazariyasi va tarixi, “Umumiy pedagogika”, “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”, “Tabiatshunoslik va uni o’qitish metodikasi” (o’zbek va rus tillarida), “Ijtimoiy pedagogika”, “Pedagogik diagnostika”, “Tarbiyaviy ishlarni boshqarish” nomli darsliklar; “Metodika vospitatelnoy raboty”, “Vneklassnye zanyatii po trudu v nachalnykh klassax”, “Obshchaya pedagogika” fanlaridan o’quv qo’llanmalar hamda “Teoriya i praktika obshchey pedagogiki”, “Ma’naviyat va milliy g’urur” nomli metodik qo’llanmalari nashrdan chiqqan. Shu bilan bir qatorda u “Boshlang’ich sinf o’quvchilarini milliy g’urur ruhida tarbiyalash”, “Ijtimoiy pedagogik faoliyat mazmuni”, “Milliy g’urur tarbiyasi” hamda “Innovatsion yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash” nomli monografiyalarning muallifi hamdir.

N.X.Voxidova tomonidan Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish ta’lim yo’nalishi talabalari uchun “Obshchaya pedagogika” fanidan yaratilgan elektron darslik (Guvohnoma №DGU20150363), “Tabiatshunoslik va uni o’qitish metodikasi”

(Guvohnoma №004840) darsliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” davlat muassasasi tomonidan mualliflik guvohnomalari asosida patentlangan.



Norposhshaxon Voxidova mashg‘ulotlarni olib borishda pedagogik, innovatsion texnologiyalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanadi. “Keys”, “Blended learning”, “Forsayt”, “SMART” texnologiyalari, “Aqliy hujum”, “FSMU”, “Klaster”, “Bumerang”, “Geymofikatsiya” o‘yin texnologiyalaridan, muallif o‘zi tomonidan yaratilgan ta‘lim samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik dasturiy vositalardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda multimedaning texnik vositalaridan ham keng foydalangan holda, ilg‘or fan yutuqlari va zamonaviy fan yo‘nalishlarining ustuvor tomonlarini e‘tiborga olgan holda mashg‘ulotlarni olib boradi, bu esa talabalar qiziqishlarining ortishi va ta‘lim samaradorligi ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

N.X.Voxidova pedagogik faoliyati bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. U xorijiy referatlangan hamda O‘zbekistondagi nufuzli ilmiy (OAK e‘tirof etgan) jurnallarida, ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalarda

ta‘lim-tarbiya, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga bag‘ishlangan ilmiy ma‘ruzalari bilan qatnashadi.



N.X.Voxidova Germaniya, Italiya, Angliya, Shotlandiya, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Fransiya va Hindiston kabi dunyoning 30 dan ortiq davlatlarida ta‘lim, tarbiya, menejment, psixologiya, jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, tolerantlik, inklyuziv ta‘lim, dunyo pedagoglari faoliyati va tajribasini o‘rganish hamda tadbiq etish kabi yo‘nalishlarda ma‘ruzalari bilan ishtirok etib xalqaro sertifikatlariga ega bo‘lgan. Uning xorij davlatlarining turli ilmiy nashrlarda quyidagi maqolalari e‘lon qilinganligini ko‘rish mumkin. 2016 yilda “Razvitie sistema obrazovaniya v Respubliki Uzbekistan”, “Formirovanie tolerantnosti u uchениkov nachalnyx klassov”, 2018 yilda “Semeynoe chtenie kak faktor duxovno-nravstvennogo razvitiya lichnosti detey”, “Aktualnye problemy gumanitarnyx i yestestvennyx nauk”, “Teoreticheskie aspekty formirovaniya podgotovlennosti uchitelya k razvitiyu tvorcheskix sposobnostey uchashixsya nachalnyx klassov”, 2019 yilda “Intelektualnyy rost i razvitie podrastayushchego pokoleniya-trebovaniya vremeni”, 2020 yilda “Perfection of technology of preparation of future teachers of vocational education to the designing activity the main contents of the dissertation Test and management”, 2021 yilda “Janubiy Koreya ta‘lim tizimi: yuqori natijalargacha bo‘lgan yo‘l”, 2021 yilda “Necessary conditions for the training of future teachers for the spiritual and moral education of school children”, 2022 yilda Preparation of

Future Teachers for Educational Activities on the Basis of Innovative Approaches”, 2022 yilda “Improving the system of preparing future teachers for educational activities”, 2023 yilda “Issues on the improving the system of preparing future teachers for educational activity based on the innovative approach, “The Use of Gamification Gaming Technologies in the Educational Process”, 2024 yilda “Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence” kabi ilmiy maqolalari turli davriy nashr, broshyura, konferensiya materiallari hamda xorijiy jurnallarda nashr etilgan. 2024 yil Ozarbayjononda inklyuziv ta’lim strategiyasiga bag’ishlangan xalqaro konferensiyada ma’ruzachi sifatida ishtirok etdi.



N.X.Voxidova “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar metodikasi”, “Masofaviy ta’lim”, “Pedagogika” kafedralaridagi faoliyati davrida “Ustoz-shogird” tizimini izchil yo‘lga qo‘ygan. U pedagogik faoliyati davomida 200 dan ortiq talaba kurs ishlarini, 75 ga yaqin talabalar bitiruv malakaviy ishlarini, yigirmaga yaqin magistrantlarning magistrlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilganlar. Rahbarligidagi magistrantlar bilan xorijiy, respublika nashrlarida bir qator maqolalar e’lon qilgan, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda tezislari bilan ishtirok etib kelmoqda. Bugungi kunda uning ikki nafar shogirdi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya ishini yozib tugatish arafasida.

Qator yillar N.X.Voxidova rahbarligida kafedrada “Yosh pedagog” nomli ilmiy to‘garak faoliyat yuritib, to‘garak faoliyatining natijasi sifatida talabalar Respublika hamda xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda tezislari bilan ishtirok etib, Respublika miqyosidagi olimpiadalarda faxrli o‘rinlarni egallaganlar.

N.X.Voxidova pedagogik faoliyati mobaynida muntazam ravishda pedagogik tajribasini oshirish maqsadida nafaqat diyorimizda, balki ilg‘or xorij davlatlarida ham malakasini oshirib kelmoqda. Shuningdek, u bir qator ta’lim muassasalari, xususan,

Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash malakasini oshirish hududiy markazi, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent shahar xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash malakasini oshirish instituti, Yeodju Toshkent xalqaro texnika universiteti, Toshkent xalqaro Nordik universiteti bilan hamkorlikda ish olib borib, bitiruvchilarining diplom himoyalari, magistrantlarning Davlat Attestatsiya komissiyasi raisi sifatida faoliyat yuritib, imtihonlarni belgilangan talablar asosida yuqori saviyada tashkil etishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.



2012-yildan shu kunga qadar Olmazor tumani 1-sonli Muruvvat uyi, Chilonzor tumanidagi Xlebushkina nomidagi “Mehribonlik uyi” va Yunusobod tumanidagi 30-sonli Mehribonlik uylarida “Mehr-sahovat” yo‘nalishidagi tadbirida faol ishtirok etib, o‘quvchilar bilan kasbga yo‘naltirishga qaratilgan suhbatlar tashkil etib, doimiy

ko‘mak berib kelayotgan, saxovatpesha, fidoiy insonlardan biridir.

N.X.Voxidovanning pedagogik faoliyatida ma‘naviy ma‘rifiy ishlar alohida o‘rin tutadi. U muntazam ravishda respublika, universitet, fakultet, kafedra miqyosida o‘tkaziladigan “1-Oktyabr Ustoz va murabbiylar kuni” mavzusida tadbir, oktyabr oyida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — 21 oktyabr sanasini "O‘zbek tili bayrami kuni"ni bayramida, 8 dekabr Milliy qomusimiz qabul qilingan kuniga bag‘ishlab “Qomusimiz-baxtimiz” mavzusida, , 8-mart “Xalqaro xotinqizlar bayrami”, 21-mart “Milliy Navro‘z bayrami” tadbirlarda, “Pedagogik muloqot sir asrorlari”, “Islohotlar bilimdoni” nomli o‘quv-tarbiyaviy ko‘rik tanlovlarda, “Korrupsiyasiz hayot”, “Korrupsiya–taraqqiyot kushandasi” mavzusida targ‘ibot tadbirlari, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ishtirokida vebinar davra suhbatlari va tanlovlar tashkil etilishida uning xizmatlari beqiyos.



U Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020. Ped.26.01-raqamli ilmiy kengash seminar a‘zosi, Toshkent shahri Chilonzor tumani Novza mahallasining “Olima ayollar” kengashi a‘zosi. Mahallada tashkil etiladigan ma‘naviy ma‘rifiy ishlarida faol. U Toshkent shahar hokimligi tomonidan “Ma‘rifatli ayol” deb e‘tirof etilib, diplom bilan taqdirlangan, olima Xalqaro “Antik dunyo” Ilmiy Akademiyasining faxriy a‘zosi.

N.X.Voxidova o‘zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida bir qator ko‘rik-tanlovlar g‘olibi bo‘lgan, jumladan, “Kafedraning mahoratli pedagogi”, «Yilning eng yaxshi monografiyasi muallifi» tanlovlari g‘olibi hamda Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalar taqdimotlari ko‘rgazmalarida qator yillar faol ishtirok etib, O‘zbekiston respublikasi va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining faxriy yorliq va diplomlari bilan taqdirlangan.



N.X.Voxidova davriy ravishda “O‘zbekiston tarixi”, “Yoshlar”, “Mening yurtim” telekanallarida oila, oilada ota-onaning o‘rni, tarbiya, tarbiyada milliy qadriyatlar, besh muhim tashabbus va iqtisodiy strategiya, inson, farzand hamda ularning tarbiyasi, pedagog, pedagoglik faoliyati, tarbiyaviy faoliyat uni tashkil etish kabi masalalar bilan bog‘liq interfaol, yangi texnologik uslublarga tayangan holda ilmiy-amaliy, ko‘p yillik pedagoglik, murabbiylik tajribasiga asoslangan bilim va tafakkur bilan faol ishtirok etib kelmoqda.

N.X.Voxidova universitet, fakultet, kafedra hamda yuqori tashkilotlar tomonidan yuklatilgan vazifalarga mas‘uliyat va javobgarlikni his qilgan holda yondashadi, ularni sidqidildan hamda puxta bajaradi. U o‘zining samimiyligi, kamtarligi, Vatanga bo‘lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, pedagoglik, murabbiylik sohasiga sadoqati va kasbiga bo‘lgan muhabbati bilan keng jamoatchilik, oilasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan.



XALIMOVA XANIFA MUXSINOVA

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Xanifa Muxsinovna 1995-yilda “Shuxrat” medali, 2023-yilda “Sog‘liqni saqlash a’lochisi” medallari bilan taqdirlangan. Toshkent tibbiyot akademiyasi Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasida professor lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi mehnat staji 51 yil, mazkur vazifada 2005-yildan buyon ishlamoqda. X.M. Xalimova Toshkent Tibbiyot Akademiyasi “Nevrologiya va tibbiy psixologiya” kafedrasining eng tajribali va malakali olimlaridan biridir.

O‘zbekistonda nevrologiya fani rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shib kelayotgan, nevrologiyaning yetuk darg‘asi sifatida butun Markaziy Osiyoga tanilgan, akademik Nabi Majidovichni o‘ziga ustoz sanagan olima, tibbiyot fanlari doktori, professor Xalimova Xanifa Muxsinovna 1948-yil 13-dekabrda Buxoro viloyatida tug‘ilgan. Professor Xanifa Muxsinovna haqida gap ketar ekan, ko‘pchilik ularni yetuk olima, tajribali rahbar, bilimdon shifokor, kamtarin va oliyjanob inson sifatida ehtirom bilan tilga oladi. Xanifa Muxsinovna

hayot otlig‘ ulkan maktabning saboqlarini qunt bilan o‘zlashtirdi, umrining har lahzasini tibbiyotimiz rivojiga baxshida etdi, bemorlar salomatligini asrashda o‘z kuchi va bilimini ayamadi. Shu bora ular olimlik shohsupasiga erishdilar, el orasida izzat va obro‘ topdilar, katta ishonch qozondi.

1966-yilda maktabni oltin medal bilan tugatib, Toshkent Davlat Tibbiyot institutiga o‘qishga kirdi. 1972-yilda oliygohni imtiyozli diplom bilan tugatgach, institutda faoliyat yuritish uchun ishga olib qoldirilgan. Shu yildan boshlab Xanifa Muxsinovnaning hayoti institut bilan bog‘lanib, hozirgi kungacha tinib-tinchimasdan faoliyat yuritib kelmoqda. Avval klinik ordinatura o‘tadi, keyinchalik ToshDavTI nevrologiya bo‘limida ordinator bo‘lib ishladi, mashhur nevropatologlar Akademik N.M. Majidov, dotsent L. Voskovskaya va N. Akbarovalarga shogird tushib, o‘z malaka va tajribasini boyitdi. 1979-yildan kafedrada assistent lavozimida ishladi.

1982-yilda Xanifa Muxsinovna “Клиника, диагностика и некоторые

вопросы прогнозирования метастатические опухоли головного мозга» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi va 1989-yilda shu kafedrada dotsent bo‘ldi. Ilmiy izlanishlarini davom ettirib, 1995-yilda “Метастатические опухоли головного мозга (клинико-иммунологические и компьютерно-исследования)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va shu bilan o‘zining O‘zbekistondagi ilk bor ilmiy maktabini yaratdi. 1991-1999-yillarda Respublika nevrologiya markazida direktor o‘rinbosari, 1996-1999 yillarda 1-ToshDavTI nevrologiya kafedrasida professorlik qildi va 1999-2005-yillarda 1-ToshDavTI nevrologiya kafedrasining kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritdi.



Uzoq yillar davomida olima yurtimizdagi tibbiyot institutlari, kollejlari pedagoglari, jumladan professorlar, dotsentlar va assistentlarning malakasini oshirish kurslariga rahbarlik qildi.

Xanifa Muxsinovna respublikamizdagi eng yirik nevrolog olimlardan biri sanaladi. Ular ilmiy faoliyati davomida ko‘plab ilmiy

asarlar, 400 dan ortiq maqolalar, monografiyalar, 40 dan ortiq uslubiy qo‘llanmalarga mualliflik qildi. Ustoz olima rahbarligida 5 ta doktorlik va 10 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.



Xanifa Muxsinovna Xalimovaning yana bir ilmiy yo‘nalishlaridan biri serebrovaskulyar kasalliklar, jumladan bosh miya ishemik insultining molekulyar-genetik jihatlarini o‘rganish hisoblanadi. Shu bilan olima nevrologiyaning ilm sohasida ulkan burilish yaratdi, ya’ni o‘zbek millatida ishemik insultlarda ilk bor molekulyar-genetik tekshiruvlar tamoyillarini chuqur o‘rgandi. Keyinchalik olima o‘zining uchinchi katta bir ilmiy yo‘nalishga qo‘l urdi va juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Parkinson kasalligining molekulyar-genetik, bioximik, neyropsixologik va nevrovizualogik jihatlarini chuqur o‘rganib, o‘zining parkinsonizmga bag‘ishlangan ilmiy maktabini yaratdi. Bu borada respublikamizda 2 ta grant loyihasiga rahbarlik qildi, 2 ta doktorlik va 1 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi.

Ilmiy izlanishlar borasida tinib-tinchimagan olima o‘zining uchinchi bir ilmiy

yo‘nalishi, ya‘ni bosh og‘riqlarning molekulyar-genetik jihatlari, kasallik rivojlanishida bosh miya qon-tomirlari anamoliyalarining o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishladi. Bu borada yana bir doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi.



Xanifa Muxsinovna uzoq yillar davomida O‘zbekistonda yon amiotrofik skleroz, tarqoq skleroz, kasallik tarqalishi, klinik kechishi, diagnostikasi va davolash chora-tadbirlari to‘g‘risida qator dissertatsiyalar himoya qilindi. Hozirgi kunga qadar ustoz rahbarligida Parkinson kasalligini erta aniqlash prediktorlari, shuningdek tarqoq sklerozning zamonaviy diagnostika tamoyillari chuqur o‘rganilmoqda. Ayniqsa butun dunyo davlatlarida ham davolash samarasi juda kam bo‘lgan tarqoq sklerozni yangicha davolash tamoyillari to‘g‘risida juda katta natijalarga erishilmoqda.

Professor Xanifa Muxsinovnaning ilmiy izlanishlari chet mamlakatlar olimlari tomonidan e‘tirof etilgan, ularning ilmiy maqolalari dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan Rossiya, Qozog‘iston, Azarbayjon, Turkiya, Malayziya, Filippin, Germaniya, Avstriya, Gresiya, Italiya, Shveysariya, Vengriya, Fransiya, Ruminiya, Chexiya, Ispaniya, Amerika Qo‘shma Shtatlari davlatlari nashrlarida chop etildi.



Xanifa Muxsinovna yurtimizda chiqadigan “Nevrologiya” va “O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi byulleteni” jurnallari tahrir hay‘atining a‘zosi bo‘lib faoliyat yuritib kelmoqda. Olima ajoyib shifokor bo‘lish barobarida ajoyib notiq. yoshlarga g‘amxo‘r murabbiy, yana ham aniqroq aytganda yuzlab nevrologlarning ustози.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, qo‘lga kiritilgan ulkan yutuqlar, davlatimiz tomonidan aholi salomatligini mustahkamlash borasida mutlaqo yangi samarador tizimning joriy etilganligi va bu model dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olinib, yuqori baholanayotganligi to‘g‘risida faol targ‘ibot ishlarini olib bormoqda.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, Nevrologiya kasalliklarni, jumladan Parkinson kasalligi kabi asab tizimining neyrodegenerativ kasalliklarini erta aniqlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish maqsadida keyingi uch yilda 100 dan ortiq uchrashuv va davra suhbatlarini tashkil etgan. Yuqori malakali shifokor va fidoyi inson sifatida respublika tibbiyot jamoatchiligi va viloyat faollari o‘rtasida hurmat qozongan.



XALLIYEVA GULNOZ ISKANDAROVNA

Filologiya fanlari doktori, professor

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna 1974-yil Xorazm viloyatining Urganch shahrida tug‘ilgan. 1996-yil Urganch davlat universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetini tamomlagan. Filologiya fanlari nomzodi (2000), dotsent (2006), filologiya fanlari doktori (2016), professor (2020).

davom ettirib, 2016-yil 8-iyulda 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo‘yicha “XX asr rus sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muddatidan ilgari himoya qilgan. Hozirda mazkur universitetning “Jahon adabiyoti” kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



Mehnat faoliyatini 1996-yildan Urganch davlat universitetining o‘zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida boshlagan.

2014-yildan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Jahon adabiyoti” kafedrasida dotsent lavozimida o‘z faoliyatini



Dunyo sharqshunosligida o‘zbek mumtoz adabiyoti, turkologik ilmiy tadqiqotlar,

turkiy qo‘lyozmalar, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar kabi ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib boradi. Ilmiy izlanishlari yuzasidan jami 258 ta ilmiy ish: 5 ta monografiya, 8 ta o‘quv qo‘llanma, darslik va ilmiy maqolalari chop qilingan. Kitoblari o‘zbek, rus, ingliz va turk tillarida nashr qilingan.

2009-yilda *O‘zbekiston* aloqa va axborotlashtirish agentligining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan, hozirda bosh vazirimiz *Abdulla Nigmatovich Aripov* topshirganlar.



2021-yilda “Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarning ma’lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” loyihasi g‘olibi bo‘lgani uchun, innovatsion rivojlanish vaziri Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich tomonidan loyiha sertifikatini bilan taqdirlangan. Gulnoz Xalliyeva ilmiy-texnik davlat dasturlar doirasidagi grant tanlovlarida doimiy qatnashib kelmoqda.



“Yevropa fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan turkiy qo‘lyozmalarning ma’lumotlar bazasini va “Yevroturcologica.uz” elektron platformasini yaratish” innovatsion loyihasi doirasida 17 ta Yevropa va Rossiya davlatida xizmat safarida bo‘lib, O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan 119 ta qo‘lyozmani topishga, ulardan ba’zilarini hozirgi yozuvimizda nashr qilishga muvaffaq bo‘lgan.

Ushbu loyiha rejasi asosida Yevropaning Germaniya, Fransiya, Italiya, Vatikan, Shveysariya, Gollandiya, Shvetsiya, Chexoslovakiya, Polsha, Finlyandiya, Latviya, Litva, Estoniya, Daniya, Lyuksemburg, Belgiya, Avstriya turkologiya bo‘limlari va markazlarida ilmiy ishlarini olib borgan. Berlin, Drezden, Leypsig, Myunxen, Parij, Bern, Praga, Vena, Xelsinki, Lyuksemburg, Rim, Vatikan shaharlarining dunyoga mashhur kutubxonalarida O‘zbekistonda mavjud bo‘lmagan adabiyot, til, falsafa, tasavvuf, tarix fanlariga oid eng noyob turkiy qo‘lyozmalarni o‘rgangan.



Hozirda “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasi yaratish nomli innovatsion loyihasining rahbari sifatida ilmiy ishlarini davom ettirmoqda. Loyiha rejasi doirasida o‘zbek, rus, ingliz va turk tillarida kitoblari nashr etilgan.

“Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanining “Komparativistika” elektron platformasi yaratish loyihasi asosida va universitetlararo professor almashinuvi doirasida 2023-yildan buyon Turkiyaning Marmara, Seljuk, Koch, Anqara universitetlari talabalariga ma’ruza o‘qib kelmoqda.



Gulnoz Xalliyeva 2024-yilda MDH davlatlarida yagona bo‘lgan “Komparativistika” jurnaliga asos soldi. Jurnalning shu bugungacha 2 ta soni nashr qilindi. Ushbu jurnalda 10. 00.06–Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishidagi barcha dolzarb maqolalar nashr qilinadi.

Professor Gulnoz Xalliyeva 2014-yildan buyon “Jahon adabiyoti” kafedrasini boshqarib kelmoqda. Kafedra dunyoning Peter Szondi Institute of Comparative Literature, Freie Universität Berlin, Leibniz-Zentrum für Literatur und Kulturforschung (ZfL) kabi qiyosiy adabiyotshunoslik markazlari (Germaniya, Berlin), University of Toronto Centre for Comparative Literature (Kanada, Toronto).

Yale University Department of Comparative Literature (AQSH, Yel universiteti), Eskişehir Osmangazi Üniversitesi Karşılaştırmalı Edebiyat Bölümü (Turkiya, Osmangozi universiteti va boshqa universitetlari) Harvard University Department of Comparative Literature (AQSH), Indiana

University Comparative Literature Department, Columbia University Department of English and Comparative Literature (AQSH), University of Washington Department of Comparative Literature (Vashington), Xelsinki universiteti, Gumbolt universiteti kabi universitetlar bilan akademik hamkorlik o‘rnatgan bo‘lib, har yili xalqaro anjumanlarda ishtirok etmoqda, maruzalar o‘qimoqda, tajriba almashib, ilg‘or g‘oyalarni yurtimizga tatbiq etib kelmoqda.

2024-yil 7-8 mayda Gulnoz Xalliyeva tashabbusi bilan “Jahon adabiyoti” kafedrasini tomonidan “Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro anjuman o‘tkazildi. Ushbu anjumanda dunyoning turli davlatlaridan olimlar qatnashdi.



Professor Gulnoz Xalliyeva O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy pedagogik kadrlarini tayyorlashda, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, dissertatsiya himoyalarda, mahalliy va xalqaro grant loyihalari tanlovlarida faol qatnashib kelmoqda.

Olimaning ilmiy pedagogik faoliyati universitet rahbariyati tomonidan doimiy e’tirof etib kelinmoqda. Universitet rektori Ilxomjon Madaminovich barcha professor o‘qituvchilarga imkon qadar yaxshi sharoitlar yaratib bermoqdalar, o‘z professional malakasini oshirishda moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab quvvatlamodalar.



XALMANOV NURALI TASHKUVATOVICH

Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

(18.01.1960 yil — 09.04.2022 yil)

Inson aslida nima uchun yashaydi? O‘zidan nafaqat qobil farzand, balki yaxshi nom qoldirish uchun ham umrguzaronlik qiladi. El-yurt koriga yarash uchun yelib-yugurib, tinim bilmay oldinga intiladi. Shunday insonlar tufayli yurt gullab yashnaydi. Pastdarg‘om tumani Burganli qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan Nurali Xalmanovning umr yo‘li ham bunga yorqin dalildir.



Pastdarg‘om elining zabardast olimi ko‘plab shogirdlarning ustoz, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor Xalmanov Nurali Tashkuvatovich 1960-yil 18-yanvarda Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi Burganli qishlog‘ida tavallud topdi.

1967-yil Nurali Xalmanov Pastdarg‘om tumani 83-son sakkiz yillik (hozirgi 59-son) maktabining birinchi sinfga qabul qilindi.

To‘g‘ri so‘z, tirishqoq, mehnatsevar o‘spirin maktabda sakkiz yil davomida faqat a‘lo baholarga o‘qidi. 9-10 sinf ma‘lumotini qo‘shni Sanchiqul qishlog‘ining 11-o‘rta maktabida oldi.



Pastdarg‘om tumanidan yangi yerlar o‘zlashtirildi va bu hududda paxtachilikka mo‘ljallangan yirik Samarqand davlat xo‘jaligi tashkil etildi. Nurali otasi boshliq bo‘lgan brigadada ishchi, mexanizator, zveno boshlig‘i kabi turli kasblarda sidqidildan mehnat qildi. 1978 – 80 yillarda harbiy xizmatni o‘tash davrida ham qishlog‘i, qadrdon dalalarini bir zum bo‘lsa-da esdan chiqarmadi. 1980 –

yillarda Samarqand qishloq xo'jaligi instituti talabalarining cho'l sharoitida paxtani mexanizatsiya yordamida terishga ko'maklashuvchi guruhning xo'jalikka yordamga kelganligi yosh mexanizator Nuralining orzularini ro'yobga chiqishiga turtki bo'ldi.

Adabiyot, qolaversa, kimyo va biologiya fanlaridan yaxshi bilimga ega bo'lgan yosh mexanizator 1982-yil SamQXI ning tayyorlov bo'limiga hujjat topshirdi. 1983-yil 1-sentyabrida ota-onasi va barcha qarindoshlari Nuralining talaba bo'lganligi bilan tabriklashdi. 1983 – 1987 yillar davomida SamQXI ning agronomiya fakultetida a'lo baholarga o'qidi. Paxtachilik va dehqonchilik kafedrasida qoshidagi talabalar ilmiy jamiyatining yig'ilishlarida o'zining referativ xarakteridagi ma'ruzalari bilan faol ishtirok etib turdi.



U o'qish jarayonida taniqli olimlar: D.T.Abdukarimov, E.P.Gorelov, R.O.Oripov, P.U.Uzaqov, I.X.Hamdov va boshqalarning ma'ruzalarini zo'r ishtiyoq va havas bilan tingladi.

1987-yil sentyabr oyida "Zarafshon" (sobiq Lenin yo'li) gazetasida Samarqand qishloq xo'jaligi instituti o'simlikshunoslik kafedrasiga aspiranturaga qabul e'lon qilindi.

Uning "G'o'za mahsuldorligi va tola sifatiga organik o'g'itlar va trixoderma lignorum 19 shtammi uyg'unligining ta'siri" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasiga professor R.O.Oripov ilmiy rahbarlik qildi. U 1991-yilda SamQXI qoshidagi ixtisoslashgan ilmiy kengashda qishloq xo'jalik fanlari

nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildi.

Nurali Xalmanov oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy pedagogik faoliyatini 1990 yil SamQXI agronomiya fakultetining o'simlikshunoslik kafedrasida assistent lavozimidan boshladi.

1996 – 1999 yillarda ishlab chiqarishdagi faoliyatini davom ettirib Samarqand Viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi dehqonchilik bo'limi boshlig'i lavozimiga taklif etildi. 1999 – 2000 yillarda esa Viloyat don mahsulotlari aksiyadorlari uyushmasida elevator sanoati va qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi. Samarqand davlat universitetida yangi tuproqshunoslik va ekologiya fakultetining ochilganligi va unga ishlab chiqarishda bir oz pishgan olimni taklif etilishi, Nurali uchun yana ilmiy-tadqiqot ishini davom ettirish imkonini berdi.



2000 – 2008 yillarda Samarqand davlat universitetining "Ekologiya va tabiat muhofazasi", "Ekologiya va agrokimyo" kafedrasida katta o'qituvchisi lavozimida ishladi.

2008-2018 yillarda "Ekologiya va agrokimyo" va "Ekologiya" kafedrasida dotsenti lavozimida ishladi.

2018 yildan "Ekologiya" kafedrasida professori, 2021 yillarda Samarqand davlat universiteti "Mevachilik-uzumchilik va sabzavotchilik" kafedrasida professori lavozimida umrining oxirigacha (09.04.2022 yil) faoliyat olib bordi.

Nurali Xalmanov qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirib

2018 yil 25-iyul kuni “Zarafshon vohasida barqaror ekologik agrobiotsenozni ta’minlashda sideratsiyaning ahamiyati” mavzusidagi doktorlik ishini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasiga qarashli Tuproqshunoslik va Agrokimyo ilmiy tadqiqot institutida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilib “Ekologiya” ixtisosligida respublikamizda birinchilardan bo‘lib fan doktori ilmiy darajasini olishga musharraf bo‘ldi.



Olim bu sohada 100 dan ortiq ilmiy va ommabop maqolalar e’lon qilgan. Uning fermer xo‘jaligi rahbarlari va mutaxassislar uchun yozgan “Oraliq ekinlar”, “Paxtachilikda organik o‘g‘itlar va trixodermadan foydalanishning ekologik samaradorligi”, “Paxtachilikda organik o‘g‘itlar va atrof muhit muhofazasi”, “Zarafshon vodiysida ekologik barqarorlikni ta’minlashda sideratsiyaning ahamiyati” kabi monografiyalari bundan tashqari “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalashtirish va tuproq unumdorligini oshirish” va “Shahar va sanoat ekologiyasi” “Agroekologiya” nomli darsliklar muallifi hisoblanadi, qishloq xo‘jaligi sohasida tuproq unumdorligini tiklovchi, oshiruvchi va uning ekologik holatini yaxshilovchi manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek 3 ta darslik, 15 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma va 1 ta patent muallifidir.

Nurali Xalmanov ilmiy ishlar bilan bir qatorda badiiy ijodda ham qalam tebratgan. She’rlar universitet gazetasida, hikoyalari bekajon jurnallarida chop etilgan, Olimning avtobiografik xarakterdagi “Rangin kunlar” nomli hikoyalar, “Hayot suqmoqlarida

ushalغان orzular” nomli to‘plamlari nashrdan chiqdi. Olim O‘zbekiston Respublikasi ekologik partiyasining markaziy kengash a‘zosi. O‘zbekiston Respublikasi ekologik harakati va O‘zbekiston Respublikasi ekologik partiyasining syezdlariga uch marta delegat sifatida saylangan. Yaqin kunlarga qadar Nurali Xalmanov Ekologiya kafedrasida yetakchi professorlaridan biri sifatida bakalavriat va magistratura bosqichi talabalariga bilim berib kelgan. Turmush o‘rtog‘i Anora aya bilan 4 nafar farzandni tarbiyalab oliy ma’lumotli qilishdi va hozirgi kunda 10 nafar nabirasi bor. O‘g‘li, Toshkuvatov G‘anisher otasining qilgan ishlarini davom ettirmoqda.

Olim yaqin kunlarga ham olim Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengash a‘zosi sifatida ham faoliyat ko‘rsatayotgan edi. Xalmanovlar oilasini haqiqiy olimlar oilasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki vaqtida Toshquvat ota bilan Shahri ayalarning to‘ng‘ich o‘g‘li Qahramonning tarbiyasidan alohida xulosa chiqarib, 8ta farzandlariga tarbiya berishda tarbiyaning turli xil usullarini qo‘llaganligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Shuning natijasi bo‘lsa kerak barcha farzandlarini oliy ma’lumotli qilib tarbiyaladi. Natijada oilada 2ta fan doktori etishib chiqdi. Hozirgi vaqtda f.-m.f.d. Xalmanov Aktam Toshquvatovich Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Mexanika muhandisligi” kafedrasida professor lavozimida faoliyat ko‘rsatmoqda.





XO'JAYEV SHAMIL TURSUNOVICH
Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor

Qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor Xo'jayev Shamil Tursunovich 1942–yilning 3–aprel kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Maktabda o'qib yurgan davrlarida o'simlik va hayvonot dunyosiga qiziqqani bois, 1960–yilda Toshkent qishloq xo'jalik institutining O'simliklarni himoya qilish fakultetiga o'qishga kirdi va 1965–yili uni imtiyozli baholar bilan tugatgan. 1965–yili O'rta Osiyo o'simliklarni himoya qilish ilmiy tadqiqot institutiga ishga joylashib, olimlarga xos ijod yo'lini bosib o'tgan.



Sh.Xo'jayev shu dargohda 1980–yilgacha ilmiy xodim, undan keyin esa, agrotoksikologiya laboratoriyasini boshqarib, shu lavozimda hanuzgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'tgan 58 yilga teng davr ichida paxtachilik hamda yo'ldosh ekin va boshqa o'simliklarni zararkunandalardan himoya qilish sohasida mavjud dolzarb muammolarni yechishga kirishib, soha va jamoa uchun zarur bo'lgan natijalarga erishgan. Uning ishtirokida qishloq xo'jaligi ekinlarini (g'o'za, g'alla, sabzavot – poliz va boshqa yo'ldosh o'simliklar) himoya qilishda yangi uyg'unlashgan himoya qilish tizimlari (IPM) yaratilib, tobora takomillashtirib kelinmoqda.



Sh.Xo'jayev 1974–yili nomzodlik, 1991–yilda esa, Leningrad shahrida (VIZR) – doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. 1993–yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi

unga professorlik unvonini bergan. U oilali, 3 farzandning otasi. Uning rahbarligida 40 dan ortiq fan nomzodlari va doktorlari tayyorlanib, muvaffaqiyatli himoya qilishgan.



Sh.Xo'jayev 1981 yildan boshlab turli ilmiy kengashlarga a'zodir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining ekspertlar a'zoligiga (1992-1995) hamda turli ixtisoslashgan kengashlar tarkibiga (1996-2024) a'zo etib tayinlanib, ibratli faoliyat ko'rsatib kelmoqda.



G'o'za, bug'doy, sabzabot-poliz, mevali bog', tut va terak (entomologiya, agrotoksikologiya) bo'yicha ilm va amaliyotga yangiliklar bilan katta hissa qo'shib kelmoqda. Ilk bor uning rahbarligida feromonitoring usuli yaratilib, O'zR FA Biorganika institutining olimlari bilan hamkorlikda amaliyotda keng qo'llanmoqda.

Sh.T.Xo'jayev g'o'za va boshqa yo'ldosh ekinlar zararkunandalariga qarshi 500

dan ortiq insektitsid va akaritsidlarni sinab, orasidan yuqori talablarga javob beradigan 300 dan ortig'i O'zbekiston Respublikasida ruxsat etilgan pestitsidlar "Ro'yxati..." ga kiritilib muvaffaqiyatli, amaliy ishlatilmoqda.

Uning yakka hamda hammuallifligida 600 ga yaqin ilmiy-amaliy maqola, shu jumladan 80 ta tavsiyanoma va uslubiy ko'rsatmalar hamda kitoblar (15) chop etilgan. Uning muallifligida talaba va qishloq xo'jaligi mutaxassislari uchun mo'ljallangan hasharotshunoslik (entomologiya) hamda qishloq xo'jalik entomologiyasini qamrab olgan, 4 marta nashr qilingan va oxirgisi: "Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi hamda uyg'unlashgan himoya qilish tizimining asoslari" (2019) deb nomlangan, 375 betdan iborat monografiya alohida o'rin tutadi.



Bundan tashqari Agrotoksikologiyaga oid "Qishloq xo'jaligida pestitsidlarni ishlatish hamda tadqiqotlar o'tkazish usullari va shartlari" (2020) hamda "Pestitsid va agroximikatlarni ro'yxatga olish sinovlarini o'tkazish yuzasidan uslubiy ko'rsatmalar" (2023) kitoblari chop etilib, sohadagi talaba, fermer-dehqon xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislar uchun dolzarb manba bo'lib xizmat qilmoqda.



XODJAYEV BEGZOD XUDOYBERDIYEVICH
Pedagogika fanlari doktori, professor

Begzod Xodjayev 2015-yil Xalq ta'limi a'lochisi, 2020-yil "Toshkent oliy umum-qo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga 100 yil" esdalik nishoni, 2021-yil "Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi xizmatlari uchun" medali, 2022-yili "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30 yilligi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.



1989-1999-yillarda Shahrizabz tumani-dagi 3-son umumiy o'rta maktabda, 2001-2005-yillarda Toshkent davlat pedagogika universitetining tarix fakultetida tahsil olgan va imtiyozli diplom bilan tugatgan. 2004-yilda bakalavr talabalar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi tanlovida "Pedagogika" yo'nalishi bo'yicha sovrindor bo'lgan. 2005-2007-yillarda Toshkent davlat pedagogika universitetining pedagogika magistratura

mutaxassisligida tahsil olgan va imtiyozli diplom bilan tamomlagan. 2006-yilda magistr-talabalar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi tanlovida "Pedagogika" yo'nalishi bo'yicha ikkinchi marotaba g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2007-2010-yillarda Toshkent davlat pedagogika universitetida 13.00.01 – Umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi ixtisosligi bo'yicha aspiranturada o'qishni davom ettirgan va 2009-yilning 2-oktyabrida muddatidan avval "Umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishning didaktik asoslari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, 2010-yilda pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan.



2010-yilda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazilgan “Yosh olimlar stipendiyasi” sovrindori bo'lgan.

2012-yilda “Pedagogika nazariyasi va tarixi” ixtisosligi bo'yicha dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan.



2015-yilda Respublika oliy ta'lim muassasalari miqyosida ilk marotaba o'tkazilgan “Yilning eng yaxshi pedagogi – 2015” ko'rik-tanlovida pedagogika sohasi bo'yicha “Mutaxassisligi bo'yicha eng yaxshi pedagog” nominatsiyasi g'olibi bo'lgan va faxriy diplom bilan taqdirlangan.

2016-yil 9-iyun kuni “Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan va shu yilning 14-iyulida pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olgan. 2016-yil 29-dekabrda Oliy attestatsiya komissiyasining professor ilmiy unvonida tasdiqlangan.

B.Xodjajev pedagogika sohasi bo'yicha eng yosh professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan, ilmiy jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan novator-pedagog olim hisoblanadi.



Olim tomonidan ishlab chiqilgan va ommalashtirilgan evristik didaktika,

neyropedagogika, muzey pedagogikasi, virtual pedagogika, kompetent pedagogika, pedagogik aksiologiyaga doir ishlanmalar *LinkedIn*, *ResearchGate*, *Google Scholar*, *Scopus*, *Web of Science* kabi ilmiy axborotlar almashinuviga asoslangan platformalarda yuqori baholangan.

B.Xodjajev o'zining ilmiy maktabiga ega olim bo'lib, uzluksiz ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, o'quvchilarda tarixiy ong va tafakkurni rivojlantirish, badiiy pedagogikaning turli jihatlariga doir izlanishlarni amalga oshirishga bevosita ilmiy rahbarlik qilgan. Olimning ilmiy rahbarligida 3 nafar fan doktori (DSc) va 30 nafar falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingan.

B.Xodjajev respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, 2010-2011-o'quv yilida oliy ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishga doir Namangan davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti, Samarqand davlat universitetlarida tashkil etilgan ko'chma o'quv seminarlarida moderator sifatida ishtirok etgan. 2011-2012-o'quv yilida Jizzax shahrida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida umum-ta'lim fanlarini kasbga yo'naltirib o'qitishga doir ko'chma o'quv seminarlarida ham trener sifatida ishtirok etdi va o'quv-uslubiy majmualarga mualliflik qildi. 2013-2014-o'quv yili davomida Respublika ta'lim markazi va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlikda Toshkent viloyatining umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Mahorat maktablari” doirasida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv jarayoniga samarali tatbiq etish maqsadida tashkil etilgan seminar-trening mashg'ulotlarida tyutor sifatida ishtirok etib, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari

uchun yaratilgan fanlarni o‘qitish texnologiyalariga doir uslubiy qo‘llanmalarining nazariy qismini tayyorladi va o‘qituvchilarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashda faol ishtirok etdi.



2015-yildan hozirgi vaqtga qadar Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta‘lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tomonidan tashkil etiladigan oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida dars berayotgan professor-o‘qituvchilar uchun o‘tkazilgan o‘quv seminarlari va kurslarining yetakchi moderatori sifatida ham faol ishtirok etib keladi. Shuningdek, olim tomonidan qator mualliflik metodikalari ishlab chiqilgan hamda ta‘lim amaliyotiga joriy etilgan. Jumladan, hayotiy tajribaga asoslangan (vitagen) o‘qitish metodikasi, shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilgan o‘qitish metodikasi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi, tarixiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi va boshqalar. Novator-pedagog olim sifatida B.Xodjayev “Innovatsion pedagogika”, “Pedagogik evristika”, “Kreativ pedagogika” nomli mualliflik trening kurslari muallifidir.

Olim tomonidan shogirdlari bilan birga qator ishlanmalarga mualliflik guvohnomalari olingan: “Filologlar uchun Adobe Photoshop dasturini o‘rganish” mobil ilovasi (№ DGU 32526), “smentor.uz” virtual klubi elektron platformasi (№ DGU32526), “Ijodkorlik laboratoriyasi” elektron platformasi (№ DGU

36440), “edusocial.uz” elektron platformasi (№ DGU 41196) va boshqalar.

B.Xodjayev tomonidan respublikamizda ilk bor umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun “Arxeologiya” virtual-ta‘limiy muzeyi ishlab chiqilgan va ommalashtirilgan. Shuningdek, shogirdlari bilan birgalikda virtual borliq texnologiyasi yordamida virtual sayohatni tashkil etish metodikasi va o‘quvchilarning amaliy dasturlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida maxsus trenajyorlar ishlab chiqilgan.



Begzod Xodjayev YuNESKO va YuNISEF xalqaro bolalar jamg‘armasining maktab ta‘limini rivojlantirishga doir O‘zbekistondagi loyihalarida konsultant va ekspert sifatida ishtirok etgan. Jumladan. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Respublika ta‘lim markazi va YuNISEF xalqaro bolalar jamg‘armasi bilan hamkorlikdagi 2019-yil 10-dekabrda №01/11-01/01-2556 (RTM) va №591 (YuNISEF) raqam bilan ro‘yxatga olingan “Umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish” loyihasi doirasida yaratilgan tarix fani bo‘yicha Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish hamda YuNESKoning Toshkentdagi vakolatxonasi tomonidan 235UZB1000-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Farg‘ona vodiysi yoshlarida ijtimoiy uyg‘unlik” loyihasi doirasida 2021-yilning 3-4-choragida milliy konsultant va ekspert sifatida faoliyat yuritgan.

B.Xodjeyev davlat grantlari asosidagi ilmiy-tadqiqot loyihalarini bajarishda ham faol ishtirok etib keladi.

Pedagogika sohasining yetuk olimi tomonidan nafaqat respublikamiz, balki xorijda ham qator monografik tadqiqotlar chop ettirilgan. Uning monografik tadqiqotlari 7 ta tilda (rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan, portugal) chop etilgan.

Shu vaqtga qadar olimning chop ettirgan ilmiy ishlari 200 dan ortiq bo'lib, shundan 50 tasi darslik, o'quv va metodik qo'llanmalardir. Uning "Pedagogik aksiologiya" (2013), "Qiyosiy pedagogika" (2015), "Pedagogik aksiologiyadan xrestomatiya" (2016), "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" (2017), "Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi" (2018), "Pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish" (2021), "Maktabgacha pedagogik akmeologiya" (2021), "Tadqiqiy pedagogika" (2022), "Pedagogik texnologiya" (2022), "Pedagogik akmeologiya" (2022), "Pedagogikaning pragmatik aspektlari" (2023), "Ta'limda innovatsiyalarni boshqarish" (2023), "Umumiy pedagogika" (2023), "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijtimoiy ta'lim" (2023), "Ijtimoiy pedagogika" (2023) kabi darslik va o'quv qo'llanmalari ilmiy jamoatchilik tomonidan alohida e'tirof etilgan.

B.Xodjeyev tomonidan yakka mualliflikda yaratilgan "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" nomli darslik 2017-yildan buyon shu kunga qadar "Umumiy pedagogika" fanidan asosiy darslik sifatida oliy ta'lim tashkilotlari o'quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda va bir necha marta qayta nashr ettirilgan. Shuningdek, u Respublikamizda ilk bor magistratura mutaxassisligi talabalari uchun 2024-yilda hammualliflikda "Pedagogik riskologiya" nomli o'quv qo'llanma yaratgan.

Olim tomonidan nafaqat o'zbek, shu bilan birga qoraqalpoq hamda rus tillarida qator darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Qoraqalpoq va rus tillarida respublikamiz hamda MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) mamlakatlari olimlari bilan hammualliflikda yaratilgan "Sotsiallik pedagogika" (2022), "Педагогическая технология" (2023), "Uluwma pedagogika: Pedagogika teoriyasi. Pedagogika tariyxı. Pedagogikalıq sheberlik" (2024), "Педагогика" (2024) nomli darslik va o'quv qo'llanmalar shular jumlasidandir.

B.Xodjeyev tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ham qator darslik va metodik qo'llanmalar nashr ettirilgan. "Jahon tarixi". 10-sinf. Darslik. (2017), Jahon tarixi. 11-sinf. Darslik. (2018), "Tadbirkorlik ta'limi: assismentlar to'plami". Uslubiy qo'llanma. (2019), "Tarbiya fanini o'qitish texnologiyasi". Uslubiy qo'llanma. (2021), "Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish: ijtimoiy fanlar". Metodik qo'llanma. (2021), "Dars jarayonida "4k" kompetensiyasini shakllantirish va baholash" (2024) kabilar shular jumlasidandir.

B.Xodjeyev xalqaro, respublika va oliy ta'lim muassasalari doirasida tashkil etilgan konferensiya va nazariy seminarlarda faol ishtirok etib keladi.

Olimning bevosita tashabbusi bilan 2014-yildan hozirgi vaqtgacha "Akademik Siddiq Rajabov o'qishlari" mavzusida xalqaro ishtirok etish asosidagi an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkazib kelinadi. Mazkur ilmiy-anjuman doirasida 500 nafardan ortiq iqtidorli talabalarning ilmiy ishlari aprotatsiyadan o'tkazilganligini ham alohida e'tirof etish mumkin. Umuman olganda, Begzod Xodjeyev o'ziga ham, o'zgalarga ham talabchan inson hamda olim sifatida talabalar, magistrantlar, doktorantlar, shogirdlari va ilm ahli o'rtasida alohida obro'-e'tiborga ega bo'lib, katta hurmat qozongan.



XOLMO‘MINOV JA‘FAR MUHAMMADIYEVICH

Falsafa fanlari doktori, professor

O‘zbek va fors-tojik tillarida ijod qiluvchi zullisonayn shoir, sharqshunos-dinshunos va faylasuf-tasavvufshunos olim, tarjimon va publitsist Xolmo‘minov Ja‘far Muhammadiyevich – Ja‘far Muhammad Termiziy 1968 yilning 20 sentyabrida Surxondaryo viloyatining Sherobod (hozirgi Muzrabot tumani hududiga qarashli) tumanidagi Nazariy mahallasida til va adabiyot o‘qituvchisi oilasida dunyoga kelgan.



Ja‘far Xolmo‘minov 1975-85 yillar mobaynida Boysun tumanidagi 18-maktab va Muzrabot tumanidagi 8-maktablarida o‘rta

ma‘lumotni olgach, 1986 yili Tojikiston davlat universitetining filologiya fakulteti fors-tojik klassik adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha o‘qishga kirdi. 1987-1989 yillarda Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatni o‘tab, yana tafsilotini davom ettirdi va 1993 yilda tahsilni tugatib, ona yurtiga qaytdi.

Ja‘far Xolmo‘minov 1993-1998 yillar davomida Surxondaryo viloyati Teleradiokompaniyasi radioeshittirishlar tahririyatida katta muharrir, Surxondaryo viloyati Kasaba uyushmalari kengashida “Ijtimoiy huquq va mehnat muhofazasi” bo‘limi maslahatchisi, Termiz davlat universiteti filologiya fakulteti “O‘zbek adabiyoti” va “Tilshunoslik” kafedralari o‘qituvchisi, katta o‘qituvchisi sifatida “Fors tili”, “Hozirgi zamon Eron adabiyoti”, “Jahon adabiyoti tarixi”, “She‘rshunoslik” (Aruz ilmi), “Eron tillari qiyosiy grammatikasi” fanlaridan dars berdi, Markaziy Osiyoda ilk marotaba “Tasavvuf adabiyoti”ni fan sifatida shakllantirib, talabalarga saboq berdi.

Shuningdek, viloyat “Kamolot” Yoshlar jamg'armasi Kengashida “Ma'naviyat va ma'rifat” bo'limi boshlig'i lavozimida faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga, 1993-2000 yillar davomida Surxondaryo viloyatida yashab ijod qiladigan zullisonayn shoir va yozuvchilarni birlashtirgan “Chashmai xurshed” – “Quyosh chashmasi” adabiy to'garagiga rahbarlik qildi.

Ja'far Xolmo'minov 1999-2002 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi doktoranturasining kunduzgi bo'limida tahsil oldi. 2003 yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti qoshidagi Sharqshunoslik fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishga ixtisoslashgan Ilmiy Kengashda ushbu ilmiy tadqiqotni muvaffaqiyatli himoya qilib, “Dinshunoslik nazariyasi” (24.00.01.) ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari nomzodi (falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori – Ph.D) ilmiy darajasini oldi.



Ilmiy-ijodiy faoliyat bilan birga 1999-2013 yillar davomida J.Xolmo'minov Eron Islom Respublikasining O'zbekistondagi Elchixonasi huzuridagi Madaniyat vakolatxonasida bosh tarjimon, madaniy va ilmiy-adabiy aloqalar bo'yicha bosh mutaxassis hamda vakolatxona tomonidan Eronda o'zbek va fors tillarida nashr etilgan “Sino” ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy-irfoniy va adabiy-badiiy jurnalining bosh muharriri o'rinbosari, bosh muharriri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi va ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik va

madaniy aloqalarni mustahkamlashga ham munosib hissa qo'shdi.



Ja'far Xolmo'minov 2004-2006 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi tinglovchilariga “Milliy ma'naviyat” va “Dinshunoslik” fanlaridan, O'zbekiston Milliy universitetining Falsafa fakulteti magistrantlariga ilk bor “Tasavvuf falsafasi” fanidan ma'ruzalar o'qidi.

Ja'far Xolmo'minov 2021-2023 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi dotsenti sifatida ham ofitserlar va kursantlarga “Dinshunoslik” va “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy asoslari” fanlaridan dars berdi, bir qator ilmiy-tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etdi.

2006-2008 yillar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik institutining “Falsafa” kafedrasida katta o'qituvchisi, dotsenti sifatida bakalavr va magistr bosqichlari talabalariga “Falsafa asoslari”, “Xorijiy sharq mamlakatlari falsafasi” fanlaridan, o'zi yaratgan “Din falsafasi” va “Tasavvuf falsafasi” fanlaridan dars berdi. Shuningdek, Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida “Tasavvuf adabiyoti” fanidan (2012 yilda), Termiz davlat universitetida “Sharq adabiyoti” fanidan, Toshkent viloyati Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida esa “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fanidan (2013 yilda), Toshkent davlat Sharqshunoslik institutida “Tarjima nazariyasi”, “Tarjimashunoslik”,

“Madaniyatlararo muloqot nazariyasi” va “Tarjimaning filologik asoslari” fanlaridan (2013-2014) ma’ruzalar o‘qidi.



2013-2018 yillar O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti sifatida talabalarga “Ma’naviyat asoslari”, “Dinshunoslik”, “Falsafa (mantiq, etika, estetika)” va “Madaniyatshunoslik”, 2019-2020 o‘quv yili davomida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabalariga dars berdi.

2016-2019 yillar mobaynida “Yangi nashr” nashriyoti bosh muharriri lavozimida ishlab, bir qator adabiy-badiiy va ilmiy asarlarni nashrga tayyorladi, 200 ga yaqin kitobga mas’ul muharrir (yoki muharrirlik) qildi.

2020-2023 o‘quv yili davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasida dotsenti sifatida “Dinshunoslik” fanidan dars berdi, ilk marotaba “Tasavvuf falsafasi”, “Tasavvuf adabiyoti va germenevtikasi” “Tasavvuf germenevtikasi” “Tasavvuf falsafasi va germeknevtika”, “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari”, “Tasavvuf teologiyasi”, “Tasavvuf psixologiyasi” fanlaridan o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni yaratib, ushbu fanlardan bakalavr va magistr bosqichlari talabalariga ma’ruzalar o‘qidi. Ushbu davr ichida universitet rektori G.Sh.Rixsiyeva rahbarligida “Tasavvuf germenevtikasi” magistratura mutaxassisligini ochishga muvaffaq bo‘ldi.

Shu kungacha Ja’far Xolmo‘minovning “Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti” (Toshkent, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008) va “Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya ta’limoti (Ibn al-Arabiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida)” (Toshkent, “Tafakkur”, 2020), “Qiyosiy tasavvufshunoslik” (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021),



“Tasavvufontologiyasi” (Toshkent, “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, 2021), nomli monografiyalari, “Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi” (Toshkent, “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, 2021) nomli o‘quv qo‘llanmalari, “Ro‘zgor va osori Oromi Pong‘ozi” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2015, tojik tida), “Jomiy Yevropada” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2016, olmon tilida: Jafar Kholmuminov. Dschami in Europa.), “Globallashuv va milliy ma’naviyat” (Toshkent “Ma’naviyat”, 2016), “Vorisoni Oromi Pong‘ozi” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2017, tojik tilida), “Naqshbandiya ta’limoti va Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy birligi” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2018) , “Xoja Muhammad Porso Buxoriy. Hayoti va falsafiy-irfoniy merosi” (Toshkent: “Tafakkur tomchilari”, 2020), “Tafakkur dramasi. Professor Narzulla Jo‘rayev hayoti va ijodi, siyosiy-ijtimoiy qarashlariga chizgilar. Esse” (Toshkent, “Adabiyot”, 2023) “Ro‘zgor va osori du adibi gumnom. Mirzo Abduxolizoda Samarqandiy va Orom Pong‘oziy” (Toshkent, 2023), “Sharq va G‘arb: tamaddunlar muloqoti.

Falsafiy esselar (Toshkent: “Shafolat nur fayz”, 2023) kabi ilmiy va ilmiy-ommabop risolalari nashr etilgan.



J. Xolmo‘minov hammuallifligida fors tilida chop etilgan “Eronshinosoni O‘zbekiston” (Toshkent-Tehron, 2005, M. Abdusamatov bilan hammualliflikda), “Siymoi farhangii O‘zbekiston” (Tehron, “Al-Hudo” xalqaro nashriyoti, 2006) va “Donishnomai zabon va adabiyoti forsii O‘zbekiston: qarni bistum to kunun” (Tehron, “Al-Hudo” xalqaro nashriyoti, 2006, hammualliflikda) kabi ensiklopedik asarlari, “O‘zbekistonda fors-tojik adabiyoti ta’limi” (Tehron, 2006, fors tilida, hammualliflikda) “Forsiy adabiyotning jahon adabiyotidagi o‘rni” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2012, hammualliflikda), “Fikrat olami. Professor Narzulla Jo‘rayev asarlari bibliografiyasi” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2017, hammualliflikda), “Sohibqiron Amir Temur harbiy san’ati” (Toshkent, “Ma’naviyat”, 2022, hammualliflikda) kabi kitoblari hamda Sharq falsafasi, dinshunoslik, islom falsafasi, tasavvuf tarixi, tasavvuf falsafasi, tasavvuf adabiyoti, manbashunoslik, klassik fors-tojik adabiyoti, hozirgi zamon Eron adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, tarjimashunoslik, ma’naviyat va madaniyatshunoslik sohalariga oid 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop, 100 dan ortiq publitsistik maqolalari O‘zbekiston, Eron, Qozog‘iston, Xitoy, Tojikiston, Hindiston, Turkiya, Fransiya, AQSH, Singapur, Belarus va boshqa xorijiy ilmiy jurnallar hamda internet saytlarida e’lon qilingan.

Ja’far Xolmo‘minov talabalik davridan shu kunga qadar respublika va xalqaro miqyosdagi turli ilmiy anjumanlar, xorijiy mamlakatlardagi turli o‘quv va malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan. U qirqdan ortiq yirik xalqaro ilmiy va ma’rifiy anjumanlarda ilmiy ma’ruzalar bilan ishtirok etdi.

Shuningdek, uning tashabbusi va rahbarligida “Kamol Xujandiy 700 yilligiga bag‘ishlangan “She’riyat – do‘stlik elchisi” (Toshkent, 2019), “Jomiy va Navoiy: fors-tojik va o‘zbek ilmiy-adabiy aloqalari” (Toshkent, 2020), “Xayyom tafakkuridan to‘qilgan xaymalar” (Toshkent, 2019), “Tasavvuf tarixi va falsafasi XXI asr ko‘zgasida” (Toshkent, 2023) kabi bir qator xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi, ilmiy to‘plamlar nashr etildi.



J. Xolmo‘minov Respublika Ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibot markazi targ‘ibotchisi sifatida Toshkent shahri, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlaridagi bir qator tashkilotlarda millatlararo totuvlik, milliy va diniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi kabi mavzularda ham suhbatlar o‘tkazgan.

Ja’far Xolmo‘minov 2020 yilda O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasining mustaqil tadqiqotchisi sifatida “Vahdat ul-vujud falsafasi va uning Naqshbandiya ta’limotiga ta’siri (Ibn al-Arabiy, Muhammad Porso va Abdurahmon Jomiy qarashlari asosida)” mavzusidagi dissertatsiyasini yakunlab, 2020 yil 29 dekabrda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi

DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashidan 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo‘yicha falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini oldi.

2020-2024 yillar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasida dotsenti sifatida “Dinshunoslik” fanidan dars berdi, ilk marotaba “Tasavvuf falsafasi”, “Tasavvuf adabiyoti va germenevtikasi” “Tasavvuf germenevtikasi” “Tasavvuf falsafasi va germeknevtika”, “Tasavvuf tarixi va tariqatlarning shakllanish jarayonlari”, “Tasavvuf teologiyasi”, “Tasavvuf psixologiyasi” fanlaridan o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarni yaratib, ushbu fanlardan bakalavr va magistr bosqichlari talabalariga ma‘ruzalar o‘qidi. Ushbu davr ichida “Tasavvuf germenevtikasi” magistratura mutaxassisligini ochishda hissa qo‘shdi.



Ja'far Xolmo'minov 2021 yildan buyon Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengash a'zosi, ushbu Kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisining o'rinbosari sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

Shuningdek, u respublika miqyosidagi 6 ta ilmiy va adabiy jurnal tahrir hay'ati a'zosi, 6 ta xorijdagi (Eron, Turkiya, Shvetsiya, Germaniya, Tojikiston) ilmiy jurnal tahrir hay'ati a'zosi, Erondagi “Bunyodi ʧahonii suxangustaroni Sabzmanish” xalqaro adabiy uyushmasining Rahbarlik kengashi a'zosisidir.

Shu paytgacha O'zbekiston MTRK turli telekanallari orqali Ja'far Xolmo'minovning Islom falsafasi, Tasavvuf ta'limoti va irfon falsafasi, fors-tojik adabiyoti va ma'naviyatga oid 70 ga yaqin, respublika radiokanallari orqali 50 dan ortiq ilmiy-ma'rifiy suhbatlari efirga uzatilgan.

Hozirgacha Ja'far Muhammad Termiziyning fors-tojik tilidagi “Chashmi boron” [Yomg'irning nigohi] (Termiz, “Jayhun”, 1997), “Mijgoni oftob” [Quyosh kipriklari] (Dushanbe, “Oli Somon”, 1999), “Tulo'i sabzi rang” [Rangning yashil chiqishi] (Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2003), “Tajalliy” (Toshkent, O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008), “Oshiqi ishq” [“Ishq oshig'i”] (Toshkent, “Yangi nashr”, 2011), “Hanuz ishq...” (Tehron: “Suxanvaron”, 2011), “G'izoli g'azal” [G'azal g'izoli] (Toshkent, “Turon-iqbol”, 2018), “Talxi shirin” (Tehron, 2024), “Aqli bunafsh” (Toshkent, 2024), “Abri daryodil” (Tehron, 2024), o'zbek tilidagi “Ko'zgu hayrati” (Toshkent, “Tamaddun”, 2010), “Quyosh siyrati” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2015), “Vaqt ta'mi” (Toshkent, “Yangi nashr”, 2018) kabi she'riy to'plamlari va kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Ja'far Muhammad Termiziyning ijodidan namunalar ingliz, fransuz, olmon, arab, rus, xitoy, uyg'ur va turk tillariga ham tarjima va nashr qilingan.

Ja'far Muhammad Termiziyning o'zbek va fors-tojik tillarida yozilgan she'rlaridan namunalar O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ellikka yaqin tazkira va bayozlardan joy olgan.

J.Xolmo'minov shu kungacha 20 dan ortiq ilmiy va adabiy asarlarni, jumladan, 2002-2013 yillar mobaynida chop etilgan Jaloliddin Rumiyning olti jildlik “Masnaviyi ma'naviy” (Jamol Kamol tarjimasi), Hofiz Sheroziy g'azallari (Olimjon Bo'riyev tarjimasi), Shayx Odina Muhammad Xorazmiyning “Miftoh ul-asror” (Mahmud Hasaniy tarjimasi), Mavlono Jaloliddin Rumi g'azallari (Asqar Mahkam

tarjimalari), Shayx Sa’diy g‘azallari (H. Ne’mat tarjimalari), Jomiy g‘azallari (H. Ne’mat tarjimalari), Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni (O.Bo‘riyev tarjimasini), shoir va mutasavvif Imlo Buxoriyning fors-tojik tilida bitgan g‘azallari va ruboiylaridan tarkib topgan devonini (Sh. Musoyev bilan hamkorlikda, Tehron, 2009) mo‘tabar qo‘lyozmalar va ishonchli nashrlar asosida nashrga tayyorlagan hamda 200 dan ortiq ilmiy va badiiy kitoblarga mas’ul muharrir yoki muharrir bo‘lgan.



Bundan tashqari Ja’far Muhammad Termiziy badiiy va ilmiy asarlar tarjimasi sohasida ham faoliyat yuritib, hozirgi zamon o‘zbek she’riyati namoyandalari va o‘zbek olimlarining ilmiy maqolalarini o‘zbek tilidan fors tiliga, bir qator eronlik olimlarning ilmiy risolalari va maqolalarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Shuningdek, eronlik rumiyshunos olim Muhammad Iste’lomiyning “Masnaviyga muqaddima” (2001), ilohiyotshunos va faylasuf olim Murtazo Mutahhariyning “Islom falsafasida ilohiy adolat masalasi” (2007) nomli ilmiy asarlari, hozirgi zamon Eron shoirlaridan Qaysar Aminurning “Ishq tili grammatikasi” (2008) va Salmon Hirotiyning “Bu yulduzdan u yulduzgacha” nomli she’riy to‘plamlari, Mavlono Jaloliddin Rumiy g‘azallari, hozirgi zamon Eron she’riyatining Ahmad Shomlu, Axavon Solis, Suhrob Sipehriy, Gulchin Giloniy, Manuchehr Otashiy, Rizo Barohaniy, Yadulloh Ru’yoiy kabi qirqdan oshiq shoirlari ijodidan namunalarni (“Qirq chiroq. Zamonaviy Eron she’riyati”, “Eron zamonaviy

she’riyati” kitoblari) fors tilidan o‘zbek tiliga, O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov she’riyatidan namunalarni (“Do‘st bilan obod uying” – “Xonaat bo do‘st obod” (2020) va “Qasidai Inson” (2020) to‘plamlari) fors-tojik tiliga tarjima qilgan.

2011 yilda Xalqaro Antique World (Yevropa – Gretsiya) Fanlar Akademiyasi tomonidan Ja’far Xolmo‘minovga professorlik ilmiy unvoni berildi. 2018 yilda u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zoligiga, 2019 yil mart oyida Xalqaro Yozuvchilar va tabiblar ittifoqi a’zoligiga (Tojikiston), 2021 yil dekabrda Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi a’zoligiga, 2021 yil dekabrda Eron Adabiy tanqidi ilmiy akademiyasi haqiqiy a’zoligiga, 2022 yilda “Bunyodi qahonii suxangustaroni Sabzmanish” (Eron), “Eliasshagar World International platform of Literary, art and Culture”, “World Spiritual Humanity Peace and Literary Association” (Bangladesh) va “Anjumani adabii Xonai she’ri Eron” xalqaro madaniy va adabiy tashkilotlar a’zoligiga qabul qilindi. Bugungacha u 30 dan ortiq xalqaro miqyosdagi ilmiy, adabiy va madaniy tashkilotlarning e’tiroflariga sazovor bo‘lgan. 2023 yilda YUNESKO xalqaro madaniyat tashkiloti qoshidagi Butunjahon Falsafa forumi tomonidan “YER SHARI FUQAROSI” faxriy unvonini (CITIZEN of the EARTH / World Philosophical Forum, Socratic Philosophical school. USE – UNO (UNESCO) Global citizenship fostering program. September 15, 2023) oldi.

Ayni paytda J.Xolmo‘minov “Tasavvuf gnoseologiyasi”, “Tasavvuf antropologiyasi”, “Tasavvuf germeneytikasi” nomli monografiya va darsliklari, “Mavlono Rumiy va jahon adabiyoti”, “Ibn al-Arabiy va Rumiy”, “Faylasuf Jomiy” nomli qator ilmiy risolalar, “Zamonaviy o‘zbek she’riyati” tarjima kitobi, shuningdek, o‘zbek va fors-tojik tillaridagi yangi she’riy kitoblari ustida ishlamoqda.



XUSHVAKTOVA XUSNOBOD SOLIYEVNA
Pedagogika fanlari doktori, professor

Xushvaktova Xusnobod Soliyevnaga 1972 yil 22 aprelda Samarqand shahrida tug'ilgan. 1993 yilda Samarqand qishloq xo'jalik institutini imtiyozli diplom bilan tamomlagan.



O'z ilmiy faoliyatini 1994-1997 yillarda O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy tadqiqot institutida aspiranturada boshlagan. 1998-2005 yillarda O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy tadqiqot institutida katta ilmiy xodim lavozimida. 2006-2007 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti "Suv xo'jaligini boshqarish va uning iqtisodiyoti" kafedrasida dotsent lavozimida. 2007-2010 yillarda Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti doktoranti. 2012 yildan hozirgi kunga qadar O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tabiiy fanlar kafedrasida mudiri lavozimida faoliyat yuritib pedagogik va ilmiy faoliyatini olib bormoqda.

Husnobod Soliyevna haqida so'zlamochi bo'lsangiz ko'z oldingizga o'ta

tarbiyali inson, hammaga birdek kulib, yumshoq muomala qiladigan inson keladi. Universitet koridorlari bo'ylab yurar ekan, tabassum bilan yuzida muloyim boradi va oddiy talaba yoki yoshi katta o'qituvchilar bilan birdek muomalada bo'ladi. Dars jarayonida talabalari uni juda yaxshi ko'rib qolishadi, chunki o'qituvchi sifatida ularni ko'ngliga yo'l topadi, ular bilan o'zini teng ko'rib so'zlashadi. Tanaffus vaqtlarida ularni ba'zi muammolarni hal qilish ustida o'rtoqlashadi.

Xusnobod Soliyevna bir necha tilni mukammal biladi, rus tilini, ingliz tilini yaxshi biladi demak millionlab odamlar bilan suhbatlasha oladi. O'z ona tilini ham rus maktabida o'qiganiga qaramay juda yaxshi biladi.



Darslarni ikki tilda olib boradi, to'rtinchi bilgan tili- u murakkab talaba tilini yaxshi biladi. Ana shu talaba tilini yaxshi bilgani uchun ham sevimli va izlanuvchan o'qituvchi hisoblanadi. Aslini olib qarasangiz bu olimo o'qituvchilikda uchinchi avlod vakili

bo‘lib hisoblanadi. Katta otasi o‘qituvchi bo‘lganlar, onalari o‘qituvchi va o‘zlari ham shu muqaddas kasbni davom ettirmoqdalar. Bakalavriat bosqichi talabalariga “Ekologiya” fanidan ma’ruza va amaliy darslar o‘tib, iqtidorli talabalar bilan ishlab kelmoqda.



Yoshligida iqtisodga qiziqib O‘zbekiston iqtisodini yaxshi bilgan inson akademik Xusanov Rasulmat Xusanovich rahbarligida iqtisod fanlari nomzodi bo‘ldilar va iqtisodchi hamkasblari bugungacha Xusnobod Solievnaning dissertatsiyasini o‘ta mukammal yozilgan fundamental asar deb hisoblashadilar va undan foydalanib kelishadilar. Yillar o‘tib tabiatda bo‘layotgan Global iqlim o‘zgarishlari tufayli, olim o‘z yo‘nalishini bir muncha o‘zgartirdi va bugungi kundagi eng muhim tarmoq “Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish” fanini o‘rganishga kirishdi va bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishadi. Ekologiya yo‘nalishida 12 nomdagi darslikni Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari uchun yozib chop etdi. Ushbu darsliklar bir necha marta qayta chop etildi.

Mana 12 yildirki O‘zDJTUda Tabiiy fanlar kafedrasini boshqarib kelmoqda, mutaxassislik kafedrasini bo‘lmasa ham universitetda ilg‘or kafedralardan biri hisoblanadi. 2021 yili Xushvaqtova Xusnobod respublikada birinchi bo‘lib hali o‘rganilmagan -13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ekologiya) ixtisosligi bo‘yicha “Oliy ta’lim muassasalarida “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanini o‘qitishning

metodik asoslarini takomillashtirish” - mavzusida pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. H.S.Xushvaqtova tomonidan 12 ta darslik, 3- monografiya va Ekologik lug‘at chop etildi.

X.Xushvaqtova o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini zamon ruhi, milliy istiqlol g‘oyasi tamoyillari bilan uyg‘un bog‘lagan holda talabalarga saboq berib kelmoqda. Darslarni an’anaviy usullar bilan emas, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan olib boradi. Talabalar o‘qituvchi bilan birgalikda dars jarayonida qatnashadilar va mavzuni tez o‘zlashtiradilar.

Fakultetlararo talabalar bilan o‘quv-tarbiyaviy ishlarni o‘tkazishda X.Xushvaqtova faol ishtirok etadi. Ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va tarbiyaviy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib boradi, talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ekologik qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish hamda ularning ekologik tafakkurini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risidagi 2020 yil 02 iyundagi yildagi PF-6003-son Farmoni asosida 2022 yil 11 fevraldan Universitet xalqaro reytingi ishchi guruhida ham o‘z faoliyatini olib bordi.

Kafedra olimlari bilan birgalikda kafedra yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun tinmay xizmat qilmoqda va Ekologiya o‘qitish metodikasi bo‘yicha shogirdlari bilan ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Respublikadagi ekolog olimlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, yaqinda universitetda Ekologiya bo‘yicha Ilmiy tadqiqot instituti tashkil qilindi va shu institutni tizim talabiga moslashtirish harakatida ishlar olib bormoqda.



XUSHVAQOV NABI OLIMOVICH

Tarix fanlari doktori

Nabi Xushvaqov 2011-yil “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 20 yilligi” Ko‘krak nishoni, 2016-yil “O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi” ko‘krak nishoni, 2022-yil “O‘zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” esdalik nishoni, 2023-yilda “Do‘stlik” ordeni, 2023-yil “Xalqaro Amir Temur xayriya jamg‘armasi jamoat fondi” esdalik nishoni, 2024-yil “Oltin Meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi ko‘krak nishoni, 2024-yil “Madaniyat va san‘at fidokori” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.



Umumiy mehnat staji – 44 yil. Mehnat faoliyatini 1981 yildan Shahrisabz tumanidagi “Kesh” jamoa xo‘jaligi ishchisi lavozimidan boshlagan. 1982-1984 yillarda harbiy xizmatni o‘tagan. 1984-1985 yillar “Kesh” jamoa xo‘jaligi traktor parki ishchisi, 1985-1986 yillarda Toshkent shahridagi 12-jazu 7-qurilish boshqarmasi ishchisi sifatida faoliyat yuritgan.



1986-1991 yillarda Toshkent davlat universitetining tarix fakulteti kunduzgi bo‘lim talabalari safiga qabul qilingan.

1992-1995 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining

Arxeologiya instituti kunduzgi bo‘limi aspiranti, 1995-1996 yillarda shu institutning kichik ilmiy xodimi sifatida o‘z ilmiy faoliyatini boshlagan.



1996-yilda Shahrisabz shahrida “Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyi” tashkil qilish ishlarida shaxsan boshchilik qilgan va shu muzeyda 1996-2018 yilgacha direktor lavozimida faoliyat yuritgan. 2019-yilda mazkur muassasa “Shahrisabz” davlat muzey- qo‘riqxonasiga aylantirilgan va mazkur muassasaning bosh direktori lavozimida faoliyat olib bormoqda.



U mazkur sohalarda faoliyat yuritish bilan bir qatorda 2009-2012 yillarda “Xalqaro muzeylar kengashining” (IKOMOS) O‘zbekistondagi raisi, Shahrisabz shahar “Ma’naviyat va ma’rifat” targ‘ibotchilar a’zosi, “Qarshi davlat universiteti” tarix fakulteti o‘qituvchisi (2022-2023 yillar), “Shahrisabz davlat pedagogika instituti” tarix fakulteti katta o‘qituvchisi (2023-yildan buyon) sifatida faoliyat yuritib mamlakatimizning pedagogika, tarix, arxeologiya, muzeyshunoslik kabi

sohalari rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Nabi Xushvaqov o‘z mehnat faoliyati davomida bir qancha xalqaro grant dasturlarida ishtirok etgan.



Jumladan: Buyuk sohibqiron Amir Temurning qarorgohi Oqsaroy majmuasining mozaikali pollarini konservatsiyalash ishida Fransiyaning Dordon Departamenti, Dorus saodat majmuasidagi Jahongir maqbarasidagi arxeologik tadqiqotlar va konservatsiyalash ishlarida Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi elchixonasi Madaniy merosni asrash markazi bilan, Kitob tumani Saroytepa arxeologik yodgorligida arxeologik ishlar olib borish ishida Rossiya Federatsiyasining Ermitaj muzeyi bilan hamkorlikni amalga oshirgan.



Nabi Hushvaqov Qarshi davlat universiteti qoshidagi Falsafa bo‘yicha tarix fanlari doktorligi(PhD) ilmiy darajasini himoya qilish bo‘yicha Ilmiy kengash va Ilmiy seminar, shuningdek Samarqand Arxeologiya instituti qoshidagi Arxeologiya ixtisosligi bo‘yicha fan doktori(DSc) ilmiy darajasini himoya qilish bo‘yicha Ilmiy kengash, Samarqand davlat

universitetida O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha fan doktori(DSc) ilmiy darajasini himoya qilish bo‘yicha Ilmiy kengash a‘zosi hisoblanib 30 dan ortiq ilmiy dissertatsiyalarda opponentlik va taqrizlar yozgan. 1 ta tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasiga ilmiy rahbar, 1 ta fan doktori dissertatsiyasiga ilmiy maslahatchidir.



Ichida O‘zbekiston tarixi, arxeologiya, muzeyshunoslik ixtisosligi bo‘yicha serqirra olim bo‘lib, 5 ta kitob nashr qildirgan; Rossiya Federatsiyasida 1 ta monografiya hammualliflikda, Turkiya Respublikasida 1 ta hammualliflikda ilmiy asarlari nashr qilingan. 50 dan ortiq ilmiy maqolalar, 60 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir.



Ichida O‘zbekiston Respublikasida nashr etiladigan “Moziydan sado” ilmiy jurnali, Ozarbayjon Respublikasida nashr etiladigan xalqaro Skopus ro‘yxatida indeksatsiyalangan “Madaniyat dunyosi” Ilmiy jurnallari kengashi a‘zosi, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi “Islom

sivilizatsiyasi” markazi huzuridagi Ilmiy maslahat kengashi a‘zosisidir.



Rossiya, Misr, Fransiya, Tojikiston kabi davlatlarda turizm, tarix, arxeologiya, etnografiya, menejment, madaniy meros, muzeyshunoslik, san‘atshunoslik kabi yo‘nalishlarida malaka oshirgan bo‘lib, xalqaro sertifikatlariga ega.



O‘zbekiston tarixi, Mahalla, Madaniyat va ma‘rifat telekanallari bilan hamkorlikda bir qancha hujjatli filmlarda maslahatchi va ijrochi sifatida faoliyat olib borib, ma‘naviyatimizni targ‘ibot va tashviqot qiluvchi, tariximizni chuqur o‘rganishga undovchi ko‘rsatuvlar yaratishda mualliflik qilgan.

Ichida o‘zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga va o‘z sohasiga bo‘lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo‘lgan mehri balans keng jamoatchilik, oilasi va Mahallasi, do‘st-u birodarlari orasida katta o‘choqlar qozongan.



YARKULOV RAUF

**Texnika fanlari nomzodi, professor,
Turon Fanlar akademiyasining akademigi**

Yarkulov Rauf – Yangi asr universiteti Akademik bo‘lim boshlig‘i Texnika fanlari nomzodi, professor (TDPU,MRDI), Turon fanlar akademiyasi akademigi, Xalq ta’limi a’lochisi, O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi a’lochisi.



Yarkulov Rauf 1986-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “Kibernetika” ilmiy tadqiqot birlashmasida “Разработка математических моделей и оптимизация процессов управления в сложных

динамических биотехнических системах (на примере хронической почечной недостаточности-ХПН (05.13.01-Техник sistemalarni boshqarish, 05.13.09-Biologik va meditsina sistemalarni boshqarish) mavzusida texnika fanlari nomzodlik dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilib, texnika fanlari ilmiy darajasini olgan.

Umumiy mehnat staji – 54-yil. 1970-1971-yillarda Samarqand shahar harbiy kursni “Tangchi” diplom bilan tugallagan. 1971-1973-yillarda armiya safida xizmat qilgan.1973-1977-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutini “Matematika” ixtisosligi bo‘yicha muvaffaqiyatli tamomlab, ustozlari tomonidan ilmiy-pedagogik faoliyatini davom ettirish uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasining “Kibernetika” ilmiy-tadqiqot birlashmasiga injener-programmist lavozimiga ishga taklif etilgan.

1977-1978-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Kibernetika" ilmiy-tadqiqot birlashmasida injener-programmist lavozimida faoliyatini yuritdi.



1979-1981-yillarda Nizomiy nomidagi Yarkulov Rauf 1973-1977-yillarda Nizomiy nomidagi TDPI ning Matematika fakultetining matematika ixtisosligini muvaffaqiyatli tamomlab, 1977-yil o'z ish faoliyatini mazkur institutning "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari" kafedrasida katta laboranti lavozimida boshlagan.



1985-1987-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining "Matematika o'qitish metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi.

1987-1992-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti matematika fakulteti dekanining kechki va kunduzgi bo'limlar bo'yicha dekan muovini.

1992-1994-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining kechki va sirtqi hamda kunduzgi bo'lim o'quv bo'limi boshlig'i.

1992-1994-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining

kechki va sirtqi hamda kunduzgi bo'lim o'quv bo'limi boshlig'i.

1994-1997-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti matematika fakulteti dekanining o'quv va tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini.

1997-2001-yillar K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutida o'quv bo'limi boshlig'i.



1999-yildan K.Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining tayinlangan professor.

2001-2005-yillar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-metodik bo'limi boshlig'i.

2005-yildan 2008-yil 25-martgacha Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Matematika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti.

R.Yarqulov pedagogik faoliyati davomida TDPU va matematika fakultetning jamoat ishlarida faol qatnashgan. U bir necha bor qo'rilish va qishloq xo'jaligi ishlarida rahbar bo'lib musobaqa g'olibi bo'lgan.

1988-yildan 2008-yil 25-martgacha "Algebra va sonlar nazariyasi" kafedrasida dotsenti.

2008-yil 25-martdan buyon TDPuning "Matematika va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida professori.

2008-yil 24-aprelda Xalq ta'limi tizimida pedagogik kadrlar tayyorlashda faolligi uchun Xalq ta'lim vazirligining "Xalq

ta’limi a’lochisi” ko’krak nishoni bilan taqdirlangan.



2008-2009-yillar jamoatchilik asosida universitet marketing xizmati bo’limi boshlig’i lavozimida faoliyat yuritgan.

2010-yilda O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning “Ko‘p yillik samarali va halol mehnat hamda o‘z xizmat vazifasiga bo‘lgan sadoqati uchun” faxriy yorlig‘i bilan mukofotlangan.



2013-yilda O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTV gi o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim tizimidagi pedagogik kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari uchun OO‘MTVning “O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi a’lochisi” ko’krak nishonlari bilan taqdirlangan.

2011-yilda “Yilning eng yaxshi darslik va o‘quv adabiyoti muallifi” Respublika ko’rik tanlovida hammuallifda yaratilgan “Oila psixologiyasi” nomli o‘quv qo’llanmasi uchun “2-darajali diplom” bilan taqdirlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 1-iyuldagi Farmoniga binoan ta’sis etilgan “O‘zbekiston mustaqilligiga 25-yil” esdalik nishoni bilan

taqdirlangan. 2016-2018-yillar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Oliy matematika” kafedrasida mudiri.

2018-2022-yillar Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘quv-metodik bo‘lim va magistratura bo‘lim boshlig‘i lavozimlarida faoliyat yuritgan.



Maxpirat nomidagi O‘rta Osiyo xalqlari tarixi instituti TURON FANLAR Akademiyasi PREZIDIUMINING QARORI (2022-yil 25-avgustdagi 2/08-22- bayonnomasi) bilan RAUF YaRQULOVga TURON FANLAR Akademiyasining AKADEMIK ILMIY UNVON berildi.



2022-2023-o‘quv yilida UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES (Fan va texnologiyalar universitet)da o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, o‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i va kunduzgi bo‘lim fakulteti dekani lozimlarida faoliyat yuritdi.

2023-2024-o‘quv yilidan boshlab YANGI ASR Universitetda o‘quv (AKADEMIK) bo‘lim boshlig‘i lozimida faoliyat yuritmoqda.

R.Yarqulov o'z pedagoglik faoliyati davomida ko'plab ilmiy, ilmiy-metodik va metodik ishlar olib bormoqda. Shu jumladan, 8 nomdagi darslik va o'quv qo'llanmalar, 41 nomdagi ilmiy-metodik tavsiyanomalar, 4 nomda monografiya, 142 nomda ilmiy va ilmiy-metodik maqolalar muallifidir.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari va malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv fan dasturlarni ishlab chiqish jarayonida ishchi guruh rahbari sifatida qatnashgan.



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning rayosati a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.



Professor R.Yarqulov kafedra professor-o'qituvchilari tarkibini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida bo'lib o'tayotgan "Ta'lim"

sohasidagi qonun loyihalari muhokamalariga faol jalb etib kelmoqda.

U Turkiya, Rossiya, Qozog'iston davlatlarida o'z malakasini oshirgan hamda nufuzli xalqaro simpozium va konferensiyalarda ilmiy ma'ruzalar bilan faol qatnashgan.

Rauf Yarqulov qat'iy maqsadga ega va talabchan rahbar, amaliy matematika bo'yicha fundamental asos va maktab yaratgan iqtidorli olimdir. Rauf Yarquloviya ilm-fanni tashkil qilish bo'yicha tajribali mutaxassisdir. Uning rahbarligida 20 nafar magistrant magistrlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.



Xalqaro konferensiyalar to'plamlarida R.Yarqulovning 10 dan ortiq maqola hamda tezislari chop etilgan. Shuningdek, muallifning SCOPUS va Web of Science bazasidagi xalqaro jurnallarda maqolalari muntazam chop etib kelinmoqda.



Yarqulov Rauf o'zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo'lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo'lgan mehri bilan keng jamoatchilik, hamkasblari va oilasi orasida katta hurmat qozongan.



YARMATOV RAXIMBOY BAXRAMOVICH
Pedagogika fanlari doktori, professor

Yarmatov Raximboy Baxramovich 1973 yil 31-mayda Jizzax viloyati G‘allaorol tumanida tavallud topgan.

R.B.Yarmatov 2002 yil Jizzax Davlat pedagogika institutining tarix fakulteti, Davlat tarix va huquq asoslari mutaxassisligi bo‘yicha a’lo darajada tamomlagan. 2003-2005 yillarda Samarqand Davlat universitetining tarix mutaxassisligi bo‘yicha magistrlik darajasini egallagan. 2005 yildan boshlab Jizzax Davlat pedagogika instituti Tarix fakultetida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent va professor vazifalarida faoliyat yuritib kelmoqda.



2015 yil 13 martda “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi a’lochisi” nishoniga sazovor bo‘lgan. 2017 yil 10 noyabrda

Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy kengashining qaroriga asosan “Iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini, 2020 yil 30 sentyabrda Jizzax davlat pedagogika instituti kengashining tavsiyasiga ko‘ra “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini, 2021 yil 30 dekabrda O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy kengashi qaroriga asosan “Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish” mavzusidagi Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini, 2022 yil 29 mayda Turon Fanlar Akademiyasi akademigi ilmiy unvonini, 2023 yil 1 aprelda Jizzax davlat pedagogika universitetining tavsiyasiga asosan “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvonini olgan. Ilmiy pedagogik faoliyati davomida 2005-2011 yillarda Jizzax davlat pedagogika instituti O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi, 2011-

2014 yillarda Umumiy tarix kafedrasida o'qituvchisi, 2014-2017 yillarda Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, 2017-2019 yillarda tarix fakulteti dekani, 2019-2020 yillarda Tarix o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, 2020- h.v gacha Magistratura bo'limi boshlig'i, Umumiy tarix kafedrasida professori sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



Yarmatov Raximboy Baxramovich tomonidan 200 dan ortiq ilmiy va metodik ishlar nashr qilingan. Shulardan 4 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya, 2 ta uslubiy qo'llanma, 8 ta metodik qo'llanma 49 ta nufuzli xorijiy ilmiy jurnallardagi ilmiy maqolalar, 129 dan ortiq ilmiy maqola va tezislarni chop etilgan. "Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari" metodik qo'llanmasi 2018 yilda, "Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" metodik qo'llanmasi 2018 yilda, "Iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish samaradorligi" metodik qo'llanmasi 2018 yilda, "Bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish" monografiyasi 2021 yilda, "Magistrlik dissertatsiyasini yozish, rasmiylashtirish hamda himoya qilish strukturasi" uslubiy qo'llanmasi 2021 yilda, "Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari" o'quv qo'llanmasi 2021 yilda, "Pedagogika tarixining nazariy va amaliy asoslari" o'quv qo'llanmasi 2022 yilda, "Arxivshunoslik" o'quv qo'llanmasi 2023 yilda chop etilgan.

Yarmatov Raximboy Baxramovich rahbarligidagi shogirdlari J.K.Sangirov 2018 yilda "Navoiy" nomli stipendiyaga, M.A.Axmedova 2022 yilda "Prezident" stipendiyasiga sazovor bo'lgan.

B.Yarmatov "Uzbekistan Resarch Online" raqamli platformasiga kiritilgan Jizzax davlat pedagogika universitetining "Mental Enlightenment scientific-methodological journal" Jizzax sh. ilmiy-uslubiy jurnalining tahrir kengashi a'zosi, Chirchiq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy seminar a'zosi sifatida attestatsiya ishlarida yuqori faollik bilan qatnashmoqda.



Shu kungacha R.B.Yarmatovning bevosita ilmiy rahbarligida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktorlari (PhD) 2 nafar tadqiqotchi muvaffaqiyatli himoya qilgan. Hozirda qator tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda.

R.B.Yarmatov bugungi kunning dolzarb sohalaridan bo'lgan tarix va pedagogika sohasi mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha malakali kadrlar, yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash yo'lida fidokorona mehnat qilib, mamlakatimizni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

R.B.Yarmatov fidoyi va kamtarin inson, jonkuyar olim, tajribali pedagog, chuqur bilim va dunyoqarashga ega ma'rifatli inson sifatida respublikamiz ziyolilari orasida alohida hurmat qozonib kelmoqda.



YAXSHIYeva ZUXRA ZIYATOVNA

Kimyo fanlari doktori, professor

Buxoro viloyati, Olot tumanida 1967 yilda tug‘ilgan. 1984 – 1989 yy. — Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti talabasi. 1989 yilda institutni imtiyozli diplomga tugatib, Buxoro viloyati Olot tumani non zavodida muhandis-texnologiya lavozimida mehnat faoliyatini boshlagan. 1996 – 1997 yy. — Jizzax shahar 19-sonli umumta’lim maktabida kimyo fani o‘qituvchisi. 1997 – 2002 yy. — Jizzax shahar “Umid” iqtidorli bolalar litsey-internati kimyo fani o‘qituvchisi. 2002 yildan boshlab Jizzax davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti kimyo kafedrasida katta o‘qituvchisi lavozimida pedagogik faoliyatini davom qilgan.

2011 yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida “Platina, palladiy va oltinni tioasetamid bilan amperometrik aniqlash” mavzusida 02.00.02–analitik kimyo ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini professor A.M. Gevorgyan rahbarligida himoya qilgan. 2016-2018 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti analitik kimyo kafedrasida doktoranturada tahsil olgan va 2018 yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Tabiiy va texnogen obyektlarda Pt(IV), Pd(II) va Au(III) ni amperometrik aniqlashda oltinugurt saqlovchi reagentlar va karboksil kislotalarning ba’zi hosilalarini qo‘llash” mavzusida 02.00.02–Analitik kimyo ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini professor Z.A. Smanova maslahatchiligida himoya qilgan.

2018-yil analitik kimyo ixtisosligidan dotsent ilmiy unvonini, 2022-yil analitik kimyo ixtisosligidan professorlik ilmiy unvonini olgan.

2020-2023 yy. — Jizzax davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta’lim fakulteti dekani.

2023 y. — h.v. — Jizzax davlat pedagogika universiteti tabiiy fanlar fakulteti dekani.

Z.Z.Yaxshiyeva rahbarligida 50 ga yaqin malakaviy bitiruv ishlari va 15 ta

magistrlik dissertatsiyasi, 3 ta kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) himoyalari yoqlangan. Hozirda bir nafar doktorant, to‘rt nafar tayanch doktorant, 4 nafar mustaqil izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda. 15 ta doktorlik (12 ta PhD va 3 ta DSc) dissertatsiya ishlariga rasmiy opponentlik qilgan.



Rahbarligida 5 ta “M.Ulug‘bek”, 4 ta “A. Navoiy” 1 ta talaba “Bobur” nomli Davlat stipendiya sovrindorlari, 5 ta talaba Respublika kimyo fani olimpiyada g‘olibi, “Yil talabasi” “XXI asr ayoli” Respublika ko‘rik-tanlov g‘olibi, Rossiyada o‘tkazilgan “Мир Олимпиады”, “Лучший студент Содружества независимых Государств” va “Лучшие молодые учёные” xalqaro tanlovlarida talabalar ilmiy tadqiqotlari va izlanishlari bilan 1-o‘rinni egallab, ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan.

Z.Z.Yaxshiyevaning 350 ga yaqin ilmiy ishlari e‘lon qilingan, shulardan 1 ta darslik, 8 ta o‘quv qo‘llanma, 5 ta monografiya, 2 ta ixtiro patenti, 6 ta foydali model patenti, 10 ta uslubiy qo‘llanma, 8 elektron o‘quv qo‘llanma, 2 ta Play Market mobil ilovalar muallifi, 20 ta maqola Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan jurnallarda chop qilingan hamda talabalar bilimni yanada mustahkamlab borishlari uchun “Kimyogarlar” – <http://kimyogar-ustoz.zn.uz> saytini ochgan.

Respublika va Xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda kimyo muammolariga bag‘ishlangan maqolalar bilan qatnashib Moskva, Sankt-Peterburg, Kazan, Ufa (Rossiya), Ankara, Stanbul (Turkiya), Baku

(Ozerbayjon), Minsk (Belarussiya), Yekaterinburg (Rossiya), Chimkent va Astana (Qozog‘iston) shaharlarida o‘tkazilgan Xalqaro konferensiya va kongresslarda ma‘ruzalari bilan qatnashgan.

Akademik almashinuv dasturi asosida Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universitetida, M.Auevov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti va Maksim Tanka nomli Belarussiya davlat pedagogika universitetlarida 16-24 soatli ma‘ruza darslarini o‘qigan.



2012-yildan O‘zMu Kimyo fakulteti 02.00.02-Analitik kimyo ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantlar va mustaqil-izlanuvchilar uchun Mutaxassislik fanidan malakaviy imtihon qabul qilish komissiyasi a‘zosi, hamda 2019- yildan JDPU 02.00.02-Analitik kimyo ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura va mustaqil-izlanuvchilar qabul qilish komissiyasi raisi qilib tayinlangan.

Ixtirochi ayollarning fan va texnologiya sohasida erishayotgan yutuqlari, tajribalari va yaratgan yangi texnologiyalarini o‘rganish hamda rag‘batlantirish maqsadida Koreya Ixtirochi ayollari Assosiativasi (KWIA), Koreya Intellektual Mulk Offici (KIPO) va Xalqaro Intellektual Mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan o‘tkazilgan Koreya Xalqaro Ixtirochi Ayollar Ko‘rgazmasi — “KIWIE 2023” va “KIWIE 2024” da “Method for X-ray fluorescence determination of heavy metals in water” hamda “Method for producing sorbent ameliorant from phosphogypsum to improve the quality of saline soils of the Aydar-Arnasay lake system” ixtiro patentlari bilan ishtirok qilib, tanlovlarida oltin medallarni qo‘lga kiritgan.

AL-18-122212994 “O‘zbekiston tuzli suv resurslaridan litiy birikmalarini olish texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy loyiha rahbari va F-7-48 “Polimer materiallar sirtiga immobillangan metallar nanozarrachalarining fazaviy o‘zgarishlari mexanizimini tadqiq qilish”; F.22-7 “Selektiv organik reagentlar sintezi”, A.12-53 “Atrof-muhit obyektlarida ekotoksikantlarni aniqlashning fotometrik va sorbsion-fotometrik usullarini ishlab chiqishda polimer tashuvchilarda immobilizatsiyalangan reagentlarni qo‘llash” mavzularidagi fundamental loyihalarda a‘zo sifatida ishtirok etgan.



Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.04.2022.K.78.05. Kengash raisi, O‘zMU huzuridagi DSc.03/30.12.2019. K.01.03 Kengash va SamDU huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.02.05. Kengash qoshidagi ilmiy seminar a‘zosi. Jizzax davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashi, universitet jamoatchilik kengashi va ta‘lim inspeksiya a‘zosi, Tabiiy fanlar fakulteti Kengashi raisi. Viloyat “Olima ayollar” Kengashi a‘zosi. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi kimyo fani bo‘yicha Ilmiy texnik kengash a‘zosi sifatida ham faoliyat olib bormoqda.

“Tafakkur ziyosi” (<https://jdpu.uz/ru/>), “Academic Research in Educational Sciences” (www.ares.uz, ISSN 2181-1385), “Science and Education” (www.scientificprogress.tz, ISSN 21 81 — I 601), “Journal of Natural Science” (<http://natscience.jspi.uz>), Preschool education journal (<https://presedu.jspi.uz/>)(O‘zbekiston), “Актуальные исследования” (ISSN 2713-1513) (Rossiya), “Chemical problems”

(<https://chemprob.org/>) (Ozarbayjon) ilmiy jurnallarda tahririyat a‘zosi.

Malaka oshirish va qayta tayorlash kurslari:

30. 11. 2020 yil O‘zMU huzuridagi tarmoq (mintaqaviy) markazi (288 soat) (MA №026855).

11.08.2020 yil Moskva davlat instituti (108 soat) (PK № 0010891).

01.11.2021 yil Gamburg. Germaniya. Research Methods Course authorized by European Academy of Sciences and Research (36 soat) (XI 12190293846-21).

29.11.2022 yil Moskva davlat instituti (72 soat) (PK № 0031246).

30.05.2023 yil Bosh ilmiy-metodik markazi (288 soat) (MA №044765).

05.06.2024 yil M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universitetida (144 soat) (PK № 1224) malaka oshirgan.

Bir qancha o‘quv adabiyotlari respublika miqyosida pedagogik amaliyotda qo‘llanib kelinmoqda.

Ilmiy va pedagogik ish staji – 28 yil. Analitik kimyo, Analizning fizik-kimyoviy usullari, Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fanlaridan bakalavr va magistratura bosqichlarida o‘quv mashg‘ulotlari olib boradi.




Z.Z.Yaxshieva ilmiy va pedagogik mahoratini oshirish maqsadida tinimsiz ishlaydi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, kasb-hunar ta‘limi va boshqa Oliy ta‘lim muassasalari professor o‘qituvchilari bilan ilmiy-metodik hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan

holda ular bilan birgalikda ta'lim sohasidagi muammolarni bartaraf etishga va uni rivojlantirishga qaratilgan bir nechta ilmiy-metodik maqolalar tayyorlagan va tavsiyalar ishlab chiqqan. Tirishqoq, talabchan, universitet professor-o'qituvchilari hamda talabalari orasida katta hurmatga ega.



Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan ma'naviy yetuk ayol, tajribali pedagog, mutaxassis, o'zining kamtarinligi, mehnatsevarligi va samarali mehnati bilan talabalar, shogirdlari va hamkasblari o'rtasida katta hurmat e'tiborga sazovordir. Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna ta'lim sohasiga qo'yilayotgan yangi talablarni va vazifalarni qo'llab-quvvatlaydi, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni olib borishda o'z fikriga ega bo'lgan siyosiy jihatdan ongli, to'g'ri so'z, qat'iyatli, kamtarin, har bir ishda tashabbuskor, fidoyiligi va jonkuyarligi, talabchanligi va halol bo'lganligi uchun yuksak hurmatga sazovor yetuk olimadir.



Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna universitetda va boshqa hamkor tashkilotlar bilan o'tkazilib kelinayotgan ko'plab

tadbirlarning tashabbuskori va tashkilotchisi hisoblanadi.

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna yoshlarning har tomonlama qobiliyatlarini namoyon qilishlari, iqtidorlarning iste'dodini yuzaga chiqarishni qo'llab-quvvatlash, Oliy ta'lim muassasasining mahalla, maktab va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligini qo'llab-quvvatlash borasida ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda.



Undan tashqari universitetda mehnat qilayotgan professor-o'qituvchilar va xodimlar o'rtasida bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamdagi islohotlar mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan davra suhbatlari va ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etib kelmoqda.

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovnaning bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan islohotlar jarayonlarida zamon bilan hamohang ravishda amalga oshirib kelayotgan samarali mehnatlarini Vatanga sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishning namunasi sifatida e'tirof etish lozim deb hisoblaymiz.



YO‘LDOSHEVA SAODAT MANOFOVNA

Pedagogika fanlari doktori, professor

Yo‘ldosheva Saodat Manofovna 1959 yilda Farg‘ona shahrida tavallud topgan. Bolalikdan tirishqoq bo‘lib. u maktab yoshidayoq darsdan so‘ng dugonalarini yoniga to‘plab maktab o‘yini o‘ynar edi. Maktabda o‘qib yurgan paytidayoq MTTMLaridagi sport, raqs va tabiatshunoslik to‘garaklariga qatnar edi. Ayniqsa oltinchi, yettinchi sinflarda to‘garak ishlarida faol bo‘lib, bir necha bor Respublika anjumanlarida o‘zining ma’ruza va amaliy ishlari bilan ishtirok etib, yuqori sovrinli o‘rinlarni egallab, tengdoshlari ichida namuna bo‘lib keldi. O‘rta maktabni imtiyozli bitirgan Saodatning maqsadlari katta ilm dargohlariga etakladi.



Dastlab, 1976 yilda Marg‘ilon shahridagi pedagogika bilim yurtini imtiyozli tamomlagach, Toshkentga, Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga yo‘llanma oladi. 1976 yili shu institutning “Pedagogika va psixologiya” fakultetiga o‘qishga kiradi va 1980 yili institutni tamomlab, mehnat faoliyatini dastlab Buxoro viloyatida, so‘ngra Navoiy viloyati va Toshkent shaharlarida MTMda pedagog lavozimida, keyinchalik ilmiy tadqiqot ishlari bilan birga pedagogik faoliyatni o‘zi o‘qigan Oliy ta’lim muassasasida boshladi.



1998 yili “Oila” ilmiy-amaliy Markazida ustoz O.Musurmanova rahbarligida “O‘zbekistonda sog‘lom avlodlarni

shakllantirishning ijtimoiy pedagogik asoslari” mavzusida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi va 2001 yili 13.00.01. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Ta’lim menejmenti. Ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2003 yili OAKning dotsent, 2008 yilda O‘zbekiston Milliy Universiteti professori va 2010 yilda “Antique World” xalqaro ilmiy akademiyasining professori unvonlariga ega bo‘ldi.



Jami 40 yillik pedagogik faoliyatining asosiy qismida oliy ta’lim tizimida faoliyat olib bordi. Jumladan 1996 yildan 2000 yillar davomida Nizomiy nomidagi TDPI “Odobnoma” kafedrasida o‘qituvchi va mustaqil izlanuvchi bo‘lib, 2000 — 2007 yillar davomida Toshkent viloyati Pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutida “Ijtimoiy fanlar” kafedrasini mudiri, 2007-2013 yillar davomida O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi “Oliy Pedagogika instituti” (Respublika oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti) da “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri va hozirga qadar O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasini dotsenti lavozimiga faoliyat yuritib kelmoqda.

Pedagogik faoliyati davomida 150 ga yaqin ilmiy nashrlar, jumladan “Umumiy Pedagogika” fanidan darslik (ham), “O‘zbekistonda sog‘lom avlodlarni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik asoslari” nomli monografiya, “Pedagogik-psixologik amaliyot” va “Umumiy pedagogika” o‘quv

qo‘llanma (ham), uslubiy qo‘llanma, xalqaro va respublika nashrlarida pedagogik faoliyat va uning taraqqiyoti bilan bog‘liq mazmunga ega oila, mahalla va ta’lim muassasalarining farzand tarbiyasidagi hamkorlik masalalariga doir qator maqola va tezislar nashr etdi. Anjumanlarda ishtirok etdi.



Doimo harakatda bo‘lishga, izlanishga odatlangan olim o‘z faoliyati davomida 2002-2006 yillar davomida umumta’lim maktablarining “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fani o‘qituvchilari, ota-onalar va malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun reja, dastur, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tavsiyalar chop ettirdi.



Olimaning umumta’lim maktablarining yangi tahrirdagi DTSlarini va darsliklarni yaratishda, darsliklarni ekspert qilish komissiyasi a‘zosi, 2008-2010 yillar davomida oliy ta’lim tizimida yaratilayotgan innovatsion loyihalarni ekspertizadan o‘tkazish ishlarida ham komissiya a‘zosi sifatida samarali faoliyat olib bordi.



Saodat Yo‘ldoshevaning yoshlikdan o‘z oldiga qo‘ygan “Intilganga tole yor”- degan maqsadga eltuvchi shiori bo‘lib, bu shiorni u o‘zining pedagogik faoliyati davomida shogirdlariga ham singdirib keladi. Saodat Manofovna tarbiyaviy, ta’limiy faoliyatining mazmunida talaba yoshlarga ilmiy, kasbiy bilim va ko‘nikmalar berish, ularni kasbiy mahoratini oshirish bilan birga ularga hayotiy ko‘nikma, saboqlar berish, oilaviy va jamiyat hayotiga tayyorlash, ularning ma’naviyatini shakllantirish borasida ham samarali ishlar olib boradi. Uning bu faoliyati talabalar turar joylarida, fakultetlar, mahalla va maktablarda tashkil etiladigan davra suhbatlari va uchrashuvlarda o‘z aksini topadi.



Jumladan, Toshkent shahrining Uchtepa, Chilonzor, Yunusobod tumanlari MFY, TTJ, maktab va mahallalarda Yoshlar bilan ishlash, yoshlarni kasbga yo‘naltirish, yoshlar tarbiyasida oila, maktab va mahalla hamkorligi, yoshlar tarbiyasiga globallashuv jarayonlarining ta’siri, ommaviy madaniyat va uning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sirlari, tarbiyada ibrat tamoyili, yoshlarni oilaviy

hayotga tayyorlashda milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg‘unligi kabi mavzularga yo‘naltirilgan ma’ruza va suhbatlari shular jumlasidan bo‘lib, uning ilmiy pedagogik faoliyati bevosita mahalla bilan uzoq yillardan beri bog‘liq holda olib borilayotganing o‘zi bu olimga faqat ilmiy emas balki ilmiy g‘oyalar asosida jamiyat hayotiga, uning rivoji va ravnaqi uchun hissasini qo‘shib kelayotgan jamiyatning faol va munosib a‘zosi sifatida o‘z o‘rniga ega.



Zero, Saodat Yo‘ldosheva 2008 yildan buyon, Toshkent shahar Yunusobod tumani “O‘tchopar-1” MFY “Ma’naviy-ma’rifiy va yoshlar bilan ishlash” bo‘yicha rais o‘rinbosari, komissiya raisi, komissiya a‘zosi va mahallaning “oqila ayollar harakati” yetakchisi lavozimlarida ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Saodat Yo‘ldosheva pedagogik faoliyat bilan birga ijodkor qalb egasi. Uning ijod namunalari yurakdan chiqishi, tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, hayotiyliigi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Olima oilali, 4 nafar farzand va 10 nafar nabiraning duogo‘y buvijonisi sifatida hayotining eng go‘zal damlarini shaxs tarbiyasi va kamolotiga bag‘ishlab yashamoqda.





YULDASHEV G‘ULOMJON
Qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Yuldashev Gulomjon 2021-yili “O‘zbekiston Mustaqilligiga 30 yil”, 2023-yil “O‘zbekiston Respublikasi mehnat faxriysi”, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim va innovatsiyalar vazirligi a‘lochisi ko‘krak nishonlari bilan taqdirlangan.. Bugungi kunda Farg‘ona davlat universitetini tuproqshunoslik kafedrasida professor lavozimida va 2019 yildan Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B. 05.03 raqamli ilmiy Kengash raisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.



G‘.Yuldashev o‘z ilmiy faoliyatini 1975-1978 yillari Paxtachilik ilmiy tekshirish instituti kichik ilmiy xodimi, 1978-1978 yillari O‘rta Osiyo irrigatsiya ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, 1978-1981 yillari Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, 1981-1991 yillari Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti, 1991-1994 yillari Farg‘ona davlat universiteti ekologiya va tabiatni muhofaza qilish kafedrasida dotsenti, 1994-1996 yillari Farg‘ona davlat universiteti agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasida mudiri, 1996-1997 yillari Farg‘ona davlat universiteti biologiya-geografiya fakulteti dekani, 1997-2010 yillari Farg‘ona davlat universiteti agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasida mudiri, 2010-2011 yillari Farg‘ona davlat universiteti agrokimyo va tuproqshunoslik kafedrasida professori, 2011 yildan Farg‘ona davlat universiteti tuproqshunoslik kafedrasida professori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

G'.Yuldashev Agrar qo'shma fakulteti tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi talabalariga "Tuproq kimyosi", "O'zbekiston tuproqlari va ulardan samarali foydalanish", tuproqshunoslik mutaxassisligi magistrantlariga "Voha tuproqlari genezisi va evolyutsiyasi", "Tuproqlarni sifat baholash" va "Tuproq biogeokimyosi" fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan samarali foydalangan holda dars berib kelmoqda.

G'.Yuldashevning shu kunga qadar 20 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma va risolalari, 7 ta monografiya, 7 ta o'quv qo'llanma, 5 ta darslik, turli xil dasturiy vositalarga 5 ta mualliflik guvohnomasi, xorij va respublikaning nufuzli ilmiy jurnallari va to'plamlarida 350 ga yaqin ilmiy maqolalari e'lon qilingan. Ko'plab xalqaro ilmiy anjumanlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan.

Respublika ilmiy hayotida ham faol ishtirok etadi. Shu kungacha G'. Yuldashev rahbarligida 3 ta fan doktori (DSc), 11 ta nomzodi (falsafa doktori, PhD) dissertatsiyalari himoya qilingan, 10 ta doktorlik, 20 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalariga rasmiy opponentlik qilgan.



1996-2010 yillar mobaynida A-7-445-raqamli DITD "Farg'ona viloyati sug'oriladigan tuproqlari shakllanishining genetik-geografik qonuniyatlarini o'rganish, Yer fondi va diagnostikasi" mavzusiga davlat ilmiy loyihasiga rahbarlik qilgan. 2011-2013 yillar mobaynida KXA-7-026 "Qum tepaliklar

va barxanlarni tekislab, ekin ekiladigan yerlarda shamol eroziyasiga qarshi kurash, optimal suv rejasini ishlab chiqish" mavzudagi IKARDA xalqaro loyihasi ijrochisi bo'lib ishlagan.



2013-2014 yillarda xalqaro TEMPUS dasturi ishtirokchisi bo'lgan va Germaniya davlatiga ilmiy safarga borgan. 2019 va 2020 yillarda Moskva davlat universitetining Tuproqshunoslik fakultetida xalqaro shartnoma doirasida talabalarga "O'zbekiston tuproqlari" maxsus kursidan o'quv mashg'ulotlari olib borgan.

2019-2021-yillarda Moskva davlat universitetining Tuproqshunoslik fakultetida dekani P.V. Krasilnikov bilan hamkorlikda xalqaro ilmiy loyiha ustida hamkorlikda ishlar olib borgan.

G'.Yuldashev dunyoning nufuzli davlatlarida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda muntazam ishtirok etib keladi.

1995 yildan hozirga qadar "FarDU. Pmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ" jurnali va Rossiya fanlar akademiyasining "Научное обозрение. Биологические науки", Buyuk Britaniyaning Britaniyaning "British journal of Global Ecology and Sustainable Development" va boshqa ko'plab ilmiy jurnallar tahrir hay'ati a'zosi. Uning rahbarligi va ilmiy salohiyati negizida O'zbekiston Respublikasida 1995 yilda tuproq biogeokimyosi ilmiy yo'nalishi asosida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yangi yo'nalish asoschisi desak xato bo'lmaydi, ushbu sohada

uning rahbarligida 3 nafar fan doktori yuqorida qayd etilgan 11 nafar fan nomzodi va falsafa doktorlari olimlik darajalari oldilar. Hozirgi kunda 1 nafar doktorant va 3 nafar tayanch doktorantlarga hamda 2 nafar mustaqil izlanuvchi tadqiqotchilarning ilmiy maslahatchisi va rahbari sifatida respublikamiz ilm-fan taraqqiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek olim tuproq biogiokimyosi yo‘nalishida ilmiy maktab yaratgan bo‘lib, bu qilinayotgan ilmiy ishlarning yangiliklarini yurtimizda o‘tkaziladigan mahalliy va xalqaro konferensiyalarida e‘lon qilib boradi.



2007 yildan buyon Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqot instituti huzuridagi DK 180.20.01 sonli ixtisoslashgan Kengash a‘zosi, 2013 yil 16 iyuldan boshlab 14.07.2016.Qx/B.24.01 raqamli ixtisoslashgan kengash a‘zosi, 2017 yildan buyon Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.27.06.2017.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy Kengash a‘zosi.

1995 yildan hozirga qadar “FarDU. ILMIIY XABARLAR” jurnalining tuproqshunoslik, kimyo, biologiya va tibbiy fanlari bo‘yicha tahririyat a‘zosi.

1996 yildan boshlab hukumat qarorlarini, qishloq xo‘jaligi vazirligi va viloyat

hokimligi topshiriqlarini ijro etish bo‘yicha komissiya a‘zosi tariqasida viloyat hududidagi fermer xo‘jaliklarida o‘zining ilmiy-amaliy maslahatlari bilan qatnashib kelmoqda.



Ommaviy axborot vositalarida 10 dan ortiq chiqishlar qilgan. U ishtirokidagi video va audioroliklar respublika va viloyat teleradiokanallarida namoyish etilmoqda.

Olim muntazam yosh shogirdlari bilan ilmiy laboratoriyalarda ilmiy suhbatlar olib boradi va qimmatli maslahatlari bilan o‘rtoqlashadi.

G‘.Yuldashev doimiy ravishda o‘z malakasini, ilmiy-nazariy saviyasini oshiradi ustida qat‘iyat bilan ishlaydi, bilimi, dunyoqarashi, mustaqil fikri bilan ajralib turadi. U o‘z vaqtida akademik Qirg‘izali Mirzajonov bilan birga ishlagan va ekspeditsiyalarga chiqqan, tez-tez ilmiy suhbatlar qilib turgan.

U o‘zining samimiyligi, kamtarinligi, Vatanga bo‘lgan muhabbati, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, mo‘tabarligi, professional sohasiga sadoqati va yurtiga bo‘lgan mehri bilan keng jamoatchilik, soha mutaxassislari, universitet jamoasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan.



YO'LDOSHYEV QOZOQBOY
Pedagogika fanlari doktori, professor

Atoqli adabiyotshunos olim, mohir pedagog Qozoqboy Yo'ldoshev zamonaviy badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari, badiiy asar tahlilida yangicha yondashuvlarni qo'llash, o'zbek adabiyotini samarali o'qitish borasidagi tadqiqotlari bilan milliy ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Shuning barobarida u ona tilimiz, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, til, milliy g'urur, ma'naviyat, tarbiya, axloq, madaniyatga doir o'tkir, ta'sirchan chiqishlari bilan jonkuyar ziyoli sifatida e'tibor qozongan.



Qozoqboy Yo'ldoshev ayni vaqtda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va

adabiyoti universiteti "Ona tili va adabiyot ta'limi" fakultetida kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritmoqda. Universitet huzuridagi Ilmiy seminar a'zosi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. 44 nomdagi kitobi, 850 ga yaqin maqolasi chop etilgan. Qozoqboy Boybekovich Yo'ldoshev 1949-yil 9-may kuni Sirdaryo viloyatida tug'ilgan. Uning bolaligi oson kechmagan. Go'dakligidayoq avval onasidan, keyin otasidan ajralib, hayotning achchiq sinovlari yosh boshiga tushgan Qozoqboy Yo'ldoshev opasi va pochhasining qaramog'ida katta bo'ladi. Ehtimol, bo'lajak olimning keyingi faoliyatida erishgan katta muvaffaqiyatlari zamirida ham turmush qiyinchiliklarini juda erta boshdan kechirish va hayot maktabida toblanish yotgandir.

Qozoqboy Yo'ldoshev 1956–1966-yillarda Boyovut tumanidagi 8-o'rta maktabda o'qiydi. 1966–1970-yillarda G'afur G'ulom nomidagi Sirdaryo davlat pedagogika

institutining O‘zbek filologiyasi fakultetida tahsil olib, imtiyozli bitiradi.



O‘quvchilik va talabalik davridayoq intiluvchan va kitobsevar Q.Yo‘ldoshev o‘zini qiziqtirgan savol javobini topmaguncha tinchimasligi bilan ajralib turardi. Uning o‘zbek xalq folklori namunalari: dostonlar, ertak, topishmoq, maqol va matallarni chuqur bilishi, zakiyligi, quymaquloqligi – eshitganini darrov xotirasida saqlab qolishi adabiyotning mohiyatini teran anglash va buni o‘quvchilarga anglatishda juda qo‘l keladi. Mehnat faoliyatini ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi sifatida boshlagan Q.Yo‘ldoshev 1970–1977-yillarda Guliston tumanidagi 1- va 15-maktablarda o‘quvchilarga dars beradi. 1977–1979-yillarda tumandagi 9-hunar texnika bilim yurtida o‘quv bo‘limi mudiri, direktor o‘rinbosari lavozimlarida ishlaydi.

Qozoqboy Yo‘ldoshev yoshligidan har bir ishga sidqidildan yondashar, zimmasidagi vazifani – u xoh kichik, xoh zalvorli masala bo‘lsin, birday mas‘uliyat bilan ado qilardi. Bu sifatlar uning bir necha yil xalq xo‘jaligi sohasidagi faoliyatida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. 1980–1985-yillarda O‘zkompartiya Guliston raykomida instruktor, qishloq xo‘jaligi xodimlari kasaba uyushmasi Guliston raykomi raisi, “Qizil tong” kolxozi partkomi kotibi lavozimlarida ishlagan Q.Yo‘ldoshevni ko‘pchilik asl kasbi til va adabiyot o‘qituvchisi deb o‘ylamas, balki butun vujudi bilan xalq xo‘jaligi muammolarini bartaraf qilishga sho‘ng‘igan, g‘ayratli tashkilotchi sifatida bilishardi.

E‘tiborlisi shundaki, Q.Yo‘ldoshev bir muddat adabiyotshunoslik va pedagogikadan bo‘lak sohalarda – xalq xo‘jaligi tarmoqlarida faoliyat yuritsa-da, asl maslagi – adabiyotning mohiyatini anglash va uni boshqalarga anglatish maqsadini unutmadi. Bu holat 1985 yilda **“O‘zbek sovet satirik hikoyalarida xarakter tasviri evolyutsiyasi”** mavzusidagi nomzodlik ilmiy darajasini olish uchun muvaffaqiyatli yoqlangan dissertatsiya ko‘rinishida samara berdi.



1986-yildan yana ta‘lim sohasiga qaytgan yosh olim amaliyot bilan puxta shug‘ullanish barobarida adabiy ta‘limda samaradorlikka erishish muammosini jiddiy tadqiq qila boshladi. 1994-yilgacha Guliston davlat universitetida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi, dotsent, “Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini mudiri, “O‘zbek filologiyasi” fakulteti dekani lavozimlarida mehnat qildi.

Qozoqboy Yo‘ldoshevning ilmiy-pedagogik faoliyatida badiiy asar tahlilini samarali amalga oshirish bilan bog‘liq muammolar tadqiqi katta o‘rin tutadi. Ta‘kidlash joizki, olim faoliyatining dastlabki davrlaridanoq adabiy ta‘lim bosqichlarida samaradorlikka erishish badiiy tahlilni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqligi g‘oyasini ilgari suradi. Bu fikr Q.Yo‘ldoshevni badiiy asarlarni tahlil qilishning ilmiy asoslarini yaratish muammosi bilan shug‘ullanishga undadi. Sirdaryoda sezilarli yutuqqa erishgan, muvaffaqiyatlari davomli bo‘lsa-da, Q.Yo‘ldoshev yuqorida qayd etilgan maqsadiga erishish uchun o‘tgan asrning 90-yillari

o‘rtalarida Toshkentda faoliyatini davom ettirish hamda adabiyot va uni o‘qitish metodikasini ilmiy tadqiq etishga qaror qiladi.

Olim 1994–1998-yillarda Qori Niyoziy nomidagi O‘zbek pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutida bo‘lim mudiri, ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari bo‘lib ishladi. Shu jarayonda maktab uchun adabiyot bo‘yicha dasturlar tuzish, darsliklar yaratishda qatnashadi.



Ushbu davrda Qozoqboy Yo‘ldoshevning ilmiy faoliyati o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy qilish, maktablarda adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslarini yaratish bilan bog‘liq ravishda kechdi. Ilmiy izlanishlari natijasida 1997-yili **“Yangicha pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari”** mavzusidagi pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiyani yoqladi.

Qozoqboy Yo‘ldoshev 1998–2000-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani sifatida samarali faoliyat yuritdi. Jumladan, ta‘lim sifatini oshirishda malakali mutaxassislar o‘rni kattaligini to‘g‘ri baholagan Q.Yo‘ldoshev fakultetning ilmiy salohiyatini oshirish choralari ko‘rdi. Viloyatlardagi va poytaxtdagi boshqa oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlaridan malakali professor-o‘qituvchilarning jalb etilishi hamda ijodkorlar bilan muntazam muloqot natijasida **“O‘zbek filologiyasi”** fakulteti ilmiy-adabiy markazlardan biriga aylandi.

2000-yilda professor ilmiy unvonini olgan Qozoqboy Yo‘ldoshev 2005-yilgacha **“Hozirgi o‘zbek adabiyoti”** kafedrasini mudiri, 2005–2014-yillarda **“Matnshunoslik, milliy uyg‘onish davri va hozirgi o‘zbek adabiyoti”** kafedrasini professori bo‘lib ishladi. 2014–2019-yillarda Guliston davlat universiteti va Sirdaryo viloyati pedagog xodimlar malakasini oshirish instituti professori sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 2019-yildan hozirga qadar Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori sifatida ishlamoqda.

Olim ta‘limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘qitish uchun badiiy asar tahlili eng muhim tadbir ekanini, ammo badiiy tahlilni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan tadqiqotlar mutlaqo yo‘qligidan kelib chiqib, o‘sha bo‘shliqni to‘ldirish borasida izlandi. Jumladan, o‘tgan asrning 90-yillari o‘rtalarida badiiy tahlilga doir qarashlarini **“Badiiy tahlil asoslari”** nomida tizimga solib, 1996-yildan O‘zbekiston Milliy universitetining O‘zbek filologiyasi fakulteti talabalariga maxsus kurs sifatida o‘qib, ilk sinovdan o‘tkazdi. Uning tashabbusi bilan dunyoga kelgan ushbu maxsus kurs 1998-yildan tanlama fanlardan biriga aylandi. Nihoyat 2004-yildan e‘tiboran turli muhokamalar hamda vaqt sinovidan o‘tib, juda zarurligi tan olingan **“Badiiy tahlil asoslari”** ixtisoslik fanlari qatoriga kiritildi. Oradan o‘tgan yigirma yilga yaqin vaqt davomida **“Badiiy tahlil asoslari”** fani dolzarbligi, ahamiyatliliigi, oliy filologik ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim bosqich ekani o‘z isbotini topdi. 2016 yili-Q.Yo‘ldosh va M.Yo‘ldosh hammuallifligida nashrdan chiqqan **“Badiiy tahlil asoslari”** darsligi adabiy asarning badiiy mantig‘i va estetik jozibasini aniqlashda talabalar uchun muhim qo‘llanmaga aylandi.

Adabiyotshunos sifatida uzoq yillardan beri samarali faoliyat yuritayotgan Qozoqboy Yo‘ldoshev ijodkorlar, tanqidchilar va kitobxonlar orasida bilimdon sinchi, adabiy izlanishlarga xayrixoh munaqqid o‘laroq

tanilgan. Shu ma'noda atoqli yozuvchi **Odil Yoqubovning**: *“Qozoqboyning badiiy asardan o'zi istagan narsani emas, balki o'sha asar zamirida chindan bor estetik ma'no va jozibani topishini ma'qul ko'raman. Shuningdek, olimning adibni tushunishga intilishi, yozuvchi ruhiyatiga xos belgilar badiiy asarda qanday namoyon bo'lganini ochishga ishqibozligi ham ko'nglimga o'tirishadi”* tarzidagi e'tirofida professor Qozoqboy Yo'ldoshevning adabiy tanqidchilik faoliyati mohiyati to'laqonli aks etgan, deyish mumkin. Olimning **“Alpomish” talqinlari** (2002), **“Yoniq so'z”** (2006), **“So'z yolqini”** (2018), **“Ochqich so'z”** (2019), **“Jilovlanmagan tafakkur mahsuli”** (2023) kabi kitoblarida o'zbek adabiyotining dolzarb muammolari teran tadqiq etiladi. Shuningdek, ularda o'zbek va jahon adabiyotining taniqli namoyandalari ijodi misolida adibni tushunish, uning badiiy niyatini aniqlash borasidagi yangicha adabiy-ilmiiy tahlillar o'z aksini topgan.



Dunyo adabiyotida taniqli shaxslar, ijodkorlar shaxsiyatini o'rganish orqali uning faoliyatidagi o'ziga xoslikni aniqlash an'anasi mavjud. Xususan, **“Mashhur kishilar hayoti”** (**“JZL”**) turkumidagi asarlar ko'plab atoqli shaxslar hayotiga biografik aspektida baho berish orqali kitobxonlarga ularni yanada yaqindan tanish imkonini beradi. Shu ma'noda Q.Yo'ldoshevning **“Kiyikso'qmoqdagi yo'lovchi”** (hammualliflikda) kitobi ham aksariyat o'zbek adabiyoti muxlislariga yaxshi tanish shoir – Muhammad Yusuf ijodi va shaxsiyatiga o'ziga xos rakursdan

yondashilgani bilan ahamiyatlidir. Q.Yo'ldoshevning **“Yo'l odami”** monografiyasida shoir Azim Suyun ijodi biografik metod asosida o'rganilgan.

Olimning tilshunoslik, xususan, lug'atshunoslikdagi tadqiqotlari ham alohida e'tiborga molik. So'zning so'zdan farqini nozik his qiladigan Q.Yo'ldoshev ijodkorlarning so'z qo'llash mahoratini doim badiiylikka erishishning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraydi. Shu ma'noda **“Zominning til qomusi”** (hammualliflikda) va **“O'zbek pedagogik ensiklopedik so'zligi”** (hammualliflikda) lug'atlarida olimning so'z ma'nolariga oid talqinlari nazariy va amaliy jihatdan o'z isbotini topgan, deyish mumkin. **“Zominning til qomusi”** asari o'zbek shevalarining betakror boyligini ko'rsatuvchi nodir manbalardan biriga aylandi.

Q.Yo'ldoshev maktab ta'limining samarali bo'lishini, o'quvchilar statik ma'lumotni ko'r-ko'rona yodlaydigan behis robot emas, balki masalaning mohiyatini his qilish ustida bosh qotiradigan fikr egalari bo'lishini istaydi. Uning adabiy ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslari zamirida ham ko'ngilni tarbiyalash orqali o'ziga, yurtiga, millatiga befarq bo'lmagan o'quvchilar shakllantirish maqsadi mujassamdir. Shu ma'noda adabiyot darsliklarini yaratish bilan bog'liq jarayonni Qozoqboy Yo'ldoshev faoliyatining eng zalvorli yo'nalishlaridan biri deyish mumkin.

U 1991–1998-yillarda yangilangan **“Adabiyot”** darsliklarini yaratish ishchi guruhi a'zosi, 1998-yildan 2005-yilga qadar shu guruh rahbari bo'ldi. Q.Yo'ldoshev O'zbekiston maktablarida turli davrlarda qo'llanilgan 5-, 6-, 7-, 8-, 9-, 10- va 11-sinflar uchun **“Adabiyot”** o'quvliklari mualliflaridan biri, 6-, 7-, 8- va 9-sinflarning **“Adabiyot”** darsliklaridan foydalanish bo'yicha o'qituvchilar uchun **“O'qituvchi kitobi”**, **“Adabiy saboqlar”** nomida to'rtta metodik qo'llanma yaratgan metodist olim. Shuningdek, u Qozog'iston

Respublikasidagi o'zbek maktablarining 5-11-sinflari uchun to'qqizta **“O'zbek adabiyoti”** darsligi, to'qqizta metodik qo'llanma hamda to'qqizta xrestomatiya yozishda qatnashgan. Qirg'iziston Respublikasidagi o'zbek maktablarining 6-, 7- va 8- sinflari uchun **“O'zbek adabiyoti”** darsligining yaratuvchilaridan hisoblanadi.



Qozoqboy Yo'ldoshev – so'zga chechan notiq, gurungi zavqli suhbatdosh. Uning ta'sirchan nutqidan avvallari talabalar, adabiy-ilmiy jamoatchilik bahramand edi, Internetdan foydalanish ko'lami ortganidan keyin esa Qozoqboy Yo'ldoshev keng omma o'rtasida mohir so'zchi sifatida tanildi. U **“Platforma.uz”**, **“Kun.uz”**, **“Qalampir.uz”**, **“Rost24”**, **“Xabardor”**, **“Yetuk TV”** va boshqa Internet resurslaridagi hamda telekanallardagi zalvorli chiqishlarida davlat tili va kitobxonlikni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash kabi muammolarning tub ildizi nimalar bilan bog'liq ekani va ularni bartaraf qilish haqida fikr yuritadi.

“Odam haqida odamlar”, **“Deydilarki”** to'plamlarida Qozoqboy Yo'ldoshev haqida zamondoshlari – ustozlari, hamkasblari, do'st-yorlari, yaqinlari va shogirdlarining e'tiroflari aks etadi.

Professor Qozoqboy Yo'ldoshev ilmiy-adabiy muhokamalarning doimiy qatnashchisi. Respublikamiz poytaxti va turli hududlarida Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi,

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston milliy kutubxonasi va boshqa tashkilotlar tashabbusi bilan o'tkaziluvchi ilmiy-adabiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Qozoqboy Yo'ldoshevning ishtiroki anjumanlarning mazmunli va esda qolarli o'tishiga xizmat qiladi.

Olim turli yillarda **Qozog'istonning** Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro turk-qozoq universiteti, **Turkiyaning** Otaturk madaniyat markazi, Hoji Bektosh Valiy universiteti, Karabuk universiteti, **Qirg'izistonning** Olabuqa gumanitar-pedagogika instituti hamda **Ozarbayjonning** turli muassasalari tomonidan o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ham faol qatnashib, sertifikat bilan taqdirlangan.

Professor Qozoqboy Yo'ldoshev shogirdlariga nisbatan talabchan bo'lish barobarida ularni o'ziga teng ko'radi. Shu sababli ham uning darslari qiziqarli, esda qolarli bo'ladi. O'zbekiston Milliy universitetida Q.Yo'ldoshev qator yillar davomida **“Yilning eng faol o'qituvchisi”** sifatida e'tirof etilgani ham buni tasdiqlaydi. Uning ilmiy rahbarligida to'rt fan doktori, o'n bir nafar fan nomzodi tayyorlangan.

Qozoqboy Yo'ldoshevning hayotiy tutumlari oilada ham yaqqol namoyon bo'ladi. Turmush o'rtog'i, pedagog Jamila Yo'ldosheva bilan birga farzandlarini ilmi-ma'rifatli qilish barobarida ularga o'z sha'nini pok tutish, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlikni singdirgan. O'g'li Jalolbek Yo'ldoshebekov televideniye sohasida rahbar lavozimida faoliyat yuritmoqda. Otasining izidan borgan va filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'lgan qizi Muhayyo Yo'ldosheva ko'p yillardan buyon oliy ta'limda faoliyat yuritish bilan birga adabiy-tanqidiy maqolalari, publisistik chiqishlari orqali jamoatchilikka yaxshi tanish.



YUNUSOV MIRAXMAD PULATOVICH

O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi, texnika fanlari doktori, professor

Katalizatorlar kimyosi va texnologiyasi hamda ekologiya sohasining rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan olimlarimizdan biri “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi”, “O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofoti nishondori”, texnika fanlari doktori, professor Miraxmad Pulatovich Yunusovdir.



Miraxmad Pulatovich 1942 yil 16 mayda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida dunyoga kelgan. 1959-1964 yillarda Ukrainaning Dneprapetrovsk kimyo-texnologiya institutini tamomlab “muhandis-texnolog” ixtisosligiga ega bo‘lgan. O‘sha yili taqsimlash komissiyasi tomonidan u Toshkent

Plastmassa zavodiga ishga yuborildi va 1964-1966 yillarda shu korxonada tsex texnologiyasi ustasi lavozimida mehnat faoliyatini boshladi.

M.P.Yunusov o‘zining ilmiy faoliyatini 1966 yilda O‘rta Osiyo neftni qayta ishlash sanoati ilmiy tadqiqot instituti (SredAzNIINP) hozirgi kunda O‘zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy tadqiqot institutida tadqiqotchi shogird lavozimida boshladi.

M.P.Yunusov 1967-1971 yillarda professor A. S. Safayev rahbarligida birinchi marta nikel strukturali sirt oksidlash barqaror katalizatorlari olish imkoniyatlari ko‘rsatilgan nomzodlik dissertatsiyasini tayyorladi va muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Miraxmad Pulatovich o‘zining 58 yillik mehnat faoliyati davomida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, sektor mudiri, laboratoriya mudiri, ilmiy texnologiya bo‘yicha direktor muovini lavozimlarida ish olib bordilar.

M.P.Yunusovni yosh olimlik davridayoq ilm fanga qiziqishi turli sohalardagi katalitik va adsorbsion jarayonlarni takomillashtirishga bo‘lgan ishtiyoqi o‘z davri

yetuk olimlari e'tiborini tortib, ishonchlarini oshishiga sabab bo'lgan va yillar davomida milliy iqtisodiy muammolarni hal qilish, neft va gazni qayta ishlash sanoatida resurs va energiya tejamkorligi uchun samarali texnologiyalarni ishlab chiqish hamda, kimyo, neft-gaz, farmasevtika sanoati chiqindilarini qayta ishlash bilan faol shug'ullanib kelmoqda.

Miraxmad Pulatovich o'zining 58 yillik mehnat faoliyati davomida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, sektor mudiri, laboratoriya mudiri, ilmiy texnologiya bo'yicha direktor muovini lavozimlarida ish olib bordilar.



M.P.Yunusovni yosh olimlik davridayoq ilm fanga qiziqishi turli sohalaridagi katalitik va adsorbsion jarayonlarni takomillashtirishga bo'lgan ishtiyoqi o'z davri yetuk olimlari e'tiborini tortib, ishonchlarini oshishiga sabab bo'lgan va yillar davomida milliy iqtisodiy muammolarni hal qilish, neft va gazni qayta ishlash sanoatida resurs va energiya tejamkorligi uchun samarali texnologiyalarni ishlab chiqish xamda, kimyo, neft-gaz, farmatsevtika sanoati chiqindilarini qayta ishlash bilan faol shug'ullanib kelmoqda. M.P.Yunusov birinchi marotaba zaharli

organik ifloslantiruvchi moddalarni o'z ichiga olgan oqava suvlarni katalitik va adsorbsion zararsizlantirishning eng istiqbolli va yuqori samarali usullaridan birini nazariy jihatdan asoslagan xamda sanoatga tatbiq etgan. Katalitik issiqlik generatori asosida atmosferaga azot oksidlarini chiqarilishini bartaraf etuvchi va sanoat oqava suvlarini chuqur oksidlashni tubdan yangi texnologiyasini ishlab chiqqan. Olingan ma'lumotlar asosida Ittifoqmetanolloyiha (Soyuzmetanolproekt (Severodvinsk)) Belgorod Vitamin kombinatida A vitamini ishlab chiqarish uchun sanoat oqava suvlarni tozalash inshootining loyihasini tatbiq etgan. Ekologiya sohasidagi keng ilmiy tadqiqotlar va texnologik yechimlar uning himoyasi uchun 1992 yilda Lomonosov nomidagi Moskva texnologiya institutida (Rossiya) "Kimyo va farmatsevtika chiqindilarini yo'q qilish va zararsizlantirish uchun samarali texnologiyalarni ishlab chiqish" mavzusida dissertatsiya ishi texnika fanlari doktori ilmiy darajasini himoya qilish uchun xizmat qildi.



Miraxmad Pulatovichning eng asosiy xususiyatlaridan biri bu ilmiy ishlari va izlanishlari o'z yakunini topgan, patentlangan va barchasi sanoatga tatbiq etilgan.

1992 yildan boshlab M.P.Yunusovning ilmiy qiziqishlari sohasi uglevodorod xom ashyosini qayta ishlash, yoqilg'i va moylarni ishlab chiqarishning iqtisodiy va ekologik jihatlar bilan uzviy bog'liq: xususan, neft va gazni qayta ishlash sanoati uchun yangi mahalliy katalizatorlar va adsorbentlarni ishlab

chiqish ilmiy yo'nalishining asosiy qismini tashkil etdi. Uning rahbarligida olib borilgan tadqiqotlar ishlab chiqarishda amalga oshirilayotgan yoqilg'i va moylarni qayta ishlashning yangi, mahalliy katalizatorlari va katalitik tizimlarining ilmiy asosini tashkil etadi.



UzKFITning katalizator ishlab chiqarish bo'limida himoya qatlam forkontakti, metalsizlantirish himoya qatlam katalizatori, gidrotozalash katalizatori ishlab chiqarish texnologik liniyalari o'rnatildi, shu texnologik qurilmaga moslashtirilgan texnologik reglamentlar va texnik shartlar ishlab chiqildi va ishlab chiqilgan texnik hujjatlar asosida katalizatorlar sistemasining sanoat partiyalari tayyorlangan.

Neftni qayta ishlash sanoatining bir qator korxonalarida qimmatbaho texnologik jarayonlardagi qurilmalarni rekonstruksiya qilmasdan turib mahsulot sifatini oshirish uchun yangi katalizatorlar sistemasini yaratish bo'yicha yutuqlarga erishgan. Buning uchun gidrotozalash jarayon uchun yangi, import o'rnini bosuvchi mahalliy xomashyolar asosida forkontakt, himoya qatlam va gidrotozalash

katalizatorlaridan iborat katalitik sistema olishning texnologik jarayonlarini ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati neftni qayta ishlash sanoatida foydalanish uchun mo'ljallangan forkontakt, himoya qatlam katalizatori, gidrotozalash katalizatori olishning ilmiy asoslari asosida mexanik mustahkam, kislota-asosli xossalari va geometrik formalari jihatidan ideal bo'lgan katalizatorlar sistemasi ishlab chiqilgan va reaktorda xom-ashyoni bir tekis taqsimlash bilan birga, smola asfaltlenlarni adsorbsiya qilish, regeneratsiyalash aro ishlash vaqtini 2 barobar oshirish hamda hozirgi kun talablariga javob beradigan mahsulot olish bilan izohlanadi.



M. P. Yunusov va u boshchiligidagi laboratoriyaning yaqqol yutug'i mahalliy katalitik tizimlarni sintez qilishda mahalliy xom ashyo va sanoat chiqindilaridan keng foydalanishdir.

M. Yunusov faoliyati davomida jamoasida davlatimiz mahalliyashtirish dasturlari asosida samarali ish olib bormoqda. Jumladan so'ngi 10 yilni olsak neftning moy va

dizel yoqilg'isi fraksiyalari gidrotozalash katalitik tizimlari muallifidir.

2015-2016 yillarda jamoasi bilan birgalikda moylarni gidrotozalash asosiy qatlam katalizatorlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy ishlar bilan, 2016-2017 yillarda tabiiy gazlarni merkaptansizlantirish katalizatorlarini ishlab chiqish va sanoatga tatbiq qilish davlat innovasion loyixasida ilmiy izlanishlar olib borgan.

M.Yunusov boshchiligida bajarilgan va keltirib o'tilgan ilmiy ishlar o'z yakunini topgan, patentlangan va barchasi sanoatga joriy etilgan.

So'nggi 5 yil davomida mahalliy xom ashyolar asosida seolitli adsorbentlar sintez qilish, sanoat chiqindilaridan foydalanib samarador alyumooksid adsorbentlarini sintez qilish, ishlab chiqilgan moy fraksiyalarini va texnologik gazlarni gidrotozalash katalizatorlarini tadbiq qilish yo'nalishlarida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borib jamoasi uchun yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochib bermoqda.

M. Yunusov ish faoliyati davomida Respublika innovatsion texnologiyalar yarmarkalarida, kooperasion birja yarmarkalarida va "O'zbekneftegaz" AJ tashkil etgan yarmarka va anjumanlarda ishtirok etib faxrli mukofotlar bilan taqdirlangan. Bugungi kungacha u 200 dan ortiq xalqaro va 300 ortiq Respublika anjumanlarida o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgan. M. Yunusov yillar davomida olib borgan tadqiqotlarini YeBSCO, SCOPUS, Web Of Science, Springer, GOOGLE SCHOLAR kabi Web elektron kutubxonalaridan foydalangan xolda olib borib "Catalysis for Sustainable Energy", "Chemical problems" jurnallarida o'z maqolalarini chop ettirgan. Bugungi kunga kelib respublika va xalqaro ilmiy maqolalari soni 300 dan ortgan. Uning katalizatorlar va sorbentlar ishlab chiqish yo'nalishida Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ilmiy maktab raxbari sifatida faoliyat yuritishi va yangi shogirtlar bilan ushbu jahon

miqyosida dolzarb bo'lgan sohani yurtimizda rivojlantirishga bo'lgan sayi harakatlari tahsinga sazovor. Shu bilan birga 10 dan ortiq

Xalqaro ilmiy markazlar bilan, Jumladan Nanotexnologiya markazi.

Munster.Germaniya., ABO Akademyasi Turku. Finlyandiya., KIST Universiteti Seul.Koreya., Neft kimyosi instituti Baku. Azorbayjon., MGU. Moskva. Rossiya. Amerika neft universiteti (API). Vashington AQSh va boshqalar bilan doimiy hamkorlik qiladi va jamoasi tajribasini oshirib boradi.

Hozirda 3 ta fan doktorlari va 11 ta fan nomzodlari (PhD) shogirdlari himoya qilgan undan tashqari ayni damda 3 ta fan doktorlari va 3 ta fan nomzodlari himoya qilish arafasida.

Bugungi kunga kelib M. Yunusov 55 patentga mualliflik qiladi. Olim tomonidan yozilgan ilmiy monografiyalar soni 5 ta.



M. Yunusov madaniy-ma'rifiy tadbirlarda, umumxalq hasharlarida muntazam ravishda ishtirok etadi. Yangi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni jamoasi bilan muhokama qilib seminarlar o'tkazadi. Faol mehnati, jonkuyarligi va talabchanligi, tashkilotchilik qobiliyatlari, shirinso'zligi va ilm-fanga bo'lgan yuksak ishtiyoqi bilan hamkasabalari orasida hurmat-e'tibor qozongan.

U shubhasiz kataliz fanining rivojlanishiga, yoqilg'i va moylarni tozalash jarayonlarining ilmiy va muhandislik asoslarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan shu bilan birga serqirra hayoti va faol ijtimoiy faoliyati xalq va ilm-fanga xizmat qilayotgan yosh avlod uchun yorqin namunadir.



YUSUPOV KONISBAY ABILOVICH
Pedagogika fanlari doktori, professor

Yusupov Konisbay Abilovich 1964-yil Qoraqalpog'iston Respublikasi, Chimboy tumanida tug'ilgan. 1986-yili Nukus davlat universiteti filologiya fakulteti qoraqalpoq tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.



Chimboy tumanidagi 15-maktab o'qituvchisi (1986-2003 yy), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti va folklori kafedrasida assistenti (2003-2006 yy.), Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

(2006-2009 yy.), Qoraqalpoq davlat universiteti adabiyot nazariyasi va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti (2009-2012 yy), Qoraqalpoq davlat universiteti adabiyot nazariyasi va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida mudiri (2012-2015 yy.), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq tili va adabiyoti kafedrasida mudiri (2015-2016 yy.), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida mudiri (2017 y.), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida dotsenti (2017-2022 yy), Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida professori (2022-2023 yy.) lavozimlarida faoliyat olib borgan. Bugungi kuni Qoraqalpoq davlat universiteti qoraqalpoq adabiyoti kafedrasida mudiri (2023-2024 yy.) lavozimida faoliyat olib boradi.

2003-yildan buyon filologiya fanlari nomzodi. Nomzodlik dissertatsiyasini 2002-yil 3-mayda Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi D 067.10.01raqamli Ixtisoslashgan

kengashida “Qoraqalpoq adabiyotida Aydos biy obrazi” mavzusida 10.01.02 – “Hozirgi milliy adabiyoti (qoraqalpoq adabiyoti)” ixtisosligi bo‘yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan. Nomzodlik diplomi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2003-yil 22-mayda tasdiqlangan (2003-yil 22-may 94/1-son bayonnoma. Diplom 01. № 007691).



Qoraqalpoq davlat universiteti Ilmiy kengashining tavsiyasiga ko‘ra 2012-yil 31-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan “Adabiyot nazariyasi va o‘qitish metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoniga tasdiqlangan. 2021-yildan buyon pedagogika fanlari doktori. Doktorlik dissertatsiyasini 2021-yil 6-avgustda Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Fil.20.01 raqamli Ilmiy kengashida “Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi (tashkil etish shakllari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar)” mavzusida 13.00.02 – “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (filologiya fanlari)” ixtisosligi bo‘yicha muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Doktorlik (DSc) diplomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2021-yil 30-sentyabrda tasdiqlangan (2021 yil, 30 sentyabr, 306/1-son bayonnoma. Diplom 04. № 006666). Professorlik diplomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2023-

yil 1-aprelda tasdiqlangan. K.A.Yusupov bugungi kuni universitet talabalariga “Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitish metodikasi”, “Mumtoz poetika asoslari va lingvopoetika”, magistrantlarga “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi” fanlaridan ma‘ruza o‘qiydi. Shu bilan birga Qoraqalpoq davlat universiteti qoshidagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida Qoraqalpog‘iston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalarining qoraqalpoq tili va adabiyoti professor-o‘qituvchilariga “Qoraqalpoq adabiyotini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” fanidan, akademik litsey va kasb-hunar maktabi o‘qituvchilarga “Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini o‘qitish metodikasi”, “Qoraqalpoq tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishning dolzarb masalalari”, “Qoraqalpoq tili va adabiyoti darslarida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash usullari”, “Qoraqalpoq adabiyotini kasbga yo‘naltirib o‘qitishni loyihalashtirish”, “Qoraqalpoq tili va adabiyoti fani bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar”, “Badiiy asarlarning mazmunini o‘rganish metodikasi” fanlaridan ma‘ruza o‘qiydi.

K.A.Yusupovni faqat kafedra yoki universitet miqyosida emas, balki Qoraqalpog‘iston Respublikasi miqyosida ilmiy yo‘nalishdagi ishlarning faol qatnashchisi sifatida ta‘riflash mumkin. K.A.Yusupov “Qoraqalpoq adabiyotini o‘rganish va o‘qitishning dolzarb masalalari”, “Hozirgi filologiya fanining dolzarb masalalari” yo‘nalishida 2004-yildan buyon doimiy tarzda tashkil etiladigan ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalari tashkilotchilarining biri, yosh olimlarga ilmiy mavzularni tanlash va ilmiy faoliyat bo‘yicha maslahatchisi vazifasini bajaradi.

K.A.Yusupov tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasida birinchi bor O‘zbekiston Respublikasi miqyosida 2013-yil 27–28-aprel kunlari “Hozirgi filologiya fanining dolzarb masalalari” va 2015-yil 27–28

noyabr kunlari “Qoraqalpoq adabiyotining yorug‘ yulduzlari” nomli ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalari tashkil etildi.

K.A.Yusupov Kazan, Berlin, Lissabon, Portugaliya, Rim, Italiya, Stokgolm, Shvetsiya, Tokio, Yaponiya, Ierusalim, Izrail, Madrid, Ispaniya, Parij, Fransiya singari katta xorijiy davlat va shaharlardagi xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy konferensiyalarga ilmiy maqolalari bilan onlayn tarzda ishtirok etganligini ta’kidlash mumkin. Natijada kafedraning xorijiy va mamlakatimizdagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishda talabgor faoliyatini alohida ta’kidlab o‘tish zarur.



O‘quv jarayonini uslubiyot jihatidan ta’minlashda K.A.Yusupov tomonidan 1 ta monografiya, 2 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 7 ta o‘quv va uslubiy qo‘llanmalari nashr etilgan. Talabgor tomonidan yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar qoraqalpoq tilida chop etilgan. U tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv adabiyotlari “yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqish talablariga” to‘la mos keladi.

Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlashda K.A.Yusupov tomonidan 2004–2021 yillarda 5120100–Filologiya va tillarni o‘qitish (qoraqalpoq tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 50 nafar bitiruvchilarning malakaviy ishlariga va 2008–2023 yillarda 5A120101 – Adabiyotshunoslik (qoraqalpoq adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha 13 nafar, 5A111801 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi bo‘yicha 4

nafar magistrantlarga ilmiy rahbarlik amalga oshirilgan.



K.A.Yusupov 37 yillik faoliyati davomida oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlashda va filologiya yo‘nalishi bo‘yicha o‘ziga xos maktab shakllantirdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning faolligi qoraqalpoq tili va adabiyotidan malakali kadrlarni tayyorlashga va qoraqalpoq filologiyasi maktabining rivojlanishiga asos yaratadi.

Hozirgi kunda talabgorning ilmiy rahbarligida 4 nafar mustaqil izlanuvchi va 1 nafar tayanch doktorant tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

K.A.Yusupov bir necha yillardan buyon Qoraqalpoq davlat universiteti va Nukus davlat pedagogik institutining qoraqalpoq filologiyasi va bitiruvchilarning malakaviy ishlariga va qoraqalpoq adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha davlat attestatsiyasi komissiyasi ishlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

K.A.Yusupov ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida ilmiy izlanishlar olib borgan va bu sohada faoliyat yuritmoqda. T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alifbosi va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyiha. Ushbu fundamental loyiha xulosalari sifatida 3 ta monografiya, 3 ta darslik, 15 ta o‘quv

qo‘llanma va 250 dan ortiq ilmiy maqolalar ko‘rinishida tadqiq qiluvchi fanlar uchun metodologik asos yaratilgan.



Olim, “Fan va jamiyat” Nukus davlat pedagogika instituti jurnali (Nukus, 2021), “Sotsialnie nauki i innovatsii v obrazovanii” (Amerika, 2021), “A Scientific International Peer Review‘ed Journal” (Polsha, 2022) va “For Joining as a Member of Editorial Board In The EAPS Journal. ISSN 2227-2747, journal Impact Factor: 7.718» (Amerika, 2022-2024 yillar) ilmiy-ommabop jurnallarining redaksiya kollegiyasi a‘zosi hisoblanadi.

K.A.Yusupov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi Filologiya fanlari bo‘yicha ekspert kengashining 2018-yil 25-dekabrda 11-son taklifi asosida Qoraqalpoq davlat universiteti rektorining 2019-yil 16-yanvar kungi 5D/2-son buyrug‘iga asos universitetda 2019-yildan boshlab 10.00.12 – “Qoraqalpoq adabiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilardan olinadigan malakaviy imtihon komissiyasi a‘zosi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

K.A.Yusupov bir qancha ilmiy kengashlar va seminarlar a‘zosi sifatida qatnashib kelmoqda.

Yusupov Konisbay Abilovichga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi Prezidiumining 1992-yil 23-aprel №17 va 1997-yil 29-sentyabrda (№119) qarori bilan ko‘p yillik samarali pedagogik mehnati va o‘quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishga qo‘shgan salmoqli hissasi,

fanidagi yutuqlari va ilmiy-tadqiqot ishlaridagi faolligi uchun “Faxriy yorliq”lari bilan taqdirlangan.

Olimga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri tomonidan 5-mart 1992-yil va 1997-yil 14- martdagi (№7) qarori bilan ko‘p yillik samarali pedagogik mehnati va o‘quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirishda erishgan muvaffaqiyatlari, ta’lim jarayonida yosh avlodni ona vatanga sodiqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida yuksak bilimdon qilib tayyorlash va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi fidoiy xizmatlari uchun uchun “O‘ZBEKISTON XALQ MAORIFI A‘LOCHISI” nishonlari bilan mukofotlangan.

2014-yili Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rahbariyati tomonidan ta’lim jarayonida yosh avlodni ona vatanga sodiqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida yuksak bilimdon qilib tayyorlash va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi fidoiy xizmatlari uchun “Faxriy yorliq” bilan taqdirlangan.

2017-yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘rta maxsus ta’limining rahbariyati tomonidan yosh avlodni yuqori bilimli qilib tayyorlash va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi fidoiy xizmatlari uchun “Faxriy yorliq” bilan taqdirlangan.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tomonidan ta’lim jarayonida yosh avlodni ona vatanga sodiqlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida yuksak bilimli qilib tayyorlash va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlardagi fidoiy xizmatlari uchun 2017-yili “Diplom” bilan mukofotlangan.

Yusupov Konisbay Abilovich 2018-yil iyul-avgust oylarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabullashda kirish test sinovlarini o‘tkazishda “Guruh nazoratchisi” vazifasini bajarish uchun “Malaka Sertifikati” (hisob seriyasi: N 01-00174. №1803 raqamli) berilgan.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Kamolot” yoshlar tashkiloti tomonidan “munozara” klubiga a’zo talabalariga yil davomida yuksak darajada seminar treninglar tashkil etgani uchun 2019 yili “Faxriy yorliq” bilan mukofotlangan.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tomonidan “Kutubxon klubi”ning adabiy kechalarini tashkil etgani uchun 2019 yili “Alg‘isnoma” bilan mukofotlangan.

Yusupov Konisbay Abilovich tomonidan 2011-yildan boshlab har yili “Hozirgi filologiya fanining dolzarb masalalari” nomli mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasida a’zo sifatida faol ishtirok etib keladi.



2014-yil fevral oyida Bosh ilmiy-metodik markazida “Tyutorlar tayyorlash” bo‘yicha seminar-treningda ishtirok etib, №000254 raqamli guvohnomaga ega bo‘ldi.

2016-yil yanvar-fevral oylarida Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PKQT va MO mintaqaviy markazida “Qoraqalpoq tili” qayta tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tugatib, MA №000518 raqamli Malaka Attestatiga ega bo‘ldi. 2017-yil sentyabr-dekabr oylarida Bosh ilmiy-metodik markazda “Ta’lim tizimi menejmenti mintaqaviy markazida “Ta’lim menejmenti” masofaviy malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli tugatib, MA №014595 raqamli Malaka Attestatiga ega bo‘ldi. 2018-yil iyul-avgust oylarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi

oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatiga o‘qishga qabullashda kirish test sinovlaridagi fidoiy xizmatlari uchun №1803 raqamli Malaka sertifikatiga ega bo‘ldi. 2020-yil va 2023-yili fevral oyida Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PKQT va MO mintaqaviy markazida “Ona tili va adabiyoti” (qoraqalpoq tili va adabiyoti) qayta tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tugatib, Malaka Attestatiga ega bo‘ldi.

Yusupov Konisbay Abilovich 2022-yil 26–27 avgust kunlarida Bosh ilmiy-metodik markaz tomonidan oliy ta’lim muassasalari, akademik litseylar rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishga jalb etilgan professor-o‘qituvchilar uchun tashkil etilgan trenerlik kursini muvaffaqiyatli tugatib, № T-1771 (2504) raqamli trenerlik guvohnomasiga ega bo‘ldi.

Yusupov Konisbay Abilovich muntazam xalqaro konferensiya va ilmiy seminarlarda ishtirok etib boradi.

Jumladan: 2018–2023 yillarda 2018-yilda Astana, 2020-yilda AQSh, 2020-yilda Kazan, 2021-yilda Berlin, 2021-yilda Portugaliya, 2021-yilda Shvetsiya, 2021-yilda Tokio, 2021-yilda Izrail, 2021-yilda Lissabon, 2021-yilda Madrid, 2021-yilda Ispaniya, 2021-yilda Kazan, 2021-yilda Parij, 2021-yilda Nukus, 2022-yilda Turkiya, 2022-yilda Nur-Sultan, 2022-yilda Rossiya, 2022-yilda Ispaniya, 2022-yilda Texas, AQSH, 2022-yilda Parij, Fransiya, 2022-yilda Nukus, 2023-yilda London, 2023-yilda Niderlandiya.

Yusupov Konisbay Abilovich universitet jamoasida katta obro‘ va e’tiborga ega bo‘lib, samarali ilmiy va pedagogik faoliyat olib boradi. U ayni paytda oliy o‘quv yurti talabalari uchun yangi o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar tayyorlamoqda va tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga rahbarlik va maslahatchilik qilmoqda.



YUSUPOVA DILNAVOZ RAHMONOVNA

Filologiya fanlari doktori, professor

Dilnavoz Yusupova 2022-yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni asosida “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan. Umumiy mehnat staji — 26 yil. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori.



D. Yusupova o‘z mehnat faoliyatini 1999-yili Shayxontohur akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi lavozimida boshladi. U 2005-2008-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasida

aspiranturasida o‘qidi. 2009-2013-yillarda O‘zbekiston Milliy universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti “O‘zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi, 2013-2016-yillarda shu universitet dotsenti, 2016-2021-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek adabiyoti tarixi kafedrasida dotsenti, 2023-yildan shu universitet professori sifatida o‘z mehnat faoliyatini davom ettirmoqda.



D. Yusupova 2008-yilda “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” mavzusida nomzodlik, 2019-yilda “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili” mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Respublika va xalqaro miqyosda Alisher Navoiy ijodi va mumtoz adabiyot tarixiga doir bag‘ishlangan uch yuzga yaqin ortiq maqolasi chop etilgan. “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi” (2011), “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili” (2019), “Xamsa poetikasi: vazn, qofiya va mazmun mushtarakligi” (2021) monografiyalari, “O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi” (Alisher Navoiy davri, 2013), “Aruz alifbosi” (Navoiy poetikasidan saboqlar, 2014), “Adabiyotdan universal qo‘llanma” (2014, 2016, 2018, 2020), “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish davri adabiyoti” (Alisher Navoiy davri, 2016), “Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari” (2019) o‘quv qo‘llanmalari, “Aruz va mumtoz poetikaga kirish” (2020, 2022) darsligi, “Risolai aruz” (Abdurahmon Jomiy asari, 2014) tarjimalari nashr qilingan. D.Yusupova Respublika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Navoiyshunoslik” (2018, 2020, 2021), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablari (7-11-sinflar) uchun yozilgan “Adabiyot” darsligi va darslik-xrestomatiyalarining hammualliflaridan biridir. Ikki jildlik “Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at” (2016) tarkibidan o‘rin olgan 500 dan ortiq maqola D.Yusupova tomonidan yozilgan.



Alisher Navoiy tavalludining 585 yilligi va O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan nashr etilgan 30 jildlik “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” (2021) majmuasining asosiy tuzuvchilaridan biri sifatida ishtirok etgan. Shuningdek, D.Yusupova ToshDO‘TAUda har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro konferensiyasining asosiy tashkilotchilaridan biridir.



D.Yusupovaning ilmiy maqolalari AQSh, Germaniya, Angliya, Rossiya, Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog‘iston kabi mamlakatlarda e‘lon qilingan. Uning muallifligida 2016-yildan 2018-yilga qadar “Jahon adabiyoti” jurnalining “Navoiy saboqlari” rukni ostida 50 dan ortiq g‘azal sharhlari e‘lon qilib borgan. Uning bu boradagi faoliyati 2017-yilda “Jahon adabiyoti” jurnalining “Eng yaxshi ilmiy-adabiy, ijtimoiy-falsafiy asar”, 2018-yilda “Ma‘rifat” gazetasiining “Eng yaxshi maqola” nominatsiyalari bo‘yicha g‘olib deb topilgan.



D.Yusupova 2017-2019 yillarda Alisher Navoiy “Xamsa”sining, 2020-2021 yillarda

“Mahbub ul-qulub” asarining ozarbayjon tiliga to‘liq tarjima qilinishida (tarjimon Ramiz Asker) muharrir va adabiy maslahatchi sifatida ishtirok etgan.



2019-2023-yillar oralig‘ida ERASMUS+ dasturi doirasida Gretsiya va Vengriya mamlakatlarida malaka oshirgan. Budapeshtdagi Eotos-Lorash universiteti Turkologiya institutida Alisher Navoiy va Bobur ijodi bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borgan. Qozog‘iston, Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya, Eron mamlakatlarida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda mumtoz adabiyotga doir ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan. “Роль трактата об арузе Бабура в развитии арузоведения в темуридский период (Rosisya), Ali Şir Nevaî'nin Nesayimü'l Muhabbet'inde Marifetullah'in Yorumu (Ozarbayjon), Global / küresel Şahsiyet olarak Ali Şir Nevâyî (Turkiya), Nesayimü'i muhabbet Ahmet Yesevî ve yesevîlik şeyhleri hakkında (Qozog‘iston) kabi ma‘ruzalar shular jumlasidandir. U “European Scholar Journal”, “Alisher Navoiy” xalqaro jurnallarining tahrir ha'yati a'zoshi hisoblanadi.



D.Yusupova 2021-yilda O‘zbekkino milliy agentligi bilan hamkorlikda tasvirga olingan “Alisher Navoiy” hujjatli filmining ilmiy muharriridir.

D.Yusupova 2008-2020-yillar oralig‘ida O‘zbekiston MTRKda “Navoiyni anglash”, “Navoiyga ehtirom”, “Davri-intervyu” kabi ko‘rsatuvlarda ishtirokchi, “Bir bayt sharhi” ko‘rsatuvida muallif-boshlovchi sifatida qatnashgan.



D.Yusupova O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a‘zosi sifatida Adabiy tanqid bo‘limining yil yakunlari bo‘yicha hisobotida ma‘ruzalari bilan ishtirok etgan (2020, 2021, 2023).



D.Yusupova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti va O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash a‘zosisidir.



YUSUPOVA DILOROM YUNUSOVNA

**O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi,
O‘zRFA akademigi, tarix fanlari doktori, professor**

Dilorom Yusupova — tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a‘zosi (akademik). U 1941-yil 21-iyul kuni Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan.

Dilorom Yusupova 1996-yil Kioto xalqaro tadqiqotlar universiteti (Kioto university of foreign studies, Yaponiya) faxriy professori, 2011-yil “Mehnat shuhrati” ordeni, 2021-yil I darajali “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishoni, 2023-yil “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni, 2024-yil “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 80 yilligi” ko‘krak nishoni hamda bir qator faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Dilorom Yusupova 1963-yil O‘rta Osiyo davlat universiteti (1960-yildan Toshkent davlat universiteti, hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning Sharq fakultetini bitirib, o‘z mehnat faoliyatini

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Sharq qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish” bo‘limida laborant lavozimida boshladi. 1965–1967-yillar mobaynida ushbu bo‘limda kichik ilmiy xodim lavozimida ishladi. 1967–1970-yillarda ushbu institutning aspiranti, 1971–1981-yillar institutning “Sharq qo‘lyozmalari tadqiqi va nashr etish” bo‘limi kichik ilmiy xodimi lavozimlarida ishladi. 1974-yil filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi.

1981–1996-yillarda ushbu institutning katta ilmiy xodimi (1986-yil bo‘limning nomi “Sharq qo‘lyozmalari manbashunosligi va kataloglashtirish” deb ataldi).

1990-yil SSSR Fanlar akademiyasi Sharq fakultetining Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) bo‘limi stajyori sifatida faoliyat yuritdi. 1991-yil SSSR Ministrlar Kengashi

qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan “Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari” ixtisosligi bo‘yicha katta ilmiy xodim ilmiy unvoni berildi. 1995–2009-yillarda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti (hozirgi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti)ning “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi” kafedrasida dotsenti, professori lavozimlarida hamda 2020–2021-yillarda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida maxsus kurslardan dars berib, o‘rindoshlik asosida ishlagan.



2001-yil tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqladi. 2001-yildan shu kunga qadar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi lavozimida ishlab kelmoqda. Shu vaqt mobaynida, ya’ni 2003–2007-yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Markaziy Osiyo va Sharq” granti hamda 2009–2013-yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan qo‘lyozma asarlarning elektron katalogini tuzish bo‘yicha “Gerdi Xankel” (Germaniya) fondining granti ishtirokchisi.

Bu grantda u tomonidan 1100 ta Sharq qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi berilgan. Bir vaqtning o‘zida (2009–2014) “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi dublet fondidagi qo‘lyozmalar katalogini tuzish” granti ishtirokchisi. Bu grantda u tomonidan 500 ta Sharq qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi berilgan. 2014–2017-yillarda “Litografik nashrlar katalogini tuzish” bo‘yicha grant rahbari va Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo‘lyozmalar markazining “Filologik mazmundagi qo‘lyozmalar katalogini tuzish” granti ishtirokchisi.

2017–2020-yillarda “Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalar nashri (O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi yozma manbalari asosida)” granti ishtirokchisi. Hozirgi vaqtda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining “Tarixiy manbashunoslik” bo‘limi bosh ilmiy xodimi.

Dilorom Yusupova 1958-yil O‘rta Osiyo davlat universitetiga kirib, uni 1963-yil tamomlagan. Talabalik yillarida mashhur arabshunos B.Z. Xolidov, afg‘onshunos A.G. Ganiyev, eronshunoslar og‘oyi Hamidiy va Sh. Shomammedovlardan bilim olish baxtiga muvassar bo‘ldi.

Uning ilmiy faoliyati 1963-yil O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidan boshlangan. O‘shandan beri, mana 61 yil bo‘libdiki u diqqat bilan Sharq mualliflarining qo‘lyozma asarlarini o‘rganadi. U ikki yo‘nalish bo‘yicha shakllandi: 1) Sharq xalqlarining yozma yodgorliklarini manbashunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish; 2) Sharq qo‘lyozmalari va litografik nashrlarining ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish.

Dastlab yosh olim Abu Bakr Muhammad ibn Ja‘far Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarini A. Rasulev tomonidan arab tilidan tarjima, izoh va ko‘rsatkichlar tuzish, korrektura va nashrga tayyorlash ishiga jalb etilgan.



D. Yusupovaning ishtirokidagi ushbu asarning nashriga ilmiy jamoa tomonidan yaxshi kutib olindi. Asar yana ikki marta qayta nash etilgan. Uning bu asarga bo‘lgan ilmiy qiziqishi yo‘qolmadi va 2011-yil Sh. Kamoliddinov asarning ruscha nashrini amalga oshirganida D. Yusupova ushbu nashrga keng kirish qismini keltirgan.

Shu ish bilan bir vaqtning o‘zida A. O‘rinboyev (unga D. Yusupova yordamchi etib tayinlangan edi) “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti to‘plamidagi Abdurahmon Jomiy asarlarining qo‘lyozmalari” katalogini nashrga tayyorlayotgan edi. 1965-yilda ushbu katalogning nashr etilishiga D. Yusupova ustoziga katta yordam ko‘rsatdi.



A. O‘rinboyev o‘zining shogirdi D. Yusupova mustaqil ish olib borishida amin bo‘lganida, unga Sayyid Ahmad Xoja naqibning “Sayohatnomayi Sayyid Ahmad Xoja” asarini fors tilidan rus tiliga tarjimasini amalga oshirishni buyurgan (Inv. № 4252, jami 79 varaq). Tarjima to‘la bajarilib, natijada, ushbu tarjima asosida konferensiyalarda qator ma‘ruzalar va mazmunli maqola (“Сведения Бухарского накиба Саййид Ахмада Ходжа о Хивинском ханстве XIX в.”) hamda ilmiy tavsif (“SVR. Istoriya”) amalga oshirildi.

Keyinroq, A. O‘rinboyev unga boshqa manba – Imom Abulfazl Muhammad ibn Abdujalil as-Samarqandiyning (XII asr) qalamiga mansub Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 22 ta nusxasining ilmiy tavsifini amalga oshirishni buyurdi. Keyinchalik, bu tavsiflar “СВР. IX” va “СВР. История” kataloglariga kirgan. Shu bilan D. Yusupova

qo‘lyozmalarni tavsiflash bo‘yicha tajriba orttirgan.



Shu yillar uning ilmiy rahbari A. O‘rinboyev Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” (ikkinchi jild I qism, Toshkent – 1969) asarini nashrga tayyorlayotgan edi. D. Yusupova ushbu asarni nashrga tayyorlashda katta hissa qo‘shdi va tarjima matniga ko‘rsatkich tuzdi.

Keyinchalik, uning konkret ilmiy yo‘nalishi Amir Temur va Temuriylar davriga oid manbalarni muomalaga kiritishdan iborat bo‘ldi. Jumladan, Hirot tarixchisi Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asarining oxirgi qismini (1301–1442) rus tiliga (Toshkent – 1980) va o‘zbek tiliga (Toshkent – 2018) tarjima qildi. Ushbu asarning nashr etilishi nafaqat O‘zbekiston, balki Rossiya va Yevropadagi Temuriylar tarixi bilan shug‘ullanuvchi olimlar uchun katta rezonans bo‘ldi. Albatta, bu narsa Dilorom Yusupovani yanada rag‘batlantirdi.



O‘tgan asrning 70-yillarida O‘zbekiston olimlari orasida Ulug‘bek rasadxonasidagi shu kungacha saqlanib qolgan asosiy uskunaning bir qismi haqida katta munozaralar ketayotgan edi. Ularga nuqta qo‘yish uchun Mirzo

Ulug‘bekning ustoz G‘iyosiddin Koshiyning Samarqanddan Koshonga o‘z otasiga yo‘llagan xatini forschadan ruschaga (Toshkent – 1979), o‘zbekchaga (Toshkent –1996) va lotin alifbosida (Toshkent – 2009) tarjima qilinib nashr etildi. 1987 yil D. Yusupova Mirxondning nabirasi Xondamirning serqirrali ijodini o‘rganishga kirishdi. Uning 13 forsiyzabon asaridan dunyoning turli qo‘lyozma fondlarida saqlanib qolgan asarlarini o‘rganishga kirishdi. Ana shu asarlarning har biri asosida Xondamirning hayoti, uning ijodi, XV–XVI asr boshlaridagi Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistondagi fan, adabiyot, ta’lim, san’at sohalarini, qurilish va ta’mirlesh ishlari holatini aniqlash imkoni paydo bo‘ldi.



Natijada, 2001-yil ushbu tadqiqot asosida D. Yusupova “Xondamirning ijodiy merosi – XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindiston madaniyati tarixiga oid manba” nomli doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. D. Yusupovaning ilmiy faoliyatida ikkinchi yo‘nalish – Sharq qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash va kataloglashtirish. Bu borada “Собрание восточных рукописей Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан” IX jildida 25 ilmiy tavsif va XI jildida 27 ta ilmiy tavsif va katalogga ko‘rsatkich u tomonidan bajarilgan.

1998-yil D. Yusupova hamda marhum R. Jalilova tarixiy mazmundagi Sharq qo‘lyozmalari ilmiy tavsiflari asosida katalog nashr etishgan (1018 ta qo‘lyozma tavsifi).

D. Yusupova tomonidan bir qator kataloglar tahrir qilingan: 1534 ta tavsif

“O‘zFASHIdagi litografik nashrlar katalogi” (I jild); 452 ta tavsif “Termizlik allomalar asarlarining qo‘lyozmalar katalogi”; O‘zbekiston Milliy universiteti kutubxonasida saqlanayotgan 187 ta Sharq qo‘lyozmalar katalogi; 1091 ta tavsif O‘zFASHIdagi adabiyotga oid qo‘lyozmalar katalogi (I jild); shuningdek, ushbu institutdagi 1000 ta litografik nashrlar katalogi va boshqalar.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu kataloglar nashrga tayyorlash jarayonida D. Yusupova qo‘lyozmalar va litografik nashrlarga tavsif berish borasidagi o‘z tajribasini ushbu ishga endigina kirishgan yoshlarga mohirona o‘rgatdi. Natijada, ularning ba’zilar bemalol bu ishni bajara ololadi.



2018-yil D. Yusupova Amir Temur va Temuriylar davrini (1301–1442) o‘z ichiga qamrab olgan Hirot tarixchisi Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihy” asarini o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimasini nashr etdi (296 bet).



2020-yil D. Yusupova U. Hamroyev bilan hammualliflikda Muhammad Amin Buxoriyning “Muhit ut-tavorix” asarini o‘zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimasini nashr ettirdi (284 bet).


Bundan tashqari, D. Yusupova bir qator maqolalar bilan O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda (Fransiya, Turkiya, Eron, Rossiya, Gruziya, Qirg‘iziston va b.) nashr etilgan nufuzli to‘plamlarda ishtirok etgan.



Eslatib o‘tish kerakki, D. Yusupova o‘z ustozlariga, ularning nufuzli asarlarini nashr etishga o‘z hissasini qo‘shgani “Abdurahmon Jomiy qo‘lyozmalari katalogi (A. O‘rinboyev, L. Yepifanova. 1965); Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa‘dayn va majmai bahrayn” (A. O‘rinboyev. 1969); Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (A. O‘rinboyev. 1972); “Писма-автографи Абдаррахмана Джами из “Альбома Навои” (A. O‘rinboyev. 1982); “Собрание восточных рукописей IV АНРУЗ” (IX, XI jildlar (1971, 1987); “Историко-географическая литература Средней Азии XVI–XVIII вв. (Писменные памятники)” (B. Ahmedov. 1985); “O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari” (B. Ahmedov. 1991) kabi asarlarning kirish qismlaridagi eslatmalar yoki tuhfa qilingan nusxalardagi yozuvlar guvohlik qiladi. Albatta, bu kabi ishlar, shuningdek, reja bo‘yicha tadqiqotlari, dissertatsiya ishi D. Yusupovadan ko‘p vaqtni talab qilardi. U bu ishlarni epcillik bilan bajardi. Shu bilan birga, manbalar nashr etilishi, tadqiqotlar yozilishi va qo‘lyozmalar katalogini yaratish borasida katta tajriba orttirib oldi.

D. Yusupova har uch yilda bir marta Moskvada o‘tkaziladigan “Бартоldовские чтения”; 1994 yil Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik yubileyi (Toshkent, Samarqand), 1996 yil Amir Temurning 660 yillik yubileyiga (Toshkent, Samarqand, Parij) bag‘ishlangan

xalqaro forumlarda; 1995–1996 yillar “Fors tili bilimdonlari” nomli xalqaro konferensiyada (Tehron), 1996 yil Astronomlar majlisida (Nitssa); har to‘rt yilda Anqarada o‘tkazilgan “Turk tarix kurumi” nomli forumlarda va boshqa ko‘plab xalqaro anjumanlarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan.



Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda D. Yusupova tahririy ishlarni ham faol olib borgan. U tomonidan bir qator nufuzli manbalar nashri, tadqiqotlar va kataloglar alohida ehtiyotkorlik bilan tahrir etilgan (jami 40 ta). D. Yusupovaning faoliyatida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash katta o‘rin egallaydi: 5 ta tarix fanlari doktori (Bishkek, Toshkent, Buxoro, Farg‘ona) va 8 ta tarix fanlari nomzodi hamda falsafa doktori (PhD) (Toshkent, Samarqand, Farg‘ona) tayyorlangan. Ayni vaqtda 1 ta fan doktori va 5 ta PhD tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda D. Yusupova tayyorlagan ba’zi shogirdlar Sharq mamlakatlarida diplomatik xodim bo‘lib, ayrimlari O‘zbekiston oliygohlarida faoliyat yuritmoqda, ilmiy tadqiqotlarini davom ettirmoqdalar. D. Yusupova 40 ta doktorlik, nomzodlik va PhD dissertatsiyalar himoyasida rasmiy opponent sifatida qatnashgan.

Ko‘p yillar davomida D. Yusupova oliygohlar (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Oriental universiteti, Ijtimoiy va siyosiy fanlar

instituti)da katta pedagogik faoliyat olib borib, davlat imtihonlarida raislik qilib kelmoqda hamda magistrlik ishlarida rahbarlik qilib, o'zining hayotiy va ijodiy tajribasini talabalarga o'rgatib kelmoqda.



U faoliyati davomida jami 240 dan ortiq ilmiy asarlar yaratdi. Xalqaro simpoziumlarda D. Yusupova tomonidan o'qilgan va nashr etilgan ma'ruzalari Fransiya (1995, 1996, 1997), Buyuk Britaniya (1996), Eron (1996, 1998), Yaponiya (1996), Turkiya (2009, 2010, 2015, 2022), Rossiya (1984, 1987, 1990), Gruziya (1985, 1988), Ozarbayjon (2013), Qozog'iston (1991, 1997) va boshqa ilmiy doiralarda katta rezonansga erishdi.

D. Yusupova ilmiy-tashkiliy ishlarni ham olib bordi. 2010–2014 yillarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi sifatida faoliyat olib borgan.

Ko'p yillardan buyon O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti hamda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti qoshidagi tarix fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarning va ularning seminarlari a'zosi. Shuningdek, 2002-yildan shu kunga qadar fan doktorligi va falsafa doktorligi dissertatsiyalarni tasdiqlaydigan koordinatsion kengash a'zosi. U 2002 yildan "Meros" (2015 yilgacha "Sharqshunoslik"), 2005 yildan "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", 2009 yildan "Journale of Persianate studies" (Leiden – Boston: Brill, Niderlandiya), 2021

yildan "Tafakkuri tarix", Anvori ilm", "Payomi donishkade" (Panjikent, Tojikiston) jurnallarining tahririyat a'zosi.



D. Yusupova 1996-yildan shu kunga qadar Amir Teur xalqaro jamoat fondi boshqaruv kengashi a'zosi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo'lyozmalarini qabul qilish komissiyasi a'zosi.

D. Yusupovani fan sohasida ko'p yillik mashaqqatli mehnati, ilmiy kadrlar tayyorlash borasida uning katta yutuqlari, keng jamoatchilik faoliyati tufayli 2011 yil "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. 2021 yil I darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni hamda 2023 yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. 2017 yilda esa O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangach, O'zbekiston tarixida ilk bor tarixchi ayollar orasida akademik unvoniga sazovor bo'ldi. Shu bilan birgalikda, u turli jamiyatlar, fondlar, ilmiy tashkilotlar tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlangan.

O'zining samimiyligi, kamtarligi, kasbiga bo'lgan muhabbat, mehnatsevarligi, izlanuvchanligi, o'z sohasiga professional sadoqati va mehri bilan keng jamoatchilik, oilasi va mahallasi orasida katta hurmat qozongan. Dilorom Yusupova nafaqat Respublikamizda malakali mutaxassis, balki xorijiy mamlakatlarda ham yaxshi tanilgan yetuk olimadir. U o'zining ilmiy ishini va jamoatashkiliy ishlarini, Respublikamizga yuqori malakali kadrlar – fan doktorlarini tayyorlash borasida tinimsiz mehnat qilmoqda.



YUSUPOVA MAVLYUDA AMINJANOVNA

Arxitektura fanlari doktori, professor

Sharq Davlatlari Xalqaro Arxitektura Akademiyasining muxbir-a'zosi

1957-yil 7-mayda Toshkent viloyati Chinoz shahrida tavallud topgan. 1974-1979-yillarda Toshkent Politexnika institutining Arxitektura fakultetida va 1986-1990 yillarda San'atshunoslik instituti aspiranturasida tahsil olgan.



1994-yilda Toshkent Arxitektura-Qurilish institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 2000-yilda Moskva Arxitektura Institutida DSc doktorlik dissertatsiyasini yoqlab, O'zbekiston ayollaridan birinchi bo'lib Rossiyaning "Doktor архитектуры" va

Respublikamizda DSc me'morchilik fanlari doktori ilmiy darajalarini olgan.



Mehnat faoliyatini 1979-1986-yillarda Me'moriy obidalarni ta'mirlash instituti (UzNIPI Restavratsii)da arxitektor-restavrator lavozimida boshlagan, keyinchalik 1986-2003-yillarda San'atshunoslik institutida kichik, ilmiy va katta ilmiy xodim lavozimlarida, 1997-2000-yillarda ilmiy ishlar bo'yicha direktor muovini, yetakchi ilmiy xodim lavozimlarida ishlagan. 2005-2008-yillarda u San'atshunoslik

instituti direktori lavozimida, 2008-yildan 2024-yilgacha mazkur institutning “Me’morchilik” bo‘limi mudiri lavozimida faoliyat yuritgan.



Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-oktyabrdagi PS-5270-sonli “Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga binoan tashkil etilgan “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros qoshidagi “Ipak yo‘li” xalqaro tadqiqot instituti direktori lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Shuningdek u ko‘p yillar davomida K. Bexzod nomidagi MRDI institutida (1998-y. – 2024-y.) va Toshkent Arxitektura-qurilish institutida (2008 y.–2024-y.) professor lavozimida o‘rindosh sifatida pedagoglik faoliyatini ham ko‘rsatib kelgan. 2024-2025-yilgi yangi o‘quv yilidan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida o‘rindosh professor lavozimida o‘z pedagoglik faoliyatini boshladi.




Ustozlari an‘analarini davom ettirgan xolda M.A.Yusupova chorak asrdan ziyod ustozlik va o‘qituvchilik faoliyati davomida o‘zining rahbarligida o‘nlab bakalavr va magistrnlarni tayyorlab, diplom va dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishlarida ko‘makdosh bo‘ldi. Hozir uning rahbarligida ikkita nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan va yana bir qancha PhD va DSc doktorantlari o‘z ilmiy ishlarini himoya qilish arafasida. Uning shogirdlarining ilmiy izlanishlari ham me’morlik tarixi va nazariyasi hamda me’moriy merosni saqlash va restavratsiya qilishning dolzarb masalalari hamda san‘atshunoslik va muzey ishi sohasidagi qator masalalarni hal etishga bag‘ishlangan. Birgina 2022-yilda uning har bir ta‘lim bosqichi bo‘yicha tayyorlagan 3 nafar bitiruvchi shogirdlari – bakalavriat (G‘. Nizomov), magistratura (M. Ishanova) va PhD doktorantura (A. Raupova) o‘z yo‘nalishi bo‘yicha Prezident stipendiyasi laureatlari bo‘lishdi.

M.A. Yusupova bugungi kunda o‘zining ilmiy maktabini faol shakllantirmoqda, uning vakillari kelajakda yurtimiz va jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk kadrlar bo‘lib yetishadilar.



Prof. M.A. Yusupova O‘zbekiston me’moriy merosini keng targ‘ib etib, ko‘plab xorijiy ilmiy forumlarda ma‘ruzalar qilmoqda va chet el oliy o‘quv yurtlari (Germaniya, Qozog‘iston, Gollandiya va AQSH) talabalariga taklif etilgan professor – “visiting professor” sifatida ma‘ruzalar o‘qigan.

M.A. Yusupova O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tizimida ham o'zining fidokorona mehnati, ilmiy izlanishlari, samarali natijalari bilan o'z fan sohasini yuksaltirgan xotin-qizlar safida mehnat qildi va ular orasida arxitektor-olima ayol sifatida o'z yuksak maqomiga ega bo'ldi.



M.A. Yusupova ilmiy adabiyotlarda O'zbekiston me'morchiligining tarixi, xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib bordi va yangi ma'lumotlar taqdim etdi. Jumladan, uning ilmiy-ijodiy faoliyatida O'rta Osiyo islom me'morchiligida tirik mavjudotlar tasvirlari, Movarounnahr so'fiylik xonaqohlari va diniy-memorial majmualar me'morchiligi, O'zbekistonning yahudiy mahallalari arxitekturasi, xristian me'morligi va Turkiston davri Yevropa tipidagi me'morchiligi, O'zbekistonning hududiy me'morchilik maktablarining tarixi va xususiyatlari, arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash usullari va boshqa kam o'rganilgan masalalar keng ochib berilgan.

M.A. Yusupova 1981-1986-yillarda katta me'mor-restavrator sifatida ko'plab yodgorliklarni o'rganish, o'lchash va ta'mirlash ishlarida qatnashgan, jumladan: Buxorodagi Abdullaxon madrasasi, Ko'kaldosh madrasasi (XVI asr) eskiz va chizmalarini tayyorlagan. Shuningdek bir qancha tarixiy binolarni qayta tiklash loyihasi ishtirokchisi va muallifi: Kuchkok qishlog'idagi Tosh-masjid (XI asr) (1981); Qashqadaryo viloyatidagi Sulton Mir Haydar majmuasidagi XI asr maqbarasi (1982-

1983); Buxoro shahridagi Kemuxtgaron masjidi (XVII asr) (1983-1984); Buxoro viloyati Jondor tumanidagi XVI-XVIII asrlarga oid Qiz-bibi ayol so'fiy majmuasidagi chillaxona (1984-1985) sifatida ishlagan.

M.A. Yusupova tomonidan Farg'ona vodiysining 5 ta shahrida XIX asr oxiri — XX asr boshlariga tegishli Yevropa tipidagi 25 ga yaqin kolonial davr me'morchiligi yodgorliklari aniqlanib, to'liq o'rganilgan va uning tavsiyasi asosida ushbu binolar davlat muhofazasiga olingan (1986-1992).

Isroildagi Quddus universiteti qoshidagi "Yahudiy madaniyatini o'rganish markazi" mutaxassislari bilan birgalikda M.A. Yusupova Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, Andijon, Shahrisabz va O'zbekistonning boshqa shaharlaridagi yahudiy mahallalarining me'moriy yodgorliklari (turar-joy binolari, mikva va sinagogalar) tadqiq qilindi va o'lchov ishlari olib borildi (eskiz va chizmalarni bajarish bilan) (1999-2007).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, M.A. Yusupova faol ravishda chet el loyihalari bilan ko'p yillar davomida hamkorlik qilib kelmoqda. Misol tariqasida, guruh rahbari va ijrochi sifatida ЮНЕСКОнинг O'zbekiston me'moriy merosini saqlash bo'yicha qator loyihalariga rahbarlik qilib kelgan. Bulardan: 1. ARKADIA (Angliya) granti asosida London Universiteti va Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti (IICAS) bilan birgalikda "O'zbekiston arxitektura yodgorliklari arxivi" materiallarini ilmiy jihatdan qayta ishlash, restavratsiya qilish va raqamlashtirish (2019- 2023); 2. Zarafshon-Qoraqum yo'lagi bo'ylab "Buyuk Ipak yo'li"ning ЮНЕСКО nominatsiyasiga me'moriy yodgorliklarni taqdim etish bo'yicha ishchi guruh a'zosi (2020-2023); 3. "Farg'ona-Sirdaryo" yo'lagi bo'ylab "Buyuk Ipak yo'li"ning ЮНЕСКО nominatsiyasiga me'moriy yodgorliklarni taqdim etish bo'yicha nominatsiya faylini tayyorlash bo'yicha xalqaro ishchi guruhi a'zosi (2020-yildan hozirgacha); 4. AQSHning Michigan Davlat

Universiteti bilan hamkorlikda O'rta Shaq mamlakatlari Islom me'morchiligiga oid Davlatlarga'ro Xalqaro loyihada O'zbekiston bo'yicha ijrochi va guruh moderatori kabi faoliyatini keltirish mumkin.

Bundan tashqari, M.A. Yusupova 2016-2023 yillarda olima va arxitektura merosini tiklash bo'yicha Respublika ilmiy ekspert kengashi a'zosi va soha mutaxassisi sifatida xuddi uning ustozlari L.Yu. Mankovskaya, G.A. Pugachenkovalar kabi arxitektura yodgorliklarini malakali asrab-avaylash va professional restavratsiya qilish tarafdori va doimo mas'ul bo'limlar, mutaxassislar va restavrator ustalarni O'zbekiston xalqlarining me'moriy merosiga yanada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga undab, hozirgi kungacha ularning asiligini va tarixiy muhitini saqlab qolish uchun kurashib kelmoqda. U yodgorliklarni restavratsiya qilish va konservatsiyalash ishlariga ustozoda ustalarni, sertifikatlangan va tajribali restavratorlarni, me'moriy merosni asrab-avaylash sohasidagi chinakam mutaxassislarni jalb etish zarurligini ta'kidlaydi.



M.A. Yusupova 250 dan ortiq nashr etilgan ilmiy ishlar muallifi bo'lib, ularning o'ttizdan ortig'i xorijiy mamlakatlarda (AQSH, Xitoy, Fransiya, Turkiya, Koreya, Malayziya, Butan Qirolligi, Italiya, Germaniya va boshqalar) turli tillarda nashr etilgan. Ulardan – “Polveka transformatsii arxitektury Uzbekistana XIX – nachala XX vv.” (2005), “Buxarskaya shkola zodchestva (osobennosti i dinamika razvitiya) (2014), Bukharan school of architecture of XV-XVII cc. (2022) kabi

monografiyalarni xamda “Buxaro – Sharq durdonasi” (1977) “Imom al-Buxoriy. Moziydan taralgan ziyo” (1998), “Sufiyskiye traditsii v iskusstve Maverannaxra XV-XVII vv.” (2010) kabi hammualliflikda yozilgan monografiyalari va qator nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan maqolalari ilm ahli e'tirofiga sazovor bo'lgan.


2022-yilda uning Buxoro me'morchilik maktabiga bag'ishlangan monografiyasi qo'shimchalar bilan qayta tayyorlandi va bu monografiya rus va ingliz tillarida nashr etildi. Monografiyaning ingliz tilidagi nusxasi ingliz tilida so'zlashuvchi auditoriyada katta qiziqish uyg'otdi. Uning ustози, akademik E.V. Rtveladze “M. A.Yusupova O'zbekiston arxitekturasi tarixiga oid fundamental ilmiy monografiya yaratdi” degan fikrni bildirgan edilar.



Me'morchilik tarixi va nazariyasini o'rganish, mamlakatimizning noyob va boy me'moriy merosini asrab-avaylash, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashda M.A.Yusupovaning o'rni va xizmatlari beqiyos.

M.A.Yusupova liderlik qobiliyatiga ega tashkilotchi va uzoqni ko'ra biluvchi rahbardir. U katta hayot tajribasiga ega bo'lish bilan birga, yuksak ma'naviyat sohibi bo'lib kamtarligi va insoniy fazilatlarini bilan atrofdegilarga namuna bo'la oladigan talabchan rahbar.

2020-yildan boshlab ilmiy ishlarini Mavlyuda Abbasova-Yusupova ilmiy taxallusi bilan nashr etib kelmoqda.



ZAYNUTDINOV SHAVKAT NURITDINOVICH

**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor**

Zaynutdinov Shavkat Nuritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi” faxriy unvoni, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishoni sohibi, Xalqaro mehnat va bandlik akademiyasining haqiqiy a’zosi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Toshkent arxitektura-qurilish institutlarining faxriy professori.

Sh.Zaynutdinov 1939 yil 9 iyunda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug‘ilgan. Otasi Husainov Nuriddin o‘rta maktabda matematika fanidan dars bergan, onasi Hakimova Rahima uy bekasi bo‘lgan. Ular 5 farzand – uch o‘g‘il va 2 qizli oila bo‘lgan. U Toshkent shahridagi 90-son umumiy o‘rta maktabni bitirgach, 1957 yilda Toshkent

moliya-iqtisod instituti (bugungi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti)ga o‘qishga kiradi. U oilada katta farzand bo‘lgani sababli uka va singillariga namuna bo‘lish uchun yaxshi bilim olishga va kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan edi. Oliygozni bitirib, 1961 yilda Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi (TAPDICH)ga yosh mutaxassis sifatida ishga yuborilgan. U mazkur korxonada 1961-1964 yillar mobaynida iqtisodchi-muhandis bo‘lib ishladi.

1965 yildan boshlab, Toshkent xalq xo‘jaligi institutida (TXXI) aspiranturada o‘qishini davom ettirdi. 1968 yilda TXXI ning “Sanoat iqtisodi” kafedrasini mudiri dotsent G.F. Gabzalilov ilmiy rahbarligida «Voprosi ratsionalnogo ispolzovaniya rabochego

vremeni na promishlennix predpriyatiyax» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1968-2016 yillarda hozirgi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida kafedra katta o'qituvchisi, dotsenti, professori, kafedra mudiri, dekan muovini va dekan lavozimlarida ishlagan. Jumladan, 1968-1970 yillarda TXXI ning "Plan-iqtisod" fakulteti dekani muovini, 1970-1978 yillarda yangi tashkil etilgan "Savdo-iqtisod" fakulteti dekani lavozimlarida, 1979-1986 yillarda "Mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqarish" kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrlarda sobiq Ittifoqda mehnatni ilmiy tashkil etish masalalariga keng e'tibor qaratilgani bois "Mehnat ekonomikasi" fani bo'yicha Butunittifoq ilmiy-koordinatsion kengash tuzilgan bo'lib, Sh.Zaynutdinov shu kengash a'zosi bo'lgan. 1981-1984 yillarda O'zbekistonda Sh.Zaynutdinov tashabbusi bilan TXXI da ilmiy-koordinatsion kengash majlislari va turli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilgan.



1988 yilda Sh.Zaynutdinov «Menejment» va «Mehnat iqtisodiyoti» mutaxassisliklari bo'yicha «Problemi sovershenstvovaniya organizatsii truda v usloviyax nauchno-texnicheskogo progressa» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi, keyinchalik 1990 yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi. Uning katta iqtisodchi olim darajasiga erishishida 1953-1974 yillarda TXXI rektori bo'lgan Muhammadjon Qoriyevning qimmatli maslahatlari va xizmatlari katta bo'ldi. 1989 yilda u TXXI ning

«Iqtisodiyotni boshqarish» kafedrasiga mudirlik lavozimiga tayinlandi, keyinchalik bu kafedra «Menejment» kafedrasini nomi bilan qayta tashkil etildi. Shu bilan Sh.Zaynutdinov 25 yil mobaynida kafedra mudiri lavozimida sidqidildan va halol ishlab keldi. 2007-2014 yillarda u G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filialida professor lavozimida, shuningdek, 2008 yildan boshlab u Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida yangi tashkil etilgan «Korporativ boshqaruv» kafedrasini professori lavozimida o'z mehnat faoliyatini davom ettirdi.



Professor Sh.Zaynutdinov katta ilmiy salohiyatga ega iqtisodchi olim. U «Menejment», «Mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish» yo'nalishlari bo'yicha ilmiy maktablar yaratgan yetakchi iqtisodchi olim hisoblanadi. Ushbu yirik ilmiy maktablarda professor Sh. Zaynutdinov 40 taga yaqin, jumladan, 10 taga yaqin fan doktori, 30 taga yaqin fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalariga ilmiy rahbarlik qilib, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Professor Sh.Zaynutdinov hozirgi kungacha 500 dan ortiq, umumiy hajmi 800 b.t. dan iborat ilmiy, ilmiy-uslubiy va o'quv ishlarini e'lon qilgan. Shulardan 9 tasi monografiya va ilmiy risolalar, 27 tasi darslik va o'quv qo'llanmalar bo'lib, ular asosan bozor iqtisodiyoti, iqtisodiyot va uning tarmoqlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, korporativ boshqaruv,

innovatsion boshqaruv, tavakkalchilikni boshqarish, personalni boshqarish masalalari hamda boshqaruv sohasida iqtisodiy islohotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitish va O‘zbekistonda menejment fanining dolzarb ilmiy muammolariga bag‘ishlangan. Olimning 400 dan ziyod ilmiy ishlari nufuzli xalqaro va respublika nashriyotlarida chop etilgan. Olimning shogirdlari Z.A.Ashurov, N.M.Rasulov va B.N.Urinov hammuallifligida 2024 yilda tayyorlangan “Muvozanat qonuni – iqtisodiy o‘shish va aholi farovonligini oshirishning muhim vositasi” nomli ilmiy maqolasi milliy iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish va iste‘mol o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashga doir iqtisodiyot fanining fundamental muammolaridan biriga bag‘ishlangan bo‘lib, u rus, o‘zbek va ingliz tillarida turli nashrlarda chop etilgan.



Darslik va o‘quv qo‘llanmalari orasida “Osnovi menedjmenta” (1996 y.), “Menejment va biznes asoslari” (1997 y.), “Menejment asoslari” (2001 y.), “Tashkilot nazariyasi” (2002 y.), “Ishlab chiqarish menejmenti” (2003 y.), “Amaliy menejment” (2003 y.), “Investitsiyalarni boshqarish” (2005 y.), “Innovatsion menejment” (2005 y.), “Menejment” (2005 y.), “Korporativ boshqaruv asoslari” (2006 y.), “Personalni boshqarish” (2007 y.), “Risk menedjmenta” (2007 y.), “Farmatsevtika menejmenti” (2009 y.), “Korporativ boshqaruv” (2010 y.), “Ekonomika truda” (2010 y., 2011 y.), “Menejment nazariyasi” (2014 y.) kabilarni alohida sanab o‘tish mumkin.

U respublikada birinchi marta chop etilgan “Mehnat ekonomikasi” nomli o‘zbek tilidagi o‘quv qo‘llanmasi muallifi hisoblanadi, shuningdek uning “Menejment asoslari” o‘quv qo‘llanmasi 2003 yilda respublika tanlovida 3-o‘ringa sazovor bo‘lgan. Olim hozirda ham darsliklar, ilmiy maqolalar va monografiyalar yozishda tinimsiz mehnat qilib kelmoqda. 2018 yilda «Teoriya pyat «I» ili novaya sistema faktorov protsvetaniya gosudarstva» deb nomlangan ilmiy risolasi xorijiy nashriyotda chop etilib, Yevropa Ittifoqi va va jahon davlatlariga elektron tijoratlashga 100 ming nusxada tarqatildi. Uning hammuallifligida 2020 yilda “Innovatsion menejment” nomli darslik chop etildi.



Professor Sh.Zaynutdinov serqirra olim hisoblanadi. U boshqa institut va universitetlar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent farmatsevtika instituti, Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali, Toshkent arxitektura va qurilish instituti va boshqa oliygohlar olimlari bilan birgalikda qator ilmiy-uslubiy, o‘quv adabiyotlar yaratgan.

Professor Sh.Zaynutdinov iqtisodchi olimlarning 10 dan ortiq monografiyalariga ilmiy va mas‘ul muharrirlik qilgan. U 1999-2001 yillarda “Menejment” mutaxassisligi bo‘yicha Davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqishda shaxsan qatnashgan va rahbarlik qilgan. Shuningdek, u O‘zbekiston iqtisodchilarining I-IV forumlarida o‘z ilmiy maqolalari bilan qatnashgan, Toshkent davlat

iqtisodiyot universitetida 2010-2020 yillar mobaynida birqancha Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi fundamental va amaliy loyihalarda yetakchi ilmiy xodim sifatida ishtirok etgan. Har bir ilmiy loyiha tadqiqotlari natijasida monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalar chop ettirgan.

Shu bilan birga, professor Sh.Zaynutdinovning yangi iqtisodiyotga o'tish va globalizatsiyaga doir ilmiy ishlari Germaniya, Janubiy Koreya, Indoneziya, AQSH, Ispaniya va Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. So'nggi yillarda professor Sh.Zaynutdinov iqtisodiyot va menejmentga oid ilmiy ishlarida yangi iqtisodiyotga o'tish, innovatsion menejment fanini shakllantirish va rivojlantirish, O'zbekistonda iqtisodiyotni boshqarish milliy modelini yaratish va boshqa ilmiy g'oyalarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Olim "Fan to'g'risida"gi, "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi qonunlari loyihalari bo'yicha Oliy Majlisning tegishli qo'mitalariga o'z fikr va mulohazalarini taqdim etgan. Shuningdek, professor Sh.Zaynutdinov o'zi yaratgan darslik va o'quv qo'llanmalar bilan O'zbekistonda iqtisodchi kadrlar tayyorlash, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI" asosida amaliyotga joriy etishda ulkan hissa qo'shib kelmoqda.



Professor Sh.Zaynutdinov deyarli 20 yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi

hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi professor-o'qituvchilar malakasini oshirish markazida mashg'ulotlar olib bordi. U o'z malakasini oshirish uchun ko'p xorijiy davlatlarda, jumladan, AQSH, Turkiya, Indoneziya, Gretsiya, Hindiston va boshqalarda bo'lgan. Olim 1995-1997 yillarda Jahon bankinging ijtimoiy siyosat, ijtimoiy dastur va ijtimoiy loyiha masalalari bo'yicha O'zbekistondagi eksperti bo'lgan.



Professor Sh.Zaynutdinov jamoat ishlarida ham qatnashgan. U 1989-2001 yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi "Ilmiy-amaliy koordinatsion kengash" raisi, 2001-2005 yillarda "O'zbekiston-Polsha do'stlik jamiyati" a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi maxsus ilmiy kengashlarning "Menejment" mutaxassisligi bo'yicha a'zosi bo'lgan, Oliy attestatsiya komissiyasining iqtisodiyot fanlari bo'yicha eksperti sifatida qatnashgan. U 30 dan ortiq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarga opponentlik qilgan.



Professor Sh.Zaynutdinov 1992 yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan iqtisodchi”, 1999 yilda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim a‘lochisi” unvonlarini olgan. U Rossiya davlat mehnat va bandlik akademiasining haqiqiy a‘zosi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi. filiali, Toshkent arxitektura va qurilish institutining “Faxriy professori” diplomlariga ega. 2005 yilda “World’s 2000 Outstanding Scientists of the 21st Century” – 21-asrning dunyodagi 2000 ta kuchli olimlar ro‘yxatiga kiritilgan va buni tasdiqlovchi diplomini olgan. Bir qator xorijiy va respublika jurnallarining tahrir kengashi a‘zosi.



“Menejment” fani fidoiysi, keng qirrali va sermahsul olim hozirda ham ko‘plab global iqtisodiyotning turli yo‘nalishlarida ilmiy ishlar, maqolalar chop ettirmoqda. Shoira

Sanobar Faxriddinovaning 2019 yilda chop etilgan “Jonim fido” deb nomlangan kitobining 3-jildida professor Sh.Zaynutdinov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Ilm ham ibodatdir” nomli maqolasi berilgan. Bugungi kunda professor Sh.Zaynutdinov doktorlik dissertatsiya ustida ishlayotgan yosh olimlar, jumladan Z.A.Ashurov, B.N.O‘rinov va boshqalarni tayyorlashda ham charchamasdan xizmat qilib kelmoqda.



Professor Zaynutdinov Shavkat Nuritdinovich ibratli oila boshlig‘i, fidoiy, kamtarin inson, jonkuyar olim, ustozlik va ilmiy ijodkorlik qobiliyatlari bilan respublika ziyolilari orasida hurmat qozongan. Uning hayoti va ijodi biz shogirdlar uchun katta saboq maktabidir, biz undan ko‘p narsani o‘rganishimiz lozim. Shogirdlar va farzandlar baxtiga doimo serg‘ayrat va salomat bo‘ling ustoz.




G'AFUROV IBROHIM

**O'zbekiston qahramoni, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
filologiya fanlari nomzodi**

Adabiyotshunos olim, yozuvchi, adabiy tarjimon, jamoat arbobi Ibrohim G'afurov 1937-yil 27-dekabrda Toshkentda hunarmand nonvoy Usmon G'afurov hamda chevar Muharram Ibodova oilasida tug'ildi. O'rta maktabni bitirib, O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirdi. 1961-yilda universitet tahsilini o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi mutaxassisligi bo'yicha tugalladi. Davlat badiiy adabiyot nashriyatida 1961-yildan e'tiboran muharrir, bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida 1982-yil avgustiga qadar xizmat qildi. 1982 yil avgust oyidan "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftalik gazetasida bosh muharrir o'rinbosari lavozimida 1996 yilga qadar ishladi.

Mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan faol shug'ullandi. Bir guruh atoqli ziyolilar vakillari qatorida "Milliy tiklanish demokratik partiyasi"ni tuzish, tashkil etishda

jonbozlik ko'rsatdi. 1996 yilda shu yangi tashkil bo'lgan siyosiy partiya Markaziy kengashi raisining birinchi o'rinbosari va ko'p o'tmay partiya qurultoyida raisi qilib saylandi. Siyosiy partiyaning Oliy Majlisga saylovlarida qatnashdi.



1996 – 2005 yillarda partiyadan saylangan Oliy Majlis deputati, fraksiya raisi, matbuot qo'mitasi raisining o'rinbosari bo'ldi. Istiqlol milliy qonunchiligining rivojlanishi, qonun ijrochiligining umumxalq ichiga singib borishi,

milliy qonunchilik uslubining mustaqillik asosida teran o‘shishiga o‘z hissasini qo‘shdi.



Talabalik chog‘laridanoq adabiy-badiiy ijod bilan faol mashg‘ul bo‘ldi. 1957 yildan ilk hikoyalari, maqolalari matbuot sahifalarida ko‘rina boshladi. “Go‘zallikning olmos qirralari” deb nomlangan birinchi kitobi 1963-yilda bosilib chiqdi. O‘quvchilar o‘rtasida bu o‘ziga xos uslubda yozilgan kitob qizg‘in kutib olindi, adabiy muhokamalarga sabab bo‘ldi. Shundan boshlab orada o‘tgan uzoq yillar davomida Ibrohim G‘afurov o‘z ijodida zamonaviy o‘zbek adabiyotida kechayotgan XX asr jarayonlarini jahon adabiyotlari jarayonlariga muqoyasan tahlil va tadqiq qilib keladi, milliy o‘ziga xoslik, insonda mehr-oqibat qanday ma‘naviy yaratuvchilikka asos kabi namoyon bo‘lishini adabiy obrazlar hamda badiiy fikr o‘zgarishlarida kuzatadi va e‘tiborga sazovor umumlashtirishlar, xulosalarga keladi.



U ayniqsa adabiy avlodlarning maydonga kirib kelishlari, rang-barang izlanishlari, tajribalarining o‘ziga xosliklari, adabiyotda mustahkam o‘rin olish uchun kurashlarini boy amaliyot orqali tinmay kuzatadi. Oqimlarning xarakterli qirralarini topadi. Talantlarning

o‘shishida juda zarur omillarni qidiradi. Bularda u istiqlol ma‘naviyati, madaniyati, XX asrda urf bo‘lgan axloq, yangicha insoniy qarashlarning shakllanishi, yangicha ong uyg‘onishini izchil e‘tiborda tutadi. Muttasil suratda inson va narsalar realizmi ustida keng misollar doirasida fikr yuritadi.

Bu masalalar hamon dunyo adabiyotlarida o‘ta dolzarb va uning maqolalari, esselari hamon qiziqish bilan o‘qiladi, Adabiyot haqida go‘zal va qimmatli tasavvurlar uyg‘otadi. Ibrohim G‘afurovning “O‘ttiz yilning izhori” kitobi (1987) adabiyot sohasida Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi (1989). Yoshlar adabiyoti muammolarini jo‘shqin ko‘tarib chiqqan “Yonar so‘z” (1973) kitobi Yoshlar tashkilotining mukofoti bilan taqdirlandi (1973).




U O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining a‘zosi. Ikki chaqiriq O‘zbekiston Oliy Majlisi deputati (1996 – 2005 yillar). Nashriyotchilik faoliyati uchun SSSR Matbuot a‘lochisi unvoniga sazovor bo‘lgan, Turli yillarda davlatning “Do‘stlik” (1997), “Mehnat shuhrati” (2007), “Fidokorona xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan. “O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi” (2017), “O‘zbekiston Qahramoni” (2021) unvonlari bilan mukofotlangan. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega. XX1 asr kirib, Ibrohim G‘afurov Milliy universitet Xorijiy filologiya fakultetida, Jahon tillari universitetlarida bakalavr va magistr larga badiiy tarjima Mutaxassisliklari bo‘yicha yosh talabalarga ma‘ruzalar o‘qidi, ularni amaliyotga

kirishlariga yaqindan yordam berdi.




Badiiy tarjimada badiiy usul boyligi ustida keng tasavvurlar va qarashlar uyg‘onishiga harakat qildi. Adibning 80 yilligi arafasida uning 8 jildlik “Inson va adabiyot ta’limoti” degan asarlar majmuasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning lutfan yozgan debochasi bilan nashr etildi. Bu adib ijodining o‘ziga xos ijodiy sarhisobi bo‘ldi. Adib o‘zini ulug‘ adabiy ijodiy jarayonlar, yangilanishning buyuk tamoyillari ichidagina o‘zini ma’noli hayot egasi deb hisoblaydi. Har kimga serma’no hayot nasib bo‘lishini tilaydi. U original badiiy adabiyot bilan badiiy tarjimaning noyob va nihoyatda yaxlit hodisa deb qaraydi. Chunki ular doimo bir-birlarini o‘zaro boyitib, rivojlantirib, to‘ldirib va demak jozibali qilib boradilar.



Ibrohim G‘afurov dunyo milliy adabiyotlari mumtoz namunalarini ko‘p tarjimalar qildi. Dostoyevskiyning barcha asosiy romanlarini mehr-muhabbat bilan o‘zbekchalashtirdi. “Panchatantra”-“Besh muqaddas kitob”ni o‘zbekchada bunyod qildi. Konfutsiyning ilk bor o‘zbekchada tanishtirdi. Ayniqsa u o‘zining Jeyms Joysning “Uliss” hamda Markesning “BUZRUKNING KUZI”. Nitshening “ZARDUSHT TAVALLOSI” asarlari tarjimasini hayotining, ijodning shoh sahifalari deb biladi. Shularni sof o‘zbek tilida o‘zbek xalqiga hadya qilib qoldirmaganimda umrim nazarimda chala-kemtik bo‘lib qolardi deb o‘ylaydi.



Chingiz Aytmatov romanlari Ibrohim G‘afurov o‘zbekchalashtirganlari-chi? Qirg‘iz do‘stlarimiz bu tarjima va tadqiqotlarni Chingiz Aytmatov akademiyasi faxriy akademigi unvoniga manzur ko‘rishdi. Eng ilk ilohiy kitob “Ayyub nidosi”—chi! Men bu kabi kitoblarni yangi o‘zbek oppoq yostig‘ining tagiga qo‘yib o‘qishini naqadar orzu qilaman. Axir faqat shu holdagina u chin RENESSANS- O‘ZBEK bo‘ladi. Bu esa hammamizning eng qutluq o‘mol-jamolimiz. Yana karvon-karvon esselar, publitsistik maqolalar, renessans ishqidagi aks sadolar., hammasini qanday sig‘dirasiz bir parcha ma’lumotga! Eng muhimi, ona yurtimiz omon bo‘lsin!



SHAUMAROVA MUHAYYO
Texnika fanlari nomzodi, professor

Mexanik olim, professor, Muhayyo Shaumarova 1939 yil 10 mayda Toshkent shahrida tavallud topgan. O'rta maktabni imtiyozli tugatib, avtomobil ustasi, mohir haydovchi bo'lgan otasi tufayli yoshligidan texnikaga qiziqqan. 1956 yili ulug' matematik olim Qori-Niyoziy suhbatidan o'tib, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti (TIQXMMI) ning "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetiga o'qishga kirgan.



1961 yilda institutni injener-mexanik mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatli bitirgan M.Shaumarovani O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligining buyrug'iga asosan TIQXMMI'da o'qituvchilik lavozimida ishda qoldirilgan. Ammo, O'z FA Mexanika ITIning

maxsus taklifiga binoan mazkur institutga ishga yuborilgan. U yerda akademiklardan M.T.O'razboyev, V.Q.Qobulov, H.H.Usmonxo'jayev, J.F.Fayzullayev kabi buyuk olimlar bilan birgalikda mehnat qilib, injener, aspirant, kichik va katta ilmiy xodim bo'lib ishlagan. Mexanika fani bo'yicha chuqur bilimlar orttirgan, tadqiqotchilik mahoratini egallagan.



1965-1968 yillari aspiranturada professor A.D.Moshkov va prof. A.D.Glushenko ilmiy rahbarligida "Issledovaniye dinamicheskogo vozdeystviya xlopchatnika na shpindelno-vertikalno — shpindelnix xlopkouborochnix mashin" mavzusidagi dissertatsiyasini O'z FANing

fizika-texnik ilmiy kengashida himoya qilgan. Texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan.



O‘z FA Mexanika institutida, ya’ni katta ilmiy dargohda olgan bilimlarini o‘quv jarayoniga tadbiiq qilish niyatida 1973 yil M.Shaumarova TIQXMMIning “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” kafedrasiga o‘qituvchilikka taklif qilingan. 1973 yildan hozirgacha dotsent, professor lavozimida ishlab kelmoqda. O‘qituvchilik faoliyatida M.Shaumarovanning qobiliyatlari to‘liqroq ochildi. TIQXMMIdagi eng faol murabbiylar qatoridan o‘rin oldi. Jamoa ishlarida faol qatnashib, fakultetning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Institut “Bilim” jamiyatining raisi sifatida o‘qituvchilar malakasini oshirishda ko‘p ishlar qildi.

M.Shaumarovaga 2001 yilda TIQXMMIda xizmat ko‘rsatgan dotsent faxriy unvoni berildi. 2009 yilda professor ilmiy unvoni berilgan.



O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganidan so‘ng, ilgari faqat rus tilida o‘qitilgan “Qishloq xo‘jaligi mashinalari”

fanini Davlat tilida o‘qitish muammo bo‘lib qoldi, chunki o‘zbek tilida yozilgan darsliklar yo‘q edi. Bu muammoni yechishda M.Shaumarova ko‘p samarali xizmat qildi. Avvalo, “Qishloq xo‘jaligi mashinalari ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati”ni (hammualliflikda) tuzdi.

Oliy ta’lim muassasalari uchun “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” darsligi va “Qishloq xo‘jaligi mashinalaridan praktikum” o‘quv qo‘llanmasi ilk bor o‘zbek tilida yaratildi.



Mazkur darslikning ikkinchi va uchinchi, qo‘llanmaning ikkinchi nashrlari ham yaratilib, Respublikamizdagi Qishloq xo‘jaligi institutlarida va Texnika universitetlarida asosiy darslik sifatida, ilmiy xodimlar va doktorantlar uchun ilmiy manba bo‘lib foydalanilmoqda. Bundan tashqari kollejlarda uchun 15 dan ortiq darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratgan. Kollejlarda uchun darslikni qoraqalpoq tilida chop ettirgan. Kollejlarda va oliy ta’lim uchun yozilgan “Qishloq xo‘jaligi mashinalari” darsligining ikkinchi nashri “Yilning eng yaxshi darsligi o‘quv adabiyoti muallifi” Respublika tanlovida I-II-o‘rinlarni egallab g‘olib deb topildi.

M.Shaumarovanning ilmiy ishlari Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash va ularni ishlatish, tiklash masalalariga bag‘ishlangan. Olima qishloq xo‘jaligi mashinalarining texnologik jarayonlari va sifat ko‘rsatkichlarini shakllantirgan. 2006-2011 y.y. O‘zbekistonda noan’anaviy o‘simlik bo‘lgan “Topinambur yetishtirishni mexanizatsiyalash” mavzusidagi

davlat grantiga rahbarlik qilib, modernizatsiyalashgan ekish va kovlash mashinasini yaratgan. Kovlash mashinasi lemexiga foydali model olindi. 2 ta nomzodlik dissertatsiyasiga rahbar bo‘ldi. U bugungi kunda ham ilmiy maqolalari asosida metodik qo‘llanmalar, darsliklar va paxta terish mashinasi apparatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda.



Sermahsul olima 280 tadan ortiq ilmiy maqola (shundan 10 tasi SCOPUS jurnallarida bosilgan), ixtirolari uchun 6 ta guvohnomalarini olgan. 30 dan ortiq magistrarga ilmiy rahbarlik qilgan. Xalqaro anjumanlarda ma‘ruzalar bilan qatnashib, tajribali uslubiyotchi sifatida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ta‘lim sohasining Davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etgan.



Asosiy ishiga qo‘shimcha TIQXMMI dagi ixtisoslashgan ilmiy kengashi ilmiy-texnik seminarining a‘zosi sifatida qishloq va suv xo‘jaligini mexanizatsiyalash ixtisosligi bo‘yicha yozilgan dissertatsiyalarni ekspertiza va opponentlik qilishda faol ishlab kelmoqda.

M. Shaumarova bilimdon tadqiqotchi va o‘ziga hamda hamkasblariga nisbatan o‘ta talabchan mexanizator olima. O‘z kasbiy mahoratini oshirish ustida uzluksiz ishlaydigan,

kamtarin, mehnatsevar inson, yoshlarning g‘amxo‘r murabbiysi.

M. Shaumarova “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti hamda institut reytingini ko‘tarish ustida tinmasdan faol xizmat qilayotgan shaxsdir.



Olimaning ilmiy pedagogik faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U bir necha marta O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Faxriy yorliq”lari, “Mustaqillikning 20 yilligi”, “Mustaqillikning 25 yilligi” ko‘krak nishonlari bilan, 2020 yilda “Mehnat shuhrat” ordeni bilan mukofotlandi. 2024 yilda Mehnat Faxriysi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim va Innovatsiya Vazirligi a‘lochisi ko‘krak nishonlari, O‘zbekiston Respublikasining 33 yilligi bayrami munosabati bilan “Ma‘naviyat va ma‘rifat” markazi tomonidan “Ma‘naviyat fidoiysi” ko‘krak nishoni bilan mukofotlandi.



M. Shaumarova 4 o‘g‘il va 4 kelinning onasi, 12 nabira, 3 nabira kelin, 2 nabira kuyov va 7 ta abiraning muhtaram Buvijonisidir.



SHAXMUROVA GULNARA ABDULLAYEVNA

Biologiya fanlar doktori, professor

G.A.Shaxmurova universitetda 1988 yildan buyon o‘zining pedagogik faoliyatida eng tajribali va fidoyi pedagoglardan hisoblanadi. Mehnat staji 36 yil. Mazkur vazifada 1988 yildan ishlamoqda.

O‘zbekistonda Oliy o‘quv yurtlarida anatomiya, fiziologiya va immunologiya fanlarini o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha biologiya fanlari doktori G.A.Shaxmurova 1965 yil 26 noyabrda Toshkent shahrida tug‘ilgan.




O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, yuksak mahoratli pedagog, “Xalq ta’limi a’lochisi”, yuksak mahoratli pedagog, biologiya fanlari doktori, professor



G.A.Shaxmurova ish faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga muvofiq biologiya ta’lim yo‘nalishi, jumladan,

anatomiya fani bo'yicha so'nggi xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalangan innovatsion ta'limni joriy etishda samarali mehnat qilib kelmoqda.

Uning butun mehnat faoliyati mazkur ta'lim muassasasi bilan bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, mustaqil fikrli, keng dunyoqarashga ega barkamol avlodni tarbiyalash borasida samarali mehnat qilib kelmoqda.



Serqirra olim ilmiy-pedagogik faoliyati davomida 400 dan ortiq ilmiy va o'quv adabiyotlar chop ettirgan, shulardan nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda 110 dan ortiq ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Olim asosan Respublikamizdagi Oliy o'quv yurtlarida rus guruhlarida anatomiya, fiziologiya, immunologiya fanlarini o'qitish jarayonida birqancha salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda faol qatnashadi. Jumladan, oxirgi 3 yilda xalqaro Scopus jurnallarida 10 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirgan.



G.A.Shaxmurovaning ilmiy ishlari natijalari Xalqaro (Buyuk Britaniya, Bolgariya, Vengriya, Kanada, Turkiya, Chexiya, AQSh,

Koreya, Hindiston, Indoneziya, Gollandiya), MDH (Armaniston, Belorussiya, Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston) va Respublika miqyosida o'tkazilgan ko'plab ilmiy va amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan.



Prof. G.A.Shaxmurova tomonidan chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarning har bir mavzusi oxirida ilg'or pedagogik texnologiyalardan talabalarning mustaqil o'qishini tashkil etish va o'z-o'zini baholash bo'yicha ko'p tanlov javobli test topshiriqlari ishlab chiqilgan. Bu esa talabalarni fanlardan bilim olishini yengillashtiradi va ularni fikrlashga o'rgatadi, o'qituvchi mehnatini esa yengillashtirib, uning samarasini oshiradi.



Oliy o'quv yurtlari uchun "Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi" (o'quv qo'llanma, 2009 yil), "Valeologiya asoslari" (o'quv qo'llanma, 2010 yil), "Patologik anatomiya" (o'quv qo'llanma, 2012 yil), "Sport anatomiya" (o'quv qo'llanma, 2009 yil), "Immunologiya" (o'quv qo'llanma, 2020 yil), "Odam

anatomiyasi va fiziologiyasi” (o‘quv qo‘llanma, 2021 yil), “Biologiyadan masala va mashqlar yechish” (o‘quv qo‘llanma, 2017 yil), “Эффект фитостероидов на корреляционные взаимосвязи в иммунной системе в норме и при вторичных иммунодефицитах” (monografiya, 2016 yil), “Yosh avlodning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanish uchun uzluksiz ta’lim tizimida salomatlikni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish” (monografiya, 2018), “Anatomiya” (darslik, 2022 yil), Odam anatomiyasi va fiziologiyasi (darslik, 2023) yaratgan.



G.Shaxmurova universitetning jamoat ishlarida faol ishtirok etadi. Universitetda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy va ijodiy to‘garaklar faoliyatini samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan ilmiy-amaliy seminarlarda muntazam chiqishlar qiladi.

G.A.Shaxmurova 2019-2024 yillarda Biofizika va biokimyo instituti huzuridagi 03.00.08- Odam va hayvonlar fiziologiya ixtisosligi bo‘yicha fan nomzodi va fan doktori

ilmiy darajalarini beradigan ilmiy kengashi a‘zosi.



Qozog‘iston Respublikasidagi TOP 1000 talikka kiradigan universitetlar (Al-Farabi nomidagi Qozog‘iston Milliy universiteti, Abay nomidagi Milliy pedagogika universiteti, M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti) bilan hamkorlikni rivojlantirishda o‘zining hissasini qo‘shib kelmoqda

Oilaviy uchta farzandi bor.



Mundarija

Asqarov Ahmadali	6
Abduhalimov Bahrom Abdurahimovich	9
Abdazimov Anvar Daniyarovich	12
Abdikarimov Rustamxan Alimxanovich	16
Abdullayeva Marg'uba Dusmiratovna	23
Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich	26
Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi	30
Abduvaliyev Muhammadjon Arabovich	34
Abilov O'rol Murodovich	38
Ahmedova Laylohon Tolibjonovna	40
Akramova Shaxnoza Abrorovna	44
Amonboyev Maxammadsidik Amonboyevich	48
Avliyakov Mirzoolim Avazovich	51
Azizova San'at Sabirovna	55
Axmedova Dilorom Ilxamovna.....	58
Babayev Tuyg'un Mirzaaxmedovich	63
Babajanova Diloram Babajanovna	62
Baratov Sharif Ramazonovich	71
Bazarov Dilshod Rayimovich	73
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich.....	76
Bekova Nazora Jorayevna	79
Bobomurodov Shuxrat Mexribonovich	82
Boboyev Sayfulla G'afurovich	86
Boboyev Sobirjon Murodullayevich	89
Butikov Igor Leonidovich	93
Davranov Qaxramon	98
Dodaxo'jayev Abdulla Tursunovich	103
Egamberdiyeva Nodira Melibayevna	107
Erkinov Aftondil Sadirxanovich	112
Gafurova Lazizaxon Akramovna	116
Hamidjon Homidiy	120
Hamroyeva Orzigul Jalolovna	123
Hamzayev Abdushukur Xudoyqulovich	127

Hasanov Botir Achilovich	131
Hoshimxonov Mo‘min	133
Ibadullayev Axmadjon Sobirovich	136
Isakulova Nilufar Janikulovna	139
Isayev Rixsi Isoxo‘ja o‘g‘li	142
Isayev Sabirjan Xusanbayevich	145
Ismailov Mirxalil Agzamovich	148
Ivatov Irisbek	151
Izzatullayev Zuvaydullo	153
Jo‘rayev Olimjon	156
Jo‘rayev Toshbolta To‘xtayevich	159
Kadirova Munira Rasulovna	162
Karimova Vasila Mamanosirova	165
Kayimov Abdixalil	167
Kurbaniyazova Zamira Kalbayevna	170
Kurbonova Gulnoz Negmatovna	172
Madraximova Feruza Ruzimbayevna	174
Magrupov Talat Madiyevich	178
Mamanazarov Abduhakim Bozorovich	182
Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich	188
Miralimov Mirjamol Miraxmedovich	191
Mirsaatov Ravshanbek Muminovich	196
Mo‘minova Lola Raximovna	200
Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich	204
Musayeva Nodira Maxmudovna	209
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	212
Mustafayev Shomurod Normo‘minovich	215
Muxammadiyev Komil Burxonovich	217
Muxitdinova Xadicha Sobirovna	220
Nasirova Malika Anvarovna	225
Nizomiddinov Najmiddin G‘ulomovich	228
Nizomov Rustam Axrolovich	230
Ochilova Baxti Murodovna	235
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich	240
Pardayeva Zulfiya Jo‘rayevna	244

Parpiyev G'ofurjon Toxirovich	250
Po'latov Abdimajid Qayumovich	256
Qodirov Botir Rahmonqulovich	259
Qodirov Dilshod Botirovich	265
Qodirov Kamoliddin Botirovich	268
Qoraboyev Ikromjon To'rayevich	271
Qosimov Abdug'afur Abdulkarimovich	274
Rahmonov Bahodir Sobirovich	276
Rajabov Dilshod Zaripovich	280
Rasulova Xurshidaxon Abduboriyevna	283
Raximov Baxtiyorjon Ne'matovich	288
Raxmatova Xayrixon Ashiraliyevna	291
Raxmatqulov Murod Said-Akbarovich	293
Rizayev Anvar Abdullayevich	296
Sadikova Zumrat Shavkatovna	300
Safarov Shaxriyor Safarovich	302
Saifnazarov Ismoil	306
Salohiddinov Abdulhakim Temirxo'jayevich	310
Salomov O'ktam Raximovich	315
Samarov Rustamjon Sadriddinovich	319
Sodiqov Qosimjon Pozilovich	323
Tashatov Allanazar Qarshiyevich	327
Tashmatova Azatgul Raximovna	333
Tashmuxamedova Dilnoza Artikbayevna	338
To'rayev Halim	341
To'xtayeva Zebo Sharifovna	345
To'xliyev Boqijon	349
Turabov Nurmuxammat Turabovich	352
Turayev Baxtiyor Omanovich	355
Tursunmuratov Turdimurod Maxamatqulovich	358
Tursunov Sobir Turdiyevich	363
Ulug'ov Abdulla O'zbekovich	366
Usarov Maxamatali Koraboyevich	370
Uzakov Gulom Norboyevich	373
Vaxabov Abduraxim Vasikovich	377

Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna	382
Xalimova Xanifa Muxsinovna	387
Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna	390
Xalmanov Nurali Tashkuvatovich	393
Xo‘jayev Shamil Tursunovich	396
Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich	398
Xolmo‘minov Ja‘far Muhammadiyevich	402
Xushvaktova Xusnobod Soliyevna	408
Xushvaqov Nabi Olimovich	410
Yarkulov Rauf	413
Yarmatov Raximboy Baxramovich	417
Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna	419
Yo‘ldosheva Saodat Manofovna	423
Yuldashev G‘ulomjon	426
Yo‘ldoshyev Qozoqboy	429
Yunusov Miraxmad Pulatovich	434
Yusupov Konisbay Abilovich	438
Yusupova Dilnavoz Rahmonovna	443
Yusupova Dilorom Yunucovna	446
Yusupova Mavlyuda Aminjanovna	452
Zaynutdinov Shavkat Nuritdinovich	456
G‘afurov Ibrohim	461
Shaumarova Muhayyo	464
Shaxmurova Gulnara Abdullayevna	467



O‘zbekistonning taniqli olimlari ensiklopediyasi 2024-yil to‘plami

Loyiha rahbari va bosh muharrir
Baxtiyor Rustamov

Mas’ul muharrir
Gulira’no Raxmatullayeva

Texnik muharrirlar
**A.Rustamov, H.Qodirov, J.Rahmatullayev, Sh.Fayzullayeva,
D.Narzullayeva, Z.Xakimova, J.Utepova, F.Ollamurodova**

Tahrir hay’ati
**D.Sharipova, Sh.Yo‘ldoshev, D.Ximmataliyev, J.Jo‘rayev,
D.Eshmurodov, X.Idrisov**



“Science and innovation” MCHJ

Litsenziya №:285829 27.05.2024

Bosmaxonaga berildi: 14.08.2024. Bosishga ruxsat etildi: 25.10.2024.

Bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma taboq: 55.34. “Times New Roman” garniturasini, Ofset bosma.

Adadi: 1000 dona. Buyurtma №56

Manzil: 100155, Toshkent shahri, Sergeli tumani, Quruvchi dahasi, 22/43.

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998901259654